Шу боис у кўпчиликнинг олдида Суйеў бахши йўлига «Ола қайиш», «Ешбай», «Кўр қиз», «Азизим», «Гелалайлим», «Қошим полвон», «Хошаддес» куйларин, Муса йўлига «Муса сен ёри», «Сен ёр қол энди», «Сен ёр гедали», «Адингнан», «Санали гелди», «Беглар», «Бормикан», «Мухаллес», «Якка бошли», «Ғубаддин» ва Г.Тилеумуратовдан ўрганган «Лайлай», «Қизлар уйга кир» куйларин, шунингдек, «Арухон», «Беш парда», «Не фойда», «Кенесли тон», «Нолиш», «Калта нолиш», «Хўжа боғмон», «Дағлари», «Саудигим», «Нойларман», «Ғулпак», «Ёмон чиғанақ», «Илғол» ва бошқа эллиқдан ортик халқ куйларин маромига етказиб куйлай олиши миллий бахшичилик санъатимизнинг ривожланишига қўшган салмоқли ҳиссаси бўлди. Тўртинчидан, Т.Қурбановнинг яна бир хусусияти – у шогирд тайёрлашга ҳам катта эътибор берди. Қораўзакли Умрзак Қудайбергенов, Шўманайли Қувончбай Хўжаниёзов, Кегейличи Зарип Абдуллаев, Нукуслик Тенелбай Қаллиев, Ортиқбой Ережепов, Гулнара Алламбергенова, Иқласбай Моянов ва бошқа ҳозирги кунда келажагидан умид куттирадиган бахшилар Турғанбай

Курбановни ўзларига устоз деб ҳисоблайди. Бешинчидан, у ўзига замондаш бахшилар ва созандалар бўлган Хўжайлилик Менглибай Пирназаров, Нукуслик Каримбай Тинибаевлар сингари қорақалпоқ миллий бахшичилик ҳунари тўғрисида катта билимга эга, қатиқулок одам бўлиб, у ижрочилик санъатимизнинг тарихида ўчмас из қолдирган вакиллари ҳақида баҳоли маълумотларни, уларни олимларга айтиб бериши орқали бахшичилик ҳунаримизнинг тадқиқ қилинишига ҳам маълум даражада ҳиссасин қўшди. Унинг фикрича, чинакам бахшичилик санъатини ўрганиш учун қўйидагиларни беками-кўст бажариш зарур: тўғри йўлдан юриш, номаъқул ишларга қўл урмаслик, ёмон хулқ-атвордан жирканиш, бошқаларни ҳам шунга даъват қилиш, маҳорат ҳунарин узлуксиз такомиллаштириб бориш, инсонийлик фазилатларни жирлаш, одамийликга ёт ҳаракатларни очкор қилиш. Демак, буларга суянган ҳолда айтиш мумкинки, миллий ижрочилик санъатимизда, шу жумладан бахшичиликда асрдан-асрга устоз билан шогирд ўртасидаги ўзаро муносабатнинг мораллик кодекси шаклланган, бу ўз навбатида шу соҳада шогирд тайёрлашда, маҳорат анъаналарининг узвийлигида ўзига хос қонун йиғиндиси сифатида ўрнашиб улгурган, шу боис миллий бахшичилигимизнинг ўзига хос беткарор фалсафасин пайдо қилган. Шундай экан, илоҳий иқтидорга, чидамга ва ўз устида тинимсиз ишлашга интилган ҳар бир бахши бунга илоҳий нарса сифатида бўйсунган.[4]

Мана шундай халқимиз орасида кўзга ташланиб келаётган бахшилардан: Ўзбекситон халқ бахшилари Ғайрат Утемуратов ва Тенел Қаллиев, Қорақалпоғистон Республикасига хизмат курсатган маданият ходими Инжигул Сабурова, Қорақалпоғистон халқ бахшилари Зиёда Шерипова, Гулнара Алламберганова, Гулбаҳор Ақимбетова, Зулфия номидаги давлат мукофоти совриндори Улбосин Ўринбоеваларнинг меҳнатларига қизиқиб, ёшларимиз мен ҳам шулар каби келажакда машҳур бахши бўламан деб, ўзининг маънавий маданиятини бойитишига таъсир қилиши шубҳасиз.

Шунинг билан бирга ўсиб келаётган ёш авлодни миллий мусиқа маданиятимиз, хусусан, таъкидлаб ўтилган фольклор ҳамда мумтоз санъати билан ҳар томонлама ва пухта таништириб бориш, шу орқали уларда миллий ғоя, миллий нафосат, миллий маданиятни қарор топтиришда муҳим аҳамият касб этиши шубҳасиз. Халқ қўшиқлари, мумтоз асарлари фақатгина эстетик завқ олиш манбаи бўлиб қолмай, ўзига хос қудратли таълим-тарбия воситаси ҳамдир.

Шунга кўра, ўсиб келаётган ёш авлод маънавиятига аجدодларимизнинг асрлар давомида мисқоллаб орттирилган, даврлар синовидан муваффақиятли ўтиб келаётган мусиқий бойликларни сингдириб бориш орқали уларда замонавий мусиқага онгли муносабатни шакллантириш ҳақиқий мусиқа маданиятини қарор топтириш мумкин. Зотан, халқ мусиқасини ҳис этмасдан замонавий мусиқани идрок этиш мумкин эмаслигини тўғри англаш ва шунга кўра иш тутиш, мусиқа таълими ва тарбияси билан шуғулланувчи педагог-мураббийлар ва соҳа мутахассисларининг энг муқаддас бурчидир.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги «Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3907-сон қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 17-ноябрдаги “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3391 сонли қарори;
3. Моянов Ықласбай «Музыка сырлы дунья», «ЕРКИН ҚАРАҚАЛПАҚСТАН» газетасы 2022-жыл 27-октябрь №129 (20839).
4. Нуржанов. П. «Бақсышылық мектебиниң белгили ўэкили», «ЕРКИН ҚАРАҚАЛПАҚСТАН» газетасы 2006-жыл 5-декабрь №146.
5. Jiyeubaevich M. I. Competence-based approach in higher musical and professional education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 4. – С. 42-47.
6. Jiyeubaevich M. I. The evolution of music pedagogy of the karakalpak people: Historical and theoretical aspects //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 27-32.
7. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
8. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 196-203.
9. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
10. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 509-511.

## O'QUVCHILARDA VOKAL-XOR MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYAT

**Kalliev Abatbay Nagmetullaevich**

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali, Ulıwma kásiplik hám social-gumanitar pánler kafedrası professor.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8409417>

*Annotatsiya. O'quvchilarda vokal-xor malakalarini rivojlantirishning ahamiyati, Vokal-xor malakalarini shakllantirishning maqsadi, boshlang'ich sinflarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish, boshlang'ich sinflarda kuylash malakalarini shakllantirish orqali ularni kasbga yo'naltirish.*

**Kalit sózlar:** vokal, xor, musiqa, qoshiq kuylash, kompozitsiya, musiqa san'ati, xissiyotlar.

### THE IMPORTANCE OF DEVELOPING VOCAL AND CHORAL SKILLS IN STUDENTS

*Abstract. The importance of developing vocal and choral skills in students, the purpose of forming vocal and choral skills, forming singing skills in primary grades, directing them to the profession through the formation of singing skills in primary grades.*

**Key words:** vocal, chorus, music, spoon singing, composition, music art, emotions.

### ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ

*Аннотация. Значение развития вокально-хоровых навыков у учащихся, цель формирования вокально-хоровых навыков, формирования певческих навыков в начальных классах, направление их в профессию через формирование певческих навыков в начальных классах.*

**Ключевые слова:** вокал, хор, музыка, пение на ложках, композиция, музыкальное искусство, эмоции.

Musiqa ta'limining katta e'tibor bergan O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasidagi olim Al-Farobiy yosh avlodni tarbiyalash o'qitish masalalariga ko'plab ilmiy va amaliy g'oyalar bildiradi. U shuningdek, musiqa nazariyasining asoschisi hamdir. Taniqli olim, faylasuf, musiqashunos Jomiyning "Risolai dar ilmi musiqa" nomli kitobida kompozitsiya, lad, ritm nisbatlari haqida yozilgan. O'zbek shoiri Alisher Navoiy ham musiqa san'ati sohasida nixoyatda katta bilimga ega bo'lgan edi. Uning musiqaviy estetik qarashlari "Sabbai-Sayyor", "Maxbub-ul qulub", "Xamsa" kabi asarlarida aks etgan.

Barcha xalqlar qatori o'zbek xalqi ham qadimdan o'zining boy milliy ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlar va an'alariga ega bo'lib kelgan tarixan juda o'tmishga borib taqaladigan boy musiqiy merosga ega. O'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati va salohiyatini belgilovchi xususiyatlarini belgilovchi uning musiqasi, kuy va qo'shiqlaridir. Bu milliy musiqiy merosi nihoyatda boy va ko'p janrlidir.

Musiqiy xisni barcha yoshlarda rivojlantirish mumkin. Iste'dodni ma'lum sharoitda ustirish mumkin. Inson nerv sistemasi atrof muhit talabiga ko'ra doimiy o'sish va o'zgaruvchanlikda. Musiqani xis eta olishning, ya'ni musiqiy tilni tushinishning, uning ma'nosini idrok etishning - agar bu vazifaga to'g'ri yondoshsa barcha insonlar uchun u yoki bu darajada imkoni bor. Tovush balandligini xis etish, ritm xissi, ladlar xissi, garmonik eshitish va boshqa musiqiy elementlarni

xis etishni rivojlantirish mumkin. Jonli ijro vaqtida musiqiy til orqali borliqni, uning mahnosini tushinishni o'rganish mumkin.

O'quvchini musiqaning ma'nosini ochishga o'rgatish o'qituvchining asosiy vazifalaridan, bu protsessni u musiqiy texnikani o'zlashtirishi bilan bir vaqtda olib borishi shart.

Musiqqa inson uchun istiroblar, xissiyotlar va obrazlar xaqida so'zlovchi til bo'la olishi kerak. Bu urinda repertuarni to'g'ri tanlash lozim. Repertuarni tanlashdan avval oson tushiniladigan, keyinroq, sekin asta kiyinroq asarlarni tanlash maqsadga muvoffiq.

Xonandani tarbiyalashda ikki vazifani xal etmoq lozim, bular: ijro aparatini ko'rmoq, ya'ni professional kuylovchi ovozni xonandaning "sozini" va unda ijro etmoq, bular bir biri bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu narsa xonandaning musiqiy tarbiyasida muhim va mushkul tomondiki, musiqiy sozlarda ijro etuvchilarni tarbiyalashdan tubdan farq qiladi. Shuning uchun bu etapda o'qituvchi xonandaning sozini yaratadi, - ya'ni "ovozni tarbiyalash" vazifasini bajaradi.

Tarbiyaning boshida ovozni to'g'ri xosil qilishning elementar bilimlari uchun ishlatiladigan mashqlar beriladi va xatto shu ma'nosiz (tekstsiz) mashqlarni xam musiqiy xis bilan ijro etishga axamiyat beriladi. Xar bir xato eng oddiy bilimlar xam elementar ijrochilik vazifalari bilan bog'li bo'lishi lozim. Musiqiy mashqlarni oddiy notalar ketma-ketligi shaklida kuylash mumkin, yoki aksincha rivojlangan musiqiy fikr sifatida kuylash xam mumkin.

Vokalizlarni ijro etayotganda xam, asar ijrosi vaqtida xam, musiqiy obraz birinchi urinda bo'lmog'i lozim. Shunday qilib xonandaning vokal texnikasi birinchi mashqlardan to mukammal ijroga qadar musiqiy tasavvur bilan bog'liklikda bo'lishi kerak.

Quyidagi 3 etap musiqiy bilimni o'zlashtirishda eng muximlaridandir. Ovoz apparati ustida ishlashning to'g'ri yulini tanlash, ikkinchisi shu yo'lni mustaxkamlash jarayonini aniqlash, uchinchisini rivojlantirib, saqlash. Bu uch etapni doim yodda tutish o'qituvchidan talab etiladi, kuylash bilimining ko'pqirrali tomonlarini o'zlashtirish, asarga ijodkorona yondoshishga va ijro erkinligiga erishishga yordam beradi.

O'quvchilar ovoznini to'g'ri tarbiyalash va saklash uchun ular bilan muntazam suhbatlar va tushuntirish ishlari o'tkazib turish lozim. O'quvchilarda musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish uchun, avvalambor ularda musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirish kerak. Musiqiy asarni tinglab, idrok etish uchun asarning kuy yo'nalishi, lad-garmonik tuzilishi, janri va hokazolarni bilishi lozim. Buning uchun nafaqat musiqqa qonunlari, prinsiplari, musiqaning tuzilishi shakida bilish, balki musiqaga nisbatan muhabbat va qiziqish bo'lmog'i darkor. Gohida musiqaning hamma koidalarini biluvchi mutaxassis musiqachini uchratamiz, lekin u musiqaga nisbatan emotsional lokayd bo'ladi. Gohida musiqqa qonun-koidalaridan mutlako behabar, ammo musiqani jonu dili bilan sevuvchi insonlarni ko'ramiz. Shuning uchun musiqiy tarbiyaning yeng asosiy vazifasi o'quvchilarga musiqiy qo'shiq o'rgatish, musiqqa savodi, nota yozuvini o'rgatish emas, balki ularda emotsional ko'tarinqilikni, badiiy-estetik dunyoqarashni, estetik didni shakllantirishdir. Darsda belgilangan asosiy pedagogik maqsadlar, musiqani idrok etish musiqiy faoliyatlar uzviy yaxlitlikda olib borilganda o'quvchilarda musiqiy malakalarni shakllantirish jarayoni samarali kechadi.

Chunonchi:

- musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- musiqani idrok etish malakalarini o'stirish;
- kuylash malakalarini o'stirish;



-musiqa nazariyasi asoslarini o'rgatish;  
-musiqaga ritmik jo'r bo'lish, unga muvofiqharakatlar qilish bilan ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirish;

-musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsida ijodiy tafakkurni shakllantirish va boshqalarga erishadi. Natijada o'quvchilarda musiqa haqida mushoxada yurgizishning boshlang'ich asoslari vujudga keladi.

Musiqiy tarbiya tushunchasini keng va tor ma'nolarda tushunish mumkin. Keng ma'noda-insonning ruhiy ehtiyojlarini, axloqiy tasavvurlarini, g'oyaviy emotsional tafakkurlarini va hayotiy voqealarni estetik baholash xissini shakllantiradi. Tor ma'noda-bu musiqani idrok etish qobiliyatini shakllantirish tushuniladi. Idrok etish qobiliyati musiqaning turli xil jarayonlarida amalga oshiriladi. Musiqani emotsional xis etish, uning mazmun mohiyatini anglash musiqiy madaniyatga ega bo'lgan shaxsga xos fazilatdir. Zero, musiqa o'quvchilarni estetik jixatdan tarbiyalaydi, ularda dunyoga nisbatan o'ziga xos «shaxsiy nuqtai nazar» tarkib topadi, unga (dunyoga) faol va ijodiy ko'z bilan qarash xissi shakllana boradi. Musiqa alohida shaxsga va keng jamoaga ham birdek ta'sir qiladi (emotsional, ijodiy, estetik, g'oyaviy, pedagogik, fiziologik va hokazo). Bu haqida musiqa madaniyati o'qituvchisi doim unutmay, bir xususiyatni shakllantirish hisobiga, boshqasini chegaralab o'tmagan holda dars o'tmog'i lozim.

Biz kurs ishimizda musiqa madaniyati darsi orqali olib borilayotgan musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganib, shunday xulosaga keldikki, bu borada hali anchagina muammolar mavjud. Jumladan, o'quvchilarning bilim doirasini o'zbek va yevropa estrada va vokal asarlarining klassik va zamonaviy uslubiy yo'nalishlarining manyorali ijrosi, yakka va turli guruxlar bilan mustaqil ijodiy ishlash va konsert faoliyatini yurgizish, mikrofonni erkin ishlatish qoidalarin bilish va unga rioya qilish, xonanda ovozining registrari va badiiy texnik imkoniyatlarini, ovozni ishlatish va qo'yish mashqlarini, o'quvchi bilan asar stida ishlab, sahnaga chiqishga tayyorlash kabi ko'nikmalarni egallashi talab etiladi.

Xullas qo'shiq tinglash har bir bolaning o'ziga jalb qiluvchi har tomonlama foydali va samarali natija beruvchi jarayondir. Bolalarda kuylash malakalari bir vaqtning o'zida va bir –biriga bog'liq holda shakllanishi maktab o'quvchilariga musiqa fanlari o'qitishdagi ba'zi uslublarini qayta ko'rish maqsadga muvofiq ekanligini dalolat ko'pincha musiqa o'qituvchilari kuylash malakalari hosil bo'lish jarayonini tarbiyalashda bu malakalarni bir – biriga chambarchas bog'liqligini hisobga olmaydilar, hamda bu malakalarning bir sistemada shakllanishiga e'tibor bermaydilar. Birorta malaka bir –biridan ajratilgan holda rivojlanmaydi.

Bolalarga qo'shiq kuylashni o'rganish jarayonida o'qituvchi o'z bilimini ular ongiga etkazish uchun shunday qulay vaziyat vujudga keladi, bunda eng muhimi o'qituvchi bolalarning musiqani to'g'ri idrok qilishga tayyorlashi yuksak darajada bo'lishi kerak. Bu jarayonning amalga oshirilishida xotari, diqqat va emotsional ko'tarinki ruh yordamga keladi. Pedagogika va psixologiya fanlari shuni ta'kidlaydiki, ijodiyotni rivojlantirishning barcha turlariga bu narsalar bevosita aloqadordir, qolaversa butun o'qish jarayonida bo'larsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Musiqa darslarida xotirani kuchaytirish va rivojlantirishning asosiy uslublaridan biri o'qituvchilarning kichik va qisqa quylash mashqlarini tez – tez takrorlashi va keyinchalik ushbu mashqlarni kengaytirib va kuchaytirib borishidir. Kulash malakalarining shakllantirishida musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan talablardan bir bolalarni ushbu mashqlarga qiziqtirish, bolalarning musiqa olamiga shunday olib kirish kerakki bunda ular o'qituvchining har doimgi

talablaridan zerikmasinlar, agar o'qituvchi o'z xotirasini fahmlay ola bilsa, kuylash malakalarining shakllanishi jarayonining samaradorligi osha boshlaydi. Bu natijaga erishish uchun o'qituvchidan jiddiy mas'uliyat talab qilinadi. Bolalar tetik ko'tarinki ruh kayfiyatida bo'lsalar, ularning fikrlash qobiliyati faollashadi. Shu bilan bolaning musiqani idrok qilishida ham chuqur, emotsional his – tuyg'u holati paydo bo'ladi. Bu holat kuylash jarayonida ijobiy natijalar hosil bo'lishiga olib keladi.

#### REFERENCES

1. Камалова Д.Э. Баспасөзде новелланың жанрлық өзгешелиги (Жанровые особенности новеллы в прессе) [Genre features of the novel in print] // Материалы республиканскоенаучно-практической конференции. – Нукус. Наука. 2019
2. Камалова Д. Э. Баспасөзде новелланың жанрлық өзгешелиги (Жанровые особенности новеллы в прессе) [Genre features of the novel in print] / Д. Э. Камалова //Материалы республиканское научно-практической конференции. – Нукус. Наука. 2019. – С. 18-21.
3. Камалова,Д. Э.Роль художественной детали в каракалпакских новеллах[The Role of Artistic Detail in Karakalpak Novels]. // Донецкие чтения 2021: образование, наука, инновации, культура и образы современности: Материалы VI Международной научной конференции. –Донецк: Изд-во ДонНУ. 2021. –с. 139-142.
4. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
5. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 196-203.
6. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
7. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 509-511.

УДК 616.314-76, 612.314.2, 612.313.31.

## ЧЕКУВЧИЛАРНИНГ ОРГАНИЗМИДА НИКОТИН ТАЪСИРИДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН КЛИНИК-СТОМАТОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАР

Казакова Н.Н.

Каршиева Д.Р.

DSc.

Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институти, Ўзбекистон.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8411498>

*Аннотация.* Ушбу мақолада тамаки таркибидаги никотиннинг инсон организмига зарарли таъсири, клиник-стоматологик ўзгаришлари тўғрисида маълумот берилган.

*Калит сўзлар:* никотин, карбоксигемоглабин, репродуктив тизим.

## CLINICAL-DENTAL CHANGES CAUSED BY NICOTINE EXPOSURE IN THE BODY OF SMOKERS

*Abstract.* This article provides information about the harmful effects of nicotine contained in tobacco on the human body, clinical and dental changes.

*Key words:* nicotine, carboxyhemoglobin, reproductive system.

## КЛИНИКО-СТОМАТОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ, ВЫЗВАННЫЕ ВОЗДЕЙСТВИЕМ НИКОТИНА В ОРГАНИЗМЕ КУРИЛЬЩИКОВ

*Аннотация.* В данной статье представлена информация о вредном влиянии никотина, содержащегося в табаке, на организм человека, клинических и стоматологических изменениях.

*Ключевые слова:* никотин, карбоксигемоглобин, репродуктивная система.

Президент томонидан 24.05.2023 йилдаги **ЎРҚ-844**-сон “Алкоголь ва тамаки маҳсулотларининг тарқатилишини ҳамда истеъмол қилинишини чеклаш тўғрисида”ги Қонун имзоланди.

Тамаки маҳсулотларини истеъмол қилиш инсон саломатлиги учун зарардир. Ҳозирги кунга келиб, дунё миқёсида чекувчилар сони тобора ортиб бормоқда. Ёшлар ва хотин-қизлар орасида кашандаликнинг тарқалиши эса жуда аянчли ҳолдир.

Замонавий тиббиёт натижаларига суянган ҳолда шуни аниқ айтишимиз мумкинки, тамаки таркибида йигирмадан ортиқ захарли моддалар мавжуд бўлиб, улар ичида энг захарлиси никотиндир. Инсон сигарета чекканда, никотин тутун орқали ўпкага, кейин эса қонга сўрилиб, юрак-қон томир системасига салбий таъсир этади. Қон томирлари торайиб, босим ошади. Юрак уриши тезлашади. Бу ҳолат юрак мускулларини ишдан чиқишига сабаб бўлади. Бу ҳол тез-тез такрорланавергач, бориб-бориб юрак инфаркти, стенокардия каби касалликлар бошланиши мумкин.

Маълумотларга қараганда, чекувчиларда чекмайдиганларга нисбатан ўн икки марта кўпроқ юрак-қон томир хасталиклари учрайди. Тамаки бош мия хужайраларига ҳам таъсир этмай қолмайди. Чекувчида уйқусизлик, бош оғриғи бошланади. Оқибатда эса марказий нерв системаси фаолияти бузилади. Кўп чекадиган киши тез-тез балғам ташлайди. Тез юрса, жисмоний меҳнат қилса, ҳансирайдиган бўлиб қолади. Айрим ҳолларда кўп тамаки истеъмол қилиш чекувчини руҳий хасталикларга дучор қилиши мумкин.

Тамаки чекиш нафас олиш системасига ҳам зарарли таъсир қилади. Тамаки тутуни таркибидаги захарли моддалар турли хил ўпка хасталиклари – бронхит, сил, ҳаттоки саратон (рак) касалликларига олиб келиши кузатилган.

Тамаки овқат-ҳазм органларига таъсир қилиши натижасида кишида иштаҳа йўқолади, оғизда бемаза таъм пайдо бўлади, сўлак безлари фаолияти бузилади. Сўлак билан ошқозонга тушган никотин кислотаси унинг деворларини зарарлайди. Жигилдон қайнайди. Меъда керагидан ортиқ шира ишлаб чиқаради. Бу эса меъда ўн икки бармоқли ичак яраси каби касалликларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади.

Тиббиётда кашанда отадан ёки онадан бўлган бола туғилмай нобуд бўлиши, туғилганда эса нимжон, касалманд бўлиб туғилиши маълум. Кашандалик тамаки чекишга муккасидан кетишлик, ҳаттоки инсонни кўр бўлиб қолишига олиб келаркан. Тамаки чекувчи томонидан ташқарига чиқарилган тутун таркибида захарли моддалар концентрацияси кўп бўлади. Бундай ҳолатда чекмайдиган одамлар ҳам мажбурий равишда чекишга ўрганиб қолишлари мумкин. Кўпчилик танишларимиз, дўстларимиз билан чекиш тўғрисида баҳслашганимизда, улар сикилганда чекишларини айтиб, ўзларини оклашга уринишади. Гўёки тамаки инсон ғамини аритадигандек. Ахир бу ҳолат «бургага аччик килиб кўрпа ёқиш» каби эмасмикан.

Бугунда сигаретнинг турлари кўпайди. Уларнинг хилма-хиллигига барчамиз гувоҳимиз. Тамаки чекишнинг зарарли оқибатлари ҳақида, деярли, барча оммавий ахборот воситалари ёрдамида ёритилиб борилаётган бир пайтда, тамаки маҳсулотлари реклама қилиниб, реклама роликларига чиқиши ниҳоятда хунук ҳолдир. Ранг-баранг қутилар қанчалик жилоли бўлмасин, унинг ичидаги оғу эканлигини унутмаслик керак. Тамаки қутисидаги бир энлик «чекиш соғлиқ учун хавфли» дейилган ёзувга эса кашандалар, деярли, ҳеч қачон эътибор беришмайди.

Алкоголь ва тамаки маҳсулотларининг тарқатилишини ҳамда истеъмол қилинишини чеклаш фаолиятини амалга оширувчи органлар рўйхати кенгайтирилмоқда (илгари, Вазирлар Маҳкамаси, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари):

- Вазирлар Маҳкамаси;
- Соғлиқни сақлаш вазирлиги;
- алкоголь ва тамаки маҳсулотларини тартибга солиш соҳасидаги давлат органи;
- солиқ органлари;
- божхона органлари;
- истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича ваколатли давлат органи;
- Бош прокуратура ҳузуридаги Иқтисодий жинойтларга қарши курашиш департаменти;
- Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги;
- маҳаллий давлат ҳокимияти органлари.

Эндиликда таълим, спорт ва диний ташкилотлар ҳудудидан тўғри чизик бўйлаб 100 метрдан кўп масофада жойлашган савдо объектларида алкоголь ва тамаки маҳсулотларини сотишга руҳсат этилади (*илгари 200 метр*). Алкоголь ва тамаки маҳсулотини сотиб олиш мумкин бўлган ёш бир йилга оширилмоқда (21 ёшдан). Сотувчилар ушбу ёшдан ёшроқ кўринган шахсларда шахсини ва ёшини тасдиқловчи ҳужжатни тақдим этишни талаб қилишлари шарт.

Алкоголь ва тамаки маҳсулотларини сотиш мумкин бўлмаган ҳолатлар рўйхати кенгаймоқда:

- 21 ёшга тўлмаган шахслар томонидан;
- савдо автоматлари орқали;
- болалар маҳсулотларини сотишга ихтисослашган жойларда;

Қонун билан алкоголь маҳсулотларини иш жойларида, кўчаларда, стадионларда, хиёбонларда, боғларда, барча турдаги жамоат транспортида ва бошқа жамоат жойларида истеъмол қилиш тақиқланади. Мазкур қоида савдо ва хизмат кўрсатиш объектларига, шу жумладан алкоголь маҳсулотларини қуйиб реализация қилиш рухсат берилган умумий овқатлашиш корхоналарига, шунингдек тўй, юбилей ва бошқа тантаналар ҳамда маросимлар ўтказиладиган жойларга татбиқ этилмайди.

Шунингдек, тамаки маҳсулотларининг истеъмоли ва тамаки ҳамда никотин истеъмол қилиш мосламаларидан фойдаланиш тақиқланган жойлар рўйхати тасдиқланмоқда.

Чилим чекиш учун алоҳида ихтисосланган жойлар учун талаблар белгиланмоқда: бундай жойлар вентиляция тизими мавжуд бўлган ва фақатгина чилим тақдим этиш хизматига ихтисослашган алоҳида бино, иншоот ва объектларда бўлиши лозим. Тамаки маҳсулотлари ва тамаки ҳамда никотинни истеъмол қилиш учун мўлжалланган воситаларни қутиларида акс эттирилиши мумкин бўлмаган сўзлар рўйхати тасдиқланмоқда; жумладан, тамаки маҳсулотларининг зарарлиги борасида истеъмолчини бевосита ёки билвосита чалғитадиган ахборотни, шу жумладан “катрон микдори кам”, “енгил”, “жуда енгил”, “юмшоқ”, “экстра”, “ультра”, “ингичка” каби сўзларни ёхуд бундай сўзлар билан бир ўзакли сўзларни, бундай сўзларнинг чет тиллардаги аналогларини, шунингдек бундай сўзларнинг чет тиллардан таржима қилинадиган аналогларини жойлаштириш тақиқланади.

Чилим сувдонида унинг юзасининг камида 65% эгаллайдиган, тамаки маҳсулотини истеъмол қилиш туфайли юзага келган касаллик оқибатларини кўрсатувчи тасвир ва тегишли мазмундаги матн тарзида тиббий огоҳлантириш бўлиши керак.

Қуйидагиларни Ўзбекистон Республикасига (шу жумладан халқаро почта ва курьерлик жўнатмалари орқали) олиб кириш тақиқланади:

- чекилмайди тамаки маҳсулотларини, шу жумладан таркибида никотин мавжуд бўлган чекилмайди тамаки маҳсулотларни;
- таркибида маҳсулотнинг жозибдорлигини оширишга қаратилган моддалар ёки никотинга қарамликни оширадиган қўшимчалар мавжуд бўлган никотинли ёки никотинсиз суюқликларни, никотинли ва никотинсиз суюқликлари бўлган тамакини ҳамда никотинни истеъмол қилиш мосламаларини, шунингдек электрон сигареталарни.

## REFERENCES

1. Karshiyeva D.R., Atmospheric dust and its effects on human health//ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume: 11 Issue: 03I May 2021 ISSN: 2249-7137. Page 1168-1172
2. Karshiyeva D.R., The Importance of Water Quality and Quantity in Strengthening the Health and Living Conditions of the Population//CENTRAL ASIAN JOURNAL OF



- MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. Volume: 02 Issue: 05I Oct 28 2021 Page 399-402
3. Karshiyeva D.R., The Role Of Human Healthy And Safe Lifestyle In The Period Of Global Pandemic-Covid 19//The American Journal of Applied Sciences. Volume: 02 Issue: 11-15I November 28, 2020 ISSN: 2689-0992. Page 78-81
  4. Karshieva Dilovar Rustamovna. THE EFFECT OF TOBACCO SMOKING ON THE ORGANS AND TISSUES OF THE ORAL CAVITY // World Bulletin of Public Health (WBPH) Volume-19, February 2023 ISSN: 2749-3644
  5. Karshieva Dilovar Rustamovna. Changes in the Oral Cavity, the State of Periodontal Tissues in Smokers// Eurasian Medical Research Periodical. ISSN: 2795-7624 Volume 18 | March 2023
  6. Karshieva Dilovar Rustamovna. SPECIFIC ASPECTS OF ORAL FLUID COMPOSITION OF SMOKERS// TIBBIYOT AKADEMIYASI. 2023-IYUN
  7. Karshieva Dilovar Rustamovna. RESEARCH METHODS USED TO INVESTIGATE CHANGES IN THE ORAL CAVITY IN SMOKERS// *Тиббиётда янги кун* 5 (55) 2023 ISSN 2181-712X. EISSN 2181-2187
  8. Karshiyeva Dilovar Rustamovna. EFFECTS OF SMOKING ON THE HUMAN BODY// ACADEMIC INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTI-DISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION .Hosted from Pittsburgh, USA
  9. Karshiyeva Dilovar Rustamovna. Results of a Clinical Study on the Dental Status of Tobacco Smokers, Clinical and Dental Examination Results// American Journal of Medicine and Medical Sciences 2023, 13(6): 801-805. DOI: 10.5923/j.ajmms.20231306.06
  10. Sharipova G. I. The effect of dental treatment-profilactics on the condition of oral cavity organs in children with traumatic stomatitis // *Тиббиётда янги кун*. Бухара. – 2022. – № 5 (43). – С. 103-106. (14.00.00; № 22)
  11. Шарипова Г. И. Эрта ёшдаги болалар травматик стоматитлар билан оғриганда оғиз бўшлиғи микрофлорасининг иммуно-микробиологик жихатлари // *Биология ва тиббиёт муаммолари*. Самарқанд. – 2022. – № 2 (136). – С. 296-298. (14.00.00; № 19)
  12. Sharipova G. I. Light and laser radiation in medicine // *European journal of modern medicine and practice*. Belgium. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 36-41. (Impact factor: 5.71)
  13. Sharipova G. I. The use of flavonoid based medications in the treatment of inflammatory diseases in oral mucus // *Asian journal of Pharmaceutical and biological research*. India. – 2022. – Т. 11. – №. 1. – С. 2231-2218. (Impact factor: 4.465)
  14. Sharipova G. I. Changes in the content of trace elements in the saliva of patients in the treatment of patients with traumatic stomatitis with flavonoid-based drugs // *Journal of research in health science*. Iran. – 2022. – Т. 6. – № 1-2. – С. 23-26. (Scopus)
  15. Sharipova G. I., Nuraliyev N. A. General description and research methods used in children with traumatic stomatitis // *European Journal of Research*. Austria. – 2022. – Т. 7. – № 1. – С. 51-56. (Impact factor: 4.981)
  16. Sharipova G. I. Paediatric Lazer Dentistry // *International Journal of Culture and Modernity*. Spain. – 2022. – Т. 12. – С. 33-37.

18. Sharipova G. I. The effectiveness of the use of magnetic-infrared-laser therapy in traumatic injuries of oral tissues in preschool children //Journal of Academic Leadership. India. – 2022. – Т. 21. – №. 1.
19. Sharipova G. I. Discussion of results of personal studies in the use of mil therapy in the treatment of trauma to the oral mucosa //European journal of molecular medicine. Germany. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 17-21.
20. Sharipova G. I. Peculiarities of the morphological structure of the oral mucosa in young children // International journal of conference series on education and social sciences. (Online) May. Turkey. – 2022. – С. 36-37.
21. Sharipova G. I. Dynamics of cytological changes in the state of periodontal tissue under the influence of dental treatment prophylactic complex in young children with traumatic stomatitis // Multidiscipline Proceedings of digital fashion conference April. Korea. – 2022. – С. 103-105.
22. Шарипова Г.И. Травматик стоматит билан оғриган болаларда стоматологик касалликларни комплекс стоматологик даволаш ва уларнинг олдини олишни баҳолаш // Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: даврий анжуманлар: 18-қисм. Тошкент. –2021. – С. 14-15.
23. Шарипова Г.И. Мактабгача ёшдаги болаларда оғиз бўшлиғи юмшоқ тўқималарининг шикастланишларини комплекс даволашда магнит-инфрақизил-лазер терапиясини қўллаш самарадорлиги // Услубий тавсиянома. Бухоро. – 2022. – 21 б.

## HUQUQIY NIGILIZM: MAFKURAVIY ASOSLAR

Norbekov Ahmadjon Norbekovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8411542>

**Annotatsiya.** Huquqiy nigilizm jamiyat huquqiy taraqqiyotining tizimli hamda maqsadga muvofiq rivojlanishiga jiddiy xavf tug'diruvchi hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishiga to'siq bo'luvchi salbiy hodisalardan biri ekanligini ochib berilgan. Maqolada huquqiy nigilizmning shakllari, uning payda bo'lishi va u haqidagi qarashlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Huquqiy nigilizm, qadiriya, vatanparvarlik, itoatsizlikrad etish, huquqiy ong.

## LEGAL NIHILISM: IDEOLOGICAL FOUNDATIONS

**Abstract.** It has been revealed that legal nihilism is one of the negative phenomena that poses a serious threat to the systematic and purposeful development of the legal development of society and hinders the rise of legal consciousness and legal culture. The article describes the forms of legal nihilism, its emergence and views on it.

**Key words:** Legal nihilism, ability, patriotism, disobedience, legal consciousness.

## ПРАВОВОЙ НИГИЛИЗМ: ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

**Аннотация.** Выявлено, что правовой нигилизм является одним из негативных явлений, представляющих серьезную угрозу планомерному и целенаправленному развитию правового развития общества и препятствующих подъему правосознания и правовой культуры. В статье описываются формы правового нигилизма, его возникновение и взгляды на него.

**Ключевые слова:** Правовой нигилизм, способность, патриотизм, непослушание, правосознание.

Huquqiy nigilizm jamiyat huquqiy taraqqiyotining tizimli hamda maqsadga muvofiq rivojlanishiga jiddiy xavf tug'diruvchi hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishiga to'siq bo'luvchi salbiy hodisalardan biridir.

**Nigilizm**<sup>10</sup> (lotincha – “nihil” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, -hech narsa, -inkor degan ma'noni anglatadi). Huquqiy nigilizm shaxslarning, ijtimoiy guruhlarining muayyan huquqiy qadriyatlarga, normalarga, belgilangan tartib - qoidalarga salbiy munosabatini, mensimaslik va har qanday normalar, prinsiplar va qonunlarni rad etish degan ma'noni bildiradi va sub'ektning muayyan qadriyatlar, normalar, qarashlar, ideallar, inson turmushining ayrim tomonlariga, ba'zida esa hamma tomonlariga nisbatan salbiy munosabatini ifoda etadi. Bu - dunyoni his qilish va ijtimoiy xulq-atvor shakllaridan biri. Nigilizm qanday qadriyatlarni rad etilishiga, bilim va ijtimoiy amaliyotning qaysi sohasi - madaniyat, huquq, axloq haqida gap borayotganligiga qarab, axloqiy, huquqiy, siyosiy, mafkuraviy nigilizm va shu kabi boshqa ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Umuman, nigilizmga an'anaviy va eng umumiy tarzda destruktiv, ijtimoiy zararli hodisa sifatida qaraladi. Nigilizm ko'pincha vayron qiluvchi shaklga ega bo'ladi. Nigilizm eng yuqori cho'qqiga chiqqan vaqtda anarxizm, ekstremizm bilan uyg'unlashib ketadi. Bu o'rinda muayyan qadriyatlar

<sup>10</sup> Vikipediya.

va prinsiplarga nisbatan e'tiborsiz shubhada namoyon bo'ladi. Bunday hollarda odatda, uning jamiyatga qarshi xulq-atvor, jinoiy harakatlar, axloqiy va huquqiy normalarni buzishga yaqin eng nobop usullari tanlanadi. Huquqiy nigilizm huquq va qadriyatlarga nisbatan faol qarshilik ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Huquqiy nigilizm - huquqni, uning qadriyatlarini, umuman, huquq va uning ayrim institutlarini faol rad etishdir.

Huquqiy nigilizmning ikki asosiy<sup>11</sup> sababini ko'rsatish mumkin. Birinchi sababi shundan iboratki, bizning mamlakatda uzoq yillar nodemokratik rejim hukmron bo'lgan, ya'ni davlat faoliyati huquqqa asoslanmagan. Ikkinchi sababi ko'p yillar huquqni norma sifatida tushunish hukmronlik qilganligi bois bunda huquq davlatning xohish-irodasi bilan bog'liq qilib qo'yilgan. Boshqacha aytganda, huquq davlat xohish-irodasining hukmron ifodasi bo'lib, har qanday normativ hujjat davlatning amriga hamohang bo'lgan, shu tufayli huquqqa nisbatan salbiy munosabat kelib chiqqan va huquq faol inkor etilgan. Huquqiy nigilizmni ifoda etishning turli shakllari mavjud. **Birinchi shakli** – amaldagi qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri buzish. Bu huquqiy nigilizm namoyon bo'lishining yaqqol shakli. Bunga, eng avvalo, jinoiy jazolanadigan qilmishlarni, shuningdek fuqaroviy, ma'muriy va intizomiy jihatdan nojo'ya xatti-harakatlarni kiritish mumkin.

Huquqiy nigilizmning **ikkinchi shakli** barcha joylarda va ommaviy tarzda yuridik ko'rsatmalarni bajarmaslik hamda ularga rioya qilmaslik. Bunda sub'ektlar (fuqarolar, mansabdor shaxslar, davlat organlari, jamoat tashkilotlari) o'z xulq-atvorida huquqiy normalarning talablariga ochiqdan-ochiq rioya qilmaydilar, balki aksincha, "o'z qoidalari" bo'yicha yashash va harakat qilishga intiladilar. Qonunlarga bo'ysunmaslik jamiyatga katta ziyon keltiradi. Qonunlar osonlikcha chetlab o'tiladi. Ularga bo'ysunilmaydi, "qonun bor-ku" deb o'ylab ham ko'rilmaydi. Bunda qonun juda ko'pchilik uchun "menga ma'qul bo'lsa, bo'ysunaman, ma'qul bo'lmasa, inkor qilaman" degan shartli tushunchaga aylanib qoldi. Bunday itoatsizlik - huquqiy ongning o'ta past darajada ekanligi va buzilganligi, lozim darajadagi huquqiy madaniyatning yo'qligi hamda umumiy tartibsizlik va mas'uliyatsizlikning oqibatidir.

Huquqiy nigilizm namoyon bo'lishining **uchinchi shakli** bir- biriga zid, bir-birini takrorlovchi yoki bir-birini istisno etuvchi hujjatlarni nashr etishdan iborat bo'lib, bunday hujjatlar bir-birini neytral, beqaror holatga keltirib qo'yadi. Ko'pincha, qonun osti hujjatlari qonundan "yuqori" bo'lib qoladi. Joriy etilayotgan katta miqdordagi yuridik normalarning biri boshqasiga mos kelmaydi, biri ikkinchisini to'ldirish o'rniga o'zaro zid kelib qoladi. Ayni vaqtda ijtimoiy munosabatlarning huquq yo'li bilan tartibga solinishga muhtoj qatlamlari mavjud bo'lsa-da, ammo bu borada hech bir ish qilinmaydi. Natijada huquqiy bo'shliqlar, nuqsonlar yuzaga keladi. Bularning barchasini birgalikda olganda huquqiy shov-shuvlarga, chalkashliklarga sabab bo'ladi.

Inson huquqlari va erkinliklarining buzilishi hamda ularga rioya etilmasligi huquqiy nigilizmning **to'rtinchi shaklidir**. Inson huquqlarining, yashash, hurmat qilish, qadrd-qimmat, mol-mulk, xavfsizlikka bo'lgan huquqlarini buzish yoki ularga rioya etmaslik, shaxsning huquqiy jihatdan yaxshi himoya qilinmaganligiga, qonunga davlatning jamiyatdagi tartibni ta'minlashga, kishilarning jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga qodir ekanligiga bo'lgan ishonchga putur etkazadi. Qonun timsolida o'zining kafolati va tayanchini ko'rmas ekan, inson uni qadrlash, hurmat qilish va e'zozlashdan yiroqlashadi. O'z huquqini amalga oshirishdagi

---

11 Fedorenko K.G., Shavinskiy B. V. Huquq metodologiyasi

ilojsizlik esa shaxsni o'z huquqidan begonalashtiradi. Uning huquqdan ixlosi qaytadi, ishonchsizlik paydo bo'ladi. Vaholanki, inson huquqlari g'oyasi kuchli davlat g'oyasiga zid emasligi azaldan ma'lum.

Shunday qilib, huquqiy nigilizm – huquqiy ongning salbiy, buzilgan tarafidir<sup>12</sup>. Uning huquqiy ongning huquqqa hurmat bilan munosabatda bo'lish va unga rioya etish talablariga nisbatan keskin tanqidiy, inkor etish munosabatida bo'lgan mafkuraviy va psixologik qismidir. Agar huquqiy nigilizm huquq va uning qadriyatlariga salbiy munosabatda bo'lish, huquqning kuchiga ishonmaslik bilan tavsiflansa, huquqiy idealizm buning aksi, ya'ni huquqning kuchiga ortiqcha baho berib yuboradi. Mazkur har ikkala hodisaning ildizi bir va u yuridik johillik, huquqiy ongning rivojlanmaganligi va buzilganligi, siyosiy-huquqiy madaniyatning etishmasligida namoyon bo'ladi. Yuqorida so'z yuritilgan ko'rinishlar o'zaro teskari yo'nalishga ega bo'lib tuyulsada, pirovad natijada bir-biri bilan uyg'unlashib, jamiyatga zarar keltiradi.

### REFERENCES

1. Fedorenko K.G., Shavinskiy B. V. Huquq metodologiyasi // Huquq falsafasi. 2002.
2. M.N.Marchenko. Qonuniy xulq-atvor // Davlat va huquq nazariyasi. 2008. 2-nashr.
3. A.A.Yevgenyevich. Huquqiy nigilizm// Yosh olim. 2018.
4. Toshpo'latov, M. (2023). CHARACTERISTICS OF CIVIL SOCIETY IN THE MODERN ERA. *Modern Science and Research*, 2(9), 13-19.
5. Zayniddin o'g, T. L. M. (2023). FUQAROLIK JAMIYATINING MILLATLARARO MUNOSABATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 5(5), 1417.
6. Toshpo'latov, M. (2023). HISTORY OF CIVIL SOCIETY CONSTRUCTION: CHANGES AND PROSPECTS. *Modern Science and Research*, 2(9), 9-13.
7. Zayniddin o'g, T. L. M. (2023). ZAMONAVIY FUQAROLIK JAMIYATININI YARATISH-DAVR TALABI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 5(5), 18-20.

---

<sup>12</sup> A.A.Yevgenyevich. Huquqiy nigilizm



## DETERMINATION OF FIELD BOUNDARY PARAMETERS IN DRILLING AND BLASTING PROCESSES IN OPEN PIT MINES

O'telbayev Azizbek Alisher o'g'li

Scientific researcher at the Nukus Mining Institute of the Navoi State University  
of Mining and Technologies.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8411562>

**Abstract.** This article is from examples adapted to geological and geotechnological modeling in mining enterprises operating and drilling costs and the results of using several methods to increase productivity in some mining operations and drilling-blasting processes. The main goals and objectives of this article will be to reduce the number of drilling and blasting holes in mines and increase the blasting area. The cost of these objectives from an economic point of view is, firstly, directly proportional to the number of boreholes, and secondly, the associated increase in the extent of the blasting area. In the mines indicates an indirect effect on the recovery efficiency of the target material associated with excavation and blast damage. Therefore, drill strings, detonators, and detonators in the mine will be more about the problem of the boundary of the blasting area and create conditions for less drilling. During blasting and drilling processes in mining enterprises the main problem in creating an accurate surface model is that the mass of the cover rock is usually relative to the mass of the blasted area will be widely spaced. Coarse samples are obtained by drilling blast holes. So interpolation sufficiently exceed local variations in the underlying geology. Created in a mine borehole measurement reliable determination of geological boundaries in the field in real time data, we posed a local model estimation problem in an adaptive sampling system. The selection strategy based on the proposed information will consist of two stages. First, blast holes in mines are selected in a way that is adapted to the geology of the drilling and to obtain the maximum benefit in terms of their location. Mine blasting processes will consist of a step-by-step improvement of the spatial model. The second stage drilling-blasting processes in the mine depend on the forecast conducts expert-guided drilling at predetermined distances from geology and geology and in order to optimize the explosion, it is necessary to reduce its limit in order to reduce its damage.

**Keywords:** Open pit blasting processes, geological and geotechnical requirements, boreholes, charging of explosives in the mine, explosion limit, detonators in mines, field explosion limit, drilling area, field explosion sequence, mine technical parameters.

## ОПРЕДЕЛЕНИЕ ГРАНИЧНЫХ ПАРАМЕТРОВ МЕСТОРОЖДЕНИЯ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ БУРОВЗРЫВНЫХ РАБОТ В КАРЬЕРАХ ОТКРЫТЫМ СПОСОБОМ

**Аннотация.** Эта статья основана на примерах, адаптированных к геологическому и геотехнологическому моделированию эксплуатационных расходов горнодобывающих предприятий и затрат на бурение, а также результатах использования нескольких методов для повышения производительности некоторых горных работ и буровзрывных процессов. Основными целями и задачами этой статьи будут сокращение количества буровых и взрывных скважин в шахтах и увеличение площади взрывных работ. Стоимость этих задач с экономической точки зрения, во-первых, прямо пропорциональна количеству скважин, а во-вторых, связанному с этим увеличению площади взрывных работ. В шахтах указывает на косвенное влияние на эффективность извлечения целевого материала,

связанное с выемкой грунта и повреждениями от взрыва. Таким образом, бурильные колонны, детонаторы и взрыватели-детонаторы в шахте будут в большей степени решать проблему границы зоны взрывных работ и создавать условия для меньшего объема бурения. Во время процессов взрывных работ и бурения на горнодобывающих предприятиях основная проблема при создании точной модели поверхности заключается в том, что масса покровной породы обычно относительно массы взрываемого участка будет сильно разнесена. Крупнозернистые образцы получают путем бурения взрывных скважин. Таким образом, интерполяция в достаточной степени превосходит локальные вариации в лежащей в основе геологии. Создав при измерении в шахтной скважине надежное определение геологических границ на месторождении по данным в режиме реального времени, мы поставили задачу оценки локальной модели в адаптивной системе отбора проб. Стратегия отбора, основанная на предложенной информации, будет состоять из двух этапов. Во-первых, взрывные скважины в шахтах выбираются таким образом, чтобы адаптироваться к геологии бурения и получить максимальную выгоду с точки зрения их расположения. Процессы взрывных работ на шахтах будут заключаться в поэтапном совершенствовании пространственной модели. Вторая стадия буровзрывных процессов в шахте зависит от прогноза проведения бурения под руководством эксперта на заданных расстояниях от геологических объектов, и для оптимизации взрыва необходимо снизить его предел, чтобы уменьшить его ущерб.

**Ключевые слова:** процессы взрывных работ открытым способом, геологические и геотехнические требования, скважины, загрузка взрывчатых веществ в шахту, предел взрываемости, детонаторы в шахтах, предел взрываемости на месторождении, площадь бурения, последовательность взрывов на месторождении, технические параметры шахты.

### **Introduction**

The use of the most common processing operations in drilling-blasting processes in mines is gaining importance. Some countries have drilling processes accounts for nearly 40% of all blasting and drilling operations. Nevertheless, drilling processes and blasting in mining enterprises process management capabilities are of great importance in the mine. In the mine which may have a positive effect on the performance of the drilling process differs in overall processing quality, productivity and price. An examination of the drilling shows that the drilling depth increases. Breakage of the tool during drilling processes in mines leads to production and processing costs.

All these consequences are, of course, very undesirable from any production point of view. Mining drilling and blasting processes engineering components, various metal cutting operations such as milling and drilling are widely used. To carry out drilling and blasting processes in the mine to understand the behavior of the process, different answers are needed measured and controlled. In mining enterprises, blasting refers to the drilling of technological wells by means of drilling equipment refers to rock and small pieces of rock formed by the impact of drilling bring up The efficiency of drilling wells depends on many factors, the main of which is is the drilling ability and fracture of the rocks rock drilling - the property of deformation under the influence of a tool. With the drilling ability of the rocks, the technological parameters of the drilling rigs are selected accordingly.


Mining is the process of preparing ore for extraction by changing the natural state of the rock includes a focused process to ensure its effectiveness. Hard rock in preparation for rock blasting, and rocks of moderate hardness are mechanically broken. grinding by mechanical method for crushing by blast method is more useful due to its high productivity, low cost and practical safety are high. In mining enterprises, until recently, open pits were mainly filled with flat shafts. In blasting processes in such a structure, there is a large formation on top of the rock mass where the detonators are charged. Detonator stage during blasting with excessive crushing of mined rock near the charge problems were observed. In this case, when the charge explodes, there is a very large volume next to it fine crushed rocks are formed. Such unevenness of the open pit after the explosion, the rocks cause problems in working with them.

Detonators in the mine the density of the explosion pressure is significantly reduced, preventing the processes of extreme fragmentation of the rock around the charge and due to overcrushing rocks, the time of the explosion actively affecting the mine rock massif the charge of voltage waves created by the explosion of the expanded, lower and upper parts interference is observed. In this case, the air gap acts as the beginning of the explosion and a compensator that reduces the pressure generated during the charging chamber due to such a change the indicators of the explosion pulse are extremes of the surrounding rocks decreases, that is, the energy released in the explosion has the same effect on the ore mass of the mine.

This conclusion is based on experiments carried out in various con-geological conditions approved. Thus, when the detonator charges explode, the air is divided into a space, as a result intersection of voltage waves generated by the top and bottom of the charge, field of mine in the array, the drilling-blasting level can be good and uniform. In this case, in mining enterprises, the area to be blasted is prepared by the drilling area before starting the block, and the border of the blasting area after calculations are made, detonator charging operations and detonation area limits are ordered then the charging sequence is performed. An engineer-technical worker carries out blasting works in the area of the blasting limit area in the mines. The beginning of each shift is prepared by drilling workers and drivers of charging machines.

The limit of the blasting area is in the mines, depending on the parameters of the mine a number of generated wells in the block and prepare them for blasting and introduce all blasting instructions documents are reviewed for safe implementation. Explosives detonation block brought under the supervision of the charging machine by the mine engineer or blasting officer and charging is done. The route of movement of the loader is mine engineer or shall be shown by the blasting officer. After the charger is transferred to the charger technical parameters of the mine, the boundary of the mine field prepares it for charging. In this case, the blasting officer is a charging machine and when lowering the hoses into the well, it reports that the drive of the mixing chamber has been activated. In the mine the mass of the explosive is controlled to determine the dimensions of the blast area.

After the wells are charged to a certain height, they during blasting operations, the worker lowers the explosive into the well. After the charging machine runs out of explosives the charging unit of the warhead detonator allows it to leave.



Picture1. Determining the layout of detonators in the mine field in accordance with the parameters of the technical indicators of the open mine during the drilling and blasting processes in the open mine.

Drilling and blasting operations in mining exploration widely used in the process of soldering, rarely explosive materials are used in mountainous terrain, in the construction of overland transport routes, in drilling for drilling operations, or for the extraction of underground minerals. it is also used in the construction of production sites. Do these things the main purpose of increasing the rocks of medium and above medium strength is to erode the rocks. The main purpose of drilling and blasting extraction and crushing of rocky rocks from the massif. Drilling and blasting work is the erosion and crushing of rocky rocks during the passage of mine shafts a set of interrelated technological processes carried out for the purpose. Drilling and blasting consists of several sequential processes: spur Drilling (wells), placing explosive charges, (charging) and detonating charges, spurs and wells for placing explosives are designed artificially drilled cavities. The spur is up to 75 mm in diameter and an artificial cylindrical cavity in a rock mass up to 5 m deep, into a pit it is said. A well is a cylindrical well of any diameter, 5 m deep artificial, exceeding or exceeding 75 mm in diameter at any depth a cylindrical cavity, called a groove. Blasting is an explosive placing charges and detonating explosive charges is said to increase. Charging is the process of placing charges in the charging chamber called charging. Now it's spinning, spinning, spinning, spinning percussive, flame, rotary and mixed drilling methods are widely used. Circulation drill - rotary drill with a spindle up to 50 mm in diameter and 5 meters, it is used when the hardness of the rock is up to 7. Rotary drilling mainly used in coal, slanes and salt mines. Percussion drilling – percussive drilling is mainly carried out with drill hammers (perforators).

### Conclusions

Based on the results, it was shown that mining enterprises should have each pre-separated blast hole and blast zone. The mine must be placed on a confined surface before drilling blast holes

in the confined area. We think the conclusion is that the explosives were fired along with the blast holes that were pre-blasted and it was not doing well. The cracks in the mine are also mine the row found outside is placed along the pre-allocated line. The distance between the ratio of the mine blasting area to the drilled surface from the parameters of the pre-allocated mine boundary area section holes are set at average values of 1.5-1.8 m, optimal for a drilling diameter of 70 mm for a bench height of 15 m and 25 m. based mountain the results of the drilling process according to the results before the necessary division according to the formation of rocks a detonation vibration study confirmed that the reduction in vibration level was up to 20% due to presplit. These results also confirmed that the pre-separation works as a filter and that we can observe causing the vibration to decrease. An explosion in the border area of the mine detonating wires, cords, and a pre-separated detonation signal transmission will be required to open the holes. Pre-drilled holes gave better results than those worked with detonating cord. The pre-split blast results also confirmed the mouth of the pre-split holes. Rock blasting distances in a mine vary length and depth. Mine explosions are detonated by the electronic delay mass of rock detonators, as it helped to achieve the desired detonation results in the formation of geological cracks and the drilling-blasting process. better control over the delay intervals and the distance between the blasting round holes is created. The fractured rock mass near the cracks, the longer the cutting wire will be reinforced with bolts. This is planned design the fire of high benches in such a way that the minimum throw of the blasted area is carried out.

#### REFERENCES

1. O'g'li R. Z. Y., Abdaaliyevna E. Z. 3D Technological System of Management of Geological Exploration Processes of Mining Enterprises. – 2022.
2. Mustapaevich D. K. et al. Underground mine mining systems and technological parameters of mine development //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 10. – C. 110-117.
3. Mustapaevich D. K. O'telbayev Azizbek Alisher o'g'li, O'razmatov Jonibek Ikromboy o'g'li, & Mnajatdinov Dastan Mnajatdin o'g'li.(2021). PROPERTIES OF COAL, PROCESSES IN COAL MINING COMPANIES, METHODS OF COAL MINING IN THE WORLD. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 7 (10), 231–236.
4. Umirzoqov A. Justification of rational parameters of transshipment points from automobile conveyor to railway transport //Scienceweb academic papers collection. – 2020.
5. Djaksimuratov K. Comprehensive monitoring of surface deformation in underground mining, prevention of mining damage. Modern technologies and their role in mining //Scienceweb academic papers collection. – 2021.
6. Alisher o'g' O. A. et al. Conveyor belt structure and mode of operation in mines //Eurasian Journal of Engineering and Technology. – 2022. – T. 11. – C. 72-80.
7. Khayitov O. et al. Calculation and development of a model of the blasting area in mining enterprises //International Bulletin of Engineering and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 5. – C. 5-12.



8. Ravshanov Z. 3D Technological System of Management of Geological Exploration Processes of Mining Enterprises //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
9. Bekbawlievich S. B. et al. PROSPECTS FOR THE RATIONAL USE OF IRON ORE OF SULTAN UVAYS AT THE TEBINBULAK DEPOSIT //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 609-613.
10. Ravshanov Z. Mining processes of drilling machines //Information about the technological alarm system of drilling machines. – 2022.
11. Ravshanov Z. et al. Evaluation of the strength of rocks in open mining processes in mining enterprises //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A4. – С. 96-100.
12. Ravshanov Z. et al. Methods of determining the safety and environmental impact of dust and explosion processes in mining enterprises //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 415-423.
13. Mustapaevich D. K. et al. Underground mine mining systems and technological parameters of mine development //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 10. – С. 110-117.
14. Axmet o'g'li M. A. et al. IN GEOLOGICAL AND GEOTECHNICAL PROCESSES IN THE MINE USE OF TECHNOLOGICAL SCANNING EQUIPMENT IN THE UNDERGROUND MINING METHOD //Intent Research Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 20-27.
15. Alisher o'g' O. A. et al. MINING TECHNOLOGICAL EQUIPMENT THAT DETERMINES THE SLOPE ANGLES OF THE MINE BY MEANS OF LASER BEAMS. – 2023.
16. Ravshanov Z. Determination of mineral location coordinates in geotechnology and mining enterprises //Scienceweb academic papers collection. – 2023.
17. Djaksimuratov K. Comprehensive monitoring of surface deformation in underground mining, prevention of mining damage. Modern technologies and their role in mining //Scienceweb academic papers collection. – 2021.
18. Хайитов О. Г. и др. Особенности разработки пластового месторождения фосфоритов //Глобус. – 2020. – №. 5 (51). – С. 19-21.
19. Хайитов О., Умирзоков А., Равшанов З. Анализ текущего состояния и пути повышения эффективности разработки нефтегазовых месторождений юго-восточной части бухаро-хивинского региона //Материали конференцій МЦНД. – 2020. – С. 8-11.
20. G'ofurovich K. O. et al. Justification of rational parameters of transshipment points from automobile conveyor to railway transport //World Economics and Finance Bulletin. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 20-25.
21. O'g'li R. Z. Y., Abdaaliyevna E. Z. 3D Technological System of Management of Geological Exploration Processes of Mining Enterprises. – 2022.
22. Ravshanov, Z. (2022). MINING PROCESSES OF DRILLING MACHINES. INFORMATION ABOUT THE TECHNOLOGICAL ALARM SYSTEM OF DRILLING MACHINES.
23. Ravshanov, Z. (2023). Coal Mine Design and Explosion Prevention Studies.

24. Ravshanov Z. RESEARCH ON SELECTION AND PERFORMANCE IMPROVEMENT OF BLAST HOLE DRILLING EQUIPMENT //International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH». – 2023.
25. Ravshanov, Z. (2023). INSTRUCTIONS FOR CREATING A STEP-BY-STEP PIT DESIGN IN MINING ENTERPRISES.
26. Yahyo o'g'li R. Z. et al. INSTRUCTIONS FOR CREATING A STEP-BY-STEP PIT DESIGN IN MINING ENTERPRISES //Open Access Repository. – 2023. – Т. 10. – №. 6. – С. 1-6.
27. Ravshanov Z. Y., Ergasheva Z. A., Sailau A. M. KARYERLARNING PASTKI GORIZONTLARIDAGI KON MASSASINI AVTOMOBIL TRANSPORTLARIDA TASHISH USULLARINI TANLASH //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 20. – С. 4-6.
28. Ravshanov Z., Ergasheva Z., Sailau A. MEASURES OF RECULTIVATION OF MINING AREA IN QUARRIES //International Conference on Management, Economics & Social Science. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 54-56.
29. Abdaaliyevna E. Z. et al. Coal Mine Design and Explosion Prevention Studies //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 255-259.
30. Ravshanov Z. Расчет устойчивости нижнего участка борта карьера «Мурунтау» с учетом программной комплекс «Ustoi» //Scienceweb academic papers collection. – 2021.
31. Ravshanov Z. Technological Stages of determining the Distance to the Location of Rocks in the Development of a 3D Model of Mining Enterprises //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
32. Ravshanov Z. Анализ текущего состояния и пути повышения эффективности разработки нефтегазовых месторождений юговосточной части бухаро-хивинского региона //Scienceweb academic papers collection. – 2020.
33. Yeshmuratova A. MINE BLASTING PROCESSES OPTIMIZATION STAGES OF DIGITAL TECHNOLOGY OF DETONATORS //Scienceweb academic papers collection. – 2023.
34. Jaqsilikovna J. G. et al. STAGES OF OPEN PIT MINING. MINING METHODS AND THEIR PROCESSES //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 236-240.
35. Allanazarov B. GEODETIC DIMENSIONING STUDIES AND POINT-DIMENSION LOCATION COORDINATE SCHEME CREATION PROCESSES //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 21-25.
36. Джаксымуратов К. М. и др. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРЕСНЫХ ПОДЗЕМНЫХ ВОД МЕСТОРОЖДЕНИЯ КЕГЕЙЛИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 12-1 (91). – С. 975-980.
37. Отепов Р. GEOTECHNICAL REQUIREMENTS AND ADVANCED RESEARCH IN THE FIELD OF CONSTRUCTION IN THE CONSTRUCTION OF MULTI-STOREY BUILDINGS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 6 Part 3. – С. 189-195.

38. Karamov A. IN MINING ENTERPRISES RESEARCH ON THE STUDY OF GEOTECHNOLOGICAL PROCESSES //INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY. – 2023.
39. Abatbayevich D. K. et al. Research on methods of automatic control of constant pressure compressors //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – T. 20. – C. 17-22.
40. Dauletov, K., & Kulmuratova, A. (2023). Research Studies on the Creation of an Automated System for Saving Electricity.

## СПОРТ СОХАСИДА МУЛЬТИМЕДИА ТИЗИМЛАРИ ВА МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШ МЕТОДЛАРИ.

**Казоқов Р.Т.**

ЎзДЖТСУ., Ўқитувчи.

**Абдураззоқов А.А.**

ЎзДЖТСУ., Ўқитувчи.

**Қурбонова Н.Т.**

ЎзДЖТСУ., Ўқитувчи.

**Джўрабаев А.М.**

ЎзДЖТСУ., Ўқитувчи.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8415986>

**Аннотация.** Талабаларни масофавий ўқитиш технологиялари, масофавий таълим моделлари ва масофавий таълимни Ўзбекистонда қўлланилиши билан таништириши.

**Калим сўзлар:** Масофавий таълим, масофавий таълим модели, масофавий таълимнинг ютуқлари ва камчиликлари.

## MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX.

**Abstract.** Introducing students to the use of distance learning technologies, distance learning models and distance learning in Uzbekistan.

**Keywords:** Distance Education, distance learning model, achievements and disadvantages of distance learning.

## МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ СИСТЕМЫ И МЕТОДЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ОБЛАСТИ СПОРТА.

**Аннотация.** Ознакомление студентов с технологиями дистанционного обучения, моделями дистанционного обучения и применением дистанционного обучения в Узбекистане.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, модель дистанционного обучения, достижения и недостатки дистанционного обучения.

**Масофавий ўқитиш технологиялари.** Кимки эскича ишласа, фан-техника янгиликларидан, Интернет имкониятлари ва юксак технологиялардан ортда қолса, унинг келажаги ҳам бўлмайди. Республикамизда бугунги кунда компьютер технологиялари ва Интернет тармоғини ривожлантиришга катта аҳамият берилляпти. Шунга кўра, таълим тизимидаги ўқув юртларида информатика ва янги ахборот технологиялари фанларининг ўқилитиши - давр талаби бўлиб қолмоқда.

Шак-шубҳасиз, сўнги йилларда мутахасислар яқдил тасдиқлаётганларидек, мамлакатимизда бу йўналишда сезиларли қадамлар қўйилди. Лекин шу соҳадаги фаолият хозирча талаблар даражасида эмас. Масалан, 2003 йилда ЭХМлар учун дастурларга патент олиш учун фақатгина 140 ариза руйхатга олинган. Шу билан бирга, 2002-2003 йидаги маълумотларга кўра мамлакатдаги 531 академик лицей ва касб-хунар колледжининг фақат 22 таси, республикадаги 62 олий ўқув юртнинг 40 таси Интернет тармоқларига уланган холос. Республикамиздаги кўпгина ўқув юртлари эски авлод компьютерлар билан жихозланган ёки умуман компьютерлаштирилмаган. Олий таълим муассасаларнинг ҳар бир

100 талабасига ўртача ҳисобда 3,3 компьютер мос келади (маълумотлар Тошкент ахборот технологиялари университетида ўтказилган илмий амалий конференция материалларидан олинган).

Кадрлар тайёрлаш сифатини янада яхшилаш, таълим тўғрисидаги қонунни тўла амалга ошириш учун таълимнинг турли шаклларида фойдаланиш зарур бўлиб келяпти.

Бу борада ҳукуматимиз томонидан кўп ишлар олиб борилмоқда. Шуларга Республикасизда янги ривожланган, "масофавий таълим" деб номланган, таълим тури мисол қилишимиз мумкин. Таълимнинг бу тури шу пайтгача мавжуд бўлган таълим турларидан ўзининг айрим ижобий томонлари билан ажралиб туради.

Бу таълим турини пайдо бўлишига асосий сабаб деб информацион ва коммуникатив технологияларнинг тезкор ривожланиши ва улар асосида принципаал янгитаълим технологиялар (интернет технологиялар)

яратилишини ҳисоблаш мумкин. Интернет технологиялардан фойдаланиш бизга ўқув материалларни чексиз ва жуда арзон тарқатиш ва кўпайтириш, ҳамда уни ўқувчиларга тезкор ва аниқ етказиш имкониятларини яратиб берди. Шу билан бирга таълим интерактив бўлганлиги сабабли, ўқувчининг ўз устидан мустақил ишлашнинг ўрни жуда катта аҳамиятга эга бўлади.

## **2.Масофавий таълим моделлари.**

Масофавий таълим (МТ) - бу ўқитувчи ва ўқувчи бир бири билан масофа ёки вақт орқали ажратилган сабабли, ахборот технологиялардан фойдаланилган таълим тури.

Бу таълим турини бир неча моделлари мавжуд, улар масофавий таълим ташкил қилинишига сабаб бўлган вазиятлари билан фарқланади: географик сабаблар (мамлакат майдони, марказлардан географик узоқлашган регионлар мавжудлиги), мамлакатни компьютерлаштириш ва информациялаштириш даражаси, транспорт ва коммуникациялар ривожланиш даражаси, масофавий таълим учун мутахасислар мавжудлиги, таълим соҳасида информацион ва коммуникацион технологиялардан фойдаланиш даражаси, мамлакатнинг таълим соҳасидаги одатлари.

1) Бирламчи модел. Ушбу модел фақат масофавий ўқувчилар билан ишлаш учун яратилади. Уларнинг ҳар биттаси виртуал ўқитувчига бириктирилган бўлишади. Консултациялар ва якуний назоратларни топшириш учун эса регионал бўлимлар бўлиши шарт. Шундай ўқув курсларда ўқитувчи ва ўқувчиларга ўқув шаклини ва формасини танлашда катта имкониятлар ва озодликлар берилади.

Бу моделга мисол қилиб Буюк Британиянинг Очиқ Университетидаги (<http://www.ou.uk>) таълимни олиш мумкин.

2) Иккиламчи модел. Ушбу модел масофавий ва кундузги таълим ўқувчилар билан ишлаш учун яратилади. Иккала гуруҳда бир хил ўқув дастури ва дарслар жадвали, имтихонлар ва уларни баҳолаш мезонлари мавжуд. Шундай ўқув муассасаларда кундузги курсларнинг сони масофавийларга қараганда кўп. Ушбу масофавий курслар педагогика ва услубиётдаги янги йўналишларни изланишларида қўлланилади.

Бу моделга мисол қилиб Янги Англия ва Австралия Университетидаги (<http://www.une.edu.au>) таълимни олиш мумкин.

3) Аралашган модел. Ушбу модел масофавий ва кундузги таълим турларини интеграциялаштириш учун яратилади. Ўқувчилар ўқув курснинг бир қисмини кундузги,



бошқа қисмини эса масофадан ўқийди. Шу билан бирга бу таълим турига виртуал семинар, презентациялар ва лекциялар ўтказиш ҳам киради.

Бу моделга мисол қилиб Янги Зеландиядаги Массей Университетидаги (<http://www.massey.ac.nz>) таълимни олиш мумкин.

4) Консорциум. Ушбу модел иккита университетларни бир бири билан бирлашишини талаб қилади. Ушбу муассасалардан бири ўқув курсларни ташкил қилиб ишини таъминласа, икинчиси эса уларни тасдиқлаб, курсларга ўқувчиларни таъминлайди. Шу билан бирга бу жараёнда бутун университет эмас балки битта кафедра ёки маркази ёки университет ўрнида таълим

соҳасида ишлайдиган корхоналар ҳам қатнашиши мумкин. Ушбу моделда ўқув курсларни доимий равишда назорат қилиш ва муаллиф ҳуқуқларини текшириш зарур бўлади.

Бу моделга мисол қилиб Канададаги Очиқ Ўқув Агентлигидаги (<http://www.ola.bc.ca>) таълимни олиш мумкин.

5) Франчайзинг. Ушбу модел иккита университетлар бир бири билан ўзлари яратган ўқув курслар билан алмашишади. Масофавий таълим соҳасида етакчи бўлган ўқув муассаса бу соҳада илк қадам қўядиган муассасага ўзининг ўқув курсларни тақдим қилади. Ушбу моделда иккала муассаса ўқувчилари бир хил таълим ва дипломлар олишади.

Бу моделга мисол қилиб Очиқ Университет Бизнес мактаби ва Шаркий Европа Университетлари билан бўлган ҳамкорлиги бўлиши мумкин.

6) Валидация. Ушбу модел университет ва унинг филиаллари билан бўлган муносабатларига ўхшаш. Бу моделда битта университет ўқув курс дипломларларни қафолатласа, қолган бир нечта университетлар ўқувчиларни таъминлайди.

7) Узоқлашган аудиториялар. Ушбу моделда информацион ва коммуникацион имкониятлар кенг фойдаланилади. Битта ўқув муассасада бўлиб ўтган ўқув курслар видеоконференциялар, радиотрансляциялар ва телекоммунакацион каналлар орқали синхрон телекўрсатувлар кўринишида бошқа аудиторияларга узатилади. Аралашган модел билан фарқи шундаки, бу моделда ўқувчилар кундузги таълимда қатнашмайди.

Бу моделга мисол қилиб АҚШнинг Висконсинг Университетидаги ва Хитойнинг марказий радио ва телевидение Университетидаги таълимни олиш мумкин.

8) Проектлар. Ушбу модел давлат ёки илмий изланиш мақсадидаги дастурларни бажариш учун яратилади. Асосий иш масофавий таълим мутахассислари ва педагоглар тўпланган илмий-методик марказга тушади. Ушбу моделда яратилган курслар аҳолининг қатта қисмига намоёниш қилиниб ўз вазифасини бажаргандан кейин тўхтатилади.

Бу моделга мисол қилиб Африка, Осиё ва Лотин Америкадаги ривожланмаган мамлакатларида ўтказилган қишлоқ хўжалиги, солиқлар ва экология ҳақидаги ўтказилган ҳар хил курслар бўлиши мумкин.

## REFERENCES

1. Kazakov R. T. THE MAIN PHYSICAL QUALITIES OF ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 719-725.

2. Kazakov R. THE METHOD OF IMPROVING PHYSICAL AND SPECIAL PHYSICAL FITNESS INDICATORS OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2023. – Т. 6. – №. 2.
3. Казоқов Р.Т., Абдиев Б.С., Джўрабаев А.М., Бўриев Б.Ў. Спортчилар тайёрлаш тизимини бошқарув асослари турлари. // "OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISH: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR" ЎзДЖТСУ, 1, 530-538
4. Kazoqov R., Jo'raqo'ziev O., Eshpo'latov S. ҚИСҚА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИ СПОРТЧИЛАРНИНГ МАШҒУЛОТ ДАВРЛАРИНИ ТУЗИЛИШИ //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-11.
5. Qutlimurodov I. X., Kazoqov R. T., Vo'ronov A. B. FUTBOLDA INNOVATSION TECHNOLOGIYALARNI QO'LLASH //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 111-117.
6. Buriyev B. U., Qodirov R. R., Kazoqov R. T. Jismoniy tarbiya va sportda axborot kommunikatsiya texnologiyasining tuzilishi va tamoyillari //Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullari. – 2021. – Т. 5. – №. 5. – С. 555-559.
7. Р.Т Казоқов., Талабаларга ахборот хавфсизлигини таъминлаш компонентлигини ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари., Ўзбекистон давлат саънат ва маданият институти хабарлари 4 (12), 61-68
8. Казоқов Р.Т., Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш., Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари 11 (1 ...
9. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. Интернет тармоқларида талаба ёшларнинг мустақил таълим олишдаги билим ва кўникмаларининг такомиллаштириш //SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR. – 2019. – Т. 1. – №. 5
10. Казоқов Р. Т. Талабаларга ахборот хавфсизлигини таъминлаш компонентлигини ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари //Ўзбекистон давлат саънат ва маданият институти хабарлари. – 2019. – Т. 4. – №. 12. – С. 61-68.
11. Р.Т Казоқов, Ш.Қ Бекназаров, Ибодов, А. И. Футболчиларнинг антропометрик ўлчамлари ва тезлик сифатлари орасидаги корреляциясини ўрганишда акт дан фойдаланиш., Тиббиёт ва спорт 1 (10), 27-30.
12. Казоқов, Р. Т., & Джўрабаев, А. М. Юлдашева К.А ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. *SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR*, 1-237.
13. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo'lib-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" ga bag'ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
14. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.

15. Казоқов Р. Т., Джўрабаев А. М. Юлдашева КА ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ //SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR. – С. 1,237-240.
16. Казоқов Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
17. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
18. Казоқов Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
19. Казоқов, Р. Т., Джўрабаев, А. М., Бўриев, Б. Ў., & Ахматов, Ж. О. (2023). ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ. *Академические исследования в современной науке*, 2(6), 111-
20. Казоқов Р. Т., Мирзабдиллаева А. И., Мирзабдиллаева Х. И. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 29-34.
21. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
22. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
23. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КўНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
24. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КўНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
25. Давурбаева М.Ж.,Казоқов Р.Т., Мадаминов М.П.Ёшларнинг мустақил таълим олишдаги билим ва кўникмаларининг такомиллаштиришда интернет ресурсларидан фойдаланишнинг ахамияти//ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE. - 2023/2/14. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.

26. Казоқов Р. Т., Жўрақўзиев О. О., Эшпўлатов С. С. СПОРТ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 238-248.
27. Казоқов Р.Т., Бўриев Б.Ў., Абдиев Б.Ш., Джўрабаев А.М., Туропов А.Р.КУРАШ МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
28. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида энгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” ga bag‘ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
29. Казоқов Р. Т., Расулов А. Ғ., Бўронов А. Б. СПОРТ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ГУРУҲЛАРИДА ЁШ ФУТБОЛЧИЛАРНИ ТАНЛОВ УСЛУБИЯТЛАРИНИ АСОСЛАШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 38-46.
30. Kazoqov R. T., Vo'ronov A. B. SPORTDAGI DOLZARB YANGILIKLAR //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 47-56.
31. Kazoqov R. T., Pirnazarov S. A., Shamsiddinov S. X. STUDENTS LEARN TO ORGANIZE PROFESSIONAL PHYSICAL TRAINING AND CONTROL PHYSICAL DEVELOPMENT //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1195-1202.
32. Eshpo'latov S. S. METHODS AND PRINCIPLES OF IMPROVING TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS AND PHYSICAL TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1296-1302.
33. Kazoqov R. T., Eshpo'latov S. S. YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS ARE THE PROCESSES OF ORGANIZING TRAINING SESSIONS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1303-1310.
34. Ismoiljonovich, Bobomurodov Feruz, Parmonov Rustam Mizamovich, and Rasulov Qushimboy Xo'janiyozov Boboxon Ixtiyorovich. "In Wrestling Speciality, In Developing Technical Actions Of Wrestlers Is To Consider Morphological Peculiarities." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 4065-4070.
35. Pirmatov O. Z., Kazakov R. T. ROLE AND PLACE OF SPORTS AND ACTIVE GAMES IN THE GENERAL STRUCTURE OF EDUCATIONAL AND PRODUCTION PRACTICE //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 125-131.
36. Yusupova N. R. SOCIO-GENDER ASPECTS OF MODERN WOMEN'S SPORTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 118-124.
37. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 180-186.
38. Туробов Ҳ. Национальная система массового вовлечения всех слоев населения в спортивно-оздоровительную деятельность //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. Special Issue 1. – С. 254-261.

39. Turobov X. X., Soliyev S. S. Zamonaviy O'zbekistonda ommaviy sportni rivojlantirishning tashkiliy asoslari //Uzluksiz ta'lim. – 2022. – С. 33-39.
40. Turobov X. X., Siddiqova F. ВОЛЕЙБОЛЧИЛАРДА САКРОВЧАНЛИК СИФАТИНИ МАХСУС ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР ЁРДАМИДА ШАКЛЛАНТИРИШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 11. – №. 4. – С. 17-21.



## YOSH KARATECHI QIZLARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITALARNING AHAMIYATI

Yo'ldosheva Dilnoza Obid qizi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

O'zbekiston, Chirchiq shaxri.

[dilnoza@gmail.com](mailto:dilnoza@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8416022>

*Annotatsiya.* Ushbu ishda yosh karatechi qizlarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi vositalar va ularni qo'llash samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

*Kalit so'zlar:* Umumiy jismoniy tayyorgarlik vositasi, texnik tayyorgarlik, yuklamaning hajm va shiddati, sport natijasi.

## THE IMPORTANCE OF TOOLS THAT PROMOTE THE GENERAL PHYSICAL FITNESS OF YOUNG KARATE GIRLS

*Abstract.* This work focused on the tools that enhance the overall physical fitness of young Karate Girls and the effectiveness of their application.

*Key words:* general physical training tool, technical training, volume and intensity of loading, Sports result.

## ЗНАЧЕНИЕ СРЕДСТВ, РАЗВИВАЮЩИХ ОБЩУЮ ФИЗИЧЕСКУЮ ПОДГОТОВЛЕННОСТЬ ЮНЫХ КАРАТИСТОВ

*Аннотация.* В данной работе рассматриваются средства, повышающие общую физическую форму юных девушек-каратисток, и эффективность их применения.

*Ключевые слова:* средство общей физической подготовки, техническая подготовка, объем и интенсивность нагрузки, спортивный результат.

Yosh sportchilar tayyorgarlik tizimining dastlabki holatlaridan biri – yuqori natijalarga erishishning optimal yoshga ko'rsatmasi, yosh sportchilarni beqaror tezkor muvoffaqiyatli natijalarini emas, balki hatto optimal yosh davrigacha ularning sport takomillashuvini bir tekis rivojlanishini ta'minlovchi tayyorgarlik shakllari, vositalari va uslublarini izlab topishni talab qiladi. Sport natijalarining o'sishi ko'p jihatdan mashg'ulot vosita va yuklamalarining qanchalik to'g'ri tanlanganligiga va rivojlantirilganligiga bog'liq bo'ladi.

F.A.Kerimovning fikricha zamonaviy sport mashg'ulotlariga ko'p yillik jarayon sifatida qaraladi. Amalda esa u shunday bo'lishi kerakki, qachonki uning boshlang'ich bosqichida maksimal darajada mumkin qadar funksional, harakat, texnik imkoniyatlarni yaratishga,

qolganlarini esa ularni yuqori sport natijasi ko‘rinishida amalga oshirishga bag‘ishlansa, tabiiyki o‘sha holda tayyorgarlikni jadallashtirish istiqboli uchun ishlashga, ya‘ni sport mashg‘ulotining ikkinchi bosqichiga o‘rin bo‘shatadi.

Ma‘lumki, mashg‘ulot jarayonidagi asosiy vositalar umum qabul qilingan toifalanishga muvofiq umumiy jismoniy va maxsus tayyorgarlik vositalarga bo‘linadigan jismoniy mashqlar hisoblanadi va ko‘p yillik tayyorgarlikning dastlabki bosqichida qo‘llaniladigan umumiy jismoniy tayyorgarlik vosita va usullari salmog‘i yuqori hisoblanadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish uchun yengil atletikaning turgan joydan uzunlikka sakrash - mashg‘ulot jarayonida sakrash ishlarini bajarishda yuklamaning katta qismi oyoq mushaklariga tushadi, shuning uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalaridan biri hisoblangan bu mashqni bajarilishi “sakrash” tavsifidagi, ya‘ni bajarilish tartibidan kelib chiqib, yoki kuch, yoki tezkor chidamkorlikka urg‘u berish bilan umumiy tezkor-kuch chidamkorligini yaxshilashga yordam beradi, yugurib kelib balandlikdan hatlab o‘tish, 1kg og‘irlikdagi to‘ldirma to‘pni bosh ortida uloqtirish mashqlari shug‘ullanuvchi qizlarni kuch sifatlarini rivojlantiradi.

U.V.Verxoshanskiyning ta‘kidlashicha mashg‘ulotning boshlang‘ich bosqichlarida qo‘llaniladigan yuklamalar katta va kichik bo‘lishidan qat‘iy nazar kuch sifati nisbati bir xil o‘sadi. Maksimumdan 20, 40, 60, 80% ga teng og‘irliklar bilan ishlaganda, kuchning taxminan bir xil o‘sganligi aniqlangan.

Shug‘ullanuvchi qanchalik kam tayyorgarlik ko‘rsa ham kuchning shuncha shiddatli o‘sishi isbotlangan. Lekin mahorat oshgan sari kuchning o‘sish surati kamayadi va tegishli maxsus vositalar yordamida ta‘minlanishi mumkin. 30 metrga tezlik bilan yugurish, 1000 metrga yugurish mashqlari tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantiradi.

Sport o‘yinlar -Sport turlarida, shuningdik karate bilan shug‘ullanuvchi qizlarning mashg‘ulotlarida ularning harakat faoliyati va maqsadiga qaratilgan texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarni karate elementlaridan iborat harakatli o‘yinlar orqali shakllantirilgan mashg‘ulot jarayonida shug‘ullanuvchi qizlarda ruhiy-ma‘naviy va amaliy faoliyatlarni qiziqib, puxta va aniq bajarishga yetaklaydi.

Aniqlanganki yosh karatechi qizlarning o‘quv- mashg‘ulotlarida karatega xos pedagogik prinsipni qo‘llash, karate elementlaridan iborat turdosh yoki unga moslashtirilgan, musoboqa tarzida o‘tkaziladigan harakatli o‘yinlardan muntazam foydalanish motivatsiyani kuchaytirishi, toliqish alomatlarini vujudga kelishiga to‘sqinlik qilishi va maqsadli natijalarni yuzaga keltirishi ko‘plab isbotlangan. Tabiiyki, mashg‘ulotlarda harakatli o‘yinlardan foydalanish o‘z samarasini berishi aniq.

Ayniqsa, mashg'ulotlarni musoboqa shaklida o'tkazish karate mashqlari jumladan harakat ko'nikmalari va jismoniy sifatlarni samarali shakllanishiga imkon yaratadi. Yosh karatechi qizlarning mashg'ulot jarayonida harakatli o'yinlar tanlash yo'nalishiga ko'ra jismoniy sifatlarni tarbiyalash va karatega xos bo'lgan tehnikani shakllantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa erishilgan natijalar samarali bo'ladi.

#### **REFERENCES**

1. Funakoshi Gichin "Karate-do: mening hayot uslubim" Tokio 1975 yil
2. Shuhrat Arslonov "Karate-do dunyosini o'rganing" Toshkent 2005yil
3. Masao Kagawa " Best Karate" Japan 2007
4. Masatoshi Nakayama "Dinamika karate" Moskva 2003 y
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## INNOVATSIYA VA IJODKORLIK IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Beknazarova Lola Sadinovna

Qarshi davlat universiteti psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8416052>

**Annotatsiya.** Ushb maqolada innovatsiya va ijodkorlikning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o'rganilishi hamda oliy ta'lim tizimida muammoning yechimini aniqlash va talabalarni yetuk mutaxassislar sifatida shakllantirishning muhim ijtimoiy -psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagog va talabalarning ijodiy – innovatsion rivojlanishi ga xos amaliy natijalar tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, muammo, ijodkorlik, innovatsiya, qobiliyat, ijodkor shaxs, iste'dodi, yaratuvchanlik, xususiyat, ijodiy fikrlash, ijodiy faoliyat, ijodkorlik fenomeni, kompetensiya, tadqiqotchi, pedagog, talaba, omil, muammo, yetuklik, tafakkur, psixologik xususiyat.

## INNOVATION AND CREATIVITY AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

**Abstract.** The article analyzes the study of innovation and creativity as a socio-psychological phenomenon and the important socio-psychological and pedagogical aspects of identifying a solution to the problem in the higher education system and shaping students as mature professionals. Also presented is an analysis of practical results specific to the creative and innovative development of educators and students, aimed at improving the effectiveness of education in higher educational institutions.

**Keywords:** higher education, problem, creativity, innovation, ability, creative personality, talent, creativity, character, creative thinking, creative activity, phenomenon of creativity, competence, researcher, educator, student, factor, problem, maturity, thinking, psychological feature.

## ИННОВАЦИИ И ТВОРЧЕСТВО КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается изучение инноваций и творчества как социально-психологических феноменов, а также анализ важных социально-психологических и педагогических аспектов определения решения проблемы в системе высшего образования и становления студентов зрелыми специалистами. Также представлен анализ практических результатов, присущих творческо – инновационному развитию педагога и учащихся, направленных на повышение эффективности обучения в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** высшее образование, проблема, творчество, инновации, способности, творческая личность, талант, креативность, особенность, творческое мышление, творческая деятельность, феномен творчества, компетентность, исследователь, педагог, ученик, фактор, проблема, зрелость, мышление, психологическая характеристика.

**Kirish.** Hozirgi kunda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash muammosini o'rganish, psixologiya sohasining dolzarb muammolaridan biriga aylandi, mazkur muammoning yechimi

ta'lim tizimida ko'plab yangi g'oyalarni yuzaga keltirishga hamda iqtidorli shaxslarni yetishtirishga keng xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalaridagi muammolarni aniqlash va ularni yangi islohotlar darajasiga ko'tarish, nostandart vazifalar va ularning yechimlarni hal qilish va bu borada yangi takliflar ishlab chiqish, ob'ektlardan, imkoniyatlardan o'z vaqtida foydalanish, kelajakda soha egalarini yetuk mutaxassislar sifatida shakllantirish muhim masala bo'lib hisoblanadi. Mohiyatan, innovatorlik, ijodkorlik bu – yaratish, ixtiro qilish demakdir.

Aqlli, iqtidorli, ijodkor insonning ijodi yuksak samaralar berishini qator ijtimoiy fan sohalari isbotlagan. Ijodkorlik, innovatsion qobiliyat va ijodkor shaxsning iste'dodi, yaratuvchanlik xususiyatlari, ijodiy fikrlash kabi masalalar D. Makkinon, Dj.Gilford, E.P.Torrens, K.L.Taylor, A.Olax, Dj.Renzulli, R.Sternberg, N.Rodjers, Ya.A.Ponomaryov, V.N.Drujinin, A.M. Matyushkin, B.C.Yurkevich, A.A.Joldasbekov, I.Ya.Lerner, A.N.Luk, A.V.Brushlinskiy, B.M.Teplov, D.B.Bogoyavlenskaya, M.A.Xolodnaya, Yu.D.Babaeva, D.V.Ushakov, A.I.Savenkov va boshqa xorij tadqiqotchilarning ishlarida, o'ziga xos tarzda tadqiq etilgan [4]

**Asosiy qism.** Tadqiqotchilardan D.V.Ushakovning yozishicha, “ijodkorlik takrorlanib bo'lmaydigan, tarixiy-ijtimoiy, sifatli innovatsion faoliyatdir” [14]. Boshqa bir muallif M.G.Selyuchning so'zlariga ko'ra, “ijodiy faoliyat – yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan faoliyatdir”[12]. Ushbu ikki yondashuvdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ijodkorlik nafaqat yangi narsalarni va vaziyatlarni hal etish balki, ijtimoiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-psixologik xususiyat hisoblanadi.

Biroq, ayrim tadqiqotchilar guruhi ijodkorlikni “ijtimoiy dadillik” tushunchasiga yaqin ta'rif bilan tavsiflaydilar. Misol uchun, A.N.Lukning fikricha, ijodkor shaxs tavakkalchi, u ko'p g'oyalarga ega va ularni ommaga oshkor etishdan qo'rqmaydi. Muallif ijodkor shaxsga tegishli quyidagi qobiliyatlar turlarini ajratib o'tadi:[8]

-motivatsiya bilan bog'liq qobiliyatlar (ko'proq qiziqish va moslashuvchanlik);

-temperament bilan bog'liq qobiliyatlar (yaxshi kayfiyat, samarali ijod);

-fikrlash qobiliyatlari (fikrlash orqali rejalashtirish va keyin vazifa amalga oshiriladi.

I.Ya.Lerner esa, ijodkorlikni bilim, ko'nikma, malakalarni yangi vaziyatga o'tkazish, yangi yechim topish qobiliyatini ijodiy faoliyat sifatida tushuntiradi.

Demak, ushbu ta'rifga muvofiq muallif ijodkorlikni faoliyatni oldindan ko'ra bilish, muammolarni hal qilishda hushyorlik, g'oyalarning amalga oshirilishini bashorat qilish qobiliyati (hosil qilish qobiliyati) kabi xususiyatlar bilan bog'laydi.

Shuni alohida ta'kidlash o'tish joizki, ba'zan fanda ijodkorlik innovatsion o'zgarishlar va ilg'or taraqqiyot darajasini belgilovchi, sifatli yangiliklarni ochib beruvchi, noyob tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida ham tavsiflanadi.

D.V.Chernilevskiyning fikricha, “Ijodiy faoliyat yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega yangi mahsulot ishlab chiqaradigan faoliyatdir”[15]. S.L.Rubinshteyn ijodkorlikni - muammoni hal qilishdagi mahsuldor faoliyat, masalani oldindan ko'ra bilish, g'oyani amalga oshirish deb hisoblaydi. Shu bilan birga, muallif insondagi bashorat qilish qobiliyatini “avlodga” tegishli qobiliyat sifatida e'tirof etadi[13].

Darhaqiqat, hozirgi kunda zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy shartlaridan biri bu, oliy o'quv yurti talabalarida ijodiy-innovatsion qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Chunki ijodiy faoliyat insonda yuksak his-tuyg'ularva kasbiy, shaxsiy muhim sifatlarni rivojlantiradi. Boshqa



tadqiqotchilar ham ijodkorlik xususiyati to'g'risida, o'ziga xos fikr-mulohazalar bildirgan bo'lib, uni fikrlashning yuqori bosqichi sifatida ta'riflaydilar. Misol uchun, V.V.Korobkovaning yozishicha, ijodiy faoliyat jarayonida shaxs o'sadi, rivojlanadi va fikrlashning yuqori darajasiga ko'tariladi. Shuningdek, ijodkorlik inson faoliyatining eng oliy shaklidir. Hayotdagi yangi o'zgarishlar ijodiy faoliyat mahsulidir [6].

Muallif o'z tadqiqotida, ijodkorlikni inson tafakkurining, mustaqil faoliyatining oliy shakli sifatida ham e'tirof etadi. Mazkur yondashuvlardan farqli o'laroq, intellekt masalasida yetakchi bo'lgan tadqiqotchilar, ijodiy qobiliyat va intellektual qobiliyatlarni o'zaro aloqado psixologik hodisa sifatida o'rganishgan.

Xuddi shunday qarashlar tadqiqotchilardan L.Tyorstoun va Dj.Gilfordlarning izlanishlarida o'z aksini topgan. Mualliflar ijodiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlar o'rtasida qandaydir aloqa mavjud deb xulosa qilishib, uni shaxsning muammolarga bo'lgan sezgirlik qobiliyati, ma'lumotlarni qayta aniqlash malakasi kabi kompetensiyalar bilan ta'riflashga harakat qilishgan. Psixolog Ye.P.Torrens shaxsning ijodkorlik, yaratuvchanlik sifatlarini baholovchi testlarni yaratishga muvaffaq bo'ldi va unda ijodkorlikni begilovchi quyidagi sifatlarni baholash maqsad qilindi:

- muammolar va qarama-qarshiliklarni tushunish qobiliyati;
- stereotipik fikrlash usullaridan rad qilish;
- yangi g'oyalarni yaratish va muammolarni hal qilishning noan'anaviy usullarini topish qobiliyati ( I.Yu.Matvieveva 2008) [9];
- vaziyatning yetishmayotgan elementlari bo'yicha, alohida farazlarni shakllantirish qobiliyati.

Ushbu tasnifga muvofiq, insonning ijodiy harakat qilish modeli namoyon bo'lib, unda muammoni idrok etish, farazlarni shakllantirish, yechimlarni izlash, farazlarni tekshirish va o'zgartirish kabilar ham o'rin oladi.

Ayrim tadqiqotchilar guruhining yozishicha, ijodkorlik jarayoni murakkab vaziyatlar va ularni hal etish bosqichi kabi masalalar bilan ham xarakterlanadi.

A.I.Sannikovaning ta'kidlashicha, ijodkorlik quyidagilarni o'z ichiga oladi: qiyinchiliklar, muammolar, ma'lumotlardagi bo'shliqlar, yetishmayotgan elementlar, ushbu yetishmayotgan elementlar haqida farazlarni taklif qilish, ularni takroran sinab ko'rish va baholash [11]. Bunday holatda insonning umumiy intellekti va maxsus qobiliyatlari o'rta darajadan ancha yuqori bo'lishi, shuningdek, topshiriqni bajarish uchun avvalambor, shaxsda ishtiyoq bo'lishi lozim.

Zamonaviy psixologiyada ijodkorlik fenomeniga nafaqat aqliy harakat, balki oliy insoniy sifat, yuqori darajadagi obraz yoki turmush tarzi, dunyoga yangicha munosabat sifatida qaralmoqda. Shaxs kamolotidagi ijodiy taqdir, shaxsning madaniyat bilan munosabati va muloqot malakalari bilan belgilanadi.

Psixolog G.Olport o'zining "Shaxs" nomli birinchi fundamental kitobida shunday deydi: "har bir rassom, bastakor, o'qituvchi, o'quvchi, pianinochi, haykaltarosh, raqqosa, shoir, dramaturg, rassom, notiq, fotograf, akrobat, uy bekasi va oddiy haydovchining o'ziga xos harakatlar uslubi bor. Shu bois ham, uslub ijodiy qobiliyatning yuqori darajasi hisoblanib, u yaxshi integratsiyalashgan va shaxsning muvaffaqiyatli xatti-harakati ishtirok yetganda yuzaga chiqadi" deb ta'kidlaydi.

Mazkur yondashuvga ko'ra, ijodkorlik bu – faqat ilm egasida emas, balki barcha kasb egalari faoliyatiga ham xos psixologik unsurdir. Ya'ni u cheklangan amaliyot sohalarida shaxs individualligini aks ettirish yoki yaxshi rasm chizishni anglatmaydi, balki u kundalik va oddiy ko'rinadigan narsalarda, masalan, kechki ovqat tayyorlash, mashinani ta'mirlash va hatto uy yumushlarida ham ifodalanishi mumkin.

Masalan, ko'pchilik yaxshi asar va ijod namunalarini dunyodagi eng yaxshisi deb baholashadi, bu yangiliklarni yaratishga bo'lgan ijodiy yondashuvni aks ettiradi va muhabbat bilan uyg'unlashadi. Demak, ijodiy kompetensiya insonning o'ziga xos sifatlari va maxsus qobiliyatlari majmui bo'lib, yangi va ilg'or g'oyalarni yaratishga xizmat qiladi. L.A.Adreevaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, har bir yoshning o'ziga xos qobiliyatlari bor va u ijodkorlik uchun juda muhimdir. Shuning uchun, bolani yoshligidan maktabni tugatguniga qadar, ijodga doimiy jalb etish, aql-zakovat va moslashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirish o'ta muhim ish sanaladi [1]. Shunday tadqiqotlar mavjudki, ularda "ijodkorlik" fenomeni tafakkurning yetukligi va o'zini o'zi tarbiyalay olish ko'nikmalari bilan tavsiflanadi.

T.A.Kasilo o'zining "Ijodiy faoliyat mezonlari muammosi" mavzusidagi ilmiy maqolasida, ijodkor shaxslarni shunday ta'riflaydi: "Ijodkor kishilar ko'pincha chuqur bilimga, turli qobiliyat, ko'nikma va qobiliyatlarga ega, shuningdek, atrof-muhitdagi voqelik, xatti-harakatlar haqida o'zlarining muqobil fikrlash tarziga ega shaxslardir. Bundan tashqari, bunday shaxslarda tafakkurning yetukligi ustun bo'lib, ular yangiliklarni aniqshga doir ko'plab sifatlarni o'zida mujassamlashtira olgan shaxslardir" [5].

Demak, mazkur yondoshuvga muvofiq, ijodiy faoliyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, ijodiy qobiliyatli shaxslar avvalambor, o'z g'oyalarini amalga oshirishning yangi usullarini izlay oladilar qolaversa, yangi texnologiyalarni amaliyotda qo'llay oladilar, muammolarni yangicha usulda yecha oladilar, o'quv faoliyati davomida o'z-o'zini tarbiyalashga va rivojlantirishga katta e'tibor qaratadilar. Shu bilan birga bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, umumlashtirish, vaziyatlarni baholash, nazorat qilish kabi kompetensiyalarga ham ega bo'lishadi.


Ba'zi tadqiqotchilar, "ijodkorlik" fenomenini o'qituvchilarning kasbiy faoliyati orqali tushuntirishga harakat qilishadilar. Va asosiy omillar sifatida, muhim ijtimoiy-pedagogik muammolarni tushuna olish, mashg'ulotlarda muqobil yechimlarni topa bilish, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishning pedagogik jihatlarni yaxshi bilish va uni takomillashtirishning amaliy, nazariy yo'llarini yaxshi bilishi kabilar e'tirof etiladi.

Ta'kidlash joizki, ijodkorlik yoki ijodiy sifatlarning rivojlanganligi, maxsus qobiliyatlar bilan o'zaro aloqador bo'lib, ushbu mazmundagi tadqiqotlar ham, "ijodkordik" fenomenini tushuntirishda, alohida ahamiyatga ega ishlar turkumidan biri hisoblanadi.

Ijodkorlik, novatorlik kabi tushunchalar faqatgina psixologiya sohasining predmeti bo'lib qolmay balki u fanlararo tadqiqotlarning o'rganish predmeti hisoblanadi. Shuning uchun ham unga berilgan ta'rif va tavsiflar ham umumpsixologik, ham ijtimoiy-psixologik mazmundagi qarashlar hisoblanadi.

**Natija:** Oliy o'quv yurtlari ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligini takomillashtirishning amaliy jihatlarni aniqlash maqsadida tadqiqot uchun tanlangan metodikalar asosida natijalarini tahlil qilishga harakat qildik.

**N.Vishniyakovanning Kreativlikning psixologik xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari**



1-rasm


Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligiga erishish-innovatsion faoliyat mazmunida yetakchi shaxsiga xos o'zini o'zi rivojlantirish, tolerantlik, mas'uliyatlilik, ijtimoiy faollik, kommunikativlik, yuqori darajadagi sotsial intellekt hamda ishbilarmonlik kabi sifatlar innovatsion faoliyatni tashkil etishning zaruriy unsurlaridan biri hisoblanadi.

Kreativlikning psixologik xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalariga ko'ra, mazkur so'rovnomaga bo'yicha Termiz davlat universitetida tahsil oluvchi talabalarda ikki oliygoch talabalariga qaraganda yuqoriroq natijalar kuzatilgan.

Xorijlik tadqiqotchilarning maxsus tadqiqotlarida garchand kreativlik qobiliyati sohasida yaqqol gender tafovutlar kuzatilmasligi aniqlangan bo'lsa ham, ammo ba'zi tadqiqotlarning natijalariga ko'ra o'z ijodiy salohiyatini talaba yigitlar quyi kurslarda, talaba qizlar esa yuqori kurslarda namoyon etadilar.

Keyingi keltirilgan jadvalda sinalluvchilardan shaxs ijodkorligining to'rt yo'nalishi xususiyatlari darajasi so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalari taqdim qilingan (2-rasm).

#### **E.Tunikning Shaxs ijodkorligining to'rt yo'nalishi xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari**




2-rasm

Shaxs ijodkorligining to'rt yo'nalishi xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma bo'yicha Samarqand davlat universiteti talabalarida Qarshi va Termiz davlat universitetlarida tahsil oluvchi talabalarga qaraganda natijalar ijobiy va yuqoriroq kuzatilganligi ma'lum bo'lgan. Hozirgi davrda talabalar qanday kasblar kelajakda rivojlanishini bilishi va o'ziga ma'qul bo'lgan kasb uchun zarur bilimlarni egallashi, buning uchun, avvalo, shaxsiy qaror qabul qilishi lozim.

Shuningdek, bu turdagi dolzarb masalalarni tadqiq yetish uchun uzoq xorij va qo'shma shtatlar psixologiyasida ko'plab tajriba sinovlardan o'tgan test va so'rovnomalarni tanlash va ularni amaliyotga tatbiq yetish, tadqiqotni amalga oshiruvchi izlanuvchilarni oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi.

#### Shaxs kreativlik xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari



3-rasm

**Shaxs kreativlik xususiyatlarini aniqlash so'rovnoma natijalari**

Shaxs kreativlik darajasi xususiyatlarini aniqlashga mo'ljallangan so'rovnoma bo'yicha birinchi shkala ijodiy fikrlash shkalasi bo'yicha 138,43 natijani Samarqand davlat universiteti, 126,72 ko'rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 135,49 natijani Termiz davlat universitetida faoliyat yurituvchi pedagoglar tashkil etgan. Qiziqish shkala bo'yicha 131,33 natijani Samarqand davlat universiteti, 134,28 ko'rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 140,51 natijani Termiz davlat universitetida faoliyat yurituvchi pedagoglar xarakterlangan.


Originallik shkalasi bo'yicha 144,12 natijani Samarqand davlat universiteti, 132,39 ko'rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 129,46 natijani Termiz davlat universitetida faoliyat yurituvchi pedagoglar namoyon bo'lgan. Tasavvurning boyligi shkalaga ko'ra, 146,59 natijani Samarqand davlat universiteti, 128,63 ko'rsatkichni Qarshi davlat universiteti hamda 132,27 natijani Termiz davlat universitetida faoliyat yurituvchi pedagoglar tashkil etgan.

***Ключевые слова:** Основы техники тройного прыжка, квалификация юных спортсменок, контрольная группа, антропологические показатели, план тренировок, тренировочные нагрузки, формирование спортсменок, достижения, недостатки.*

**KIRISH**

Mustaqillik tufayli yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, shakllantirish va barkamol avlodni tarbiyalash kafolati vositasi sifatida davlat siyosati ustuvor yunalishlari



doirasida joy olib, Prezidentimiz va xukumat tomonidan qabul qilingan farmon xamda qarorlar asosida yuksak chuqqi sari qanot yozmoqda. Kechagi yosh sportchi bolalar, bugun nafaqat o`zbekiston sportida balki Olimpiya o`yinlari, joxon va osiyo chempionatlari musobaqalarida o`z natijalari bilan faxrli shoxsupalardan joy olib yurtimiz shon-shuxratini jaxon xamjamiyati oldida tarannum etmoqda.

Yaqindagina Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 martdagi “O`zbekiston sportchilarini 2020 yilda Tokio shahrida (Yaponiyada) bo`lib o`tadigan yozgi XXXI Olimpiya va XVI paralimpiya o`yinlariga tayyorlash to`g`risida”gi PQ-2821-sonli qarorida ko`pyillik tayyorgarlik mashg`ulotlariga iqtidorli va istiqbolli sportchilarni izlab topish, ularni sport turlariga yo`naltirish, mashg`ulot jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish, Vazirlar Mahkamasining “[Bolalar-o`smirlar sport maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida](#)”gi va “Oliy mahorat sport maktablari faoliyatini tashkil etish to`g`risida”gi qarorlarida esa sportning muayyan turi bilan shug`ullanish uchun zarur sport ko`rsatkichlariga va yuqori mahoratli sportchilar salohiyatiga ega bo`lgan istiqbolli sportchilar orasidan bolalar-o`smirlar sport maktablarida, olimpiya zaxirasi ixtisoslashtirilgan bolalar-o`smirlar sport maktablari va kollejarida dastlabki tayyorgarlikdan o`tgan o`quvchilarni tanlab olish masalalariga e`tibor qaratilgan.

Belgilangan vazifalar ijrosini ta`minlash borasida jismoniy tarbiya va sport sohasida ham qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Sohada zamonaviy bilimga ega, jonkuyap va fidoyi mutaxassislar faoliyat olib borayotgani sabab so`ngi yillarda bu borada qo`lga kiritilgan yutuqlar va erishilgan marralar salmog`i ortib bormoqda.

Sport turlari bo`yicha yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, shu bilan birga bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon talablariga mos, kuchli raqobatga kirisha oladigan yuksak mahoratli mutaxassislarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasi oldida turgan kechiktirib bo`lmas vazifalardan sanaladi.

Maktab o`quvchi – qizlarining tezkor-kuch sifatleri yaxshi rivojlanmaganligi ularning sportdagi natijalariga ta`sir ko`rsatmokda va terma jamoaning aynan shu tur bo`yicha shakillanishi bir muncha ortta qolmoqda. Tezkor-kuch sifatleri natijalarning asosi bo`lib hisoblanadi va ularni rivojlantirish orqali sportchilar yuqoriroq natijalarga erishishlari mumkin.

**Ishning maqsadi.** Uch xatlab sakrovchi o`quvchi – qizlarning tezkor kuch sifatlerini rivojlantiruvchi samarali vosita va uslublarni aniqlash hamda amalda qo`llash orqali sport natijalarini oshirish.

**Tadqiqod vazifalari:** Biz oldimizdagi maqsqadni amalga oshirishda vazifilarni belgilab oldik.

- mavzuga oid ilmiy uslubiy adabiyotlar taxlili
- sportchilarni antropometrik va jismoniy xolatlarini aniqlash
- yosh qizlarga uch xatlab sakrash texnikasini o`rgatish va tezkorlik kuchini shakillantirishga ishlab chiqilgan mentodlar.

Mavzu bo`yicha jamlangan adabiyotlarda qayd etilgan ilmiy va uslubiy ma`lumotlar qiyosiy tarzda tahlil qilindi hamda masalaning bugungi ahvoliga baho berildi. Jumladan dastlabki o`rgatish bosqichida sport malakalariga o`rgatish samaradorligi jismoniy sifatlarga bog`liq ekanligi olimlar tadqiqotlari yordamida asoslab berildi. Yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlarni asosan standart, steriotip mashqlar ta`sirida rivojlantirilishi e`tirof etilib, bunday



yondashuv har doim ham kutilgan natijani bermasligiga urg'u berildi. Aynan adabiyotlarni tahlil qilish bobida jismoniy sifatlarni maxsus harakatli o'yinlar yordamida shakllantirish yuksak samara berishi ta'kidlab o'tildi. Bunda bolalar va o'smirlar jismoniy tarbiyasiga konseptual yondoshib, uzluksiz ta'lim tizimida Respublika aholisining ko'p millatligiga tayangan holda, har bir mamlakatning madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy- iqtisodiy talablari hisobga olingan.

**Tadqiqot tashkil qilish va o'tkazish:** Biz tadqiqotimizni jami 12 nafar Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 3-sonli umumtalim maktabni 4-5 sinf qizlarida tashkil etdik, Nazorat guruhi sifatida esa Toshkent viloyati iqtisoslashgan sport maktabining uch xatlab sakrashga yo'naltirilgan guruhlardan 12 nafar qizni saralab oldik, tadqiqot 2022-yilning 5-sentyabiridan ishlab chiqilgan mashg'ulot yuklamalari asosida mashg'ulotlarni boshladik va yakuniy qismi 2023-yil 20-fevral oyida o'tkazildi. Olib borilgan tadqiqot boshida sportchilarni antropometrik ko'rsatkichlarini o'rganib chiqdik.

#### Tajriba guruhi sinaluvchilarining tadqiqot oldidan antropometrik ko'rsatkichlari

1- jadval

№	I.F.O	Yoshi	Bo'yi(sm)	Vazni(kg)	Oyoq uzunligi(sm)
1	Vohidova Yulduz	10	1.20	26	70
2	Fayziyeva Gulassal	11	1.39	31	81
3	Salimova Mohichexra	10	1.28	29	78
4	Saidova Kamila	10	1.25	28	73
5	Ataboyeva Aziza	11	1.30	26	76
6	Ablakulova Dilafruz	10	1.27	27	74
7	Aminova Nigina	12	1.35	30	80
8	Nabiyeva Maxliyo	12	1.43	33	90
9	Abdullayeva Shag'zoda	11	1.38	31	81
10	Botirova Madina	11	1.40	33	88
11	Vasikova Naima	10	1.31	27	72
12	Gaybullayeva Jasmina	10	1.36	26	76
<b>O'rtacha ko'rsatkich</b>			<b>1,32</b>	<b>28,91</b>	<b>78,25</b>

Dastlab biz tadqiqotga jalb qilingan sportchi qizlarimizni tadqiqot davomida antropometrik ko'rsatkichlarini o'sishini nazoratga olish maqsadida ularning bo'yi, vazni va oyoq uzunligini o'lchab oldik, unga ko'ra tadqiqot guruhiga jalb qilingan 12 nafar qizlarning bo'y balandligi o'rtacha 1,32 sm ni, tana og'irligi o'rtacha 28,91 kg ni, oyoq uzunligi esa 78,25 sm ni tashkil qildi.

#### Tajriba guruhi sinaluvchilarining tadqiqot oldidan jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari

2-jadval

№	I.F.O	30 M (sek)	Joydan Uzunlikka sakrash	Joydan uch hatlab sakrash	60 m (sek)	Press 1 min	Shasiy natija
1	Vohidova Yulduz	5.82	1.64	5.10	10.98	10	7.86
2	Fayziyeva Gulassal	5.21	1.58	5.35	10.70	13	8.20
3	Salimova Mohichexra	5.32	1.41	5.32	10.67	12	8.16
4	Saidova Kamila	5.68	1.78	5.20	10.80	11	8.02
5	Ataboyeva Aziza	5.51	1.65	5.29	10.63	12	8.11
6	Abdullayeva Shaxruza	5.60	1.53	5.27	10.71	11	8.08
7	Aminova Nigina	5.23	1.55	5.32	10.66	13	8.18
8	Nabiyeva Maxliyo	5.08	1.20	5.60	11.08	18	8.30
9	Abdullayeva Shag'zoda	5.16	1.34	5.50	11.05	15	8.23
10	Botirova Madina	5.10	1.76	5.58	11.12	15	8.26
11	Vasikova Naima	5.70	1.50	5.18	10.92	10	7.98
12	Gaybullayeva Jasmina	5.40	1.59	5.30	11.11	12	8.15
<b>O'rtacha ko'rsatkich</b>		<b>5,40</b>	<b>1,54</b>	<b>5,33</b>	<b>10,86</b>	<b>12,66</b>	<b>8,12</b>

Tajriba guruxi sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini nazoratga olish maqsadida quyidagi yo`nalishlar bo'yicha test sinovlarini oldik, demak 30 metr ga yugurish natijasi o'rtacha 5,40 soniya ni, joyidan uzunlikka sakrashda o'rtacha 1,54 sm ni, joyidan uch hatlab sakrash o'rtacha 5,33 sm ni, 60 metr ga shiddatli yugurishda 10,86 soniyani, 1 daqiqa davomida yotgan xolatda gavnani bukub yoyish o'rtacha 12,66 ta ni va bu jismoniy tayyorgarlikga esa sportchi qizlarimizni shaxsiy natijalari o'rtacha 8,12 sm ni tashkil qilmoqda.

**Nazorat guruhi sinaluvchilarining tadqiqot oldidan antropometrik ko'rsatkichlari**

3- jadval

№	I.F.O	Yoshi	Bo'yi(sm)	Vazni(kg)	Oyoq uzunligi(sm)
---	-------	-------	-----------	-----------	-------------------

1	Aliyeva Alina	10	1.20	25	65
2	Baxtiyarova Munisa	10	1.25	27	68
3	Vohidova Shabnam	10	1.27	28	64
4	Giyasova Madina	10	1.29	30	70
5	Hoshimova Sabina	11	1.30	30	72
6	Ibragimova Zebiniso	11	1.33	32	75
7	Karimova Gulasal	11	1.35	35	69
8	Latipova Nilufar	11	1.38	37	78
9	Majidova Muxlisa	12	1.40	31	76
10	Naimova Nozima	12	1.45	29	80
11	Oripova Guzal	12	1.49	33	83
12	Xolliyeva Mohina	12	1.50	28	71
<b>O'rtacha ko'rsatkich</b>			<b>1,35</b>	<b>30,41</b>	<b>72,58</b>

Dastlab biz nazoratga jalb qilingan sportchi qizlarimizni tadqiqot davomida antropometrik ko'rsatkichlarini o'sishini nazoratga olish maqsadida ularning bo'yi, vazni va oyoq uzunligini o'lchab oldik, unga ko'ra nazorat guruhiga jalb qilingan 12 nafar qizlarning bo'y balandligi o'rtacha 1,35 sm ni, tana og'irligi o'rtacha 30,41 kg ni, oyoq uzunligi esa 72,58 sm ni tashkil qildi.

**Nazorat guruhi sinaluvchilarining tadqiqot oldidan jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari**

4- jadval

№	I.F.O	30 m (sek)	Joydan Uzunlikka sakrash	Joydan uch hatlab sakrash	60 m (sek)	Press 1 min	Shasiy natija
1	Aliyeva Alina	5.86	1.50	5.07	11.09	10	7.70
2	Baxtiyarova Munisa	5.80	1.32	5.20	10.66	10	7.75
3	Vohidova Shabnam	5.31	1,45	5.18	10.86	10	7.79

4	Giyasova Madina	5.60	1.56	5.21	10.81	13	7.80
5	Hoshimova Sabina	5.61	1.67	5.27	10.70	12	7.82
6	Ibragimova Zebiniso	5.76	1.68	5.30	10.72	16	7.86
7	Karimova Gulasal	5.24	1,43	5.18	10.63	15	7.91
8	Latipova Nilufar	5.10	1,75	5.42	11.27	12	7.94
9	Majidova Muxlisa	5.21	1,58	5.60	11.37	10	7.98
10	Naimova Nozima	5.29	1,49	5.42	10.71	14	7.99
11	Oripova Guzal	5.77	1.32	5.59	10.99	11	8.01
12	Xolliyeva Mohina	5.29	1.59	5.34	10.63	10	8.03
<b>O'rtacha ko'rsatkich</b>		<b>5,48</b>	<b>1,52</b>	<b>5,31</b>	<b>10,87</b>	<b>11,91</b>	<b>7,88</b>

Nazorat guruxi sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini nazoratga olish maqsadida quyidagi yo`nalishlar bo`yicha test sinovlarini oldik, demak 30 metr ga yugurish natijasi o`rtacha 5,48 soniya ni, joyidan uzunlikka sakrashda o`rtacha 1,52 sm ni, joyidan uch hatlab sakrash o`rtacha 5,31 sm ni, 60 metr ga shiddatli yugurishda 10,87 soniyani, 1 daqiqa davomida yotgan xolatda gavnani bukub yoyish o`rtacha 11,91 ta ni va bu jismoniy tayyorgarlikga esa sportchi qizlarimizni shaxsiy natijalari o`rtacha 7,88 sm ni tashkil qilmoqda.

**Dushanba:** Yugurish 3x60 m, tezlanish mashqlari 2x100, 5 kg shtangani kukrak kafasiga kutarib olish, shtanga bilan utirib turish, sakrab chikish, koptok uloktirish 10 marta, yugurish 3x30 m.

**Seshanba:** Yugurish, gimnastik mashqlar, kichkina to'siqlar ustidan ikki oyoqda sakrab o'tish, tezlanishlar 3x80 m, 2x120 m, 1x150 m, joydan turib 3 marta sakrash, yugurib kelib yamaga bir oyoqda sakrash, yengil 2 krug yugurish, cho'zilish mashqlarini bajarish.

**Chorshanba:** 20 minut kross, 3x30 metr oleniy shag, ya'ni bunda ariqcha ustidan sakrab o'tgandek sakraladi fakat qadam kattarok va tizza balandroqqa ko'tarilishi kerak, 10 ta chap oyoqda, 10 ta o'ng oyoqda sapchib sakrash, 10 ta ikki oyoqda sakrash, press, bel mushaklarini mustahkamlovchi mashqlar, ajimaniy, cho'zilish mashqlari.

**Payshanba:** Suzish, 30 min uqalash.

**Juma:** 5x60 m oyoqdan oyoqqa sakrash (50-100 m), 1-3 ta yugurish qadamidan so'ng itarilish (50-80 m), bir oyoqda sapchib sakrash oldinga siljib tizzani yuqoriga ko'targan holatda (30-50 m), quyidagi mashqlarni birgalikda bajarish: "sapchib sakrash", "qadam", "qadam" (100-80 m), xuddi shu mashqlarni yamada bajarish 5 marta, 2 krug yengil yugurish, cho'zilish mashqlari.

**Shanba:** O.F.P mashqlari, qorin presi, bel va son mushaklarini mustahkamlash uchun mashqlar, estafetali o'yinlar, 20 min basketbol.

**Yakshanba:** Dam olish bug'li hammom.

Mashg'ulotlar vaqtid sakrash harakatining to'g'ri bajarilishini doimo nazorat qilib turish kerak. O'quv mashg'ulotlari tugagach shug'ullanuvchilar musobaqada o'z kuchlarini sinab ko'rishlari va erishilgan natijalarni qayd etishlari lozim. Bunda sapchib sakrash va qadam uzunligini o'lchash muhimdir.

**Tajriba guruhi sinaluvchilarining tadqiqot keyin antropometrik ko'rsatkichlari**  
5- jadval

№	I.F.O	Yoshi	Bo'yi(sm)	Vazni(kg)	Oyoq uzunligi(sm)
1	Vohidova Yulduz	10	1.21	27	71
2	Fayziyeva Gulassal	11	1.40	32	82
3	Salimova Mohichexra	10	1.29	30	89
4	Saidova Kamila	10	1.26	29	74
5	Ataboyeva Aziza	11	1.31	27	77
6	Ablakulova Dilafuz	10	1.28	28	75
7	Aminova Nigina	12	1.36	31	81
8	Nabiyeva Maxliyo	12	1.44	34	91
9	Abdullayeva Shag'zoda	11	1.39	32	82
10	Botirova Madina	11	1.41	34	89
11	Vasikova Naima	10	1.32	28	73
12	Gaybullayeva Jasmina	10	1.37	27	73
<b>O'rtacha ko'rsatkich</b>			<b>1,33</b>	<b>29,91</b>	<b>79,75</b>

Tadqiqod so'ngida tajriba guruhiga jalb qilingan sportchi qizlarimizni natijalari shularni ko'rsatdiki dastlab bo'y o'lchami o'rtacha 1,32 sm bo'lgan bo'lsa xozirda o'rtacha 1,33 sm ni, tana og'irligi boshida 28,91 kg xozirda 29,91 kg ni, oyoq uzunligi oldin 78,24 sm bo'lgan bo'lsa xozirda esa 79,95 sm ni tashkil etmoqda.

**Tajriba guruhi sinaluvchilarining tadqiqot keyin jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari**

№	I.F.O	30 m (sek)	Joydan Uzunlikka sakrash	Joydan uch hatlab sakrash	60 m (sek)	Press 1 min	Shasiy natija
1	Vohidova Yulduz	5.79	1.68	5.14	10.90	12	7.90
2	Fayziyeva Gulassal	5.18	1,62	5.40	10.68	15	8.24
3	Salimova Mohichexra	5.29	1,45	5.37	10.65	14	8.20
4	Saidova Kamila	5.60	1.82	5.25	10.78	13	8.06
5	Ataboyeva Aziza	5.47	1,69	5.34	10.60	14	8.15
6	Abdullayeva Shaxruza	5.58	1.57	5.31	10.68	13	8.11
7	Aminova Nigina	5.19	1.59	5.37	10.64	15	8.21
8	Nabiyeva Maxliyo	5.05	1,25	5.65	11.05	20	8.33
9	Abdullayeva Shag'zoda	5.12	1,40	5.54	11.03	17	8.27
10	Botirova Madina	5.04	1,80	5.62	11.08	16	8.30
11	Vasikova Naima	5.65	1.55	5.23	10.89	12	8.02
12	Gaybullayeva Jasmina	5.37	1,63	5.35	10.09	14	8.18
<b>O'rtacha ko'rsatkich</b>		<b>5,36</b>	<b>1,58</b>	<b>5,38</b>	<b>10,75</b>	<b>14,58</b>	<b>8,16</b>

Tajriba so'ngida tajriba guruxi sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi quyidagi natijalarni ko'rsatdi, demak 30 metrga yugurish natijasi oldin o'rtacha 5,40 soniya bo'lgan bo'lsa hozirda o'rtacha 5,36 soniya ni , joyidan uzunlikka sakrashda o'rtacha 1,54 sm bo'lgan bo'lsa hozirda 1,58 sm ni, joyidan uch hatlab sakrash o'rtacha 5,33 bo'lgan bo'lsa hozirda 5,38 sm ni, 60 metrga shiddatli yugurishda oldin o'rtacha 10,86 soniya bo'lgan bo'lsa hozirda o'rtacha 10,61 soniyani, 1 daqiqa davomida yotgan xolatda gavdani bukub yoyish o'rtacha 12,66 ta bo'lgan bo'lsa hozirda o'rtacha 14,58ta ni va bu jismoniy tayyorgarlikga esa sportchi qizlarimizni shaxsiy natijalari o'rtacha 8,12 sm bo'lgan bo'lsa hozirda o'rtacha 8,16 sm ni tashkil qilmoqda.

**Nazorat guruhi sinaluvchilarining tadqiqot keyin antropometrik ko'rsatkichlari**

7- jadval

№	I.F.O	Yoshi	Bo'yi(sm)	Vazni(kg)	Oyoq uzunligi(sm)
1	Aliyeva Alina	10	1.21	26	66
2	Baxtiyarova Munisa	10	1.26	28	69



3	Vohidova Shabnam	10	1.28	29	65
4	Giyasova Madina	10	1.30	31	71
5	Hoshimova Sabina	11	1.31	31	73
6	Ibragimova Zebiniso	11	1.34	33	76
7	Karimova Gulasal	11	1.36	36	70
8	Latipova Nilufar	11	1.40	38	79
9	Majidova Muxlisa	12	1.41	32	77
10	Naimova Nozima	12	1.46	30	81
11	Oripova Guzal	12	1.50	34	84
12	Xolliyeva Mohina	12	1.51	29	72
<b>O'rtacha ko'rsatkich</b>			<b>1,36</b>	<b>31,41</b>	<b>73,58</b>

Tadqiqod so'ngida nazorat guruhiga jalb qilingan sportchi qizlarimizni natijalari shularni ko'rsatdiki dastlab bo'y o'lchami o'rtacha 1,35 sm bo'lgan bo'lsa xozirda o'rtacha 1,36 sm ni, tana og'irligi boshida 30,41 kg xozirda 31,41 kg ni, oyoq uzunligi oldin 72,58 sm bo'lgan bo'lsa xozirda esa 73,58 sm ni tashkil etmoqda.

**Nazorat guruhi sinaluvchilarining tadqiqot keyin jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlari**

8-jadval

№	I.F.O	30 m (sek)	Joydan Uzunlikka sakrash	Joyda uch hatlab sakrash	60 m (sek)	Press 1 min	Shasiy natija
1	Aliyeva Alina	5.83	1.54	5.11	11.05	12	7.75
2	Baxtiyarova Munisa	5.77	1.36	5.23	10.62	12	7.80
3	Vohidova Shabnam	5.29	1.49	5.21	10.82	13	7.84
4	Giyasova Madina	5.57	1.60	5.25	10.77	15	7.85
5	Hoshimova Sabina	5.58	1.71	5.31	10.67	14	7.87

6	Ibragimova Zebiniso	5.72	1.72	5.34	10.69	17	7.91
7	Karimova Gulasal	5.20	1.47	5.22	10.60	16	7.95
8	Latipova Nilufar	5.06	1.79	5.47	11.24	13	8.01
9	Majidova Muxlisa	5.18	1.62	5.64	11.34	11	8.03
10	Naimova Nozima	5.25	1.53	5.46	10.67	15	8.04
11	Oripova Guzal	5.74	1.36	5.63	10.95	12	8.06
12	Xolliyeva Mohina	5.26	1.63	5.38	10.60	12	8.08
<b>O'rtacha ko'rsatkich</b>		<b>5,45</b>	<b>1,56</b>	<b>5,53</b>	<b>10,83</b>	<b>13,5</b>	<b>7,93</b>

Tajriba so'ngida nazorat guruxi sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi quyidagi natijalarni ko'rsatdi, demak 30 metrga yugurish natijasi oldin o'rtacha 5,48 soniya bo'lgan bo'lsa hozirda o'rtacha 5,45 soniya ni , joyidan uzunlikka sakrashda o'rtacha 1,52 sm bo'lgan bo'lsa hozirda 1,56 sm ni, joyidan uch hatlab sakrash o'rtacha 5,31 bo'lgan bo'lsa hozirda 5,35 sm ni, 60 metrga shiddatli yugurishda oldin o'rtacha 10,87 soniya bo'lgan bo'lsa hozirda o'rtacha 10.83 soniyani, 1 daqiqa davomida yotgan xolatda gavnani bukub yoyish o'rtacha 11,91 ta bo'lgan bo'lsa hozirda o'rtacha 13,5ta ni va bu jismoniy tayyorgarlikga esa sportchi qizlarimizni shaxsiy natijalari o'rtacha 7,88 sm bo'lgan bo'lsa hozirda o'rtacha 7.93 sm ni tashkil qilmoqda.

### Xulosa

1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil etish natijasida shu narsa aniqlandiki, maktab yoshidagi Uch hatlab sakrovchi qizlarning mashg'ulot mobaynida murabbiy tomonidan beriladigan yuklamalar shiddati va dam olish intervallariga oz e'tobor berishi tezkor – kuch sifatlarini sekin sur'atda o'sishiga olib kelmoqda.

2. Tezkor – kuch sifatlarini rivojlantirishda asosan mashqlarni rasional rejalashtirgan xolda mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiq ekanligi ma'lum bo'ldi.

3. Harakat imkoniyatlarini tezkor – kuch sifatlarini unumli takomillashtirishda haftasiga 12 soat mobaynida mashg'ulot o'tkazish kerakligi aniqlandi.

Biz tomondan qo'llanilgan uslub va vositalar, ularning shiddati tezkor – kuch sifatlarini tarbiyalashda va sportda yuksak natijalarga erishishda katta yordam berishiga ishonamiz.

## EKSTREMIZM VA TERRORIZM – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID

G'ulomov Bahodir Jabborovich

Kogon tuman IIB TQKG katta tezkor vakil, mayor

Muzaffarov Abdullo Sayfiddin o'g'li

Kogon tuman IIB TQKG tezkor vakil, katta leytenant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8418611>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga ta'siri hamda ekstremistik va terrorchilik faoliyatlariga qarshi kurashishda O'zbekistonning tutgan o'rni hamda O'zbekistonda 2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, bu boradagi salbiy oqibatlarni oldini olish bilan bog'liq takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizm, vijdon erkinligi, preventiv, konvensiya, Milliy strategiya.

## EXTREMISM AND TERRORISM – A THREAT TO THE STABILITY OF SOCIETY

**Abstract.** In this article, today's impact of extremism and terrorism on the stability of society and the role of Uzbekistan in combating extremist and terrorist activities and in Uzbekistan The main priorities of the National Strategy of the Republic of Uzbekistan to fight against extremism and terrorism for 2021-2026 are discussed. There are also suggestions for preventing negative consequences in this regard.

**Key words:** fanaticism, extremism, terrorism, freedom of conscience, prevention, convention, National strategy.

## ЭКСТРЕМИЗМ И ТЕРРОРИЗМ – УГРОЗА СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА

**Аннотация.** В данной статье рассматривается сегодняшнее влияние экстремизма и терроризма на стабильность общества и роль Узбекистана в борьбе с экстремистской и террористической деятельностью и в Узбекистане.

Обсуждаются основные приоритеты Национальной стратегии Республики Узбекистан по борьбе с экстремизмом и терроризмом на 2021-2026 годы. Есть также предложения по предотвращению негативных последствий в этой связи.

**Ключевые слова:** фанатизм, экстремизм, терроризм, свобода совести, профилактика, конвенция, Национальная стратегия.

Ma'lumki, O'zbekiston davlati mustaqillikning ilk kunlaridanoq o'zining dinga munosabatini aniq va qat'iy belgilab oldi. Davlatning dinga munosabati "Inson e'tiqodsiz yashay olmaydi", "Dunyoviylik – dahriylik emas" degan aniq tamoyillar asosida belgilandi. Bu tamoyil bosh qomusimiz Konstitutsiya hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda o'zining huquqiy ifodasini topgan<sup>34</sup>.

<sup>34</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

Bugungi kunda dinga bo'lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashtirish jarayonlarining o'ziga xos in'ikosi deyish mumkin. Zero, globallashtirish dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda.

Afsuski, kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki bo'lib, geosiyosiy maqsadlarga bo'ysindirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko'payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Aksariyat holatlarda ushbu kurash qurolli tus olib, ko'plab xalqlarning boshiga fojiali kunlarni solmoqda.

So'nggi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq mamlakatlarida turli noqonuniy qurolli tuzilmalar tomonidan islomiy davlat qurish shiori ostida insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etilmoqda. Oqibatda, Iroq, Suriya, Liviya kabi aslida ulkan iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlar chuqur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanazzulni boshidan kechirmoqda.

Siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta'sir o'tkazishga harakat qilmoqda. So'nggi yillarda "jihodchilar", soxta "salafiyalar" kabi diniy-siyosiy guruhlar, shuningdek, "Xizbut tahrir" diniy-ekstremistik guruhi respublikamizda faol harakat qilishga urinmoqdalar.

So'nggi yillarda mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "Internet" orqali targ'ibot o'tkazish, oila a'zolari, yaqinlari va qo'shnilarini o'z guruhiga tortish, yashirin "hujralar" tashkil etish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko'rinishda tarqatish kabi usullarda amalga oshirmoqda.

Mutaxassislarning fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko'rinishlarini o'zida tashuvchi g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jihod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g'oyalar singdirilib, ular turli to'qnashuv va nizo o'choqlariga jalb qilinmoqda. Muayyan siyosiy kuchlarning nog'orasiga o'ynayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o'tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan, mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko'pchilikka ayon haqiqatdir.

Ekstremizm va terrorizm insoniyat bilan birga XXI asrga kirib kelgan, eng xavfli ijtimoiy illatlardan biridir. Diniy rangbaranglikni rad etishi bilan mamlakat taraqqiyotining muhim tarixiy omili bo'lgan fuqarolararo hamjihatlikka rahna solishiga, aqidaparastlar nafaqat ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy sohalariga zarar yetkazishi, balki jamiyatga ommaviy tarzda psixologik bosim o'tkazib, eng mudhish oqibatlariga olib kelishiga hamda dinni siyosiyashtirish va soxtalashtirish orqali mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday harakatning oldini olishda barchamizning oldimizda turgan hayotiy muhim masalalardan biridir.

Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me'yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Ekstremizm va terrorizm dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid solmoqda. Albatta, bu jarayonlar barchamizni ogohlikka chaqiradi. Boisi, tinchlik bo‘lmagan joyda taraqqiyotga yo‘l yo‘q. Yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikning ahamiyati kattadir.

Ekstremistik va terroristik tuzilmalarning asosiy maqsadi aslida jamiyatni qo‘rquv va vahimada tutib turish va shu yo‘l bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy hayotning turli jabhalarida barqarorlikka erishishni so‘ndirish va jamiyat taraqqiyotini jiddiy shikastlanishiga olib keladi. E‘tiborlisi shundaki, ekstremistik va terroristik ruhdagi tuzilmalarning hech biri biror bir shaklda o‘zlari jar solayotgan, o‘zlari “intilayotgan” jamiyat qurilishi modelini taklif etolmaydi. Yana tan olish kerakki, ommaviy axborot vositalarining rivoji va axborot omili ta’sirining kuchayishi ham bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan darajada ko‘zga tashlanadigan ijtimoiy hodisaga aylanishiga olib kelmoqda.

Ekstremizm va terrorizm illatining so‘nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligi va umuman jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid uyg‘otayotgan omilga aylanib ulgurgan. Umumbashariy muammoga aylangan ekstremizm va terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy manfaatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina yenga olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingani ayni haqiqatdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada: “Ayni vaqtda dunyoning ba’zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o‘z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda”<sup>35</sup> deya ta’kidlaganlar.

Aytish joizki, turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan faoliyatini davom ettirmoqda. Shu nuqtai-nazardan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jahon hamjamiyati e‘tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga qarshi samarali kurashishni BMT preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida ta’minlash mumkin ekaniga, xavfsizlikka tahdidlarni “o‘ziniki va o‘zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga qaratmoqda.

Bizning xalqimiz terrorizm dahshatini o‘z boshidan bir necha bor kechirgan, bu buzg‘unchilik harakatining aziyatlarini juda yaxshi tushunadi. Jumladan, Toshkentda ro‘y bergan fevral voqealari, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun tumanlaridagi xunrezliklar, poytaxtimizdagi xorijiy davlatlar elchixonalarida terrorchilik akti sodir etishga

<sup>35</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017-y.

boʻlgan urinishlar, Andijon voqealari va boshqa terroristik harakatlarning bari ana shu yovuz kuchga birikkan jangarilarning konstitutsiyaviy tuzumga qarshi xurujlari edi. Yurtimizda ushbu illatlarga qarshi kurashish, uning sabablarini oldini olish boʻyicha jahon hamjamiyatiga namuna boʻla oladigan darajada oʻziga xos tajriba shakllangan. Respublikamizda Prezidentimiz boshchiligida hukumatimiz tomonidan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida jahon hamjamiyati uchun namuna boʻlishi mumkin boʻlgan samarali ishlar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- toʻgʻri yoʻldan adashganlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ularni sogʻlom hayotga qaytarish maqsadida mazkur shaxslar bilan keng jamoatchilikni jalb etgan holda tushuntirish-profilaktika ishlarini tizimli tashkil qilish, ularni maxsus roʻyxatdan chiqarish boʻyicha mexanizm yaratildi. Mazkur mexanizmning samarasi sifatida aqidaparastlik gʻoyalari taʼsiriga tushgan 16 mingdan ziyod fuqarolarning ichki ishlar organlarining maxsus hisobidan chiqarilishi jamiyatda katta ijobiy rezonans berdi;

- yoshlarni ilm-maʼrifatga oʻrgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish, maʼrifiy islom taʼlimoti, buyuk ajdodlarimizning ulkan maʼnaviy merosini chuqur oʻrganish, jamiyatda diniy va milliy bagʻrikenglik va hamkorlikni mustahkam qaror toptirish orqali aholi, ayniqsa, yoshlarda aqidaparast gʻoyalarga nisbatan mustahkam maʼnaviy himoya qobigʻi shakllantirish maqsadida Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Samarqandda hadis va kalom ilmi maktabi, Buxoroda tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda aqida maktabi, Fargʻonada islom huquqi (fihi) ilmiy maktablari ochildi. Shuningdek, Davlat Rahbari darajasida respublikada mavjud diniy konfessiya rahbarlari bilan muloqotlar uyushtirilib, barcha din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda;

- har yili Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining diniy ekstremizmga qarshi kurash, millatlararo va konfessiyalararo hamkorlikni yanada kuchaytirishga yoʻnaltirilgan kompleks tadbirlar dasturi qabul qilinadi. Ushbu dastur doirasida davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla yigʻinlarida, aholining turli qatlamlari orasida ekstremizm va terrorizm bilan bogʻliq tahdidlarning oldini olishga qaratilgan seminar, uchrashuv va davra suhbatlari oʻtkazish yoʻlga qoʻyilgan;

- aqidaparastlik gʻoyalari tarqalishini oldini olish uchun OAV va boshqa axborot yetkazish vositalaridan samarali foydalanishga urgʻu berilmoqda. Xususan, “Diniy ekstremizm – kelajakka tahdid”, “Ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot kushandasi”, “Ogoh boʻling “Sekta”, “Din niqobi ostidagi axborot xurujlari” nomli bukletlar tayyorlanib, mahallalarga, turli vazirlik, tashkilot va idoralar orqali aholiga yetkazilmoqda;

- xorijdagi mehnat migrantlari, talabalar va vaqtincha istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni ekstremistik oqimlar taʼsiriga tushib qolishini oldini olish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning taniqli ulamolari Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg, Yekaterinburg, Novosibirsk va Qozon shaharlari, Chuvash Respublikasi, Sibir oʻlkasi, Sverdlovsk va Omsk viloyatlariga Ukrainaning Kiyev shahriga xizmat safariga yuborilib, mazkur tashriflar davomida oʻtkazilgan diniy-maʼrifiy uchrashuvlarda maʼrifiy islom taʼlimoti hamda hozirda buzgʻunchi oqimlar tomonidan notoʻgʻri talqin qilinayotgan “hijrat”, “jihod”, “shahidlik” kabi tushunchalarning asl mohiyati haqida keng tushunchalar berilmoqda.



Dunyoda ekstremizm va terrorizm tahdidlari, ayniqsa, soʻnggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatish yoʻli bilan kurashish usuli oʻzini oqlamayotganidan dalolat beradi. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini maʼrifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekaniga eʼtibor qaratildi<sup>36</sup>.

Bu borada koʻp hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini maʼrifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ayni paytda aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm (xalqaro terrorizm) dunyo ahlining xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgani koʻpchilikka sir emas. Yovuz niyatli ekstremistik va terrorchi oqimlarning tarafdorlari xalqimizning tinch-totuv hayotiga raxna solishga, ayniqsa, kelajagimiz egalari boʻlgan yoshlarimizni yoʻldan ozdirishga harakat qilmoqdalar. Bu yovuz niyatlilarning farovon hayotimizni koʻra olmaslik kayfiyati, tuzumimizga qarshi tajovuzdan iborat urinishlari barcha taraqqiyparvar kishilarni gʻazablantirmoqda. Ularning bunday xatti-harakatlarini qonun ham qattiq qoralaydi.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida ekstremistik, boshqa taʼqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shunday ekan, qabih va razil toʻdalar har qancha urinishmasin, bizni oʻz tanlagan yoʻlimizdan chalgʻita olmaydi. Davlatimiz muntazam ravishda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash va uni oldini olish borasida izchil siyosatni yuritib kelmoqda. Shu nuqtai-nazardan, Prezidentimizning ikki global ahamiyatga ega, yaʼni yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning “Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiya” sini ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining “Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi takliflari barcha mamlakatlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi va qoʻllab-quvvatlandi. Darhaqiqat, jadal suratda oʻzgarayotgan bu zamonda eskicha yondashuv oʻz samarisini bermaydi.

Yoshlarni oʻzimiz tarbiya qilmasak, ota-bobolarimiz yurgan yoʻldan yurmasak, ular erishgan yutuqlarga yeta olmaymiz. Respublikamizda soʻngi yillarda ekstremizm va terrorizmga qarshi maʼrifiy yoʻl bilan kurash olib borishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu yoʻlda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ekstremistik oqimlar safiga adashib kirib qolgan, qoʻli qonga botmagan va qilgan ishidan chin dildan pushaymon boʻlganlarga nisabatan kechirimlilik siyosatini olib borish, yosh avlodning turli buzgʻunchi oqimlar safiga kirib qolishining oldini olish boʻyicha muntazam targʻibot ishlarini olib borish dolzarb vazifalar etib belgilangan.

Oʻz navbatida, mamlakatimizning ekstremizm va terrorizmga qarshi maʼrifiy yoʻl bilan kurash olib borayotgani koʻplab davlatlar va xalqaro tashkilotlar hamda mustaqil ekspertlar

---

<sup>36</sup> Qarang. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida soʻzlagan nutqi. 20.09.2017-y.

tomonidan yuqori baholanmoqda. Bu borada targ'ibot-tashviqot ishlari muhim o'rin tutmoqda. Ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, barcha ta'lim muassasalarida, mahallalarda, huquqni muhofaza qilish idoralarining rahbar xodimlari, qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, masjidning imomlari, ota-onalar vakillari, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirokida suhbat va uchrashuvlar, "Ekstremizm va terrorizm – insoniyat dushmani" mavzuida yig'ilishlar, ushbu mavzudagi videofilmlar, profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda sabrlik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

Darhaqiqat, ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, ekstremizm va terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, davlat unga qarshi kurashda ichki va tashqi omillarning ta'sirini hisobga olgan holda, muvozanatlashtirilgan strategiyani ilgari surishi kerak. Ayni paytda ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq ta'qiqlangan har qanday faoliyat Markaziy Osiyoda asosiy tahdidlarlan biri bo'lib qolmoqda.

Bunda birinchi galdagi vazifalardan biri mintaqa davlatlari va xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekistonda "2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi"ni (keyingi o'rinlarda Milliy strategiya) qabul qilinishi mazkur noqonuniy faoliyatni mamlakatimiz va qo'shni davlatlarda nafaqat avj olishini balki, ushbu faoliyatga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassamlashtiradi hamda bir qator ustuvor yo'nalishlar va asosiy vazifalarni amalga oshirish zarurligini talab etadi.

Quyidagilar qabul qilingan Milliy strategiyaning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

- vatanparvarlik, an'anaviy qadriyatlar va bag'rikenglik mafkurasini targ'ib qilish;
- voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g'oyalari tarqalishining oldini olish;
- ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;
- uzoq muddat xorijda bulgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siridan himoya qilish;
- Internet jahon axborot tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish;
- fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborotvositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalb qilish;
- ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta'qib va javobgarlikka tortish choralari takomillashtirish;

- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ- huquqiy bazani takomillashtirish;

- ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish<sup>37</sup>.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda ushbu noqonuniy faoliyat ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarni oldini olish maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi lozimdir:

- ekstremizm va terrorizm tahdidlarini oldini olishning xalqaro-huquqiy asoslarni takomillashtirish va har qanday ta’qiqlangan faoliyatni amalga oshirganlik uchun javobgarlikning muqarrarlik tamoyilini keng targ‘ib qilish;

- ekstremizm va terrorizm tahdidlariga ogoh turish borasida ijobiy natijaga erishgan davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mazkur sohada hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;

- chet el davlatlarida bo‘lib turgan O‘zbekiston fuqarolari bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan profilaktik choralarning samaradorligini oshirish;

- nafaqat O‘zbekiston balki, butun Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha birgalikdagi harakatlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni kengaytirish.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga ta’sir etuvchi tahdidlarni oldini olish bo‘yicha huquqiy, tashkiliy va mafkuraviy mexanizmlarning samarali tizimini shakllantirishga hamda jamiyatning turli qatlamlarida ekstremistik va terrorchilik g‘oyalarining tarqalishiga to‘sqinlik qilishda davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mintaq va umuman dunyodagi vaziyatning murakkabligiga qaramay, mamlakatimizning yangi islohotlar va rivojlanish davrida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirib kelinayotgan oqilona ichki va tashqi siyosat hamda xalqimizning kuchli irodasi, mehnatsevarligi, bag‘rikengligi va ma’rifatparvarligi tufayli mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik ta’minlanib kelinmoqda.

Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo‘shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan turli millat va din vakillarining eng asosiy vazifalaridan bo‘lmog‘i lozim.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 5 iyuldagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-699-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son;

<sup>37</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi “2021 — 2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6552-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2021-y., 06/21/6255/0638-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrdaqi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi 167-II-son Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi “2021 — 2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6552-son Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.07.2021-y., 06/21/6255/0638-son;
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. 20.09.2017-y;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017-y.

**Internet saytlari**

7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)

## MARKAZIY OSIYODA ZARDUSHTIYLIK DAVRIDA JAMOAVIY URF-ODAT VA MAROSIMLAR.

**Jumayeva Muattar Zohid qizi**

Tarix va yuridik fakulteti “Buxoro tarixi va arxeologiya” kafedrası magistranti

Ijtimoiy gumanitar sohalar yo’nalishi

Telefon: 93 456 34 84

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8418648>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zardushtiylar tomonidan o’tkazilgan bayram va marosimlar, dafn marosimlari va hozirgi kunda ham xalqimiz orasida saqlanib qolgan zardushtiylar urf-odatlariga haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** Sidrapushlik, logamzodan, kamarbastan, Vendidod, Avesto, Navro’z, Mehrjon, Gohlar.

## ОБЩИННЫЕ ОБЫЧАИ И ЦЕРЕМОНИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ЗОРОАСТИЙСКИЙ ПЕРИОД.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о зороастрийских праздниках и обрядах, погребальных обрядах, а также зороастрийских традициях, которые и сегодня сохраняются среди нашего народа.

**Ключевые слова:** Сидрапушлик, логамзодан, камарбастан, Вендидод, Авеста, Навруз, Мехржан, Голар.

## COMMUNITY CUSTOMS AND CEREMONIES IN CENTRAL ASIA IN THE ZOROASTIAN PERIOD.

**Abstract.** This article talks about Zoroastrian holidays and rituals, funeral rites, and Zoroastrian traditions that are still preserved among our people today.

**Key words:** Sidrapushlik, logamzodan, kamarbastan, Vendidod, Avesta, Navroz, Mehrjan, Gohlar.

Urf-odat va an’analar jamiyat hayotida muhim o’ringa ega. Urf-odat va marosimlar qadimdan jamiyat a’zolarining ijtimoiy xulqini boshqarishda, ularni jipslashtirishda muhim ahamiyatga ega bo’lib kelgan. Hozirgi kunda ham mamlakatimizning ayrim hududlarida zardushtiylardan qolgan urf-odat va marosimlar davom etib kelmoqda.

Zardushtiylar bir necha asrlar davomida ruhoniylar kuzatuv ostida o’zlarining urf-odat va marosimlarini shakllantirganlar. Hozirgacha zardushtiylar marosimlari va uning bugungi kundagi izlari tadqiqotchilar tomonidan juda kam o’rganilgan.

Zardushtiylar tomonidan o’tkazilgan yil fasllari bilan bog’liq bayramlar, Navro’z va Mehrjon bayramlari, turli duolarni aytish va poklanish marosimlari, o’smirlarni zardushtiylikka qabul qilish (ya’ni “sidrapushlik” — oq libos kiyib, belbog’ bog’lash) va boshqa qator tantanalar zardushtiylar muhim rol o’ynagan. Bundan tashqari, zardushtiylarda nikoh marosimi, bola tug’ilishi va dafn marosimlari ham mavjud bo’lib, bularda asosan yaqin qarindoshlar, shahar va qishloqlarning hurmatli kishilari hamda ruhoniy ishtirokida o’tkazilgan.

Zardushtiylar marosimlari sirasiga kundalik ibodat ham kirgan. Xar bir zardushtiy farzandi yetti yoshdan boshlab ba’zi bir duolarni yodlab, o’z dini ruhida tarbiyalangan. Jamiki qavm-qabilalar orasida “logamzodan” (otga suvlik; solish), “zin zadan” (otni egarlash), “kamarbastan” odatiga qat’iy amal qilingan. Masalan, chorvachilik bilan shug’ullanuvchi qavmlarda qizlarga

yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlash, matolar to'qish, liboslar tikish o'rgatilgan, o'g'il bolalar esa mol boqish, uchitish va tug'dirish, tuya, otlarni parvarishlash, ularni boshqara olish, yaylovlarda suruvni o'tlatish, chorvani yirtqich hayvonlar va qaroqchilardan himoya qilish, o'ttiz ikki harbiy hunarni bilishi majburiy bo'lgan. Ana shundan so'ng o'smirlar o'n besh yoshdan boshlab "logamzodan" va "zin zadan" imtihonidan o'tishgan<sup>38</sup>.

Zardushtiylarda jasadni dafn etish ham o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Zardushtiylar jasadni yerga ko'mishmagan. Zardushtiylarning jasadni to'g'ridan to'g'ri yerga ko'mmaganliklarining sababi birinchidan, odam jasadini harom deb bilganliklarida bo'lsa, ikkinchidan, jasadga kirib olgan Nasalar zardushtiylar uchun muqaddas hisoblangan Yerga zarar yetkazadi, degan tushunchadan kelib chiqqan.

Zardushtiylar o'lgan kishining jasadini maxsus ko'tarmaga olib borayotganda eng oldinda itni yetaklab borganlar. Maxsus itlar va o'laksaxo'r qushlar jasadni suyagigacha yeb bo'lmaganlaricha dahmada saqlaganlar. Undan so'nggina o'lgan kishining suyaklarini maxsus idishlar — sopoldan qilingan ossuriy (ostadon)larga solishib, maxsus bostirmalarda saqlaganlar<sup>39</sup>.

"Vendidod"da bayon qilinishicha, marhumlarga tegib makruh bo'lgan kiyimlarni quyosh nurida poklash lozim bo'lgan. Marosimiy "makruh" bo'lgan uyni poklash uchun esa "Avesto" "Goh"larini uch marotaba o'qish lozim bo'lgan.

Namangan viloyatining Kosonsoy, Chust, Pop, Yangiqo'rg'on tumanlarida dafn marosi vaqtida marhumni qabristonga olib borishda ishlatilgan ko'rpa, yostiq, ko'rpacha, palak kabi narsalar qabristondan qaytib kelinganidan so'ng bir kecha-kunduz yulduz ko'rsin deb tashqariga osib qo'yilgan.

Toshkent viloyati va Toshkent shahrida esa marhumni qabristonga olib borishda ishlatilgan ko'rpa, ko'rpachalar bilan birga marhumning kiyimlari ham yulduz ko'rsin deb tashqariga yoyilgan. Biz bunda osmon yoritgichlari — oy, yulduz va quyoshning poklovchilik xususiyatiga bo'lgan ishonchni kuzatamiz. Qolaversa, bu odat ham qaysidir ma'noda zardushtiylik an'analari izlaridan bo'lsa kerak.

Zardushtiylarning dafn marosimlarida ruhoniylar va marhumning qarindoshlari uch kecha-kunduz davomida zardushtiylarning maxsus duolarini o'qib turganlar. Marosimlar davomida suv ichish va ovqatlanish man etilgan. To'rtinchi kun boshlanishi bilan, o'likning ruhi narigi dunyoga uchib ketganidan so'ng murda shahar, qishloq, qo'rgonlaridan chetdagi tepalik yoki tog'-u toshlarga chiqarib, ochiq qo'yilgan<sup>40</sup>.

Zardushtiylikdagi ko'plab marosimlarning odatlari xalqimizning turmush tarzida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Jumladan, dehqonlarimizning hayoti, mehnati va hosilni yig'ish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan bayramlarning ko'pchiligi bevosita zardushtiylik an'analari bilan bog'liqdir. Xalqimiz dehqonlar yerga urug' qadash munosabati bilan "Dalaga qo'sh chiqarish", "Shoxmoy", "Ekin sayli", "Qo'sh oshi" nomlari bilan yuritiluvchi maxsus marosimlarni o'tkazgan.

Hosilni yig'ib olishda esa g'allakorlar tomonidan "Ona bug'doy", "Xirmon to'yi", "Hosil bayrami" kabi tantanalar o'tkazilgan. "Ona bug'doy" marosimida oxirgi tutam bug'doy "Ona bug'doy" deb atalib, uni o'rib olinganidan so'ng, maxsus tutamni xonadonga eltib, uyni to'riga

<sup>38</sup> Ashirov A "Avesto"dan meros marosimlar-T.;2001. 6-bet

<sup>39</sup> Qoraboyev U, Soatov G' O'zbekiston madaniyati-T.; 2001. 53-bet

<sup>40</sup> Ashirov A "Avesto"dan meros marosimlar-T.;2001. 20-bet



osib qo'rganlar va bahorgacha avaylab saqlaganlar. Bahorda uning bir qismidan non (patir) yopilib, dalaga don sepishga chiqqan dehqonlarga ulashib beriladi, qolgan qismidan esa urug'lik don sifatida foydalaniladi. G'allakorlar "Ona bug'doy"dan tayyorlangan nonni yeb: "Bu yil ham hosil mo'l-ko'l bo'lsin, "Ona bug'doy" o'zi qo'llasin, Bobo dehqon madadkor bo'lsin!" deya duo qiladilar va qolgan donni birinchi urug'lik sifatida sepadilar.

Zardushtiylikning barcha marosimlari, jumladan, Navro'z, Mehrjon bayramlarida ona zaminga, dehqonchilik, chorvachilik va vatanga bo'lgan muhabbat ruhi, ayniqsa, ulkan qudrat bilan yaqqol ko'rinadi. Navro'zning kelib chiqishi haqida ko'plab rivoyatlar va afsonalar mavjud. Jumladan, zardushtiylik davridagi ba'zi bir tushunchalarga qaraganda, ezgulik ilohi Ahuramazda bahor yozda, yomonlik ilohi Ahriman kuzda va qishda hukmdorlik qilar emish.

Bahorning birinchi kunini yaxshilik xudosi yomonlik xudosi ustidan g'alaba qozongan muqaddas sana deb uni bayram qilishgan. Boshqa qadimiy afsonaga qaraganda, Odam ato va Momo havo uchrashgan kun "Navro'z bayrami" deb tan olingan emish. Bugungi kunda Navro'z bayrami bundan 3,5—4 ming yil burun bizning o'lkamizda paydo bo'lganligi ilmiy nuqtai nazardan isbotlangan. "Navro'z" ning yuzaga kelishi har tomonlama ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya'ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobarlashishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi, bahorning kelishi bilan bog'liqdir.

Qolaversa, zardushtiylikda boychechakning chiqishi, lolaqizg'aldoqlarning ochilishi, bodomning gullashi, umuman bahor bilan tabiatning go'zallashib borishi — ezgulik ruhining tantanasi bilan ularning har biri katta shodiyonalarga sabab bo'lgan<sup>41</sup>.

Ikkinchidan, dars tuzilishiga ham bog'liq. Darsda bir necha musiqiy faoliyat turlarini musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, asarni musiqiy pedagogik tahlil etish, musiqaning badiiy xususiyatlarini ritmik xarakterlarda ifodalashni maqsad sari yo'naltirish va bu bilan dars mazmunini qiziqarli tashkil etish.

1. Qo'shiq kuylash orqali o'quvchilarning his – tuyg'ularini shakllantirishda musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili bo'lib, u garmonik rivojlangan shaxsning kamolatga yetishi uchun unga muhim ta'sir etuvchi jarayondir.

Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlarini qoniqarli uyushtirish yosh avlodni ichki dunyosini boyitish va san'atning to'g'ri tushinishdagi yagona yo'lidir. Musiqa kishilar extiyojini qondirib berar ekan, ularning ongini shakllantirishga ko'maklashadi, xis – tuyg'ularini boyitadi. Shaxsdagi ijtimoiy xususiyatlarni tarbiyalashga katta yordam beradi. Bolalikda erishilmagan narsaga kamolat yoshida erishish qiyin bo'ladi.

Katta yoshli kishining xayoti, uning atrofdagi voqyelikka munosabati ko'p jixatdan bolalikda olgan tarbiyaga borib taqaladi. Umumta'lim va xunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida shunday qayd etishgan «Nafosat his – tuyg'usini rivojlantirish yuksak estetik didni shakllantirish, san'at asarlariga baho berish mahoratini shakllantirish kerak.

Umumta'lim maktabidagi musiqa ta'limi tarbiyasining muvofaqqiyatli boshlang'ich sinflarda boshlab musiqa darslarining qay darajada uyushtirilganligi va tashkil etganligiga bog'liqdir. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan estetik zavq uyg'ota bilishi kerak. Bu uchun avvalo o'qituvchining o'zi musiqa ma'lumotiga ega bo'lishi va quyidagi tadbirlarni amalga oshirish, kerak. - bolaning musiqaga nisbatan ijobiy munosabatini tarbiyalash; - qo'shiq kuylash

va tinglashga o'rgatish; - darsning har bir bo'lagini, musiqa haqidagi har bir ma'lumotini kichik yoshdagi o'quvchilar quvnoqlik va qiziqish bilan qabul qilishlariga erishish.

Musiqaviy tarbiya, bolalar musiqaviy qobiliyatining rivojlanishida maktab o'quvchilari estetik tarbiyasining qismidir. Musiqaviy estetik tarbiya masalalari kunda muhim ahamiyatga ega. Bola shaxsining shakllanishi jarayonida uning estetik madaniyat asosida har tomonlama badiiy rivojlanishi o'qituvchidan jiddiy mas'uliyatni talab qiladi.

Chunki boshlang'ich sinfdagi musiqa tarbiyasi bolaning mehnatga, Vatanga va burchga bo'lgan muhabbatini shakllantiradi, tarbiyalaydi hamda uning butun xayoti mobaynida unga hamrox bo'lib boradi. Insondagi musiqaviy xazinalar yosh bolalarning ichki dunyosiga singib borishi asosan boshlang'ich maktabdan boshlanadi.

Musiqa darslarining mazmunida faqat ma'lum bir musiqa materialni o'zlashtirish emas, balki o'quvchilarning ongini voqyelikka munosabatini rivojlanishi, estetik va xulq madaniyatining shakllanishida o'zgarishlar nazarda tutiladi. Bolalarning musiqaviy estetik tarbiyasida musiqa madaniyati darslarining ijodiy tarzda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining darsga ijodiy yondashishi bir qancha foydali maslaxatlarni o'z oldiga qo'yadi.

- musiqa tarbiyasida yangi usul va vositalar izlash;
- xayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalash;
- musiqa san'atining mazmun va ma'nosini tushintirish maqsadida aniq fakt va misollarini ishlatish;

O'quvchilarni badiiy estetik ruhda tarbiyalashda, ular qalbida go'zallikka xavas uyg'otishda san'atning barcha turlari qatori qo'shiqning xizmati benixoya kattadir. Har bir zamonda bastakorlar, shoirlar va xonandalar xalq tafakkurini va xayotini ko'rsatuvchi juda ko'p qo'shiqlar yaratganlar. Ularning har bir usul ritm vositasida xis hayaajon uyg'otuvchi, mazmuni jihatdan esda qoluvchi, kishini o'ylashga, fikr muloxaza yuritishga majbur qiluvchi ta'sirchan kuchga egadir.

Madaniy merosga to'g'ri yondoshish, undan unumli foydalanish masalasiga Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng e'tibor kuchaydi va taniqli olim va pedagoglar tomonidan dasturlar o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar chop etildi. Lekin bu tadqiqotlar qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati mazmuniga to'xtalgan vazifasini o'z oldiga qo'ymadi. Qo'shiq yoshlar diqqatini go'zallik, yaxshilik, insoniylikka jalb etishda katta ta'sir kuchiga ega ekanligini nazarda tutib, maktab xayoti qanday musiqa ruhi bilan sug'orilganligiga ahamiyat berish zarur.

Bolalar uchun tushunarli, ular tomonidan ko'p kuylanib turadigan kuy, qo'shiqlarni tanlash, ularda ashula asarlarini qaytaqayta tinglash va ijro etish istagini uyg'otish, har xil yangi ta'surotlarga ega bo'lishlariga erishish kerak. Bolalarga atalgan qo'shiq va kuylar bir qatorda folklor qo'shiqlar, serjilo serqirra oxanglarga boy bo'lgan mazmunli klassik qo'shiqlarni o'quvchilargao'rgatish ularda bu san'at merosiga nisbatan muxabbat to'yg'ularini va uni xurmat qilishga o'rgatadi.

Musiqa o'qituvchilari o'z o'quvchilariga kuy, qo'shiq o'rgatishda ijro yo'liga ijro maxoratini oshirish usullariga e'tiborlarini qaratish bilan birga o'rganilayotgan asar moxiyatini tushinib tahlil qilib, mazmuni, tarixi haqida ma'lumot berishga yetarlicha e'tibor berishlari kerak. Boshlang'ich sinflarda musiqa tarbiyasi vazifalarini amalga oshirish darsda o'qituvchining optimal metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Ammo maktabda musiqa o'qitishning

optimal metododlari va ulardan foydalanish usullari amaldagi qo'llanmalarda yetarlicha ochib berilmagan. Xozirda qo'llanilayotgan metodik qo'llanmalarda asosan musiqa darsining o'ziga xos xususiyatlari strukturaviy tuzishlari, musiqa faoliyati turlari va ularni amalga oshirish uslublari bayon etilgan.

Ashulaning musiqiy tuzilishi xarakteri, ifoda vositalari xayotdagi o'rni jixatidan o'rganib quydagi bosqichlarda o'zlashtiriladi.

1. Asarni tinglashga bolalar diqqatini jamlash va asar xaqida o'qituvchining kirish so'zi.

2. O'qituvchi ijrosida yoki gramzapisda asarni tinglash.

3. Asarni suxbat yo'li bilan musiqaviy – badiiy jixatdan oddiy taxlil etish.

4. Asarni butunlikcha qayta tinglash, so'ngasar xaqida bolalarning umumiy ta'surotlari yuzasidan yakuniy suxbat o'tkazish.

Mazkur ishlar jarayonida bolalarda asar xaqida bilish tushunchasi va ko'nikmalari hamda umumlashma badiiy ta'surotlar va jarayonlar xosil bo'lib boradi. Taxlil davomida musiqa tuzilishiga doir o'rganiladigan yangi terminlar o'rganilib boriladi. Asarni tinglash bolalarning psixologik rivojlanish va axloqiy estetik tarbiyasi uchun o'qituvchining eng faol shakli hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituchilarida qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish musiqa darsi oldida turgan muhim masalalardan biridir. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylash – musiqaviy qobiliyatning rivojlanishidi, kuylash malakalarining shakllantirishda, shu jumladan, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdin, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdan, balki eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi, nafas yo'llarini rivojlantiradi.

Yaxshi va ravon tarbilangan kuylash malakalari, tarbiya kelajakda ijobiy samara keltirib, rang – barang qo'shiqlarni ifodali quylash imkonini beradi. Albatta bu jarayon oson kechmay, o'qituvchidan qatsr muammo va vazifalarni to'laqonlilik bilan hal etishni talab etadi. Ma'lum qo'shiqni kuylash davomida o'qituvchi quyidagi vazifalarni hal etish yo'llarini olmog'i kerak.

qo'shiq to'g'risida boshlang'ich tushunchalar berish orqali o'qituvchilarda hissiy taassurotlarini shakllantirish;

Ijro etish rejasini to'zishga qaratilgan musiqiy yo'nalishni tahlil qilish;

Asarni kichik bo'laklarga bo'lib ishlash hamda kuylash malakalarini shakllantirish yo'llarini rejalashtirish;

Ayrim jummalarni puxta o'rganish maqsadida takrorlash hamda ifodali kuylashga zamin yaratadigan mashqlardan foydalanish;

Asarning badiiy har akterini tinglovchiga etkazib kuylash o'qituvchi bu vazifalarni bajarishga kirishar ekan eng avvalo tanlangan bu qo'shiqning yaratilishi haqida o'quvchilarga qisqacha ma'lumot berib ma'lum cholg'u asbobi jo'rligida ifodali kuylab beradi;

Musiqiy tovushlarning baland – pastlik yo'nalishi hamda ijro xususiyatlarining bolalar yoshiga mos yoki mos emasligi to'g'risida ular bilan savol - javob qilish orqali qisqacha tahlil o'tkazadi. Qo'shiqning kichik bo'laklariga qayta ishlash, ular orasidagi bolalar qayta o'ylab aniq idrok etganlaridan so'ng qo'shiqni to'liqligicha kuylash mumkin: bolalar qo'shiqni to'lig'icha ijro etayotgan bir birini eshitishga harakat qila boshlaydilar.

Bu holatni bo'lib navbat bilan qo'shiqni quylatadi. U erda ham kuylovchilar, ham tinglovchilar hosil bo'ladi. Savol – javob tariqasida har qaysi g'uruhning qay darajada kuylanganligi aniqlanadi va o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bu bilan asarning badiiy harakterini tinglovchiga etkazib kuylash vazifasi amalga oshiriladi.

Bu vazifalarning o'qituvchilarni bilim doirasini ya'ni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan turib, amalga oshirib bo'lmaydi. Kuylash malakalarining shakllanishi har bir bolaning o'z xususiyati va qo'shiqchilik qobilyatiga ham bog'liqdir. Chunki bolaning maktabgacha musiqaga, qo'shiq aytishga bo'lgan munosabati, maktabda unlagi kuylash malakalarining ta'kidlanishi sifatiga ta'sir qiladi.

Ma'lum bir qo'shiqni kuylash jarayonining o'z talablari to'g'ri va puxta bajarilgandan so'ng asarning musiqiy yo'nalishi orqali o'quvchilarda kuylash malakasining shakllanib borishga katta e'tibor beriladi. Buning uchun esa quyidagi bosqichlar orqali maqsadga erishish rejalashtiriladi:

Oddiy va elementlar kuylashni o'rganishga erishish.

Oddiylikdan murakkablikka ko'chadigan mashqlar o'stida ishlash.

Hosil bo'lgan kuylash mahoratidan o'rinli foydalanish.

Birinchi bosqichdan boshlab o'qituvchilarga qo'shiq kuylash yo'llari o'rganilib boriladi. Albatta bunda tovush imkoniyatlari (diapazonni) hisobga olinadi va toza sof hamda ifodali kuylalariga harakat qilinadi. Yumshoq kuylash va to'g'ri talaffo'z qilish va erkin quyilishga alohida e'tibor beriladi.

Buning uchun esa og'iz va jag'lar harakatini to'g'ri harakatga keltirish ta'minlanib boriladi. O'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslik maqsadida esa, kuylash faoliyatini musiqa tinglash faoliyati bilan tez – tez imashtirib turish nazardan chetda qolmaslik kerak. Birinchi bosqichning amalga oshirishda musiqa o'qituvchisining ushbu malakalarini bir – biriga bog'liqligini ta'minlashga erishuvchi muhit hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichning maqsadi o'quvchilarning yorqinlikni puxta ta'minlash va hosil qilish, ovoz tembridagi yorqinlikni puxta ta'minlash va tovushlarda hamohanglikni xshilashdir. Shu maqsadda turli mashq yohud gammalardan foydalaniladi. Shuningdek, nafasni to'g'ri taqsim etish va to'la shakllantirish yo'llari o'stida ish olib boriladi.

Demak, har ikki bosqich ham o'qituvchilarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirilib borishga qaratilgan bo'lib, jarangdorlikning sof va ifodali bo'lishi, ovoz hosil qilish usulining mustahkamlanishi, tovush tembri sifatining samarali oshishi yohud diapazonning sezilarli darajada kengayishi, talaffuzlarining to'g'ri va aniq bo'lishiga chorlaydi.

Har ikkala bosqichda shakllangan kuylash malakalari uchinchi bosqichda yanada mustahkamlanadi. Chunki bu bosqich davrida o'quvchilar puxta va chuqur musiqiy his – tuyg'u, tushunchaga ega bo'ladilar, hamda qo'shiqning to'g'ri kuylash yo'llarini ancha yaxshi o'zlashtirilgan bo'ladilar.

Shuning uchun ham bu davrga kelib, tovushlarning katta sakrashlarini o'z ichiga olgan ayrim mashqlardan bevosita foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning natijasi shunga chorlaydiki, o'quvchilarning o'zaro kuylash malakalariga ta'sir qiladi. Nafas olish me'yorining tartibi bo'lishida o'quvchining kuchlm nazorati kuylashda ifodalilikni, urg'u va talaffo'zlarni ifodali bo'lishiga olib keladi.

Kuylash malakalarini shakllantirish va rivojlatirib borishda kichik va qisqa kuylash mashqlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mashqlarni tez – tez takrorlab turish va o'quvchilarni guruhga bo'lib kuylashni joriy etish foydalidir. Musiqa asarini esa, kichik bo'laklarga bo'lib o'rganish yaxshi samara beradi.

Buning uchun qo'shiqning umumiy harakteridan uzoqlashmaslik, jumlar orasidagi o'zaro bog'lanish va izchillikning to'laligicha saqlash kerak. O'quvchilar qo'shiqni ijro etayotganlarida o'zaro bir – birlarini eshitib quylashlariga alohida e'tibor berish, ayrim hollarda esa yakkaxonlik hamda ko'pchilik ijrosini qanday tinglash kerak ekanligi to'g'risida tushuncha berib borish nazardan chetda qolmasligi kerak.

Ma'lumki, o'qituvchilar biror bir musiqa asarni erkin tahlil qila olmaydilar, yohud dastlabki mashqlarda qo'lga kiritilgan natijalarni keyingi mashqlarda ishlatishga qiynaladilar. Kuylash malakalari orasidagi bog'liqlikni esa yaxshi sezmaydilar. Bunday hollarda bevosita darsning samarali kechishida, ma'lum bir asarni sifatli kuylashda ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli ham o'quvchilar orasida «qayta kuylash mashqlari» usulida qo'llash darkor. Bu usulning 2 sharti mavjud bo'lib, har ikkalasi bir – biri bilan o'zviy aloqadorlikka ega.

Birinchidan, o'quvchi kuylayotganda aynan qilish va qanday ijobiy natijaga erishishi mumkin bo'lgan puxta va aniq bilimga ega bo'lishlik bo'lsa, ikkinchidan, nimaga erishganini har bir mashqning qanday natija berganini, shuningdek, qanday xatolarga yo'l qo'yilganligini bilishlikdir. Shu yo'sinda qo'llanilayotgan keyingi mashqlarda esa bevosita ushbu xatolarni bartaraf etish, tuzatish, sof va tiniq kuylashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Birinci shartning puxta va to'g'ri bajarilishi uchun o'qituvchi savodxonligi jarayonini kuylash jarayoniga bog'liqligi hamda har ikkala jarayonning mantiqan o'zaro bir – biriga mos bo'lishiga e'tiborni qaratmog'imiz lozim. Ikkinchi shartning puxta bajarilishi esa qayta kuylash mashqning ma'lum maqsadga qaratilganligiga bog'liqdir.

Ko'rinib turibdiki, har ikkala shartning yo'nalishi yuqorida ta'kidlab o'tilgan 3 bosqich maqsadi bilan uzviy aloqador bo'lib qoladi. Kuylash malakalarini shakllantirishdagi mana shu 3 bosqichni samarali bajarish o'qituvchidan yana quyidagilarga e'tibor berishni talab etadi;

- A) Har bir o'quvchining individual (alohida) xususiyati va imkoniyatini hisobga olish,
- B) O'quvchilarning ohangdoshlikni his etishga erishish,
- V) O'quvchilarga tanish bo'lgan milliy cholg'u asboblardan keng foydalanish,

G) Dars jarayonida ko'nikmagan o'quvchilarni o'z vaqtida musiqa dastlabki 2-3 mashg'ulotlardan boshlab bolalar qobilyatini hisobga olgan holda ularni 3 g'uruhga bo'lib o'tkaziladi. Kichik mashqlar o'stida ishlayotganda bolalarni individual musiqiy qobiliyati va imkoniyatlari o'quvchi tomonidan aniqlanib, o'rganilib boriladi.

Xususan bolalarning musiqaga munosabati, ovoz pardasining imkoniyatlari, nafas olish yo'llari va kuylash ifodasi o'rganiladi. Bu xususiyatlarni to'g'ri shakllanishiga bolalarni uch guruhga bo'lib o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni ohangdoshlikni his etish qobilyatini shakllantirishda o'qituvchi avvalo ularning maktabgacha musiqaviy tarbiyasini o'rganish kerak. Bolalarga tanish bo'lgan qo'shiqlarni amalga oshirish ohangdoshlikni his etishda samarali natija beradi.

Kuylash malakalarining ijobiy shakllanishida milliy cholg'u asboblarning bevosita muhim ahamiyati bor. Lekin Ovrupa cholg'u asboblarning ham bu jarayonda muhim o'rni borligini rad etib bo'lmaydi. Jumhuriyatimizning hamma umumta'lim maktablarida ham turli cholg'u asboblari



mavjud emas. Ko'pgina maktablar musiqa darslarida doira, nog'ora, g'ijjak, tanbur, nay kabi o'zbek milliy cholg'u asboblaridan kam foydalaniladi. Agar bolalar milliy cholg'ular mohiyatini tubdan bilishsa, o'rganishsa ularda milliy san'atimiz va madaniyatimizning o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada kuchayadi. Demak, ushbu cholg'ulardan ko'proq foydalanilsa kuylash malakalarini shakllanish jarayonining samarasi ijobiy bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qo'shiq kuylashga o'rgatish umumta'lim maktabining amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muhit masalasidir. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylash usuli musiqaviy qobiliyatning rivojlanishida vokal – xor malakalarini shakllantirishda, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdan, balki eshitish qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Nafas yo'llarini rivojlantiradi.

### REFERENCES

1. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
2. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 196-203.
3. Камалова Д. Э. Баспасөзде новелланың жанрлық өзгешелиги (Жанровые особенности новеллы в прессе) [Genre features of the novel in print] / Д. Э. Камалова // Материалы республиканское научно-практической конференции. – Нукус. Наука. 2019. – С. 18-21.
4. Камалова, Д. Э. Роль художественной детали в каракалпакских новеллах [The Role of Artistic Detail in Karakalpak Novels]. // Донецкие чтения 2021: образование, наука, инновации, культура и образы современности: Материалы VI Международной научной конференции. – Донецк: Изд-во ДонНУ. 2021. – с. 139-142.
5. Абатбаева, Рано Алламбергеновна. "ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н. МУҲАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 648-653.
6. Allambergenovna, Abatbaeva Rano. "THE MANIFESTATION OF EUROPEAN AND NATIONAL TRADITIONS IN THE OPERA" GULAYIM". International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 2.2 (2022): 185-187.
7. Maksetbaevich O. K. Ethnodemographic processes at the headquarters of amudarya on the EVE of the 1916 uprising //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 11. – С. 391-395.
8. Коцанов Б. А., Отегенов Х. М., Ержанова Г. М. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – №. SI-3.



9. Rametullaevich K. A., Makhsetbaevich U. K. The Struggle of the Working People of Karakalpakstan against Social and Colonial Oppression in 1916 in Chimbay //resmilitaris. – 2023. – Т. 13. – №. 1. – С. 2980-2984.
10. Отегенов Х., Ҳакимниязов К. НАРОДНОЕ ВОССТАНИЕ 1916 ГОДА В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ И АМУДАРЬИНСКОМ ОТДЕЛЕ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ //ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА. – 2015. – Т. 27. – №. 2. – С. 50-55.
11. Отегенов Х. К оценке восстаний в Хивинском ханстве и Амударьинском отделе в 1916 г //Каспийский регион: политика, экономика, культура. – 2019. – №. 2 (59). – С. 31-36.

## LIDER AYOLLAR JAMIYAT RIVOJINING TAYANCHI VA USTUNIDIR

To'rayeva Munavvar Raxmatovna

O'zbekiston milliy universiteti, tarix fakulteti, "davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi" yo'nalishi I-kurs magistranti. o'zbekistonning eng yangi tarixi kafedrası.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8424384>

*Annotatsiya.* Ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ham ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish Sharq xalqlariga, jumladan, o'zbek xalqiga xos xususiyatdir. Maqolada Yangi O'zbekistonda lider ayollar, ularga jamiyatda e'tibor qaratish hamda jamiyatimizda lider ayollar faoliyatini yanada keng rivojlantirish muammolari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** lider, ayol, faoliyat, jamiyat, lider ayollar, ayollarni qadrlash.

## LEADING WOMEN ARE THE BACKBONE AND PILLAR OF THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

*Abstract.* For thousands of years, the cultural level and spiritual perfection of any society has also been determined by the attitude towards women. The veneration and reverence of a woman is a characteristic feature of Eastern peoples, including the Uzbek people. The article analyzes the problems of Leading Women In The New Uzbekistan, focusing on them in society, as well as the further development of the activities of leading women in our society.

**Key words:** leader, woman, activity, society, leader Women, appreciation of women.

## ЖЕНЩИНЫ-ЛИДЕРЫ-ОПОРА И СТОЛП РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

*Аннотация.* На протяжении тысячелетий культурный уровень и духовное совершенство любого общества также определялись отношением к женщинам. Почитание женщины, почтение к ней-характерная черта народов Востока, в том числе узбекского. В статье анализируются проблемы женщин-лидеров в новом Узбекистане, уделение им внимания в обществе и дальнейшее развитие деятельности женщин-лидеров в нашем обществе.

**Ключевые слова:** лидер, женщина, деятельность, общество, женщины-лидеры, Оценка женщин.

Lider deganda, odatda, ko'z oldimizda erkak kishining timsoli jonlanadi. Ammo dunyo siyosati va biznes maydonida nom qozongan ayollar soni oz emas. Xo'sh, ayol rahbarlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Zamonaviy dunyoda boshqaruvning an'anaviy modellardan uzoqlashishi, texnologiyaning rivojlanishi va ma'lumotlarga kirishning qulayligi har bir jabhada o'ziga xos evolyutsiya yaratdi. Ushbu evolyutsiya ayollarga ko'proq yordam berdi va ayollar tashkilotlarda rahbar lavozimlariga o'ta boshladilar. Hozirda S&P 500 (Amerikaning Standard & Poor's tomonidan ro'yxatga olingan 500ta yirik kompaniyasi) reytingida bosh direktorlik lavozimidagi ayollar soni 4,6 foizni tashkil etadi.

**Ayol rahbarlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?**

### Muloqotdagi tabiiy instinkt egalari

Bugun har bir sohada malakali aloqachilarga ehtiyoj bor va ayollar bu borada juda muvaffaqiyatlidir. Muloqotdagi tabiiy instinktiga ko'ra, ayollar erkaklarga qaraganda munosabatlarni boshqarish sohasida ko'proq strateg bo'lishlari mumkin. Ushbu xususiyatlar bilan

ayollar tashkiliy madaniyatni kuchaytirish, tashkilotning obro‘cini oshirish va korporativ ijtimoiy javobgarlik loyihalarini amalga oshirishni ta‘minlaydilar.

#### **O‘z standartlarini o‘rnatadilar**

Kuchli ayol yetakchilarga qaraganimizda ba‘zi umumiy xususiyatlarni ko‘ramiz: muvaffaqiyatli ayol rahbarlar o‘z standartlarini o‘rnatadilar va bu uchun kurashadilar. Ba‘zan jiddiy tanqidga duchor bo‘lishlariga qaramay, standartlar kurashida o‘zlarini professionallarga xos tarzda tuta oladilar.

#### **Ijobiy energiya – ularning hamrohi**

O‘zi va o‘zgalarning kuchini oshirishga intiladigan ayol rahbarlar hayotga rang olib kiradilar. Tartibli ovqatlanish, rang-barang kiyinish, qahqaha otish, raqsga tushish ko‘plab ayollarga xos xususiyat bo‘lib, bu xususiyatlar ular rahbarlik qilayotgan tashkilotning energiyasini yuqoriga ko‘taradi.

#### **Stressga qarshi kurashda ustundirlar**

Hatto oilaviy muhitda ham juda ko‘p hollarda inqiroz va keskinliklarni boshqarishga erishadilar: oila a‘zolari oldida yuzaga keladigan har qanday xavfli belgilarni oldindan sezib, ehtiyotkorlik choralari ko‘radilar. Ayollar sevgi, muvozanat, xavfni sezish, konstruktiv yondashuv orqali stressni oson yengib oladilar.

#### **Ko‘p qirralilik**

Hatto farzandlari, onalik tashvishlari, uy yumushlari haqidagi suhbatlar chog‘ida ham ishxonadagi vazifalari haqida qayg‘ura olishlari mumkin.

O‘zining ko‘p qirrali bo‘lishini ta‘minlash nuqtayi nazaridan ayollar erkak jinsga nisbatan qat‘iyatlidirlar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, individual ta‘limda qatnashadigan ayollar ulushi 80 foizni tashkil etadi. O‘z egoizmini boshqarish orqali ko‘proq savollar berib, ilhom olish istagidagi qiziquvchan ayol rahbarlar mukammallikni izlayotgan ishtiyoqli izdoshlar sifatida namoyon bo‘ladilar.

#### **Yaxshi tinglovchidirlar**

Tabiatan mehribon ayol rahbarlar – yaxshi tinglovchilardir. Yaxshi tinglovchi bo‘la olish esa muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Har doim haq va so‘nggi so‘zni aytishga majbur bo‘lmagan ayollar ekotizimlar yaratish va fikrlarni umumlashtirish orqali hamkorlikda harakat qilishdan mamnuniyat tuyadilar.

#### **Erkak va ayollar: Liderlik uslublarida qanday farqlar bor?**

Yetakchilik aloqa qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liq, shu bois erkaklar va ayollarning uslubi bir-biridan farq qiladi. Ushbu tafovutlar gender xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ayollar yetakchilik uslubida erkaklarga qaraganda ko‘proq **jarayon va natijaga e‘tibor qaratadilar**: ishni tashkil qilish, jarayonlarni baholash, yuqori mahorat mezonlarini belgilash, ishdan ko‘zlangan maqsadga erishib-erishilmaganini doimiy nazorat qilish, vaqtga e‘tibor berish va natijaga qarab ishlash ularga xosdir.

O‘z navbatida, erkaklar «strategik fikrlash» tushunchasiga ko‘proq e‘tibor qaratishadi. Strategik rejalashtirish va dunyoqarash haqida qayg‘urish, yangi g‘oyalar uchun ochiq bo‘lish, xavfni oson qabul qilish, intellektual boylik, o‘tmishdan saboq chiqarish, kelajakdagi imkoniyatlarni oson ko‘ra olish ularga xos xususiyatdir.

Ayolni ardoqlash va qadrlash, hurmatini joyiga qo‘yishdan iborat Temur va Temuriy qadriyatlar mustaqillik yillarida yangicha mazmun bilan boyidi. Yurtimizda xotin-qizlarning

davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya ishlari, tadbirkorlikda faol ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi. Fikrimizning yorqin tasdig'ini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakat xotin-qizlariga nisbatan munosabatida ham ko'rish mumkin. Chorak asr davomida ayollarni qadrlash, ularni har tomonlama qo'llabquvvatlash, davlat siyosati darajasida turgan ustuvor masala bo'lib kelgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng qabul qilingan qonunlarimizda ayollar huquqlariga inson huquqining alohida ajralmas qismi sifatida qarala boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deya e'tirof etilishi mamlakatimizda ayollar jamiyatning faol a'zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishining huquqiy kafolati belgilanganidan dalolat beradi. Shuningdek, davlatimiz inson huquqlari bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlarga, jumladan, 1995 yili «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Konvensiyaga qo'shilishi ham mamlakatimizda xotin-qizlar masalasiga jiddiy e'tibor berilganini ko'rsatadi. 1993 yil mart oyida Mustaqil O'zbekistonning birinchi ordeni ta'sis etilgan va u bevosita ayollarning manfaati bilan bog'liq, "Sog'lom avlod uchun" ordenidir. 1995 yil mart oyida Prezidentning "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilinadi. Ushbu farmon asosida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisiga Bosh vazirning o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi raisiga Qoraqalpog'iston Vazirlar kengashi raisining o'rinbosari, Toshkent shahri va viloyatlar hamda tuman-shahar Xotin-qizlar qo'mitalari raislariga hokim o'rinbosari maqomi beriladi.

Shu vaqtga qadar ayollarning jamiyatdagi o'rni va maqomi bu qadar yuksak darajaga ko'tarilishini hatto tasavvur ham qilib bo'lmas edi. Bu yillar ayollarimiz uchun hech mubolag'asiz uyg'onish davri bo'ldi. Yana bir bor tarixga nazar solar ekanmiz hamma davrlarda ham ayol va qizlar uchun jamiyat ahamiyatiga molik qaror va farmonlar qabul qilinib, ularni hayotga tadbiiq etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilgan va hozirgi davrda ham jarayon to'xtab qolgani yo'q. Misol uchun, 1999 yil Birinchi Prezidentning farmoni bilan ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko'rsatish, har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o'rnini yana bir bor e'tirof etish, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning adabiyot, san'at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini rag'batlantirish maqsadida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan. 1999 yil "Ayollar yili", 2000 yil "Sog'lom avlod" yili, 2001 yil "Onalar va bolalar" yili, 2005 yil "Sihat-salomatlik yili", 2012 yil "Mustahkam oila yili", 2013 yil "Obod turmush yili" deb e'lon qilinishida va shu munosabat bilan amalga oshirilgan ezgu ishlar, tadbirlar zamirida ham ayolga hurmat, ehtirom, jismoniy kamoloti xususida fikrlash, qayg'urish hissi mujassamligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Mamlakatning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu – fan, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarda ayollarning o'rni va roli ortib borganini kuzatish mumkin. Biz, ayollar, katta lavozimlarda albatta ishlashi kerak degan fikrdan yiroqmiz. Chunki bizda ko'pchilik ayollarning o'zi ham xohlamaydi. O'zi ham uyda o'tirib yoki o'ziga yaqinroq ish joyi tanlashga harakat qiladi. Men farzandlarimga qarashim kerak, oilamning tinchini ta'minlashim kerak, deydi. Biz buni ham hurmat qilamiz. Bu ham ayolning huquqi. Shuning uchun xalqaro tashkilotlarda ayollar teng emas ekan, ular bu joyda

kamroq ekan, degan fikrlarga biz mutlaqo qo'shilmaymiz. Hamma davlatda o'ziga xos urf-odatlar va an'analari bor. Mamlakatimiz ayollarining qarashlarida oila birinchi o'rinda turadi.

#### **REFERENCES**

1. Fridan B. Ayollik jumbog'i. - M., 1994 yil.
2. Barbieri E. Kelajak jamiyatidagi ayollarning roli 1993. yanvar.
3. Sokolovskaya M. Ayollarning ijtimoiy rollari (Polshada jamoatchilik fikrini o'rganish asosida) // Sotsiologik tadqiqotlar. 1978. № 3.
4. Novikova E.E., Milova O.L., Zalyubovskaya E.V. Ishda va uyda zamonaviy ayol // IVF. 1988. № 8.
5. Иванова Н. Что раздражает мужчин в женщинах: секреты семейного счастья. – Ростов на Дону, Феникс, 2007. С.211.
6. Попова Л.В. Проблема самореализации одаренных женщин // Вопросы психологии. – 1996. – № 2. С. 31–41;
7. Пригожина С.В. Женский портрет на фоне Востока и Запада. – М.: Вост. литра, 2006. С.478.
8. Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане. – Тошкент: Ижтимоий фикр, 2012.Б.164.

## YANGI IQTISODIYOTDA RAQAMLI MEHNAT

Sodiqova Nigora To'rayevna

Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8424944>

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyoti va iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi va o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'zgarishga befarq qarab bo'lmaydi. Raqamli transformatsiya avvalo iqtisodiyotga, keyin esa mehnat munosabatlariga va jamiyatga ta'sir qiladi va o'zgartiradi. Afsuski, bu o'zgarish har doim ham ijobiy emas va yangi tartibning yangi qoidalari ekspluatatsiyani olib keladi. Raqamli iqtisodiyotning tarqalishi bilan eski biznes modellari o'z jozibasini yo'qotdi. Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot doirasidagi raqamli mehnat bozori va ushbu yangi tartibdagi raqamli mehnat holati muhokama qilinadi. Ushbu munozaralarning boshlanish nuqtasi bo'lgan moddiy va nomoddiy mehnat tushunchalari ham shu nuqtai nazardan baholandi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, Raqamli mehnat, Raqamli mehnat ekspluatatsiyasi.

## DIGITAL LABOR IN THE NEW ECONOMY

**Abstract.** In recent years, the rapid development of information and Communication Technologies has been the reason for the development and transformation of the economy and economic relations of countries. It is impossible to look indifferent to this change. Digital transformation affects and changes the economy first, and then Labor Relations and society. Unfortunately, this change is not always positive, and the new rules of the New Order lead to exploitation. With the spread of the Digital Economy, old business models have lost their appeal. This study discusses the digital labor market within the digital economy and the state of digital labor in this new order. The concepts of material and intangible Labor, the starting point of these discussions, were also evaluated from this point of view.

**Key words:** digital economy, digital labor, digital labor exploitation.

## ЦИФРОВОЙ ТРУД В НОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Аннотация.** Бурное развитие информационно-коммуникационных технологий в последние годы обуславливает развитие и изменение экономики и экономических отношений стран. На это изменение нельзя смотреть равнодушно. Цифровая трансформация влияет и трансформирует сначала экономику, а затем трудовые отношения и общество. К сожалению, это изменение не всегда положительно, и новые правила нового порядка приводят к эксплуатации. С распространением цифровой экономики старые бизнес-модели потеряли свою привлекательность. В этом исследовании обсуждается цифровой рынок труда в рамках цифровой экономики и состояние цифрового труда в этом новом порядке. В этом контексте также оценивались концепции материального и нематериального труда, которые стали отправной точкой для этих дискуссий.

**Ключевые слова:** Цифровая экономика, цифровой труд, Цифровая эксплуатация труда.



## **Kirish**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez o'zgarishi va globallasuvi ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlarga ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayonda 1990-yillardan boshlab iqtisodiy va ijtimoiy hayotda o'zgarishlar yuz berdi. Yangi texnologiyalar tufayli iqtisodiy samaradorlik oshdi, yangi ish o'rinlari yaratildi, turli mamlakatlar va mintaqalarda yashovchi odamlar va muassasalar o'rtasida axborot almashinuvi oshdi. Boshqacha aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishini yo'naltirdi. Yangi aloqa va axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi iqtisodiy adabiyotlarda Internet asri, Axborot texnologiyalari inqilobi, va raqamli iqtisodiyot. Dunyoda; Axborot iqtisodiyoti, bilim iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot va yangi iqtisodiyot kabi ko'plab turli atamalar bir-birining o'rnida ishlatiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot aloqa, telekommunikatsiya va informatika sohalaridagi barcha jadal o'zgarishlarni qamrab oluvchi yig'ma tushunchadir. Raqamli iqtisodiyotning tarqalishi bilan eski biznes modellari o'z jozibasini yo'qotdi.

Bu jarayonda barcha kompaniyalarning, ayniqsa transmilliy kompaniyalarning ishlab chiqarish va marketing yondashuvlari o'zgardi. Bu jarayonda kompaniya va jismoniy shaxslarning raqamli iqtisodiyot orqali daromadlari ortib, yangi sarmoyaviy imkoniyatlar birinchi o'ringa chiqdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari natijasida paydo bo'lgan yangi iqtisodiyotda tarix davomida ko'plab ekspluatatsiyalar mavzusi bo'lgan mehnatning yangi shakli bo'lgan raqamli mehnatning mavjudligi ko'p turli jihatlarida bahsli.

## **Raqamli iqtisodiyot tushunchasi**

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasida katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dunyoda katta o'zgarishlarni boshlab berdi. Bu o'zgarishlarning samaralari barcha sohalarida namoyon bo'la boshladi, iqtisodiyotga ham, jamiyatga ham ta'sir ko'rsatib, o'zgartirdi. Raqamli iqtisodiyot bizning ish uslubimizni, yashayotgan hayotimizni va global jamiyatni tubdan kengaytirishi va o'zgartirishi kutilmoqda. Hozir biz qilayotgan ish bu o'zgarishni tezlashtirmoqda, ammo turli platformalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning aniq ta'rifini berish juda qiyin. Biz bu o'zgaruvchan iqtisodiyotni "yangi iqtisodiyot" deb atashimiz mumkin. Hozirda elektron iqtisodiyot, axborot iqtisodiyoti, postindustrial jamiyat yoki 4-sanoat inqilobi deb ataladigan bu yangi tartib, yangi iqtisodiy inqilob nafaqat qurilmalar va AKT haqida, balki odamlar va jamiyatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tartibdir.

Darhaqiqat, biz qaraydigan bo'lsak, internetning hayotimizga kirib kelishi va AKT olib kelgan o'zgarishlar asta-sekin butun iqtisodiyotni shakllantira boshlaydi va uning bandlikka juda kuchli ta'siri borligi taxmin qilinadi. Ko'rinib turibdiki, bu yangi iqtisodiyotni turli ijtimoiy siyosat vositalari bilan tartibga solish kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan o'zgarishlar juda tez sodir bo'lmoqda va kelajakda bu o'zgarishlarga rioya qilish yanada qiyinlashishi taxmin qilinmoqda.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning tetikchisi sifatida ajralib turdi; Bu axborot, axborot tizimlari va aloqadagi o'zgarishlar sifatida aniqlanadi. Raqamli iqtisodiyot; U virtual pul (bitkoin), elektron tijorat, onlayn ilovalar do'konlari, internet reklama, bulutli hisoblash va uch o'lchamli chop etishdan foydalanish kabi barcha faoliyatni o'z ichiga oladi.

Raqamli iqtisodiyot aslida ushbu barcha tushunchalarni qamrab olganligi sababli, bu tushunchalarning barchasini yaxshi tushunish kerak. Raqamli iqtisodiyot atamasi o'rniga elektron tijorat atamasi qo'llaniladi, ammo raqamli iqtisodiyot elektron tijoratni o'z ichiga olgan kengroq tushunchadir. Adabiyotda elektron tijorat "internet orqali tijorat operatsiyalarini amalga oshirish, veb-saytlardan mijozlarga tovarlar va xizmatlarni taklif qilish, Internet orqali oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish va bularning barchasini amalga oshirish jarayoni" deb ta'riflanadi. kompyuterlar va boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda tarmoqlar orqali tranzaksiyalar.

Gokbunar va Utkuseven ma'lumotlariga ko'ra, elektron tijorat; "jismoniy shaxslar va muassasalar; U qiymat yaratishga qaratilgan va raqamli ma'lumotlarni matn, tovush va tasvir ko'rinishidagi ochiq tarmoq muhitida (Internet) yoki yopiq tarmoq muhitida (Intranet) qayta ishlash, uzatish va saqlashga asoslangan barcha tijorat operatsiyalarini qamrab oladi. cheklangan foydalanuvchilar soni. Shu nuqtai nazardan, tijorat natijalarini ishlab chiqaradigan yoki tijorat faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan ta'lim, ommaviy axborot, reklama-reklama va boshqalar. Ushbu maqsadlar uchun elektron shaklda amalga oshirilgan operatsiyalar ham elektron tijorat doirasida ko'rib chiqiladi.

Jahon savdo tashkilotining elektron tijorati; U telekommunikatsiya tarmoqlari orqali tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, reklama qilish, sotish va tarqatish sifatida belgilanadi. OECD ta'rifiga ko'ra, bu raqamlashtirilgan yozma matn, ovoz va tasvirni qayta ishlash va uzatishga asoslangan jismoniy shaxslar va muassasalar ishtirokidagi barcha tijorat operatsiyalari.

Yana bir platforma bulutli hisoblashdir. Bu Internet orqali, mos sharoitlarda, istalgan joydan va istalgan vaqtda taqdim etiladigan resurslar va xizmatlarning umumiy hovuziga kirishni ta'minlaydigan dastur. Bulutli hisoblash 3 xil xizmat modelini taklif etadi: dasturiy ta'minot, platforma va dastur. Foydalanuvchilar tomonidan afzal ko'riladi, chunki u o'z foydalanuvchilariga cheksiz saqlashni taklif qiladi va dasturiy ta'minot va apparat xarajatlari past. Shu tariqa boshqa mamlakatlar iqtisodiyotida korxonalar ochmasdan yoki kadrlar ishlamasdan faoliyat yuritish mumkin. Internetga asoslangan reklama birinchi marta 1994 yilda qo'llanila boshlandi va Internetning keng qo'llanilishi bilan tez rivojlandi. Internet-reklama iste'molchilarga qo'shimcha ma'lumot beradi va mahsulotni xohlagan vaqtda sotib olishi mumkin. Xususan, bu reklamalar yoshlarning iste'mol qilish odatlarining o'zgarishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda internetda reklamadan tushgan daromadlar ancha katta darajaga yetdi. Shu bilan birga, u turli maqsadlarda foydalaniladigan vositaga aylandi, masalan, Internet-reklama yordamida iste'molchilarning afzalliklariga ta'sir qilish va manipulyatsiya qilish. Raqamli iqtisodiyotning yana bir vositasi Bitcoin bo'lib, raqamli pul yoki virtual pul sifatida ham tanilgan.

Bitcoin birinchi marta 1993 yilda Evropa Ittifoqida paydo bo'lgan. Bitkoin bo'yicha hisobot a'zo mamlakatlarning markaziy banklari tomonidan e'lon qilindi va Bitcoin texnik qurilmada saqlanadigan pul qiymati sifatida belgilandi. Sonmez vositachi raqamli pulni odamlar faqat internet orqali ishlatishi mumkin bo'lgan pul deb ta'rifladi. Biroq, Bitcoinning eng katta salbiy ta'siri, shubhasiz, soliqqa tortish sohasida. Bitkoin bilan tranzaksiya qiluvchi odamlarning shaxsi asosan maxfiydir va tranzaksiyalardan olingan daromadlarni aniqlash qiyin. Shu sababli, Bitcoin pul yuvish faoliyati va norasmiy iqtisodiyotga yo'l ochadigan tizimdir. Bu tizimda olingan daromad real pulga aylantirilgan va bank hisob raqamiga o'tkazilgandagina soliqqa tortiladi.

Ushbu komponentlarning barchasi bilan raqamli iqtisodiyot odamlarga dunyoning qayerida bo'lishidan qat'i nazar, tovarlarni sotib olish va sotishda katta qulayliklarni ta'minlaydigan

platformadir. Raqamli iqtisodiyotda hamma uchun teng foydalanish muhim, shuning uchun barcha moddiy va ma'naviy operatsiyalarni osonlik bilan amalga oshirish mumkin. Axborot jamiyati nutqiga ko'ra, moddiy ishlab chiqarish o'z ahamiyatini yo'qotdi va hokimiyatni egallashni istaganlar endi axborot ishlab chiqarishga ahamiyat berishlari kerak. Texnologik innovatsiyalar va kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi yangi iste'mol maydonlarini yaratdi. Shuning uchun bu yangi sohalarida mehnat va ekspluatatsiyaning qaysi shakllari ob'ektivlashtirilganligini tahlil qilish muhim vazifadir.

### **Nomoddiy mehnat**

Nomoddiy mehnat sifatida ham tavsiflangan raqamli mehnat mehnat sharoitlarining miqdoriy va sifat o'zgarishlari bilan bir qatorda ishlab chiqarilgan mahsulotning tabiatini, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qiymatni va ishchi kuchini belgilovchi tushuncha sifatida qo'llaniladi. Xardning fikricha, kapitalistik ishlab chiqarish usulining o'zgarishi ommaviy ishlab chiqarishdagi fordizmdan iste'molchiga yo'naltirilgan va cheklangan va ko'p tarmoqli ishlab chiqarishga asoslangan post-Fordist modelga o'tishdir. Bu o'zgarish axborot va aloqani ishlab chiqarishda ilgari imkoni bo'lmagan tarzda qo'llash va shu tariqa ishlab chiqarish markazida joylashish uchun yo'l ochdi. Ishchi sinfining nisbiy farovonligi, ayniqsa ilg'or kapitalistik mamlakatlarda. 50-yillar, 60-yillarning oxiri va 70-yillaridan boshlab kasbiy kasblarning rivojlanishi, nomoddiy sohaning rivojlanishi mehnat tushunchasi haqida munozaralar uchun asos yaratdi.

### **Samarali mehnat**

Asosiy iqtisodiy nazariyalarda mehnat unumdorligi - bu shaxslarning ratsional imtiyozlar nazariyasi bilan bog'liq vaziyat va bu yo'nalishda harakat qilish tabiiydir. Biroq, Karahano'gullari marksistik iqtisodiy nazariya va asosiy iqtisodiy nazariya o'rtasidagi ba'zi farqlarni ko'rsatdi. Marksdan farqli o'laroq, u qiymat yondashuvini kiritdi. Uning aytishicha, haqiqatda muhim narsa faqat mehnat unumdormi yoki yo'qligi, balki mehnat tomonidan yaratilgan qo'shimcha qiymat hamdir.

Marks unumli va unumsiz mehnatni ajratdi: "Unumdor mehnat faqat kapital ishlab chiqaradigan narsadir. "Mehnat uning teskarisini ishlab chiqarish orqaligina unumdor bo'ladi", dedi u. "Faqat samarali mehnat kapitalist uchun qo'shimcha qiymat ishlab chiqaradi, yoki boshqacha qilib aytganda, kapitalning o'zini o'zi baholashiga hissa qo'shadi."

Xulosa qilib samarali mehnat:

- To'g'ridan-to'g'ri kapital bilan aloqa qilish,
- Qiymat, qo'shimcha qiymat va shuning uchun kapital ishlab chiqarish,
- Tovar ishlab chiqarishga hissa qo'shadigan mehnat sifatida aniqlanadi.

Marks kapital uchun ishlab chiqaradigan va ishlab chiqarish vositalariga egalik qilmasdan kapital jamg'arishga hissa qo'shadigan mehnatni unumli mehnat deb ta'riflagan bo'lsa, u bundan tashqari boshqa mehnat toifalarini ham samarali mehnat deb belgilaydi. Hozirgi munozaralarga nazar tashlaydigan bo'lsak, nomoddiy mehnat doirasida ko'rib chiqiladigan ba'zi faoliyatlar klassik marksizmga muvofiq, ma'lum shartlarga javob bersa, unumli mehnat deb hisoblanadi, degan fikr hukmronlik qiladi.

### **Raqamli mehnat**

Raqamli so'z odatda "raqamlar bilan bog'liq yoki ulardan iborat" degan ma'noni anglatadi va "raqamli" ekvivalenti beriladi. Ko'rib chiqilayotgan raqamlilik Axborot texnologiyalari

adabiyotida 1 va 0 raqamlaridan iborat ikkilik tizimga mos keladi va shuning uchun ma'lumotlarga (ma'lumotlarga) asoslangan barcha texnologiyalarning asosini tashkil etuvchi bu ikkilik tizim va ular bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar quyidagicha tavsiflanadi. raqamli. New Medianing asosiy xususiyati sifatida raqamli soʻz har qanday shaxs, guruh, muassasa, tashkilot yoki narsaning raqamlashtirilgan, rasmiy ravishda multiplekslangan va manipulyatsiya qilingan, ularning jismoniy yoki analog shaklidan farqli yoki oʻxshash barcha ob'yektlari yoki ob'yektlarini bildiradi.

Bular haqiqiy, soxta yoki anonim foydalanuvchi profillari, shuningdek, Internet ob'ektlari, tobora aqlli robotlar yoki New Media-da raqamlashtirilgan musiqa, filmlar, o'yinlar va pullar, elektron pochtdan foydalanish yoki egalik qilish huquqiga ega bo'lishi mumkin. bank, ijtimoiy media va o'yin hisoblari, bulutli tizimlar. Shuningdek, ijaraga olingan saqlash joylari orqali xabarlar, tasvirlar, videolar va ilovalar va shu hududlarda qilingan ulushlar kabi kontent ham bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, raqamli xususiyat New Media ob'ekt hajmini ifodalaydi.

Raqamli mehnat nazariyasi marksistik mafkura tomonidan yaratilgan nazariyadir. Bu ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarini samarali mehnat deb hisoblash kerakmi degan savol bilan paydo bo'lgan tushunchadir. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ijtimoiy media kompaniyalarining kapital jamg'arish jarayonlariga qay darajada hissa qo'shmoqda? Axborot texnologiyalari asrida samaradorlik o'lchovi va raqamli iqtisodiyotdagi ushbu yangi mehnat o'rni so'roq qilina boshladi.

Raqamli mehnatning eng muhim nazariyotchilaridan biri bo'lgan Fuchs raqamli mehnatni raqamli media (ijtimoiy media) yaratish, foydalanish, tarqatish va ko'paytirish uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaydigan faoliyat sifatida kontseptsiyalashgan. Qisqacha ta'rif berish uchun biz ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining to'lanmagan mehnatini raqamli mehnat deb atashimiz mumkin. Biroq, raqamli mehnat aslida juda kengroq o'lchovda ko'rib chiqilishi kerak. Ijtimoiy media platformalari va infratuzilmalarini yaratishga hissa qo'shadigan va shu kontekstda ishlaydigan odamlar ham raqamli mehnat sifatida tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, Fuchs aslida raqamli mehnatni belgilaydi; Uning aytishicha, u Afrikadagi qullik sharoitida mobil telefonlar va kompyuterlarda ishlatiladigan minerallarni qazib olish, Uzoq Sharqdagi montaj sanoati ishchilari, qo'ng'iroq markazi xodimlari, Silikon vodiysidagi sharoitlar, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish kabi ko'plab turli soha va xodimlarni qamrab oladi. Hindistonda va ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi mehnati. Fuchs tomonidan tasvirlangan raqamli mehnat turlarining umumiy xususiyatlari shundaki, ular hissa qo'shadigan sanoat va ekspluatatsiya kapitali umumiydir. Ularning barchasi turli kasblarga ega bo'lishiga qaramay, ular raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va qo'llash uchun zarur bo'lgan mehnatni yaratadi va jamoaviy ta'sirni yaratadi.

Shubhasiz, Internet tez ishlab chiqarish vositasi va uni hatto "juda tez o'sib borayotgan" deb ta'riflash mumkin. Bu vaqtda ushbu tezkor ishlab chiqarish vositasining ham iste'molchi, ham ishlab chiqaruvchi sub'ektlarini aniqlash uchun turkchaga "prosumer" deb tarjima qilinishi mumkin bo'lgan "prosumer" tushunchasi kiritildi. Internet ishlab chiqarish va aloqa vositasi sifatida ham iste'molchi, ham ishlab chiqaruvchi bo'lgan shunday profilni yaratdi. Fuchs bu holatni quyidagicha izohlaydi: Internet foydalanuvchilari o'zlarining foydalanuvchilar faoliyatida Internetga asoslangan mahsulot bozorining kengayishini kuzatadilar va ular bir vaqtning o'zida foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentning mavjudligi, doimiy ijodiy faoliyat, aloqa, jamiyat qurish va boshqalar bilan shug'ullanayotganliklarini anglay boshlaydilar. kontent ishlab chiqarish.

Ushbu kontseptsiyaga qo'shimcha ravishda Henning va Hebblewhite tomonidan ilgari surilgan ishlab chiqarish kontseptsiyasi (mahsulotli aloqa) ushbu bo'limda eslatib o'tilishi kerak bo'lgan mavzular qatoriga kiradi. Kontent ishlab chiqaruvchilarning mehnati ekspluatatsiya qilinadi deb o'ylaydiganlar "tomoshabinlar mehnati" ni oladi. "70-yillarda Dallas Smit tomonidan o'zlarining asosiy boshlang'ich nuqtasi sifatida ilgari surilgan muhokama. An'anaviy ommaviy axborot vositalaridagi auditoriya tovaridan Internetdagi auditoriya tovaridan farqi shundaki, ikkinchisida foydalanuvchilar ham kontent ishlab chiqaruvchisi bo'lib, foydalanuvchilar doimiy ravishda ijodiy faoliyat, muloqot, jamiyat qurish va kontent ishlab chiqarish bilan shug'ullanadilar.

Tomoshabin va foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarga uchta asosiy omil ta'sir qiladi.

- Kontent ishlab chiqarish,
- Vaqt cheklovi,
- Joyga bog'liqlik.

Bunday o'xshashlikdan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy fabrikalardir va bu fabrikalarda raqamli mehnat ishlab chiqariladi. Post-Fordist sharoitda ishlab chiqarilgan bu mehnat profilning izdoshlarini potentsial mijozlarga va profil egasini sotuvchiga aylantiradi. Masalan, yuqori izdoshlari bo'lgan ijtimoiy media akkauntlari, kosmetika mahsulotlari, kitob tavsiyalari, texnologik vositalar va boshqalar. Buning eng mashhur misoli, o'z sohasiga ixtisoslashgan ba'zi bloggerlar vaqt o'tishi bilan ijtimoiy tarmoqdagi akkauntlarida reklamalar olishadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi do'stlarimiz va izdoshlarimiz bir-birining kapitaliga aylanadi, shuning uchun ularga sarmoya kiritish odatiy holga aylandi. Ko'proq muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan tadbirkor vaqt o'tishi bilan o'zini ham, atrofini ham imkon qadar moslashuvchan qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda qilingan baholashlar va yaratilgan profillar, bir muncha vaqt o'tgach, ijtimoiy va iqtisodiy xatti-harakatlar odatlarini o'zgartirishga va qayta qurishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoq platformalarida foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlab chiqarish, bu muhitda ko'rish paytida qiladigan hamma narsadir. Tasvirlar, videolar yuklash, albomlar yaratish, fikr bildirish va h.k. Foydalanuvchilar Facebook kabi muhitda o'zlari ishlab chiqaradigan va saqlaydigan kontentning kapitali nuqtai nazaridan o'zlarining his-tuyg'ulari va hissiyotlari bilan ta'sirga asoslangan raqamli foyda arxivini yaratishlari mumkin bo'ladi.

**Аннотация.** В данной статье освещены сущность методов обучения, их виды и различные подходы к ним, а также пути их совершенствования, средства обучения, а также введение в дидактическую технику обучения. При этом была дана информация о том, какие воспитательные методы следует использовать в каких частях урока и их влияние на продуктивность урока.

Он также направлен на развитие глобального мышления, компетентности, профессионализма, теоретической и практической подготовки, знаний, навыков и умений самостоятельного образования, а также на то, чтобы они эффективно использовали их в своей педагогической деятельности. Использование современных методов обучения в системе образования, обучение в учебном процессе, внедрение передовых методов обучения в организацию работы индивидуально, в парах, малых группах и командах, новый подход к педагогическому процессу посвящены вопросам.

**Ключевые слова:** обучение, методика, средства обучения, дидактика, интерактивный метод, веерный метод, метод парадоксов, метод эссе.

### **Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.**

**I.A. Karimov**

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarini amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi.

Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytiladi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, maktabgacha ta'lim muassasasida o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Demak har bir harakat ma'lum yo'lda va shunga muvofiq metodda amalga oshiriladi.

**Metod** – (grekcha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, yo'l, ahloq usuli ma'nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

**Ta'lim metodi** – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

**Metodika** – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

**Usul** – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

**Uslub** – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

**Yo'l (ruscha – priyom)** – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, har bir ta'lim metodi tarkibiga muayyan ta'lim-tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgan ish-harakat usullari, yo'llari kiradi.

Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan ta'lim metodlari xilma-xil hamda ko'p sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va boshqa sifatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu metodlarning har biri muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar uchun mos bo'lib, uning o'rniga boshqa metodni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Chunki boshqa metod ushbu maqsad uchun mos emas ekanligi ma'lum.

Shu sababli ta'lim metodlarining qaysinisidan qaysi maqsad uchun foydalanish ko'zda tutilgan samarani berishini bilish muhim ahamiyatga ega. Lekin bu masala hozirgacha to'liq o'rganilgan emas. Bu masala avvalo ta'lim metodlarini ma'lum belgilariga ko'ra turlarga ajratib olish va ularning asosiy xarakteristikalarini aniqlashni talab qiladi. Shuni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim metodlarini turlarga ajratish dolzarb masaladir. Buni hal qilish uchun zamonaviy ta'lim metodlarining turlarga ajratish uchun zarur bo'lgan asosiy belgilarini aniqlab olish lozim. Bu belgilar quyidagilar bo'lishi mumkin:

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

**Interfaol metodlar** deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroqbo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;



- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

***Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:***

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. **Interfaol grafik organayzerlar:** "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmokda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan yuqoridagi tasnif bo'yicha hozirgi ayrim interfaol ta'lim metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi shartli ravishda quyidagi 8-jadvalda keltirildi.

Bu jadvaldagi ayrim interfaol ta'lim metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi bir muncha shartli va aslida muayyan o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan boshqa yana ko'p interfaol metodlarni aniq maqsadlar yo'lida qo'llash mumkin ekanligini alohida ta'kidlash zarur.

### **Yelpig'ich (VEER) METODI**

• Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, ko'pincha muammoli xarakterga ega bo'lgan mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, unda mavzuning barcha jihatlarini (masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari, boshqa fazilatlarini) to'g'risida bir yo'la sharh beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida belgilanadi va tegishli muhokama etiladi.

• Bu interfaol metod o'quvchi talabalarda tanqidiy, tahliliy, aniq, mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatli rivojlanishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

• Yelpig'ich metodi umumiy mavzuning ayrim jihatlarini alohida muhokama qiluvchi kichik guruhlarining hamda har bir ishtirokchining va shu bilan birga, butun guruhning faol ishlashini tashkil qilishga yo'naltirilgan.

Yelpig'ich metodini mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llash mumkin:

- boshlanishida: o'quvchi-talabalarning bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Bu metodni qo'llashda mavzu bo'yicha quyidagi asosiy tushunchalar o'rganiladi:

- mavzuga tegishli tushunchalar, nuqtayi nazarlar, predmet, hodisalar;
- afzallik – biror narsa bilan qiyoslagandagi ustunlik, imtiyoz;
- nuqson—nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik;
- fazilat – ijobiy sifatlar;
- xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Yelpig'ich metodi ta'lim maqsadidan tashqari tarbiyaviy xarakterdagi quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini ham beradi:

- jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosalari qarorlarni topa olish mahorati;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- xushmuomalalik;
- ishga ijobiy yondashish;
- faollik;
- muammoga diqqatini jamlay olish mahoratini shakllantirish va mustahkamlash.

#### **“Qor bo'ron” metodi**

Ikkiga ajratilgan guruh talabalari bir muammo yuzasidan eng ko'p to'g'ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to'g'ri javob yumaloqlangan qor ko'rinishida o'sha guruh hisobiga yozib qo'yiladi; to'plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo'lishi mumkin. Guruhlar qo'yilgan muammoni ma'lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma'lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

#### **“ESSE” METODI**

**Esse** fransuz tilidan tarjimada “tajriba, andaza” ma’nolarini anglatadi. **Esse** – prozaik etyud, qandaydir bir predmetga oid umumiy yoki dastlabki mulohazalar. Ko’pincha esse yozish mashg’ulotning boshida, yoki refleksiya sifatida, ohirida taklif etiladi. Esse yozish ko’pincha nazariy mashg’ulotlar, ma’ruzalar hamda mustaqil mashg’ulotlar tarkibida o’tkaziladi. Uning quyidagi turlari tegishli maqsadlarga muvofiq holda qo’llaniladi:

**Esse** – taklif etilgan mavzu yuzasidan 1000 dan 5000 gacha so’z hajmidagi insho.

**Esse** – bu muallifning ta’kidlab o’tadigan individual nuqtayi nazarini erkin ifoda etish shakli; qandaydir mavzu bo’yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o’z ichiga oladi.

**Asoslangan esse** – qo’yilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdur. Muallif ma’lum bir nuqtayi nazarni egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o’zining nuqtai nazarini qo’llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishonitirish.

Asoslangan samarali esse yozish uchun agar siz o’z esseingizni yozish jarayonida uni fikriy jihatdan kitobxonlarga (uni o’quvchilarga) “taqdim eta olsangiz” va ular bilan fikriy muloqot o’rnata olsangiz, uni yozishingiz engil bo’ladi.

#### **PARADOKSLAR METODI**

Pedagog ma’ruzani olib borish jarayonida talabalarning qarama-qarshilikka (tushunchalardagi, bilimlardagi) duch kelishlarini ta’minlaydi. Bunday vaziyat asosan talabaning tushunchalaridagi adashishlar va xatoliklar bilan bog’liq. Demak, bu muammoli vaziyat talabalarning oldingi fikr, tushunchalari va xulosalariga qarama-qarshi, paradoksal bo’lgan vaziyatdir.

Talabalar muammoli vaziyatni yuzaga keltirgan amallardagi xatolikni izlaydilar (lekin amallarda xatolik yo’q).

Ijodiy fikr olaydigan talaba amallarning bajarilishi jarayoni emas, balki mazkur amalning o’zi xato ekanligini aniqlay oladi (bunday talaba topilmasa, o’qituvchining o’zi buni oshkor qilishiga to’g’ri keladi).

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta’lim metodlarini tanlash nimalarga bog’liq, degan masaladir. Didaktikaga oid adabiyotlarda ta’lim metodlarini to’g’ri tanlash va ularni qo’llash samaradorligining turli omillar bilan bog’liqliklari quyidagicha qayd qilinadi: birinchidan, o’quv mashg’ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog’liq; ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning harakteriga bog’liq; uchinchidan, ta’lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog’liq; to’rtinchidan, o’quv jarayonida o’rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog’liq; beshinchidan, o’quv jarayonining moddiy-texnik ta’minoti bilan bog’liq; oltinchidan, o’qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o’quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o’qituvchining hozirgi zamon metodlari bo’yicha bilimlariga bog’liq. Bunda har bir shakl o’z oldiga qo’ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to’plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o’quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ta’lim olish jarayonida ta’lim metodlari, vositalari va ularni to’g’ri va o’rinli qo’llash muhim ahamiyatga ega. Va ular ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” T., 2000 y
2. O‘.Asqarova, M.Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” T., “Talqin” 2008
3. To‘xtaboev, A. Eraliev “Tashkiliy xatti-xarakatlar” Andijon, “Xayot” 2001y
4. R. Mavlonova “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2004 y
5. M.To‘xtaxo‘jayeva “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2010 y
6. O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017
7. Xaydarov, S. A. (2021). Mamlakat tarixini o‘qitishda tasviriy san’atdan foydalanishning o‘rni. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. YANGI FANI. Konferentsiya materiallarida (41-43-betlar).
8. Психологическая служба образования: от теории к практике. учебно-методическое пособие. Ш.Р.Баратов, Д.Ш.Баротова, М.Н.Усманова. – Бухоро: Дурдона, 2017. – 172 с.
9. Мясищев, В.Н. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений человека [Текст] / В.Н. Мясищев ИИ Психологическая наука в СССР. - 1960.-Т.2. -С.. 110-125.
10. Абульханова-Славская, К.А. Деятельность и психология личности [Текст] / К.А.Абульханова-Славская. – М.: Наука, 1980. -335 с.
11. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. –Toshkent, 2007.
12. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. –Toshkent, Fan va texnologiya. 2010.
13. Pedagogika. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
14. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
15. Djurayev R.X. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug‘ati. –Toshkent, Fan, 2008.
16. O‘.Asqarova. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar; O‘quv qo‘llanma.– Toshkent, Istiqlol, 2005.
17. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
18. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex

## НАЧАЛЬНЫЙ УРОВЕНЬ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ.

Абатбаева Улбосын Алламбергеновна

Государственная консерватория Узбекистана

Нукус – преподаватель кафедры исполнительства на струнных инструментах.

Узбекистан

+998907037273 e-mail: [uabatbaeva@gmail.com](mailto:uabatbaeva@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8428645>

**Аннотация.** В статье, повышение уровня эстетического воспитания детей требует создания дополнительных условий образовательного процесса. Таким образом, происходит совершенствование структурных частей эстетического воспитания, чувствительно-эмоционального развития, формирования эстетического опыта, Написано о возможностях развития у детей воображаемой луны и умении представлять луну.

**Ключевые слова:** арт-педагогика, технология, процесс, структура, эмоциональный, эстетический, коммуникативный, критерии, протокол, палитра, пассив, анкета.

### INITIAL LEVEL OF STUDENTS' MUSICAL CREATIVITY DEVELOPMENT.

**Abstract.** In the article, increasing the level of aesthetic education of children requires the creation of additional conditions for the educational process. Thus, the structural parts of aesthetic education, sensitive-emotional development, and the formation of aesthetic experience are improved. It has been written about the possibilities of developing an imaginary moon in children and the ability to imagine the moon.

**Key words:** art pedagogy, technology, process, structure, emotional, aesthetic, communicative, criteria, protocol, palette, passive, questionnaire.

Целью практическо-экспериментальной работы в музыкальном образовании является разработка методов применения художественно-педагогических технологий на уроках музыкальной культуры и практическое тестирование является необходимой частью эстетического воспитания студентов.[2.35] Для повышения эстетического образовательного уровня детей необходимо создать дополнительные условия образовательного процесса. Настало время совершенствования структурных подразделений эстетического воспитания, в чувственно-эмоциональном направлении, в развитии эстетического опыта создаются условия для развития в сознании детей способности открывать, открывать и творить.[2.68]

Со временем требуется определить начальный уровень музыкального развития. Ведущим развитием коммуникативно-творческого начала является слушающее слушание, интеллектуальный интеллект и стиль речи считаются основными типами музыкальной зрелости школьников и учитываются.

Уточнены критерии развития музыкального творчества учащихся

4-класса:

Понимание музыки.

Творческие способности.

Музыкально-творческая деятельность.

Создание своего творчества. Для определения уровня этих критериев у студентов использовались следующие методы сбора данных:

Способ 1. Анализ. школьных и стилистических документов, рекомендуемые планы уроков для студентов музыкальной культуры, внеклассная воспитательная работа, протокол заседания методического и педагогического совета школы, учебники, классные разделы, дневники учащихся, записи учащихся в тетрадях по теме курса («Музыкальная тартпа»). Способ 2. Анализ. Мы сохранили этот метод в контексте характерного психологического исследования, целью которого было определение поведения изучаемого объекта. Газета содержит следующее:

сбор основной информации в процессе обучения поведению и работе в школе и дома;

измерение поведенческих результатов;

проанализировать полученную информацию;

необходимая физиология поля поиска, Психологические свойства должны быть четко определены, прежде всего, они должны быть полностью изучены. Мы обратили внимание на следующие признаки поведения потоков в внимание:

У ребенка наблюдается устойчивость порядка, стремление к совместной работе, свобода в выражении чувств, свобода в организации труда;

надежность, когда на конфликты влияют тренировки – способность реагировать на поведение и интеллект других людей, Энергия – день ответных действий, действия немногих действий согласовываются с действиями других; Чувство, которое у вас перед собой - в ваших отношениях с ребенком, у вас есть ощущение счастья в ваших отношениях: счастливого, нейтрального, счастливого. [1. 68].

По каждому ребенку составляется протокол и определяется уровень чувствительности, обеспечивающий соблюдение всех вышеперечисленных условий.

Способ 3ю Анализ. [4.76] В задачи мастерской Саубеттинь входят следующие: уровень музыкального развития детей, приобретение понимания музыкальной деятельности Разбираться в музыке, заниматься музыкальной деятельностью, выяснять особенности каждого ребенка (пение, пение, пение, музыкальная школа, музыкальная школа, музыкальная школа, уроки музыки);

Определите индивидуальные или коллективные музыкальные способности вашего ребенка;

Ценятся этические, моральные, музыкальные и музыкальные способности студентов;

Артпедагогические методы.

Способ 4. Попробуйте это с «палитрой клавиатуры» «Кнопки музыки» — Блок I:

1) весёлый, жизнерадостный;

2) царственный, славный;

3) грустный, печальный;

4) носок к носку, зеркало;

5) лирический, непосредственный.

Блок II. Аналогичным вариантом является «Набор обобщенных характеристик музыкальных аранжировок» (табл. 1).



Таблица 1

Основное настроение	Методы, связанные с литературой искусство	названия произведений
загрузить	Лиричный, больной, заставляющий задуматься, чувствующий себя котом, привлекательный.	Музыка Д. Омонуллаевой «Моя страна-моя страна», «Моя мама» музыка С. Аврамовой, «Ялпиз» музыка Л. Муждабоевой, «Дорогие учителя» музыка Ш.Ёрматова, «Моё дитя» музыка Ш.Ёрматова, «Дияр Мадхи» музыка Н. Норходжаева, «Полька» на музыку М. Глинки
Грустный	Несчастье, печаль, тишина	«Алла» узбекская народная песня, «Алла» В. Моцарт, Музыка Т. Тошматова «Детский сад медвежьих борцов», Песня «Ойхоним алласи» Х. Мухаммада, «Ветер, ветер» С. Аврамовой.
основное настроение	Драматизм, приподнятое настроение,	«Лайлаккор» музыка С. Аврамовой, «Игрушечная коза» А. Мансуров, «Бюльбюльчам» музыка М.Насимова, «Лазги» Хорезмская народная песня, «Шохисо'зана» А. Мухаммедов.

Способ 5. Эмоционально-чувствительные параметры музыкальных аранжировок.

6 – методика. Тест «Нереальное животное» - детям дается задание нарисовать нереальное животное из своих снов. Анализ пола детей для определения физических особенностей ребенка, психологических особенностей ребенка в период его развития, Это помогло выяснить индивидуальные способности каждого ребенка, а также деликатность проблем, связанных с городом.[1.46] Этот художественно-педагогический метод дает возможность целостно (еще не определившись) оценить различные (интеллектуальные, личностные, чувствительные) характеристики ребенка. Тест «Животное не в действии» позволяет определить правильность следующих действий: если когти, зубы и когти животного покрашены чем-то еще, это означает, что ребенок агрессивен; если животное находится только в одной лапе, значит, движения животного не будут ограничены, будут затронуты другие; если портрет опирается на нижнюю часть лица, то бессвязность его движений также свидетельствует о пассивности;

если животное холодное, оно покажет низкую цену;

Если голова животного большая, а тело похоже на шапку, слова означают разницу движений. [5.88]

Способ 7. «Анкетный опрос» (по Н.А. Гусаку) – музыкальная практика чтения (Приложение 1). При анализе полученной информации ответам детей будет придаваться наибольшее значение, если это возможно, если они включают в себя музыку любого вида и жанра, звучащую на уроке.

Способ 8. « Музыка и ребренкий ». Экспериментатор просит учащихся под музыку представить, что они — живые существа, и дает им следующее задание: Этот человек спросит вас, что вы чувствуете, когда слушаете его, и как вы понимаете его, когда он кричит. Кроме того, он просит человека написать небольшой рассказ. Основное отличие этого метода в том, что дети не фильтруют музыку (направленное воздействие) – образы детей, громкий, живой звук совершенно не связаны между собой.[3.95]

#### REFERENCES

1. British Association of Art Therapists. Information Brochure. London: BAAT, 1994.
2. Gallas K. The Languages of learning: How children talk, write, dance, draw, and sing their understanding of the world. New York, Teachers College Press, 1994.
3. Riley S. Contemporary Art Therapy with Adolescents. London: Jessica Kingsley Publishers, 1999.
4. Waller D. Group Interactive Art Therapy. Its Use in Training and Treatment. London: Routledge, 1993.
5. Waller D., Mahony J. Introduction // Treatment of Addiction. Current Issues for Arts Therapies / Ed. by D. Waller and J. Mahony. London: Routledge, 1999.
6. Камалова, Д. Э. Роль художественной детали в каракалпакских новеллах [The Role of Artistic Detail in Karakalpak Novels]. // Донецкие чтения 2021: образование, наука, инновации, культура и образы современности: Материалы VI Международной научной конференции. – Донецк: Изд-во ДонНУ. 2021. – с. 139-142.
7. АБАТБАЕВА, Рано. "КОМПОЗИТОР НАЖИМАДДИН МУХАММЕДДИНОВ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ СИЙМОЛАР." Journal of Culture and Art 1.1 (2023): 60-66.
8. Абатбаева, Рано Алламбергеновна. "ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н. МУҲАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 648-653.
9. Allambergenovna, Abatbaeva Rano. "THE MANIFESTATION OF EUROPEAN AND NATIONAL TRADITIONS IN THE OPERA "GULAYIM"." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 2.2 (2022): 185-187.
10. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
11. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 196-203.

**MAHALLIY TOPINAMBUR (YER NOKI) “FAYZ BARAKA” TUGANAGINING  
POLISAXARIDLARINI KIMYOVIY TARKIBI ASOSIDA SINFLANISHIGA OID  
MULOXAZALAR.**

**S.O Ochilova.**

TKTI Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi.

**Elmanov J.B.**

TKTI Shahrisabz filiali talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8428699>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston O'simlikchilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan Yer artishokasining mahalliy navining biologik faol moddalari haqida nazariy ma'lumotlar berilgan. Uglevodlar, oqsillar va lipidlar o'rganilgan. Boshlang'ich xom ashyo sifatida havoda quritilgan maydalangan alohida xom ashyo (barglar, poya va ildizlar) ishlatilgan.

**Kalit so'zlar:** Quddus artishokasi, uglevodlar, oqsillar, lipidlar, gipoglikemik faollik, kimyoviy tarkib, mono va oligosakkaridlar.

**LOCAL TOPINAMBUR (GROUND PEAR) MULOCHASES REGARDING THE  
CLASSIFICATION OF POLYSACCHARIDES OF THE “FAIZ BARAKA” TUGANA  
ON THE BASIS OF THEIR CHEMICAL COMPOSITION.**

**Abstract.** This article provides theoretical information on the biologically active substances of the local variety of ground artichoke, created at the Research Institute of plant husbandry of Uzbekistan. Carbohydrates, proteins and lipids have been studied. As a starting raw material, separate raw materials (leaves, stems and roots) were used, chopped dried in air.

**Keywords:** Jerusalem artichoke, carbohydrates, proteins, lipids, hypoglycemic activity, chemical composition, mono and oligosaccharides.

**РАЗМЫШЛЕНИЯ О КЛАССИФИКАЦИИ ПОЛИСАХАРИДОВ МЕСТНОГО  
ТОПИНАМБУРА (ЗЕМЛЯНОЙ ГРУШИ) “ФАЙЗ БАРАКА” ТУГАНАГИ НА  
ОСНОВЕ ИХ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА.**

**Аннотация.** В данной статье представлена теоретическая информация о биологически активных веществах местного сорта земляного артишока, созданного в НИИ растениеводства Узбекистана. Были изучены углеводы, белки и липиды. В качестве исходного сырья использовалось отдельное сырье (листья, стебли и корни), высушенное на воздухе.

**Ключевые слова:** топинамбур, углеводы, белки, липиды, гипогликемическая активность, химический состав, моно-и олигосахариды.

**Kirish**

Zamonaviy sharoitda turli sohalarda mahsulot ishlab chiqarish uchun har yili qayta tiklanadigan muqobil resurslarni izlash muhim yo'nalish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda zavod xomashyosini qayta ishlash bo'yicha mavjud texnologiyalar oziq-ovqat, yoqilg'i-energetika, ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Polisaxaridlar yuqori molikulali organik moddalar qatoriga mansub bo'lib, ular qariyb diyarli hamma o'simliklarni yer ustki va yer ostki qismlari tarkibida uchraydi. Oddiy polisaxaridlar (gomopolisaxarid) tarkibida faqat bitta monosaxarid tashkil etadi, murakkab polisaxarid (geteropolisaxarid) tarkibida ikkitadan ortiq har xil monosaxaridlardan iborat.

Ko'pgina polisaxaridlar katta massshtabda tabiiy xom-ashyodan olinadi, va oziq ovqat sanoatida (kraxmal, pektin), yoki tib-kimyoy sellyuloza sanoatida giporin, mukaltin va boshqalar ishlatiladi. Shu sababli ham polisaxaridlar tarkibi o'simliklar qadimdan xalq tabobatida qo'llanib kelinadi. O'simliklarning tarkibiga tegishli ma'lumotlarga ega bo'lgan holda ularni tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) ga ko'ra sinflash va ularning narxi bilan bog'liq masalalarni aniqlash juda muhimdir. TIF TN asosida tovar xususiyatlarini tasniflash, tovar pozitsiyasi, podsubpozitsiyasi matniga mosligi haqidagi ma'lumotlarni aniqlash usullari yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan TIF TN asosida polisaxaridlarning Tovar sifatida xususiyatlarini, TIF TN tuzilmasi 10 raqamli kodlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Shu sababli ham polisaxaridlar tarkibli o'simliklar qadimdan xalq tabobatida qo'llanib kelinadi. Jumladan topinambur o'simligi ham. O'simliklarning tarkibiga oid tegishli ma'lumotlarga ega bo'lgan xolda ularni tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) ga ko'ra sinflash juda muhimdir.

Topinamburning 500 dan ortiq navi bo'lib, O'zbekistonda uni "Fayz baraka" va "Mo'jiza" navlari yaratilgan. Respublikamizda qariyb bir necha 10 yillardan buyon bu navlar ustida ilmiy-amaliy faoliyat olib borilmoqda. Tuganaklari tarkibida quruq moddalar, inulin va pektin polisaxaridlari, oqsillar, mineral moddalar, lipidlar miqdori turlicha ekanligi kuzatildi. Ushbu moddalarning mavjudligi evaziga topinamburni shifobaxshlik xususiyati shakllangan.

O'zbekistonda qishloq-xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi o'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot instituti olimlari tomonidan topinamburning (Fayz baraka) va (Mo'jiza) navlari yaratilgan. Bu navlar qishloq-xo'jaligi ekinlari reestiriga 2006- 2011-yillarda kiritilgan. Ma'lumki topinambur tuganagidagi eng kimyoviy modda inulindir. O'simlik tugunagida 19-30% inulin, 2-3% protein, 1-2,5% oqsil, 0,5-1% yog', 1-1,5% kletchatka, AEM (Azot tutmagan ekstraktiv moddalar.)15-25%, kul 1-2,5% ni tashkil etadi.

Yashil massasida esa 26-29% quruq moddalar, 2,5-3,5% protein, 2,5-3% oqsil, 0,32-0,58% yog', kletchatka 3,5-5,1%, AEM(Azot tutmagan ekstraktiv moddalar.)-96,3-21,6%, kul-2,1-2,7%ni tashkil etadi. 100kg ozuqa massasida 26,6-30,6 ozuqa birligi mavjud bo'lib, bu silos bo'ladigan makkajuxori va kungaboqarning sut shiraga to'lish fazasidagi ko'rsatkichlardan ancha yuqori [21]. Inulin O'zbekiston Respublikasi patenti bilan muxofazalangan texnologiyada olinadi. Topinambur inulini identifikatsiyalashda organoliptik, fizik kimyoviy va IK hamda S<sup>13</sup>-YaMR spektrokopiya usullari yordamida taxlil qilinmoqda.

Topinambur inulini organoliptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 1-jadvalda kiritilgan.

№	Ko'rsatkich nomlari	Tavsifi
1	Tashqi ko'rinishi, rangi	Kukunsimon mahsulot, och-sarg'ish ranggacha
2	Xidi	Inulinga xos, chet xidlarsiz
3	Ta'mi	Ta'msiz, chaynaganda shilliqlik
4	Namlikni massa ulushi va uchuvchi moddalar, % ko'p	10
5	Inulinni massa ulushi, % kam emas	80

6	Mexanik aralashmalarining mavjudligi va zararlaydigan zararkunandalari	Yo'l qo'yilmaydi
7	Monosaxarid tarkibi og'irligi, molekula	95 % fruktoza 6500+500

Ajratib olingan inulinni TIF TN da sinflash, ularni bevosita to'g'ri kod raqamlarini belgilash bilan bog'liq. Tovar nomenklaturasida kelib chiqishidan qat'iy nazar polisaxaridlar, kraxmal va inulin 11-guruhga kirib 0108-tovarlar pozitsiyasidan o'rin olgan. Inulinning sintetik analoglari yo'q shu sababli tadqiqot davrida yagona kodli inulinni ya'ni alohida tovar podsubpozitsiyasiga detallashtirish taklifi kiritilgan.

Ajratib olingan inulinni TIF TN da sinflash, ularni bevosita to'g'ri kod raqamlarini belgilash bilan bog'liq. Tovar nomenklaturasida kelib chiqishidan qat'iy nazar polisaxaridlar kraxmal va inulin 11-gruppaga kirib 0108-tovarlar pozitsiyasida o'rin olgan inulinning sintetik analoglari yo'q.

Tahlil qilingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki o'simlikning fizik-kimyoviy xususiyatlari, iste'mol xossalari o'rganilgan bo'lib hozirgi kunda tibbiyotda qo'llaniladigan inulin moddasini olishda muhim xom ashyo hisoblanadi. Eksport import salohiyatini o'rganib chiqqan holda unga alohida TIF TN kod raqami berish bojxona statistikasini yuritilishini to'g'ri tashkil etishini ta'minlaydi.

#### REFERENCES

1. S.A. Salixov, D.A. Raximov. Topinambur (*Helianthus tuberosis*) Fayz baraka va Mo'jiza navlari identifikatsiyalash.
2. Xodiyev B.Y. S.A. Salixov, D.A. Raximov, Raxmonberdiyeva R.K., Abduazimov B.B., "Sposob polucheniya inulina i fruktooligosaxarida. Patent na izobretke № IAP 05031"
3. D.A. Raximov, Abduazimov B.B., Sh. Mirsiddiqova topinambur inulinini identifikatsiyalash. "Standart" ilmiy-texnika jurnali, 2018, № 41-43 bet.
4. Kimyoviy xossa va ishlab chiqarishga transfer qilish. Monografiya-T. "Fan va texnologiya", 2014, 29-55-bet

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT KO'RSATKICHLARI

**S.O Ochilova.**

TKTI Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi.

**Elmanov J.B.**

TKTI Shahrisabz filiali talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8428743>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari haqida fikr yuritilgan.

*Kalit so'zlar:* kuchli iqtisodiyot, milliy qadriyatlar, rivojlantirish strategiyasi, raqobatbardosh iqtisodiyot, tashqi iqtisodiy faoliyat.

## INDICATORS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Abstract.* This article reflects on the indicators of foreign economic activity in the Republic of Uzbekistan.

*Keywords:* strong economy, national values, development strategy, competitive economy, foreign economic activity.

## ПОКАЗАТЕЛИ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

*Аннотация.* В данной статье рассмотрены показатели внешнеэкономической деятельности в Республике Узбекистан.

*Ключевые слова:* сильная экономика, национальные ценности, стратегия развития, конкурентная экономика, внешнеэкономическая деятельность.

“Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat.”, - deya ta’kidladilar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat To‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga binoan:

“Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi”.





O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan va yakka tartibdagi tadbirkor



sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga haqlidir.

**O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori bo'lgan davlatlar**  
(2020 yil yanvar-dekabr, AQSh dollari.)

*1-jadval*

Top 5 davlatlar		TSA	Eksport	Import
	Xitoy Xalq Respublikasi	4 610,4 mln.	1 371,5 mln.	3 239,0 mln.
	Rossiya Federatsiyasi	4,5 mlrd	1,2 mlrd	3,3 mlrd
	Qozog'iston	2,3 mlrd	729,4 mln	1,5 mlrd
	Koreya Respublikasi	1,8 mlrd	38,4 mln	1735,1 mln
	Turkiya	1654,8 mln	785,8 mln	869 mln.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
2. tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;
3. savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
4. tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorlik;
5. tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

1. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
2. Tashqi savdo faoliyati;
3. Chet el investitsiyalarini jalb qilish;
4. O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati.

Tashqi savdo faoliyati xalqaro tovarlar, ishlar (xizmatlar) savdosi sohasidagi tadbirkorlik faoliyatidir. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qayta olib kirish to'g'risidagi majburiyatni olmasdan olib chiqib ketilishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tovarlar eksportidir.

Tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga ularni qayta olib chiqib ketish to'g'risidagi majburiyatni olmasdan olib kirilishi tovarlar importidir.

O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish), ularning bajarilish (ko'rsatilish) joyidan qat'i nazar, ishlar (xizmatlar) eksportidir. Xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish), ularning bajarilish (ko'rsatilish) joyidan qat'i nazar, ishlar

(xizmatlar) importidir. O'zbekiston, jahonning 150dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (16,7 foiz), Xitoy Xalq Respublikasida (16,6 foiz), Qozog'istonda (8,3 foiz), Koreya Respublikasida (7,4 foiz), Turkiyada (5,6 foiz), Qirg'iziston Respublikasida (2,0 foiz) va Germaniyada (2,0 foiz) qayd etilgan. 2022 yilning yanvar-dekabr oylari O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari ulushi 32,6 foizni, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (EOII) davlatlarining ulushi 27,1 foizni tashkil qilgan.

Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 13,3 mlrd dollar, import esa 16,7 mlrd dollarni tashkil etdi. Bunda tovarlar eksporti 5,9 mlrd dollarga yetgan bo'lib, ularning eng katta qismi sanoat tovarlariga to'g'ri kelgan. Tovarlarning importi esa jami 15,7 mlrd dollarni tashkil qilgan bo'lib, ularning 37,8 foizini mashinalar va transport asbob-uskunalarini egallagan. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonning eng yirik savdo hamkori Xitoy Xalq Respublikasi bo'ldi. Ikki davlat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmi 5,1 mlrd dollarni tashkil qilib, shuning 1,57 mlrd dollari eksport, 3,5 mlrd dollari esa importga to'g'ri keladi.

DSQ ma'lumotlariga ko'ra, tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston (607,7 mln dollar), Qirg'iziston (508,4 mln dollar), Tojikiston (242,3 mln dollari), va Eron (40,9 mln dollar) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat To'g'risida gi Qonun 2000 yil 26 maydagi yangi tahriri;
2. Vahobov A. va boshqalar. Xalqaro moliya munosabatlari. -T.: Sharq, 2003;
3. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. Ikkinchi kitob. -T.: Sharq, 2003;
4. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari;
5. Axmedov I.A. va boshqalar Investitsiya va lizing asoslari:

## KASB TANLASHGA OID PSIXOLOGIK QARASHLAR.

Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8428779>

**Annotatsiya.** Ushbu maqoladabir qator olimlarning psixologik qarashlari bayon etilgan bo'lib, yoshlarning kasb tanlashga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va ularni qiziqishlarga asosan kasbga yo'naltirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb, kasb psixologiyasi, qobiliyat, mehnat faoliyati, aqliy imkoniyat, qiziqish.

## PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION.

**Abstract.** In this article, the psychological views of a number of scientists are described, and the formation of young people's interest in choosing a profession and their orientation to the profession based on their interests are discussed.

**Key words:** profession, professional psychology, ability, labor activity, mental capacity, interest.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ВЫБОР ПРОФЕССИИ.

**Аннотация.** В данной статье изложены психологические взгляды ряда ученых, а также обсуждается формирование интереса молодых людей к выбору профессии и их ориентация на профессию на основе своих интересов.

**Ключевые слова:** профессия, профессиональная психология, способности, трудовая деятельность, умственные способности, интерес.

## KIRISH


Kasb - inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma'lumot hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Ba'zi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida - remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yig'uvchi chilangar kabi yo'nalishlar mavjud. Demak, har bir kasbga xos bo'lgan yo'nalishlar mavjud bo'ladi. Bu esa inson faoliyatini kengayib borayotganligini, har bir sohani o'ziga xos tor jabhalari borligini tasdiqlaydi.

Izlanuvchi yoshlar kasb - hunar va uni egallash, hayotlarini, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib kasb - bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o'ziga xos murakkab bo'lgan jarayon deb belgilashimiz mumkin. Kasb - bu insonni ma'lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o'zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Kasbga xos bo'lganjarayonlar, ulami egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog'liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o'rganish orqali yoshlarni o'zlari qiziqqan kasbga yo'nalish bema'ni murakkab fan hisoblanadi. Har bir kasbning o'ziga xos bo'lgan tomonlari, insonlarni o'ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo'lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson o'zini ruhiyati bilan shu kasbga xos bo'lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi.

Shaxs sifatida bolada shu sohani bilishga ehtiyojlar rivojlanadi. Tanlagan mutaxassisligi bo'yicha bilimlar to'plab boradi. Bu maktabda, oliygo'ha, atrofdagilarning avtib berishlari va

o'zining mustaqil o'rganishlari bilan shakllanib boradi. Maktabda bolalarga kasb bilan bog'liq bo'lgan tanishtirish darslarini ham tashkil etish zamr bo'ladi. Bunda bolalar ko'pchilik kasblar haqida bilib oladilar va kasb tanlashlari uchun imkoniyatlar kengayadi. Ularni yuqori sinfga o'tib borishlari bilan birga keyingi bosqichlarda qaysi kollejga va litseyga kirishlari ham aniq bo'lib boradi. Ular o'zlari qiziqqan kasbni egallashga mustaqil qaror qabul qilgan holda intiladilar.

O'sib kelayotgan yoshlar kasb tanlab borishga, o'zlarining kelajaklari haqida o'ylashga maktab yoshidan tayyorgarlikko'ribboradilar. Ular atrofdagilarni kuzatar ekan o'zlari uchun qiziqish uyg'otgan kasb haqida o'ylay boshlaydilar. Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ulami tayyorlab borish zarur bo'ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o'zining "Kasb qanday tanlanadi" kitobida shunday ko'rsatib beradi.



Kasb haqida ko'plab olimlarning qarashlari mavjud. Kasbni tushuntirishda va uni psixologiya fani bilan bog'liqligini taniqli rus psixologi K.M. Gurevich ham o'zicha ta'riflab bergan. Kasblar doimiy emas, ular paydo boiadi va yo'qolib ketadi. Ayrimlari fan - texnikaning rivojlanishi va takomillashib ketganligi sababli faqat nomigina saqlanib qolgan bo'lsada, o'zlari tubdan o'zgarib ketgandir. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, tikuvchilik kasbi - bu kasb texnikani o'sganligi sababli hozirda tikuvchilar avtomatlashtirilgan ko'plab tikuv stanoklarini boshqaradilar. Bu yerda matolami to'qish nazarda tutilmoqda. Shuni aytish kerakki, hozirgi to'quvchining ishini ilgarigi formatsiyadagi tikuvchining ishi bilan taqqoslab bo'lmaydi deb ko'rsatadi psixolog olim.

K.M. Gurevich kasblarning paydo bo'lishini va shakllanishini quyidagicha ko'rsatadi. 1) Mehnat taqsimotini yuzaga kelishi bilan; 2) Fan - texnikani paydo bo'lishi va taraqqiyoti bilan; 3) Formatsiyalarni o'zgarib borishi bilan. Bizning fikrimizcha bunga yana asos qilib insonni o'zini hayotiy ehtiyojlarini va manfaatlarini ham ko'rsatsa bo'ladi. Bular asosida yuqoridagi ko'rsatilgan jarayonlar sodir bo'ladi. Insonda ehtiyoj bo'lmas ekan faoliyatga ham, mehnat qilishga ham, bu mehnatni fan va texnika asosida rivojlantirishga ham ehtiyoj bo'lmaydi. Kasblarning paydo bo'lishi eng avvalo insondagi ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lib, so'ngra esa unga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni mehnat taqsimoti, mehnatni yaxshilashga qaratilgan fan va texnikani va inson yashayotgan sharoit yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Inson faoliyatini ko'rinishi sifatida kasbning o'zi nima? degan savol berilar ekan, K.M. Gurevich unga shunday javob berishgan.

Gurevich K.M. ko'rsatib o'tganidek, olib borilayotgan kasbiy faoliyatni amalga oshirayotgan ishiga qarab, uning jamiyatga qo'shayotgan ulushiga qarab haq to'lanishi, bu kasbdagi ijodiy sharoitga, mehnat unumdorligiga qarab farqlanib borishini ko'rish mumkin bo'ladi. Kasblarni paydo bo'lishi va insonni unga bo'lgan ehtiyojini borligi - bu insoniyatni va jamiyatni yashashining, hayot kechirish jarayonlarining ko'rinishi va kelajagi hisoblanadi.

Kasb tanlash bo'yicha E.A.Kalimov ham o'z qarashlarini bayon qilgan. E.A. Klimov bo'yicha beshta guruhni ko'rsatish mumkin bo'ladi, Bular: 1) Inson - texnika; 2) Inson - inson; 3) -Inson - tabiat; 4) Inson - belgili tizim; 5) Inson - badiiy obraz. Bu esa insonning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasblarni shu beshta yo'nalishga ajratishga olib keladi. Kasb tanlayotgan insonlar tanlov aynan shu beshta yo'nalish bo'yicha sodir bo'ladi. O'sib kelayotgan yosh avlod o'zining qiziqishlari bilan bir - birlaridan ajralib turadi. Ba'zi bir yoshlar texnikaga, ayrimlar insonni o'ziga va yana boshqalar tabiatga qiziqadilar. Ularning qiziqishlari shu sohalarga tegishli bo'lgan kasblarning tanlashiga olib keladi. Bu esa ularning qiziqishlari xilma - xilligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari bir qator chet olimlarning kasb tanlashdagi psixologik qarashlarini keltirib o'tish joiz.K.S. Abdulxanova - Slavskiy, B.G.Ananov, A.G. Asmolova, B.F. Lomov va boshqalarning shaxs va faoliyat sohasidagi ilmiy - tadqiqot ishlari, shuningdek bu konsepsiyani dasturlashda katta ta'sir etgan A.A. Bodalev, Yu.M. Zobrodin, E.A. Klimov, T.V. Kudravsev, A.K. Markova, N.S. Prejnikovlarning ishlari ko'zga tashlanadi.

Shaxsni kasbiy rivojlanib borishini psixologik tahlilini nazariy tomonlarini o'rganishda chet el olimlari A. Maslou, Dj.Sper, Dj. Xollandlarning ishlari ahamiyatlidir. Yuqoridagi psixolog olimlarning ishlarini o'rganish orqali quyidagi konseptual holatlarni ko'rsatish mumkin: - Shaxsni kasbni egallashining o'ziga xos tarixi va ijtimoiy madaniyati borligi; - Shaxsni kasbni egallashining asosi bo'lib uni kasbga o'qishi, kasbni egallashi va kasbiy faoliyatini amalga oshirish hisoblanadi; - Shaxsni kasbni egallash jarayoni o'ziga xos individual va alohidaligi bilan ajralib turishidan tashqari undagi xususiyatlar va qonuniyatlar mavjudligi bilan ko'zga tashlanadi; Kasbiy hayot o'z imkoniyatlarini ko'rsata olishga, o'z faolligini ko'rsatish uchun imkoniyatlar yaratadi; - Insonning kasbiy hayotining individual tomonlari me'yori va me'yori bo'lmagan hodisalar bilan tasodifiy sharoitlar bilan, shuningdek insonning aqliy imkoniyatlari bilan bog'liq bo'ladi.Kasbiy taraqqiyotning psixologik xususiyatlarini bilish insonga o'z kasbini ongli ravishda qurushni, o'z tarixini yaratishni, kasbiy biografiyasini shakllantirishni beradi.

Kasb tanlashning psixologik asoslari haqida gap ketganda Sharq mutafakkirlarining ham o'z qarashlari mavjud. Dastavvalqadimgi ta'limot bo'lgan Zardushtiylikka tegishli bo'lgan yozuvlar va ulardagi kasb bilan bog'liq fikrlar nazarda tutiladi. Muqaddas "Avesto" da inson hayotining barcha sohalariga tegishli bo'lgan fikrlar mavjud. Shular qatorida kasb va unga bo'lgan e'tibor ham o'z aksini topgandir. Bu haqida "Avesto"da shunday deyiladi: "Har bir nekbin odam biron kasb bilan shug'ullanishi, band bo'lishi, «aql ishlatib» «ikki qo'llab yergaishlov berib» «chorva parvarishlab» «biron dasgohni yurgazib» «biron oloti kor» yoki «oloti harba yasab» kun kechirmog'i,beg'araz rizq-u ro 'z topib yemog'i, birovlariga muhtoj bo'lib, «qo'l uzatib, tilanchilik qilmoqdan» asramog'i darkor".

Kaykovsning "Qobusnoma"sida aynan kasb haqida uning inson uchun foydasi va zarurligi haqida fikrlar bildirilgan. "Ey farzand, ogoh boiki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' yetkurmas." Inson ma'lum bir kasbni egallab uni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi va shu kasbda o'z nomini ko'rsata olgan bo'lishi kerakligi aytilgan, ya'ni egallagan kasbning ustasi bo'lib

yetishishi zarurligi bildirilgan. Yaxshi kasb egasi muloyim bo‘lishi va o‘zini kasbini boshqalarga o‘rgatishi kerakligi ko‘rsatilgan. Bu kasb egasidan boshqalarga ham foyda yetishi bildirilgan.

Jumladan, o‘zbek olimlari ham kasb tanlashda o‘zlarining psixologik qarashlarini bayon etishgan. Bu psixologlar E.G‘.G‘oziyev va K.Q.Mamedovlar tomonidan yozilgan “Kasb psixologiyasi”, Karimova V.M. tomonidan yozilgan “Kasb psixologiyasi” va psixolog olim Anvar Jalolov tomonidan yozilgan “Kasb qanday tanlanadi” kabi kitoblarda o‘z aksini topgan.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, kasb tanlashga oida psixologik qarashlar bir qator chet olimlari va o‘zbek olimlari talqinida bayon etilgan bo‘lib, bu qarashlar ma’no va mazmun jihatdan deyarli bir-birini tasdiqlaydi va uyg‘unlikka ega hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda, kasb tanlashning asosiy xususiyatlari davrlarga va yosh avlodning qiziqishlarga qarab o‘zgarib bormoqda.

### **REFERENCES**

- 1.A.Jalolov “Kasb qanday tanlanadi” Kasb psixologiyasi. [Matn]:/-T.: “Barkamol fayz media”
- 2.F.R.Abduraxmonova, Z.E.Abduraxmonova “Kasb psixologiyasi”
- 3.E.G‘.G‘oziyev va K.Q.Mamedov “Kasb psixologiyasi”T.: O'zMU, 2003. 156-b.



## GLYUTTONIK SOHAGA OID NAZARIYALAR TAXLILI

Eliboyeva Zarnigor Normo‘minovna

SamDChTI magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8428799>

*Annotatsiya.* Maqolada glyuttoniya leksikasi masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar haqida ma‘lumot beriladi va munosabat bildiriladi. Glyuttoniya leksikasining o‘ziga xos strukturasi tahlil qilinadi.

*Kalit so‘zlar:* glyuttoniya, leksik birlik, stilistika, madaniyat, mentalitet, tahlil, talqin.

### THEORIES ON THE GLUTTONIC DOMAIN ARE TAXABLE

*Abstract.* The article will provide information and react to research on the issue of the lexicon of gluttonium. The specific structure of the gluttonian lexicon is analyzed.

*Keywords:* gluttony, lexical unit, Stylistics, culture, mentality, analysis, interpretation.

### АНАЛИЗ ТЕОРИЙ ГЛЮТОНИЧЕСКОГО ПОЛЯ

*Аннотация.* В статье дается информация и дается реакция на исследования, посвященные проблеме словарного запаса глютонии. Анализируется специфическая структура лексики глютония.

*Ключевые слова:* глютония, лексическая единица, стилстика, культура, менталитет, анализ, толкование.

Dunyoda globallashuv jarayoni turli xalqlarning milliy va etnik o‘ziga xosligi asoslarini tadqiq qilishning kuchayishi sharoitlarida amalga oshmoqda. Universallashuv jarayoni bilan bir vaqtda madaniyatlar tabaqalashuvi tendensiyasi ham rivojlanmoqda.

Oziq-ovqat har kungi hayotning ajralmas qismidir. Shu sababli ham dunyoning barcha tillarida “glyuttoniya va gastronomiya” mavzusiga oid leksik birliklarni eng keng tarqalgan va eng qadimgi leksika sifatida ko‘rish mumkin. Ushbu leksik birliklar tilga har bir darajada (leksikologiya, grammatika, stilistika va boshqalar) ta’sir qiluvchi maxsus mikraolamni yaratadi.

Har bir til millat va uning madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, xalq milliy karakterining o‘ziga xosligini va boshqa xususiyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun, misol tariqasida, fransuzlar madaniyatini to‘g‘ri talqin qilish uchun fransuzlarning milliy oshxonasining ramzi, uning mental tili, oshxona terminologiyasiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillarida glyuttonik terminologiyasining milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish ushbu xalqlarning madaniyati, mentaliteti, turmush tarzi, etnografiyasi kabilarni keng tadqiq qilishga va bu boradagi bilimlarni kengaytirishga imkon yaratadi. Shu o‘rinda chog‘ishtirilayotgan tillarda gastronomiya sohasi terminologiyasining lingvomadaniy aspektida o‘rganishning ilmiy-amaliy ahamiyatini tadqiq qilish barobarida jahon tilshunosligidan glyuttoniya sohasiga oid terminlarning turli aspektlarda o‘rganilishi yuzasidan fikr-mulohazalarni bildirib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston glyuttoniya leksikasi masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar tilshunoslik nuqtai nazardan amalga oshirilgan. Jumladan, K.Shaniyazov, M.Qurbonova, K.Mahmudovlar izlanishlar olib borganlar. M.T.Xudayarovaning “O‘zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili (Qoraqolpog‘iston hududi materiallari asosida)” deb nomlangan tadqiqot ishida Qoraqolpog‘iston o‘zbek shevalaridagi yuzdan ortiq taom nomlari ilk marotaba tahlil qilingan, qadimiy taom nomlari xronologik tartibda o‘rganilgan, ayrim xalq marosimlarining taom nomi bilan atalishiga izoh

berilgan, taom nomlarining qisqacha izohli lugʻati tuzib chiqilgan, taom nomlarining hududiy tarqalishi belgilangan va kartada shartli belgilar yordamida koʻrsatilgan, shuningdek, sohaga oid tadqiqotlarga tanqidiy yondashib, taom nomlarining etimologiyasiga oid yangi qarashlar belgilangan.

Glyuttoniya sohasiga bagʻishlangan yana bir tadqiqot G.Odilovanning “Xususiy diskurslar lingvomadaniy talqinining nazariyasi va amaliyoti (glyuttonik diskurs misolida)” nomli tadqiqot ishi boʻlib, olimda unda glyuttonik diskurs istilohi, uning menyu, retsept, taomnoma kabi janrlarining lingvistik xususiyatlarini aniqlagan, olamning milliy lisoniy manzarasini anglashda glyuttonik diskurs tahlilining ahamiyatini ochib bergan, ilk bor glyuttonik diskursning tarix, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika va boshqa sohalar bilan bogʻliqligini asoslagan, oʻzbek va ingliz adabiyotida glyuttonik diskursni tahlilga tortgan hamda oʻzbek adabiyotidagi non, suv, bugʻdoy, dasturxon, oʻchoq kabi glyuttonik stereotiplarning genezisini isbotlagan, badiiy asarlardagi glyuttonik diskursni tarjimada qayta yaratish muammolarining nazariy va amaliy jihatlarini asoslab bergan, «menyu» – taomnoma hamda «retsept» ilk bor oʻzbek tilidagi glyuttonik diskursning mustaqil janri sifatida oʻrganib, kulinariyaga oid terminologik lugʻat yaratish tamoyillarini ishlab chiqqan, Oʻzbekiston va AQSH, Britaniya restoranlari taomnomalarining lingvokulturologik tipologik va pragmatik xususiyatlarini asoslab bergan hamda Oʻzbekistondagi xorijlik sayyohlarga xizmat koʻrsatuvchi restoran va oshxonalar uchun taomnoma va taomnoma tarjimasining lingvistik va stilistik baholash mezonlarini yoritib bergan.

Jahon tilshunosligida F.Gardafe, Xu Venying, Kara Killing va Skott, Brad Kessler, Leyns, Vendi va Romona Perez va boshqalar «food» («ovqat») konseptining badiiy matnlarda qoʻllanishini tadqiq qilganlar.

Pamela Feber oʻzining “Food terminology as a system of cultural communication: Expressing sensory experience in several languages” tadqiqotida non va guruch kabi oziq-ovqat kategoriyalarida madaniyatga xos boʻlgan terminlardan foydalanishni oʻrganish uchun freymga asoslangan terminologiya nazariyasini korpus tahliliga bogʻlagan. Uning xulosasiga koʻra, non va guruch, garchi umumistemol soʻzlari boʻlsa ham, ular terminlar sifatida qaraladi, chunki ular oʻzlarining toifalarida boshqa oʻziga xos oziq-ovqat terminlarning giponimlari hisoblanadi (Pamela). Tadqiqotchi umumiy til korpusidagi non va guruch terminlarini tahlil qilishda Sandra Sisneros, Najat El Hachmi, Chimamanda Adichiye va boshqalarning romanlarida foydalangan.

Tilshunoslikda rus olimlaridan A.V.Olyanich, M.V.Undritsova, L.R.Yermakova, I.A.Derjavetskaya, N.P.Golovnikskaya kabilar glyuttonik diskursning leksik-semantik, pragmatik va lingvokulturologik muammolari rus va ingliz tillari misolida qiyosiy tadqiq qilgan.

D.Yu.Gulinovning “Национальная специфика французской лингвокультурной сферы “гастрономия” deb nomlangan tadqiqotida qiyosiy lingvistikani metodologik vosita sifatida lingvomadaniyatshunoslikning milliy oʻziga xos sohalarini aniqlash uchun mezonlarini ishlab chiqqan, shuningdek soʻrovnoma oʻtkazish orqali fransuz milliy oʻziga xos komponentlarning muhimlik darajasini va ularning ustuvorligini belgilab bergan hamda madaniyat bilan bogʻliq nomlarni aniqlash, madaniy belgilar bilan atalgan gatsronomiyaga oid nomlarni rus tiliga tarjima qilishda qoʻllanadigan tarjima transformatsiyalarining turlarini aniqlash masalalarini oʻrganib chiqqan. D.Gulinovning fikricha, fransuz gastronomiya terminologiyasining lingvokulturologik xususiyati mintaqaviy oshxona sohasidagi anʼanalarga, Fransiyada restoran bajaradigan funksiyalar(nafaqat ovqatlanish joyi, balki fransuzlar uchun eng keng mavzu asosida muloqot

qilish uchun joy)ga, istemol qilinadigan sharoblar, souslar va shuningdek, oziq-ovqat iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan gastronomik asbob-uskunalarining boy ko'rinishlarida aks etadi (1).

L.Ermakova o'z tadqiqotida insonning pragmatik faoliyatini xar xil turlarini aks ettiruvchi pragmatonimlar guruhini tipologik xususiyatlarini taniflagan va ular quyidagilar: nominal pragmatonimlar, haqiqiy antroponimlar: ism, familiya, otasining ismi, murojat formalari, taxalluslar, qaxramonlarning ismlari va asar nomlari, pragmatonim-arxaizmlar, gender belgili nomlar, ottonimlar, eyfemizmlar, universal pragmatonim belgilar, milliy-madaniy belgili pragmatonimlar. Milliy-madaniy prgmatonimlarni o'z navbatida pragmatonim-konseptlar, til klishe'lari, muqobilsiz leksika, maxsus orfagrafiyaga asoslangan pragmatonimlar, moslashtirilgan varvarizmlar, moslashtirilmagan varvarizmlar, pragmatonim ottenkalar, pragmatonim zoonimlar va xokozalarga tasniflaydi (2).

S.Edilov o'zining "Функционально-семантическая характеристика названий пищи в чеченском языке" deb nomlangan tadqiqot ishida chechen tilidagi taomlarning nomlari birinchi marta leksik, frazeologik va paremiologik sathlarda tavsiflagan, ularning semantik xususiyatlarni har tomonlama tahlil qilgan, turg'un birikmalar, maqol va matallar semantik xususiyatlarini kompleks tahlili va ularning lingvomadaniy xususiyatlari aniqlagan, ushbu toifadagi so'zlarning shakllanish manbalari, kelib chiqishi va o'zlashma qatlamlarini o'rgangan, oshxona mahsulotlari nominatsiyasining asosiy usullari va so' yasash modellarini aniqlagan. S.Edilovning fikricha, Chechenlarning marosimlari bilan bog'liq bo'lgan oziq-ovqat nomlarini tahlil qilish jarayonida oziq-ovqat nomlarning aksariyati non va non mahsulotlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ular an'anaviy madaniyatda muhim o'rinni egallashgan va hozirgacha ushbu jarayon davom etmoqda. Ko'plab oilaviy bayram marosimlarida ular hal qiluvchi o'rinni egallashadi.

Demak, glyuttoniya sohasi terminologiyasining lingvomadaniy aspektida o'rganishning ilmiy ahamiyati O'zbekiston, Rossiya va jahon tilshunosligidan olib borilgan turli xil tadqiqotlarning ilmiy-nazariy qiymati belgilansa, uning amaliy ahamiyati maxsus soha terminologiyasida oziq-ovqat va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, oziq-ovqat mahsulotlari, ovqatlarning nomlarida turli madaniy belgilarning ifodalanishi bilan belgilanadi.

## REFERENCES

1. Гулинов Д.Ю. Национальная специфика французской лингвокультурной сферы "гастрономия (переводческий аспект). Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2004. –С.3 (24)
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.200.
3. Эрмакова Л.Р. Глюттонические прагматонимы и национальный характер (на материале русской и английской лингвокультур). –Белгород: 2011. –С.10-11.

## KOMPOZITOR NAJIMADDIN MUXAMMEDDINOV IJODIDA BALLADA JANRI

**Abatbaeva Rano Allambergenovna**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

“Umumkasbiy va ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o'qituvchisi

[abatbaevarano35@gmail.com](mailto:abatbaevarano35@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8429564>

**Annotatsiya.** Ushu maqolada XX asr qoraqalpoq musiqa madaniyati rivoji, jumladan bastakorlik va kompozitorlik san'ati rivojiga o'z hissasini qo'shgan taniqli ijodkorlardan biri Najimaddin Muxammeddinov ijodida ballada janri haqida kompozitor yaratgan “Nareste haqida ballada” nomli asarining tahlili va ilk ijrochilari, asarning yaratilish tarixi uning bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kompozitor, musiqa, ballada, janr, skripka, fortepiano, vokal, deklomatsiya, san'at, shoir, pyesa, drammatizm, fuga.

### BALLAD GENRE BY COMPOSER NAJIMADDIN MUHAMMEDDINOV

**Abstract.** In this article, Nadzhimiddin Muhammeddinov, one of the famous creators who contributed to the development of Karakalpak musical culture of the 20th century, including the development of composition and compositional art, explores the composer's work in the ballad genre “Ballad”, created by the composer and the first performers of Nareste”, the history of the creation of the work and its modernity. talk about its importance today.

**Key words:** composer, music, ballad, genre, violin, piano, vocals, recitation, art, poet, play, dramatism, fugue.

### ЖАНР БАЛЛАДЫ КОМПОЗИТОРА НАДЖИМАДДИНА МУХАММЕДДИНОВА

**Аннотация.** В данной статье Наджимиддин Мухаммеддинов, один из известных творцов, внесший вклад в развитие каракалпакской музыкальной культуры XX века, в том числе в развитие композиции и композиционного искусства, исследует творчество композитора в жанре баллады «Баллада», созданное композитором и первыми исполнителями Наресте», история создания произведения и его современность. говорить о его важности сегодня.

**Ключевые слова:** композитор, музыка, баллада, жанр, скрипка, фортепиано, вокал, декламация, искусство, поэт, пьеса, драматизм, fuga.

Musiqa san'ati boshqa san'at turlari singari ko'p asrlar mobaynida turli xalqlarda turlicha rivojlanib keldi. XX asrning 30-40-yillariga qadar ilgari qoraqalpoq musiqa san'atida bo'lmagan har xil professional janrlarning rivojlanishi bilan moslashishi vatanimiz tarixida bo'lgan voqealar bilan uyg'unlashib ijro qilina boshlagan. Ayniqsa, ikkinshi jahon urush va uning oqibatida mustaqilligimizning yutuqlari haqida ko'p gina san'at asarlari paydo bo'ldi.

XX asr qoraqalpoq musiqa madaniyati rivoji, jumladan bastakorlik va kompozitorlik san'ati rivojiga o'z hissasini qo'shgan taniqli ijodkorlardan biri Qoraqalpog'iston Davlat arbobi, kompozitor va pedagog, Najimaddin Muxammeddinov nomi alohida o'rin tutadi. N.Muxammeddinov musiqasida yorqin o'ziga xosli, milliyik, optimistik kuy, ajralmas hayotiy energiya, dunyoni idrok etishning to'la tuyg'usi bilan ifodalanadi. Kompozitorning ijodida turli

janrlar o'z aksini topgan ijodkorning o'z usuli va mohiyati bilan shularning orasida xalq uchun ofat keltirgan jahon urushiga qarshi yozilgan "Nareste" nomli balladasini aytib o'tsak maqsadga muvofiqdir<sup>43</sup>. Ballada-frantsuz va italyan tillarida egallayman degan ma'noni anglatadi.<sup>44</sup> Ballada musiqa san'atida hikoya qiluvchi xarakteridagi qo'shiqqa yoki cholg'u pyesasiga, dramatik yoki lirodramatik turidagi uyg'un qurilmaga bag'ishlab yaratilgan asarga aytiladi.

Ballada xalqimizning ulug' shoiri, O'zbekiston qahramoni I.Yusupovning so'ziga "Nareste" nomli balladasiga yaratgan kuyi huddi bir-birini jipslashtirib sintemantal noziklik bilan boshlanib, urushga, qayg'u-hasratga qarshi yomon ko'ruvchi tuyg'ularni uyg'otuvchi hodisalarni bayon qilganida, uning musiqiy zabardast, yerni tebratuvchi nola ohaglari, dramatism borgan sari hayqiradigan dramatismga aylanadi. Urush qirg'inlar unga qarshi xalqning qudratli o'tlanishlari singari katta optimistik tragediyani gavdalantirgan.

G'azabli otga mingan bu ballada, kompozitor tomonidan yaratilgan musiqiy estalik-haykal, begunoh ketgan go'daklarga bag'ishlangan-fashizmga lanat o'qini otgan hasratli onaning xotira va qadirlash kunlari "Hasratli ona" haykalining yonida eslashning o'zi ham martlikdir.

Ballada dastlab skripkaning oynadek tiniq, o'zgacha noziklik bilan ijro qilib turgan lirik kuyi bilan boshlanadi. Kuyning ijrosiga keyin violonchel, fortepiano cholg'ulari qo'shib, ushbu musiqiy trioning jo'rliigi fonida ilk bora taniqli qo'shiqchi O'zbekiston xalq artisti Bayram Matchanov tomonidan ijro qilingan. Balladani qo'shiqchi to'lqinli nolalarini, kuchli dramatism bilan deklamatsiyalab maromiga etkazib ijro qilgan. Hozirgi kunda 2022-yil kompozitorning 85 yoshga to'lgan yubeley kontsertida Respublika ko'rik tanlovlar sohibi Furqat Embergenov tomonidan ijro qilib kelindi. Cholg'u partiyasini O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali talabalari Artıqbaev Allambergan skripkada, Kaniyazov Damir alt cholg'usida, Jumabaev Bunyod fortepiano, violonchelda Sherimbetov Xayrullo ijro qilishdi. Asar fortepiano, birinchi va ikkinchi skripkalar, violonchel va ovoz uchun yozilgan bo'lib asarning boshlanishi ya'ni kirish qismida 2/4 o'lchamda c-moll tonalligida cholg'u asboblari boshlab beradi 14 takt davomida bunda ohangni birinchi skripka ijro qilib keyin deklomatsiya bilan ovoz ijosi davom ettiradi. Forteplano partiyada akkordli fakturada garmoniyani ushlab turgan holda skripkalar to'lqinlanib mavj urib dramatismni kuchaytirib ohangga jo'r bo'lishadi.

Muallif ushbu asarnida so'z qudratiga urg'u berib, uni maromiga etkazib ijro qilish uchun Italyan operalari singari dramatishtatsiyalangan rechitativ uslubini mohirona qo'llagan. Kompozitor asarning ijrosida ansamblga ham solistga ham erkinlik berib, qudrati yetganicha o'zida bor talantini bilimini barcha imkoniyati bor xususiyatlari bilan ovozini ishga qo'shib, avjini qo'yib yubormasdan yetganicha cho'za olgan. Rus kompozitori P.I.Chaykovskiyning "O'zingning o'y-hayollaringni cholg'u orqali to'liq yetkaza olmagan joyda faqat musqia orqali gina har tomonlama yakuniga yetkazish mumkin"<sup>45</sup>, deganiday shoirning so'zini kompozitor musiqa tili bilan yanada rivojlantirib ko'rsatgan. Ushbu ballada orqali qoraqalpoq musiqa an'anasida oldin bo'lmagan yangi qo'shiq turini yangicha ohang, yangicha uslub va ijro bilan boyitdi. Ballada shoir va kompozitorning tarixda bo'lgan voqealarning kuchli tuyg'ularini ikkita ijodkorning mehnat

<sup>43</sup> АБАТБАЕВА, Рано. "КОМПОЗИТОР НАЖИМАДДИН МУХАММЕДДИНОВ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ СИЙМОЛАР." Journal of Culture and Art 1.1 (2023): 60-66.

<sup>44</sup> Энциклопедический музыкальный словарь. Издательство «Советская энциклопедия». М.1996.стр.37

<sup>45</sup> Глебов Игорь (Асафьев).. айковский.МУЗО, НКП., 1919 г. Стр-3



mahsuli asosida chuqur falsafiy o'y-hayollaridan yaralgan hikmatli vasiyatlariga aylangan. Qo'shiqning asosiy mazmuni dunyoga kiyimsiz kelgan oppoq momiqday pok go'dakning ulug'ligini tariflashga qaratilgan. Lekin go'daklarning tag'diriga bir xil g'amxo'rlik qilinyabdimi? Shoir ham kompozitor ham, ijro qilgan qo'shiqchi solist ham bu yovuzlikka - yo'q! yo'q! hammasi emas!, deb hammasi birdaniga ohanglarini ko'tarib, qarg'ish otgan fashizmga lanat tang'asini bosadi.

Ushbu odamlarning barchasi rostdan ham,  
Bola bo'lganmi?-deb savol qo'yaman,  
yo'q-yo'q, barchasi emas! Faqat yaxshilar.  
Agar ular ularday bola bo'lganda,  
Yurmasmidi ushbu bolalar o'lmasdan,  
Ming-ming bolalarning botinkalari shunda,  
Osventsimda yotmas edi kiyilmasdan,

Degan qo'shiq qatorlarga kelganda musiqa sekin-asta rivojlanib kuchli dramatik avj oladi. Ushbu dramatism uch marotaba takrorlanib musiqiy obrazlarda qolib, solist tomoniga o'sha fonda og'ir salmoqli aytilgan ilk qayg'uli xursinish aralash lirik obraz yana takrorlanadi.

Shunday qilib, uning umumiy xarakteri qayg'uli drama shaklida yaratilgan bo'lsa ham, uning eng oxirgi akkordi shodlik tinchlik, kelajakka ishonch bilan yakunlanadi. Bunda kompozitorning mahoratida musiqiy tili ijrochilarning maromiga yetkazib ijro qilishi juda ahamiyatlidir.

Yangi qo'shiq-bu insonning axti, quvonchi deyiladi xalq aforizmlarida. Haqiqiy qo'shiqchi-yuqori darajadagi ijrochi, ijodkor, dono pedagog, tarbiyachi va yangi hayotning yutuqlarini yuksaltiruvchi, maslahatchidir. Kompozitorning ko'tarinki qahramonlik marshlaridan boshlab, yurakdan chiqqan lirik kuy-qo'shiqlariga qadar insonni o'ziga tortuvchi imotsional mavhum kuchlarni anglatadi. Mana shunday ajoyib insonning ongiga tasir qiladigan qo'shiqlarni N.Muxammeddinov juda ko'p yaratgan.

Barcha yaratgan asarlari har qanday xarakterda yozilgan bo'lishiga qaramastan o'zining milliyliigi, nolasi, musiqiy tili, miqdori va o'lchami bo'lib, yuraklarga to'siqsiz beixtiyor o'rnalashib oladi. Kompozitor ijodini talabalik davridan tinmasdan mehnat qilib sonata, fuga, prelyudiya, pyesa va fortepiano uchun variatsiyalarni yaratgan, unga "Yor qarashi ko'rinmaydi ko'zimga" va boshqa atamalardagi xalq kuylarini mavzu qilib olib o'zining fantaziyasi bilan boyitib qayta ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda bu "Nareste haqida ballada"si kompozitor Kompozitor Najimmaddin Muxammeddinovning ballada janriga murojaati optimistik kuy, ajralmas hayotiy energiya, dunyoni idrok etishning to'la tuyg'usi bilan ifodalanadi. "Nareste" misolida milliy shaklu shamoyilini yo'qotmagan holda musiqiy dramatik janr qoidalariga muvofiq o'sha davrning insonga ta'sirini mana shunday musiqa ohangi orqali yetkazib berib yangi hayotga yo'l izlab uni topa olishdek imkonini so'z va musiqa ifodasida ko'rsatib bergan.

Ijodkorning turli qarashlari orqali ijod mahsuli yaratilib nafaqat musiqamiz balki, izlanuvchi talaba yoshlar ushun ham xazina boyligi bo'lib xizmat qiladi. Keyingi ijodi da yangidan yangi asarlar kutib ijodiga omadlar tilab qolamiz.



## REFERENCES

1. Alimov Á. Adambaeva T. "Ataqlı sazgerler" "Qaraqalpaqstan"-Nókis. B-22.
2. АБАТБАЕВА, Рано. "КОМПОЗИТОР НАЖИМАДДИН МУХАММЕДДИНОВ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ СИЙМОЛАР." *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023): 60-66.
3. Allambergenovna, Abatbaeva Rano. "THE MANIFESTATION OF EUROPEAN AND NATIONAL TRADITIONS IN THE OPERA "GULAYIM"." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 2.2 (2022): 185-187.
4. Абатбаева, Рано Алламбергеновна. "ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н. МУҲАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 648-653.
5. Энциклопедический музыкальный словарь. Издательство «Советская энциклопедия». М.1996.стр.37
6. Глебов Игорь (Асафьев).. айковский.МУЗО, НКП., 1919 г. Стр-3
7. Камалова Д. Э. Баспасөзде новелланың жанрлық өзгешелиги (Жанровые особенности новеллы в прессе) [Genre features of the novel in print] / Д. Э. Камалова //Материалы республиканское научно-практической конференции. – Нукус. Наука. 2019. – С. 18-21.
8. Камалова,Д. Э.Роль художественной детали в каракалпакских новеллах[The Role of Artistic Detail in Karakalpak Novels]. // Донецкие чтения 2021: образование, наука, инновации, культура и образы современности: Материалы VI Международной научной конференции. –Донецк: Изд-во ДонНУ. 2021. –с. 139-142.
9. Алланбаев Р. О. ПРОЦЕСС ОБНОВЛЕНИЯ ТРАДИЦИЙ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ОПЕРНОМ ТЕАТРЕ //Проблемы современной науки и образования. – 2021. – №. 3 (160). – С. 71-74.
10. Камалова Д.Э. Баспасөзде новелланың жанрлық өзгешелиги (Жанровые особенности новеллы в прессе) [Genre features of the novel in print] // Материалы республиканское научно-практической конференции. – Нукус. Наука. 2019.

## JANUBIY OSIYO MINTAQAVIY XAVFSIZLIK TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA INTEGRATSIYA JARAYONLARI

Xojimurodova Muqaddas Raxmonberdiyevna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8430379>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Janubiy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik tizimi muammolariga bag'ishlangan bo'lib, ushbu mavzuni kengroq tahlil qilishga va unga zamonaviy kontekstda yondashishga urinadi.

**Kalit so'zlar:** Janubiy Osiyo, mintaqaviylik, mintaqaviy xavfsizlik tizimi, RSCT, an'anaviy tahdidlar, noan'anaviy tahdidlar, SAARC, BIMSTEC, BBIN.

## PROBLEMS AND INTEGRATION PROCESSES IN THE SOUTH ASIAN REGIONAL SECURITY SYSTEM

**Abstract.** This article is devoted to the problems of the security system in the South Asian region, and tries to analyze this topic in a broader way and approach it in a modern context.

**Keywords:** South Asia, regionalism, regional security system, RSCT, conventional threats, non-conventional threats, SAARC, BIMSTEC, BBIN.

## ПРОБЛЕМЫ И ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В СИСТЕМЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЮЖНОЙ АЗИИ

**Аннотация.** Данная статья посвящена проблемам системы безопасности в южноазиатском регионе и пытается проанализировать эту тему шире и подойти к ней в современном контексте.

**Ключевые слова:** Южная Азия, регионализм, система региональной безопасности, РСКТ, конвенциональные угрозы, нетрадиционные угрозы, СААРК, БИМСТЕК, ББИН.

### Introduction

Janubiy Osiyo mintaqasi o'zining strategik joylashuvi, siyosiy harakatlari, iqtisodiy beqarorlik va tarixiy madaniy rivojlanganligi jihatlariga ko'ra muhim ahamiyat kasb etuvchi mintaqaga hisoblanadi. Bir tomondan Afg'oniston va Markaziy Osiyo bilan, g'arbiy tomondan Fors ko'rfazi davlatlari bilan, sharqiy tomondan esa Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi bilan va ayniqsa, shimoldan Xitoy bilan chegaradosh bo'lganligi, aholisi umumiy mintaqaviy meros, madaniyat, tarixga ega ekanligi, va uzoq davrlar mustamlaka yuki ostida bo'lganiga qaramasdan Janubiy Osiyo kuchli mintaqaviy xavfsizlik dinamikasini namoyon qiladi. Mintaqa Hindiston va Pokiston o'rtasidagi Kashmir mojarosidan tortib, etnik-diniy nizolar, radikalizm, chegara muammolari kabi an'anaviy xavfsizlik tahdidlari va bugungi kunda noan'anaviy tahdidlar hisoblanuvchi iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi, kambag'allik, iqtisodiy beqarorliklar, odamlar va narkotiklar savdosi kabi muammolar girdobida qolmoqda. Bundan tashqari, mintaqadagi ikki raqobatlashayotgan davrlarning yadro quroliga egalik qilishi, va bu hududga AQSH, Xitoy va Rossiya kabi tashqi kuchlarning qiziqishi ham mintaqaviy xavfsizlik tizimiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Mintaqa davlatlari tomonidan tashkil etilgan mintaqaviy hamkorlik mexanizmlari yoki samarasiz, yoki o'z potensialini to'liq namoyon qila olmagan. Shunday ekan, Janubiy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimini chuqurroq o'rganishga doimo zarurat mavjud.

### Methods

Ushbu maqolani yozish jarayonida kontent analiz, ivalent analiz, tizimli tahlil va tarixiy metodlardan foydalanildi.

## Results

Janubiy Osiyo mintaqasi deganda jo'g'rofiy nuqtai nazardan Pokiston, Hindiston, Nepal, Butan, Bangladesh, Shri Lanka va Maldiv orollarini o'z ichiga olgan hudud nazarda tutiladi. Umuman, mintaqa so'zi biroz bahsli atama bo'lib, ko'proq turli qit'alarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Ba'zan esa alohida hududlarga nisbatan ham mintaqa so'zi ishlatilganini ko'rish mumkin. Mintaq va submintaqa so'zlari tez tez o'zaro almashtirilib qo'llanilganini uchun ularning farqi ba'zan yaqqol sezilmaydi. Jahon siyosati haqida so'z borganda esa mintaq atamasi siyosiy tus oladi va bu jo'grofiy nuqtai nazardan ko'zda tutilmagan hudud bo'lishi mumkin. Masalan, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasiga Avstraliyaning kiritilishi, Markaziy Osiyo hududiga ba'zan Afg'onistonni qo'shib, ba'zan esa qo'shmasdan ta'riflash mintaqalarning siyosiylashgan nuqtai nazardan belgilanishiga misol bo'la oladi. Xuddi shu kabi Janubiy Osiyo mintaqasiga ba'zi bir tadqiqotchilar Afg'onistonni ham qo'shadilar. Bu AfPakiston yoki Af-Pak atamasi sifatida ma'lum bo'lib, AfPakiston so'zini Mintaqaviy xavfsizlik komplekslari nazariyasi muallifi B.Buzan birinchi bo'lib qo'llagan va ba'zi bir g'arb siyosatshunoslarining Afg'oniston va Pokistonga yagona harbiy-siyosiy hudud sifatida qarashidan dalolat beradi. Af-Pak atamasining kelib chiqishi esa ba'zi bir ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, amerikalik diplomat Richard Xolbrukka nisbat beriladi.

Xolbrukning fikricha, quyidagi uchta sababga ko'ra Afg'oniston va Pokiston yaxlit harbiy-siyosiy hudud o'laroq qaralishi lozim: ushbu ikki davlatning hududida umumiy harbiy operatsiyalar teatrining mavjudligi; 1893-yilgi «Dyurand chizig'i» bo'ylab hal qilinmagan chegara bahslari; qabilalar hududi bo'lgan ochiq chegara rejimidan Tolibon va boshqa terrorchilik tarmoqlari tomonidan foydalanilishi. Va shu bilan birga, Afg'onistonning Janubiy Osiyo mintaqasining integratsiya tashkiloti bo'lgan Janubiy Osiyo Mintaqaviy Hamkorlik Hamjamiyati - SAARC ning to'laqonli a'zosi ekanligi<sup>46</sup>. Biroq tez orada Xolbruk va Obama ma'muriyati Pokistonning noroziligi tufayli ushbu atamadan voz kechdi<sup>47</sup>. Ammo siyosiy adabiyotlarda hanuzgacha uni uchratish mumkin. Shu bilan birga, adabiyotlarda Janubiy Osiyo hududini submintaqa atamasi bilan nomlanishi holatlarini uchratish mumkin, va uni Fors ko'rfazi mintaqasidan Afg'oniston ajratib turishi, sharqiy tomondagi chegarasi esa Myanmaga borib taqalishi qayd etiladi.

Shunday qilib, xalqaro munosabatlarda mintaqalar sof jo'g'rofiy birlik emas, balki ba'zi bir siyosiy dasturlarning bir qismi bo'lishi mumkinligini ko'rib o'tdik. Va Janubiy Osiyo mintaqasi misolida ham bu kabi yondashuvlarni ko'rish mumkin.

Xalqaro xavfsizlik masalasini mintaqaviy kesimda qaraydigan bo'lsak, bu avvalambor milliy xavfsizlikning tashqi jihatlarini nazarda tutuvchi tushunchadir. Ushbu jihatlar muayyan davlatning mintaqada joylashgan boshqa xalqaro munosabatlar subyektlari - boshqa davlatlar, mintaqaviy institutlar, harbiy ittifoqlar va integratsiya bloklari bilan ikki tomonlama yoki ko'ptomonlama aloqalar o'rnatish va olib borishdan iboratdir. Mintaqaviy o'lchamdagi xalqaro xavfsizlik tarixan o'zgaruvchan bo'lgan xalqaro tartibotning funksiyasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, mintaqaviy xavfsizlik bir tomondan xalqaro xavfsizlikning joriy holati bilan, ikkinchi

---

<sup>46</sup> Buranov S., Afghanistan as a Bridge connecting Central and South Asia. <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v9i2.3499>, P 320-321.

<sup>47</sup> Josh Rogin. Team Obama scuttles the term «Af-Pak», [foreignpolicy.com](http://foreignpolicy.com), Jan. 20, 2010. <https://foreignpolicy.com/2010/01/20/team-obama-scuttles-the-term-afpak/>

tomonidan esa, ushbu mintaqa davlatlarining dominant maqomdagi milliy xavfsizlik strategiyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Mintaqaviy xavfsizlik shunday bir holatki, unda mintaqa davlatlari o'zlarini har qanday harbiy hujum tahdidlari, siyosiy va iqtisodiy bosimdan xoli his qiladi.

Umuman, hozirgi kunda umume'tirof etilgan va mintaqaviy xavfsizlik tizimlarini tushuntirib berish uchun qo'llaniladigan Buzan nazariyasi xavfsizlik komplekslarini jo'g'rofiy jihatdan bir hududda joylashgan davlatlar xavfsizlik muammolarining o'zaro bog'liq ekanligi va unga tashqi kuchlarning kirib kelishi mumkinligi deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, dekolonizatsiya davridan beri xavfsizlikning mintaqaviy darajasi avtonomlashib, xalqaro siyosatda ko'zga tashlana boshladi. Sovuq urushning tugashi mintaqaviy xavfsizlik dinamikasining ahamiyatini yanada oshirib yubordi. Barcha davlatlar ikki qutblilikka asoslangan asosiy qarama qarshilik tugaganidan so'ng o'zining yaqin qo'shnilari bilan xavfsizlik munosabatlarini mustahkamlash bilan mashg'ul bo'lib qoldi. Buyuk va kuchli davlatlar o'z mintaqasidan tashqaridagi masalalarga aralashmay qo'ydi. Buzanning fikricha, bu holat «bir qutbli» yoki «ko'p qutbli» tartiblar ramkasiga tushmaydi. Shuningdek, bu globallasuv va mujmal «yangi dunyo tartibi» ham emas. Bu yangi strukturani RSCT, ya'ni mintaqaviy xavfsizlik komplekslari nazariyasi tushuntirib bera oladi.

Mintaqaviy xavfsizlik masalasining tarixiy shakllanish va rivojlanish davrini Mintaqaviy xavfsizlik komplekslari nazariyasining (ingliz tilidagi qisqartmasi - RSCT) mualliflari B.Buzan va O.Vayver uch bosqichga bo'lib ko'rsatadi. Birinchi bosqich 1500-yildan 1945-yilgacha, ikkinchi bosqich 1945-yildan 1990-yilgacha bo'lgan sovuq urush davri, uchinchi bosqich esa sovuq urushdan keyingi davr<sup>48</sup>.

Umuman jahon siyosatida mintaqaviylik rolining oshib borishi bu Ikkinchi Jahon urushidan keyingi sovuq urush davriga xos bo'lgan xususiyatdir. Buzan va Waever tomonidan taklif etilgan birinchi bosqich davrida ham xavfsizlik tizimlari yaratishga nisbatan urinishlar bo'lgan. Masalan, bu vaqtda eng keng tarqalgan tuzilmalardan biri bu - biror bir umumiy dushmanga qarshi kichikroq davlatlar tuzgan harbiy ittifoqlardir. Bunday ittifoqlar ko'pincha qisqa muddatli va ad hoc xarakterga ega bo'lib, institutsionallashtirilmagan va o'zaro ishonch jihatidan zaif bo'lgan. Qiziqarlisi tarixda mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaga ilk urinishlar ham bo'lgan. Bunga misol tariqasida XIII asr o'rtalarida german shahar-davlatlarida tijoratchilarning erkin va xavfsiz harakatlanishlari va savdo qilishlarini ta'minlash maqsadlarida tashkil etilgan Hanza ittifoqini keltirish mumkin<sup>49</sup>. Hanza ittifoqi bugungi mintaqaviy integratsiya bloklariga xos bo'lgan ko'pgina belgilarga ega bo'lganligi adabiyotlardan ma'lum.

Birinchi bosqichni Millatlar Ligasining muvaffaqiyatsizligi yakunlab bergan bo'lsa, aynan Ikkinchi jahon urushidan so'ng mustamlakachilikning tugatilish jarayonlari xalqaro munosabatlarning globallasuvi, ya'ni avvalgi davrlarda jahon siyosatiga ta'siri oz bo'lgan mintaqalar davlatlarining ham faollashuvi, va mintaqaviy xavfsizlik ahamiyatining oshishiga olib keldi. Mintaqaviy tuzilmalar tezlik bilan ko'payib xalqaro munosabatlarning subyektlari soni ortib

---

<sup>48</sup> Buzan B, Waever O. *Regions and Powers. The Structure of International Security*. Cambridge University Press, 2003.

<sup>49</sup> Игнатенко А.В. Правовой статус и историческая роль Ганзейского союза (один из ранних опытов протоконфедерации в Европе//Российский юридический журнал - Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2005. - №3 (47). - С. 134.

bordi. Bu davrdagi mintaqaviy integratsiya tizimlarini tashkil etishga ishtiyoqni uyg'otib bergan namuna bu Yevropa ittifoqining poydevori o'laroq paydo bo'lgan ilk mintaqaviy shartnomalar va tuzilmalar desak adashmaymiz. Chunki ularning muvaffaqiyati, tarixan doimiy nizolar girdobida bo'lib kelgan Yevropaning barqaror rivojlanish yo'liga o'tishi, mintaqaviy integratsiyaning xavfsizlik mexanizmlarini yaratish mintaqada o'zaro ishonchni mustahkamlash borasida samarali bo'lishini ko'rsatib berdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Janubiy Osiyoda avvaldan diniy nizo ko'rinishida bo'lib kelgan kelishmovchilik endi ikki davlat o'rtasidagi mojaroga olib keldi. Ya'ni bu mintaqadagi davlatlar o'zaro urush holatida vujudga keldi. Bu davrda Hindiston mustaqillikka erishishiga katta hissa qo'shgan Hindiston milliy Kongressining Pokistonga nisbatan positsiyasi juda murossasiz edi va bu mintaqadagi asosiy urushlar ham ayni shu davrda yuz berdi.

Janubiy Osiyo mintaqasida mintaqaviy xavfsizlik tizimi qay tarzda shakllandi va bu jarayonlar qanday kechdi degan savolga yana RSCT nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, mustaqillikdan avval sekyuritizatsiya<sup>50</sup> jarayoni musulmonlarning siyosiy-madaniy avtonomiyaga erishish talablariga asoslangan bo'lsa, keyin bu ikki davlat o'rtasidagi hududiy bahslar, kuch balansi, bir birini ichki ishlarga aralashishda ayblash tomonga o'zgardi. Pokiston va mintaqadagi kichikroq bo'lgan davlatlar Nepal, Butan, Shri Lanka, Bangladesh va Maldiv - barchasi Hindiston bilan yaqin iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy bog'liqliklar va qisman bir biridan izolyatsiyalanganligi, qisman esa hammasi bir bo'lib ham Hindistonga teng kela olmasligini anglagani tufayli ushbu kompleksga bog'landi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, zamonaviy Janubiy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik dinamikasi eng yuqori bo'lgan hudud bo'lib turibdi. Hozirgi kunda ham mahalliy, ham xorijlik tadqiqotchilar ushbu mintaqadagi xavfsizlik muammolarini an'anaviy va noan'anaviy tahdidlarga bo'lib tahlil qilishadi. Va bu yondashuv nisbatan mintaqadagi davlatlari siyosatida ham o'z aksini topmoqda.

Avvalambor an'anaviy tahdidlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, birinchi o'rinda xavfsizlikka jiddiy xavf solib turgan va vaqti-vaqti bilan harbiy to'qnashuvlarga olib kelish ehtimoli yuqori bo'lgan hal etilmagan chegara bahslarini keltirib o'tish lozim. Birgina mintaqaning o'zida o'nlab shunday bahslar mavjud. Masalan,

- Hindiston va Pokiston o'rtasidagi Kashmir muammosi;
- Pokiston va Afg'oniston orasidagi Durand chizig'ining tan olinishi masalasi;
- Hindiston va Pokiston o'rtasidagi Sir Krik bahsi;
- Hindiston va Xitoy orasidagi Aksay Chin va Arunachal bahsi;
- Hindiston-Nepal chegara muammosi;
- Hindiston va Butan o'rtasidagi isyonchi kuchlarning chegara bo'ylab harakati masalasi;
- Hindiston va Bangladesh suv bahsi;
- Bangladesh va Myanma o'rtasidagi Rohinja qochoqlari masalasi;
- Hindiston va Bangladesh o'rtasidagi quruqlik va suv chegarasi bahsi;

---

<sup>50</sup> Xalqaro munosabatlar va milliy siyosatdagi sekyuritizatsiya - bu davlatlarning odatiy siyosiy masalalarni xavfsizlik masalasiga aylantirish jarayonidir, bu bilan favqulodda vositalardan xavfsizlikka erishish uchun foydalanish imkoni yaratiladi.



- Hindiston va Shri Lanka o'rtasidagi isyonchi kuchlarning chegara bo'ylab harakati masalasi<sup>51</sup>.

Hindiston va Pokiston o'rtasidagi ikki tomonlama hududiy bahslar mintaqada 1948-yil, 1965-yil va 1971-yillarda uchta urushga olib keldi. Bundan tashqari, ikki davlat o'rtasidagi nazorat chizig'i bo'ylab hozirgacha kichik inqirozlar sodir bo'lib turibdi. Bulardan eng qonlisi 1999-yilning may-iyul oylarida yuz bergan Kargil urushidir. Shu bilan birga, hozirgacha hal etilmagan Hindistonning Nepal bilan ochiq chegara masalasi, Bangladesh bilan tranzit va suv masalasi kabi boshqa chegara bahslari mintaqaviy hamkorlik uchun katta to'siq bo'lib turibdi.

Janubiy Osiyodagi an'anaviy tahdidlardan yana biri bu ichki diniy-etnik nizolar hisoblanib, mintaqaning deyarli har bir davlatida mintaqaviy va global terrorchilik guruhlariga aloqador va uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq bo'lgan etnik, diniy va so'l kuchlarning muayyan konsentratsiyasi mavjud. Mintaqa til, din, madaniyat va millat-elatlarning xilma-xilligi tufayli ham siyosiy murakkabliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, din Janubiy Osiyodagi siyosiy xavfsizlikka katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Pokistonda radikal islomiy guruhlar faoliyati natijasida so'nggi yillarda juda ko'p qo'poruvchilik aktlari sodir etilmoqda. Janubiy Osiyo terrorizm portali ma'lumotlariga ko'ra, Pokistonning o'zida 44 ta faol terrorchilik guruhlar mavjud, nafaol bo'lgan guruhlar soni esa 26 tani tashkil etadi<sup>52</sup>. Shuni qayd etib o'tish kerakki, Afg'onistonning sobiq hukumati va Hindiston davomli ravishda Pokiston hukumatini terrorchilik guruhlarini qo'llab-quvvatlashda ayblab kelgan. Shuningdek, AQSH rasmiylari ham Pokistonning terrorga qarshi kurashda vijdoni toza emasligini ta'kidlaydi. Pokistonda terrorchilik hujumlarining intensivligi 2009-2010-yillarda eng yuqori darajani ko'rsatgan bo'lsa, nisbatan sust davrdan so'ng 2020-yildan beri asta-sekin yana kuchayayotganini kuzatish mumkin.

Hindistonda ham diniy va etnik radikalizmga asoslangan tashkilotlar 69 tani tashkil etmoqda. Bu statistik ma'lumotlarni mintaqaning boshqa davlatlari misolida ham davom ettirish mumkin. Eng ko'p tilga olinadigan diniy-etnik separatistik guruhlarini sanab o'tadigan bo'lsak, bular Pokistondagi Baloch separatistik harakati, Hindistondagi sikhlarning Halistan separatistik guruhi, Kashmir, Assam, Nagaland va Mizoram harakatlarini keltirish mumkin. Bundan tashqari, Hindistonning bir qancha shtatlarida qurolli so'lichilar harakati - Naksallar faol bo'lib kelmoqda. Buning ustiga ba'zi bir tadqiqotchilar tomonidan Hinduizm pozitsiyasining kuchayishi ham zamonaviy Hindistonning xavfsizligiga tahdid o'laroq baholanmoqda. Bangladesh uzoq muddatli kurashlardan so'ng Chittagong darasi ayirmachilari bilan kelishuvga erishgan edi, endilikda esa Rohinja qochoqlari bilan bog'liq tarang vaziyatga yuzma yuz keldi. Nepalda ham uzoq yillar davom etgan ichki nizolar 2006-yilga kelibgina hal etildi va monarxiya tugatilib, mamlakat demokratik boshqaruv usuliga o'tdi. Shri Lankada ozchilik tamil va ko'pchilik hisoblangan sinhallar o'rtasida o'ttiz yildan ortiq davom etgan fuqarolik urushi tugatilgan bo'lsa ham siyosiy taranglik to'liq bartaraf etilmay qolgan. Maldivda Gayum rejimidan so'ng davom etgan uzoq muddatli siyosiy beqarorliklar orol-davlat iqtisodini izdan chiqardi. Butan qirolligi mintaqaning boshqa davlatlariga nisbatan tinch hisoblanadi va Global tinchlik indeksida 2023-yilda Janubiy

---

<sup>51</sup> Muhammad Tarequl Islam. Analysis the Main Characteristics and Dynamics of Sub-Regional Security Complex of South Asia. IOSR Journal of Humanities and Social Sceince, Volume 25, Issue 5, Series 4 (May, 2020), P. 62.

<sup>52</sup><https://www.satp.org/terrorist-groups/pakistan>



Osiyoning eng tinchliksevar mamlakati sifatida o'n yettinchi o'rinni egalladi<sup>53</sup>. Va nihoyat barchamiz guvoh bo'lgan hodisalar - AQSHning Afg'onistonni tark etishi va Tolibon hukumatining o'rnatilishi. Jahon hamjamiyati tomonidan tan olinmagan toliblar hukumati mamlakatda xavfsizlik vaziyatini izga solishda hali sezilarli muvaffaqiyatga erishgani yo'q.

Xavfsizlikka tahdidlardan biri bu qurollanish poygasi bo'lib, Janubiy Osiyoning ikki yirik davlati yadro quroliga ega bo'lgandan so'ng ba'zi kuzatuvchilar tomonidan noan'anaviy deb ham baholanuvchi tahdid turining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu yadroviy texnologiyalarning tarqalishi xavfidir. Uzoq yillar davom etgan tekshiruvlar va tergovlardan so'ng pokistonlik yadro quroli yaratuvchisi Abdulqodir Xonning ushbu ishlarga aloqasi borligi va anchagina katta guruhdan iborat sheriklari fosh etildi. Ushbu tarmoq yadroviy texnologiyalarni Eron, Shimoliy Koreya va Liviyaga yetkazgani ma'lum va Abdulqodir Xonning o'zi ta'kidlashicha, bundan Pokiston hukumatining eng yuqori doiralarining ham xabari bo'lgan. Xullas, ushbu voqea hozirgi kunga qadar jahon hamjamiyatini yadroviy qurollar texnologiyalarining yanada tarqalish xavfi bilan tashvishga solib keladi va shu bilan birga, bu borada Pokiston hukumatiga nisbatan muayyan ishonchsizlikni ham keltirib chiqargan.

Mintaqada yadro qurolining paydo bo'lishi bilan mintaqaviy xavfsizlik kompleksi yangi o'lchamga ko'chdi. Bu Hindiston va Pokiston o'rtasida nisbatan balansni yuzaga keltirdi, shu bilan birga, kuchli xalqaro taranglik yaratdi va mintaqaviy xavfsizlikning ahamiyatini oshirdi<sup>54</sup>.

So'nggi yillarda Hindiston va Pokiston o'rtasidagi qurollanish poygasi yanaga jadallashayotganini kuzatish mumkin. Avvaliga Hindiston yadro quroli yo'nalishini tanlagandan so'ng, o'zini ortiq xavfsiz deb his qila olmagan Pokiston unga ergashdi. Hindiston ballistik va qanotli raketalarni ishlab chiqishni boshladi, Pokiston ham paritetga intildi. Hindiston «Sovuq start» deb nomlangan doktrinasini e'lon qildi, bunga nisbatan esa Pokiston taktik yadro qurollarini ishlab chiqish bilan javob berdi. Hindiston ballistik raketalarga qarshi mudofaa tizimini rivojlantirmoqda, bunga javoban Pokiston o'z yadro qurollarining joylashuvini o'zgartirish bilan javob berish ehtimoli katta<sup>55</sup>.

2019-yilgi Balakot aviahujumlaridan so'ng xavfsizlik vaziyati va kuch balansi yana o'zgardi. Bu hujumning ahamiyati shunda ediki, endi Hindiston strategik tiyib turish siyosatidan voz kechdi. 1999-yilgi Kargil inqirozi davrida Hindiston ikki davlat o'rtasidagi Nazorat chizig'ini kesib o'tmaslikka qaror qilgan edi. Balakotda esa Hindiston Pokiston hududiga kirib, u yerdagi nishonlarga zarba berdi. Bu bilan Pokistonga Kashmirdagi guruhlarni qo'llab-quvvatlamaslik borasida aniq ogohlantirish yuborildi. 2019-yilning 6-avgustida esa Kashmirning maxsus maqomi bekor qilindi. Pokiston tomoni bu harakatni bir tomonlama noqonuniy qadam deb bayonot berdi. Pokiston parlamenti Hindistonning ushbu harakatlarini qoraladi, Milliy xavfsizlik qo'mitasi diplomatik munosabatlar darajasini pasaytirdi. Ikki davlat o'rtasidagi poyezdlar harakati, barcha madaniy aloqalar, shuningdek savdo aloqalarining katta qismi to'xtatildi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, Janubiy Osiyoning Pokistondan tashqari barcha davlatlari bu akti Hindistonning ichki ishi deb baholadi va to'liq qo'llab-quvvatladi.

---

<sup>53</sup> Global Peace Index 2023. Institute for Economic & Peace. Measuring peace in a complex world. <https://www.visionofhumanity.org/>

<sup>54</sup> Christian Wagner. Security Cooperation in South Asia. SWP Research Paper. June 2014, Berlin.

<sup>55</sup> Ghazala Yasmin Jalil. Nuclear Arms Race in South Asia: Pakistan's Quest for Security. Strategic Studies. Vol.37, No. 1 (Spring 2017), pp. 18-41. <https://www.jstor.org/stable/48535985>

Bugungi kunda xavfsizlik masalasiga ko'p tarmoqli yondashuv ko'p kuzatuvchilar tomonidan yoqlanadi va noan'anaviy tahdidlar bevosita harbiy vaziyat, qurol-yarog' va qo'poruvchilik harakatlariga va umuman, xavfsizlik sohasiga aloqador emasdek ko'rinsa ham, ularning barqarorlikni izdan chiqara olish xususiyatlarini inkor etishning iloji yo'q. Janubiy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga rahna soluvchi quyidagi noan'anaviy muammolarni sanab o'tish mumkin:

- Iqlim o'zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi;
- kambag'allik va tengsizlik;
- yomon boshqaruv va beqarorlik;
- narkotiklar va odam savdosi;
- iqtisodiy jinoyatlar;
- oziq-ovqat va suv xavfsizligi.

Janubiy Osiyo iqlim o'zgarishlari eng ko'p ta'sir etuvchi mintaqa hisoblanadi. Himolayda muzliklarning intensiv ravishda erishi va kamayib borishi mintaqaning asosiy daryolari bo'lmish Hind, Gang va Brahmaputra daryolarida mavsumiy suv ko'payib ketish xavfini oshiradi. Musson yomg'irlari sur'atining o'zgaruvchanligi va jazirama issiq hosildorlikka ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shuningdek, dengiz sathining ko'tarilishi va kuchli siklonlar ham so'nggi vaqtlarda mintaqa uchun xavf solib kelmoqda. Buning natijasida millionlab odamlar tabiiy ofatlardan aziyat chekishi, suv va oziq-ovqat yetishmovchilidan qiynalishi, shuningdek, elektr ta'minotidagi uzilishlardan zarar ko'rishi mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, mintaqadagi barcha davlatlar iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishining salbiy oqibatlarini allaqachon birdek his qilib kelayapti. Misol uchun, 2022-yilda Pokistondagi musson yomg'irlari halokatli oqibatlarga olib keldi va minglab odamlarning boshpanasiz qolishiga sababchi bo'ldi. 25-avgustda favqulodda holat e'lon qilindi va bosh vazir Shahboz Sharifning bayonotiga ko'ra toshqinlardan 33 million aholi jabr ko'rди, bu esa mamlakat aholisining 15 foizini tashkil etadi. Hind okeanining ekvatorga yaqin qismlarida kuchli bug'lanish tufayli yuzaga kelgan atmosfera daryolari Janubiy Osiyo hududiga qarab siljishi oqibatida 2023-yilda ham musson yomg'irlari ayniqsa Hindiston uchun falokatli bo'ldi. Mutaxassislar bashoratiga ko'ra global isish tufayli bu hodisa yaqin kelajakda ham davom etadi<sup>56</sup>. Bangladeshda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar kam bo'lgani va tabiiy ofatlar tez tez yuz berishi aholi orasida ochlik, to'yib ovqatlanmaslik va sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi kabi salbiy oqibatlar kelib chiqarmoqda. Turli topografik sharoitlar va iqlim zonalarida tufayli Nepal davlati ham nisbatan kichik hududga ega bo'lsada, iqlim o'zgarishlari va atrof-muhit muammolariga ta'sirchan hisoblanadi. Iqlim o'zgarishlarining Nepalga asosiy ta'siri zilzilalar, tuproq ko'chishi, suv toshqinlari, yong'inlar va yashin urishi ko'rinishlarida bo'lishi mumkin<sup>57</sup>. Shri Lanka ham qurg'oqchilik, suv toshqinlari, havo haroratining ko'tarilishi, yog'ingarchiliklar rejimining o'zgarishi va dengiz sathining ko'tarilishi kabi ofatlardan eng ko'p zarar ko'ruvchi davlatlar o'ntaligiga kiradi<sup>58</sup>. Mintaqadagi eng kichik va eng kam aholiga ega bo'lgan davlat Butan

<sup>56</sup> Shanti Shwarup, Munir Ahmad Nayak, Dennis P. Lettenmaier, Vimal Mishra. Atmospheric rivers that make landfall in India are associated with flooding. <https://doi.org/10.1038/s43247-023-00775-9>.

<sup>57</sup> Правительство Непала. Центральное статистическое бюро. Статистика по окружающей среде/изменению климата. [www.efta.int](http://www.efta.int).

<sup>58</sup> Органический крах. Как стремительное «озеленение» экономики поставило Шри Ланку на

asosan o'rmonlar bilan qoplangan va shuning uchun ham havoga zararli chiqindilar chiqarilishi deyarli nolga teng. Mamlakat hukumati milliy boylik hisoblanmish o'rmon hududlarini asrab qolishni milliy ahamiyatga molik masala sifatida Konstitutsiyaga ham kiritgan va 60 foizdan pastga tushirmaslik majburiyatini olgan.

Kambag'allik va tengsizlik masalasi Janubiy Osiyoda doimo dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Yaqin kunlarda ham kambag'allik darajasi bo'yicha mintaqa dunyo bo'yicha Afrikadan keyin ikkinchi o'rinda turar va kambag'allar aholining 15,09 foizini tashkil qilib, 256,24 millionni tashkil etgan edi<sup>59</sup>. So'nggi o'n yillikda ushbu manzara biroz o'zgarib mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti asta-sekin o'sib bordi. Bu borada Hindiston va Bangladeshda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Mintaqa aholisi dunyo bilan yanada ko'proq aloqa qilish imkoniga ega bo'di. Mobil aloqa va internetga ulangan aholi foizi 2014-yildan buyon ikki barobarga oshdi. Masalan, Hindiston 700 million internet foydalanuvchisi bilan Xitoydan keyin ikkinchi onlayn bozorga aylandi. Pandemiya qadar Hindistonda bandlik ko'rsatkichlari tarixiy maksimumni qayd etdi.

Demokratlashish borasidagi yutuqlarga qaramay, mintaqaning aksariyat davlatlarida ichki siyosat qutblashgan va samarali boshqaruv yo'lga qo'yilmagan. Demokratik saylov bilan hokimiyatga kelgan kuchli liderlar ham asosan tor miqyosdagi millatchilik elementlarini o'zida namoyon qilgan dasturlarni ilgari surib kelmoqda. Bu esa usiz ham milliy va etnik jihatdan bo'linib ketgan jamiyatda keskinlikni kuchaytiradi. Masalan, Hindiston va Pokiston orasidagi raqiblik necha yillardan beri millatchi kayfiyatdagi liderlarning hokimiyatni egallab turishiga sabab bo'lmoqda. Hindistonda markaziy hokimiyat kuchlidek ko'rinsa ham, federal darajada birmuncha tarqoqlikni kuzatish mumkin. Pokistonda esa hukumat azaldan harbiylarning mamlakat siyosatiga hal qiluvchi ta'siridan qutula olmay kelmoqda.

Janubiy Osiyo mintaqasining barcha mamlakatlarini o'z ichiga olgan yagona mintaqaviy tashkilot bu 1985 yilda Dakka shahrida davlat yoki hukumat boshliqlari tomonidan imzolangan Nizom asosida tashkil topgan Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik hamjamiyati - SAARC dir. Ushbu hamjamiyatga birlashish g'oyasi boshidan mintaqada tinchlik, xavfsizlik, taraqqiyot va barqarorlikka ko'maklashish maqsadini ko'zlagan edi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mintaqada an'anaviy va noan'anaviy sohalarda qat'iy xavfsizlik muhitini ta'minlamay turib iqtisodiy taraqqiyot va mintaqaviy integratsiyaga erishib bo'lmaydi. Bu borada Janubiy Osiyo davlatlari mintaqaviy xavfsizlikni nazorat ostiga olishlari va yagona kuchga aylanib SAARC a'zo davlatlarining milliy xavfsizligi va suverenitetiga tahdid soluvchi muammolarga qarshi kurashishlari lozim edi. Biroq SAARC tashkil topganidan beri ko'zga ko'rinarli yutuqlarga erishmadi. Xalqaro kuzatuvchilar buni aynan SAARC faoliyatida Hindiston va Pokistonning o'zaro raqobati bilan bog'liq deb hisoblaydi. Shunday qilib, davlatlararo mojarolar va a'zolarining xavfsizlik muammolari mintaqaviy integratsiya yo'lidagi asosiy to'siq bo'ldi. Shuningdek, har bir a'zo davlatning tashkilotdan kutgan umidlari va ayni damda hadiklari mavjud. Masalan, Hindiston periferiyada joylashgan mayda davlatlarning xavfsizlik muammolari o'ziga qarshi qaratilishi va o'z hududi ustidan nazoratni yo'qotib qo'yishidan hadiksirasa, Pokiston va boshqa kichik davlatlar mintaqada Hindistonning gegemoniyasi o'rnatilishidan qo'rqishadi. Xullas, umumiy manfaatlarni

грань катастрофы. <https://novayagazeta.eu/articles/2022/07/20/organicheskie-krakh>.

<sup>59</sup> Tonmoy Islam, David Newhouse, Monika Yanez-Pagans. International Comparisons of Poverty in South Asia. Asian Development review, vol.38, no. 1, pp.142-175. [https://doi.org/10.1162/adev\\_a\\_00161](https://doi.org/10.1162/adev_a_00161).

ko'zlagan holda hamkorlik qilinishiga o'zaro ishonchning yetarli emasligi katta ta'sir o'tkazib karmoqda.

SAARC faoliyatidagi tadbirlar ro'yxatini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, 2014-yildan beri yuqori darajadagi sammitlar o'tkazilmayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin. 18-sammit 2014-yilning 26-27-noyabr kunlari Nepal poytaxti Katmanduda bolib o'tdi va uning yakuniy hujjati bo'lmish Katmandu deklaratsiyasida tashkilotga a'zo davlatlar o'zlarining mintaqaviy integratsiya tamoyillari va maqsadlariga sodiq ekanliklarini yana bir bor tasdiqlab, SAARC ni jonlantirish, Janubiy Osiyo Iqtisodiy ittifoqiga bosqichma bosqich va rejali tarzda Erkin savdo makoni, Bojxona ittifoqi, Umumiy bozor, va Umumiy iqtisodiy va valyuta ittifoqi orqali erishish maqsadida sobit ekanliklarini bayon qilishdi. Keyingi 19-sammit Pokiston raisligida Islomobod shahrida bo'lib o'tishi lozim edi. Biroq 2016-yilning 18-sentyabrda Hindiston armiyasining Kashmirdagi Uri shahri yaqinida joylashgan shtabiga jangarilar hujumidan so'ng Hindiston bunda Pokistonni ayblab sammitni boykot qildi. Undan keyin Bangladesh, Butan va Afg'oniston ham Hindistonni qo'llab, sammitda qatnashishdan bosh tortgani tufayli sammit bekor qilindi. Shundan beri Pokiston va Hindiston o'zaro bir-birini mintaqaviy integratsiya jarayonlarini sekinlashtirishda ayblab keladi. Pandemiya sharoitida bitta oliy darajadagi virtual uchrashuv Hindiston tashabbusi bilan o'tkazildi. Pokiston bosh vaziridan tashqari (Pokiston tomonidan sog'liqni saqlash vaziri ishtirok etdi) barcha a'zo davlatlar rahbarlari ishtirok etgan ushbu virtual uchrashuvda Hindiston bosh vaziri N.Modi murakkab vaziyatda o'zaro yordam jamg'armasi tuzishni taklif qildi va Hindiston tomonidan 10 million dollar ajratilishini ma'lum qildi. Barcha qatnashchilar Kovidga qarshi jamg'armaga hissa qo'shishga rozi bo'ldi. Ushbu yakdillik SAARC faoliyatidagi kamdan kam kuzatiladigan hodisalardan biri bo'lib, favqulodda holatlarda va murakkab sharoitlarda birlashishning samarasini ko'rsatib berdi.

Bugungi kunda SAARC dagi «osilib turgan» muammolardan biri bu Afg'oniston masalasidir. Afg'onistonda Tolibon hukumati o'rnatilgandan beri xalqaro tan olinmaganligi sababli uning tashkilotdagi maqomi noaniqligicha qolmoqda. Chunki Pokistondan tashqari barcha a'zo davlatlar Tolibon vakillarining tashkilot uchrashuvlarida qatnashishiga qarshi. Tashkilotning turli ixtisoslashgan organlarning barchasida Tolibonning ishtirokiga birinchi o'rinda Hindiston yo'l qo'yib bera olmaydi. Shu tarzda hammaning ishtiroki talab etiladigan kengashlarning majlislarini o'tkazish imkonsiz bo'lib qoladi. Shu bilan birga, SAARC bosh kotibi lavozimini Shri Lanka vakilidan so'ng Afg'onistonlik vakil egallashi lozim edi. Ammo tashkilot sekretariati keyingi bosh kotiblikka nomzod sifatida bangladeshlik yuqori martabali diplomat G'ulom Sarvarni tanladi.

SAARC faoliyatidagi muayyan muammolarning deyarli barchasi Hindiston va Pokiston o'rtasidagi o'zaro raqobatga borib taqalar ekan, mintaqada Pokiston ishtirokisiz yangi hamkorlik loyihalari yuzaga kelmoqda. Bular BIMSTEC (Hindiston, Bangladesh, Myanma, Shri Lanka, Tailand, Nepal va Butan ishtirokidagi tuzilma) va tor doiradagi BBIN (Bangladesh, Butan, Hindiston va Nepal) platformalaridir.

Hindiston hukumati terrorizm bo'yicha mintaqaviy konsensusga erishish uchun 2016-yilning noyabrda BIMSTEC ning Goa sammitini o'tkazdi. Ushbu sammitga SAARC a'zosi bo'lgan Afg'oniston va Maldiv ham taklif etildi. Sammitning yakuniy hujjati barcha ishtirokchilar tomonidan terrorizmga qarshi birgalikdagi kurash majburiyatini tan olinishini ko'rsatib berdi. Bu mintaqadagi barcha davlatlarning Hindistonni qo'llab-quvvatlashi va nima uchun SAARC



doirasida bu ilojisiz ekanligini yoritgandek bo'ladi. 2017-yil mart oyida BIMSTEC ga a'zo davlatlarning xavfsizlik maslahatchilari ilk marta xavfsizlik muammolarini, jumladan, transchegaraviy terrorizmni muhokama qilish uchun uchrashdilar. Tuzilmaning 4-sammitining Katmandu deklaratsiyasida ham xavfsizlik va terorizmga qarshi kurashda yaqinroq hamkorlik qilish ta'kidlangan. Bundan tashqari, a'zo davlatlar ichki ishlar vazirlarining muntazam uchrashuvlarini o'tkazishga qaror qilindi. Sammitdan so'ng a'zo davlatlar uchun Hindiston tomonidan harbiy mashg'ulot o'tkazildi. BIMSTEC ning tarkibiga qaraydigan bo'lsak, SAARC qatnashchilaridan Afg'oniston, Pokiston va Maldiv bu ro'yxatda yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Lekin SAARC a'zosi bo'lmagan ikki davlat Tailand va Myanma bu tuzilmaga kiradi, ularning ASEAN ga kirishini hisobga oladigan bo'lsak, bu tuzilmaning ko'lami kengayganligidan darak beradi.

Bundan tashqari, BBIN ham samarali sub-mintaqaviy tuzilma ekanligini namoyon qilib kelmoqda. Masalan, SAARC doirasida Pokiston qarshi bo'lganligi uchun imzolanmagan Transport vositalari haqidagi bitim BBIN da qabul qilindi. Bitimga ko'ra, a'zo davlatlar bir birlarining hududlarida yuk va yo'lovchi tashuvchi transport vositalaridan foydalanish va elektron shaklda kuzatish imkonini beradi.

#### **Xulosa**

Dunyo aholisining 21 foizi istiqomat qiladigan, yer sharining 3 foizini tashkil qiluvchi unumdor yerlardan iborat Janubiy Osiyo mintaqasi yuqori xavfsizlik dinamikasiga ega hudud bo'lib qolmoqda. Mintaqa bir tomondan Eron va Afg'oniston bilan, shimoldan dunyoning ikkinchi iqtisodiy giganti Xitoy bilan chegaradosh. Sharqda ASEAN davlatlaridan mintaqani Myanma ajratib turadi. Mintaqa tez sur'atlar bilan rivojlanib kelayotgan dunyoning beshinchi raqamli iqtisodi - sekulyar, ko'pmillatli, demokratik Hindiston, jahon hamjamiyati tomonidan tan olinmagan Tolibon hukmronlik qiladigan Afg'oniston, o'z ichki muammolarini hal etishga qodir bo'lmagan deb e'tirof etiluvchi Pokiston, rivojlanayotgan Bangladesh kabi davlatlarni va nisbatan kichik bo'lgan Nepal, Shri Lanka, Butan va Maldivni o'z ichiga oladi.

Buzan va Veyver nazariyasiga ko'ra Janubiy Osiyo davlatlarining barchasi o'zaro bir-biriga bog'liq holda yaxlit mintaqaviy xavfsizlik kompleksini tashkil qiladi. Janubiy Osiyo xavfsizlik kompleksi ham ichki transformatsiyani boshdan kechirib, Hindistonning kuchayishi va Pokistonning zaiflashuvi ortidan asta sekin ikki qutblikdan bir qutblikka tomon o'zgarimoqda. Mintaqaning barqaror taraqqiyotiga to'siq bo'lib turgan qator an'anaviy va noan'anaviy xavfsizlik muammolari mavjudki, ularni faqatgina mintaqaviy aloqalarni kuchaytirib, o'zaro hamkorlik orqali bartaraf etish mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, butun dunyoda yuz bergan mintaqaviylashuv jarayonlaridan ushbu davlatlar ham chetda qolmagan va barchasi mintaqaviy integratsiyaning mintaqadagi tinchlik, barqarorlik, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi ahamiyatini tan olgan holda mintaqaviy integratsiya tuzilmasi SAARC ga asos solishgan. SAARC ning maqsadlari, tamoyillari va hujjatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, Janubiy Osiyo ham Yevropa ittifoqi modelini istiqbolli deb hisoblaydi va xuddi u kabi umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq va valyuta ittifoqlarini mo'ljal qiladi. Shuningdek, SAARC boshqa sohalarda ham keng tarmoqli hamkorlikka intiladi. Ammo Hindiston va Pokiston o'rtasidagi o'zaro hal etilmagan muammolar va raqobatchilik ushbu tashkilot faoliyatini sustlashtirib kelmoqda. Bir qarashda mintaqada (buni butun jahon miqyosida ham kuzatish mumkin) bir birini takrorlaydigan tuzilmalar ko'payib

ketgandek ko'rinadi. Ammo Janubiy Osiyodagi boshqa BIMSTEC va BBIN kabi loyihalar torroq doirada amalga oshiriladi, butun mintaqa miqyosidagi masalalar uchun esa SAARC hozircha benazir tuzilmaligicha qolmoqda. Fikrimizcha, vaqt o'tishi bilan har qanday lahzada mintaqadagi davlatlar o'z pozitsiyalarini o'zaro yaqinlashtirishi va bu orqali SAARC faoliyatiga yangi impuls berilishi mumkin.

#### REFERENCES

1. Buzan B, Waever O. Regions and Powers. The Structure of International Security. Cambridge University Press, 2003;
2. Buranov S., Afghanistan as a Bridge connecting Central and South Asia. <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v9i2.3499>, P 320-321;
3. Mohammad Tarequl Islam. Analysis the Main Characteristics and Dynamics of Sub-Regional Security Complex of South Asia. IOSR Journal of Humanities and Social Science, Volume 25, Issue 5, Series 4 (May, 2020), P. 62;
4. Josh Rogin. Team Obama scuttles the term «Af-Pak», [foreignpolicy.com](http://foreignpolicy.com), Jan. 20, 2010. <https://foreignpolicy.com/2010/01/20/team-obama-scuttles-the-term-afpak/>;
5. Dr. Marium Kamal, Dr. Sarfraz Batool. SAARC: Regionalism and regional Security in South Asia. *Psychologie and Education* (2021) 58(2): 11583-11593;
6. Iryna Tykhonenko. South Asian Regional Security System: The Overview of Non-Western Studies. *European Political and Law Discourse*, Volume 2, Issue 4, 2015;
7. Kathmandu Declaration. Eighteenth SAARC Summit, Kathmandu, Nepal. 26-27 November, 2014.
8. Christian Wagner. India as a Regional Security Provider in South Asia. *South Asia Scan*. Issue No.8, June 2020.
9. Iftexhar Ahmed Chowdhury. Regional Security Cooperation in South Asia: The China Factor. *ISAS Insights*. No.210 - 2 July 2013;
10. Alyson J.K. Bailes and Andrew Cottey. Regional Security Cooperation in early 21st century. *SIPRI Yearbook 2006: Armaments, Disarmament and International Security*;
11. Derrick Frazier, Robert Stewart-Ingersoll. Regional Powers and security: A framework for understanding order within regional security complexes. *European Journal of International Relations* 16(4) 731-753, 2010. DOI:10.1177/1354066109359847;
12. Sobia Jamil, Dr. Abdullahi Ayoade Ahmad, Syed Zohaib Abbas Rizvi, Nasa'l Muhammad Gwadabe. An Analysis of Regional Security Dynamics of South Asia in Post 9/11 Period. *International Journal of Scientific and Technology Research*, Volume 9, Issue 01, January 2020;
13. Christian Wagner. Security Cooperation in South Asia. Overview, Reasons, Prospects. *SWP Research Paper* 6, June 2014, Berlin;
14. Aleksandra Kusztal. Theoretical Foundations of Regional Security in International Relations - The Overview. *Journal of Science of the Military Academy of Land Forces*. Volume 49, Number 1 (183) 2017. DOI:10.5604/17318157.1234845;
15. Игнатенко А.В. Правовой статус и историческая роль Ганзейского союза (один из ранних опытов протоконфедерации в Европе//Российский юридический журнал -



- Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2005. - №3 (47). - С. 134;
16. Global Peace Index 2023. Institute for Economic & Peace. Measuring peace in a complex world. <https://www.visionofhumanity.org/>;
  17. Ghazala Yasmin Jalil. Nuclear Arms Race in South Asia: Pakistan's Quest for Security. *Strategic Studies*. Vol.37, No. 1 (Spring 2017), pp. 18-41. <https://www.jstor.org/stable/48535985>;
  18. Shanti Shwarup, Munir Ahmad Nayak, Dennis P. Lettenmaier, Vimal Mishra. Atmospheric rivers that make landfall in India are associated with flooding. <https://doi.org/10.1038/s43247-023-00775-9>;
  19. Правительство Непала. Центральное статистическое бюро. Статистика по окружающей среде/изменению климата. [www.efta.int](http://www.efta.int).;
  20. Органический крах. Как стремительное «озеленение» экономики поставило Шри Ланку на грань катастрофы. <https://novayagazeta.eu/articles/2022/07/20/organicheski-krah>;
  21. Tonmoy Islam, David Newhouse, Monika Yanez-Pagans. International Comparisons of Poverty in South Asia. *Asian Development review*, vol.38, no. 1, pp.142-175. [https://doi.org/10.1162/adev\\_a\\_00161](https://doi.org/10.1162/adev_a_00161).

## ТАЛАБАЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ СИЁСИЙ, ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК АСПЕКТЛАРИ

Венера Ержанова

Қорақалпоқ давлат университети

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8429621>

*Annotatsiya.* Maqolada maktab o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning mazmuni, texnologiyasi, metodikasi va metodikasiga yangicha yondashish, shaxsning yuksak qadriyatini shakllantirishga qaratilgan ta'limning nazariy va amaliy asoslari ko'rsatilgan.

*Kalit so'zlar:* ta'lim, tarbiya, qadriyat, axloq, madaniyat, psixologiya, o'z-o'zini tarbiyalash, estetika, shaxs, o'z-o'zini bilish.

## POLITICAL, SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL ASPECTS OF EDUCATING STUDENTS ASSOCIATED WITH NATIONAL VALUES

*Abstract.* The article discusses a new approach to the content, technology, methods and methodology of educating schoolchildren on the basis of national values, shows the theoretical and practical foundations of education aimed at forming a high value of the individual.

*Key words:* education, upbringing, value, morality, culture, psychology, self-education, aesthetics, personality, self-knowledge.

## ПОЛИТИЧЕСКИЕ, НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ, СВЯЗАННЫЕ С НАЦИОНАЛЬНЫМИ ЦЕННОСТЯМИ

*Аннотация.* В статье рассматривается новый подход к содержанию, технологии, методам и методике воспитания школьников на основе национальных ценностей, показаны теоретические и практические основы образования, направленные на формирование высокой ценности личности.

*Ключевые слова:* образование, воспитание, ценности, мораль, культура, психология, самообразование, эстетика, личность, самопознание.

Мамлакатимизда ёшларни маънан баркамол, жисмонан соғлом, фидойи шахс сифатида тарбиялаш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Замонавий таълимнинг энг муҳим вазифаси – ёшларни тарбиялаш, шахсни, айниқса, ёш авлодни камол топтириш ва такомиллаштиришдир. Бу вазифа давлат сиёсатининг бир қисми бўлиб, бу борада кўп ишлар қилинган: Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни, Кадрлар тайёрлаш миллий дастури [4; 89], Ҳаракатлар стратегиясини бешта йўналишда амалга оширишга оид давлат дастури 2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари [1; 147], Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини кўллаб-қувватлаш борасидаги ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони [2; 4], Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони ва таълимга оид бошқа давлат хужжатлари [3; 18].

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида ёшларни тарбиялашнинг мақсад, вазифалари, асосий қоидалари, йўналишлари ва асосий мазмуни, унинг услубий кўрсатмалари, биринчи

навбатда, миллий, маънавий-ахлоқий ва эстетик тарбиянинг йўллари ва шароитларини такомиллаштириш зарурияти белгилаб берилган [4; 146]. Дастурнинг мақсади, вазифалари, асосий қоидалари ўқувчиларни шахс манфаати йўлида юксак маънавият – ахлоқий, эстетик тарбиялашга қаратилган.

Шу нуқтаи назардан, шахсий ва қадрият йўналишларига, айниқса, миллий ва умуминсоний қадриятларга йўналтирилган маънавий-ахлоқий ва эстетик тарбия услубий аҳамиятга эга ва ижтимоий стратегик истиқболли ҳисобланади. Миллий дастурда замонавий шахснинг маънавий-ахлоқий янгилашниши ва эстетик ривожланишининг асосий параметрларига мувофиқ инсоннинг ахлоқий фазилатларини очиб бериш ва амалга ошириш зарурлиги эълон қилинган. Дастур талабаларнинг таълим олишига оид бир қатор асосий қоидаларни илгари суради:

маданий - умумжаҳон ва миллий (тарихий ва анъанавий); таркибни яхшилаш; янги технологиялар, самарали шакллар, методлар, инновацион усуллардан фойдаланиш; инсонпарварлик, ижтимоий асосда шахсга йўналтирилган таълим [4; 69].

2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга оид Давлат дастурида ёшларни жисмонан соғлом, маънавий ва интеллектуал салоҳиятли этиб тарбиялашнинг мақсад, вазифалари, асосий қоидалари, йўналишлари ва асосий мазмуни, ривожланган, мустақил фикрлайдиган, Ватанга садоқатли, қатъий ҳаётий қарашларга эга бўлган ёшларни ижтимоий жиҳатдан юксалтириш масаллари белгилаб берилган.

Замонавий таълим (барча тузилмаларида таълим жараёни) жамиятимизнинг келажаги бунёдкорлари бўлиши ёш авлод онгини ривожлантириш ва мустақамлашнинг қудратли омили бўлиб, миллий, маънавий-эстетик ва ахлоқий камолотнинг аҳамияти ва зарурлигини, чунки асосий таълимнинг барча бўғинларида, айниқса, олий таълимда маънавият ва ахлоқ ва таълимнинг асосий натижасидир. Замонавий таълимда, ёшларни ахлоқий ва эстетик тарбиялашда тарихий-педагогик анъаналарга жиддий ёндашиш керак, чунки "қадимги тарих ва маданият маънавий-ахлоқий онга юксак инсонпарварлик даражасида катта таъсир кўрсатади, одамлар асрлар давомида ... инсонпарварликнинг нозик новдаларини эҳтиёткорлик билан олиб борди. Ўзбекистонни янгилашнинг олий мақсади ана шу анъаналарни қайта тиклаш, уларни янги мазмун билан тўлдиришдир"[1; 58].

Халқимизнинг тарихий-маданий мероси, маънавий-ахлоқий ва маънавий-эстетик тарбиянинг энг муҳим воситаси бўлган халқимизнинг маънавий олаmidан бошлаб, унинг ахлоқий-эстетик маданияти, авваламбор, инсонни тарбияловчи ажойиб миллий ва умуминсоний фазилатларни ўзида мужассам этган. Бинобарин, миллий қадриятларга асосланган маънавий-ахлоқий ва маънавий-эстетик, ахлоқий-эстетик тарбияда мазмун, тизим, технология, услуб ва методикада туб ўзгаришлар зарур.

Шу муносабат билан давлат таълим сиёсатида инсон омили, инсонга нисбатан қадрият ва инсонпарварлик муносабати алоҳида таъкидланади: "Ўз-ўзини ривожлантиришга, ўз-ўзини такомиллаштиришга интилиш инсоннинг ғурурини, унинг ҳақиқий қадр-қимматини юксалтиради. Бу цивилизациянинг юқори даражаси" [2; 88]. Бу борадаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш ва уни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон ёшлар

иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасидаги ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида "ги фармони қабул қилинди" [3; 91].

Ўзбекистон ёшлар иттифоқи ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда давлат органлари, нодавлат нотажорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари билан самарали ҳамкорликни таъминловчи, "Ёшлар – давлат бунёдкори" шиори остида касбий фаолиятни амалга оширувчи тузилмага айланади.

Мамлакатимизда ёшларнинг кадрият йўналишини (шахсиятини) ривожлантириш технологиясини ишлаб чиқиш анъанавий – педагогик, халқнинг педагогик меросида, айниқса, республикамиз мустақилликка эришгандан сўнг, миллий маданий анъаналарни қайта тиклаш имкони пайдо бўлганидан сўнг фаол қарор топди. Халқнинг маънавий мероси, жумладан, миллий кадриятларга асосланган ахлоқий-эстетик тарбия – ёш авлодни маънавий бойитиш воситаси сифатида намоён бўлади.

Олим-педагоглар ўз тадқиқотларини нафақат миллий кадриятларга асосланган ахлоқий, эстетик, балки ахлоқий-эстетик тарбия муаммоларига ҳам бағишладилар, ҳатто ёшлар шахсининг маънавий-кадриятга йўналганлигини ривожлантиришга ўринишлар ҳам мавжуд.

Шундай қилиб, миллий кадриятларга асосланган тарбия муаммоси ҳам назарий, ҳам амалий йўналишларда фаол ҳал қилинмоқда. Жумладан, ахлоқий тарбия билан муносабатларга ёндашишда фойдаланилаётган миллий-анъанавий маданий материал эстетика билан бир қаторда юксак маънавий салоҳиятга эга бўлиб, ўқувчилардан шахсий-кадриятли муносабатни талаб қилади.

Илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, объектнинг қийматини тушуниш унга нисбатан амалий муносабатнинг ифодасидир. Демак, инсон предметдаги хусусиятларни, унинг ўз ҳаётида, турмуш фаолиятида, ижтимоий муҳитда тимсол сифатидаги вазифаларини ажратиб кўрсатади. Шу муносабат билан З. Азимованинг фикри эътиборга лойиқдир – «Инсон - Ер юзида мавжуд бўлган энг мураккаб ҳодиса бўлиб, бу билим ва ўзини ўзи билишнинг қизиқарли мавзуси эканлигини таъкидлайди. Инсон ноёб ижтимоий-маданий инқилобнинг ажойиб натижасидир, чунки фақат инсон ўзини ўзи англаши, ўзини ўзи билиши ва атрофдаги дунёни ўзгартириши мумкин» [5; 13].

Мижериков идеал шаклнинг кадриятлари гўзаллик тушунчалари, улар ҳам ахлоқий меъёрлар ва тамойиллар эканлигини ёзган. Тўғри, бу баҳоловчи ва тасдиқловчи онг шакллари - меъерий. Инсон онги учун кадрият (кадриятлар) объектив ва ижтимоий воқеликдаги кундалик мос ёзувлар нуктасидир. "Мутлоқ кадриятлар - дунёнинг турли мамлакатлари ва қисмларида яшовчи, баъзан жамиятнинг турли қатламларига мансуб, лекин умуминсоний хусусиятга эга бўлган ва миллий ўзига хосликка эга бўлган одамларни бирлаштирувчи" кадриятлар, ахлоқий, эстетик, мафкуравий, фуқаролик кадриятлари мавжуд. Шахсининг хулқ-атворида, ўзининг ва бошқа одамларнинг фаолиятини баҳолашда диний ва бошқа асослар "Кўпчилик бу кадриятга йўналганликни - энг муҳим шахсий кадриятлар сифатида ҳаракат қиладиган, аниқланган интилишлар, истаклар, инсон эҳтиёжлари" деб ҳисобланади. Асосий кадриятлар тизими, жамият эҳтиёжлари ва шахс фаолияти ўртасида маълум муносабатлар ҳисобланади. Бу ерда маданият муҳим рол ўйнайди, у нафақат инсонни ижтимоий тизимга интеграция қилади, балки унга маълум эҳтиёжлар, қизиқишлар, кадрият йўналишларини сингдиради. Бу ижтимоийлашувни талаб

қилади. Агар шахснинг ижтимоийлашуви содир бўлмаса, у ҳолда одам девиант (меъёрдан оғиш) ҳатти-ҳаракатларнинг ташувчисига айланади.

Илмий адабиётлар таҳлиliga кўра, ёшларда асосан, олий кадриятларни танлаш ва уларни амалга ошириш истагини шакллантириш масаласи кундаланг қўйилади.

Психологлар фикрича, онг воқеликни ақлий акс эттиришнинг энг юқори шакли бўлиб, у фақат инсонга хос бўлган ва у амалга ошириладиган тил билан узвий боғлиқдир. Тил моддий шаклда билимларни, одамларнинг фикрларини етказди, онг ҳодисаларининг тимсоли бўлиб хизмат қилади ... ". "Онг ёрдамида инсон ўз таассуротларини белгилайди, улардан хабардор бўлади. Онг туфайли инсон ўз фаолиятининг кўпроқ ёки камроқ узок мақсадларини белгилайди, унинг хатти-ҳаракатларини тартибга солади, бошқа одамларнинг хатти-ҳаракатларига таъсир қилади. Онг шакллариининг уч тури мавжуд: ижтимоий, гуруҳли, индивидуал". Бу ерда таълим жараёнида инсонпарварлик ёндашуви концепциясининг роли муҳимдир. Гуманистик таълим концепциясининг кучайиши билан, натижада шахснинг уйғун ривожланиши мақсадига эришилади, миллий инсонпарварлик-ахлоқий омил, ўзини ўзи таъминлаш ва ижтимоийлик қабул қилинади, яъни, шахснинг ўзига ва жамиятга йўналишини белгилайдиган шахсий намоён бўлиш соҳалари.

Фалсафий ва педагогик-психологик адабиётларни таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, "кадрият" тушунчасини талқин қилишда турли хил ёндашувлар мавжуд. Фалсафий нуқтаи назардан, кадрият шахс томонидан баҳоланадиган кенг тарқалган субъектив тасвир ёки вакиллик сифатида қабул қилинади; социологик ёндашувда кадрият социолог шахси ҳаётини ташкил этувчи ижтимоий нормалар ва хулқ-атвор билан мустаҳкам алоқада талқин этилади; психология бу тушунчани шахснинг қизиқишлари ва эҳтиёжлари билан боғлиқ ҳолда ифодалайди. Педагогикада "кадрият" тушунчаси шахснинг оламга муносабатини акс эттиради, шахснинг индивидуал ҳаётини тажрибаси, дунё ҳақидаги билимлари асосида вужудга келади, шахсни ҳар томонлама баркамол ривожлантиришга қаратилган.

Илмий адабиётларда "кадрият", "кадриятга йўналганлик", "кадриятли установка", "кадриятлар тизими" тушунчасига доир хилма-хил таърифларни учратиш мумкин.

Агар кадрият дин, мафкура, санъат каби ижтимоий онг шаклидан алоҳида ажратиб қаралса, у ҳолда унинг мустақил маъно-моҳиятига нисбатан шубҳа уйғонади. Чунки инсон ёки жамиятнинг бирор-бир эҳтиёжларининг қондирилиши нафақат моддий, шунингдек, идеаллик билан ҳам алоқадорликни акс эттиради. Эҳтиёжнинг ўзи ҳам ижтимоий ҳаётнинг қатор шарт-шароитлари ва ўзига хосликларини аниқлаб беради. Демак, кадрият инсон ва жамиятнинг ташқи оламга муносабатининг, уларнинг ички эҳтиёжлари ва воқеликка муносабатлари билан уйғунлашуви натижасида юзага келади. Мазкур муносабатнинг барқарор хусусият касб этиши инсон фаолиятининг мақсади ва мотивларини шакллантиришга хизмат қилувчи "кадриятли йўналганлик" атамаси билан ифода этилади.

Шахснинг "кадриятга йўналганлиги" атамаси XX асрнинг 20-йилларида социология фанига У.Томас ва Ф.Знанецкийлар томонидан киритилган бўлиб, уларнинг фикрича, ижтимоий установка – индивиднинг ижтимоий дунёдаги реал ва кундалик фаолиятини аниқлаб берувчи индивидуал англаш жараёнидир. Бошқача сўз билан айтганда, ижтимоий установка индивид, гуруҳ, умуман жамият хулқ-атворини бошқаришни таъминловчи "ядро" вазифасини бажаради. Ижтимоий установканинг пайдо бўлишидан аввал индивид томонидан эҳтиёж ва шарт-шароитларнинг англаниши содир



бўлади. Социумнинг таъсири жамият томонидан маълум ахборотларни олиш асосида эҳтиёжларнинг қондирилишига эришиш билан белгиланади. Шундай қилиб, кадриятга йўналганлик индивиднинг онгида шаклланади, қарор топади ва ўзгариб туради [6; 77].

Т.Парсонснинг “Ижтимоий ҳаракатнинг тузилиши ҳақида” деб номланган асаида кадрият ва кадриятга йўналганлик тушунчалари ўртасидаги алоқадорлик алоҳида ажратиб кўрсатилган. Яъни, социум маданиятида эталонларга интилишнинг намоён бўлиши асосида жамиятнинг функционал эҳтиёжлари юзага чиқади [6; 78].

Кадриятга йўналганлик, шунингдек, ўзида индивиднинг ҳаётий тажрибалари ва орзу-истакларини ҳам акс эттиради. Ана шу сабабли кадриятга йўналганлик ўзига хос психологик тавсифга эга бўлиб, шахслик хусусиятининг барча компонентлари ва яхлит тизимини ўзида акс эттиради. Ўз навбатида шахснинг кадриятга йўналганлиги аксиологик установкага эга бўлиш имконини беради. Гарчи кўпчилик муаллифлар “кадриятли йўналганлик” ва “кадриятли установка” тушунчаларини синоним сифатида қўллашса ҳам, биринчилардан бўлиб М.Рокич улар орасидаги фарқни алоҳида ажратиб кўрсатган. Америкалик олимнинг фикрича, установкаи маълум бир объект (конкрет ёки абстракт, шахсий ёки ижтимоий)га ёки вазиятга нисбатан субъект муносабатида акс этувчи узоқ вақт давомида шаклланган ишонч, эътиқодлар мажмуи деб қараш мумкин. Демак, йўналганлик (ориентация) шахснинг жамиятдаги меъёрлар билан инсон эҳтиёжлари уйғунлашувида акс этса, кадриятли установкада шахснинг амалий фаолиятда мазкур муносабатлар тизимини рўёбга чиқаришга тайёрлиги акс этади [6;79].

Педагогик аксиология соҳасида тадқиқотлар олиб борган олим Б.Ходжаевнинг таъкидлашича, шахснинг ўз ички позициясини англаши ва аниқ кадриятлар билан боғлиқликда амалий фаолиятга тайёрлиги кадриятли установканинг моҳиятини белгилаб беради. Установка шахснинг аниқ фаолиятга тайёргарлик ҳолатини акс эттирувчи когнитив (билим, ахборот) ва аффектив (эмоция, ҳиссиёт) компонентлар мажмуи сифатида намоён бўлади [7; 16].

Олимлар тадқиқотлари таҳлилга кўра, кадрият фаол меҳнатга, ўз-ўзини тарбиялашга ва ўқувчиларнинг шахсиятини ривожлантиришга (албатта, чуқур англаш даражасида) рағбатлантириши муҳимдир. Фаолият жараёнида - когнитив, объектларни (кадриятларни) танлаш, уларни ривожлантириш, амалга ошириш (ижтимоий) фаолиятида қониқарли ёшлар шахсининг эҳтиёжлари объектига айланиши зарур. Талабалар шахсиятининг кадрият йўналишини ривожлантириш - бу миллий ва умуминсоний маънавий, ахлоқий ва маънавий-эстетик, бизнинг ҳолатларимизда эса - ахлоқий ва эстетик (эстетик асосда инсоний ва ахлоқий) кадриятларни интериоризация қилиш ижтимоий ташкил этилган жараёни. Бу баҳолаш фаолияти, ўз-ўзини тарбиялаш ва ўз-ўзини тарбиялашни ва албатта, ўз-ўзини англашни (амалда) талаб қилади.

Ўрганилаётган муаммони оптимал ҳал қилиш учун миллий ва умуминсоний, ахлоқий ва эстетик кадриятларни интериоризация қилишнинг мақсадли жараёни сифатида ахлоқий ва эстетик тарбияни ташкил этиш усулларини таъминлаш керак. Бизнинг тадқиқотимизда биринчи ва иккинчи усуллар қўлланилади, чунки бир усул иккинчисини тўлдиради. Талабаларнинг миллий кадриятларга асосланган ахлоқий-эстетик тарбиясида маълум ахлоқий ва эстетик талабларга жавоб берадиган ички интилишлар шаклланади, улардан ахлоқий (инсоний ва ахлоқий) хулқ-атвор, бошқаларга юқори эстетик даражадаги



муносабат келиб чиқади. Ахлоқий ва эстетик тарбиянинг бундай гуманистик нуқтаи назари ёшлардан ўз ишининг ички шароитларини - миллийликни талаб қилади (албатта, мотивацион ва кадрият муносабатлари даражасида, ажралмас ўзини ўзи бошқариш, ўзини-ўзи англаш - бу ривожланиш имкониятини яратади).

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш жоиз, энг аввало, бу тарбияда шахсининг ривожланиши учун асосий ахлоқий-эстетик фазилатларга (албатта, ёш даврини ҳисобга олган ҳолда) кўрсатма керак. Талабаларнинг миллий кадриятларга асосланган ахлоқий ва эстетик тарбияси мазмунини танлашга, биринчи навбатда, миллий ва умуминсоний кадриятларга асосланган, талабаларнинг фаол, серкирра ва самарали, шахсий хусусиятларини таъминлаган ҳолда маданий ёндашув зарур.

### REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда
2. Мирзиёев Ш.М. Камолот ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи «Жисмоний ва маънавий етук ёшлар эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир» Халқ сўзи. 2017 й. 1-июль, №129(6823)
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги № ПҚ-2909 сонли Фармони 20 апрель 2017 йил №18 (113), Б.18-24.
4. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни, Кадрлар тайёрлаш миллий дастури 29.08.1997 йил 463-I-сон
5. Азимова З. Э. Тарбиявий ишлар тизимини интеграл диагностик асосда такомиллаштириш (Олий таълим мисолида). Дисс.автореферати – Н.2018. Б.-13-16
6. Асаматдинова Ж. Технологии формирования ценностной ориентации учащихся на основе их нравственно-эстетического воспитания. Монография. – Ташкент: «Fan va texnologiya», 2016. – 168 с.
7. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2012. – Б.170.
8. Альджанова, Г. А. (2017). ЭФФЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПСИХОДИАГНОСТИКИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *Путь науки*, (4), 66-67.
9. АЛЬДЖАНОВА, Г. (2017). Рефлексивная компетентность в процессе подготовки будущих педагогов к профессиональной компетентности. In *Психология и педагогика образования будущего* (pp. 25-28).
10. Альджанова, Г. А. (2018). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЗНАКОВО-КОНТЕКСТНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (11), 89-92.
11. Kuanishbaevna E. V. The Role of the Teacher in Teaching Students in Accordance with National Values //European Journal Of Business Startups And Open Society. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 79-80.

12. Tursinbekova K. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN UNDERGRADUATE STUDENTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 329-334.
13. Tursinbekova K. CONCEPT AND STRUCTURE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION TRAINING OF UNDERGRADUATE STUDENTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 335-339.
14. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
15. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.

## SAID AHMADNING IJODIY FAOLIYAT YO'LLARI

Soatova Nilufar Raxmat qizi

Muxtorova Zarnigor

Fayzullayeva Sevara Abduvoxid qizi

Nusratullayeva Shahzoda Quvondiq qizi

Termiz Davlat Universiteti Filologiya va o'zbek tili fakulteti 3-kurs talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8429776>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Said Ahmadning ijodiy faoliyati davomida yozgan asarlari, asarlari haqida o'z e'tiroflari berib o'tilgan. Shuningdek ustozlari va shogirdlari haqida bildirgan ba'zi fikrlari yoritib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* "Tortiq", G'.G'ulom, A.Qahhor, "Cho'l oqshomlari", "Cho'l shamollari", XX arsning 60-yillari.

## WAYS OF CREATIVE ACTIVITY OF SAID AHMED

*Abstract.* In this article, Saeed Ahmed's confessions about his works and works written during his creative career are given. Some of his opinions about his teachers and students are also highlighted.

*Key words:* "Tortiq", G. Ghulam, A. Qahhor, "Desert Evenings", "Desert Winds", 60s of XX century.

## ПУТИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ САИДА АХМЕДА

*Аннотация.* В этой статье приведены признания Саида Ахмеда о своих произведениях и произведениях, написанных за время его творческой карьеры. Также освещены некоторые его мнения о своих учителях и учениках.

*Ключевые слова:* «Тортик», Г. Гулам, А. Каххор, «Вечера пустыни», «Ветры пустыни», 60-е годы XX века.

O'zbek xalq yozuvchisi Said Ahmad o'zining rang –barang hikoyalari, publisistikasi, maqolalari, qissa-yu romanlari, xushchaqchaq komediyalari bilan hozirgi o'zbek adabiyotida munosib o'rin egallaydi. U ayniqsa hajv ustasi sifatida kitobxonlar orasida juda mashhur.

Said Ahmad Husanxo'jayev 1920-yil 10-iyunda Toshkent shahrining Samarqand darvoza mahallasida ziyoli oilasida tug'ilgan. Turli xil adabiy darslar va to'garaklar shoirimizning ijodga bo'lgan havasi ortib, qo'lga qalam ushlagan. Said Ahmad avvalo, hikoyanavis sifatida tanildi. Uning birinchi hikoyalar to'plami „Tortiq“ 1940-yilda nashr etilgan.

U o'z ustida tinimsiz ishlashi hayotni, ustoz yozuvchilar ijodini sinchikovlik bilan o'rganish orqali badiiy asar yaratish sirlarini egallaydi. Said Ahmadning iste'dodli yozuvchi bo'lib shakllanishida G'.G'ulom va A.Qahhorning xizmati katta.

Said Ahmadning o'zi bu haqida: „Aslida meni hajv yo'liga G'afur G'ulom boshlab kirgan. Ma'lumki, G'afur aka o'ttizinchi yillarda hajv janrida barakali ijod qildi. Ixcham, kulgili hikoyalarning juda yaxshi namunalari yaratdi. Men shu hikoyalar ta'sirida adabiyotga kirganman. Keyinchalik bu buyuk yozuvchi bilan yaqindan tanishganim, undan rosmana ijodiy ta'lim olishim hajvga bo'lgan intilishimda juda katta yordam berdi.

Undan keyin Abdulla Qahhor hikoyalarida siqqlik, so'zni isrof qilmaslik, tagdor gap aytish san'ati men uchun bir darslik xizmatini o'tadi!”-deb yozgan edi.

Said Ahmadning ijodi urushdan so'ng, xususan XX asrning 60-yillariga kelib shira bog'ladi va o'z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko'tarildi. Shu davrning mahsuli bo'lgan „Turnalar”, „Onajonlar”, „Ko'klam taronalari”, „Xazina”, „To'lqinlar”, „Hayqiriq”, „Cho'l burguti”, „O'rik domla”, „Lochin”, „Odam va bo'ron”, „Bo'ston”, „To'yboshi” kabi hikoyalari Said Ahmadning so'zga xasis, fikrga saxiy, yumorga boy yozuvchi ekanligidan dalolat beradi.

Said Ahmadning ko'p hikoyalari xususan „Cho'l shamollari”, „Cho'l oqshomlari” turkumiga kirgan hikoyalari shu janrning yetuk namunalari deyish mumkin. Adib bu hikoyalarda jonli, tiniq obrazlar yaratib, voqelikdagi yangiliklarni, oddiy kishilar hayotidagi o'sish, o'zgarishlarni, ularning ong-tushunchasidagi ibratli jihatlarni umumlashtirib ustalik bilan tasvirlab berdi. Said Ahmad o'zining „Cho'l hikoyalari”ni „Cho'llarda boshlangan yangi hayot va yangi odamlar qissasi” deb atashi bejiz emas.

Ijodkorimizning ustozlari, shogirdlariga doir aytgan fikrlaridan bir jumla mening e'tiborimni o'ziga jalb qildi desam mubolag'a bo'lmaydi. „Biz birdaniga yozuvchi bo'lib qolganimiz yo'q. G'afur G'ulomning, Abdulla Qahhorning, Mirtemirning „shapalog'i” bizni yozuvchi qilgan. Hech qachon xotirasi unutilmas bu ustozlar haligacha bizni „ta'qib” qilib keladi”-deb ta'kidlab o'tgan.

Rostan ham bu yozuvchilarimiz ijodiga qayta-qayta murojaat qilishimiz, asar yoki she'rlariga ko'zimiz tushganida ularning yodi barhayot ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Shu jumladan bu ta'rifni Said Ahmadga nisbatan ham berishimiz mumkin. Uning asarlari o'lmas, o'zi esa doimo qalbimizdadir.

Yozuvchilar ko'p ammo kitobxonlar qalbidan joy olganlari sanoqlidir. Bunday ijodkorlar ichiga Said Ahmadni hech ikkilanmay qo'sha olamiz. Shaxsan o'zim ham bu ijodkorimizning yozgan asarlariga juda ko'p bora yuzlanganman.

#### REFERENCES

- 1.Sobir Mirvaliyev „O‘zbek adiblari” kitobi Toshkent „Fan” nashriyoti 1993-yil
- 2.Saydulla Mirzayev „XX asr O‘zbek adabiyoti” Toshkent „Yangi asr avlodi”2005
- 3.Uz.m.wikipedia.org
- 4.O‘zLib kutubxonasi

## MIYA VA NUTQNING VAZIFAVIY ASIMETRIYASI

Umidjon Qo'ziyev

O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri

Xabibullayeva Nafisa Sherali qizi

Filologiya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8430079>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada miyaning chap va o'ng yarimshari funksiyasi hamda ularning faoliyatining shaxs psixikasiga ta'siri berilgan.

*Kalit so'zlar:* tilning leksik tarkibi, ko'rish, tilning tovushli aspekti, matnni tushunish, obyekt-subyekt mexanizmlari, obrazlashtirish tafakkuri, neyrolingvistika.

## ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ АСИММЕТРИЯ МОЗГА И РЕЧИ

*Аннотация.* В данной статье описывается функция левого и правого полушарий головного мозга и влияние их деятельности на психику человека.

*Ключевые слова:* лексическая структура языка, зрение, звуковая сторона языка, понимание текста, объектно-субъектные механизмы, изобразительное мышление, нейролингвистика.

## FUNCTIONAL ASYMMETRY OF THE BRAIN AND SPEECH

*Abstract.* This article describes the function of the left and right hemispheres of the brain and the impact of their activity on the psyche of a person.

*Key words:* lexical structure of the language, vision, sound aspect of the language, understanding of the text, object-subject mechanisms, representational thinking, neurolinguistics.

Zamonaviy ilm-fan shuni aniqladiki, chap yarimshar ko'pincha belgi, ratsional, mantiqiy fikrlashga javob bersa, o'ng yarimshar insonning argentatsiyasi va uning hissiy-ta'siriy fikrlashini boshqarar ekan. Tug'ma holatda qaralganda, har xil odamlarda yarimsharlardan biri boshqasiga nisbatan kuchliroq ishlar ekan. Erkak va ayollarda ham shunga qarab biri kuchliroq ishlaydi. Avval neyrolingvistikada shunday bir fikr bor ediki: chap yarimshar dominant hisoblanadi, ya'ni fikrlovchi nutq shakli o'ng yarimshar uni ostidagi bir qism hisoblanadi.

Lekin keyinchalik ma'lum bo'ldiki: faqat o'ng qo'lda yozadiganlarning ko'pchiligidagina nutq zonasi chap yarimsharda joylashgan bo'lar ekan. Ikkinchisi operatsiya usulida davolanadigan bo'lsa, ikkala yarimsharni ham ikkiga ajratib olinadigan bo'lsa ular bir-biriga munosabatda bo'la olmasa, har ikki qism o'ziga tegishli bo'lmagan funksiyalarni qabul qilib olar ekan (masalan, nutqni tushunish, verbal va noverbal vositalarni tushunish, emmotsional baho berish kabilarni ikkala yarimshar ham o'zi bajaraveradigan holatga kelarkan).

Og'ir kasalliklarni da'volashda, masalan, epilepsiyada elektrot shokidan foydalaniladi. Ketma-ket seriyali tarzda bemorning holi yaxshilanadi. Elektrotlar faqat bitta yarimsharga ulanadi (ya'ni, bitta yarimshargina shunday bosimga uchraydi). Shunday holat kuzatiladiki, bitta odanda 3 xil holat kuzatiladi. Masalan, davolashgacha bo'lgan vaqtda ikkala yarimshar ham ishlaydi, ikkinchisida o'ng yarimsharni, keyin chap yarimsharni ishlashi kuzatiladi.

Tajriba natijalari quyidagilarni yuzaga chiqardi:

1. **Ko'rish.** Birinchi vazifa, bemorga biror predmentning rasmini ko'rsatish, o'sha rasm bilan bog'liq topshiriq berish. Agar o'ng miyaning o'ng yarimsharini o'chirib qo'yadigan (pasaytiradigan) bo'lsak, bemor bu vazifani bajarishdan bo'yin tovlaydilar va shunday deydilar:



“men bu predment nimaligini tushunmayapman”. Ular ko‘pincha rasmni o‘rniga shu predmentni ifodalaydigan so‘z yozadilar. Agar chap yarimsharni o‘chirib qo‘yilsa, ular rasm chizishdan bo‘yin tovlashmaydi, darrov chizib ketishadi, ikkala yarimshar ishlagandan ko‘ra ham yaxshiroq chizishadi, lekin nima chizganliklarini izoh berib tagiga yozib qo‘ya olishmaydi.

2. **Tilning tovushli aspekti.** Chap yarimshar o‘chirilsa, tajriba o‘tkazilayotgan odam o‘zining musiqalarini, fonemalarni farqlash xususiyatini yo‘qotadi. Ular nutq so‘zlanayotgan vaqtda so‘zlarni juda qiyinchilik bilan ajratadilar, lekin intonatsiyani juda yaxshi anglaydilar, nutq tembrini yaxshi farqlay oladilar. Qo‘shiqni eshitishda so‘zlarini yaxshi tushunishmasa ham, lekin musiqani yaxshi qabul qiladilar va ijro etadilar. O‘ng yarimsharni o‘chirib qo‘yilsa, bemorga so‘zlar tushunarli bo‘ladi, lekin intonatsiya, ayol kishimi yoki erkak kishini nutqi ekanligini ajrata olmaydilar. Musiqani o‘zi ajratib bera olmaydi.

3. **Tilning leksik tarkibi.** Chap yarimsharni o‘chirib qo‘yilsa, faol lug‘at tarkibi, ya‘ni bemorning faol lug‘at tarkibi juda tez qisqaradi. U odatda nutqiy qoliplardan, pauzalardan ko‘p foydalanadigan bo‘lib qoladi. Bir xil gapni takrorlash kuchayadi. Bunday bemorlarda fe‘llar, sifatlar, mavhum otlar kamayadi va mavhum tushunchani ifodalovchi tushunchalarni tushunish qiyinlashadi. O‘ng yarimsharni o‘chirgan vaqtda esa mimika yo‘qoladi, ko‘p gapirish va vaysaqilik paydo bo‘lib qoladi.

4. **Matni tushunish.** Ishtirokchilarga biror matni qaytadan aytib berish vazifasi yuklatiladi. Chap yarimshar o‘chirilgan vaqtda ularning matni juda qisqa bo‘ladi, chap yarimshar o‘chirilsa so‘zlari ko‘payib ketgani ma‘lum bo‘ldi. O‘ng yarimshar uchun maqsadni o‘zi muhim bo‘lsa, chap yarimshar uni ko‘proq so‘z bilan ifodalashga harakat qilgan ekan. Olimlarning fikricha, o‘ng yarimshar insonlarni intuitsiyaga, insonning ichki ongi bilan bog‘liq aloqalarni tiklashga javobgar ekan, o‘rta miyyashari esa shu hissiyot va tuyg‘ularni o‘tkazib berish vazifaasini barar ekan.

5. So‘zning **o‘z ma‘nosi** chap yarimshar tomonida qabul qilinadi ekan. Ko‘chma va obrazli ma‘nolar esa o‘ng yarimshar tomonidan hal qilinadi ekan.

6. Chap yarimshar **obyekt-subyekt** mexanizmlari uchun javob beradi. O‘ng yarimshar esa ular bilan so‘z birikmasi tuzish. Tema-rema munosabatini taqsimlab olinadi.

**Asosiy farq.** Chap yarimshar: mavhum, mantiqiy, ruhiy tahlil uchun javob beradi. Chap yarimsharning vazifalari, matndagi gaplarni, gaplardagi so‘zlarni ajratib olish, so‘zlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan munosabatlar, matn va gaplar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, eng mos keladigan tushunchalarni, so‘zlarni tanlash va so‘zning tovushli ifodalanishini nazorat qilishni o‘z bo‘yniga oladi. O‘ng yarimshar matnni on ostiga ta‘siri bilan shug‘ullanadi.

Bu reptiliya miyyasi deb ham ataladi. Uning vazifasi aniq nutqiy vaziyatni global o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Nazariy jihatdan olib qaraganimizda o‘ng yarimsharda grammatika qoliplangan gaplar, to‘liq qoliplangan matnlar, tayyor obrazlardan foydalanishga harakat qiladi. Hayot davomida turli kommunikativ vaziyatlar har bir yarimshardan o‘ziga xos kuchlanishlar talab qiladi.

Turmushda so‘zlashuv vaqtida umumiy vaziyat bo‘ladigan bo‘lsa, ko‘proq o‘ng yarimshar bu bilan shug‘ullanadi. Chap yarimshar kamroq ishlar ekan, chunki hamma narsa tayyor, ikki odam bir-birini tushunib turibdi.

Ko‘rish va obrazlashtirish tafakkuri esa o‘ng yarimshar bilan bo‘liq. Unda o‘z-o‘zidan nutq talab qilinmaydi, qarab turib vaziyatni his qiladi, buni atash shart emas. Chap yarimsharni

yordamisiz o'ng yarimshar hech qanday gapni to'liq shakllantira olmaydi. Ko'rilgan predmet haqida gapni aniq bir shaklga solib bera olmaydi.

#### REFERENCES

1. Gorelov and N Sedov K F Fundamentals of Psycholinguistics M, 1997 Zalevskaya A A. Introduction to Psycholinguistics M, 1997
2. Belyanin V P Introduction to Psychiatric Literary Criticism Munich, 1996 Zhirmunsky V M Theory of Verse L, 1975
3. Zhuravlev A P Symbolic meaning of the language sign // Speech impact M, 1972
4. Zhuravlev A P Phonetic meaning of L, 1974 Leontiev A A Fundamentals of Psycholinguistics M, 1999
5. Allan Piz Tana tili,"G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi", T.,2021.
6. Lyubimova N A, Pinezhaninova N P, Somova E G Sound metaphor in poetic text
7. St. Petersburg, 1996
8. Rosch E Principles of Categorization // Cognition and Categorization / Rosch E&B in Lloyd (Eds) Hillsdale, 1978 P 27-48
9. Labunskaya V.A. Og'zaki bo'lmagan xattiharakatlar. - Rostov-na-Donu, 1986 yil.
10. Lavrinenko V.N. – Ishbilarmonlik muloqotining psixologiyasi va etikasi:
11. universitet talabalari uchun darslik / 3-nashr. - M.: UNITY-DANA, 2001 yil.
12. Ladyzhenskaya. T.A. - Nutq sirlari. M.:Ta'lim, 1992 yil.

## ЖЕНСКАЯ ПРОЗА НА РУБЕЖЕ XX – XXI ВЕКОВ.

Муродова Дилдора Арабовна

Преподаватель русского языка и литературы  
Кафедры «Истории и филологических дисциплин»  
Азиатский Международный Университет  
Бухара, Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8430171>

*Аннотация.* Статья посвящается «женской прозе» в русской литературе. Многие критики отмечают, что «женская проза» почти всегда выступает в открытии новой классической литературы так же, как и интертекстуальность «женской прозы» выделяется исследованиями, которые ведут многие ученые.

*Ключевые слова:* первопроходцы, русская литература, «женская проза», художественная проза.

## WOMEN'S PROSE AT THE TURN OF THE 20TH – 21ST CENTURIES.

*Abstract.* The article is dedicated to “women's prose” in Russian literature. Many critics note that “women's prose” almost always appears in the discovery of new classical literature. Also, the intertextuality of “women's prose” is highlighted by the research conducted by many scientists.

*Key words:* pioneers, Russian literature, “women's prose”, fiction.

Если говорить о «женской прозе», то она сочетает в себе несколько факторов: автором является женщина, центральной героиней – также женщина, проблематика тоже связана с женской судьбой.

Взгляд на мир представлен с позиции женщины, и с учетом ее психологии. Как и в остальной литературе, в женской прозе происходят те же процессы, но эти процессы, направлены на то, чтобы найти новые отношения в искусстве и нестандартные приемы их фиксации. И проявляются они более ярко и оригинально. Можно согласиться с мнением О. Славниковой, что женщины-писатели практически всегда выступали первопроходцами в открытии нового эстетического содержания.

Особенность «женской прозы» в том, что, находясь в русле классической традиции, современная «женская проза» предпринимает успешные попытки расширить границы традиционной поэтики. [2, с. 132]. Одна из них – повышенная публицистичность стиля.

Ученые отмечают, что эссеизм становится главным признаком рассказов, повестей и романов Маши Трауб, Зулфии Куролбой кизи, Т.Толстой, Л.Улицкой, М.Вишневецкой. Эссеистичность входит в традиционные жанры, образуя особые образования – авторские жанры. По сути, в «женской прозе» происходит изменение художественного и публицистического.

Например, Т.Толстая включает в сборники рассказов также эссе и очерки, считая их художественной прозой, на самом деле – это все авторская проза. По мнению М. Черняк, русская новейшая женская проза в целом сродни эссе, путевым наброскам, очеркам, дневникам.)». [1, с. 136].

Другая характерная черта русской «женской прозы» - интертекстуальность, то есть обилие в текстах культурных отсылок, аллюзий.

Критики выделяют следующие особенности женской литературы:

1. *Тип авторского сознания* женщины-писательницы ризоматичный. Наблюдается обилие конкретики, эмоциональности, апелляции к чувственному восприятию текста.

Основная цель сравнительной фонологии - это выявление общих черт и исторических связей между языками. Это делается путем сравнения звуковых систем разных языков и выявления регулярных звуковых изменений, которые произошли в процессе языковой эволюции.

Методы сравнительной фонологии включают фонологический анализ звуковых систем, создание фонологических реконструкций и исследование регулярных звуковых изменений с использованием сравнительного метода.

**Фонологические системы и типы сравнений**

1. Инвентарь звуков:

Сравнительная фонология изучает инвентари звуков в разных языках. Это включает в себя анализ фонем и аллофонов, их произношение, местоположение и распределение.

2. Сравнение групп языков:

Лингвисты могут сравнивать не только отдельные языки, но и группы языков, такие как индоевропейские или афро-азиатские языки. Это помогает выявить общие черты и реконструировать прародительские языки.

### **Фонологические законы и звуковые изменения**

**Звуковые законы:**

Важной частью сравнительной фонологии являются фонологические законы, которые описывают регулярные звуковые изменения между языками. Например, закон Грассмана описывает сдвиги в звуковой системе в сочетаниях согласных в некоторых индоевропейских языках.

**Фонологические реконструкции:**

Лингвисты используют фонологические реконструкции для восстановления звуковой системы предполагаемых прародительских языков. Это позволяет понять, какие звуковые изменения произошли в течение времени.

### **Примеры сравнительной фонологии**

Индоевропейские языки:

Исследования сравнительной фонологии индоевропейских языков привели к выявлению общих черт и фонологических изменений, которые произошли в ходе их развития. Например, изменения в системе согласных и гласных были выявлены с помощью фонологических реконструкций.

Афро-азиатские языки:

Сравнительная фонология афро-азиатских языков, таких как арабский и семитский, также помогла выявить исторические связи и звуковые изменения в этой языковой семье.

Сравнительная фонология является важным инструментом для изучения звуковых систем языков и их эволюции. Она позволяет лингвистам понять исторические связи между языками, выявить общие черты в звуковых системах и восстановить прародительские языки. Это направление лингвистики оказывает существенное влияние на понимание языкового развития и распространения языковых семей в мире.

Роль аллофонов в фонологии несомненно важна. Они позволяют исследователям понимать, как звуковая система языка функционирует в реальной речи, какие правила произношения применяют носители языка, и какие особенности произношения характерны для разных диалектов. Понимание аллофонов помогает не только в академических исследованиях, но и в обучении языку, а также в создании эффективных методик изучения произношения. Изучение аллофонов позволяет нам лучше понимать разнообразие и богатство языкового мира.

### **REFERENCES**

1. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание. – Т. 2004. URL: [http://library.uzdjtso.uz/files/pdf/Общее % 20 языкознание.pdf](http://library.uzdjtso.uz/files/pdf/Общее%20языкознание.pdf)
2. Хайруллаев, Х. (2019). Об особенностях изучения объекта речевой лингвистики. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71), 17–20. [https://inlibrary.uz/index.php/foreign\\_philology/article/view/921](https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/921).
3. Зиндер, Л. Р. 1979. Общая фонетика. 2-е изд. М.: Высшая школа. 312 с.
4. Лабов, У. 1975. О механизме языковых изменений // Новое в лингвистике. Вып. VII. М. С. 199-228.
5. Маслов, Ю. С. 1975. Введение в языкознание. М.: Высшая школа. 328 с.



## RANGTASVIRDA ODAM BOSHI PORTRETINI TASVIRLASH MAVZUSINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

**Zarifova Dilfuza Omon qizi**

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Dastgoh va kitob grafikasi mutaxassisligi 1-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8432354>

*Annotatsiya.* Maqolada rangtasvirda inson boshi portretini tasvirlash mavzusini o'qitish texnologiyasi muhokama qilinadi. Oliy o'quv yurtlarida rangtasvir darslarida tashkil etilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya, metod, metodika, an'ana, ta'lim.

## TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC OF PORTRAIT OF THE HUMAN HEAD IN PAINTING

**Abstract.** The article discusses the technology of teaching the subject of depicting a portrait of a human head in a painting. Information about modern pedagogical technologies organized in painting classes in higher educational institutions is given.

**Key words:** Pedagogical technology, method, methodology, tradition, education.

## ТЕХНОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ ПОРТРЕТ ГОЛОВЫ ЧЕЛОВЕКА В ЖИВОПИСИ

**Аннотация.** В статье рассматривается технология преподавания темы изображения портрета головы человека в живописи. Представлена информация о современных педагогических технологиях, организуемых на уроках живописи в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** Педагогическая технология, метод, методика, традиция, образование.

Hozirgi zamon sharoitida, ta'lim tizimining barcha bosqichlaridan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi pedagogik texnologiyalarni muhim jihati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi, loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Bugungi kunda Rangtasvir yo'nalishidagi malakali bo'lajak mutaxassis tayyorlash ishlarini olib borishda quyidagi talablarga javob berishi lozim deb xisoblaymiz:

- mutaxassislik bo'yicha davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratish;
- ta'lim mazmunida ko'zlangan ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi;
- mutaxassis tayyorlash jarayonining barcha tarkibiy qismlari (amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti) o'zaro bog'liq holda uzviy tashkillashtirilishi;
- kasbiy ta'lim berish mazmunining fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti darajasi talablariga javob berishi.

Bu talablarni bajarishda mutaxassislik ta'lim yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda hamda ularning kasbiy bilimlarini shakllantirishda mutaxassislik fanlar alohida o'rin tutadi.

Mutaxassislik fanlar tarkibiga kiruvchi “Rangtasvir” fani Tasviriy san’at yo‘nalishi talabalari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki ushbu mavzu doirasida ishlab chiqilgan o‘qitish metodikasining asosiy vazifasi-bo‘lajak malakali mutaxassislarni muayyan mutaxassislik sohasida amaliy faoliyat ko‘rsatishga tayyorlashdan iborat.

Respublikada amalga oshirilayotgan ta’limiy islohotlarning bosh maqsadi – barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashdan iborat etib belgilangan bir sharoitda o‘quvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda o‘quvchilarga rangtasvir asoslarini o‘rgatish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Zero, komil inson qiyofasida nafaqat shaxsiy sifatlar, shu bilan birga kasbiy sifatlar ham aks etishi zarur. Haqiqatdan ham, ta’sviriy san’at asarlarini yaratishda, ya’ni asar g‘oya va kompozitsiyasini yaratishda chizmatasvir va rangtasvirni uyg‘un holda tashkil etish ham ham falsafiy, xam psixologik, ham kasbiy xususiyatiga ega bo‘lib, u shu asarning to‘laqonligini va badiiy echimini belgilab beradi.

Mazmunan insondagi fikrlash jarayoni biron bir masalaga javob berish, aniq bir savolni yechish, u yoki bu harakat usulini qo‘llash zarurati paydo bo‘lganda boshlanadi. Bularning barchasi rassom tomonidan san’at asarlarida xaqiqatning tasvirlanishi va anglashiga nisbatan rassomning alohida faoliyat yo‘nalishi bilan ifodalanadi.

Tasviriy faoliyat jarayoni bir qator aniq masalalarning ketma-ket yechimiga ega bo‘lgan umumiy jihatlardan iborat. Har bir laxzada rassom xayolan javob topishi qiyin bo‘lgan murakkab holatlar ham mavjud bo‘lib, mo‘yqalam va akvarel yordamida ishlayotgan rassom ishni naturadan bajarayotgan bo‘lsa, natura xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zi qo‘ygan savollarga javob topishi kerak bo‘ladi. Faqat shu asosda rassom xaqiqatni faol tushunib yetishi, tasviriy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin.

Qandaydir sabablar tufayli rassom oldida turgan aniq masalalar vazifalar olib tashlansa u holda, rassom chizish jarayonida ya’ni bo‘yoq bilan ishlash, xaykal yasashda aniq bir maqsadsiz loqaydlik bilan ishlay boshlaydi, ong fikrlashdan to‘xtaydi u yangi bilimni olishga ehtiyoj sezmaydi, natijada bu ishning yakuni yaxshi samara bermaydi, rasm, rangtasvir ishi, xaykaltaroshlik ishining sifati yaxshi bo‘lmaydi. Bunday hollarda rassomlar o‘zlari bir joyda turganliklarini tan olishadi.

Rassomning tasviriy faoliyatini yanada kuchaytirish borasida R.R. Chitsyakov shunday deydi - “rasm chizish demak, bu fikrlashdir”. U bu xulosalari bilan masalani o‘ylash fikrlash faoliyatini faollashtirish bilan bog‘laydi. Chitsyakovning aytgan so‘zlari shubxasiz (ko‘z bilan tekislikdagi naturani xech qanday muloxazasiz chizish bu faqat qo‘lni mashq qildirishdan boshqa emas) bu fikr rassomlarning ayrimlaridagi chizayotganida kamroq o‘ylash, kamroq fikrlash kerak, ko‘rayotgan, sezayotgan narsanigina yasash kerak, qanday xis qilsang shunday chiz degan fikrga qarshi yo‘naltirilgan fikrlardir.

Demak, har bir yaratilgan asarning yaratilish jarayoni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yangi bir olamni kashf etish bilan birga uni fikrlashga o‘rgatsagina u mustaqil asarlar yarata oladi va tasviriy san’at olamining yangi qirralarin kashf eta oladi. Bu vositalardan bo‘lajak o‘qituvchi shunday foydalanishi kerakki, bunda u biror asarning badiiy jihatdan yechimini to‘g‘ri hal qilishi uchun uning mezonlarini, ya’ni kompozitsiya xususiyatlarini va vositalarini, asarning g‘oyaviy mazmunini yaxshi tushunib yetgan bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda ishlab chiqilgan o‘qitish metodikasi Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun qiziqarli manbaa bo‘lib qoladi deb ishonamiz.

## REFERENCES

1. X. Ibragimov. “Pedagogika nazariyasi”. Toshkent : Fan va texnologiya nashriyoti. 2008 y.
2. A. I. Avazboev. Y. U. Ismadiyarov. “Kasbiy pedagogika” Toshkent: Cho‘lpon nomidagi ijodiy matbaa uyi. 2014 y.
3. Abdirasilov S.F., Boymetov B.B., Tolipov N.X. Tasviriy san’at.–T.: 2010 35 b
4. Botir Boltabaevich Baymetov, Laylo Mirsoatova “Oliy pedagogik ta’limda inson qomatini tasvirlashning nazariyasi va metodikasi” maqolasi "Science and Education" Scientific Journal November 2020 G‘ Volume 1 Issue 8.

### **Internet saytlari.**

5. <http://kutubxona.adu.uz>
6. [www.sanat.orexca.com/ru](http://www.sanat.orexca.com/ru)
7. <https://fayllar.org/1-b-boymetov.html>
8. <https://uz.denemetr.com>
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## СЕМЕЙНЫЕ ЦЕННОСТИ И ИХ РОЛЬ В ЖИЗНИ И ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Л.Н. ТОЛСТОГО

Рушана Набиева Равшановна

Осиё Халқаро университети, Бухоро.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8432419>

**Аннотация.** Данная статья исследует роль семьи в литературных произведениях Льва Толстого, с основным фокусом на его эпическом романе "Война и мир". Автор анализирует различные аспекты семейной тематики, такие как взаимоотношения между родителями и детьми, роль супругов и влияние семейной обстановки на развитие личности. Методы исследования включают анализ текста, выявление повторяющихся мотивов и символов, а также критические исторические исследования. Результаты показывают, что семья играет ключевую роль в произведениях Толстого, отражая его философию и ценности. Статья расширяет наше понимание о том, как семейные отношения формируют характеры героев и влияют на их судьбы, а также о значимости семьи в обществе и жизни человека.

**Ключевые слова:** Лев Толстой, семья, Война и мир, родители и дети, супруги, личностное развитие, литературный анализ, символы, мотивы, философия семьи, общественные изменения.

## FAMILY VALUES AND THEIR ROLE IN THE LIFE AND WORKS OF L.N. TOLSTOY

**Abstract.** This article explores the role of the family in the literary works of LeV Tolstoy, with the main focus on his epic novel "War and Peace". The author analyzes various aspects of family topics, such as the relationship between parents and children, the role of spouses and the influence of the family environment on personal development. Research methods include text analysis, identification of recurring motifs and symbols, as well as critical historical research. The results show that the family plays a key role in Tolstoy's works, reflecting his philosophy and values. The article expands our understanding of how family relationships shape the characters of heroes and influence their destinies, as well as the importance of family in society and human life.

**Keywords:** Leo Tolstoy, family, War and peace, parents and children, spouses, personal development, literary analysis, symbols, motives, family philosophy, social changes.

**Введение.** Роман "Война и мир" Льва Толстого является одним из величайших литературных произведений, которое охватывает широкий спектр событий и тематик, начиная от политических перипетий до глубинных рассуждений о человеческой природе. В этой эпической саге, Толстой не только описывает события во время войны 1812 года, но и раскрывает множество тем, включая одну из наиболее значимых - роль семьи.

Семья играет важную роль в жизни человека, и Лев Толстой, будучи проницательным писателем и мыслителем, уделял ей особое внимание в своих произведениях. В "Войне и мире" мы видим, как семьи героев, такие как Ростовы, Болконские и Курагины, становятся фокусом внимания и инструментом для раскрытия глубинных эмоций, моральных дилемм и исторических событий.

В данной статье мы рассмотрим роль семьи в произведении "Война и мир", исследуем, как Толстой через призму семейных отношений раскрывает "мысль семейную". Мы проанализируем три основных семьи в романе и их взаимодействие с окружающим миром, а также рассмотрим, как семьи героев сталкиваются с испытаниями светской жизни, любовью и войной.

Понимание роли семьи в "Войне и мире" поможет нам глубже проникнуть в мир произведения и понять его эмоциональную и философскую сущность. Мы обнаружим, что для Толстого семья является не только средством самореализации, но и ключом к счастью, нравственности и развитию человека.

Таким образом, роль семьи в произведении "Война и мир" Толстого является неотъемлемой частью его литературного наследия, позволяющей нам глубже понять и оценить сложность и многогранность человеческой жизни.

**Цель.** Исследовать роль семейных ценностей в жизни и творчестве Л.Н. Толстого, анализировать их влияние на формирование персонажей, развитие сюжетов и отражение общественных процессов, с целью более глубокого понимания философии и ценностей, которые Толстой вкладывал в свои произведения.

**Материалы и методы.** Мы провели исследование материалов и методов, связанных с ролью семьи в произведении "Война и мир" Льва Толстого. В литературных трудах Толстого, особенно в "Детстве" и "Анне Карениной", семейная тематика занимает важное место и является одной из ключевых тем автора.

Для нашего исследования мы обратились к оригинальным произведениям Льва Толстого, включая "Войну и мир", "Анну Каренину" и "Детство". Мы изучили эти произведения, анализируя описания семейных отношений, взаимодействия героев внутри семейного круга, а также влияние семейной обстановки на их характеры и развитие.

Для анализа использовались методы литературного исследования, включающие анализ текста, выявление повторяющихся мотивов и символов, анализ характеров героев и их взаимодействия. Мы также обратили внимание на критические исследования и исторический контекст, связанный с произведениями Толстого, чтобы лучше понять его намерения и цели, касающиеся семейной тематики.

В процессе исследования мы выявили, что Толстой интересовался различными аспектами семейной жизни, включая взаимоотношения между родителями и детьми, роль супругов, влияние семейной обстановки на развитие личности и нравственность. Мы также обратили внимание на разнообразные типы семейных отношений, которые Толстой изображал в своих произведениях, и исследовали их значение для развития сюжета и характеров героев.

В итоге, наше исследование материалов и методов подтверждает, что семейная тематика является важным аспектом творчества Льва Толстого, особенно в романе "Война и мир". Это позволяет нам лучше понять его философию семьи и роль, которую он придавал семейным отношениям в жизни человека и общества.

**Результаты и их обсуждение.** Семья является неотъемлемой частью жизни индивидуальных личностей и общества в целом, и это признается многими людьми, включая Л. Н. Толстого. Семейная тема присутствует в любом литературном произведении,

так или иначе. Как гласит народная мудрость: "Друзей мы выбираем, родственники же нам достаются".

Если задуматься, что представляет собой семья? Семья — это группа людей, наиболее близких и родных тебе, которые всегда готовы поддержать и помочь в любой ситуации. По определению, семья является социальным институтом и основной единицей общества, обладающим такими характеристиками, как добровольность

Согласно определению, семья представляет собой социальный институт и базовую ячейку общества, характеризующуюся различными признаками, включая добровольность вступления в брак и общность быта у членов семьи. Однако, необходимо отметить, что хотя семья является "ячейкой общества", это не является ее главной характеристикой. Когда мы задаем вопрос о семье любому человеку, обычно мы не первым делом думаем о обществе, а сразу вспоминаем родителей, супруга(у), детей и так далее.

Лев Толстой в своем романе "Анна Каренина" начинает с известных слов: "Все счастливые семьи похожи друг на друга, каждая несчастливая семья несчастлива по-своему". Это высказывание подчеркивает, что существуют общие черты счастливых семей, в то время как каждая несчастливая семья несчастлива по своим собственным причинам.

Также следует обратить внимание на то, что в современном мире для многих людей семья перестала быть высоко ценной, и большие дружные семьи стали редкостью.

**Целью** настоящего исследования было изучение представления о семье в произведениях Льва Николаевича Толстого. В качестве объектов исследования выбраны два произведения: эпический роман "Война и мир" и роман "Анна Каренина".

Роман "Война и мир" Льва Толстого является огромной сагой, которая охватывает различные события и масштабы, начиная от частной жизни нескольких семей до истории и движения народов. Это произведение отличается масштабом замысла, точностью психологических наблюдений и универсальностью жанра, и остается в культурной памяти как главный русский роман.

Лев Толстой работал над романом почти шесть лет, и с самого начала его привлекали не только исторические события, но и семейная жизнь. В "Войне и мире" тема семьи ярко выражена. Толстой рассматривает войну через призму семейной мысли, что делает его произведение особенным.

В романе изображено множество семей, но особую роль играют три из них: Ростовы, Болконские и Курагины. Члены этих семей подвергаются трем основным испытаниям, таким как светская жизнь, любовь и война. Семьи показаны не изолированно от окружающего мира, а в тесном взаимодействии с ним и друг с другом. Таким образом, Толстой раскрывает "семейную мысль" в своем произведении.

Произведения Льва Толстого, включая "Войну и мир", дают нам глубокое понимание семейных отношений, их влияния на жизнь и развитие отдельных персонажей, а также на общество в целом. Семья является важной составляющей жизни и общества, и Толстой уделял ей значительное внимание в своих произведениях.

Для Льва Толстого семья была средством самореализации и одним из критериев, по которым можно судить человека. Толстой считал, что важной задачей человека является передача своего жизненного опыта и ценностей своим детям, а также их нравственное



воспитание. Он придавал большое значение семье как институту, способному воспитать полноценного человека.

В произведениях Толстого, включая "Войну и мир", мы видим, как герои стремятся найти счастье и самореализацию внутри своих семей. Он показывает, что истинное счастье находится в том, чтобы быть счастливым и довольным дома, в кругу своей семьи. Толстой утверждал, что семья является одним из самых важных достижений человечества, и именно в ней можно воспитать и развить полноценного человека.

Толстой придавал большое значение семейным ценностям, взаимопониманию и любви внутри семьи. Он видел в семье источник нравственности, счастья и гармонии. В своих произведениях он подчеркивал важность заботы о семейных отношениях и ответственность перед своими близкими.

Таким образом, согласно мнению Льва Толстого, семья является не только средством самореализации, но и ключевым фактором для достижения счастья и нравственного развития человека.

**Заключение.** Исследование роли семьи в произведении "Война и мир" Льва Толстого позволило нам глубже понять и оценить значимость этой темы в его литературном наследии. Мы обнаружили, что для Толстого семья не только являлась объектом его литературного изучения, но и отражала его собственные личные и философские убеждения.

В произведениях Толстого, особенно в "Детстве", "Анне Карениной" и "Войне и мире", семья изображается как место, где происходят важные события и эмоциональные переживания героев. Автор исследует различные типы семейных отношений, от родительских взаимодействий до любовных уз и семейных конфликтов. Он показывает, как семьи влияют на формирование личности и как они сталкиваются с испытаниями и вызовами, включая войну и социальные изменения.

Семья в "Войне и мире" выступает не только в качестве важного элемента сюжета, но и как средство для раскрытия сложных эмоций, моральных дилемм и исторических событий. Мы видим, как семейные связи и взаимодействия героев влияют на их поступки, принимаемые решения и их судьбы в целом.

Исследование Толстого семейной тематики позволяет нам увидеть, что для него семья имела высокую ценность и являлась фундаментом для счастья, нравственности и развития человека. Он проникновенно исследует сложности семейных отношений, их влияние на индивидуальное и коллективное счастье, а также на общественные процессы.

В заключение, исследование роли семьи в произведении "Война и мир" Льва Толстого расширило наше понимание его литературного наследия и философии. Семья является неотъемлемой частью его произведений, позволяя нам взглянуть на человеческую природу, моральные дилеммы и социальные изменения через призму интимных семейных отношений. Толстой великолепно передает сложность и противоречивость семейной жизни, показывая, что семья является не только источником радости и поддержки, но и местом, где происходят трудности и испытания, формирующие нашу судьбу и характеры.

## REFERENCES

1. Лев Николаевич Толстой на сайте Русская литература <http://www.rulit.me/author/tolstoj-lev>
2. Лев Николаевич Толстой. "Война и мир". Включено в полное собрание сочинений в 90 томах. Тома 9-12. Москва: Гос. изд-во худож. лит., 1937-1940.
3. Лев Николаевич Толстой. "Крейцера соната". Включено в сборник сочинений в 8 томах. Том 7. Москва: Лексика, 1996.
4. Лев Николаевич Толстой. "Мысли об отношениях между полами". Включено в сборник "Мужские ответы на женский вопрос в России (вторая половина XIX – первая треть XX вв.). Антология. Составитель и общ. ред. В. Успенская. Тверь, Феминист-пресс, 2005. С. 120-1.
5. Лев Николаевич Толстой. "Полное собрание сочинений" в 90 томах. Том 41. "Круг чтения: избранные, собранные и расположенные на каждый день Львом Толстым, мысли многих писателей об истине, жизни и поведении 1904-1908". Москва: Гос. изд-во худож. лит., 1957.
6. Лев Николаевич Толстой. "Полное собрание сочинений" в 90 томах. Том 25. "XII. Произведения 1880-х годов". Под общ. ред. В. Г. Черткова. Москва: Гос. изд-во худож. лит., 1937.
7. Лев Толстой в энциклопедии "Кругосвет" [http://www.krugosvet.ru/enc/kultura\\_i\\_obrazovanie/literatura/TOLSTOJ\\_LEV\\_NIKOLAEVIC.html](http://www.krugosvet.ru/enc/kultura_i_obrazovanie/literatura/TOLSTOJ_LEV_NIKOLAEVIC.html)
8. Сайт "Толстой в музеях" - <http://www.tolstoymuseum.ru>
9. Статья о Льве Толстом в журнале "Новый мир" - [https://magazines.gorky.media/novyi\\_mir/2021/1/lev-tolstoj-v-quot-novom-mire-quot](https://magazines.gorky.media/novyi_mir/2021/1/lev-tolstoj-v-quot-novom-mire-quot)
10. Страница Льва Толстого на сайте LibriVox - <https://librivox.org/author/749>
11. Страница Льва Толстого на сайте Проект Гутенберг - <http://www.gutenberg.org/ebooks/author/328>
12. Толстой в электронной библиотеке Lib.ru - <http://www.lib.ru/TOLSTOJ>

## SUG'URTA KOMPANIYALARINING RISKLARNI BOSHQARISH FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Malikov Umid

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8433484>

**Annotatsiya.** O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga bozor mexanizmlarini izchillik bilan joriy etish, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** sug'urta; sug'urta badali; sug'urta mukofoti; sug'urta summasi; sug'urta tavakkalchiligi; sug'urta tarifi; sug'urta to'lovi (sug'urta to'lovi); sug'urta turi; sug'urta faoliyati; sug'urta qiymati; franshiza; qayta sug'urta; qayta sug'urtalovchi; qayta sug'urta shartnomasi.

### DIRECTIONS FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF RISK MANAGEMENT OF INSURANCE COMPANIES

**Abstract.** Diversification of the structure of the economy in Uzbekistan and its competitiveness, consistent introduction of market mechanisms to all sectors of the economy, reduction of poverty and increase the well-being of the population, rapid development of the digital economy, transformation of state companies, ensuring sustainable economic growth by reducing the participation of the state in the economy constitute the priorities of economic reforms currently being carried out.

**Keywords:** insurance; insurance contribution; insurance premium; insurance sum; insurance risk; insurance tariff; insurance compensation (insurance payment); type of insurance; insurance activity; insurance value; franchise; reinsurance; reinsurer; reinsurance contract.

### НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РИСК- МЕНЕДЖМЕНТА СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ

**Аннотация.** Обеспечение устойчивого экономического роста в Узбекистане путем диверсификации структуры экономики и повышения ее конкурентоспособности, последовательного внедрения рыночных механизмов во все отрасли экономики, сокращения бедности и повышения благосостояния населения, ускоренного развития цифровой экономики, трансформации государственных компаний, снижения участия государства в экономике составляют приоритетные направления проводимых в настоящее время экономических реформ.

**Ключевые слова:** страхование; страховой взнос; страховая премия; страховая сумма; страховой риск; страховой тариф; страховая компенсация (страховая выплата); вид страхования; страховая деятельность; страховая стоимость; франшиза; перестрахование; перестраховщик; договор перестрахования.

**Kirish.** Jahonda global iqlimning o'zgarishi, pandemiya, texnologik innovatsiyalarning rivojlanishi hamda kiber xavf-xatarlarning tobora avj olishi jahon sug'urta hamjamiyati va ilmiy, ekspert doiralari oldiga hal etilishi dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni qo'ymoqda.

Sugʻurta nazorati xalqaro assotsiatsiyasi (International Association Insurance Supervysers) 2020-2024 yillarga muljallangan Strategik rejasida aynan, ushbu vazifalarning uz aksini topishi halqaro miqyosda sugʻurta faoliyatini zamonaviy standartlar va talablarga muvofiq takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi [1]. Shuningdek, “2020 yilda tabiiy ofatlar va texnogen halokatlar roʻy berishi oqibatida jahon iqtisodiyotiga 187 mlrd.AQSH dollari miqdorida zarar yetkazilgan bulib, uning 83 mlrd.AQSH dollari yoki 44,4 foizi sugʻurtalovchilar tomonidan qoplangan” [2]. Ushbu holat sugʻurta faoliyatining jahon ikgisodiyotining barqaror rivojlanishidagi oʻrni yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Dunyoda sugʻurta faoliyatini transformatsiya qilish, sohaga raqamli texnologiyalarni keng koʻlamda joriy etish, kiber xavf-xatarlarni sugʻurtalash, sugʻurta kompaniyalarining toʻlov qobiliyatini mustahkamlash orqali sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilarining manfaatlarini himoya qilish, inklyuziv va mikrosugʻurtani rivojlantirish xalqaro darajada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarining asosiy yoʻnalishlarini tashkil etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Moliya tizimida sugʻurta kompaniyalari moliyaviy vositachilar sifatida ham faoliyat yuritishi mumkin. Shu sababli, sugʻurta kompaniyalari moliya bozorida moliyaviy resurslar akkumulyatori va mos ravishda yirik investitsiyalar manbai – investor sifatida ham namoyon boʻlib, tijorat banklari va investitsiya fondlari kabi institutsional investor boʻlib ham moliya bozorida samarali faoliyat yuritish uchun keng imkoniyatlarga ega hisoblanadi.

G.P.Tursunov oʻz ilmiy maqolasida bozor munosabatlariga bosqichma- bosqich oʻtish jarayonida iqtisodiyotni rivojlantirishning kuchli moliyaviy vositalaridan biri sifatida davlat qimmatli qogʻozlar bozorini modernizatsiyalash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali investorlarning sugʻurta bozorida faol faoliyat olib borishlari uchun shart-sharoitlar yaratib kelmoqda deydi. Shu bilan bir qatorda sugʻurta bozorining rivojlanishi mamlakat sugʻurta tizimining rivojlanishining muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi [3].

Rivojlangan mamlakatlar tajribalarini oʻrgangan holda Oʻzbekistonda ham sugʻurta faoliyatini yanada takomillashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan tadbirlar sugʻurta bozorini jadal rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratmoqda. Mamlakatimizda sugʻurta kompaniyalar faoliyatini xalqaro talablarga javob bera oladigan va raqobatbardosh sohaga aylanishini taʼminlashda davlat bosh islohotchi vazifasini amalga oshirib kelmoqda. Sugʻurta faoliyatiga oid qator meʼyoriy-hujjatlarining qabul qilinishi mamlakatimizda sugʻurta xizmatlari sifatini oshirish va aholi oʻrtasida sugʻurta xizmatlariga nisbatan ishonchning oshishiga xizmat qilmoqda.

G.Xodjayeva ilmiy maqolasida sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy xizmatlar sohasidagi roli haqida qoʻydogilarni taʼkidlaydi, sugʻurta kompaniyalari moliyaviy xizmatlar sohasini rivojlantirishda muhim rol oʻynaydi, bundan tashqari sugʻurta bozorida majburiy va ixtiyoriy sugʻurta hamjlari ham barqaror ravishda koʻpayib bormoqda. Oʻsib borayotgan sugʻurta bozori sugʻurta kompaniyalarining samaradorligini oshirishda, yangi sugʻurta mexanizmlarini joriy qilish uchun qoʻshimcha investitsiyalarni jalb qilishni talab qilib qoʻymoqda [4].

Sugʻurta sohasi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun juda muhimdir, sababi sugʻurta kompaniyalari fond bozorlarida institutsional investor boʻlib xizmat qiladi, undan tashqari yirik moliyaviy resurslarni toʻplaydi va qoʻshimcha faoliyatidan daromad olish samaradorligini taʼminlaydi.

Shu munosabat bilan aktsiyadorlik jamiyatlari shaklidagi sugʻurta kompaniyalari faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish, kompaniyalarning aktsiyalarini qimmatli qogʻozlar bozorida

sotilishini ta'minlash sug'urtani rivojlanishiga va fond bozorini faollashtirishga qo'shimcha turtki bo'ladi.

Investorlar sifatida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari aholi va yuridik shaxslarning mablag'larini fond bozoriga jalb qiluvchi vositachisi bo'lib ularning va o'zining daromadlarini oshirishda barqaror manbalardan biri bo'lib qolmoqda.

A.M.Godin ilmiy tadqiqot ishida sug'urta bozorining moliya tizimidagi o'rni biqiyosdir, sababi turli xil moliya institutlariga sug'urta himoyasini taqdim etish bilan bir qatorda o'zining investitsion faoliyati va salohiyati orqali moliya bozorining asosiy o'yinchilariga aylanib boradi degan fikrlarni ilgari suradi [5].


A.A.Romanova ilmiy maqolasida sug'urta bozoriga qo'yidagicha ta'rif beradi, ya'ni sug'urta bozori – bu mamlakat moliya bozorining ajralmas qismi hisoblanadi va bir uyg'unlikda rivojlanib boradi. Sug'urta bozorining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonining jadal rivojlanishi bilan o'zaro bog'liq. Sug'urta bozori instrumentlarining ko'payishi va o'sishi – bu ishlab chiqarish va moliya sohasida globallashuv va integratsiya jarayonlarining ajralmas qismidir, shu sababli moliya bozorlarining o'zaro uyg'unlikda rivojlanishi talab etiladi [6].

A.A.Kazakova ilmiy tadqiqot ishida milliy moliya bozorlarida jismoniy shaxslarning pul mablag'larini investitsiya va sug'urta bozorlariga jalb qilish muammosi haqida fikrlarni aytib o'tadi. Sug'urta va fond bozorlarining integratsiyalashuvi natijasida investitsion sug'urta mahsulotlarining rivojlanishi yuz beradi. Umumiy bozorning bunday mahsulotlar segmentining rivojlanishi bu moliya bozorining rivojlanishiga sabab bo'ladi, sababi fond bozoriga aholiining omonatlari jalb qilinadi va uzoq muddatli hayot sug'urta turlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bunday rivojlanish umumiy nisbatda milliy qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga olib keladi [7].

Sangyong Hana o'z ilmiy ishlarida AQSHda sug'urta zahiralarni joylashtirish amaliyoti tahlil qilgan, jumladan: Amerika Qo'shma Shtatlarida sug'urta zahiralarni joylashtirishda konservativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi investitsiya qilinayotgan sug'urta rezervlari shaffoflik tamoyillariga amal qilish lozim. Aks holda nazorat organlari ushbu investitsiyalarni aktsiyadorlar va sug'urtalanuvchilar uchun zararli deb baholaydi. Ushbularni hisobga olgan holda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatlari qat'iy tartibga solinadi [8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur tadqiqot doirasida bozor yoki alohida kompaniyalarni tahlil qilishga emas, balki tavakkalchilikka asoslangan boshqaruvni rivojlantirish darajasini baholash borasida taklif qilingan modelning xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Axborotning asosiy manbalari buxgalteriya hisobining Milliy standartlariga muvofiq buxgalteriya hisoboti, xalqaro standartlarga (MHXS) muvofiq moliyaviy hisobot, shu jumladan auditorlik va aktuar xulosalar, kompaniyalarning yillik hisobotlari, kredit agentliklarining reytinglari va ma'lumotlari, so'rov ishtirokchilari tomonidan ixtiyoriy ravishda taqdim etiladigan ma'lumotlar bo'lib hisoblanadi [9]. Olingan ma'lumotlar asosida ekspert baholash usuli bo'yicha ballar qo'yiladi va kerakli ko'rsatkichlar baholanadi. U yoki bu kompaniya yoki umuman sektor bo'yicha tavakkalchilikka asoslangan boshqaruvning rivojlanish darajasi to'g'risida ma'lum xulosalarni shakllantirish to'g'ridan-to'g'ri tuzilmalar va kompaniya ichida qo'yilgan vazifalar yuzasidan mas'ul shaxslarga rasmiy murojaat va so'rovlar yuborishni talab qiladi.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yil yakuni bo‘yicha O‘zbekistonda turli mulkchilik shakllariga asoslangan 41 ta sug‘urta kompaniyasi faoliyat yuritmoqda, shu bilan birgalikda to‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi a‘zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlarining soni 2022 yil yakunlari bo‘yicha 25 tani tashkil qiladi. Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali 1,884 trln. so‘mga yetgan.



### 1-rasm. O‘zbekistonda sug‘urta tashkilotlari sonining o‘zgarishi


**Manba:** <https://imda.uz/ru/>

Sug‘urta bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi brokerlar soni 7 ta, aktuariylar soni 5 ta, sug‘urta agentlari soni 9155 tani tashkil qiladi.

Ta’kidlash kerakki, sug‘urta xizmatlari bozorida raqobat muhitiga, nafaqat, taklif etilayotgan sug‘urta mahsulotlarining xilma-xilligi, tarif siyosati, moliyaviy barqarorlik va boshka omillar, balki sug‘urtalovchilar soni ham ta’sir ko‘rsatadi (2-rasm).

2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan yillar davomida O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalari soni dinamikasida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Masalan, 2000 yilda sug‘urtalovchilar soni 27 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yil yakuniga kelib ularning soni 41 tani tashkil etgan yoki 1,5 martaga ko‘paygan. Sug‘urta tarmoqlari kesimida sug‘urta kompaniyalari sonini o‘rganish natijalari, ularning 32 tasi umumiy sug‘urta tarmog‘ida, 8 tasi hayotni sug‘urtalash tarmog‘ida faoliyat yuritishini ko‘rsatdi.






## 2-rasm. Sug'urta tarmoqlari bo'yicha sug'urta kompaniyalari sonidagi o'zgarishlar dinamikasi

**Manba:** <https://imda.uz/ru/>

Bundan 17 yil oldin mamlakatda 20 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritgan bo'lib, hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari umuman mavjud emas edi. Quyidagi diagrammada 2000- 2022 yillarda sug'urta tarmoqlari kesimida O'zbekistonda sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan sug'urta kompaniyalari sonidagi o'zgarishlar dinamikasi to'g'risidagi ma'lumot keltirilgan (2-rasm). 2-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2000-2020 yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari sonining dinamikasida notekis o'zgarishlar sodir bo'lgan. Masalan, 2009 yilda sug'urta kompaniyalari soni 33 tani tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib ularning soni 3 taga kamaygan. Aksincha, tahlil etilayotgan davrda hayotni sug'urta qilish bo'yicha kompaniyalar soni barqaror o'sib borgan. Ushbu kompaniyalar soni 2006 yilda 2 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib ularning soni 4 martaga oshgan. Statistik ma'olomotlarga ko'ra, 2022 yil boshiga O'zbekiston aholisi 36 mln. kishini tashkil qildi.



**3-rasm. Sug'urta mukofotlari va to'lovlari hajmining dinamikasi****Manba:** <https://imda.uz/ru/>

Demak, shu sanada 878048 nafar fuqaroga o'rtacha bitta sug'urta kompaniyasi to'g'ri kelgan. Mavjud sug'urta kompaniyalarining yarmidan ko'pi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida faoliyat ko'rsatmoqda. Sug'urta kompaniyalari sonining ortib borishi, pirovard natijada, sug'urta qamrovi darajasining oshishiga, binobarin, sug'urta mukofotlari tushumining ko'payishiga olib keladi (3-rasm).

**1-jadval.****2022 yilda sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha umumiy sug'urta tarmog'idagi TOP-10 ta sug'urta kompaniyalari**

№	Sug'urta kompaniyalari nomi	Sug'urta mukofotlari (mlrd.so'm)	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish (%)
1	"APEX INSURANCE" AJ	782 518	+241,5%
2	"O'ZBEKINVEST" EISK AJ	930 534	+141,5%
3	"O'ZAGROSUG'URTA" AJ	323 286	+23,9%
4	"KAFOLAT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	315 509	+41,4%
5	"GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	296 858	-13,7%
6	"MY-INSURANCE" AJ ST	196 281	+5,9%
7	"KAPITAL SUG'URTA" AJ	149 672	+28,3%
8	"ASKO-VOSTOK" AJ QK ST	122 693	+100,8%
9	"EUROASIA INSURANCE" AJ QK	121 749	-21,1%
10	"KAFIL SUG'URTA" AJ	110 407	+10,2%

**Manba:** <https://imda.uz/ru/>

Tahlillar ko'rsatib turibdiki, sug'urta mukofotlari va to'lovlari dinamikasida ijobiy tendentsiya mavjud, xususan 2020 yilga nisbatan 2022 yilda sug'urta mukofotlari hajmi qariyb 3 baravar oshgan va 6232 mlrd.so'mni tashkil qilgan, shu bilan bir qatorda, sug'urta to'lovlari hajmi ham keskin o'sishiga guvoh bo'lamiz.

2022 yil yakunlariga ko'ra, umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlardan birini "Kafolat sug'urta kompaniyasi" aktsiyadorlik jamiyati egallagan (1-jadval).

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, "APEX INSURANCE" AJ sug'urta kompaniyasi tomonidan 2022 yilda 782,518 mlrd. sum miqdorida sug'urta mukofotlari yig'ib olingan. Bu O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlarining 16,7 foizi demakdir. Eng ko'p sug'urta mukofotlari tushumiga erishgan TOP-10 ta sug'urta kompaniyalari tarkibida 3 ta davlat kapitali ishtirokidagi sug'urta kompaniyalarining bozor ulushi 33,6 foizni, qolgan nodavlat sektoridagi sug'urta kompaniyalarining bozor ulushi 38,1 foizni tashkil etgan.

**2-jadval.**

2022 yilda amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari bo'yicha umumiy sug'urta tarmog'idagi TOP-10 ta sug'urta kompaniyalari

№	Sug'urta kompaniyalari nomi	Sug'urta to'lovlari (mlrd.so'm)	Yalpi sug'urta to'lovlaridagi ulushi (%)
1	"APEX INSURANCE" AJ	252 316	23,2
2	"O'ZBEKINVEST" EISK AJ	78 689	7,2
3	"GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	76 793	7,06
4	"KAPITAL SUG'URTA" AJ	66 662	6,1
5	"KAFOLAT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	59 713	5,5
6	"ALSKOM SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	53 145	4,9
7	"MY-INSURANCE" AJ ST	52 352	4,8
8	"ALFA INVEST SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	47 058	4,3
9	"O'ZAGROSUG'URTA" AJ	43 896	4,0
10	"EUROASIA INSURANCE" AJ QK	39 679	3,6

**Manba:** <https://imda.uz/ru/>

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha TOP-10 ta sug'urta kompaniyalari ichida nodavlat sug'urta kompaniyalarining salmog'i yuqori bo'lgan. Demak, sug'urta bozorida raqobat muhiti kengaymokda.

Bizning nazarimizda, sug'urta kompaniyalarining faoliyatini baholashda sug'urta mukofotlari tushumi hajmiga qarab emas, balki amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari hajmiga qarab baho berish maqsadga muvofiq. Shu munosabat bilan quyidagi jadval ma'lumotlarini tahlil qilamiz (2-jadval).

Yuqoridagi ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sug'urta bozorida nodavlat sektoriga tegishli bo'lgan sug'urta kompaniyalari yetakchilikni qo'lga olishga intilmoqda.

Odatda, yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari majburiy hamda ixtiyoriy tusga ega. Quyidagi jadvalda 2002-2022 yillarda O'zbekistonda ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarining hajmi solishtirma tahlil etilgan (3-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2002-2022 yillarda sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha ixtiyoriy va majburiy sug'urta o'rtasidagi nisbat notekis rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Agar, 2004, 2006 va 2008 yillarda jami sug'urta mukofotlari tarkibida majburiy sug'urtaning ulushi o'rtacha 8,5 foizdan oshmagan bo'lsa, 2010-2016 yillarda 26,7

foizdan 31,5 foizgachani tashkil etgan. 2022 yilda esa jami sug'urta mukofotlari tarkibida majburiy sug'urtaning ulushi 33,3 foizga teng bo'lgan.

3-jadval.


Ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlarining solishtirma dinamikasi

№	Ko'rsatkichlar	Yillar										
		2002	2004	2006	2008	2010	2012	2014	2016	2018	2020	2022
1	Sug'urta mukofotlari, jami (mlrd.so'm)	21,7	32,9	49,7	88,0	175,5	285,9	439,1	692,6	1635,2	2213,7	2596
2	Ixtiyoriy sug'urta (mlrd.so'm)	18,3	30,2	46,9	80,6	128,7	06,8	300,7	485,0	1371,7	852,8	232
3	Majburiy sug'urta (mlrd.so'm)	3,4	2,8	2,8	7,4	46,8	79,1	138,4	207,6	263,5	360,9	865
4	Jami sug'urta mukofotlari tarkibida majburiy sug'urtaning salmog'i (%)	15,7	8,5	5,6	8,4	26,7	27,7	31,5	30,0	16,1	16,3	33,3

Manba: <https://imda.uz/ru/>

Tadqiqotchilar va ekspertlar o'rtasida majburiy va ixtiyoriy sug'urta o'rtasidagi oqilona nisbat qanday darajada bo'lishi xususida turlicha fikr-mulohazalar mavjud. Ayrim olimlar, bozor munosabatlari sharoitida ixtiyoriy sug'urta ustuvor bo'lishi kerak deb ta'kidlashsa, ba'zi mutaxassislar majburiy sug'urtaning roliga ijobiy baho berishadi.


2003 yil yanvar oyidan O'zbekistonda sug'urta faoliyati ikki tarmoqqa ajratilgan bo'lib, hozircha deyarli barcha ko'rsatkichlar bo'yicha umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urtalovchilar hayotni sug'urtalovchi kompaniyalarga qaraganda ustunlikka ega. 2012-2020 yillarda umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatgan sug'urtalovchilar tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari hajmida barqaror o'sish tendentsiyasi kuzatilgan bo'lsa, hayotni sug'urtalovchi kompaniyalar esa 2018 yilgacha ushbu tendentsiyaga ega bo'lgan. Birok, 2020 yilda hayotni sug'urtalovchi kompaniyalar tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi 2018 yilning tegishli ko'rsatkichiga nisbatan 82,8 mlrd.so'mga yoki 19,8 foizga kamaygan.



**4-rasm. Sug'urta tarmoqlari kesimida sug'urta mukofotlarining o'sishi (mlrd.sum)**

**Manba:** <https://imda.uz/ru/>

Buning sababi 2020 yilda respublika xukumati tomonidan pandemiya tufayli ko'rilgan choralar bilan bogliq ekanligi xech kimda shubxa uygotmaydi. Shu yerda ta'kidlash lozimki,



**5-rasm. Yalpi sug'urta mukofotlari tarkibida mintaqalarning ulushidagi o'zgarishlar dinamikasi (%)**

**Manba:** <https://imda.uz/ru/>

2020 yilda jami sug'urta mukofotlarining 84,9 foizi umumiy sug'urta tarmog'iga, 15,1 foizi hayot sug'urtasi tarmog'iga to'g'ri kelgan. Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlarining keskin o'sishi 2022 yilda kuzatilgan, bu ko'rsatkich 2020 yilga nisbatan qariyb 5 marta o'sgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur tadqiqot doirasida bozor yoki alohida kompaniyalarni tahlil qilishga emas, balki tavakkalchilikka asoslangan boshqaruvni rivojlantirish darajasini baholash borasida taklif qilingan modelning xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Axborotning asosiy manbalari buxgalteriya hisobining Milliy standartlariga muvofiq buxgalteriya hisoboti, xalqaro standartlarga (MHXS) muvofiq moliyaviy hisobot, shu jumladan auditorlik va aktuar xulosalar, kompaniyalarning yillik hisobotlari, kredit agentliklarining reytinglari va ma'lumotlari, so'rov ishtirokchilari tomonidan ixtiyoriy ravishda taqdim etiladigan ma'lumotlar bo'lib hisoblanadi. Olingan ma'lumotlar asosida ekspert baholash usuli bo'yicha ballar qo'yiladi va kerakli ko'rsatkichlar baholanadi. U yoki bu kompaniya yoki umuman sektor bo'yicha tavakkalchilikka asoslangan boshqaruvning rivojlanish darajasi to'g'risida ma'lum xulosalarni shakllantirish to'g'ridan-to'g'ri tuzilmalar va kompaniya ichida qo'yilgan vazifalar yuzasidan mas'ul shaxslarga rasmiy murojaat va so'rovlar yuborishni talab qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Tahlillarimizda shuning guvohi bo'ldikki, mamlakatimiz bo'yicha sug'urta xizmatlari ko'rsatilishi qamrovi oxirgi besh yilda sezilarli darajada oshgan, shuningdek sug'urta kompaniyalarning kapitallashuv darajasi ham sezilarli daraja oshgan. Bu holat sug'urta kompaniyalarni sug'urta bozorida sug'urta mahsulotlarini taklif qilishi va mijozlarga sifatli sug'urta xizmatlari ko'rsatilishi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi va o'z navbatida bunday o'zgarishlarning asosiy sababi davlat tomonidan soha faoliyatni ko'llab-qo'vatlashga qaratilgan chora-tadbirlari tizimli olib borayotganligidandir. Shu bilan birga sug'urta sohasida kapital jalb qilish muammolari, bo'sh turgan pul mablag'larni investitsiya qilishning rang-barang emasligi va qonunchilik bilan katta cheklovlar mavjudligi haliyam bartaraf etilmaganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

O'zbekistonda sug'urta bozorining fond bozoriga ta'siri va sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi roli yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflar tavsiya qilinadi:

Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatiga davlat aralashuvini kamaytirish, sug'urta sohasidagi investitsion faoliyat bilan bog'liq qonunchilikda mavjud bo'lgan cheklovlarni bekor qilish ya'ni sug'urta kompaniyalari investitsiya qilish mumkin bo'lgan sohalarni kamaytirish yoxud minimallashtirish chunki davlat tomonidan sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatiga aralashuv sug'urta kompaniyalari bo'sh mablag'larini kengroq joylashtirish imkoniyatini cheklab, investitsiya faoliyatidan olinadigan daromad samaradorligini pasaytirishga olib keladi. Bu o'z sug'urta kompaniyalari tomonidan navbatida davlat byudjetiga to'lanadigan soliqlarning kamayishiga olib keladi.

Sug'urta tashkilotlarining depozitlarga qo'yilgan mablag'lar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz daromadlaridan olinadigan soliq stavkasini kamaytirish yohud umuman bekor qilish.

Sug'urta kompaniyalarining bank depozitlariga qilinadigan qo'yilmalar miqdori bo'yicha maksimal cheklovni bekor qilish (hozirda 40%), chunki bu amaliyot orqali sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati liberallashtiriladi va daromadlarini maksimalashishiga erishiladi, bu o'z navbatida tijorat banklarining kredit solohiyatini oshiradi. Ushbu investitsiyalarning rentabelligi



bir qator sabablar (bank sektorining barqarorligi) bilan bog'liq, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirishga turtki bo'ladi.

2018 yil 2 senyabrda PF-3926 sonli "O'zbekiston Respublikasida kripto-birjalar faoliyatini ashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi prezidnetining farmoniga asoslangan holda, sug'urta kompaniyalariga blokcheyn texnologiyalariga yoki blokcheyn mahsulotlariga (kriptoalyutalarga) investitsiya qilish huquqini berish. Bu huquqni berish orqali sug'urta kompaniyalarining investitsiya qilish sohalaring rang-barangligiga, risklarning diversifikatsiya qilinishiga, daromadning maksimallashtirishga hamda sug'urta kompaniyalarining faoliyatini modernizatsiyalashga va butun jahon sug'urta bozorida ilg'or texnologiyalar qo'llash bo'yicha yuqori o'rindagi davlatlar qatoridan joy olishga erishiladi.

Sug'urta sohasidagi ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganib chiqqan holda real iqtisodiyotga ya'ni davlat ulushi 30% dan oshiq bo'lgan qazib olish, ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashgan korhonalari investitsiya qilish imkonini berish chunki bundan korhonalarda risklilik darajasi past hisoblanadi. Bu o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga va jadal darajada rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozorida yangi investitsiya ob'ektlarining paydo bo'lishi (obligatsiyalar) sug'urta kompaniyalarining bu boradagi faoliyatlarini qonunchilikda muvofiqlashtirishni talab qilib qo'ymoqda. Shulardan kelib chiqqan holda sug'urta kompaniyalarining obligatsiyalarga investitsiya qilish me'yorlarini belgilash.

Shuningdek sug'urta kompaniyalarining investitsiya ob'ekti bo'lgan, ya'ni boshqa yuridik shaxslarining ustav kapitalda ishtiro bo'yicha qo'yilgan maksimal talablarni bekor qilish (hozirda 30%), bu esa o'z navbatida yangi korxonolarning ko'payishiga, soliq bazasining oshishiga kolaversa yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

**Punktuatsion transformatsiya:** **Punktuatsiya** – tinish belgilarining qo'llanish me'yorlarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi. "Unlike any business book I've read. The Third Door is an exhilarating thrill ride of hope, joy, ambition, and self-discovery." [Maya Watson Banks, Director of marketing at Netflix] "Men o'qigan istalgan biznes kitobdan farqli ravishda, UCHINCHI ESHIK umid, shodlik, orzu-istak va o'zini kashf qilishning xursand qiluvchi zavqli sayohatidir." Ushbu gaplarni tarjima jarayonida bitta gapga aylantirildi. Ya'ni ikki gapni ajratib turuvchi nuqta o'rniga vergul tinish belgisidan foydalanildi.

Lekin bu bilan gap mazmuniga putur yetkazilmagan, aksincha, jumla yanada jozibali bo'lib, bo'yoqdorlik kasb etgan. **Orfografik transformatsiya:** **Orfografiya** – adabiy tilning to'g'ri yozish qonun-qoidalarini o'rganuvchi bo'lim. "Once you start reading, you can't stop." [Johan Berger, Contagious: Why Things Catch On] "Bir marta o'qisangiz, o'zingizni to'xtata olmaysiz." Ushbu jumlaning orfografik transformatsiya usuli bo'yicha tahlil qilsak, gap morfologik transformatsiyaning barcha qoidalari bo'yicha tarjima qilingan.

#### XULOSA

Har bir tarjimon, albatta, biror asarni tarjima qilayotganda turli xil muammolarga duch kelishi mumkin. Tarjimon nihoyatda mas'uliyatli bo'lishi va asar tarjimasiga jiddiy qarashi lozim. Chunki asar muallifining aytmoqchi bo'lgan fikrini yetkazib bera olmasligi mumkin. Shuning uchun asar mavzusi va uning nima haqida ekanligini yaxshilab, sinchiklab o'rganib chiqishi kerak, ya'ni asar tarixidan xabardor bo'lishi lozim. Tarjimonning so'z boyligi keng bo'lishi darkor, negaki u asarda uchragan so'zlarni bir so'z bilan tarjima qilmasdan sinonimlardan ham samarali foydalana bilishi kerak. Bu asarni sof, qiyinchiliklarsiz o'qilishiga, kitobxonning medasiga tegib qolmasligiga yordam beradi. Hamda kitobxonda asar davomini o'qishga qiziqishini yanada oshiradi.

#### REFERENCES

1. SolijonovJuraaliKamoljnovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, Vol 39(No 4.), 221–229. doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>
2. Kamoljnovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies(CARJIS)*, 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
3. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVSKIY ASARLARI MISOLIDA). *Ta'limfidoyilari*, 18(5), 32-37.



4. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II"* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
5. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JKROULINGNING, GARRIPOTTERVA AFSUNGARLARTOSHI' ROMANIDAGISEHRGARLAROBRAZI NI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGATARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIVTAHLILI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/21812454-2022-3-176-180>

## AYRIM KOSMETIKA MAHSULOTLARINI IDENTIFIKATSIYA VOSITALARI VA KO`RSATKICHLARINI ANIQLASH MAQSADIDA TADQIQ ETISH

Shukurov Shahboz Anvar o`g`li

magistr

Hamroqulov G'ofurjon Xolyigitovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti. k.f.d., professor.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10001411>

**Annotatsiya.** Kosmetika mahsulotlarini ekspertiza qilish va sertifikatlash maqsadida o'tkaziladigan identifikatsiya katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalash uchun zarur identifikatsiya mezonlarini aniqlash muhimdir. Kosmetika mahsulotlarining o'ziga xos turlari uchun identifikatsiya mezonlari bir-biridan farq qiladi va bu har xil turdagi kosmetika mahsulotlarining maqsadi, tarkibi va funktsional xususiyatlari turli hilligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, identifikatsiya ko'rsatkichlari soni maqbul bo'lishi, ya'ni sifat ko'rsatkichlarining butun doirasi bo'yicha sinovlar o'tkazilmasligi kerak, chunki bu identifikatsiyani murakkablashtiradi, shuning uchun ular oqilona tanlangan va ekspert xulosasi uchun yetarli ma'lumotlarni yetkazib beradigan darajada bo'lishi kerak.

**Kalit so'zlar:** kosmetika mahsulotlari, identifikatsiyalash, identifikatsiya mezonlari, identifikatsiya usullari, identifikatsiya ko'rsatkichi, sertifikatlash, markirovka.

## ИССЛЕДОВАНИЯ С ЦЕЛЬЮ ОПРЕДЕЛЕНИЯ СРЕДСТВ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОТДЕЛЬНЫХ КОСМЕТИЧЕСКИХ ПРОДУКТОВ

**Аннотация.** Идентификация, проводимая в целях экспертизы и сертификации косметической продукции, имеет большое практическое значение, поэтому важно определить критерии идентификации, необходимые для идентификации косметической продукции. Критерии идентификации для специфических видов косметической продукции отличаются друг от друга, что определяется разнообразием целей, состава и функциональных особенностей косметической продукции различных видов. Как известно, количество показателей идентификации должно быть приемлемым, то есть не должны проводиться испытания по целому кругу показателей качества, что усложняет идентификацию, поэтому они должны быть разумно выбраны и на уровне, позволяющем предоставить достаточную информацию для экспертного заключения.

**Ключевые слова:** косметические продукты, идентификационные критерии, методы идентификации, показатели идентификации, сертификация, маркировка.

## RESEARCH FOR THE PURPOSE OF DETERMINING THE IDENTIFICATION MEANS AND INDICATORS OF CERTAIN COSMETIC PRODUCTS

**Abstract.** Identification carried out for the purpose of examination and certification of cosmetic products is of great practical importance, so it is important to determine the identification criteria necessary for the identification of cosmetic products. Identification criteria for specific types of cosmetic products differ from each other, which is determined by the variety of goals, composition and functional features of cosmetic products of various types. As you know, the number of identification indicators should be acceptable, that is, tests should not be carried out on a whole range of quality indicators, which complicates identification, so they should be

*reasonably selected and at a level that allows sufficient information to be provided for an expert opinion.*

**Keywords:** *cosmetic products, identification criteria, identification methods, identification index, certification, labeling.*

**Mavzuning dolzarbligi:** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, maqsadga qarab mezon va ko'rsatkichlar soni, shuningdek qo'llaniladigan vositalar va usullar har xil bo'ladi. Bu identifikatsiya paytida amalga oshirilgan ishlar hajmini aniqlaydi. Ishning tahlili va amaliy natijalarini hisobga olgan holda, biz kelajakda boshqa maqsadlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan, ikki turdagi faoliyatni identifikatsiyalash tartibini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bular ekspertiza va sertifikatlashdir.

Identifikatsiyani amalga oshirishda mahsulot turiga qarab va maqsadga ko'ra dastlab identifikatsiya mezonlari aniqlanadi. Keyin tanlangan mezonlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalar aniqlanadi. [1] Vositalarni ikki guruhga bo'lish mumkin: me'yoriy (texnik) va yuk hujjatlari (YuH). Identifikatsiya qilish uchun mos ko'rsatkichlar me'yorlarini va ularni aniqlash usullarini belgilaydigan normativ yoki texnik hujjatlarga muhim ahamiyat beriladi. Identifikatsiya qilish uchun biz beshta usul guruhini aniqladik: analitik, ekspert, organoleptik, o'lchash va ekspress usullar, ularning qo'llanilishi tanlangan mezonlarga muvofiq belgilanadi [2].

Identifikatsiyaning har bir turi tegishli mezonlar bilan tavsiflanadi. Mezonlar orasida deyarli har doim identifikatsiya amalga oshirilishida inobatga olinadigan umumiy mezonlarni ajratish mumkin, masalan, mahsulot turi, nomi, ishlab chiqaruvchisi, YuHga muvofiq. Bundan tashqari, faqat ma'lum bir identifikatsiya turi uchun ishlatiladigan aniq mezonlar mavjud.

Eng muhim identifikatsiya mezoni kosmetika mahsulotining nomi [3, 4]. Nomiga (turiga) qarab mahsulotning me'yoriy hujjati, maqsadi, qo'llash usuli va saqlash shartlari aniqlanadi. Kosmetika mahsulotlarining nomenklaturasi juda xilma-xildir, yangi turlari doimiy ravishda paydo bo'ladi, shuning uchun hozirda barcha turdagi mahsulotlar uchun standartlar mavjud emas. Bundan tashqari, kosmetika mahsulotlari murakkab va ko'p komponentli tarkibga ega, shu sababli ba'zida mahsulotni u yoki bu turga bog'lash qiyin bo'ladi.

Nomi va asosiy funktsional xususiyatlarga muvofiqligini aniqlash mahsulotning xususiyatlarini organoleptik o'rganishdan boshlanadi: rang, hid, ushbu maqsaddagi mahsulotning xarakteristikasi. Ba'zida mahsulot nomini to'g'ri aniqlash uchun faqat organoleptik xususiyatlar yetarli emas. Misol uchun, shampunlarni vannalar uchun ko'pikdan yoki konditsionerlardan ajratish ko'pincha qiyin. Shuning uchun ushbu nomlarni yanada aniqlashtirishda mahsulotlarning belgilangan nomga muvofiqligini yanada ishonchli tasdiqlash yoki rad yetish imkonini beruvchi laboratoriya (o'lchash) tahlil usullari qo'llaniladi. Shunday qilib, shampunlarni, vanna ko'piklarini va konditsionerlardan farqlash uchun kerak bo'lganda uchta ko'rsatkichni tanlash mumkin: pH, sirt faol moddalar tarkibi va ko'piklanish qobiliyati.

Firmalar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshqa ishlab chiqaruvchilarga ishonib topshirishlari mumkin, bu qabul qilingan amaliyot ham identifikatsiyani qiyinlashtiradi. Mahsulotlar uchun mas'ul bo'lgan va ishlab chiqaruvchi ro'yxatiga kiritilgan kompaniya mahsulot uchun javobgar hisoblanadi, garchi konteynerlar va hatto tovarlarning o'zini ishlab chiqarish uning nomidan boshqa korxonalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lsa ham.

Tovarlarni identifikatsiyalashning 3 ta bosqichi mavjud:

1. Dastlabki identifikatsiya- bunda mahsulot hujjatlari o'rganiladi, tahlil qilinadi, qadoqlari tekshiriladi, muvofiq va nomuvofiq xususiyatlari ajratilib, organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari baholanadi.

2. Yakuniy identifikatsiya- bunda sinov ma'lumotlari tahlil qilinadi va xulosa uchun to'liq tahlil ishlari amalga oshiriladi.

3. Muvofiqlik to'g'risida xulosa tuzish.

Identifikatsiyaning birinchi turi mahsulotlarni nomi va uning asosiy funksional xususiyatlari meyoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Mahalliy mahsulotlarning yorlig'ida ushbu mahsulot ishlab chiqariladigan GOST yoki boshqa standart ko'rsatiladi.

Mahsulotning muvofiqlik sertifikatini, yo'l varaqasi yoki schyot-faktura, invoys, shartnoma yoki kontrakt kabi yuk hujjatlariga muvofiqligini aniqlash ekspertiza, nazorat operatsiyalari va sertifikatlashtirish paytida, shuningdek savdo tashkilotlari tomonidan tovarlarni sotib olayotganda amalga oshiriladi.

Sifat identifikatsiyasini amalga oshirishda markirovkaning to'liqligi GOST talablariga muvofiqligi baholanadi. Kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashning o'ziga xos xususiyati yorliqda ko'rsatilgan tarkibga muvofiqligini aniqlashdir. Ushbu mezon faqat kosmetika mahsulotlarini sertifikatlash maqsadida qo'llaniladi. Yuqori sifatli va xavfsiz parfyumeriya va kosmetika mahsulotini yaratishning eng muhim sharti uning tarkibini (formulasini) ishlab chiqishdir. Normativ hujjatlarda, GOSTda, qoida tariqasida, asosiy moddalarning tarkibi normallashtiriladi. Masalan, suv, spirt, sirt faol moddalar va boshqalarning massa ulushi.

Kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashda retsept tarkibi tahlil qilinadi, bu ishlab chiqaruvchi tomonidan kompozitsiyadagi ingredientlar miqdorini ko'rsatmasdan taqdim etiladi, ma'lum chegaralarda ruxsat etilganlar bundan mustasno. Ingredientlar ro'yxati lotin alifbosidagi harflar yordamida kosmetik ingredientlarning xalqaro nomenklaturasiga muvofiq belgilanishi mumkin. Retsept tarkibi kosmetika mahsulotining barcha iste'mol xususiyatlarini va ularning samaradorligini shakllantiradi. Masalan, ilgari shampunlarda qazg'oqqa qarshi komponent sifatida ishlatilgan qayin smolasi kabi komponentdan foydalanish hozirgi kunda taqiqlangan. Biroq, hozir ham bozorda qayin smolasini o'z ichiga olgan shampunlar mavjud. Xuddi shu narsa kosmetika mahsulotlaridagi konservantlarga ham tegishli. Konservantlarning asosiy qismini mahsulotlarida cheklangan miqdorda ishlatishga ruxsat beriladi.

Ishlab chiqarilgan sana kabi mezon partiya va sifatni identifikatsiya qilish uchun ishlatiladi. Ishlab chiqarilgan kundan boshlab kosmetika mahsulotining yaroqlilik muddati hisoblanadi, bu ularning ishlab chiqarishning texnologik imkoniyatlari, formulasi asosida aniqlanadi va uni ishlab chiqaruvchining o'zi belgilaydi. Yaroqlilik muddati tugagandan so'ng, mahsulot sifatli deb hisoblanmaydi va utilizatsiya qilinadi. Ko'pincha, ishlab chiqarilgan sana partiyani identifikatsiyalash mezoni sifatida, amal qilish muddati esa sifatni identifikatsiyalashda ishlatiladi. Mahalliy kosmetika mahsulotini markirovkalashda odatda ishlab chiqarilgan sana va yaroqlilik muddatini ko'rsatiladi. Import qilingan mahsulotlarda ko'pincha yaroqlilik muddati ko'rsatiladi.

Mahsulotning hajmi va massasi partiyaviy va miqdoriy identifikatsiyani tavsiflovchi mezondir. Kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarish uskunasi xususiyatlariga, qadoqlanishi, konsistentsiyasi, maqsadiga qarab, markalash va qadoqlash vaqtida iste'molchi qadog'idagi nominal tarkibining sof og'irligini yoki hajmini ko'rsatadi. Misol uchun, agar to'ldirish uskunasi

tortish dispenserlari bilan jihozlangan bo'lsa, unda ishlab chiqaruvchi paketdagi kosmetika mahsuloti massasini ko'rsatadi va agar volumetrik dispenserlar o'rnatilgan bo'lsa, unda, albatta, hajmi ko'rsatadi.

Meyoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash faqat sifatni identifikatsiya qilish va sertifikatlashtirish ishlari davomida amalga oshiriladi. Tegishli standart bilan meyorlashtirilgan barcha ko'rsatkichlarni tekshirib, MH talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligini baholash mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar va ularning tahlili kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashda qo'llaniladigan asosiy mezonlarga ko'ra vositalar, ko'rsatkichlar va usullarni aniqlash imkonini berdi [5, 6].

**1- Jadval.**

**Kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashda identifikatsiya mezonlari, vositalari, ko'rsatkichlari va usullarining xususiyatlari**

№	Mezonning nomi	Identifikatsiya vositasi	Identifikatsiya ko'rsatkichi	Identifikatsiya usuli
1	Maxsulot turi	Markirovka, yuk hujjati, Meyoriy hujjat, mahsulot	Tashqi ko'rinish, rang, hid, pH, faol moddaning massa ulush, suvning vauchuvchan moddalarning massa ulushi	Analitik, ekspert, organoleptik, ekspress usul, o'lchash
2	Mahsulot nomi	Markirovka, yuk hujjati, etalon namuna, mahsulot	Tashqi ko'rinish, rang, hid	Analitik, ekspert, organoleptik
3	Ishlab chiqaruvchi	Markirovka, yuk hujjati, kelib chiqish sertifikat, mahsulot, qadoq	Tashqi ko'rinish, rang, hid	Analitik, ekspert, organoleptik
4	Yuk hujjatlarga muvofiqligi	Markirovka, yuk hujjati, mahsulot nomenklaturasi		Analitik
5	Markirovkaning to'liqligi	Markirovka, Meyoriy hujjat		Analitik
6	Qo'llanilishi	Markirovka, ko'llanish yo'riqnomasi, mahsulot	Tashqi ko'rinish, rang, hid, pH, faol moddaning massa ulush, suvning va uchuvchan moddalarning massa ulush	Analitik, ekspert, organoleptik, ekspress usul, o'lchash

7	Yosh va jinsga moslashtirilganlik	Markirovka, yuk hujjati, mahsulot	Tashqi ko‘rinish, rang, hid, pH	Analitik, ekspert, organoleptik
8	Tarkib	Markirovka, retseptura, meyoriy hujjat	Tashqi ko‘rinishi, faol moddaning massa ulush, quruq moddalar tarkibi va boshqalar	Analitik, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
9	Ishlab chiqarilgan sana	Markirovka, yuk hujjati, ishlab chiqaruvchining axboroti		Analitik, ekspert
10	Hajmi, massasi	Markirovka, yuk hujjati, mahsulot		Analitik, ekspert
11	Tasniflarni guruhlash	Mahsulot, TIF TN va KUK klassifikatorlari	Tashqi ko‘rinishi, faol moddaning massa ulushi	Analitik, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
12	Meyoriy hujjat dastur doirasi	Markirovka, standartlar indeksi, MH	Tashqi ko‘rinishi, faol moddaning massa ulushi	Analitik, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
13	MH talablariga muvofiqligi	MH, mahsulot, sinov hisoboti	Tashqi ko‘rinishi, faol moddaning massa ulushi	Analitik, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
14	Ishlab chiqaruvchi kodi	Markirovka, kod Shifratori		Analitik
15	Tovar belgisi	Markirovka, namuna etalon, tavsif		Analitik
16	Qadoqning muvofiqligi	Qadoq, yuk hujjati, MH		Analitik, ekspert

**Xulosa.** Shunday qilib, tahlil natijalariga ko‘ra, identifikatsiyalashning eng muhim mezonlari aniqlandi hamda ularga mos keladigan vositalar, ko‘rsatkichlar va usullar belgilandi. Kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashning bunday mezonlariga quyidagilar kiradi: nomi, maqsadi, tarkibi, jins va yoshga yo‘naltirish, tasniflarni guruhlash, MH talablariga muvofiqligi, turi, ishlab chiqaruvchi. 16 mezondan 8 tasi eng muhimlari ekanligi belgilab olindi.

Sertifikatlash maqsadida organoleptik va ekspert usullari bilan belgilanadigan ko‘rsatkichlar tanlanadi. Bu sertifikatlash uchun ariza beruvchilarning xarajatlarini oshirmaslik uchun sertifikatlash qoidalari bilan ta‘minlanadi. Boshqa maqsadlar uchun, xususan, nazorat faoliyati uchun ko‘rsatkichlar identifikatsiya ko‘rsatkichlari sifatida tanlanishi mumkin, ularni



aniqlash qo‘shimcha ravishda ekspress va o‘lchash usullari bilan amalga oshirilishi mumkin. Fizik-kimyoviy identifikatsiya ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun, masalan, massasi, asosiy moddaning massa ulushi va boshqalar, muhrlangan mahsulot namunalari akkreditatsiyalangan laboratoriyaga yuboriladi. Ko‘rsatkichlarni aniqlash natijalari sinov hisoboti shaklida tuziladi.

Dastlabki identifikatsiya va laboratoriya tekshiruvlari natijalariga ko‘ra identifikatsiyalashning ikkinchi bosqichi o‘tkaziladi, bu "yakuniy identifikatsiya", deb nomlanadi. Tovarlarining individual xususiyatlarini tasdiqlash dastlabki va yakuniy identifikatsiya qilish bosqichida ham amalga oshirilishi mumkin, masalan, tovarlarning nomi (turi) va tegishli MH. Ma'lumotlarni tahlil qilish identifikatsiya mezonlari va ko‘rsatkichlarining muvofiqligi yoki nomuvofiqligini aniqlaydi.

"Hujjatlashtirish", deb nomlangan uchinchi bosqichda hujjatlar shakllari to‘ldiriladi. Ushbu bosqichda ekspertiza davomida identifikatsiya natijalari asosida xulosa tuziladi.

Shunday qilib, tadqiqotlarimiz natijasida biz identifikatsiya mezonlarini va ularning kosmetika mahsulotlari uchun ahamiyatini aniqladik. Identifikatsiya qilish maqsadlari va turlariga qarab mezonlarning qo‘llanilishi belgilanadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar mezonlarni tavsiflash va belgilangan mezonlarning har biri uchun identifikatsiyalash vositalari, ko‘rsatkichlari va usullarini aniqlash imkonini berdi. Parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarini soxtalashtirish shubhasi bilan mahsulotni identifikatsiyalash nafaqat maxsus kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizik usullarni, balki qalbakilashtirish va identifikatsiyani aniqlashning yangi samarali usullarini ham qo‘llashni talab qiladi. Parfyumeriya mahsulotlarini identifikatsiyalashdagi salbiy natija ularning qalbakilashtirilganligidan dalolat beradi.

#### REFERENCES

1. Odemosu P.O., Ekwe T.O. Identification and spectrophotometric determination of hydroquinone levels in some cosmetic creams//African journal of Pharmacy and pharmacology Vol 4(5), 2010. –P.231-234.
2. Жиряева Е.В. Товароведение и экспертиза в таможенном деле (продовольственные товары): учебное пособие / Е.В. Жиряева, Т. Хайландт. СПб.: 2006. 288 с.
3. Л.Б.Зиёдова, М.Ф.Хамракулов, Ф.Х.Хамракулов. Проблемы возникающие при таможенной экспертизе парфюмерно-косметической продукции// Наука и образование: проблемы и перспективы. Международная научно-практическая конференция. 30 октября 2020года, г.Прага Чехия.
4. Л.Б.Зиёдова, Хамракулов Г.Х., Журабаева А., Арипджанов М. Косметика vositalarini soxtalashtirishning baʼzi usullarini tadqiq etish // Ёш olimlar, magistratura va bakalavriat talabalarining anʼanaviy XXXI «Umidli kimogarlar-2022» ilmiy-texnikaviy anjumani maʼruza matnlari, 286-288 b.
5. Л.Б.Зиёдова, М.Ф.Хамракулов, Ф.Х.Хамракулов. Косметика va parfumeriya mahsulotlarini identifikatsiyalash va Ўзбекистон Республикаси ташқи иқтисодий фаолият товарлар номенклатурасига асосан таснифлаш.//«Товарлар кимёси ҳамда халқ таъбири муаммолари va истикболлари» Мавзусидаги IX халқаро илмий-амалий конференция материаллари (Андижон, 2022, 15-16 сентябр).442-б.
6. Паршикова В.Н. Товароведение парфюмерно-косметических товаров. Учебное пособие [Электронный ресурс]. Красноярск. —2013. —С. 159

## KICHIK YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKUR MUAMMOSI

Abdusattorova Yulduz Baxtiyor qizi

Guliston tumani 2-maktab psixologi

+998990603281

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10001186>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolda kichik yoshdagi bolalarning umumiy rivojlanishidan kelib chiqib ularning tafakkurini, nutqini rivojlantirish usullari haqida ko'rsatilgan. Bog'cha yoshidagi bolalar eng avvalo ko'rgazmali ifodalangan yoki ularning faoliyatlarga jalb etilgan predmetlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlanishini o'zlashtirishi haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, xotira, o'yinli metodlar, muloqot, nutq madaniyati, faoliyat, obraz, umumlashtirish, olam, mantiq.

## THE PROBLEM OF THINKING OF YOUNG CHILDREN

**Abstract.** This proverb describes ways of developing thinking and speech of young children based on their general development. It was mentioned that children of kindergarten age master the naming of objects, events, qualities, characteristics, relationships that are expressed visually or involved in their activities.

**Key words:** thinking, memory, game methods, communication, speech culture, activity, image, generalization, world, logic.

## ПРОБЛЕМА МЫШЛЕНИЯ МАЛЕНЬКИХ ДЕТЕЙ

**Аннотация.** В этой пословице описаны способы развития мышления и речи детей раннего возраста с учетом их общего развития. Отмечено, что дети дошкольного возраста осваивают называние предметов, событий, качеств, характеристик, отношений, которые выражаются зрительно или участвуют в их деятельности.

**Ключевые слова:** мышление, память, игровые методы, общение, культура речи, деятельность, образ, обобщение, мир, логика.

Inson atrof-olam (narsa, hodisalar, insonlarni) va o'zini turli xil faoliyatlarni bajarish va bu ob'ektlarga ta'sir ko'rsatgan holda ma'lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun o'rganadi. Sezgi, idrok va tasavvurlar ixtiyorsiz diqqat va ko'rgazma-obrazli xotira bilan hamkorlikda insonga aniq bir ob'ektlar va ularning bevosita o'rganiladigan xossalari haqida ma'lumot beradilar. Psixik aks ettirishning bu shakllari inson tomonidan ob'ektiv reallikni bilishning hissiyotli asoslaridir. Lekin alohida jismlar va real olam hodisalarini bilish istalgan amaliy vazifani hal etishda yuzaga keladigan uch ahamiyatga ega bo'lgan savolga javob topish uchun etarli emas. Bu savollar: «yuzaga kelgan vaziyatda nimani, qay tarzda bajarish mumkin, va bu harakat natijasida nima hosil bo'ladi?»dan iborat.

Bu savollarga javob izlashda bizlarga tafakkur yordam beradi. Avvalambor, tafakkur yuksak darajadagi bilish psixik jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan voqelikning faol ijodiy aks ettirish va o'zgartirishdan iborat. Tafakkur bevosita idrokda anglaymaydiganlarni ochib beradi; u olamni ahamiyatli aloqalar va munosabatlarda, uning turli xildagi vositalarida aks ettiradi. Tafakkurning asosiy vazifasi real bog'liqliklarga asoslangan zarur aloqalarni vaqt va fazodagi tasodifiy mos kelishlardan ajratgan holda aniqlashdan iborat. Tafakkur jarayonida tasodifiydan zaruratga, ayrimlikdan umumiylikka o'tish sodir bo'ladi.

**Tafakkur** - narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishi.

Bola tug'ilishidanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Tafakkur bolaning o'sib, bilim va tajribalarining ortib borishi jarayonida rivojlanadi. Bola (chaqaloq) dastlab tashqi olamni va undagi narsalami sezish, idrok qilish orqaligina biladi. Bunday bilish bolaning ana shu narsalar bilan bo'lgan aktiv faoliyati davomida tobora takomillashib boradi. Kichik yoshdagi bolalar atroflaridagi narsalar bilan qanchalik ko'p munosabatda bo'lsalar bu narsalar o'rtasidagi o'xshash tomonlarni shunchalik ko'proq payqay boshlaydilar.

Keyinchalik bolalar o'xshash narsalami umumlashtira boshlaydilar. Masalan, 6-7 oylik bola uyda yolg'iz qolgan paytida stol oldiga emaklab kelib, dasturxonni tortib o'ziga kerakli narsalami o'ushga muvaffaq bo'lar ekan, xuddi shunday yo'l bilan karavotning ustidagi narsalami ham olishga harakat qiladi. U dasturxonni tortgan kabi choyshab yoki ashyoni tortib karavot ustidagi narsalarni olishga urinib ko'radi.

Ilk bolalik yoshidagi bolalarning tafakkuri o'z-o'zicha, ya'ni stixiyali ravishda emas, balki katta odamlarning rahbarligida rivojlana boshlaydi. Katta odamlar bolalarning shu paytgacha orttirgan bilimlariga asoslanib, ularning o'zlari mustaqil egallay olmaydigan tushuncha va bilimlarni o'zlashtirib olishlarida yordamlashadilar. Ana shu tariqa bolalar o'zlarining individual faoliyatlari orqali bilish mumkin bo'lgan ayrim narsalami va ayrim tushunchalamigina emas, balki butun insoniyat tomonidan yaratilgan tushunchalami hamda mantiqiy fikr qilish shakllarini ham egallab olib boshlaydilar. Bolalarda tafakkur bir yoshga to'lib, ilk yoshga qadam qo'ygan davrdan boshlab namoyon bo'la boshlaydi. Ana shu davr mobaynida, birinchidan bolalar anchagina turmush tajribasiga ega bo'ladilar, Bolalar bir yoshdan oshgach, o'zlariga yaqin narsalarning nima uchun kerakligini tushunadigan bo'lib qoladilar (masalan, uydagi idish-tovoqlar, piyola va qoshiqlarning nimaga kerakligini bilib oladilar).

Ikki yoshda bolalar tafakkurining eng ko'zga tashlanib turadigan xususiyati shundan iboratki, ular ayni shu chog'da ko'rib, idrok qilib turgan narsalari haqida tafakkur qiladilar. Tafakkurning asosiy jarayonlari, ya'ni analiz, sintez, umumlashtirish bolalarning narsalar bilan bo'lgan amaliy faoliyatlari jarayonida sodir bo'ladi. Ana shuning uchun ularning tafakkurlari bevosita harakatlari bilan bog'liq bo'ladi, tafakkur harakatlarida namoyon bo'ladi.

Yasli yoshidagi bolalar idrok qilayotgan narsalarining ichki va eng muhim xususiyatlarini hali aks ettira olmaydilar. Shu sababli ular idrok qilayotgan narsalami umumlashtirganlarida bu narsalarning ko'zga tashlanib turadigan tashqi belgilariga, xususiyatlarigagina asoslanadilar. Masalan, bir yarim yoshli bola olmani, koptokni, yog'ochdan qilingan yumaloq sharni umumlashtirib, ularning hammasini olma deb ataydi. Shunday qilib, kichik yoshdagi bolalarda tafakkur ularning turmush tajribalarining orta borishi, turli xil narsalarga doir bilim va tushunchalarning ko'payishi hamda nutqning rivojlanishi jarayonida takomillashib boradi.

Tafakkur bolaning bog'cha yoshdagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshdagi bolalarda turmush tajribasining anchagina ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining nisbatan yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'chada harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshdagi bolalar o'zlarining mustaqil harakatlari davomida atroflaridagi turli xil narsalar bilan bevosita taqqoslash, analiz qilish va nihoyat umumlashtirish kabi fikr qilish jarayonlarini vujudga keltiradi va takomillashtiradi.

Bolaning bog'cha yoshdagi davrida uning erkin harakat qilish maydoni yasli yoshdagi daviga nisbatan juda ham kengayib ketadi. Bu esa tafakkurning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Bog'cha yoshdagi bolalar o'z tajribalarida ancha narsalami bilib olganlaridan so'ng narsalarning ichki xususiyatlari bilan ham qiziqqa boshlaydilar. Shu sababli ularda juda ko'p savollar (bu nima? nega bunaqa? kim qilgan? qayeydan kelgan? nima qiladi? kabi) paydo bo'ladi. Bu shubhasiz, tafakkurning faol va jadal rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarda har xil sohalaiga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining shakllanayotganligidan darak beradi. Shuning uchun bolalarning savollariga doimo ahamiyat bilan qarash kerak. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki katta odamlar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik, sinchkovlik susaya boshlaydi. Lekin bog'cha yoshdagi bolalarning hamma savollariga javob berish qiyin, chunki ular o'zlari hali mutlaqo tushunmaydigan narsalar va hodisalar haqida ham savol beraveradilar.

Tarbiyachi bolalarning son-sanoqsiz savollariga ulaming yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda javob berishi va tushuntirishi lozim. Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsaga tushuna olmaslik, biron narsadan taajjublanish, hayron qolish natijasida hosil bo'ladi. Juda ko'p ota-onalar va ayrim tarbiyachilar bolalar ortiqcharoq savol bersalar, ulami ko'p mahmadana bo'lma, sen bunday gaplami qayerdan o'rganding, deb jerkib tashlaydilar. Bola bir necha marta ana shunday pand egandan so'ng, kattalarga savol bermaydigan, ayrim murakkab narsalarni o'z bilganicha yoki afsonalardagi kabi xato tushunadigan bo'lib qoladi. Masalan, 7 yoshli katta guruh bolasi yomg'ir qayerdan yog'adi? degan savol beradi. Bu bolaga yomg'irning yuzaga kelishi juda sodda va tushunarli qilib gapirib beriladi (hatto sovuq oynaga issiq par qilib ta'sir qilganda, suv zarrachalarining yuzaga kelishi misol qilib ko'rsatiladi). Bola bir oz qarab turib, yo'q unaqa emas deb javob beradi. Bo'lmasa, qani sen tushuntirib ber, deb so'raladi. Shunda bola quyidagicha tushuntirib beradi: Yomg'ir osmonda yashaydi, uning uyi bulutlardan ham balandda. Bulutlar ochilib ketgan paytda yomg'ir yog'ilib ketadi deb tushuntiradi. Bolaning ana shunday afsonaviy tushunchasidan voz kechib, to'g'ri, Umumiy tushunchani yuzaga keltirguncha ancha vaqt ketadi. Ana shuning uchun bog'cha yoshidagi, hali turmush tajribasi oz bo'lgan bolalarga tabiat hodisalarini bunday yolg'on afsonaviy tarzda tushuntirish yaramaydi. Bolalar beradigan savollarning juda qiziq bo'lishiga bir necha sabablar bor.

Birinchiidan, bog'cha yoshidagi bolalar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalami qanday bo'lsa, shundayligicha, ya'ni yaxlit holda, xuddi rasmdagidek aks ettiradilar, ikkinchiidan, ularda katta odamlardagidek idrok qilayotgan narsa va hodisalarni chuqur analiz va sintez qilish xususiyati hali o'smagan bo'ladi, uchinchiidan, ularda turli tabiat va jamiyat hodisalariga doir ilmiy tushunchalar hali tarkib topmagan va nihoyat, to'rtinchiidan, ulaming turmush tajribalari juda oz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalaming beradigan savollaridan ular tafakkurining konkret obrazli xarakterga ega ekanligi ham ko'rinib turadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar quyidagi savollarni berishlari mumkin: Bulutlar nega yuradi? Osmon kattami, yer kattami? Yulduzlar nechta? Osmondagi yulduzlar nima uchun kunduzi ko'rinmaydi? Daraxtlar nima yeb o'sadi? Qorbobo odammi? Hozir qorbobo qayerda? Nima uchun qorbobo yozda kelmaydi? Elektr toki qayerdan keladi? Nega simda olov ko'rinmaydi?

Bog'cha yoshidagi bolalarni tabiat va jamiyatdagi narsalaming sababiy bog'liqligi hamda ichki taraqqiyot qonunlari emas, balki shu narsalaming o'zi qiziqtiradi. Ular hamma narsani bilishga intiladilar. Ayrim bolalar haddan tashqari ko'p savollar beradilar, boshqa bir bolalar esa

deyarli hech qachon savol bermaydilar. Bolalarning juda ko'plab savollar berishlari ijobiy xarakterga ega bo'lib, bu ulaming qiziquvchanligini, faolligi va mustaqilligidan darak beradi. Odatda juda passiv va tortinchoq bolalar savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar ekskursiyalar vaqtida tarbiyachining o'zi savol berishi, shu bilan ularni faollashtirib borishi lozim. Bog'cha yoshidagi bolalaming tajribalari orta borgan sari narsa va hodisalar o'rtasidgai o'zaro bog'liqlik hamda ayrim tabiiy sabablarni tushuna boshlaydilar. Masalan, katta guruh bolalarining gaplariga diqqat qilsak, ular shunday hodisalar haqida mulohaza yuritishayotganlarining guvohi bo'lamiz. Temir og'ir narsa bo'lgani uchun suvda cho'kadi, yog'och yengil, shuning uchun u oqadimi, ichi bo'sh banka yengil, shuning uchun u cho'kmaydi, urug'ni yerga eksa, ko'karib chiqadi va shu kabilar. Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkur (fikir yuritish) jarayonida ayni shu chog'da idrok qilayotgan narsalargina emas, balki ilgari idrok qilgan narsalariga ham tayana oladilar. Masalan, bolaga ilgaridan ma'lum bo'lgan biron topshiriq yoki savol berilsa, u o'z tasavvuriga asoslanib, qiynalmay, darhol javob qaytaradi. Chunonchi 6 yoshli bir boladan yong'oq suvda cho'kadimi yoki oqadimi? deb so'ralganida, u oqadi deb javob beigan. Bolaning to'g'ri javob beiganligiga sabab shundaki, u o'z tajribasida yong'oqni suvga tashlab ko'rgan. Ana shu tarzda bog'cha yoshidagi bolalarda induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning eng sodda sharkllari yuzaga kela boshlaydi.

#### REFERENCES

1. L. Mirjalolova. Bolalarni gapirtirib o'ynaladigan o'yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. T.: 2005.
2. E.G'oziev. Tafakkur psixologiyasi. T.: O'qituvchi, 1990.
3. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
4. Mo'minova L.R. Malktabgacha yoshdagi bolalami savodga o'rgatish dasturi. -T □ 1996.
5. Z.Nishanova, G. Alimova., Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma □ T., 2006
6. Исмоиловна А. З., Нарзуллаевна К. Г. (2022). В процессе формирования личности, преодоления эмоционального состояния в семейном окружении. Евразийский журнал гуманитарных и социальных наук, 6, 31-33.
7. Ismoilovna, A. Z. (2021). Methodology of organizational capacity development in gifted children. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1957-1961.
8. Ismoilovna, A. Z. (2022). Prerequisites for identifying gifted children and shaping their abilities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(6), 308-311.
9. Ismoilovna, A. Z. (2023, February). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLLARDA BILISH JARAYONLARINING RIVOJLANISHI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 2, pp. 204-210).
10. Ismoilovna, A. Z. (2023). OSMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).

11. Абдуллаева, З. И. (2021). ИЗУЧЕНИЕ КОММУНИКАТИВНО-ОРГАНИЗАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ. Вестник науки и образования, (8-2 (111)), 90-94.
12. Каракулович Ю. А., Исмоиловна А. З. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭМОЦИЙ И ЭМОЦИЙ В МИРОВОЙ ПСИХОЛОГИИ. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 419-421.



**USE OF MODERN METHODS AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN  
TEACHING KOREAN GRAMMAR**

**Nazirova Navro‘za Ravshan qizi**

Uzbekistan State World Languages University,  
Teacher of Korean language.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10001487>

*Abstract.* This article discusses the current efforts to teach the Korean language in the Republic of Uzbekistan.

*Key words:* Korean language, innovative technology, technological tools, methods.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ КОРЕЙСКОЙ ГРАММАТИКЕ**

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются текущие усилия по преподаванию корейского языка в Республике Узбекистан.

*Ключевые слова:* корейский язык, инновационные технологии, технологические инструменты, методы.

The processes of world globalization, the unprecedented expansion of states, nations and intercultural relations have made the issue of full communication between representatives of different peoples urgent. Full communication includes, first of all, language relations. Knowing a foreign language increases the level of knowledge, expands the worldview, contributes to a more tolerant perception of the surrounding world.

Recently, the rapid development of business and personal relations has expanded the economic and cultural relations of the Republic of South Korea with Uzbekistan and other CIS countries. Last year 2022 marked 30 years since our country established diplomatic relations with the Republic of South Korea. During this period, South Korea and Uzbekistan became worthy partners in the real sense. The demand for learning the Korean language has increased in our country, which was established on the basis of this cooperation. In addition to university education, Korean language teaching is also rapidly developing in various educational institutions outside the university, through Internet networks. In such a situation, the organization of short-term courses using modern methods and pedagogical technologies for different categories of students has become a requirement.

One of the urgent issues of the present time is to educate the young generation through the teaching of foreign languages in the spirit of love and loyalty to the Motherland, national pride, high morals and spirituality, pride in our ancient and rich heritage, national and universal values. Fundamental reforms in the world education system promote the problems of creating the necessary conditions for students to learn foreign languages perfectly, to be able to express themselves in all fields knowing a foreign language, and to develop their oral and written speech in a foreign language. Organizations such as UNESCO, UNICEF, Association of European Universities, European Network for Quality Assurance of Higher Education, KOICA, etc. is engaged in. The development of this issue in general trends is of great importance in the formation of modernity and foreign language skills in the young generation, and serves to increase the creative abilities of students in connection with the problems of modern education.

Currently, teaching foreign languages is given great importance in our country. This is certainly not for nothing. There is no need to overestimate the importance of perfect knowledge of foreign languages for our countries, which are striving to take their rightful place in the world community, and for our people, who are building their great future in solidarity and cooperation with our foreign partners. In our republic, new methods and requirements have been developed for the teaching of foreign languages, including Korean, in accordance with the recommendations of the global framework for evaluating the knowledge and skills of foreign language teachers (CEFR) and TOPIK (Test of Proficiency in Korean). According to it, textbooks were created for students of general education schools and vocational colleges. In accordance with these requirements, the classrooms were equipped with stands and new information and communication techniques. The demand for learning Korean is also increasing day by day. Korean language science is divided into four aspects (reading, writing, listening comprehension and speaking), and specific concepts and skills are taught in each of them. Educational technologies are effective use of modern information technologies in the educational process. It is also intended to increase the quality and efficiency of education by introducing modern innovative technologies into the educational process. In particular, there are several advantages of using such information and communication technologies in learning the Korean language.

The role of modern technology in language learning and teaching is incomparable. The use of technological tools comes in handy in every aspect of Korean language learning (reading, writing, listening comprehension and speaking). For example, in order to listen and understand, of course, this process cannot be carried out without a computer, player, CD discs. Listening comprehension is one of the most important parts of language learning. At the same time, the reader is required to pay attention to the speaker's pronunciation, compliance with grammatical rules, vocabulary and its meanings. An important factor in the use of modern technologies in the educational process is that students know information and communication technologies well and are able to use them. Teaching and learning the Korean language using modern technologies is one of the most effective ways. In this process, among other things, when using computers, the student can watch and listen to Korean language videos, demonstrations, dialogues, movies or cartoons; - you can listen to and watch Korean language broadcasts and TV programs. Using audio broadcasts, which is a more traditional method, makes the process of learning Korean more interesting and effective for students.

#### **REFERENCES**

1. Nam MY. Innovative strategies for teaching Korean grammar under the new curriculum[J]. Fujian Tea, 2020, 42(2): 180- 181.
2. Ma FZ. The role of auxiliary teaching resources in the classroom teaching of basic Korean language at zero starting point and higher vocational level[J]. Chinese science education innovation guide, 2012(20):42, 44.
3. Liu QQ. Korean vocabulary teaching method discussion[J]. Chinese Information, 2016, (7): 146-146.
4. Wang JX. Strategies to improve the effectiveness of Korean language reading[J] . Journal of Baicheng Pedagogical College, 2012(001): 94-96.

## MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA BOLALARNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI

Ernazarova Muhabbat Anvarovna

Yakkasaroy tumani 250-DMTT metodist, mutaxassisligi pegagogika va psixologiya.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10001830>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jamiyatda ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'limni rivojlantirish va bolalarning psixologik jarayonlari shuningdek, ayni shu paytni o'zida, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, tashkil etish maktabgacha ta'limning turli shakllarini shakllantirish, ularniyuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan pedagog va mutaxassislar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoni ilg'or xorijiy ta'limni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amaliyotlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologik ta'lim, bolalar psixologiyasi, pedagogik xodimlar, maktabgacha ta'lim ta'lim tizimi.

### DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATION AND PSYCHOLOGICAL PROCESSES OF CHILDREN

**Abstract.** In this article, the development of preschool education, which is the first stage of education in society, and the psychological processes of children, as well as at the same time, fundamental improvement of the preschool education system in our country, the formation of various forms of preschool education, their highly qualified, provision of modern-thinking pedagogues and specialists, improvement of the quality of preschool education, extensive reform practices aimed at introducing advanced foreign education into the educational process are provided.

**Key words:** psychological education, child psychology, pedagogical staff, preschool educational system.

### РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ДЕТЕЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается развитие дошкольного образования, которое является первым этапом воспитания в обществе, и психологических процессов детей, а также коренное совершенствование системы дошкольного образования в нашей стране, формирование различных предусмотрены формы дошкольного образования, их высокая квалификация, обеспечение современно мыслящими педагогами и специалистами, повышение качества дошкольного образования, обширная практика реформирования, направленная на внедрение передового зарубежного образования в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** психологическое образование, детская психология, педагогические кадры, система дошкольного образования.

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatni rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad bolaning aqliy va ruhiy salomatligini ta'minlashdir. Bolalar bog'chasidagi psixolog - bu aqliy rivojlanishning umumiy qonunlarini va ushbu rivojlanishning yosh xususiyatlarini hamda uning individual variantlarini tushunadigan, bolani yaxshi biladigan va chuqur tushunadigan shaxs. Maktabgacha psixologik yoshdagi davrda individuallashtirilgan shaxsiy neoplazmalarning avvalgi psixologik yoshi oxirida paydo bo'lgan shaxsiy xususiyatlarini (kuch, tezlik, hajm, sur'at, ritm) takomillashtirish, rivojlanish, mazmun jihatidan va rasmiy-dinamik xususiyatlar davri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim psixologiyasi, maktabgacha darslar faoliyatida o'rganuvchilarning ravishda psixologik va ma'naviy o'zgarishlarni tahlil qilish va unga amal qilish yordam beruvchi ilmiy yo'nalishdir. Bu sohasida o'qituvchilar o'rganuvchilarni oshirish, ma'lumotlarni tasdiqlash va deyarli har bir o'rganuvchi uchun maxsus qiziquvchilar va qo'lga kirituvchi ko'rinishlarga e'tibor beradilar. Maktabgacha ta'limdagi psixologiya asosan o'rganuvchilarning tashqi va ichki motivatsiyalarini izlash, o'rganishdan ko'proq qirqishlik qiladigan qonunlarni tashkil qilish, tashqi va ichki boshqaruvni tashkil qilish va o'rganashingizga yordam berishi, qonunlar va adabiyotlar asosida o'rganuvchilarning ilmiy o'zgarishlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi o'qituvchilar va o'rganuvchilarning fidoyilik, umid, aql va ruhiy salomatlik kabi ma'naviy xususiyatlarning yaxshilanishini o'rganishni maqsad qiladi. Bu jarayonda, o'qituvchilar uning maqsadlarini amalga oshirish, qiziqishlarini oshirish va o'rganishlarini rag'batlantirish uchun psixologik qo'llanmalardan foydalanarlar.

Maktabgacha ta'lim psixologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- 1.O'rganuvchilarning o'zlarini tahlil qilish va xususiyatlarini aniqlash.
- 2.O'rganuvchilarning o'rganish usullarini va o'rganuvchanlik sharoitlarini takomillashtirish.
- 3.O'rganuvchilarning o'z potentsiallarini aniqlash va ulardan keng qo'llanishlarini rag'batlantirish.
- 4.O'rganuvchi va o'qituvchilar orasidagi munosabatlar va hamkorlikni rag'batlantirish.
- 5.Butunlashgan o'quv jarayonini tahlil qilish va o'rganuvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Maktabgacha ta'lim psixologiyasi o'rganuvchilarning tashqi faktorlar va tarbiyaviy o'zgarishlarga qarshi tayyorgarlikni oshirishga yordam beradi. Bu yo'nalishning maqsadi o'rganuvchilarni yangi bilimlarini amalga oshirish va ma'naviy xususiyatlarini yaxshilash orqali jamiyatga mosdavlat ta'minotidagi fuqarolarni tayyorlashdir.

Shaxsiylashtirish jarayoni qonuniy ravishda bolaning shaxsiy rivojlanishini amplifikatsiya qilish jarayonining variantlaridan biridir. Va bu, ko'p jihatdan, bolalik davrida bola shaxsiyatiningshakllanishi, uning kelajakdagi hayotiga bog'liq bo'ladi. Bolalikda biz bilan sodir bo'lgan barcha voqealar bizning keyingi rivojlanish davrimizda chuqur iz qoldiradi. Bolaning qiyinchilik va yordamga muhtoj chog'ida ota-ona sezgirliigi va farzandiga nisbatan mehr-muhabbatining etarli bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik xizmat ko'rsatishda asosiy e'tiborni - bolaning muammolari qor kabi o'sib borgunga qadar kutmasdan, uni bartaraf etish, bolalar psixologiga o'z vaqtida murojaat qilishdir.

Har qanday muammoni qisqa vaqt ichida bolaga azob-uqubat va og'riq keltirmasdan ilgari hal qilish, yuzaga kelgan muammolarni ota-onalarga yetkazish va hamkorlikda ish olib borishdir. Ko'pgina bolalar muammolari faqat vaqtinchalik va psixologning qisqa muddatli ishini talab qiladi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologidan qisqa muddatli ish dasturini tuzib chiqishni talab qiladi va ayni chog'da individual tarzidagi maxsus dastur bo'lishi kerak. Bolalar bir marotaba psixolog xizmatidan baxra olgandan so'ng va uning natijasi ijobiy tomonga o'zgarganini his qilsalar, nafaqat maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologiga nisbatan ishonch, mehr, sevgi, hayrixohlik va albatta yuksak hurmat bildiradilar, balki, maktabgacha tashkilotga va u erdagi tarbiyachilarga nisbatan ham xuddi shunday munosabatda bo'ladilar. Shu sababdan psixolog individual va guruhli ishlash jarayonida hech bir holatni va bolalar xususiyatini ko'zdan qochirmasligi kerak. Bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi quyidagi yo'nalishlar asosida ish olib borsa samarali natija oladi.

Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari:

1. Psixologik ma'rifat.
2. Psixologik oldini olish.
3. Psixologik diagnostika.
4. Psixologik tuzatish.
5. Psixologik maslahat

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tubdan isloh qilish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, malakali pedagoglar bilan ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida soglom psixologik muhitni ta'minlash, psixologik xizmat sohasini yo'lga qo'yish takomillashtirish muhim hisoblanadi. Psixologik ta'limda bolalar psixologiyasi bo'yicha umumiy ma'lumotlar bilan chegaralanmaydi, balki maktabgacha ta'lim tashkilotining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish natijalariga tayanadi, pedagogik jamoaning malakasi va xususiyatlarini, bolalar va ota-onalarning o'ziga xosligini hisobga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik xizmatni yo'lga qo'yish va bu sohani yanada rivojlantirish uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratildi.

Maktabgacha ta'lim mutaxasislari yoshlik davrida bolaning bu ma'lumotni ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni esga olishini, bundan keyin u hayotda hech yaratish va joriy etish zamonaviy bolalar qachon eslamasligini isbotladi. Bola bog'chasini rivojlantirish uchun zaruriy ufqlarini kengaytira oladigan har qanday shartdir degan fikrga kelishib olishadi. O'z narsaga qiziqish uyg'otadigan davrdir va bu navbatida, tashabbus pedagogik uning atrofidagi dunyoni qo'llab-kompozitsiya ota-ona jamoatchiligi, bolalar bog'chasini o'quvchilarning oilalari bilan quvvatlaydi.

If you are studying the theoretical aspects of the culinary craft, the properties of which we are studying the theory of the status of our knowledge, download great lectures to music researchers and music connoisseurs, download them to the future national music, the theory at the craft of bakhshi, zhirov, applicantis introduced as a textbook of national music theory subjects to professionally give to the future generation, it is not possible to hear specialty classes to students would be appropriate. Of course many and researchers will bulur music researchers who have plenty of time and knowledge to develop this painstaking hot on the coast.

The number of music researchers who are currently studying at the Nukus branch of the State Conservatory of Uzbekistan is low, we plan a lot of work in the development of the field of culture. In conclusion, we young music researchers, in turn, are in close contact with the Bakhshi and Jirovs, which are iconic to our people, trying to achieve results by studying the theory side of the population taronas.

## REFERENCES

1. Q. Ayimbetov “Xalıq danalıġı” Nókis “Qaraqalpaqstan” 1988
2. Q. T.Adambaeva “Revalyuciyaga shekemgi qaraqalpaq muzıka tariyxı” “Qaralpaqstan” baspasi Nókis-1976
3. A.Nadirova “Qaraqalpaq muzıka tariyxı”

4. Муратбаева А. Актуальные вопросы совершенствования исполнительского мастерства в музыкальном искусстве: традиции и современность. Сборник материалов республиканской научно – практической конференции 10 мая 2022 года.
5. MURATBAEVA A. The influence of Karakalpak folk songs on the emergence of musical art //Young Scholar's Academic Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 8-11.
6. MURATBAEVA A. Music born of the heart //International Research Conference on Business, Economics & Social Sciences. – 2023. – №. 10. – С. 3-5.
7. Axmetovna M. A. QARAQALPAQ MILLIY MUZÍKA MÁDENIYATÍN QÁLIPILESTIRIWDE FOLKLORLÍQ SHÍGARMALARDÍN HÁM ATQARÍWSHÍLARDÍN ORNÍ //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 92-95.
8. Жумабаев А. Е. Творческий путь Сапарбая Палванова //Культура в фокусе научных парадигм [Текст]: / научн. ред. Муза Д. Е., Каика Н. Е. – Донецк: ДонНУ, 2023. – Вып. 16. – 388 с. – С. 32-36.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA PEDAGOGIK MATERIALLARNI  
O'RGATISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR JARAYONLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Qo'ldosheva Gulhayyo Nabi qizi**

Buxoro Innovatsiyalar Universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10003627>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilariga pedagogik materiallarni o'rgatishda pedagogik texnologiyalar jarayonlarini takomillashtirish masalalari va amaliy ahamiyati haqida so'z boradi.

*Kalit so'zlar:* o'quv dasturlari, pedagogik texnologiyalar, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish.

**IMPROVING THE PROCESSES OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN  
TEACHING PEDAGOGICAL MATERIALS TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

*Abstract.* This article talks about the issues and practical importance of improving the processes of pedagogical technologies in teaching pedagogical materials to primary school students.

*Key words:* educational programs, pedagogical technologies, wide and easy acquisition of knowledge.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА  
УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

*Аннотация.* В данной статье говорится о проблемах и практической значимости совершенствования процессов педагогических технологий преподавания педагогических материалов учащимся начальных классов.

*Ключевые слова:* образовательные программы, педагогические технологии, широкое и легкое получение знаний.

Yurtimizda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.



Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u

Haqiqatdan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuning uchun ham ta'lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;
- o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barcha- sini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'qitadigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi.

Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o'qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o'stirishlari kerak. Motivlar o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi.

Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uygʻotadi. Oʻqituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va oʻquvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli boʻlmaydi.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik oʻyinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr boʻlib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning aʼzosi ekanligini his etishga, intizomga boʻysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur boʻladi. Bola yosh boʻlishiga qaramay, endi uning maktabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni oʻrganish kabi zarur yumushlari koʻp. Muhimi, oʻyindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga oʻtish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40—45 daqiqalik darsda oʻtirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, oʻqishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham oʻqituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv oʻz-oʻzidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik oʻyinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin.

Ayniqsa boshlangʻich taʼlim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida oʻquvchilarni darsga jalb etish samarali boʻladi. Shunday darslarda bolalar diqqati toʻliq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar oʻquvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlangʻich sinf oʻqituvchilari taʼlim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga eʼtibor qaratishlari zarur.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi, taʼlimning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bogliq. Individual taʼlim oʻquv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli boʻlib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo boʻlgan edi. Oʻqituvchi bir oʻquvchi bilan ishlab, taʼlimni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. Oʻqituvchi matnlarni oʻqib bergan yoki bolalariga oʻqitib soʻzlatgan. Qoida va taʼriflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblarida u yoki bu kuyni ijro etish yoʻllari bilan bolalar hayot, sanʼat, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni oʻzlashtirgan.

Keyinchalik individual taʼlim oʻrnini guruhlar asosida oʻqitish egallagan. Oʻrta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, ogʻzaki savol-javob, yuqori pagʻonalarda esa maʼruza, munozara taʼlimning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf - dars sistemasini keltirib chiqarib yangi texnologiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xorijiy mamalakatlarda koʻplab pedagogik nazariyalar vujudga keldi. Ularning ayrimlari taʼlim-tarbiya tizimini yaxshilashga, oʻquvchilar faolligini oshirishga qaratilgan edi.

Shu davrlarda «Yangi maktablar» degan pedagogik oqim paydo boʻlib, uning asoschisi fransuz pedagogi E.Demolen edi. Bunday maktablar Angliya, AQSh, Fransiya, Belgiya, Shvesariya kabi koʻplab davlatlarda ochildi. Jenevada «Yangi maktablarning xalqaro birlashmasi» tuzildi va unda yangi maktablarga qoʻyilgan talablar belgilab berildi. Bu maktablar xususiy boʻlib, unda haq toʻlashga kodir kishilarning bolalarigina oʻqitilgan. Yangi maktablarda ish yaxshi

yo'lga qo'yilgan, to'liq jihozlangan kabinet va laboratoriyalar tashkil etilgan, «erkin va faol» metodlar qo'llanilgan. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari bo'lgan.

Maktablarning amaliy pedagogik laboratoriyasi bo'lib, bolalarning miyasini yodlab olingan bilimlar bilan to'ldirish orqali ta'lim berish o'rniga, ularning fikrlash qobiliyatini umumiy o'stirish yo'li bilan ta'lim berishga harakat qilingan. O'quvchilarga qanday qilib kuzatish, gipotezalar topishni, o'z taxminlarini tekshirib ko'rishni o'rgatganlar. Bunday maktablarda o'qitish faktlarga va tajribaga tayanishga, bolalarning tashabbuskorligi va mustaqilligini tarbiyalashga asoslangan edi.

XIX asr oxirlarida Germaniyada pedagog Vilgelm Avgust Lay (1862- 1926) «ish-harakat pedagogikasi»ga asos soldi. Uning g'oyalarida ham o'ziga xos ijobiy tomonlari, yangiliklar bor edi. Lay pedagogik jarayonda ifodalash, tasvirlashga katta ahamiyat berdi, chunki uning fikricha, mana shunday ifodalash yoki tasvirlash jarayonida o'quvchilar o'z faolliklarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar, harakat qiladilar.

Uning fikricha, tasvirlashning har qanday turlari: rasm solish, loy va plastilindan buyumlar yasash, har xil narsalarning modelini yasash, chizmachilik, dramatisasiya, ashula, musiqa, raqslar, shuningdek, o'simlik hamda hayvonlarni parvarish qilish tajribalarini o'tkazish, og'zaki va yozma ishlar va shu kabilar ta'lim jarayonidagi «ifodalash» vositalaridir. Lay fikricha hamma darslar ana shu qoidalar asosiga qurilishi lozim.

Mavzuning barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish; o'quvchilarning ravon va to'g'ri, ongli va ifodali o'qishining takomillashuviga erishish; Mashg'ulotga o'quvchilarning faol qatnashuviga erishish; ularning o'qish motivlarini qo'zg'ash va qiziqtirish, o'quvchilarni faollashtirish yo'llarini belgilash va qo'yilgan maqsadga to'liq erishish; Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va boshlang'ich ta'limda uni qo'llash yo'llarini izlash va takomillashtirish, o'z ustida ishlash; Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivlarini o'stirish ustida ishlash; Darsni hayotiy tajribalar bilan bog'lash. Va buning oqibatida o'quvchi to'g'ri, ongli va ifodali o'qishga o'rganadi. Turli mashqlar vositasida tez o'qish malakalari takomillashadi. Vatan haqidagi tushunchalari kengayadi, Vatanga muhabbat shakllanadi, Vatandan g'ururlanish, ya'ni milliy g'umr shakllanishiga asos yaraladi. Matn bilan mustaqil ishlashga o'rganish. O'z fikrini erkin bayon etishga o'rganish; o'rganilganlar asosida ertak, maqol, hikmatli so'zlar, tez aytishlarni o'rganish. o'rtoqlari fikrini ma'qullash yoki yangi fikrlarni aytishga o'rganish.

Dars qurilishida ham qat'iy andoza, birinchidan, ijodkorlikka yo'l bermaydi, ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Shuning uchun ham biz o'qish darsnining taxminiy algoritmini diqqatingizga havola etamiz:

Darsning maqsadi.

Ta'limiy maqsad:

- a) o'quvchilarning to'g'ri va ravon o'qish malakalarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra, o'quvchilarning xususiyatiga mos tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish;

Tarbiyaviy maqsad:

- a) o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- a) o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish;
- b) tez, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish;
- d) dunyoqarashlarni, xulq-odob, insoniy munosabatlarni, aqliy, jismoniy va boshqa sifatlarni rivojlantirish;

Darsni tashkil etish:

Birinchi dan, o'qituvchi o'quvchilarga darsga qiziqish uyg'otishi zarur. Yani, Motiv hosil qilish: Buni darsning o'tgan darsni mustahkamlash qismida va yangi darsni o'tishga tayyorgarlik qismida, butun dars davomida ham amalga oshiriladi. Motiv hosil qilishda turli didaktik o'yinlar, topshiriqlar, musobaqalar va boshqa ish usullaridan foydalaniladi.

2-O'quv elementi. Matnni o'qishga tayyorgarlik: yozuvchi haqida ma'lumot beriladi. Matn mazmuni haqida tushuntirilib, o'quvchilarning matnga qiziqishlari oshiriladi. Ba'zan matn mazmuni haqida gap boshlab, qolganini kitobdan o'qib, o'rganamiz, deb, o'qituvchi bolalarning matnga qiziqishini oshiradi. Tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.

3-O'quv elementi. Matnni o'qish va mazmunini so'zlash. Bunda o'qituvchi matnni o'zi o'qib beradi va mazmunini tushuntiradi yoki bu ishni tashkil etishda o'quvchilar faoliyatidan ham foydalanishi mumkin.

4-O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

5-O'quv elementi. Lug'at ustida ishlash. Notanish so'zlarga izo' berilib, o'quvchilarning so'z boyliklari oshiriladi (bunda ko'proq o'quvchilar faoliyatini ishga solish lozim), dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi.

6-O'quv elementi. O'quvchilar matnni o'qiydilar. Bunda ham motivni rivojlantirish uchun o'quvchilar guruhlashtirilishi mumkin. 2 ta, 3 ta 4 tadan o'quvchilar guruhi matnni navbat bilan o'qiydilar. To'g'ri, ravon va ifodali o'qishga alohida diqqat qaratiladi. Shu talablarga rioya qilgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

7-O'quv elementi. Topshiriq bilan o'qish. O'qituvchi o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish, o'qiganini tushunib olishga o'rgatish uchun turli mashq usullaridan foydalanadi. Matn mantiqiy qismlarga bo'linib, har bir qismining mazmunini so'zlash topshirig'i, qismlarga alohida sarlavha topish, reja tuzish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarning dunyoqarashlarining rivojlanishi, mantiqiy fikrlashga o'rganishiga yordam beradi.

8-O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

9-O'quv elementi. Matn mazmuni ustida ishlash. O'quvchilar matn mazmunini so'zlab berishlari yoki turli didaktik o'yinlar vositasida mazmunni o'zlashtirishi mumkin.

Masalan, «Davom ettir» o'yini: O'qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o'quvchi uni davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o'quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

«Zanjir» o'yini: matndagi bir necha so'zlar vositasida bu o'yinni o'ynash mumkin. O'qituvchi boshlab bir so'z aytadi, so'zning tugagan harfidan boshlanadigan so'zni bir o'quvchi aytadi, shu taxlitda hamma o'quvchilarni o'yinga qatnashtirish mumkin.

«Tez javob»: O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qatori oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu turga kimvchi so'z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bir o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik,

mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi, atrofda sodir bo'ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Bu o'yindan dars davomida o'tilgan mavzuga bog'lab, darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

O'qituvchi: «Hayvon».

O'quvchi: «It».

O'qituvchi: «O'quv quroli».

O'quvchi: «Daftar».

O'qituvchi: «Sinf jihozi».

O'quvchi: «Xantaxta».

O'qituvchi: «Ertaklar».

O'quvchi: «Zumrad va Qimmat» va hakoza.

Shu kabi o'yinlardan foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlantiradi, xulqiga ta'sir ko'rsatadi.

10-O'quv elementi. O'quvchilar bilimni nazorat qilish. Nazoratni yo'qoridagi didaktik o'yinlar vositasida va testlardan foydalanib o'tkazish mumkin.

Agar tekshirish davomida dars maqsadiga erishilgan bo'lsa, demak dars texnologiyasi to'g'ri ishlangan va uni takomillashtirish muntikin. Agar maqsadga erishilganlik darajasi past bo'lsa, demak loyihani korrrektirovka qilish (o'zgartirishlar kiritish) kerak. O'qituvchi qayerda xato qilganini bilib, xatolarini tuzatadi.

Bu dars yangi bilim berish darsining algoritmi bo'lib, uni boshqacha tarzda ham tashkil qilish mumkin.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqitiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish talab etiladi

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar berilgan bo'lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo'llarini izlash bolalarning xotirasini rivojlantirishga, fikrlashga o'rgatishini ta'kidlab o'tgan. «Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandanfanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi»<sup>615</sup>

<sup>61</sup> Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent, 1968. 106-107-b.



Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyatga boy bo'lgan ustozgina mavzuni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga mahorat bilan etkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalanadi.

O'quv informatsiyasini so'z orqali uzatish va axborotni eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo'yiladig'

O'qitishning og'zaki metodlari uch turga:

a) o'qituvchining hikoyasi;

b) suhbat;

v) maktab ma'ruzasiga bo'linadi.

Hikoya usuli boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llaniladi Ta'lim mazmuni o'quvchiga qisman tanish bo'lsa suhbat usuli qo'llaniladi. Og'zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning o'qituvchining bayon qilishi va o'quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarini diqqat bilan tinglab ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qiladi.

Hikoya maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan usul bo'lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o'qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo'ladi, sinflarning o'rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish usuli quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi:

O'qish darslarida bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri ko'rsatish orqali o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkin. Oqish darslarini tashkil etishning qanday hollarida suhbat usuli qo'llaniladig' Uni qo'yishda qanday qoidalarga amal qilish lozim?

Suhbat usuli - savol-javob usuli deb ham yuritiladi.

O'quvchilar darsga etarli darajada tayyor bo'lsa o'qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o'zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evritsik izlanish, axtarib topish harakterida bo'ladi.

O'qish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi.

Suhbatlar, ayniqsa, o'qitishning tarbiyalovchilik harakterida dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishda qo'l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda o'quvchilarning ayrim guruhlari bilan ham o'tkaziladi.

Suhbatlar orqali:

a) O'quvchilarning o'z hayotlarida uchratgan voqea, hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o'quvchilarning mustaqil fikr qilishlarini amalga oshiradigan holatlarga e'tibor qilish, o'quvchilarning ilgari o'rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim. Suhbat usuli bilan ish ko'rganda o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

O'qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o'quvchilarining hammasiga taalluqli bo'lib, so'roq o'rta tashlanishi kerak.

O'quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.



Sinfninghamma o`quvchilari javob berayotgan o`quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to`ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

O`quvchilarning javobi qay darajada to`g`ri-noto`g`ri bo`lishidan qat'i nazar o`qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

Ta'lim jarayonida turli ko`rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilamiz. Ho`sh, ushbu o`quv informatsiyasini ko`rgazmali uzatish va ko`rish orqali qabul qilish metodining ahamiyati qandayligi Ko`rgazmalilikning qanday turlari mavjud degan savollarga javob topishga harakat qilaylik.

Ko`rgazmali usulning muhimligi o`rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o`quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llay olishga o`rgatishdan iborat. Ta'limda ko`rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi. Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning harakteriga mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu harakter ikki turlidir:

Aslicha ko`rsatilishi mumkin bo`lgan buyum va narsalar:

o`simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

#### **REFERENCES**

1. Azizxo'jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo.- T.: «Moliya», 2002-yil.
3. Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Tosh- kent, 1968-yil. 106-107-b.
4. Bepalko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii – M.: «Pedagogika», 1989-yil.
5. Bepalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. – M.: 1995-yil.
6. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-184-185-b.

## THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE GAMES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES PROCESS.

**Rokhila Bafoeva**

Teacher of Asia International University

[bafoyevarohila@oxu.uz](mailto:bafoyevarohila@oxu.uz)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10005261>

**Abstract.** In recent years, the focus on the matter of the study and teaching of foreign languages has increased significantly. Nowadays, teaching any foreign language without appropriate and innovative methods, techniques, interactive activities and games is quite challenging for language learners and teachers. Implying these kinds of games during the lesson increase learners' interest and attention to learn other languages. In this article the author discussed several games which are planned to teach foreign languages for the students with different knowledge background and age.

**Keywords.** Games, methods, foreign language, activities, learners, teachers, classroom environment, knowledge background, tactics, role playing, board race, object.

## ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ИГР В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ.

**Аннотация.** В последние годы внимание к вопросу изучения и преподавания иностранных языков значительно возросло. В настоящее время преподавание любого иностранного языка без соответствующих и инновационных методов, техник, интерактивных занятий и игр является довольно сложной задачей для изучающих язык и учителей. Использование подобных игр во время урока повышает интерес и внимание обучающихся к изучению других языков. В этой статье автор рассмотрел несколько игр, которые планируется использовать для обучения иностранным языкам учащихся с разным уровнем знаний и возраста.

**Ключевые слова.** Игры, методы, иностранный язык, занятия, уроки, учителя, классная среда, фон знаний, тактика, ролевая игра, гонка за доской, предмет.

**Introduction.** Learning foreign languages has an importance role in developing period of the world. In this case, languages are taught not only in higher education institutions, schools, but also in pre-school educational institutions. If it is not taught with interesting methods and activities, but traditional methods during the class, it can be difficult to attract students to the lesson. Implying distinct methods in the lesson not only ensures the quality of the lesson, but at the same time prevents boredom and attracts passive students to participate in the lesson.

**Materials and methods.** There are a number of various interesting games in the process of teaching English and Russian. That is worth mentioning that when teaching any age level learners, it is necessary to use such games, let all students participate equally in them and get something useful from the lesson (for instance, new vocabulary can be memorized, if this process is repeated every day, the student's vocabulary increases to a higher level).

A lesson for students it is inappropriate to start with grammatical concepts, especially for students of lower grades or level. It causes boredom quickly. As a result, interest in education may fade. Even the process of greeting with them should be started in an extraordinary way, including, an English song about a kind of greeting to the class when the teacher enters starting with (mainly

a motivational method for elementary school students) method is an effective method. If the lesson continues in this way, the students do not lose their attention to the task. They even wait next English class eagerly. Of course, all this is done by the teacher who is a main organizer and it requires the pedagogue's responsibility. Some types of games can be mentioned to make learning foreign language as interesting as.

**Result and discussion.** "Role playing" activity improves the effectiveness of English and Russian language lessons. The advantage of this game is that it comes from the situation which will be played. This game is not only useful for learning science, but also it also helps to build intellectual skills. In this game, the topics are selected and students create dialogues. For example, the situational conversation of a passenger who stopped a taxi, or conversations in clothing stores, at the airport and others.

Students will act and speak in English according to their situation. In this activity, learners work with a group or a partner. Also, this help students to collaborate in different cases. Furthermore, there will be a sense of competitiveness by dividing students into groups and different topics. In this case, competition occurs. Competition is the criterion of improvement. Finally, teachers should not forget to reward students or groups who participated in this activity well. It is also appropriate to use didactic games to achieve a meaningful learning process.

"Board Race" ESL game is an exciting way to get the whole class up and out of their seat. This activity can be used with any age and level students as well as adults, based on the classroom size. Students should be aware how to pronounce the letters of alphabet. When the teacher spell the letters of a word(for instance, s-m-a-l-l), two students should come to the board with their markers or chock to write down the word spelled by the teacher. This activity can be used in order to revise the vocabulary given as homework or as a warm-up activity at the beginning part of the lesson.

"Object" ESL game serves to provide vocabulary for students. As we know, the most important direction in learning a foreign language is to learn new words. If we observe the characters of the students, each student has his own way to learn and memorize vocabularies. Learning new words through games is an appropriate way for everyone and it simplifies the process. Several objects are placed on the table in the classroom and students come and inspect these items. Items are covered and then students will write the objects which they have already seen. The student who can write many words correctly will be the winner.

**Conclusion.** In general, on the basis of learning foreign languages process should be conducted with the help of interactive games and activities in order to achieve reproductive results While using games during the lesson, teachers should choose them according to learners knowledge background and age. These games can be changed in order to make it easier or more complicated. The purpose of the mentioned games is to strengthen the students' memory, intellectual capacity, quickness, intelligence, and organize the lesson meaningfully.

## REFERENCES

1. Brandvik, M. L., & McKnight, K. S. The English Teacher's Survival Guide: Ready To-Use Techniques and Materials for Grades 7-12. Jossey-Bass. [4]
2. Sandford R, Ulicsak M, Facer K and Rudd T " Using commercial off-the-shelf computer. games in formal education." Retrived 28-10-2011 from <

- [http://www2.futurelab.org.uk/resources/documents/project\\_reports/teaching\\_with\\_games/TWG\\_report.pdf](http://www2.futurelab.org.uk/resources/documents/project_reports/teaching_with_games/TWG_report.pdf)>, 2005. [5]
3. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). LINGUISTIC AND CULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 227-230.
  4. Hayles, N. K. "Electronic Literature: New Horizons for the Literary" . Notre Dame: University 1.of Notre Dame Press, 2008. [7] Hayes, R. T. "The Effectiveness of Instructional Games". Naval Air Warfare Center, Orlando, (November 2005). [8]
  5. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING SHAKLLANISH VA O'RGANILISH MASALALARI. Научный Фокус, 1(3), 29-31.
  6. Артамонова Л.Н. Игры на уроке Английского языка и во внеклассной работы. // Английский язык, №4, 2008 – с.363. Петрова Л.В. Игровые технологии на уроках английского языка// Английский язык, №11, 2008 – с.5 : с илл. [10] Выготский Л.С. Игра и ее роль в психологическом развитии ребенка // Вопросы психологии. – 1966. – с.45
  7. Jabborova, A. (2023). WHAT IS DESIGN THINKING?. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(13). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/941>
  8. Гольшкина И.В., Ефанова. З.А. Изучаем английский играя / авт.-сост.- Волгоград: Учитель, 2007. – 128 с.
  9. Калимулина, О. В. Ролевые игры в обучении диалогической речи / О. В. Калимулина // Иностранные языки в школе. – 2003. - № 3. – С. 17-20. 9. [13] Колесникова О.А. Ролевые игры в обучении иностранным языкам. // Иностранные языки в школе. – 1989. - №4. с 73-80
  10. Jabborova, A. (2023). THE IMPACTS OF PHYSICAL CLASSROOM SPACES ON STUDENTS INVOLVEMENT HOW CAN STUDENTS ENGAGEMENT BE PROMOTED BY PHYSICAL CLASSROOM SPACES?. *Modern Science and Research*, 2(3), 115-121.

## ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA XORAZM VOHASI ETNIK TARKIBI.

**Hakimova Aziza Hikmatjon qizi**

Buxoro Davlat Universiteti Buxoro tarixi kafedrası  
Etnografiya, etnologiya, antropologiya ta'lim yo'nalishi  
1-bosqich magistranti.  
Тел:+998974883797

**Elektron manzil:**[hakimova9197@gmail.com](mailto:hakimova9197@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10005282>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadimgi Xorazm tarixini chuqur o'rgangan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasiga bevosita rahbarlik qilgan S.P.Tolstov boshchiligidagida rus elshunos olimlarning mahalliy aholi ichidagi guruhlarning hayot yo'li manbalar orqali yoritilib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, Xorazm arxeologik ekspeditsiyalari, o'zbek, turkman, qoraqalpoq, sart, xutor, ovul, ata.

## ETHNIC COMPOSITION OF KHORAZM OASIS IN ETHNOGRAPHIC RESEARCH.

**Abstract.** In this article, the way of life of the local population groups under the leadership of S.P. Tolstov, who directly led the archaeological-ethnographic expedition of Khorezm, which deeply studied the history of ancient Khorezm, was highlighted through sources.

**Key words:** Khorezm, Khorezm archaeological expeditions, Uzbek, Turkmen, Karakalpak, sart, khutor, ovul, ata.

## ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ ХОРАЗМЬСКОГО ОАЗИСА В ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ.

**Аннотация.** В данной статье через источники освещен образ жизни местных групп населения под руководством С.П. Толстова, который непосредственно руководил археолого-этнографической экспедицией Хорезма, глубоко изучавшей историю древнего Хорезма.

**Ключевые слова:** Хорезм, Хорезмские археологические экспедиции, узбек, туркмен, каракалпак, сарт, хутор, овул, ата.

Xorazm tabiiy-iqlim va tarixiy-milliy sharoitlariga ko'ra mukammal mintaqalardan biri hisoblanadi. U o'troq dehqonchilik, chorvachilik madaniyatlari o'rtasidagi doimiy madaniy va etnik aloqalar mintaqasi, murakkab etnogenez jarayonlarining juda muhim chorrahasi hisoblanadi. Bu hududni o'rganishda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasida etnografik tadqiqot guruhlarning tashkil etilishi va o'rganilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Xorazm vohasini o'rganuvchi arxeologik-etnografik guruhlarning tashkil etilishi, tadqiqot ishtirokchilarining nashrlari, monografiyalari voha tarixini o'rganishda dolzarbdir. Xorazm vohasi S.P.Tolstov fikricha, bu voha qalin klasterlardan yagona orollargacha sanoqsiz qal'a xarobalarini, qo'rg'onlarini, mustahkam mulklarini, katta shaharlarini qamrab oladi.<sup>62</sup>

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi bu turli sohalardagi tadqiqotchilarning katta jamoasidir. E'tiborli jihati, 1945-yilda ekspeditsiya Qoraqalpoq etnografik otryadi tomonidan

<sup>62</sup> Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М., 1948. –С.31

tashkil etildi, 1946-yildan so'ng shimoliy va janubiy o'zbek otryadlariga bo'lindi. Bunday maxsus guruhlariga bo'linishlar va bu birliklarga alohida rahbarlar faoliyat olib borishi voha etnogenezi chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shimoliy o'zbek tadqiqot guruhiga K.I.Zadixina rahbarligi ostida qoraqalpoqlarning Xo'jayli, Qo'ng'iro't tumanlari tadqiqotlar olib borildi. Bunga parallel ravishda janubiy o'zbek otryadiga M.V.Sazonova rahbarlik qilib, asosiy tadqiqotlari Xorazm viloyatining Xonqa, Xiva, Xazorasp va nisbatan ko'p sonli o'zbeklar yashovchi To'rtko'l tumanlari o'rganildi. G.P.Snesarev rahbarligidagi o'zbek etnografik otryadi o'z izlanishlari davomida Xiva, Xazorasp, Xonqa va qo'shni Shimoliy Turkmaniston hududlarida etnografik izlanishlar olib borishadi.<sup>63</sup>

Ushbu etnografik guruhlar o'z oldiga aholini etnografik tizimlashtirish bo'yicha so'rovnomalar olib borish, mahalliy etnik guruhlarining joylashishini aniqlash, elatlarning an'anaviy madaniyati va hayotini tavsiflovchi tarixiy-etnografik materiallar yig'ishni maqsad qo'ygan. T.A.Jdanko ta'kidlaganidek, qoraqalpoqlarning oilalari va qabilalari o'rtasida an'anaviy bog'liqlik bo'lib, bu nafaqat oilaviy munosabatlarda balki, iqtisodiy-siyosiy hayotida, joylashishi va boshqaruvida namoyon bo'ladi.

Qoraqalpoq urug' va qabilalarning ulkan va murakkab tizimi, ko'p asrlar davomida shakllangan va yangi kirib kelgan etnik guruhlarini va ularning hozirgacha saqlanib qolgan xususiyatlarini tarixiy manbalar orqali o'rganish o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etdi. Izlanishlar davomida qoraqalpoq urug'larning yashash joylari, kelib chiqishi, boshqa qabilalar bilan aloqlari, oila-nikoh munosabatlari, boshqaruv xususiyatlari, soliqqa tortish, yerdan foydalanish kabi masalalar o'rganish markaziga qo'yildi.

XX asr 50- yillarida bir yerli qoraqalpoq ovul jamoalarning tarixiy-etnografik xususiyatlari o'rganilib, yig'ilgan materiallar asosida qoraqalpoqlarning turar-joy, ta'lim, hunarmandchilik, milliy liboslari, amaliy san'at jihatlari tadqiq etildi. Alisher Doniyorov fikricha, bu vaqtda qoraqalpoqlarning asosiy ommasi uchun "xutor" tarzidagi manzilgohlar, chorvador qozoqlar uchun esa ovul tarzidagi manzilgohlar mavjud bo'lgan.<sup>64</sup>

Arxeologik-etnografik guruhlarining arxiv hujjatlari, adabiyotlar va yig'ma materiallardan to'plagan ma'lumotlari asosida qoraqalpoqlarning Amudaryo pastki oqimi va Sirdaryo hududlariga joylashishlari va Xorazm vohasi qoraqalpoqlari tadqiq etilib o'rganildi. Yig'ilgan etnik materiallar asosida o'zbek va qoraqalpoqlarning etnik tarixiga asos bo'lgan urug'lari – ashamayli, balgal, qang'li, qiyot kabi urug'lar o'rganildi. Bu etnografik izlanishlar hozirgi kungacha qoraqalpoqlar tarixi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xorazm ekspeditsiyasi etnografik tadqiqotining muhim jihatlardan biri Xorazm vohasi o'zbeklarini o'rganilishi bo'ldi. Tadqiqotchilar Amudaryo quyi oqimidagi o'zbeklarni kelib chiqishi, etnik ko'rinishi turlicha bo'lganligi sababli ularni shartli ravishda shimoliy va janubiy o'zbek guruhlariga bo'lishdi. Shimoliy o'zbeklar haqida to'xtaladigan bo'lsak, ular dashtiqipchoq o'zbeklari deb nomlanib, qoraqalpoq va qozoqlarga yaqin elat bo'lgan. Ular o'zlarini ko'chmanchi turkiyzabon qabilalar avlodi sifatida bilib, Orolbo'yi va quyi Sirdaryo bo'ylarida yashagan.

<sup>63</sup> Курбанова З. И. Этнографические отряды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Приаралье на Перекрестке культур. –Самарканд., 2013. –С. 74

<sup>64</sup> Дониоров.А. Хоразм археология-этнография экспедицияси Узбекистон этнография фанида. –Т.,2007. – Б.57



Xorazm ekspeditsiyasi etnografik jamoasi o'z izlanishlari davomida Qo'ng'iroq va Qipchoq tumanlari etnik xaritasini tuzib, katta bo'lmagan va ixcham qabilaviy urug'larini belgilashdi va shu asnosida ularning qo'shni qozoq, qoraqalpoq, turkmanlar bilan aloqalari o'rganildi. K.L.Zadixina fikricha, Xorazm vohasi o'zbeklarning qabilaviy tuzulishini tahlil qilish ko'plab urug'-aymoq guruhlari va ular o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni ochib berdi. Yaqin vaqtgacha qangli va qipchoqlar bilan Xorazm vohasi o'zbeklari o'rtasida sovchilik va nikoh munosabatlari saqlanib qolgan.

Bularga aks ravishda janubiy o'zbeklar kelib chiqishi va etnik tarixi bo'yicha shimoliy o'zbeklardan ancha farq qilib, ular sart o'zbeklari deb atalgan.<sup>65</sup> Ular Xorazm vohasining markaziy va janubiy tumanlarini egallagan bo'lib, qadimiy Xorazm sivilizatsiyasida asos bo'lishgan. Ularda qabilaviy bo'linish yo'q bo'lib, voha muqim aholisi sanalib, asrlar davomida ajdodlardan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi, shaharlashgan an'analar, hunarmandchilik va savdoni meros qilishgan.

G.P.Snesarev boshchiligidagi o'zbek etnik tadqiqot guruhi Xorazm o'zbeklarining diniy e'tiqodlarini, Islomgacha bo'lgan yodgorliklarni, marosimlarini o'rganib, Qoraqalpog'iston va Xorazm hududidagi mozorlar, manzilgohlar kelib chiqish tarixi va etnik xususiyatlarini o'rganishgan.<sup>66</sup>

Turkman etnografik tadqiqot guruhi turkmanlarning etnik tuzulishi, qabila urug'lari, haqida materiallarini yig'ishni boshlashdi. To'plangan materiallar turkman madaniyati, turar-joylar tiplari, kiyim-kechaklari, gilamchiligi va ularning bezalishi haqida ma'lumotlar beradi. Bular nafaqat turkmanlarning madaniyati haqida balki, ularning iomudov, emrel, choudor, qoratosh, goklen qabilaviy guruhlari haqida etnografik ma'lumotlar beradi. Statsionar o'rganishlar davomida turkmanlarning qabilaviy bo'linmalari "ata"laning o'rganilgan.<sup>67</sup> Ushbu arxeologik-etnografik tadqiqotlar turkmanlarning moddiy-madaniy hayotini – uy, bezatish, kiyim-kechak, ovqat, hunarmandchilik sohalarini o'rgangan.

Demak, yuqoridagi etnografik guruhlar, nafaqat ma'lumotlar yig'ish bilan shug'ullandi, balki Xorazm vohasi xalqlari etnik izlanishlarida va ilmiy qiziqishlar doirasini kengaytirishga chaqirdi, balki umumiy nazariy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator muammolarga javob topildi. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiya doirasida etnografik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda etnograflar moddiy va ma'naviy madaniyatning tarkibiy elementlarini, ta'bir joiz bo'lsa, uni ichdan o'rganish yo'li bilan tadqiq qilinayotgan muammolar mohiyatiga kirishga harakat qilindi.

Ushbu etnograflar yaratgan asarlaridagi xulosalar nafaqat Xorazm mintaqasi xalqlari balki jahon tarixi jarayonlarini va etnografiyasini anglashda muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotlarning etnik jihati barcha ushbu davrlar uchun juda muhim va mufassal deb tan olingan. Bu an'anaviy yo'nalish ekspeditsiyaning hozirgi vaqtdagi tadqiqotlarida ham saqlanib qolgan. Ekspeditsiyaning

<sup>65</sup> Задыхина К. Л. Узбеки дельты Амударьи // -М., 1952. –С.65

<sup>66</sup> Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. -М.1969

<sup>67</sup> Курбанова З. И. Этнографические отряды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Приаралье на Перекрестке культур. –Самарканд., 2013. –С. 78

keng ko'lamdagi etnografik tadqiqotlari ham tarixiy etnografiya muammolarini, ham zamonaviy jarayonlarini o'z ichiga qamragan.

#### REFERENCES

1. Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М., 1948.
2. Курбанова З. И. Этнографические отряды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Приаралье на Перекрестке культур Самарканд. 2013.
3. Дониеров.А. Хоразм археология-этнография экспедицияси Узбекистон этнография фанида. –Т.,2007.
4. Задыхина К. Л. Узбеки дельты Амударьи // -М., 1952
5. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. -М. 1969

## SAID MUHAMMAD NOSIRNING "TADQIQOTI ARKI BUXORO" ASARINING BUXORO TARIXINI O'RGANISHDAGI ROLI

**Xodjayev Bekzod Baxodirovich.**

Buxoro davlat universiteti Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy  
tadqiqot usullari yo'nalishi 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10009385>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Said Muhammad Nosirning "Tadqiqoti arki Buxoro" asarining Buxoro tarixini o'rganishdagi ro'li va ahamiyati haqida so'z boradi. Maqola davomida asoli fikr va mulohazalardan foydalanilgan.

*Kalit so'zlar:* Said Muhammad Nosir, Buxoro tarixi, barcha xalqlar o'tmishi.

## THE ROLE OF SAID MUHAMMAD NASIR'S "RESEARCH ON BUKHARA" IN STUDYING THE HISTORY OF BUKHARA

*Abstract.* This article talks about the role and importance of Said Muhammad Nasir's work "The study of the arch of Bukhara" in the study of the history of Bukhara. Reasonable opinions and comments are used throughout the article.

*Key words:* Said Muhammad Nasir, history of Bukhara, past of all nations.

## РОЛЬ «ИССЛЕДОВАНИЯ О БУХАРЕ» САИДА МУХАММАДА НАСИРА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ БУХАРЫ

*Аннотация.* В данной статье говорится о роли и значении труда Саида Мухаммада Насира «Исследование арки Бухары» в изучении истории Бухары. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и комментарии.

*Ключевые слова:* Саид Мухаммад Насир, история Бухары, прошлое всех народов.

Buxoro O'zbekistonnig qadimiy madaniy maskanlaridan biri. Uning tarixi, madaniyati O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlar o'tmishining bir bo'lagi hisoblanadi. Alohida olingan bir qadimiy hudud o'tmishini O'zbekiston tarixi doirasida maxsus o'rganish O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018-yil fevralda Buxoro viloyatiga tashrifi Buxoro tarixini maxsus o'qitish borasidagi masalaning ijobiy yechim topishiga yo'l ochdi. Prezidentimiz tomonidan Buxoro davlat universiteti huzurida Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishini ochish to'g'risida berilgan topshiriqqa binoan 2018-2019 o'quv yilida Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishi tashkil etilib, hozirgi paytda unda talabalar tahsil olmoqda.

O'qitilayotgan va o'qitilishi mo'ljallanayotgan maxsus fanlar Buxoro tarixining barcha masalalarini qamrab oladi, chunki yo'nalishning asosiy maqsadi Buxoro tarixi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash. Shuningdek, ushbu yo'nalish gidlar tayyorlash yoki gidlikka yo'naltirish, ularga me'moriy obidalar bo'ylab ekskursiya o'tkazish metodologiyasini o'rgatish vazifasini ham o'z zimmasiga oladi. Zero, me'moriy obida to'g'risida ma'lumot berayotganda obidaning qurilish davridagi ijtimoiy-siyosiy ahvol uning qaysi hukmdor davrida bunyod etilganligi va davrning o'ziga xos jihatlari masalasiga e'tibor qaratish lozim.

Buxoro vohasining qadimgi davr tarixini o'rganishda hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ahamiyati beqiyos. Vohadagi Poykent, Varaxsha yodgorliklarini arxeologik o'rganish XX asr birinchi yarmida boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. L.A.Zimin, V.A.Shishkin, A.R.Muhammadjonov, J.Mirzaahmedov kabi olimlar tomonidan olib borilgan

arxeologik tadqiqotlar natijasida yodgorliklarning voha ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida egallagan salmoqli o'zni aniqlanib, to'plangan ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etildi. Shuningdek, bronza davriga oid Zamonbobo yodgorligi Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasining a'zolari Yahyo G'ulomov va Ahmadali Askarov tarafidan o'rganilib, Buxoro vohasining janubiy-g'arbiy qismida ibtidoiy madaniyat izlari mavjudligi aniqlandi. Qo'lga kiritilgan ushbu ilmiy yutuqlarning talabalar diqqatiga havola etilishi, ularning qadimgi mahalliy madaniyat to'g'risidagi bilim va tasavvurlarini kengaytiradi.

Buxoro shahrini yoshini aniqlash borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar hason o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Vohada ilk shaharlarning vujudga kelishi tabiiy iqlim sharoitlari, geografik joylashuv va asosiysi Zarafshon daryosining ahamiyati bilan belgilanadi. Zarafshon daryosining Xitfar, Rudizar, Qorako'ldaryo, Moxondaryo kabi irmoqlari Buxoro vohasida o'troq dehqonchilik va urbanizatsiya jarayonlarining keng yoyilishida muhim o'rin tutgan. Akademik V.V.Bartold ta'biri bilan aytganda, Buxoro shahri dastlabki paydo bo'lgan hududini o'zgartirmasdan, hamon o'sha joyda qad ko'tarib turibdi.

Сурхон воҳаси аҳолисининг анъанавий турмуш тарзига эътибор берганда шуни кўрамызки, воҳанинг ярим ўтроқ чорвадор аҳолисининг уй-жойлари асосан қора уй (ўтов)лардан иборат бўлган. Улар тол новдаларидан қилиниб, уйнинг асоси керага, увуқ ва чанғароқдан иборат бўлган. *Керага* - уйнинг суяги ҳисобланиб, битта қора уйда 4 та керага бўлган ва тўртталаси бирлаштирилиб айлантирилганда қора уйнинг айлана панжара қисми ҳосил бўлган<sup>94</sup>. Маҳмуд Қошғарий эса - *керагу* деб чодирни ўзини атайди. Масалан,

<sup>87</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 253-бет.

<sup>88</sup> Беруний Абу Райҳон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар // Танланган асарлар. – Тошкент, 1968. I-том, 281-бет; Шониёзов К. Беруний асарларида этнографияга оид материаллар // Беруний ва ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1973, 132-бет; Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы. // Древние обряды верования и культы народов Средней Азии. М., 1986, стр. 151.

<sup>89</sup> Маҳмудов К. Мехмоннома. – Тошкент, 1989, 90-бет.

<sup>90</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 249-бет.

<sup>91</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 98-бет.

<sup>92</sup> Рахимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. Тошкент, 1985, 19-бет.

<sup>93</sup> Рахимов С. Ўша асар, 13-бет.

<sup>94</sup> Кичкилов Ҳ., Боқиев А. Ўзбек қўнғиротларининг ўтовлари ва уларнинг жиҳозланиши. «Жайхун» журнали. Термиз, 2005. № 1, 38-бет.



*керагуланди* - қадимий туркий тилда ўзига чодир тикди, деган маънони англатади<sup>95</sup>. Балки, ўтов керагаси - *керагу* сўзи, яъни чодир маъносидан келиб чиққандир. Ваҳоланки, ўтов ҳам, чодир ҳам кўчманчи чорвадорларнинг уй-жойлари бўлиб, шакли, қурилиши ўзгарса-да, иккаласидан ҳам бир маъно касб этади.

Халқ орасида, айниқса, қарияларнинг суҳбатига кулоқ солсангиз, бирор узоқроқ жойга бормоқчи бўлишса, *кўлик* борми, дейишади. Бу билан улар техникани, яъни, автомобилни назарда тутишади. Девонда ҳам *кўлук* сўзи учрайди ва юк ортиш мумкин бўлган ҳайвон орқаси маъносида келади<sup>96</sup>. Иккала мисолдан ҳам бир хил маънони англаш мумкин, яъни иккаласи ҳам юк ташувчи восита сифатида келаяпти.

Яна бир мисол, аҳоли орасида *кўнди*, *кўникди*, *кўникмоқ* сўзлари инсоннинг мавжуд шароитга мослашиб, кўникиб кетганлигини ёки бирор кишининг илтимосига қўнганлигини билдиради. Бу сўзнинг туб илдизига қарайдиган бўлсак, *кўникти* сўзи - *чарчади* маъносини берар экан<sup>97</sup>. Бунга мантиқан ёндашадиган бўлсак, албатта, ўша шароитдан чарчаган инсоннинг кўникишдан бошқа иложи қолмайди. Демак, кўникиш сўзининг ўзак маъноси «чарчаш» сўзидан келиб чиққан экан.

Бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин. Масалан, ҳозирги кунда моддий маданиятнинг ҳамма соҳаси бўйича кўрғазмалар ташкил этилиб, унда санъат ва хунармандчилик турлари (тасвирий санъат, ҳайкалтарошлик, ёғоч ўймакорлиги, каштачилик, ва бошқ.)нинг энг сара намуналари намойиш этилади, яъни кўрсатилади. Қадимда эса *кўрғазма* - *чиройли* деган маънони англатиб, Маҳмуд Қошғарийнинг Индекс-луғатида *кўрғазти* дегани *чиройли бўлди* маъносида келар экан<sup>98</sup>.

*Тун* сўзининг - «тун, кеча, кечкурун» маъноларини англатишини биламиз ва инсон тун давомида чарчоқларини чиқариб дам олади, ухлайди, тинчланади. Аслида эса, *тун* – *тинчланиши* маъносини англатар экан<sup>99</sup>.

Ёки, яна бир мисол, *бола* маъноси жуда кўп маънода келади. Жумладан, инсон боласи, ёш ўғил бола, ёш болалар, хуллас, инсон фарзанди. Шунингдек, жониворлар боласи: туя боласи- бўталок, от боласи- тойчоқ, қўй боласи - қўзичоқ, товуқ боласи - жўжа, қуш боласи - полапон ва ҳ.к. Қадимги туркий тилга эътибор қаратадиган бўлсак, *бала* – *қуш боласи* маъносини бериб, *балалади* – *бола очиб чиқди*, деган маънони англатган<sup>100</sup>. Яъни, қуш боласидан - *бола* сўзи келиб чиқиб, инсонларга нисбатан ҳам қўлланадиган кўп маъноли сўзга айланган. Балки, кейинчалик, *бола* сўзи ўзгаришга учраб қуш боласига нисбатан қўлланиладиган полапонга айлангандир.

Шунингдек, «жигар» сўзи туркий халқларда *багир* деб аталиб, *багирсади*—«жигар тусади», деган маънони билдирган<sup>101</sup>. Бу атама Сурхондарё шеvasида *бавыр*, *багыр*; ўзбек адабий орфографиясида *багир*; туркманчада *багыр*; козоқчада *бауыр*; қирғизчада *боор*; озарбайжончада *багыр*; татарчада *баур*; туркчада *багыр* деб аталиб<sup>102</sup>, ўз навбатида кўчма

<sup>95</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 155-бет.

<sup>96</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 167-бет.

<sup>97</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 168-бет.

<sup>98</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 169-бет.

<sup>99</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 183-бет.

<sup>100</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 54-бет.

<sup>101</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 61-бет.

<sup>102</sup> Рахимов С. Ўша асар, 86-бет.



маънода ҳам келган. Жумладан, *бэдук бағирлиғ – бағри бутун, бағирлиғ эр – шижоатли одам, бағирсақ - хушмомалали, ёқимли киши* деган маъноларни англатган<sup>103</sup>. Демак, бу сўзлар ўз ва кўчма маъноларда келсада, бир сўздан, яъни ўзаги бир – «бағир»дан келиб чиққан.

Ўзбекистоннинг шимолий ҳудудлари бўлган Хоразм ва Қорақалпоғистонга борсангиз, сабзавотлардан бири ҳисобланган сабзини *гешир* деб атаганларини эшитасиз. Қадимда эса, сабзавотлардан турпни *кешур* деб атаганлар<sup>104</sup>. Албатта, бунда атаманинг бир сабзавотдан иккинчи сабзавотга кўчганлиги кўриниб турибди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки: бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин. Ҳозирги замон тилларининг ўзаро муносабатлари ва ўхшашлик томонларини чуқур ўрганиш асосида турли халқларнинг тарихан бир-бири билан алоқадор ва ўзаро боғлиқ эканлигини билиб олиш мумкин. Бу ҳол оилавий тиллар, шунингдек, халқларнинг келиб чиқишида муштарак умумий боғланиш мавжудлигини англатади. Қадимий Шарқ халқлари маданий меросининг илдизлари узоқ асрларга бориб тақалади. Улар фақат ўзи вужудга келган заминга оид бўлибгина қолмай, умумбашарий маданият ва тафаккурнинг маҳсуллари дир. Шу жиҳатдан олганда, Маҳмуд Қошғарийнинг «Девону луғотит турк» комусий асари халқларнинг тилини ва этник тарихини ўрганишда муҳим манба бўлиб хизмат қилади ва маънавиятимиз тарихини чуқурроқ билишда ўзига хос ўрин тутади.

#### REFERENCES

1. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. Ғ.Абдурахмонов ва С.Муталибов иштироки ва таҳрири остида. Тошкент, 1967.
2. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Тошкент, 1968.
3. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1988.
4. Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган? Тошкент, 1989.
5. Турсунов С. Шеробод тарихидан лавҳалар. Денов, 1993
6. Турсунов Н. Сурхон воҳаси тоқчилари этник тарихидан // «Турон тарихи», Тошкент, 2008-йил, II қисм, 27-29 бетлар.
7. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
8. AN'ANAVIY, S. V. T. Q., & TARZI, T. (2023). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
9. AN'ANAVIY, S. V. T. Q., & TARZI, T. (2023). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
10. Dulanov, O. Y. (2021). Ethnic history of the area where hundreds (zhuzes) are located in the surkhandarya oasis. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 910-913.
11. Dulanov, O. (2023). TYPES OF FARMING OF HUNDREDS (JUZ) INHABITING THE SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 161-165.

<sup>103</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 62-бет.

<sup>104</sup> Девону луғотит турк. Индекс-луғат, 160-бет.

12. Yuldashevich, D. O. (2023). SURXON VOHASIDA YASHOVCHI YUZ (JUZ) LARNING AN'ANAVIY CHORVACHILIGIDA QO'YCHILIKNING ANAMIYATI. *Conferencea*, 65-69.
13. Yuldashevich, D. O. (2023). YUZ (JUZ) LAR HUNARMANDCHILIGINING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY JIHATLARI. *Conferencea*, 60-64.
14. Дуланов, О. Ю. (2021). СУРХОН ВОҲАСИ ЖУЗЛАРИНИНГ АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-3).
15. Холмуминов, Х. Э., & Эшмуминов, О. З. (2022). ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.). *Бюллетень науки и практики*, 8(1), 286-289.
16. ХОЛМУМИНОВ, Х. Э., & ЭШМУМИНОВ, О. З. (2022). ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.). *БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ* Учредители: Овечкина Елена Сергеевна, 8(1), 286-289.
17. Холмуминов, Х. Э., & Эшмуминов, О. З. ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.).
18. Raimov, M. (2023). A NEW ERA IN THE STUDY OF TERM HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(9), 146-151.
19. Radjabova, S. (2023). STATE POLICY TO SUPPORT WOMEN (FIRST STEPS). *Modern Science and Research*, 2(6), 49-52.
20. Radjabova, S. (2023). ACTIVITIES OF WOMEN IN THE CULTURAL LIFE OF SURKHANDARYA REGION. *Modern Science and Research*, 2(6), 53-55.
21. Choriyev, S. H. (2023). CULTURAL LIFE IN SURKHANDARYA IN THE YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR. *Modern Science and Research*, 2(9), 283-286.
22. Qarshiyev, I. (2023). CLOTHES ARE A MATERIAL SOURCE THAT SPEAKS OF THE PAST. *Modern Science and Research*, 2(4), 741-745.
23. Qarshiyev, I. (2022). SURXON-SHEROBOD VOHASI QO 'NG 'IROT LARINING KIYIM-KECHAKLARI VA ETNIK XUSUSIYATLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 529-535.
24. Махмаралим о'ғ'ли, Q. I. (2023). SURXON-SHEROBOD VOHASI QO 'NG 'IROT LARNING MODDIY MADANIYATIDA YUZ BERGAN O 'ZGARISHLAR. *Conferencea*, 37-41.
25. Махмаралим о'ғ'ли, Q. I. (2023). QO 'NG 'IROT LARNING MODDIY MADANIYATIDA TRANSFORMATSIYON JARAYONLAR. *Conferencea*, 33-36.
26. Махмаралим о'ғ'ли, Q. I. (2023). KIYIM-KECHAKLAR–O 'TMISHDAN SO'ZLOVCHI MODDIY MANBA.

## БУХОРО АМИРЛИГИ ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ ҲУДУДИ ШАҲАРЛАРИНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ

Саидусмон Саидахмадович Шаропов.

ТерДУ Тарих факультети,

Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10015383>

**Аннотация.** Мақолада XIX аср охири XX бошларида Бухоро амирлиги таркибида бўлган Сурхон ва Қашқадарё воҳаси шаҳарларининг ривожиди муҳим аҳамият касб этган соҳалар ва уларни амалга оширишдаги зиддиятли ҳодисалар аниқ мисоллар билан кўрсатиб берилган.

**Калим сўзлар:** Шаҳар, урбанизация, Шеробод, Шаҳрисабз, Ғузур, европалик тадқиқотчилар, совет иттифоқи тадқиқотчилари, ишлаб чиқариш марказлари, савдо, иқтисодий ўсиш, маъмурий бошқарув, квази шаҳар, аҳоли ўсиши.

## SOME FEATURES OF THE CITIES OF THE SOUTHEASTERN TERRITORY OF THE EMIRATE OF BUKHARA

**Abstract.** The article shows with clear examples the areas that were important in the development of the cities of Surkhan and Kashkadarya Oasis, which were part of the emirate of Bukhara at the end of the XIX century at the beginning of the XX, and the contradictory phenomena in their implementation.

**Key words:** City, urbanization, Sherabad, Shahrisabz, Guzar, European researchers, researchers of the Soviet Union, production centers, trade, economic growth, administrative management, quasi-city, population growth.

## НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ГОРОДОВ ЮГО-ВОСТОЧНОЙ ТЕРРИТОРИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

**Аннотация.** В статье наглядно на примерах показаны отрасли, которые сыграли важную роль в развитии городов-оазисов Сурхан и Кашкадарья, входивших в состав Бухарского эмирата в конце XIX-начале XX века, и противоречивые явления в их реализации.

**Ключевые слова:** город, урбанизация, Шерабад, Шахрисабз, Гузар, европейские исследователи, советские исследователи, производственные центры, торговля, экономический рост, административное управление, квазигород, рост населения.

Жамият тараққиёти тарихининг турли даврларида шаҳар ҳал қилувчи ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий аҳамиятга эга бўлди. Урбанистик жараёнлар тараққиётининг ўзига хос қонуниятларига аниқлик киритиш зарурати илк шаҳарлар тарихини ҳозирги кунда ҳар томонлама ўрганишни тақозо этмоқда. Бу ўринда турли йўналишдаги тадқиқотларни умумлаштириш (табiiй-географик, иқтисодий, социологик, демографик ва бошқ.), айниқса муҳимдир. Шу билан биргаликда шаҳарлар тараққиёти ва уларнинг бошқаруви тартибидаги қонуниятларини англаб етиш ҳам масаланинг ижобий ҳал этилиши учун катта аҳамиятга эга.

Олиб борилган тадқиқотлардан маълумки, шаҳарлар кўп қиррали ижтимоий алоқаларнинг мураккаб тартибидир. Шаҳарларнинг ривожланиш жараёнида улар

вазифаларининг айрим томонлари ўзгариб турган бўлишига қарамай, кўпгина жиҳатлари (аҳоли зич жойлашган ҳудуд, хунармандчилик ва савдо маркази) ўзгармасдан қолади.

Шу нарсага эътибор бериш лозимки, илк шаҳарларнинг ҳудудий жойлашуви, уларнинг даврий доирасини аниқлаш, “шаҳар” тушунчасини илмий-услубий изоҳлаш масалалари анча мураккаб ҳисобланади. Чунки тадқиқотчилар орасида баъзи тарихий-маданий жамоалар тарқалган ҳудуд, уларнинг ривожланиши ва ижтимоий тузуми масалаларига ҳамда айнан шу масалалардан келиб чиқиб, “шаҳар” тушунчасини ҳар томонлама изоҳлаш ва таъриф бериш борасидаги ягона фикр йўқ, ёки ягона концепция ишлаб чиқилмаган.

Бу ҳолат Ўрта Осиё ҳудудларидаги урбанизация жараёнларининг ривожланиш қонунлари билан боғлиқ бўлган муаммоларга аниқлик киритишни янада қийинлаштирди. Ундан ташқари, Ўрта Осиё ҳудудларида бўлиб ўтган тарихий-маданий жараёнлар бир хил хусусиятга эга бўлмасдан, ривожланиш нуқтаи назаридан цивилизациянинг турли босқичларида бўлганлиги билан фарқланади.

Аввало шунга эътибор бериш лозимки, тарихий-илмий ва социологик адабиётларда кўплаб учрайдиган “урбанизация” (“шаҳарлашиш, “шаҳарларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши” ёки “шаҳарсозлик маданияти”) тушунчасининг моҳият ва мазмунини тадқиқотчилар турли талқин этадилар ҳамда бу борада улар орасида аниқ фикрга келиниб, ягона концепция яратилмаган. Ушбу йўналиш бўйича тадқиқотчилар олиб борган мутахассисларни шартли ҳолда қуйидаги гуруҳларга бўлишимиз мумкин:

- Европалик тадқиқотчилар, улар ўз илмий қарашлари ва хулосаларида урбанизациянинг жамият тараққиётида асосий ўринда туришини алоҳида таъкидлаган ҳолда, қишлоқлар ва шаҳар атрофларининг ҳам шаҳар қулайликларидан кенг фойланишини эътироф этадилар:

- Совет иттифоқи даври тадқиқотчилари. Улар бу йўналишдаги тадқиқотларга турли ҳудудларда шаҳарларнинг пайдо бўлиши ҳамда шаҳарлар сонининг ортиб бориши ва демографик (аҳоли сонининг ўсиши) жараёнларни асосий мезон қилиб олганлар;

- Ушбу гуруҳдаги тоифага кирувчи тадқиқотчилар ўз илмий ишларига миграция (маълум ҳудуд аҳолисининг шаҳарларга кўчиши ва орқага қайтиши) жараёнларини асос қилиб олишган.

Турли тармоқлар марказлашган ҳудуд сифатида шаҳарларнинг аҳамияти аввало, зич қурилган иншоотлар ва маҳобатли меъморчиликнинг ривожланиши билан изоҳланадиган шаклий хусусиятларда ўз аксини топади. Чунки маълум ҳудудни ёки манзилгоҳни (қишлоқни) шаҳар сифатида изоҳлашда ташқи миқдорий кўрсаткичлар билан бирга ички сифатий ва тузилишига оид ўзгаришлар ҳам ниҳоятда муҳимдир.

Айрим тадқиқотчиларнинг фикрича, шаҳар эркин аҳолининг ижтимоий ташкилот шакли сифатида ўзининг ички ва ташқи ишларида мустақил ҳокимиятни у ёки бу даражада амалга оширадиган фуқаролар жамоасини ўзида акс эттиради. Ижтимоий уюшма сифатида шаҳар ҳокимият органларининг маълум тартибига эга бўлади. Шаҳар уюшмаси учун мустақамланган марказ ва марказдан четда бўлиб унга бўйсунувчи фуқароларнинг турли иншоотларидан иборат турар-жойлари мавжудлиги ҳам хосдир. Шаҳар кўшни

жамоаларидан пайдо бўлади ва ривожланади.<sup>105</sup> Фикримизча, шаҳарларнинг қўшни жамоалардан фарқи шундаки, у ўзига хос бўлган хусусиятларни ҳам ўзида мужассамлаштиради.

Ўз хусусиятига кўра “шаҳар” ни таърифлаш мумкин. Шаҳарлар учун фақат бир нарса-улар бир-бирига туташ манзилгоҳларни, аҳоли яшаш худудини, бир ёки бир нечта алоҳида жойлашган турар-жойларни ўзида акс эттириши умумийдир. Одатда, “шаҳар” дейилганда, бу атамадан бошқа яна бир миқдорий белги-шаҳар катта манзилгоҳ эканлиги ҳам назарда тутилади.<sup>106</sup> Бизнингча, ушбу атама ўз маъносига деярли мос тушади. Хусусан, Ўрта Осиё, умуман дунё тарихидаги энг қадимги шаҳарларнинг шаклланиши ва ривожланишини қиёсий таҳлил этганимизда ушбу фикрнинг тўғрилиги аён бўлади.

Социологик нуқтаи назардан “шаҳар” бир-бирига туташ уйлардан иборат аҳоли зич жойлашуви турар-жойлари сифатида изоҳланади. Бундай таърифдан сўнг катта қишлоқларни “шаҳарлар” деб ҳисоблаш билан кифояланиш ҳам мумкин. Аммо, фикримизча, ушбу таърифнинг қанчалик ҳақиқатга яқин эканлиги ва объективлиги умумий тарихий маданий шарт-шароитлар билан боғлиқдир.

“Шаҳар” тушунчасини турли тадқиқотлар асосида таҳлил этиб талқин қилар эканмиз, шунга алоҳида эътибор бериш лозим бўладики, бу тартибда асосий белги шаҳарнинг ўзи ҳисобланади. Ушбу йўналишда “шаҳар” тушунчасини ҳар томонлама изоҳлаш ниҳоятда муҳимдир. Демак, бу борадаги тадқиқотчилар қарашларини қиёслаймиз. В.М.Массон умумий ва кўпчиликка маълум ушбу изоҳга йирик марказ тушунчасини ҳам қўшиш лозим<sup>107</sup> деган фикрни билдиради.

Демак, тузилиш-вазифавий таҳлил сифатида изоҳланиши мумкинки, шаҳарлар ягона бир бутун тизим сифатида изоҳланиши мумкинки, бунда асосий белгилар (режа, ўлчам, ишлаб чиқариш марказлари, меъморий иншоотлар, шаҳар маданияти ва бошқ.) бир-бирига муносабат нуқтаи назаридан ташқи объектларини эмас, балки шу муносабатлар туфайли бутунлай янги сифат оладиган мазкур тузумнинг ўзаро боғлиқ қисмини ўзида акс эттиради.

Шаҳар тушунчасини англаш ва уни ишлаб чиқишдаги илмий-услубий ёндашувлар ҳақида гап кетар экан, айрим тадқиқотчилар мил. авв. III-минг йиллик қадимги Шумер мисолида шаҳар-давлатлар шакллари аниқловчи айрим белгиларни ажратганлар. Булар унчалик катта бўлмаган худуд, бир худудий жамоа ёки бир-бири билан узвий алоқада бўлган жамоа чегарасида жойлашув, табиий чегаралар: тоғлар, атроф воҳалар, даштлар, суғориш каналлари ўраб турган кенгликлар, бош худо ибодатхонаси ва унинг атрофида маъмурий хўжалик ҳамда хунармандлар устахоналари жойлашган марказлар, бу худудни ўраб турган деворлардир. Фикримизча, ушбу концепция “илк шаҳар” тушунчасининг кўпгина жиҳатларини ўзида мужассамлаштиради ва бу жараёни изоҳлаш учун кенг имкониятлар яратади.

Илк шаҳар турлари, тузилиши ва хусусиятлари билан шуғулланаётган айрим тадқиқотчиларнинг сўнгги йиллардаги ишларида “кфази шаҳар” (“квази город”) тушунчаси

<sup>105</sup>Шифман И.Ш. Развитие городской организации в древнем переднеазиатском Среднеземноморье|| Древние города. Материалы всесоюзной конференции. - Пенджикент, 1977. С. 31-32.

<sup>106</sup>Вебер М. Избранное. Образ. общество. Гл. III. Город. - М., 1994. С. 310.

<sup>107</sup>Массон В.М. Страна тысячи городов. - М., 1996. С. 6.



пайдобўлди.<sup>108</sup> Тадқиқотчиларнинг изоҳ беришича, “квази шаҳар” нинг шаҳармонанд (“протогород”) манзилгоҳдан фарқи шундаки, у автоном ва аграр хусусиятга эга бўлиб, атрофида қишлоқ манзилгоҳлари бўлмайди.<sup>109</sup> Бу тушунча фанда кенг тарқалган бўлмасадда, айрим тадқиқотчилар унга ўз муносабатларини билдирганлар.<sup>110</sup>

“Шаҳар” тушунчасини изоҳлаётган пайтимизда изоҳланаётган шаҳар қайси даврга оид эканлиги ниҳоятда муҳимдир. Чунки, дастлабки шаҳарлар, антик ёки ўрта шаҳарлари тузилиши ва бажарган вазифаси нуктаи назаридан бир хил бўлмаслиги мумкин. Айрим тадқиқотчиларнинг фикрича, қадимги манзилгоҳларни ўрганишда гектарларда акс этадиган ҳудудий (ёки ўлчовга оид) ёндашув “шаҳар” тушунчасини ифодалаш учун унчалик ҳам ишончли эмас. Аммо, бу ёндашувни бутунлай инкор этиб ҳам бўлмайди. Бу ҳолатларни ўрганиш жараёнида кузатиш мумкин.

Маъмурий-ҳудудий бошқарув тизимда маъмурий бошқарув билан шаҳар бошқаруви тўлиқ, аниқ тизимга солинмаган эди. Шаҳар билан марказий бошқарув ўртасидаги масофа йўл ҳаракати, алоқа воситаси, унга хизмат қилувчи ходимлар давлат томонидан қонун нуктаи назаридан ҳимоя қилиниши, хизмат бурчларини тайинлаш ҳамда иш ҳақи қонуний тизимга туширилган эмас эди.

Маъмурий ҳудудий бошқарувда шаҳарларнинг аниқ карто- географияси, шаҳарнинг иқтисодий тараққиётини белгиловчи режалар, аниқ тизимга солинган ободонлаштириш, иқтисодий, ижтимоий, маънавий ҳамда маъмурий бошқарувнинг соҳаларини назорат қилувчи тизимлар қатъий тарзда бир-бирига боғланмаган эди. Шунингдек, шаҳарнинг келажаги, унинг иқтисодий тараққиётини белгиловчи омиллар, аниқ белгиланган иқтисодий хўжалик тизимини ривожлантиришга оид маблағлар сарфлаш ҳақида Бухоро амирлиги маъмурий ҳудудий бошқарувнинг назорат бошқармаси, таҳлил қилувчи ҳамда тафтиш қилувчи тизимлар бўйича билим даражаси юқори бўлган савияли мутахассислар йўқ эди.<sup>111</sup>

Юқорида қайд этилган махсус шаҳар бошқарув тизимини назорат қилувчи ҳокимлик, инструктор лавозимлари бу вазифанинг масъулиятини аниқловчи низомлар Бухоро амирлигида ишлаб чиқилмаган эди. Энг асосийси майда маъмурий бирликлардаги Кент ва аҳоли марказлари ҳақида аниқ ишлаб чиқилган хариталар йўқ. Шунингдек, уни бир-бири билан боғлайдиган йўл, сув ва мудофаа тармоқлари шакллантирилмаган эди. Шунингдек, шаҳар маъмурияти лавозимида бўлган инструкторларни бир жойдан иккинчи жойга кўчириш ёки улар ёрдамида текширувлар ҳақида зарур бўлган маблағлар тўлиқ ажратилмаган эди.

Айниқса шаҳарларда саноат тармоқларини ривожлантириш, қайта саноат маҳсулотларини ишлаб чиқишга боғлиқ бўлган корхоналарни қуриш, уни моддий маблағ билан таъминлаш масаласида амалий натижалар йўқ эди. Маъмурий-ҳудудий бошқарув тўғридан тўғри Бухоро амирининг кўрсатмаси ҳамда асосиз топшириғи билан амалга оширилар эди.

<sup>108</sup> Андреев Ю.В. Ранние формы урбанизации ВДИ, 1987, №1. С. 3-19; Ўша муаллиф. Дворец «город» на Крите ва II тыс до. н.э. СА. 1988. № 4. С. 37-52.

<sup>109</sup> Андреев Ю.В. Ранние формы. С. 8.

<sup>110</sup> Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. - Т., 2000. С. 15-16.

<sup>111</sup> Территория и население Бухары и Хорезма. Стр-4.



Қарши шаҳри Қашқадарё билан бевосита боғлиқ бўлиб, воҳанинг ўрта ва қуйи оқими худудида жойлашган яъни қуйи оқимида қашқадарё воҳасининг қарши водийсида жойлашган. Юқори қисмида эса воҳанинг ўтроқ ва кўчманчи аҳолиси истиқомат қилган. Қарши шаҳрига яқин аҳоли уч асосий кентда жойлашган:.

1. Чим тумани-Қашқадарёнинг ўрта оқимида жойлашган ва Шаҳрисабз билан чегараланган.
2. Бешкент тумани-унга Қарши шаҳри ва унинг атрофи кирган.
3. Косон тумани-аҳолининг асосий кўпчилик қисми истиқомат қилиб Қашқадарёнинг қуйи оқимидаги аҳолиси истиқомат қилган.

Қарши шаҳри маданий иқтисодий жиҳатдан ривожланган ва шаҳарда 11979 нафар аҳоли истиқомат қилган. Шаҳар маркази Қарши шаҳри бўлиб, шаҳар номи Бухоро амирлиги тугатилганидан кейин Бехбудий шаҳри деб аталган.

Бойсун шаҳри Бухоро амирлигининг жануби-ғарбий қисмида жойлашган бўлиб, Бойсунтоғ этагида Бойсун-Шеробод тоғ тизмалари худудида жойлашган. Бойсун шаҳрида 2235 нафар аҳоли, Дарбандда эса 1163 нафар аҳоли истиқомат қилган. Бойсун асосий савдо йўлида жойлашган бўлиб, Дарбанд-Бойсун-Денов-Ҳисор ва Бойсун-Шеробод-Термиз савдо алоқа йўли билан боғланган.<sup>112</sup>

Бухоро амирлигининг жануби-шарқий шаҳарларида ижтимоий-сиёсий вазият анча мураккаблашиб, шаҳар аҳолиси ва маъмурият ўртасида зиддиятлар тез-тез бўлиб турар эди. Масалан, 1912 йил Қарши шаҳрида, 1916 йил Ғузор ва Шаҳрисабз шаҳарларида бўлиб ўтган ҳаракатларда шаҳар маъмуриятининг зиёлиларга, халқ оммасига нисбатан юритган сиёсатидаги зўравонлик сабаб бўлган эди. Қарши шаҳрининг раҳбари Абдулаҳад Олим тўранинг ҳаракатлари натижасида шиалар билан сунъийлар ўртасида жиддий тўқнашув вужудга келди. Чунки Қарши ҳокими Олим тўра маишат, айш-ишрат билан шуғулланиб, халқнинг ижтимоий турмуши, шаҳар тараққиёти билан шуғулланмади.<sup>113</sup>

Археологик маълумотларга кўра, Марказий Осиёда илк мудофаа иншоотлари милоддан аввалги III-минг йилликда пайдо бўлган. Марказий Осиёда шаҳарлар мудофаа иншоотлари сўнгги ўрта асрларда ҳам муҳим аҳамият касб этган бўлиб, бу соҳада асрлар давомида тўпланган тажрибалардан унумли фойдаланилган.

XVI-XIX асрларда Бухоро амирлиги шаҳарсозлигининг муҳим элементи мудофаа тизими эди. Воҳа шаҳарлари мудофаасини ташкил этишда бутун Марказий Осиё минтақаси учун хос бўлга ноанъанавий мудофаа тизими ўрда ва шаҳарнинг мустаҳкам мудофаа деворлари билан ўраб олинганлигидан ташқари бир қатор муҳим маҳаллий хусусиятларни кузатишимиз мумкин. Бу каби хусусиятлар, айниқса Шаҳрисабз ва Китоб шаҳарлари мудофаасини ташкил этишда яққол кўзга ташланади.

Марказий Осиёнинг XVI-XIX асрлардаги шаҳарлари мудофаа тизими нисбатан кам ўрганилган соҳа ҳисобланади. Бундан Қашқадарё воҳаси шаҳарлари ҳам мустасно эмас, албатта. Хусусан, Қарши шаҳри мудофаа тизимини ўрганиш учун махсус тадқиқотлар олиб борилмаган. Фақат 1964-1965 йилларда шаҳарда тарихий-археологик тадқиқотлар олиб

<sup>112</sup>Ананьев. Шерабадская долина. Стр-101.

<sup>113</sup>Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври. - Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси “Минҳож” хайрия нашриёти. 1992 йил, 61-б.

борган М.Е.Массон бу масалага бир оз эътибор қаратган. Шаҳар мудофаа деворлари тўғрисидаги маълумотларни, шунингдек, XIX аср рус ёзма манбаларидан ҳам топиш мумкин.

#### REFERENCES

1. Шифман И.Ш. Развитие городской организации в древнем переднеазиатском Среднеземноморье|| Древние города. Материалы всесоюзной конференции. - Пенджикент, 1977. С. 31-32.
2. Вебер М. Избранное. Образ. общество. Гл. Ш. Город. - М., 1994. С. 310.
3. Массон В.М. Страна тысячи городов. - М., 1996. С. 6.
4. Дьяконов И.М, Проблема города в Вавилионии II тыс. до.н.э.||Тез.докл. Всесоюзного симпозиума. - Ереван, 1969. С. 18-21.
5. Сулаймонов Р.Х. Древний Нахшаб. - Т., 2000. С. 17.
6. Андреев Ю.В. Ранние формы урбанизации ВДИ, 1987, №1. С. 3-19; Ўша муаллиф. Дворец «город» на Крите ва II тыс до. н.э. СА. 1988. № 4. С. 37-52.
7. Андреев Ю.В. Ранние формы. С. 8.
8. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. - Т., 2000. С. 15-16.
9. Территория и население Бухары и Хорезма. Стр-4.
10. 1Территория и население Бухары и Хорезма. Стр-5.
11. Анаев. Шерабадская долина. Стр-102-103.
12. Маев Н.А. Материалы для статистики Туркестанского края. - С.Петербург. Военное изд. тво. 1879. С. 154-157.
13. В.Безобразов. Очерки Шахрисабзского бекство.
14. О.Пармонов., А.Бердиев. Китоб тумани. - Т."Фан," 1996 йил, 30-31-бетлар.
15. О.Пармонов, А.Бердиев. Китоб тумани. – Т. "Фан," 1996 йил, 35-36-бетлар.
16. Анаев. Шерабадская долина. Стр-101.
17. Фитрат. Амир Олимхоннинг хукмронлик даври. - Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси "Минхож" хайрия нашриёти. 1992 йил, 61-б.
18. С.Шарапов. Бухоро амирлиги жануби-шарқий худудлари шаҳарларидаги ижтимоий аҳвол. Международный современный научно практический журнал. "Научный импульс" № 12 (100) июля 2023 г часть 1). – Москва. 2023. Ст. 246.
19. Тўхтаев А.Қ. Шаропов С. XIX аср охири XX аср бошларида Сурхон воҳаси савдо муносабатларида сув йўлларининг аҳамияти. Насаф Кеш тарихи манбаларда мавзусидаги Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. - Қарши., "Қарши давлат университети" нашриёти, 2010 йил, 100-103 б.
20. Xolmuminov X. Buxoro amirligi janubiy hududlaridagi tarixiy demografik jarayonlar. (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlari. Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari misolida). - Т "Firdavs Shox"nashriyoti, 2023 у, - В. 79.
21. Тўхтаев А.Қ. Шаропов С. XIX аср охири XX аср бошларида Сурхон воҳаси савдо муносабатларида сув йўлларининг аҳамияти. Насаф Кеш тарихи манбаларда мавзусидаги Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. - Қарши., "Қарши давлат университети" нашриёти, 2010 йил, 100-103 б.

22. Saidusmon Sharopov. O'ZBEKISTONNING JANUBIDA SHAHARLAR MODDIY MADANIYATI (XVIII asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida "ПАЁМИ ДОНИШКАДА", "АНВОРИ ИЛМ", "ТАФАККУРИ ТАЪРИХ". НАШРИ МУШТАРАК, 2023 №№-1-2-3.607-бет.
23. Саидусмонмон Шаропов Саидахмедович. БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ ШАҲАРЛАРИДА ИЖТИМОИЙ АҲВОЛИ. СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ SURKHANDARYA: SCIENCE AND CONTEMPLATION Илмий мақолалар журналі N-2 2023. 84-86 бетлар.
24. Саидусмонмон Шаропов Саидахмедович. Бухоро Амирлиги жануби-шарқий шаҳарларининг маъмурий ҳудудий жойлашуви. Ўтмишга назар. / LOOK TO THE PAST '19 (2019) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-19.67-бет>
25. Шаропов, С. С. (2019). БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ ШАҲАРЛАРИНИНГ МАЪМУРИЙ-ҲУДУДИЙ ЖОЙЛАШУВИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (19).
26. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
27. AN'ANAVIY, S. V. T. Q., & TARZI, T. (2023). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
28. AN'ANAVIY, S. V. T. Q., & TARZI, T. (2023). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
29. Dulanov, O. Y. (2021). Ethnic history of the area where hundreds (zhuzes) are located in the surkhandarya oasis. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 910-913.
30. Dulanov, O. (2023). TYPES OF FARMING OF HUNDREDS (JUZ) INHABITING THE SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 161-165.
31. Yuldashevich, D. O. (2023). SURXON VOHASIDA YASHOVCHI YUZ (JUZ) LARNING AN'ANAVIY CHORVACHILIGIDA QO'YCHILIKNING ANAMIYATI. *Conferencea*, 65-69.
32. Yuldashevich, D. O. (2023). YUZ (JUZ) LAR HUNARMANDCHILIGINING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY JIHATLARI. *Conferencea*, 60-64.
33. Дуланов, О. Ю. (2021). СУРХОН ВОҲАСИ ЖУЗЛАРИНИНГ АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-3).
34. Холмуминов, Х. Э., & Эшмуминов, О. З. (2022). ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.). *Бюллетень науки и практики*, 8(1), 286-289.
35. ХОЛМУМИНОВ, Х. Э., & ЭШМУМИНОВ, О. З. (2022). ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.). *БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ* Учредители: Овечкина Елена Сергеевна, 8(1), 286-289.
36. Холмуминов, Х. Э., & Эшмуминов, О. З. ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 гг.).

37. Raimov, M. (2023). A NEW ERA IN THE STUDY OF TERM HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(9), 146-151.
38. Radjabova, S. (2023). STATE POLICY TO SUPPORT WOMEN (FIRST STEPS). *Modern Science and Research*, 2(6), 49-52.
39. Radjabova, S. (2023). ACTIVITIES OF WOMEN IN THE CULTURAL LIFE OF SURKHANDARYA REGION. *Modern Science and Research*, 2(6), 53-55.
40. Choriyeu, S. H. (2023). CULTURAL LIFE IN SURKHANDARYA IN THE YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR. *Modern Science and Research*, 2(9), 283-286.
41. Qarshiyev, I. (2023). CLOTHES ARE A MATERIAL SOURCE THAT SPEAKS OF THE PAST. *Modern Science and Research*, 2(4), 741-745.
42. Qarshiyev, I. (2022). SURXON-SHEROBOD VOHASI QO 'NG 'IROTLARINING KIYIM-KECHAKLARI VA ETNIK XUSUSIYATLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 529-535.
43. Maxmarahim o'g'li, Q. I. (2023). SURXON-SHEROBOD VOHASI QO 'NG 'IROTLARNING MODDIY MADANIYATIDA YUZ BERGAN O 'ZGARISHLAR. *Conferencea*, 37-41.
44. Maxmarahim o'g'li, Q. I. (2023). QO 'NG 'IROTLARNING MODDIY MADANIYATIDA TRANSFORMATSIYON JARAYONLAR. *Conferencea*, 33-36.
45. Maxmarahim o'g'li, Q. I. (2023). KIYIM-KECHAKLAR-O 'TMISHDAN SO 'ZLOVCHI MODDIY MANBA.

## ЧАҒОНИЁН ДАВЛАТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ВА РИВОЖЛАНИШИДА КУШОНЛАР САЛТАНАТИНИНГ ЎРНИ

Эргашов Мавлон Эшниёзович

Термиз давлат университети

Жаҳон тарихи кафедраси

катта ўқитувчиси (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10015444>

**Аннотация.** Мақолада Чағониён давлатининг шаклланишида ва ривожланишида Кушонлар салтанатининг ўрни аниқ мисоллар билан кўрсатиб берилган.

**Калит сўзлар:** Кушон подшолиги, Ўрта Осиё, Тарихий манбалар, Чағониён, Ҳиндистон халқлари.

## THE ROLE OF THE KUSHAN DYNASTY IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE CHAGANYAN STATE

**Abstract.** The article provides specific examples of the role of the Kushan dynasty in the formation and development of the Chaganyan state.

**Keywords:** Kushan Kingdom, Central Asia, historical sources, Chaganyan, peoples of India.

## РОЛЬ КУШАНСКОГО ЦАРСТВА В СТАНОВЛЕНИИ И РАЗВИТИИ ЧАГАТАЙСКОГО ГОСУДАРСТВА

**Аннотация.** В статье на конкретных примерах показана роль Кушанского царства в становлении и развитии Чагатайского государства.

**Ключевые слова:** Кушанское царство, Средняя Азия, исторические источники, народы Чагании, Индии.

Кушон подшолиги ўз даврида Ўрта Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистон халқлари тарихида муҳим из қолдирган давлат ҳисобланади. Айнан кушонлар даврида турли халқларнинг маданияти, тили ва динлари қоришуви натижасида ўзига хос маданият шаклланди ва ривожланди. Шу жиҳатдан кушонлар жаҳон маданиятида ўзидан ўчмас из қолдирди. Таъкидлаш жоизки, қадимги Чағониён бевосита кушон подшолиги билан боғлиқ бўлган. Негаки, бу ҳудуддан кушон даврига оид кўплаб машҳур археологик обидалар аниқланган. Қолаверса, Чағониён ушбу давлатнинг шаклланишида муҳим роль ўйнаган ҳудуддир.

Тарихий манбаларда Кушон подшолигининг вужудга келиши кўчманчи юэчжилар номи билан боғланади. Жумладан, қадимги хитой манбаси «Шицзи»да шундай дейилади: Катта Юэчжи (хитойча *да-юэчжи*. Хитойча *да* – «катта» деган маънони англатади) Довондан 3000 ли ғарбда, Гуй-шуй дарёсидан шимолда жойлашган. Ундан жанубда Дахя, ғарбда Аньси (Парфия), шимолда Қанғюй жойлашган. ... Юэчжилар дастлаб Дунь-Хуан билан Цилян-Шань тизмалари оралиғида кўчиб юришган. Хуннлар томонидан тор-мор келтирилгач, улар у ердан кетишади, Довондан ғарбга ўтиб, Дахяга зарба бердилар ва бу мулкликни ўзларига бўйсундирдилар. Шундан сўнг ўз қароргоҳларини Гуй-Шуй дарёсидан шимолда қурдилар. Юэчжи халқининг унча катта бўлмаган қисми қабиладошларининг изидан кета олишмаган ва жанубий тоғларда қолиб кетишган. Кянлар уларни кичик Юэчжи



(Хяо-Юэчжи) деб аташган<sup>114</sup>.

Хитой манбаларида ишлатилган географик атамаларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, юэчжиларнинг дастлабки яшаган жойлари Гансу (Хитойнинг шимоли-ғарбий қисмидаги вилоят) бўлган. Гансудан Шарқий Туркистонга, ундан Фарғонага, сўнгра Бактрияга келиб ўрнашишган. Аммо юэчжилар жанубга қараб силжиган ягона халқ эмас эди. «Цяньханьшу»да маълум қилинишича, юэчжилар хуннлар томонидан мағлуб этилгач, ғарбга томон силжиб ҳозирги Қирғизистон шимолида яшайдиган сэ қабиласи ерларини эгаллайди. Сэ ҳукмдори жанубга силжиб, Гибинь давлати (ҳозирги Кашмир ва унга ёндош ўлкалар)ни босиб олади<sup>115</sup>. Сирдарёнинг ўрта ҳавзасида яшаган сакарауқлар Сўғдиёни эгалладилар. Сўнгра Марв воҳасига ўтиб, ундан жанубга ва шимоли-ғарбий Ҳиндистонга силжиганлар<sup>116</sup>.

Юнон географи Страбон юнонлардан Бактрияни тортиб олган қабилалар орасида Яксарт дарёсининг нариги соҳилидан чиқиб келган ассий, пасиан, тохар ва сакаравлларнинг номларини эслатиб ўтади<sup>117</sup>. Помпей Трогнинг хабар беришича, Парфия ҳукмдори Артабан I (мил. ав. 128-124) тохар қабилалари билан бўлган жангда ҳалок бўлган<sup>118</sup>.

Кўпчилик тадқиқотчилар Чағониён номининг этимологиясини сак қабиласи номи билан боғлайдилар. Жумладан, Н.А.Маев уни Сагханиан (Саканиан) деб атайди<sup>119</sup>. Г.А.Пугаченкованинг фикрича, бу сўзнинг ўзаги бўлмиш *саг* қадимги сакларга бориб тақалади. Улар мил.ав. II-I асрларда Бактрия ва ундан жанубга силжиган йирик кўчманчи қабилалар иттифоқлари эди. Саклар номи Сакистон (ҳозирги Сеистон) номида акс этган. Эҳтимол мил. ав. II асрда силжиб бориш жараёнида сакларнинг бирон-бир қабилавий гуруҳи Сурхон водийсида қолиб аста-секинлик билан ўтроқлашиб борган. Уларнинг номи вилоятнинг (Сағониён), дарёнинг (Сағонруд) аталишига, кейинчалик маҳаллий ҳукмдорлар унвони (сағонхудот)га айланишига асос бўлган дейиш мумкин<sup>120</sup>.

Т.Нафасовнинг изоҳлашича, *Чағониён* – «саклар шаҳри» (вилояти) демакдир<sup>121</sup>. И.Умаровнинг фикрича, «цагаан» сўзининг энг қадимги шакли *сага* бўлган. «Сак» сўзи *сага* нинг товуш варианты. Бу халқ ўзини *саг*, ўзга эллар эса уларни *сак* деб аташган<sup>122</sup>.

«Цяньханьшу»да қайд этилишича, юэчжилар Дахяга ҳужум қилиб, уни ўзларига бўйсундиргач, пойтахтни Гуй-шуй дарёсидан шимолда қуради... Пойтахти Гяньши шаҳрида... Дахя олий ҳукмдорга эга эмас. Ҳар бир шаҳар ўз ҳокимини жўнатади. Халқи кучсиз ва урушдан кўрқади. Шу сабаб юэчжилар томонидан бўйсундириб олинган. Бешта ябғуликка (хихэу) бўлинган: 1. Хюми – қароргоҳи Хомо шаҳрида; 2. Шуанми – қароргоҳи Шуанми шаҳрида; 3. Гуйшуан – қароргоҳи Хоцзо шаҳрида; 4. Хэйтунь – қароргоҳи Бомо

<sup>114</sup> Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Изд. 2, Москва-Ленинград, том II, 1951. –С. 151.

<sup>115</sup> Бичурин И. Собрание сведений., том II. –С. 179, 190-191.

<sup>116</sup> Гафуров Б.Г. Таджики, том I. –С. 168.

<sup>117</sup> Страбон, книга 11, глава 8, 2.-С.61.

<sup>118</sup> Юстин, книга 42, глава 2, 2.-С.72.

<sup>119</sup> Материалы для статистики Туркестанского края. Под редакцией Н.А.Маева. Ежегодник. СПб., вып. V, 1879. –С. 264.

<sup>120</sup> Пугаченкова Г.А. Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Ташкент, 1966. –С. 244.

<sup>121</sup> Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1988. –Б. 204.

<sup>122</sup> Сафаров Ш., Умаров И. Айрим топонимлар тарихи. –Б. 53.



шаҳрида; 5. Гаофу – шу номли шаҳарда қароргоҳ қурган. Ушбу бешта мулклик Катта Юэчжиги қарамдир<sup>123</sup>. «Хоуханьшу»да кўрсатилишича, Катта Юэчжининг пойтахти Ланьши шаҳрида бўлган<sup>124</sup>.

«Цяньханьшу»да кўрсатилган Гаофу тадқиқотчилар томонидан Кобул шаҳрига<sup>125</sup>, Хюми – Вахон ўлкасига, Шуанми - Зебак ва Жарм оралиғида, Гяньши – Бактра шаҳрига<sup>126</sup> локализация қилинади. Г.А.Пугаченкова археологик маълумотлар ва хитой манбаларини таққослаб, Гуйшуан мулклигининг маркази Хоцзо айнан Далварзинтепага тўғри келишини таъкидлайди. Далварзинтепадан 40 км узоқликда жойлашган Холчаён эса кушонларнинг Герай уруғи қароргоҳи бўлган<sup>127</sup>.

## REFERENCES

1. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Изд. 2, Москва-Ленинград, том II, 1951. –С. 151.
2. Бичурин И. Собрание сведений., том II. –С. 179, 190-191.
3. Гафуров Б.Г. Таджики, том I. –С. 168.
4. Страбон, книга 11, глава 8, 2.-С.61.
5. Юстин, книга 42, глава 2, 2.-С.72.
6. Материалы для статистики Туркестанского края. Под редакцией Н.А.Маева. Ежегодник. СПб., вып. V, 1879. –С. 264.
7. Пугаченкова Г.А. Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Ташкент, 1966. –С. 244.
8. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1988. –Б. 204.
9. Сафаров Ш., Умаров И. Айрим топонимлар тарихи. –Б. 53.
10. Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия: проблемы истории и культуры. –Москва: Наука, 1977. –С. 111.
11. Eshniyozovich, E. M. (2021). Theoretical Foundations of Historical Sources about Chaganian. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 2(12), 166-169.
12. Eshniyozovich, E. M. (2021). Examples of the history of the material culture of chaganian are the pearls of our spirituality. *World Bulletin of Social Sciences*, 5, 142-145.
13. Eshniyozovich, E. M. (2023). Economic Fundamentals of the Chaganian State. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(5), 131-134.
14. Эргашев, М. Э. (2021). ЧАҒОНИЁННИНГ ЎРТА АСРЛАР ШАҲАРЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-3).

<sup>123</sup> Бичурин И. Собрание сведений., том II. –С. 183-184.

<sup>124</sup> Бичурин И. Том II. –С. 227.

<sup>125</sup> Гафуров Б.Г. Таджики. Том I. –С.184.

<sup>126</sup> Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия: проблемы истории и культуры. –Москва: Наука, 1977. –С. 111.

<sup>127</sup> Пугаченкова Г.А. Халчаян. –С. 247-248.

15. Ergasheva, S. A. (2020). CRAFT OF SURKHANOAKH FROM THE HISTORY OF DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (7), 56-59.
16. Ergasheva, S. A. (2021). History of baisun silk knitting factory. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 581-585.
17. Ergasheva, S. A. (2020). The history of surkhan doppies (skullcups) and the characteristics of this folk craft. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 1(6), 7-13.
18. Abdusoatovna, E. S. (2023). SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHIDA BOYSUN AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIGINING O'RNI. *PEDAGOGS jurnali*, 31(1), 10-17.
19. Abdusoatovna, E. S. (2022). BOYSUN-UMUMBASHARIY QADRIYATLAR BESHIGI. *PEDAGOGS jurnali*, 12(2), 114-119.
20. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
21. AN'ANAVIY, S. V. T. Q., & TARZI, T. (2023). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
22. AN'ANAVIY, S. V. T. Q., & TARZI, T. (2023). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
23. Dulanov, O. (2023). TYPES OF FARMING OF HUNDREDS (JUZ) INHABITING THE SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 161-165.
24. Дуланов, О. Ю. (2021). СУРХОН ВОҲАСИ ЖУЗЛАРИНИНГ АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-3).
25. Холмуминов, Х. Э., & Эшмуминов, О. З. (2022). ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.). *Бюллетень науки и практики*, 8(1), 286-289.
26. ХОЛМУМИНОВ, Х. Э., & ЭШМУМИНОВ, О. З. (2022). ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.). *БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ* Учредители: Овечкина Елена Сергеевна, 8(1), 286-289.
27. Холмуминов, Х. Э., & Эшмуминов, О. З. ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 гг.).
28. Raimov, M. (2023). A NEW ERA IN THE STUDY OF TERM HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(9), 146-151.
29. Radjabova, S. (2023). STATE POLICY TO SUPPORT WOMEN (FIRST STEPS). *Modern Science and Research*, 2(6), 49-52.
30. Radjabova, S. (2023). ACTIVITIES OF WOMEN IN THE CULTURAL LIFE OF SURKHANDARYA REGION. *Modern Science and Research*, 2(6), 53-55.
31. Choriyev, S. H. (2023). CULTURAL LIFE IN SURKHANDARYA IN THE YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR. *Modern Science and Research*, 2(9), 283-286.
32. Qarshiyev, I. (2023). CLOTHES ARE A MATERIAL SOURCE THAT SPEAKS OF

THE PAST. Modern Science and Research, 2(4), 741-745.

33. Qarshiyev, I. (2022). SURXON-SHEROBOD VOHASI QO 'NG 'IROTLARINING KIIYIM-KECHAKLARI VA ETNIK XUSUSIYATLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 529-535.

## DEFEKTOLOG MUTAXASSISINING, ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR BILAN ISHLASH KO'NIKMALARI.

**Yo'ldasheva Ozodaxon Hamdamovna**

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi,  
Farg'ona mintaqaviy filyalining defektolog mutaxassisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10015475>

**Annotatsiya.** Maqolada alohida yordamga muhtoj bolalarni kompleks reobilitatsiyalashning mohiyati ochib berilgan. Bunday bolalar bilan ishlashda maxsus mutaxassislar ayniqsa, defektolog mutaxassislari qanday ko'nikmalarga ega bo'lishlari va ularning vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqida so'z boradi. Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonida, korreksion ishlarning ahamiyati muhim ekanligiga to'xtalib o'tilgan va uning mazmuni ochib berilgan.

**Kalit so'zilar:** Defektolog, yordamga muhtoj bolalar, reobilitatsiya, korreksiya, integratsiya, rivojlanish, adaptatsiya, ta'lim-tarbiya, mashg'ulot, muloqot.

## SKILLS OF A DEFECTOLOGIST SPECIALIST, WORKING WITH CHILDREN WHO NEED SPECIAL HELP

**Abstract.** The article reveals the essence of the complex rehabilitation of children who need special assistance. When working with such children, special specialists will especially talk about what skills defectologist specialists have and what their tasks consist of. In the process of working with children who need special assistance, it is mentioned that the importance of correctional work is important, and its content is revealed.

**Key words:** Defectologist, children in need of help, Rehabilitation, Correction, integration, development, adaptation, education, training, communication.

## НАВЫКИ РАБОТЫ СО СПЕЦИАЛИСТОМ-ДЕФЕКТОЛОГОМ, С ДЕТЬМИ, НУЖДАЮЩИМИСЯ В ОСОБОМ УХОДЕ

**Аннотация.** В статье раскрыта сущность комплексной реабилитации детей с особыми потребностями. В работе с такими детьми специализированные специалисты особенно подробно рассказывают о том, какими навыками должны обладать специалисты-дефектологи и каковы их задачи. В процессе работы с детьми, нуждающимися в особой помощи, подчеркивается значимость коррекционной работы и раскрывается ее содержание.

**Ключевые слова:** дефектолог, дети, нуждающиеся в помощи, реабилитация, коррекция, интеграция, развитие, адаптация, воспитание, обучение, общение.

## "Bolalar hammani yaxshi ko'radilar, ayniqsa

### Kirish

### ularga e'tibor va mehr ko'rsatganlarni".

Mamlakatimizda bolalarga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, onalik va bolalikni muhofaza etish masalalari davlat siyosati darajasida ko'rilmogda. Aholini ijtimoiy himoya qilish ularga huquqiy erkinlikni yaratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oilalar ayniqsa nogironligi bor bolalar, ota-onasidan mahrum bo'lgan bolalarni himoya qilishga qaratilgan qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinmogda.

Jumladan, O'zbekistonning "Birlashgan Millatlar Tashkiloti"ga a'zo bo'lishi, "Bolalar huquqlar to'g'risida"gi Konvensiyani ratifikatsiya qilinishi va "Bola huquqlarining kafolatlari

to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, o'sib kelayotgan yoshlarimizga ko'rsatilayotgan, g'amxo'rlikning yorqin namunasi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishlari, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib, ulg'ayishlari muhimdir. Ayniqsa, ota-ona qaramog'isiz qolgan, rivojlanishda nuqsonli bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish chegaralarini bartaraf etish, bunday bolalar uchun ta'limni tashkil etish va boshqarishda, zamonaviy yondashuvlarni yaratish ishlari jadallik bilan amalga oshirilib borilmoqda. Bolalar rivojlanishidagi kamchiliklar, qancha erta aniqlansa uni hal qilish shunchalik oson kechadi. Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan olib boriladigan korreksion va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda, maxsus mutaxassislar ya'ni psixolog, defektolog, pedagog, virachlar va ota-onalarning birligi talab etiladi. Bunday birdamlik ishlarida, yordamga muhtoj bolalarda natija bo'lishi isbotlangan. Yordamga muhtoj bolalar bilan, ishlash jarayonida mutaxassislarga yetarlicha ma'suliyat yuklanadi. Buni his etgan holda ular o'z faoliyatlaridan kelib chiqib, bolalar bilan ishlashlari lozim bo'ladi.

**Asosiy qism:** Bugungi kunda defektologiya sohasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Defektolog kasb egalari, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rgandigan, ularning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadigan mutaxassislar hisoblanadi. Defektologiya so'zi lotincha defekt-kamchilik, nuqson, yunoncha logos-ta'limot, fan, o'rganish degan so'zlardan olingan. Ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda kamchiliklari bor bolalar, alohida yordamga muhtoj bolalar deyiladi. Shu asnoda defektologiya fanining predmeti ham alohida yordamga muhtoj bolalar sanaladi. Defektolog mutaxassislarining asosiy vazifalari, bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari, turlarini, bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganish. Shular asosida ular uchun segregatsion, differentsial yoki integratsion, inkluziv sharoitda ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishni qamrab oladi. Shuni alohida aytib o'tish o'rinli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan bolalarning rivojlanishi cheksiz, nuqson tufayli u to'xtab qolmaydi, balki boshqacharoq rivojlanadi. Shuning uchun ham bolalar o'sishida kamchiliklar, aniqlansa ota-onalari darhol mutaxassislardan yordam so'rashlari zarur. Defektologiya fanining rivojlanishi natijasida, undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajirib chiqdi:

- surdopedagogika, (lotincha surdu - kar, gung, so'zlaridan olingan) - eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

- tiflopedagogika, (yunoncha tiflos-ko'r, so'qir, so'zidan olingan)- ko'zi ojiz bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

- oligofrenopedagogika (yunoncha oligos-kam, fren-aql so'zlaridan olingan) aqliy tomonlama zaif bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarni amalga oshiradigan fan;

- logopediya (yunoncha logos-so'z, pedeo-tarbiyalash so'zlaridan olingan) - nutq nuqsonlarini o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fanlar yeg'indisidan iborat.

Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talablariga muvofiq, alohida yordamga muhtoj bolalarning differentsial va integratsiyalashgan inkluziv ta'limning barcha yo'nalishlari

bo'yicha natijali ishlar olib borilmoqda. Alohida yordamga muhtoj bolalarda nuqson bo'lishiga qaramay, uning qo'lidan keladigan ish turini unga o'rgatib, o'qitib, tarbiyalab, jamiyatda o'z o'rini topib ketishiga yordam berish, ijtimoiy reabilitatsiyani qamrab oladi. Defektolog mutaxassislari bu borada quydagi fikrlarni ilgari suradi. Yordamga muhtoj bo'lgan bolalar, uchun tashkil etilgan ta'lim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o'rganiladi. Ijobiy tomonlari, qobiliyatlari hisobga olinadi, boladagi kamchiliklar o'rganiladi. Bunga modifikatsiya, kompensatsiya, adaptatsiya, reabilitatsiyalar kiradi. Masalan: agarda bola eshitmasa uni eshitish apparatlsri bilan ta'minlash, yurolmasa maxsus aravachasidan foydalanish, qo'lida oddiy qoshiqni ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta'minlash va boshqa masalalarni e'tiborga olish lozim. Bolalarning idroki, hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga qarab bir - biridan farq qila boshlaydi va tanish ohanglarni ajirata oladi. Bu jarayonlarda ularda turli xil sensor qobiliyatlar ko'rish va ko'zdan kechirish, buyumlarning tashqi belgilariga qarab ajiratisht, ko'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsalarga taqlid qilish qobiliyatlari rivojlanib boradi. Bola turli taassurotlar olib turishi, buyumlarni ko'rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi va tovushlarni eshitishi kerak. Bu jarayonlar bolalarning, sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Defektolog mutaxassis sifatida shuni ayta olamanki, sensor qobiliyatlarning o'z vaqtida rivojlanishi bolalarning aqliy tomonlama rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi bu aqliy rivojlanishning asosidir. Nutq, ruhiy jarayonlar ya'ni idroki va xotiraning rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Shu asnod, bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Defektolog mutaxassis, alohida yordamga muhtoj bolalarning turli xil toifalari bilan ish olib boradi. Ularga quydagilarni misol qilishimiz mumkin.

- 1) eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar;
- 2) ko'rish qobiliyati zaif bolalar;
- 3) aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar;
- 4) nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- 5) harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- 6) ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- 7) autizm sindromiga chalingan bolalar.

Yordamga muhtoj bolalarning, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ish va keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Defektolog bunday bolalar bilan ishlashda eng samarali va mo'tadil usullarni topishi kerak bo'ladi. Bunda eng avvalo mutaxassis ota-onalari bilan suhbat o'tkazib olishi, bolaning sog'lig'iga qo'yilgan asosiy tashxisni o'rganib chiqishi lozim bo'ladi. Shundan so'ng defektolog yordamga muhtoj bolalar uchun mashg'ulotlar jadvalini tuzib chiqishlari joyiz bo'ladi. Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday nuqsonlarning rivojlanishi tug'ma yoki hayot davomida orttirilgan bo'lishi mumkin. Bunday ma'lumotlarni bilish defektolog mutaxassisi uchun bola bilan ishlashda zaruriy yordamni ko'rsatishga zamin ochadi. Defektolog bolani haqiqiy hayotga moslashishiga yordam berishi kerak. Alohida yordamga muhtoj bolalarga, o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini singdirish juda zarur. Chunki ba'zida ota-onalar farzandlariga biror -bir yumushni o'zlari qilishga ruxsat bermaydilar va bolani mustaqil hayot imkoniyatlaridan mahrum qiladilar. Bu borada defektolog, bolalarga o'rgatadi, tarbiyalaydi, ularni atrofdagi dunyo bilan tanishtiradi. Ya'ni defektolog



boladagi buzilishlarga turiga qarab, ular bilan guruhiy va individual shug'ullanadi. Umumiy maqsad bolalarda o'rganish uchun ongli mativatsiyani uyg'otishga qaratiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, defektolog yordamga muhtoj bolalarni aniqlab olgandan so'ng, ular bilan ishlash dasturiy mashg'ulotlar tartibini tuzib chiqadi. Mutaxassis bu dasturni ikkiga bo'lishi mumkin.

1. Yordamga muhtoj bolalar uchun, og'iz bo'shlig'i til, lab, mimika, yuz uchun mashg'ulotlar;

2. Ularning ong osti, tanish, bilish, o'xshatish, farqlash, taqlid qilish, ko'nikmalarini oshiruvchi o'yinli mashg'ulotlardan foydalanib bolalarga yordam berishni ko'zlaydi;

Defektolog ota-onalar bilan birga ishlaydi, ularga maslahatlar berib boradi. Mutaxassis doimiy ravishda bolalar bilan o'zaro munosabatlarining yangicha usullarini topib borishi lozim. Shu maqsadda defektolog mutaxassislari maxsus tashkil etilgan seminarlarda, konferensiyalarda va kirsalarda bo'lib, o'z ustida ishlashi talab etiladi. Defektolog kasb egalari, umumiy holatda bolalar bilan ishlashlari uchun, quydagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Ular cheksiz sabr - toqatga ega bo'lishlari eng birlamchi masala deb ayta olaman. Chunki muammoliy bolalar bilan muloqot qilish odatdagidan ko'ra ancha qiyinroq. Kasbga da'vogar uchun bolalarga bo'lgan muhabba va mas'uliyat hissi shuningdek xayrixohlik, ijodkorlik ko'nikmalari majburiydir. Shuningdek ish jarayonida mutaxassisga, qat'iyatlilik, ehtiyotkorlik va shirin so'zlik yordam berdi. Defektolog bolani tushunishlari kerak, aks holda u bu sohada ishlay olmaydi. Mutaxassisning asosiy vazifasi, bolalarda kelajakda jamiyatda o'z o'rinlarini topishga va moslashishga yordam beradigan ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Defektolog tibbiy bilimlarni, shuningdek psixologiya, ijtimoiy soha, konfliktologiya bo'yicha ham chuqur bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Mutaxassis quydagi vazifalarni ishlash jarayonida bajaradi.

- bolalarning rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini baholash, umumiy holatni aniqlash va nuqsonlarni bartaraf etish uchun tekshiruv o'tkazish;

- tibbiy kartalar bilan ishlash, nutq terapevtlari va shifokorlar bilan maslaxatlashish;

- bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, tuzatish dasturini tuzish uchun ta'lim va o'qitish usulini tanlay olishi;

- muammoliy bolalar bilan tuzatish ishlarini bajarish, rejaga muvofiq ular bilan yakka yoki guruhiy tartibda mashg'ulotlar o'tkazish;

- agar kerak bo'lgan bo'lsa, dasturni o'zgartirish;

- ota-onalar va o'qituvchilar bilan suhbatlar olib borish;

- bolalarning qobiliyatlari va istedotlarini rivojlantirish uchun yordam berish;

- bolalarni ijtimoiy moslashuv jarayonlarini rag'batlantirishni qamrab oladi. Aytib o'tilganidek defektolog yordamga muhtoj bolalar bilan ishlashni erta yoshdan boshlashlari kerak bo'ladi. Mutaxassisning barcha ishlari jismoniy yoki aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiy moslashtirishga qaratilganligi bilan e'tiborga molikdir. Ko'pincha defektolog, birlashtirilgan nuqsonlari bo'lgan bolalarga duch keladi. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, nogironligi bo'lgan bolalarning taxminan 40 foizida bir necha buzulishlar mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham mutaxassis tashxis jarayonlariga alohida e'tibor berishlari kerak lozim sanaladi. Bugungi kunda defektologiya kasbiga ko'plab ehtiyojlar bor. Chunki bolalar rivojlanish jarayonida turli vaziyatlarga tushadilar. Bu vaziyatlarning ayrimlari bolani rivojlantirsa, ayrimlari rivojlatirishdan to'xtatadi. Bunday holatlarni baholash uchun ota-onalarga albatta defektolog maslahati va yordami kerak bo'ladi. Mohir defektolog, quyida keltirib o'tilgan ko'nikmalarga ega

bo'lishlari ularni bolalar bilan ishlashlarida qiyinchiliklariga uchramasliklariga yordam beradi. Shu asnoda defektolog mutaxassislari ijobiy natijalarga erish oladilar.

**Xulosa:** Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatorida o'rin olishi, bu bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarini mujassamlatirgan yoshlariga bog'liq hisoblanadi. Bugungi kunda har jihatdan yetuk va barkamol, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish eng muhim vazifalardan bir. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davlatlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Shu asnoda yurtimizda alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim-tarbiya ishlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasiga ko'ra, rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar, ta'lim olish huquqiga ega ekanliklari belgilanib qo'yilgan. Yurtimizda alohida yordamga muhtoj bolalarga yordamni tashkil etish inson haqida g'amxo'rlik ko'rsatishning yorqin namunasidan biridir. Bu o'rinda maxsus mutaxassislarga ham ehtiyoj sezilmoqda. Xususan defektolog mutaxassislarga e'tibor tobora ortmoqda. Bu kasb yurtimizda hali yosh bo'lishiga qaramay, samarali ishlar olib borilmoqda. Defektolog bo'lish bu o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lish va sizning yordamingizga muhtoj bolalarga yordam qo'lini cho'za olishdir. Muxtasar qilib aytganda, bu jarayonlar yordamga muhtoj bolalarning, hayot faoliyatlarda yangi istiqbollarini ochish bilan izohlanadi.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [www.lex.uz](http://www.lex.uz). 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining " Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. V. S. Roxmonova "Defektologiya asoslari" 2017 - yil.
4. M.Y. Ayupova "Logopediya" 2007-yil.
5. D. R. Baboyeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" 2018-yil.
6. Z. Nishonova, G.Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" 2006- yil.

## МАДАНИЯТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБАЛАРНИНГ БОШҚАРУВЧИЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Тажимуратова Шахноза Сағинбаевна

Бердок номидаги Қарақалпоқ Давлат университети

Санъатшунослик кафедраси ўқувчиси.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10015538>

**Аннотация.** Мақолада маданиятшунослик фанларини ўқитиш орқали талабаларнинг ташкilotчилик қобилиятларини ривожлантириш усуллари, улар билан ишлаш механизмлари, ўқув топшириқлари шакли, ҳажми ва жараёнинг бориши, қолаверса, натижаларни баҳолаш тартиби ҳақида ҳам мулоҳаза юритилган.

**Калим сўзлар:** бошқариш, ташкilotчилик, мустақил таълим, мустақил фаолият, билим, малака, кўникма, назарий маълумот, топшириқ, маълумот қидириш, усуллар ва таълимий воситалар.

### FORMATION OF STUDENTS' SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY

**Abstract.** The article also discusses the criteria for organizing independent learning of students through the use of a credit-modular system when teaching art disciplines, their work, form, volume and process of completing educational tasks, as well as the procedure for evaluating the results.

**Key words:** credit module, independent learning, independent activity, knowledge, qualifications, skills, theoretical knowledge, assignment, information search.

### ФОРМИРОВАНИЕ У СТУДЕНТОВ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ИСПОЛНЕНИЯ ЧЕРЕЗ ПРЕПОДАВАНИЕ ИСКУССТВОВЕДЕНИЯ

**Аннотация.** В статье также рассматриваются критерии организации самостоятельного обучения студентов посредством использования кредитно-модульной системы при преподавании художественных дисциплин, их работа, форма, объем и процесс выполнения учебных заданий, а также порядок оценки результатов.

**Ключевые слова:** кредитный модуль, Самостоятельное обучение, самостоятельная деятельность, знания, квалификация, навыки, теоретические знания, задание, поиск информации.

**Кириш.** Юнонлар билан заминимизнинг қадимий аҳолиси ўртасидаги маданий алоқаларга оид яна бир далилни келтириш ўринлидир: Юнон-Бактрия давлати (милоддан олдинги 256-75 йилларда яшаган) даврида ҳар хил юнон халқлари Бактрия худудига кириб келди. Бактрия давлати Ўзбекистоннинг ҳозирги Сурхондарё вилояти худудини ҳам ўз ичига олган эди. Юнонлар бу давлат худудига кириб, ўрнашиб олганлари учун, илмда юнон-Бактрия давлати деган ном билан юритилади.

Юнон-Бактрия давлати худудидан топилган суратлар ҳар хил этник жараёнлар маданияти бирлашиб кетганидан далолат беради. Бу давлат худудидан юнон илоҳлари тасвирига топинувчилар акс этган сурат бор. Суратдаги одамлар маҳаллий оташпарастлар бўлиб, ўзларининг илоҳига юнон илоҳига топингандай ибодат қилиб топинганлар. Бу – маданий таъсирнинг энг жонли намуналаридир. Шу тариқа маҳаллий оташпарастлар юнон услубига оид тимсоллар яратдилар ва юнон маданияти ва санъатини мезон қилиб олдилар.

Айни пайтда маҳаллий оташпарастрлар юнон илоҳларининг суратини ибодатхоналар деворларида тасвирлаш билан чекланиб қолмай, юнон Бақтрия давлати пулига ҳам туширилди.<sup>128</sup>

Санъатнинг инсон ҳаётидан ўрни ҳақида кўплаб далиллар келтириш мумкин. Масалан, Александр ҳали ёш болалигидаёқ унинг феъл-атворида бўлғуси машҳур жаҳонгир инсон ифодаланиб турар экан. Унинг романтик кайфияти – соғлом рационализм билан, севги эҳтиёжи қатъиятлилиги, жанговарлиги ва зўравонликка мойиллиги билан бирга яшар эди. Кунларнинг бирида у буюк Тимотийнинг ҳарбий кўшиғини тинглаб бўлиши биланок, қиличини яланғочлаб, жангга шай ҳолатда тайёр бўлган экан.<sup>129</sup>

Шу маънода санъатшунослик фанларини ўқитишда замонавий ёндашувлардан самарали фойдаланиш лозим. Европа университетларида таълим дастури бошқача тузилишга эга: битта модуль ичида бир-бирига тематик жиҳатдан яқин бўлган фанлар, нима бўлишидан қатъий назар, уларнинг умумий илмий мақомини, бирлаштирилади. Модулни куришнинг асосий принципи оддийдан мураккабга, услубий фанлардан амалий фанларга томон кўтарилиб боради<sup>130</sup>.

Шунинг учун модуль "умумий профессионал" ва "табиатшунослик" фанлари ва бошқалар ўқув модули доирасида, ҳам фундаментал, ҳам амалий фанлар органик бир бутунга бирлаштирилган. Масалан, Германияда модуль таълим майдонини ўзлаштириш йўналишларидан бири сифатида тушунилади, курс эмас, балки таълим дастурининг алоҳида қисми тушунилади. Муҳим хусусият модулли тизимнинг асосий йўналиши талабалар амалиётига қаратилган, шу жумладан тадқиқот ҳам. Модуль талабага тез ва самарали ҳаракат қилиш имконини беради.

Концептуал билимларни бирлаштирган ҳолда, бир даражадан бошқасига бир йўналиш ва амалий кўникмалар назарда тутилади. Шунинг учун магистр даражасида модулли ташкилот ўқув жараёни индивидуал магистрлик дастури (мавзу) билан боғлиқ бўлиши керак магистрлик диссертацияси). Европа Олий таълим ҳудудида модулга муурожаат қилинади. Шунинг учун бир нечта курслар (фанлар)да модуль маълум бир яхлит кўринишни ҳосил қилади.

Мавзу майдони ва маълум ваколатлар ривожлантириш имконини беради, деб талаба у мавзу билан эмас, балки талабанинг ўқув натижасига эришиши билан белгиланади. Рақам семестр бошига модулар натижалари нима мувофиқлиги билан белгиланади, бунга ҳар бир талаба семестр давомида эришиши керак.

Ўқув жараёнини ташкил этишнинг кредит-модулли тизими қуйидаги вазифаларни ижобий ҳал этиш лозим бўлади:

- ҳар бир модулнинг ўзлаштирилишини текшириш билан ўқув материални модулларга бўлиш;

<sup>128</sup> Абдурахмонов М., Раҳмонов Н. Маданиятшунослик. Ўқув қўлланма, тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. –Тошкент: 2015.

<sup>129</sup> Шахермайр Ф. Александр Македонский. –Москва: Терра-Книжный клуб, 1999.

<sup>130</sup> Европейский кредит тизими (ЕСПС). - Алматы-2003. — 150 С. Ефимов А. В. Олей беккув юртлар как математик притчаалар дхалплами. 2006. - 250 п. Высший преподаватель кредит тизими. - М.: Известия. — № 24 (57). Кубея Или. К. классик университет кредит обучение тизмин жорил Илиш характермари. - Олма-Ота, 2004. — 150 С. Буслук Г. Е., Андреев Р. Е., Колеченок А. А. модуль обучения. Minsk: 2007. — 176 п..

- кенгроқ билимларни баҳолаш шкаласидан фойдаланиш;
- билимларни баҳолашнинг объективлигини такомиллаштириш;
- талабаларнинг тизимли мустақил ишларини семестр давомида рағбатлантириш;
- машғулотларда соғлом рақобатни жорий этиш.

Европа университетларида ўқув йили, ўртача, 40 ҳафта давом этади. Талабанинг йилига ўқув юкининг умумий меҳнат интенсивлиги 60 кредитга тенглаштирилган. Шунга асосланиб, талаба 30% даромад олиши керак<sup>131</sup>.

Ҳозирги Европа “кредит бирлиги” ва маҳаллий ўртасида бир нечта фарқлар мавжуд “академик соатлар” тизими. Биринчидан, деярли барча университетлар, академик соат умумий ишни ўз ичига олмайди, фақат аудитория ишларини ўз ичига олмайди стандарт ва ҳақиқий ўқув дастурлари. Иккинчидан, ҳар бир Европа кредитининг орқасида бирлик аслида жисмоний харажатлар эмас, балки аслида ўзлаштирилган билимлар мавжуд, аниқроғи, компетенциялар туради.

Талабалар мустақил ишининг муҳим усули дарслик, ўқув қўлланма, маълумотнома адабиётлар билан ишлаш ҳамда Интернет ресурсларидан фойдаланишдир. Китоб ва Интернет ресурслари билан ишлаш кўникмалари инсоннинг умумий маданиятини, фикрлаш мантиғининг ривожланиш даражасини, дунёқарашнинг шаклланишини, билимдонлигини, ахборот оқимида йўналтирилганлигини акс эттиради.

Таълимнинг кредит тизими шароитида юқори ставкалар, катта миқдордаги маълумотлар ва олий ўқув юртида дастур материалларини ўрганишга комплекс ёндашув талабанинг мустақил, самарали ва тезкор ҳаракат қилишига олиб келади. Ушбу иш жараёнида матнни ўқиш, асосий нарсани таъкидлаш, таҳлил қилиш, таққослаш, синтез қилиш, кўриб чиқилган масаланинг амалда қўлланилишини баҳолаш кўникмалари ривожланади.

Ахборотни ўрганиш натижаси унинг маълум бир шаклда тақдим этилиши бўлиши керак. Ёзма равишда - мавҳум шарҳ, иншо, тезис шаклида; оғзаки-тақдимот, ҳисобот, мунозара шаклида. Мустақил иш жараёнида талабалар ўз фаолиятларини аниқ ташкил этиш кўникмаларини ҳам егаллайдилар, келгуси иш жараёнида ўз-ўзини тарбиялаш масалалари билан доимо шуғулланишлари кераклигини англаб етадилар.

Талабаларнинг мустақил ишларини (ТМИ) ташкил этишнинг долзарб вазифаларидан бири бу ташкилий муаммоларни ҳал қилишдир: ТМИ қўламини аниқлаш, ТМИнинг боришини назорат қилиш, талабаларнинг мустақил ишларини методик таъминлаш. Мутахассисларни касбий тайёрлашда ТМИ улушининг ортиши ТМИнинг

<sup>131</sup> Европейский кредит тизими (ЕСПС). - Алматы-2003. — 150 С. Ефимов А. В. Олей беккув юртлар как математик притчаалар дхалплами. 2006. - 250 п. Высший преподаватель кредит тизими. - М.: Известия. — № 24 (57). Кубея Или. К. классик университет кредит обучение тизмин жорил Илиш характеристари. - Олма-Ота, 2004. — 150 С. Буслук Г. Е., Андреенок Р. Е., Колеченок А. А. модуль обучения. Minsk: 2007. — 176 п. Кузнецова Или. I., Кравец А. G. спрси individual обучение траекториясининг кредит-модельныйпредложение. Известия-2009. Вол. 6. - 6-сон. Курина, В. А. Universithlarda Credential-модельный ряд инженерных специальностей. Harold.bn Серия: психология и педагогика фанлари. - 2011. - 1-сон. - 67-75 бетлар. Гарга, В. В. кредит-модуль поддержки идеи: Умида и поражения. Дисциплина, культура, образование дунези. - 2010. - 6-сон. - с. 121. Хоботова, Е. В. управление кредитом-модульная технология по совершенствованию возможностей информационного бюллетеня — 2009. - 45 С. - с. 7-9.



ташқил этиш бўйича дарсликлар, ўқув қўлланмалари ва методик ишланмалар, электрон ўқув нашрлар билан таъминлаш масаласини кўтаради.

А. В. Меренков, С. В. Куньшиков, Т. И. Гречухина, А. В. Усачева, И. Ю. Воротковаларнинг талабалар мустақил таълимини ташқил этиш бўйича тайёрлаган методик қўлланмасидаги қулай ёндашувларга таянаган ҳолда кредит-модул тизими учун филолог-талабалар учун мустақил таълим топшириқлари ва уларни баҳолаш бўйича топшириқлар тизими ишлаб чиқилди:

### **I. Маданиятшунослик фанларини ўқитишда бошқарувчилик, ташкилотчилик қобилиятини ривожлантирувчи топшириқлар тизими**

#### **1-топшириқ.** Тадбирни ташқил этиш ва аҳамияти ҳақида иншо ёзиш (Эссе)

Мустақил ишнинг мақсади: мустақил ижодий фикрлаш ва ўз фикрларини ёзма равишда тақдим этиш кўникмаларини ривожлантириш. Иншо “фалсафий, адабий – танқидий, тарихий-биографик, журналистик насрни бирлаштирган жанр муаллифнинг эркин, кўпинча парадоксал тақдимот билан қатъий индивидуал позицияси, сўзлашув нутқи”<sup>132</sup>

- таърифловчи, ҳикоя қилувчи ҳам бор, рефлексив, танқидий, таҳлилий иншолар ва бошқалар.

Иншонинг белгилари:

– Кичик ҳажм-уч саҳифадан етти саҳифагача компютер матн; ўн саҳифагача ёзилган матндан иборат иншога рухсат берилади.

– Муайян мавзу ва уни қатъий субъектив талқин қилиш.

– Эркин композиция иншонинг муҳим хусусияти ҳисобланади.

- Ҳикоя қилиш қулайлиги.

- Парадокслардан фойдаланиш. Иншо ўқувчини ҳайратга солиши учун мўлжалланган, бу, кўплаб тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, унинг мажбурий сифати.

- Ички семантик бирлик.

- Сўзлашув нутқига йўналтириш.

Вазифани бажариш:

1) кириш сўзини ёзинг (2-3 жумлалари учун хизмат қилади муаммонинг кейинги формуласи).

2) муҳим бўлган муаммони шакллантириш фақат муаллиф учун, балки бошқалар учун;

3) муаммо ҳақида изоҳ беринг;

4) муаллифнинг фикрини шакллантиринг ва далил келтиринг;

5) хулоса ёзинг (хулоса чиқариш, айтилганларни умумлаштириш).

Мустақил ишнинг режалаштирилган натижалари: мантиқий тўғри, аргументли ва аниқ оғзаки ва ёзма нутқ учун қулайлиги<sup>133</sup>.

**2-топшириқ.** Маданият соҳасини ривожлантириш бўйича таклиф ва қилинган ишлар бўйича ҳисобот тайёрлаш

<sup>132</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёти 2020. 203-б.

<sup>133</sup> А. В. Меренков, С. В. Куньшиков, Т. И. Гречухина, А. В. Усачева, И. Ю. Вороткова; под общ. ред. Т. И. Гречухиной, А. В. Меренкова] ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016. — 80 с.



Мустақил ишнинг мақсади: илмий уфқларни кенгайтириш, назарий тадқиқот усулларини ўзлаштириш, ривожлантириш талабанинг мустақил фикрлаши.

Ҳисобот – бу маълумотни ўз ичига олган ва савол ёки тадқиқотнинг моҳиятини акс эттирувчи оммавий хабар ёки ҳужжат берилган вазиятга нисбатан.

Ҳисобот турлари:

1. Иш натижалари асосида оғзаки ҳисобот ўқиладиган, бажарилдиган ва унинг натижаларини тушунтиришнинг самарали воситасидир.

2. Ёзма ҳисобот:

- қисқача (20 бетгача) - тадқиқот давомида олинган энг муҳим маълумотларни сарҳисоб қилади;

- батафсил (60 саҳифагача) - нафақат матнни ўз ичига олади, шунингдек, сарлавҳалар билан тузилиш, шунингдек диаграммалар, жадваллар, чизмалар, фотосуратлар, иловалар, изоҳлар, ҳаволалар.

Вазифани бажариш:

1) мавзунини аниқ шакллантириш (масалан, ёзма ҳисобот);

2) мавзу бўйича тавсия этилган адабиётларни ўрганиш ва танланг, библиографик маълумотларнинг учта манбасини ажратиш кўрсатиш:

- бирламчи (мақолалар, диссертациялар, монографиялар ва бошқалар.);

- иккиламчи (библиография, абстракт журналлар, сигнал маълумотлари, режалар, график диаграммалар, мавзу индекслари ва бошқалар.);

- учламчи (шарҳлар, компиляция ишлари, маълумотнома китоблар ва бошқалар.);

3) танланган мавзу билан тўлиқ мос келадиган режани ёзинг мавзу ва мантиқан уни очиқ беринг;

4) қуйидаги талабларга риоя қилган ҳолда ҳисобот ёзинг:

- маъруза таркибига — қуйидагиларни киритиш керак: муаммонинг долзарблигини асословчи қисқача кириш; асосий матн;

муаммо бўйича қисқача хулосалар билан хулоса ўрганилаётган; рефератлар;

- ҳисоботнинг мазмунига - умумий қоидалар қўллаб-қувватланиши керак ва аниқ мисоллар билан тушунтирилган;

шахсни такрорламанг, дарслик ёки дарсликнинг боблари ва ўзларининг кўрилаётган масалаларнинг мазмунига оид фикрлар, уларнинг таклифлари;

5) ишни талабларга мувофиқ тартибга солинг.

Мустақил ишнинг режалаштирилган натижалари:

- талабаларнинг илмий натижаларини таҳлил қилиш қобилияти

тадқиқот ва уларни аниқ ўқув ва илмий-тадқиқот вазифаларини ҳал қилишда қўллаш;

- тадқиқот муаммоларини оригинал ҳал қилиш учун индивидуал ижодий қобилиятлардан фойдаланишга тайёрлик;

- ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда ахборот-библиографик маданият асосида касбий фаолиятнинг стандарт вазифаларини ҳал қила олиш ва ахборот хавфсизлигининг асосий талабларини ҳисобга олган ҳолда баён қилиш<sup>134</sup>.

Хуллас, кўпчилик маданиятшунослик фанлари амалий машғулотлардан иборат, деб ҳисоблайди. Аслида талабалар ижро, амалий машғулотдан ташқари дастлабки босқичларда назарий маълумотлар билан кўпроқ ишлаб ўз тасаввур ва тафакурларини имкон қадар бойитиб борадилар. Шунингдек, маданий-маърифий ишларни ташкил этиш бўйича турли ёндашувлар қўлланилмоқда.

Бугунги таълим аввалгиларидан анча фарқ қилади. Ахборот технологиялари, илм-фан шиддат билан ривожланиб кетгани туфайли таълим жараёнида маълумот олиш ва бериш муаммо бўлмай қолди. Бўлажак мутахассис ўз устида ишламаса, янги методикаларни кашф қилмаса, талабадан ортда қолади. Шу маънода, ўқитувчи учун модуль-кредит таълим тизими қулайлик туғдиради.

Бунда талабаларни мустақил фаолиятга ўргатиб олиш муаммоларнинг ечими ҳисобланади. Талабаларда мустақил таълим асосида бошқарувчилик қобиляти ривожлантириш лозим, айтиш лозимки, самарали ташкил этишнинг бош мезони – топшириқлардир. Маданият соҳасини ривожлантириш топшириқ бериш ва ижрони назорат қилишга ниҳоятда боғлиқдир.

## REFERENCES

1. Абдурахмонов М., Раҳмонов Н. Маданиятшунослик. Ўқув қўлланма, тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи наشري. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. –Тошкент: 2015.
2. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. История искусств Узбекистана. С древнейших времен до середины девятнадцатого века. –Москва: Искусство, 1965.
3. Тўраев Ф. Бухоро муғаннийлари. –Тошкент: Фан, 2009.
4. Шахермайр Ф. Александр Македонский. –Москва: Терра-Книжный клуб, 1999.
5. Европейский кредит тизими (ЕСПС). - Алматы-2003. — 150 С.
6. Ефимов А. В. Олей беккув юртлар как математик притчаалар дхалплами. 2006. - 250 п.
7. Высший преподаватель кредит тизими. - М.: Известия. — № 24 (57).
8. Кубея Или. К. классик университет кредит обучение тизмин жорил Илиш характермари. - Олма-Ота, 2004. — 150 С.
9. Буслук Г. Е., Андреев Р. Е., Колеченок А. А. модуль обучения. Minsk: 2007. — 176 п.
10. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
11. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.

<sup>134</sup> А. В. Меренков, С. В. Куньшиков, Т. И. Гречухина, А. В. Усачева, И. Ю. Вороткова; под общ. ред. Т. И. Гречухиной, А. В. Меренкова] ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016. — 80 с.

12. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT  
//Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 509-511.

**TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA PEDIATRIYA YO'NALISHI  
TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SIMULYATSION TEXNOLOGIYA  
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**Absoatova Zulayho Qodir qizi**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Pediatric: bolalar kasalliklari. (chaqaloqlar reanimatsiyasi)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10015579>

***Annotatsiya.** Simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta'lim bugungi kunda butun dunyoda samarali o'qitish usuli sifatida qabul qilinadi. Pediatric sohasidagi simulyatsiya -bu stajorning pediatr sifatida rivojlanishiga hissa qo'shadigan "odat" sifatida klinik amaliyot standartlarini mustahkamlaydigan vositadir. Ushbu maqola simulyatsiya qanday qilib o'quv jarayoniga ham, klinik xizmatga ham foyda va qiymat qo'shishi mumkinligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** simulyatsiya metodi, pediatric, maniken.*

**DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL SKILLS OF PEDIATRIC STUDENTS IN  
MEDICAL UNIVERSITIES ON THE BASIS OF SIMULATION TECHNOLOGY**

***Abstract.** Simulation-based medical education is regarded today worldwide as an effective teaching method. Simulation in Pediatrics is a tool that strengthens the standards of clinical practice as a "habit" that contributes to the development of the trainee as a pediatrician. This article shows how simulation can add benefits and value to both the training process and the clinical service.*

***Key words:** simulation method, Pediatrics, maniken.*

**РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ НА ОСНОВЕ  
СИМУЛЯЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИИ**

***Аннотация.** Медицинское образование на основе моделирования сегодня считается эффективным методом обучения во всем мире. Моделирование в области педиатрии-это инструмент, который укрепляет стандарты клинической практики как "привычку", которая способствует развитию стажера как педиатра. В этой статье показано, как моделирование может повысить эффективность и ценность как процесса обучения, так и клинических услуг.*

***Ключевые слова:** метод моделирования, Педиатрия, манекен.*

Simulyatsion metod tibbiy bilimlarni, protsessual malaka, o'rgatilgan vazifalarni bajarishda qulaylik, kasblararo muloqot, jamoada ishlash va o'qitish qobiliyatlari samarali yaxshilash uchun ko'rsatilishi keltirilgan. Simulyatsiya deganda nimani nazarda tutayotganimizning umumiy aqliy modeliga ega bo'lish juda muhim, Devid Gaba buni "haqiqiy tajribani haqiqiy dunyoning muhim jihatlarini interaktiv usulda to'liq uyg'otadigan yoki takrorlaydigan boshqariladigan tajribalar bilan almashtirish yoki kuchaytirish texnologiyasi emas, balki texnikasi" deb ta'riflaydi.

Bu xavfsiz sharoitni ta'minlaydi, bunda bemorni parvarish qilish maqsadi sifatida ishonch va kompetentsiya doimiy ravishda mukammallikka ega bo'lishi mumkin. Simulyatsiya atamasi simulyatsiya qilingan bemorlarni tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin; maniken yoki aktyorlar,

yoki simulyatsiya qilingan muhitda simulyatsiya qilingan ssenariylar, masalan, simulyatsiya markazi yoki klinik muhitda simulyatsiya qilingan vaziyat “in situ” simulyatsiya deb nomlanadi.

Klinik ta’limda simulyatsiya muhimligini tan olish uning aviatsiya, harbiy va neft sanoati kabi ishonchliligi yuqori bo’lgan boshqa tashkilotlarga ta’siridan kelib chiqqan. Tizimlarni o’ylash va turli xil sog’liqni saqlash sharoitlarida izchil yuqori sifatli yordam ko’rsatishni ta’minlash haqidagi bilimlarimiz simulyatsiyadan qanday qilib ko’p maqsadlarda foydalanish, jumladan yangi yetkazib berish tizimlarini loyihalashni yaxshilash mumkinligini aniq ko’rsatib o’tdi.

Pediatriya mashg’ulotlarida simulyatsiyadan foydalanish uchun bir nechta sabablar mavjud. Birinchidan, mashg’ulotlar uchun mavjud soatlar. Stress va charchoqning xavfsiz qaror qabul qilish va klinik ko’rsatkichlarga ta’siri to’g’risidagi bilimlarning ortishi stajyorning klinik tajribasini cheklash ta’siri ostida xizmat qilish soatlarining qisqarishiga olib keldi. Murakkab aylanish tizimlari, shuningdek, o’qitishning uzluksizligini va ish joyiga asoslangan baholash natijasida aniqlangan muammolar yuzaga kelishini kamaytiradi.

Ikkinchidan, pediatriya xizmatlari hozirda o’tkazuvchanlik va xarajat nuqtai nazaridan maqsadli yo’naltirilgan va bu mashg’ulotlar uchun bo’sh vaqtga ta’sir qilishi mumkin, ayniqsa palata va klinikalarda. Pediatriyadagi klinik muhit ko’plab umumiy taqdimotlar haqida ma’lumot olish imkoniyatini taqdim etsada, klinik belgilar tezda yo’qoladi va pediatriyada bemorlarning almashinuvi ko’pincha kattalarga asoslangan mutaxassisliklarga qaraganda tezroq bo’ladi va klinik tajribani rivojlantirish uchun vaqt cheklangan. Stajyorlar uchun, ularning bilim darajasidan qat’iy nazar, tez-tez azob chekayotgan va kasal bo’lgan farzandlarini tekshirish uchun ota-onalarning roziligini olish qiyin bo’lishi mumkin. Xizmat ko’rsatish muhitida bemor birinchi o’rinda turadi.

Ko’pgina mamlakatlarda bolalarning sog’lig’i va farovonligi bo’yicha ijtimoiy mas’uliyat nuqtai nazaridan borgan sari kengroq vakolatlarni qamrab oluvchi pediatriya klinik xizmatlariga talab ortib bormoqda. Pediatriya mashg’ulotlarida simulyatsiya amaliyotni o’rganishni yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin. Bu bemorlarni himoya qilgan holda tinglovchilarni haqiqiy amaliyotga tayyorlash uchun ta’lim ko’prigi vazifasini ta’minlaydi.

Simulyatsiyaning eng tushunarsiz qo’llanilishidan biri bu o’z-o’zini anglash va tanqidiy fikrlash kabi umumiy ko’nikmalarni rivojlantirish imkoniyatidir. Simulyatsiya orqali o’rganishga yordam beradigan eng yaxshi omillar:

- Konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish
- Takroriy mashq qilishga ruxsat berish
- Simulyatsiyani o’quv dasturiga integratsiyalash
- Bir qator qiyinchiliklarni ta’minlash
- Bir nechta o’rganish strategiyalariga moslash
- Bir qator klinik ssenariylarni taqdim etish
- Xavfsiz, ta’limni qo’llab-quvvatlovchi ta’limni ta’minlash
- Atrof-muhit
- Shaxsiy ehtiyojlar asosida faol o’rganishni targ’ib qilish.

Pediatriyada simulyatsiya protsessual ko’nikmalar kabi texnik ko’nikmalarni va jamoada ishlash, muloqot qilish, yetakchilik, qaror qabul qilish va vaziyatdan xabardorlik kabi texnik bo’lmagan ko’nikmalarni rivojlantirish uchun ishlatilgan. Bugungi kunga qadar e’lon qilingan dalillarning aksariyati favqulodda vaziyatlar bilan bog’liq. Simulyatsiyaning katta foydasi

shundan iboratki, ko'nikmalarni yaratish, mustahkamlash va eng so'nggi dalillarga muvofiq takomillashtirish hamda tegishli vaqtda tizimli va tuzilgan usullardan foydalangan holda o'rganish mumkin. Shuningdek, u tinglovchilarga dori-darmonlarni qabul qilishda xatolik, aloqada bo'lgan nosozliklar va yomonlashib borayotgan bemorlarga yordam ko'rsatishni tan olmaslik kabi boshqa tez-tez uchraydigan noxush hodisalardan o'rganish imkoniyatini beradi. Markaziy venoz kateter bilan bog'liq bo'lgan infeksiya va o'rnatish asoratlari kamayishi va angioplastikadan keyin bemorning yaxshi natijalari simulyatsiyaga asoslangan treninglar natijasidir.

Pediatryada in situ simulyatsiya mashg'ulotlarini qo'llash bilan bog'liq ko'plab dalillar mavjud. Bularga simulyatsiya qilingan soxta kodlar kiritilgandan so'ng yurak-o'pka tutilishining omon qolish ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, bolalarning intensiv terapiya bo'limiga tezroq ko'tarilishi bilan kasal bemorlarning erta tan olinishi va bolalar favqulodda vaziyatlari uchun in situ guruh mashg'ulotlari kiritilgandan keyin o'limning kamayishi va jiddiy xavfsizlikning pasayishi kiradi. favqulodda vaziyatlar bo'limidagi voqealar. Bakalavriatdan aspiranturagacha uzluksiz integratsiyalashgan kompetensiyaga asoslangan pediatriya dasturini ta'minlashga qaratilgan xalqaro tendensiyaklinik o'qitishda uzluksiz kasbiy rivojlanishga qadar simulyatsiya uchun uning maksimal salohiyatidan foydalanish uchun asos yaratadi.

Quyida xalqaro adabiyotlarda keltirilgan pediatrik muhitda o'qitish va o'rganish uchun simulyatsiyaning joriy afzalliklari jamlangan. Pediatrik statsionar bemorlarning 10% dan 30% gacha bo'lgan qismi ularga yordam ko'rsatishdan zarar ko'radi. Buyuk Britaniyada ona va bola salomatligiga oid maxfiy so'rov hisobotida "Bolalar nima uchun o'lmoqda?" nomli maqolada bolalar o'limining foizini oldini olish mumkin bo'lgan deb topildi. yashirin xavfsizlik tahdidlari.

Yashirin xavfsizlik tahdidlari potentsial xavfxatarlar bo'lib, ular ko'pincha muhim xavfsizlik hodisasiga hissa qo'shmasdan oldin sezilarli vaqt davomida tan olinmagan va harakatsiz bo'lib qoladi. Simulyatsiyaning afzalliklaridan biri stajyorlarga bunday hodisalarni tahlil qilish, tizimni qayta loyihalashda faol va yashirin nosozliklarni aniqlash va har qanday boshqa kutilmagan zararni oldini olish uchun simulyatsiya qilingan muhitda variantlarni sinab ko'rish uchun asosni taqdim etishdir.

## REFERENCES

1. Gaba D. Sog'liqni saqlashda simulyatsiyaning kelajakdagi ko'rinishi. Qual Saf Healthc virtual o'rganishning dastlabki tahlili muhit. Sabab J. Inson xatosi: modellar va boshqaruv. BMJ 2000. Ker J, Bradley P. Tibbiy ta'limda simulyatsiya. In: Swanick T,ed. Tibbiy ta'lim seriyasini
2. SHAPING STUDENTS'THINKING SKILLS. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1, 37-40. Raximqulova, M. (2021). TA'LIMGA INNOVATSION YONDASHUV-O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 118-121.
3. Fayzullayeva, G. S. (2017). Pupils' Speech Interaction in Various Stages of Education and Development Their Creative Intellection. www. auris-verlag. de.
4. Amrilloevich, I. A. (2022). COGNITIVE COMPETENT AS A KEY FACTOR IN THE 2004.



- Rubio-Gurung S, Putet G, Touzet S va boshqalar. In situ simulyatsiya neonatal tushunish, 2014.
5. Dieckmann P, Gaba D, Rall M. Nazariyni chuqurlashtirish ijtimoiy amaliyot sifatida bemorni simulyatsiya qilish asoslari. Simul Sog'liqni saqlash 2007.
  6. Kneebone RL. Chiziqni kesib o'tish: simulyatsiya va chegara hududlar. Simul Healthc reanimatsiya bo'yicha trening.

FRANCES HADGSON BURNETTNING “THE SECRET GARDEN” ROMANINI  
INGLIZ TILIDAN O’ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR  
TAHLILI

Qarshiyeva Nafisa Mamarahim qizi

[qarshiyevanafisa1@gmail.com](mailto:qarshiyevanafisa1@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10019355>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola Franses Burnet tomonidan yozilgan – “The secret garden” ya’ni “Sirli bog” asarini so’zma-so’z tarjima qilishda uchragan muammolar va ularning tahlili haqida Maqolada tarjima usullari haqida ham ma’lumot beriladi.

**Kalit so’zlar:** leksik tahlil, morfologik tahlil, punktuatsion tahlil, tarjima turlari.

ANALYSIS OF THE PROBLEMS IN TRANSLATING FROM ENGLISH TO  
UZBEK IN THE NOVEL OF “THE SECRET GARDEN” BY FRANCES HADGSON  
BURNETT

**Abstract.** This is about the problems encountered the problems in the literal translation of Frances Jodgson Burnett’s “The secret garden” and their analysis.

**Key words:** lexicological analysis, morphological analysis, types of translation.

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ ПЕРЕВОДА РОМАНА ФРЭНСИС ХЭДГСОН БЕРНЕТТ  
“СЕКРЕТНЫЙ САД” С АНГЛИЙСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

**Аннотация.** Данная статья написана Фрэнсис Бернет – о проблемах, с которыми столкнулась при дословном переводе произведения “секретный сад”, то есть “тайный сад”, и их анализе, в статье также будет рассказано о методах перевода.

**Ключевые слова:** лексический разбор, морфологический разбор, пунктуационный разбор, виды перевода.

KIRISH

Franses Jodgson Burnetning “The secret garden” ya’ni “Sirli bog” asari 1911-yilda Amerika jurnallarining birida nashr qilingan. Undan so’ng Angliyada kitob holdida bosib chiqarilgan. Bu asar Burnetning eng mashhur asarlaridan biridir. Kitob ingliz bolalari klassikasi hisoblanadi. Asar tarjimasida so’zma – so’z tarjima qilish usulidan foydalanilgan va bu jarayondagi qiyinchiliklar ushbu maqolada yoritilib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani yozishda ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilinayotgan asarning chog’ishtirma, tahliliy, qiyosiy, statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan.

**Qiyosiy metod:** Bir til oilasiga mansub bo’lgan tillarning o’xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish usuli.

**Chog’ishtirma metod:** Turli tizimli tillardagi xususiyatlarning o’xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish usuli.

MUHOKAMA

Mazkur asarning ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilinishida ko’plab transformatsiyalarni amalga oshirishga to’g’ri keladi. Hozir ularni gaplar misolida ko’rib chiqamiz.

“When Mary Lennox was sent to Misselthwaite Manor to live with her uncle, everybody said she was the most disagreeable-looking child ever seen”

Bu gapni so’zma-so’z tarjima qilinganda:

“Mary Lennox xolasi bilan yashash uchun Misselthwaite Manorga jo’natilganda, hamma uning yoqimsiz bola ekanligini aytdi”.

Bu gap sintaktik transformatsiya qilinganda:

“Mary Lennox xolasi bilan birga yashash uchun Misselthwaite Manorga olib kelinganda, hamma odamlar uning ko’rimsizgina bola ekanligini aytgan“ shaklida tarjima qilinadi.

“Her hair was yellow and her hair was yellow because she had been born in India and had always been ill in one way or another”.

“Uning sochi sariq va yuzi sariq, chunki u Hindistonda tug’ilgan va har doim bir tomondan yoki boshqa tomondan kasal bo’lardi”.

Sintaktik transformatsiya bo’yicha: “U Hindistonda tug’ilganligi uchun uning yuzi va sochlari sariq, har doim kasal bo’lib qolardi”.

Mazkur maqolada leksik, morfologik transformatsiyadan ham foydalanilgan:

1. “Disagreeable-looking”

Ushbu so’zni to’ridan –to’g’ri tarjima qilinsa “Yoqimsiz-ko’rinishli” deb tarjima qilinadi. Lekin leksik transformatsiyaga uchratilsa, “ko’rimsiz” deb tarjima qilinadi.

2. “Nothing was done in its regular order”.

So’zma-so’z tarjima qilinsa hech narsa oddiy tartibda qilinmadi. Lekin konatatsiya orqali leksik tarjima qilinsa “Hamma narsa oddiy tartibda bajarilmagan edi” deyish mumkin.

Tarjima jarayonida so’zma-so’z yoki g’aliz birikmalarni qo’llashdan qochish va uning o’rniga hamma tushunadigan so’zlarni qo’llashda leksik transformatsiyadan foydalaniladi. Leksik transformatsiyani tarjima nazariyasida so’zlarni kontekstda almashtirish ham deb yuritiladi.

Morfologik transformatsiya:

1. Yellow-sariq.

1. Sifat so’z turkumi.

2. Oddiy daraja.

3. Gapdagi vazifasi: aniqlovchi.

2. To the room- xonaga.

1. Ot so’z turkumi.

2. Gapdagi vazifasi: hol.

## XULOSA

Har bir tarjimon, biror bir asarni tarjima qilish jarayonida turli xil muammolarga duch kelishi mumkin. Tarjimon tarjima qilish jarayonida nihoyatda mas’uliyatli bo’lishi lozim. Chunki asar muallifning fikrini kitobxonga tiniq ravishda yetkazib bera olmasligi mumkin. Tarjima qilishda tarjimonning so’z boyligi keng bo’lishi darkor, negaki u asarda uchragan so’zlarni bir so’z bilan tarjima qilmasdan sinonimlardan ham samarali foydalana olishi kerak. Bu asar qiyinchiliksiz o’qlishiga yordam beradi. Hamda kitobxonda zerikish kuzatilmaydi.

Mazkur asar avval so’zma-so’z tarjima qilinishi va undan keyin leksik va morfologik tahlil qilish quyidagi maqolada yoritilib berildi. Asarni nega to’g’ridan-to’g’ri emas balki leksik va morfologik tahlil qilishi kerak degan savol tug’ilishi mumkin? Bu savolga javob shuki, asarni bu transformatsiyalarda yordamida tahlil qilish asarni boyitadi, uni o’qiydigan kitobxon uchun qiziqarliroq va aniqroq tushuntiradi.

## REFERENCES

- 1.Solijonov Juraali Kamoljonovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek. *ASEAN Journal on Science & Technology for Development*, Vol 39(No 4.), 221–229. doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>
- 2.Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
- 3.Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVISKIY ASARLARI MISOLIDA). *Ta'lim fidoyilari*, 18(5), 32-37.
- 3.Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI"("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II"* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
- 4.Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI"ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>

## INGLIZ TILINI O`RGANISHDA TEXNOLOGIYANING O`RNI

Safarov Nasriddin Sadriddin o`g`li

O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tarjimonlik fakulteti  
Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo`nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10019400>

**Annotatsiya.** Bugungi rivojlanayotgan davrda har bir sohada texnologiyalar muhim bir omilga aylanib bormoqda. Xuddi shuningdek, ushbu texnologiyalar til o`rganishda ham o`z o`rniga ega bo`lib bormoqda. Ushbu maqolada til o`rganishda (asosan ingliz tili) texnologiyalarning ustun va ojiz taraflari ko`rib chiqiladi.

**Kalit so`zlar:** innovatsion texnologiyalar, robotexnologiyalar, smartfonlar, gadjetlar, duolingo.

## THE ROLE OF TECHNOLOGY IN LEARNING ENGLISH

**Abstract.** In today's developing era, technologists are becoming an important factor in every industry. Likewise, these technologies are also gaining a foothold in language learning. This article examines the dominant and powerless aspects of technology in language learning (primarily English).

**Keywords:** innovative technologies, robotics, smartphones, gadgets, duolingo.

## РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация.** В сегодняшнюю развивающуюся эпоху технологии становятся важным фактором во всех отраслях. Точно так же эти технологии также находят свое место в изучении языков. В этой статье рассматриваются превосходные и слабые стороны технологий в изучении языков (в основном английского).

**Ключевые слова:** инновационные технологии, робототехника, смартфоны, гаджеты, Duolingo.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan 21-asrda texnologiyalar kirib bormagan soha qolmagan desak, adashmagan bo`lamiz. Hayotimizning har bir soniyasida, qandaydir maqsadda u yoki bu turdagi texnologiyalardan foydalanamiz. Bu bir tarafdin hayotimizni, shaksiz, ancha yengillashtirdi, ammo boshqa jihatdan insonlarning borgan sari nimadir qilish uchun faqat texnologiyaga suyanib qoladigan darajagacha olib boryapti. Albatta, hayotimizning yengillashishi yaxshi, lekin ba`zan jismoniy harakatlar qilish yoki aqliy jihatdan ozgina harakat qilish ham yomon oqibatlariga olib kelmaydi desak haqiqatga yaqin bo`ladi.

Bu esa o`z o`rnida hamma ishlarni ham faqat texnologiyalar bilan qilaverish kerak degan gapdan yiroqlashishga chaqiradi. Qadimdan ma`lumki, ko`pgina dehqonchilik ishlari va albatta sanoat sohasida odamlar ko`proq qo`l mehnatiga asoslanishgan va bu o`z o`rnida ko`pchilikni ish bilan ta`minlagan. Ammo yil o`tgan sari inson omili o`rniga har bir sohada robotexnologiyalar atamasi kirib kelmoqda.

Bu o`z o`rnida tarjimonlik va til sohasiga ham o`z ta`sirini o`tkazmay qolgani yo`q. Har bir til o`rganuvchi talaba yoki abituriyentlar bugungi kunda smartfonlar yoki turli xil gadjetlardan til o`rganishda foydalanishmoqda, shuningdek hammaning yordamchisiga aylanib ulguragan "Google tarjimon" kabi ilovalardan ham omma keng ravishda foydalanmoqda. Quyida shu va shu kabi ilovalar, smartfonlar, gadjetlar va texnologiyalar haqida batafsilroq ma`lumot beriladi.

“*Google translate*” - matn, hujjatlar va veb-saytlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish uchun google tomonidan ishlab chiqilgan ko'p tilli neyron mashina tarjimasi xizmati. 2006-yilning aprel oyida statistik mashina tarjimasi xizmati sifatida ishga tushirilgan u lingvistik ma'lumotlarni yig'ish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropa Parlamenti hujjatlari va transkriptlaridan foydalangan.

Tillarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish o'rniga, u avval matnni ingliz tiliga tarjima qiladi, so'ngra kataloncha-ispanchani o'z ichiga olgan bir nechta istisnolardan tashqari til birikmalarining ko'pchiligida maqsadli tilga aylanadi. 2013-yil may oyida kompaniya 200 milliondan ortiq kishiga xizmat ko'rsatganini e'lon qiladi, shundan so'ng 2016-yil aprel oyiga ko'ra foydalanuvchilar soni 500 milliondan oshadi va kuniga 100 milliard so'z tarjima qilinadi. 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra “*Google translate*” turli darajadagi 133 tilni qo'llab quvvatlaydi va kunlik 200 million foydalanish darajasigacha chiqadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, “*Google translate*”dan foydalanish statistikasi yildan yilga oshib bormoqda va shunga yarasha tarjima qilish darajasi ham sifati ham yaxshilanmoqda. Ba'zan ushbu platformadan foydalanish foydali bo'lishi mumkin, lekin ko'pgina konferensiya va shu kabi jarayonlarda baribir inson tarjimasi kerak bo'ladi va bu o'z o'rnida shuni anglatadiki, ushbu platforma, ba'zi bir iboralar va so'z birikmalarini o'z maromiga keltirib tarjima qila olish qobiliyatiga ega emas. Bu esa ushbu platformaning hali yanada takomillashuvini talab qiladi.

Endi turli xildagi ilovalar va gadjetlarga keladigan bo'lsak, butun dunyo bo'ylab, hammamizga ma'lum-u mashhur bo'lgan “*Play market*” orqali ko'plab til o'rgatuvchi ilovalar yuklab olinmoqda va shu orqali til o'rganishga harakat qilinmoqda. Shuningdek, aynan til o'rganishga moslashtirilgan turli xil gadjetlar ishlab chiqarilmoqda. Ulardan eng mashhurlari haqida gaplashamiz.

“*Duolingo*” til o'rganuvchi dasturlarni ishlab chiqaruvchi va til sertifikatini taqdim etuvchi Amerika ta'lim texnologiyalari kompaniyasidir. U ingliz va ispan kabi mashhur tillardan tortib uels, irland va suahili kabi kam o'rganiladigan tillargacha 40 dan ortiq tilda kurslarni taklif etadi. 2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra oylik faol foydalanuvchilar soni 60.7 million kishini tashkil etadi va shubhasiz bugungi kunga kelib ushbu raqamlar yana bir necha barobarga oshgan bo'lishi haqiqatga yaqinroqdir.

Albatta, bu ilovaning foydali jihatlari ko'pligidan darak beradi. Shuning uchun ham foydalanuvchilar soni yildan yilga ortib bormoqda. Shuningdek, “*Duolingo*” sertifikati ham joriy qilingan bo'lib butun dunyo bo'ylab ko'pgina universitetlarda qabul qilina boshlangan. Bu ham o'z o'rnida ushbu ilovaning tanlanishiga olib keladi. Albatta, ilova yaxshi ishlab chiqilgan bo'lib, unda foydalanuvchi turli xil o'yinlar orqali va turli xil qiziqarli usullar orqali til o'rganishi ancha osonlashadi. Ammo ba'zan shu va shunga o'xshash ilovalar tufayli ba'zi bir yoshlar telefonga mukkasidan ketishi va sog'lig'ida muammolar paydo bo'lishi mumkin. Buning oldini olish maqsadida esa ota-onalar o'z farzandlarini yoki umuman olganda istalgan til o'rganuvchi shaxs, albatta, offlayn darsga qatnashishi lozimligini anglab yetadi.

Bu ilovadan foydalanish mumkin emas degani emas, aksincha foydalanganda ham o'z o'rnida, ya'ni ma'lum bir me'yorlarga asoslangan holatda foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Nafaqat ushbu ilovadan, shu va shunga o'xshash ilova va gadjetlardan o'z o'rnida va ma'lum bir me'yorlarga asoslangan holatda foydalanilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lgan bo'lardi.



Нефробластома билан оғриган бемор болаларни даволаш касалликнинг босқичига ва морфологик жиҳатдан ўсма турига боғлиқдир. Нефробластомани жарроҳлик амалиёти орқали олиб ташлаш, унинг гистологик турини ва касаллик босқичини аниқлаш даволаш тактикасини танлашда муҳим аҳамиятга эгадир. Нефробластома билан оғриган беморларга радиотерапия кам ҳолларда, асосан III-IV босқичларида қўлланилади [1,5,6,8,11,13,14,17,19].

**Тадқиқотнинг мақсади.** Нефробластомада болалар буйрагида ривожланувчи патоморфологик ўзгаришларни ўрганишдаги замонавий диагностик усулларни такомиллаштириш

**Материал ва усуллар.** Биз асосан РИОваРИАТМнинг Болалар онкологияси бўлимига 2010-2022 йиллар давомида мурожаат қилган ва нефробластома ташхиси тасдиқланиб, даво курсларини олган 34 нафар бемор боланинг касаллик тарихларини ретроспектив таҳлил натижаларини ўрганиш давомида тадқиқот ишларимизни олиб бордик. Касаллик муддати 1 ёшдан 4 ёшгача ташкил қилди.


Белгилаб қўйилган вазифалардан келиб чиққан ҳолда клиник материалларни икки гуруҳга бўлиб ўрганилди: 1-гуруҳга нефробластома касаллиги билан касалланган 11(57,9%) нафар, 2-гуруҳга буйрак киста касаллиги билан касалланган 8(42,1%) нафар боланинг касаллик тарих-лари таҳлил учун олинди. Гуруҳлар ёш, жинс, касалланиш муддатлари, нефробластоманинг турлари ва патоморфологик ўзгаришлари бўйича таҳлил қилинди.

**Олинган натижалар ва уларнинг муҳокамаси.** РИОваРИАТМда 2010-2022 йилда текширув ўтказилган ва даволанган нефробластома ташхиси қўйилган 19 та беморларнинг касаллик тарихлари ўрганилганда шулардан 11 нафари (57,9%) ўғил болалар, 8 нафари (42,1%) киз болаларни ташкил қилган. Ушбу болаларни ёши 1 йил 10 ойдан 9 ёшгача бўлган. Болалар туғилганда оналари 30 ёшдан ошган (40 ёш, 31 ёш, 32 ёш, 43 ёш) 1таси (5,27 %) 18 ёшларда бўлган. Бемор болаларининг 57,9 %ида чап томонлама нефробластома, 36,8 %ида ўнг томонлама нефробластома, 5,3 %ида эса икки томонлама нефробластома ташхиси аниқланган. Касаллик тарихини ретроспектив таҳлил қилишда асосан нефробластома 73,7 % ҳолатларда 2 ёшдан 4 ёшгача бўлган болаларда кузатилган. (1 расм)



**Расм. 1. Нефробластомани болаларнинг ёшга қараб тарқалиши .**

Ушбу беморларнинг ярмидан кўпи, 11(57,9%) нафар қорин бўшлиғи катталашини ҳисобига оналар томонидан мустақил равишда, 5(26,3%) нафар бемор стационар текширувлар вақтида ва қолган 2(10,5%) нафар бемор аллергия реакциялар ва охириги 1(5,3%) нафар бемор гематурия кузатилиши натижасида ультратовуш текширувида аниқланган ва нефробластома ташхиси қўйилган. (2 расм)



**Расм. 2. Болаларда нефробластомани ташхислаш кўрсаткичлари**

Ушбу беморларнинг 52,5 % нефробластома ташхиси қўйилган вақтида II босқичга, 21,1% III босқич, 21,1% IV босқич ва битта ҳолатда, 5,3 % V босқичга эга бўлганлиги аниқланди. Клиник қон таҳлиллари натижасига кўра 8 (42,1%) нафар беморда анемия кузатилган, шулардан 31,6% енгил ва 10,5% ўртача анемия ҳолати кузатилган. 15,8% беморларда лейкоцитоз, 21,1% эозофилия, 36,8% моноцитоз ва ЭЧТ ошиш ҳолатлари

кузатилган. Сийдикнинг умумий таҳлилида патологик ўзгаришлар 3 нафар беморда 15,8%, шу жумладан, гематурия 2 нафар (10,5%) ҳолатда ва 1 нафар (5,3%) ҳолатда кам микдорда протеинурия ҳолати кузатилган.

**Хулоса.** Шундай қилиб, юқоридаги таҳлил натижаларига кўра, 19 нафар Вильмс ўсмаси ташхиси қўйилган беморларнинг 57.9%ини қиз болалар ва 42,1%ини ўғил болалар ташкил қилди. Аниқланган беморларнинг ўртача ёши асосан  $4\pm 2,5$  ёшни ташкил қилади ва одатда 94,7 % ҳолатларда тасодифан аниқланади.

## REFERENCES

1. Avezov A. Kattahodjaeva M, Boltoeva F., Yuldasheva S., Study of the development level of risk factors in dangerous tumors causing lonely arterial thromboembolia //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Т. 29. – №. 5. – С. 1751-1760.
2. Khurbanova, N., Omonova, G., Alimova, M., & Komiljanova, S. (2017). The state of antioxidant system of mitochondrial fraction of the hepatocyte in early terms of ischemic stroke in white rats. *Интернаука*, (12-2), 51-53.
3. Kurbanova N. N. others. Effect of new herbal preparations on some indicators of apoptosis in rats with acute toxic hepatitis //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 08. – С. 6999-7005.
4. Kurbanova N.N. et al. The effect of new plant hepatoprotectors on the level of proinflammatory cytokines in acute toxic liver damage. //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – Vol. 24, Issue 08, 2020. – Page. 8910-8920.
5. Navruzovna K. N. et al. Biochemical changes in hepatocyte subcellular fractions in experimental ischemic stroke //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 7-2 (61). – С. 57-59. ООО «Олимп».
6. Navruzovna K. N. et al. Generation of reactive oxygen species in the mitochondrial fraction of hepatocytes in the early stages of experimental ischemic stroke //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 7-2 (61). – С. 60-62. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/generation-of-reactive-oxygen-species-in-the-mitochondrial-fraction-of-hepatocytes>.
7. Rozhadjaeva G.A., Ikramova Z., Avezov A.U., Aytimova G.Yu. Ankle-brachial index in the study of the prevalence of peripheral artery disease in the Uzbek population.. *Annals of medical & Surgical Case Reports*. 7<sup>th</sup> January Australiya. 2020
8. Аvezов А.У Хавфли ўсма касаллик ларида ўпка артерия лари тромбоземболияси риволанишида кузатиладиган хавф омиллар ининг тарқалиш даражасини ўрганиш. “Биомедицина ва амалиёт” журнали Ташкент, 2020 № 4 сон, 5 жилд, 132-138- б.
9. Аvezов А.У. Онкопатология билан касалланган беморларда веноз тромбоземболияни замонавий инновацион усуллар билан текшириш. «Актуальные проблемы детской радиологии» международная научно-практический журнал 2019. стр 10
10. Аvezов А.У. Современные инновационные исследования венозной тромбоземболии у пациентов с онкопатологией. *Педиатрия*. Ташкент. 2019, С.10-15.
11. Айтимова Г. Ю., Аvezов А. У., Урунбаева Н. А. Изучение заболеваний периферических артерий среди населения хорезмской области //«yosh olimlar tibbiyot jurnali» Tashkent medical academy «Medical journal of young scientists» Ташкентская медицинская

- академия. 2022. №3– С. 7-15
12. Белогурова М. В. Болалар онкологияси. - Санкт-Петербург: Спеслит, 2019. - 351 п.
  13. Болалар нефрологияси / ед. Е. Леуманн, А. Н. Цигин, А. А. Саркисян. - М.:Литтерра, 2018. - 400 б.
  14. Болалик гематологияси / ед. А. Г. Румянцева, Е. V. Самочатова. - М.: ид медпрактика-М, 2020. - 792 б.
  15. Дурнов Л. А. Болаларда нефробластома ва буйрак хужайрали карцинома // Болаларонкология. - 2017. - Но 2. - С. 20-23.
  16. Дурнова Л.А. Болалар онкологияси бўйича қўлланма / ед. Л. А. Дурнова. – М.: Миклош, 2003. –503 б.
  17. Каримова, МА; Курбанова, НН; Нарушение нормальной микрофлоры толстой кишки влияния генно-модифицированной сои в эксперименте, "Журнал" Медицина и инновации",3,162-166,2022.
  18. Курбанова Н. Н. и др. Ряд особенностей распространения заболеваний органов пищеварительной системы среди студентов Ургенчского филиала ташкентской медицинской академии //Инновационное развитие современной науки: проблемы, закономерности, перспективы. – 2019. – С. 147-149.
  19. Курбанова Н. ПЕРВИЧНЫЕ И ВТОРИЧНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ ПОРАЖЕНИЯ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ РТА //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 142-146.
  20. Лоран О. В., Frank Г. А., Серегин А. В. ва бошқалар. Апоптоз ва пролиферация омиллари буйрак саратонида // Онкурология. - 2018. - Но 2. - Б.16-21.
  21. Нишанов Д.А., Авезов А.У. Хавфли ўсма касалликларидида ўпка артерияси тромбоземболиясини аниқлаш усули. Ташкент. 2020.
  22. Попова Ю. S. Буйрак ва сийдик пуфаги касалликлари. - Санкт-Петербург: Крилов, 2018. - 88 б.
  23. Пугачев А. Г. Болалар урологияси. - М.: ГЕОТАР-Media, 2019. - 832 б.
  24. Розыходжаева Г, Айтимова Г, Икрамова З, Авезов А.У., Розыходжаева Ф (2020) Лодыжечно-плечевой индекс в изучении распространенности заболеваний периферических артерий среди населения Узбекистана. Представитель Ann Med & Surg: AMSCR-100040, 2020
  25. Ўсма касалликларини кимётерапия қилиш бўйича кўрсатмалар / ед. Н. I. Переводчикова. - 3-нашр, қўшимча. в. - М.: Амалий тиббиёт, 2019. - 512 б.
  26. Шилова Е. М. Нефрология: Олий ўқув юртидан кейинги таълим учун дарслик. - М.: ГЕОТАР-Media, 2017. - 688 б.

### FOZIL YO'LDOSH GRUZIN ASARINI HAM BILGAN...MI?

Egamkulova Gauxar Mustafaevna

Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10030291>

**Annotatsiya.** Mазкур мақолада атоқли ўзбек бахшиси Фозил Йўлдаш ўглининг ўзбек ва қорақалпоқ дostonчилиқ санъатиға қўшган ҳиссаси ҳақида гап боради. Булунгур дostonчилиқ мактабининг ёрқин вакили Фозил Йўлдошининг грузинларнинг машҳур “Йўлбарс терисини ёпинган паҳлавон” дostonини ҳам ёддан билиб, уни куйлай олгани қизиқарли маълумотдир. Муаллиф ушбу маълумот доирасида муҳим фактларни эълон қилади. Фозил бахшининг қорақалпоқ демократ шоири Бердақнинг асарларини ҳам куйлагани икки халқ орасидаги азалий қариндошлиқ ва маданий-адабий алоқаларнинг қалинлигидан далолатдир.

**Калим сўзлар:** Фозил Йўлдош, Булунгур мактаби, жиров, грузин дostonи, бахшичилиқ санъати.

### FOZIL YOLDOSH ALSO KNEW THE GEORGIAN WORK...DID HE?

**Abstract.** This article talks about the contribution of the son of the famous Uzbek poet Fazil Yoldash to the art of Uzbek and Karakalpak epics. It is an interesting fact that Fazil Yoldash, a bright representative of the Bulung'ur epic school, learned the famous Georgian epic “The Knight in the Tiger Skin” by heart and was able to sing it. The author declares important facts within this information. The fact that Fazil Bakhshi also sang the works of the Karakalpak democratic poet Berdaq is a proof of the age-old kinship and cultural-literary ties between the two peoples.

**Key words:** Fazil Yuldash, Bulungur school, storyteller, Georgian epic, art of storytelling.

### ФОЗИЛ ЁЛДОШ ТОЖЕ ЗНАЛ ГРУЗИНСКИЙ ШЕДЕВР?

**Аннотация.** В данной статье говорится о вкладе сына известного узбекского поэта Фазиля Юлдаша в искусство узбекского и каракалпакского эпоса. Интересен тот факт, что Фазиль Юлдаш, яркий представитель эпической школы Булунгура, выучил наизусть знаменитый грузинский эпос «Витязь в тигровой шкуре» и смог его спеть. Автор заявляет важные факты в этой информации. Доказательством векового родства и культурно-литературных связей между двумя народами является тот факт, что Фазил Бахши исполнял также произведения каракалпакского поэта-демократа Бердака.

**Ключевые слова:** Фазил Юлдаш, школа Булунгура, сказитель, грузинский эпос, искусство сказительства.

Qoraqalpoq jirovchilik san`ati azaldan o`zbek baxshichilik san`ati bilan chambarchas bog`lik holda rivojlangan. Qadimdan qardosh ikki xalqning ushbu noyob san`at turining mushtarakligi Nurota-Bulung`ur dostonchilik maktabi misolida ko`rinadi. Qoraqalpoqlarning Buxoro amirligiga qarashli bo`lgan davrida ikkita jirovchilik maktabi bo`lgan. Ularning biri Qizilqum maktabi bo`lsa, ikkinchisi Nurota-Bulung`ur maktabi bo`ldi.

Aynan Nurota-Bulung`ur maktabidan Shanqay, Mambet, Egamberdi, Begmurat kabi o`nlab qoraqalpoq shoir-jirovlari etilib chiqqan. Ushbu maktabning yirik vakillaridan biri, mashhur o`zbek baxshisi Fozil Yo`ldoshdir.

Fozil Yo`ldosh o`g`li (1872, Jizzax viloyati Baxmal tumani Loyqa qishlog`i — 1955.17.3, Samarqand viloyati Bulung`ur sh.) o`zining otasi Yo`ldosh Mulla Murod o`g`lining shogirdidir.



Uning dostonchilikka havasi erta uygʻongan. Yoshligida doʻmbira chertishni, terma aytishni mashq qilgan.

20 yoshlarida ustozlari Yoʻldosh shoiridan dostonchilik sirlarini oʻrgangan. Yosh baxshi xalq oʻrtasida ustozlari uyushtirgan sinovdan muvaffaqiyatli oʻtib, 25-26 yoshlarida yetuk dostonchi sifatida tanilgan.

Fozil Yoʻldosh oʻgʻli Amin shoir, Chini shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Sultonmurod shoir, Yoʻldoshbulbul, Yoʻldosh shoir, Koʻldosh, Suyar kabi Bulungʻur dostonchilik maktabining peshqadam dostonchilaridan adabiy anʼanani qabul qilib olgan, uni puxta egallab, keyinchalik badihagoʻylik bilan boyitgan va oʻzbek dostonchiligini yangi bosqichga koʻtargan.

Fozil Yoʻldosh oʻgʻli repertuari mavzu va janr jihatidan boy va rang-barang. U 40 dan ortiq xalq dostonlarini yod bilgan va yuksak mahorat bilan kuylagan. Undan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Murodxon», «Rustamxon», «Shirin bilan Shakar», «Goʻroʻgʻlining tugʻilishi», «Avaxxonning oʻlimga hukm etilishi», «Malika ayyor», «Mashriqo», «Zulfizar», «Balogardon», «Intizor», «Nurali», «Jahongir», «Zevaxxon», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Baxrom va Gulandom», «Oshiq Gʻarib» kabi 30 ga yaqin doston yozib olingan [1].

Oʻzbek dostonchiligini rivojlantirishga katta hissa qoʻshgan jirov Fozil Yoʻldoshdan mashhur adib Hamid Olimjon “Alpomish” dostonini yozib olgandan keyin uning dongʻi tarqadi. Fozil Yoʻldosh mazkur dostonni qoraqalpoqcha ham kuylagan.

Fozil baxshi faqat ustozlaridan oʻrgangan doston-termalarini ijro etib qolmasdan, oʻzi eshitgan yoki guvohi boʻlgan hodisalar asosida asarlar ham yaratgan.

Fozil baxshi Berdaqning qator asarlari bilan birga uning “Shajara” dostonini ham yoddan bilib, uni Surxandaryo, Qashqadaryo qoraqalpoqlari orasiga ham tarqatgan. Hattoki, Berdaqning “Yaxshiroq” nomli termasi asosida oʻzining shu nomdagi termasini ham yaratgani olim B.Qurbonboevning “Berdaq va oʻzbek adabiyoti” asari orqali maʼlum [2]. Fozil baxshi qoraqalpoq jirovlari Muyten jirovning, Shanqay jirovning hamda Ajiniyoz shoirning asarlarini ham sevib ijro etgan.

Nurota-Bulungʻur baxshichilik maktablari vakillari repertuarida turkiy xalqlardan tashqari boshqa xalqlarning eposlari boʻlganligi boʻyicha ham qator maʼlumotlar mavjud. Fozil Yoʻldosh gruzinlarning mashhur «Yoʻlbars terisini yopingan pahlavon» dostonini yoddan bilganligi qiziqarli hodisa.

Arislan Mayli Madanxanning «Qaraqalpaqstan maʼdeniyati» gazetasining 1995 yil 2-sonida chop etilgan “Fozil baxshi” maqolasida quyidagicha maʼlumotlar qayd etiladi:

«Bulungʻurdagi mashhur shajarachi Tursin Yaxshimurod oʻgʻlining oʻgʻli Hatam otaning bergan maʼlumotiga koʻra (u kishi Fozil baxshini koʻp koʻrgan), bir safari Gruzniyada oʻrta asrda yashagan mashhur gruzin shoiri Shota Rustavelining 750 yillik yubileyi oʻtkaziladi. Mana shu toʻyga qatnashgan Oʻzbekiston delegatsiyasi tarkibida Fozil Yoʻldosh ham boʻlgan. Toʻyda barcha yurtdan kelgan mehmonlar nutq soʻzlab, shoirlar sheʼr oʻqib, eng oxirida Fozil Yoʻldoshdan «Siz ham azim Samarqanddan kelgandingiz, qani samimiy tilaklaringizni bildarab, Shota Rustaveliga qasida aytsangiz» degan taklif tushadi. Fozil baxshi darhol oʻrnidan turib botayotgan quyoshga taʼzim qilib, laqay doʻmbirasini qoʻliga olib uzundan-uzoq dostonini boshlab yuboradi.

Kun davomida boshqalarga soʻz bermay ovozlarning boricha sheʼr kuylayotgan shoirlar ham notiqalar ham chiroyli ovozni eshitgandan darhol jib boʻladi. Sababi, baxshi gʻoyat obrazga kirib gruzin xalqining mashhur shoiri Shota Rustavelining «Yoʻlbars terisini yopingan pahlavon»



dostonini kuylayotgan edi. O`zga millat vakillari so`zlariga tushunmasa ham baxshining har xil qiyofaga kirib, goh tunarib, goh kulib, goh kuyunib, goh sevinib kuylayotganidan-oq baxshining dostonga aniq berilganini anglab, hech bir odam unga halaqit qila olmaydi. Baxshi shu tariqa ilhomlanib tong otib, kun ko`tarilgunga qadar dostonni ijro etadi. Yig`ilgan xalq dostonchining iste`dodiga tasannolar aytib, ba`zilari uning aktyorlik qobiliyatiga ta`zim qilsa, ba`zilari u qanday qilib dostonni yoddan bilishiga qiziqib, lol qolishadi. Sababi u paytda «Yo`lbars terisini yopingan pahlavon» dostoni O`rta Osiyo xalqlari tiliga tarjima qilinmoq tugul, ko`p xalqlar Shota Rustavelining nomini ham eshitmagan edi.

Shunga hayron bo`lgan olimlar baxshidan «Siz bu dostonni qayoqdan o`rgandingiz? Nega shu vaqtgacha bizga bildirmay yuribsiz?» deganda Fozil baxshi:

“- Men bu dostonni bundan qirq yil avval Bulung`ur qoshidagi Qoraqursaq qishlog`ida yashaydigan bir ulomo kishining kitobidan ko`rganimla u kishi mening ixlosimni anglab, shu kitobdagi asarni o`qib bergan edi. Men shu zahoti dostonni yodlab oldim va o`zim ham ijod qilib, dostonni boyitib qishloqlarda kuylab yurardim. Lekin, bir kuni qishloq mo`llasi “Sen kofirlarning dostonini kuylab, bizing dinimizga yot elning pahlavonining jasoratini kuylab yuribsiz. Endi buni ayt mang» deb nasihat qildi. Shundan boshlab bu dostonni kuylamadim. Sizlarning so`zingizga e`tibor berib qarasam, shu men kuylagan pahlavon haqida ekan... Shundan so`ng mening ham yodimga avvalgi yod bo`lgan qatorlar tushib, ichimdan takrorlab o`tirgandim. O`zimga so`z berilganda birdan dostonni boshlab yuborganim shu edi”, deydi. Ana shuni eshitgandan keyin voyagi kitobni topgan odamga 10 ming so`m sovg`a e`lon qilinadi. Ammo, o`tgan asrning 30-yillari eshong`mo`llalar quvginga uchrab, arab imlosidagi yozilgan qo`lyozmalar, kitoblar o`qish taqiqlangan vaqtda u kitoblar ham yoqib yuborilgan ekan» [3].

Haqiqatdan ham san`at bir markazdan ikkinchi markazga tarqalishi tabiiy jarayon. Sababi xalqlar orasida hech qachon chegara bo`lmaydi. «Go`ro`g`i», «Alpomish», «G`arib Oshiq», «Farhod-Shirin», «Yusuf-Ahmad», «Tohir-Zuhra» dostonlari kabi «Yo`lbars terisini yopingan pahlavon» haqidagi asarning ham bizning xalqlarimiz orasiga tarqalishi shunday madaniy aloqaning an`anaviy bog`likligi sabablidir. Ushbu dostonning O`rta Osiyoga tarqalib, uni o`zbek va qoraqalpoq ulamolarining kitoblarga ko`chirib, jirov-baxshilari kuylab yurgani alohida bir tarix. Agar Fozil baxshi mazkur dostonni kuylamaganda «bu asar O`rta Osiyoga tarqaladi» degan fikr tushimizga ham kirmas edi. Albatta, bunday adabiy aloqalarning izsiz qolmay, uni rivojlantirish har doim Fozil baxshidek hurmatli insonlarning ishida namoyon bo`ladi.

Fozil baxshi shoirhamdir. Shoir qahramonlik, romanik, tarixiy dostonlar hamda kitobiy dostonlarning eng yaxshi namunalarini kuylab kelgan. «Alpomish» dostoni uning ijodida alohida o`rin tutadi. Bu dostonning o`zbek xalq dostonchilaridan yozib olingan 40 ga yaqin variantlari orasida Fozil Yo`ldosh o`g`li varianti eng mukammali va badiiy jihatdan barkamoli hisoblanadi. Unda shoirning yuksak dostonchilik mahorati to`la namoyon bo`lgan.

Fozil Yo`ldosh o`g`li zamonaviy mavzularda ham qator doston va termalar yaratgan. Uning «Mamatkarim polvon», «Jizzax qo`zg`oloni», «Kunlarim» kabi dostonlari, «Jangchi o`g`limga», «Elat botir», «Ota nasihati», «Qurollanint», «Er yigitlar, maydonga!», «Jahon tinglagay», «Bolalarimga», «Pushkinga» kabi termalari shular jumlasidandir.

Baxshi kuylagan xalq dostonlari Ergash Jumanbulbul o`g`li, Islom shoir, Po`lkan, Abdulla shoir kabilar repertuari va original asarlari bilan birgalikda o`zbek dostonchiligi va adabiyotiga

qo‘shilgan katta hissa bo‘ldi. Shoir merosi keng o‘rganilmoqda. Shoir dafn etilgan Bulung‘ur shahrida muzey tashkil etilgan va unga haykal o‘rnatilgan [1].

#### **REFERENCES**

1. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li (1872-1955). URL: <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/fozil-yoldosh-ogli/>
2. Qurbonboev B. Berdaq va o‘zbek adabiyoti. - Toshkent, 1986.
3. Arislan M. M. Pazil baqsi // «Qaraqalpaqstan mádeniyati» gazetasi, 1995, №2.

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKANI O'QITISHDA NAMOIYISH TAJRIBALARNING O'RNI VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xudoynazarova Visola Musurmonqulovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
fizika yo'nalishi 1- bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10030309>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida fizika fani o'qitishdagi sinflar darajasida o'quvchilar fikrlash va tasavvur qila olish doirasidan kelib chiqqan holda turli metodlardan va namoyish tajribalardan foydalanish haqida bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** "Fizika", elektr toki, temperaturasi, zanjir, qonun, jism, maydon, umumta'lim, fizika o'qitish, o'quvchi, fizik tajribalar va asboblari, namoyish tajribasi va texnikasi, dars samaradorligi.

## THE ROLE OF DEMONSTRATION EXPERIMENTS AND THE METHODOLOGY OF THEIR USE IN TEACHING PHYSICS IN SECONDARY

**Abstract.** This article describes the use of various methods and demonstration experiments based on the scope of students' thinking and imagination at the grade level in teaching physics in secondary schools.

**Key words:** "Physics", electric current, temperature, chain, law, body, field, general education, physics teaching, student, physical experiments and tools, demonstration experience and techniques, lesson efficiency.

## РОЛЬ ДЕМОНСТРАЦИОННЫХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ И МЕТОДИКА ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

**Аннотация.** В данной статье описывается использование различных методов и демонстрационных экспериментов, основанных на объеме способностей учащихся мыслить и вообразить на уровне класса при преподавании физики в средней школе.

**Ключевые слова:** «Физика», электрический ток, температура, цепь, закон, тело, поле, общее образование, преподавание физики, ученик, физические эксперименты и инструменты, демонстрация опыта и приемов, эффективность урока.

Hozirda maktabimizda tarbiyalanib ta'lim olyotgan o'quvchilar har tomonlama barkamaol avlod bo'lib, hayotga kirib kelishini ta'minlash jamiyat oldidagi eng ulug' maqsadlarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Hozirgi davr bolalari juda jadal suratlar bilan rivojlanmoqdalar. Yoshlarning kelajakdagi erishilayotgan yutuqlari mustaqil bilim olish layoqati, o'z - o'zini rivojlantirish hamda takomillashtirish bilan birgalikda hayotga qarashlari ham o'zgarib borganiga yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Fizika umuta'lim maktabarida haftasiga 2 soatdan o'tiladi va shu bilan birgalikda bu vaqtlar ichida o'qituvchi juda kam narsalarni o'quvchilar o'rgata oladi, sababi bu vaqt 45 daqiqadan iborat bo'lib bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashishga davomat qilishga vazifa so'rashga va berishga ulgurishi bu vaqt davomida mavzu ham tushuntirishi kerak. Tabiiyki bundan holda o'qituvchi o'quvchilarga mavzu tushuntirishga juda kam vaqt sarflaydi va shoshiladi. Mavzudagi asosiy joylarni tushuntiradi va shu bilan dars tugaydi. Tajriba namoyish ko'rsatishga esa vaqt qolmaydi.

Boshlang'ich tasavvurlarni o'quvchilar 4-, 5-, 6- sinflarda o'tiladigan tabiatshunoslik, botanika, geografiya kabi fanlar orqali tasavvurga ega bo'ladi.

Endi biz tajriba namoyishlarini ko'rsatishga vaqtimiz bo'lmasada ularga fizik terminlarni 5 sinfgacha bo'lgan o'quvchilarga ular yoshligida o'qigan ertaklar orqali ham tushuntirib qiziqish uyg'otishimiz shu orqali ularni fizika faniga tayyorlashimiz mumkin.

Masalan: "Qizil qalpoqcha" ertagidagi bo'ri qizil qalpoqchadan oldin borish uchun o'rmonni kesib o'tibdi degan so'z o'rniga ko'chish orqali boribdi deb tushuntirsak fizikaning boshlang'ich tushunchalaridan biri bo'lgan "ko'chish" nimaligini haqida bolada tasavvur uyg'onadi. Shunday ertaklardan yana biri "Sholg'om" bunda o'quvchilar massa, og'irlik, kuch va h.k. lar haqida bilib tasavvur qila olishlari mumkin. Bobo sholg'omni torta olmagach, yordamga buvi, nabira, it, mushuk va sichqonni chaqiradi: kuchlarni qo'shilish natijasida, sholg'om o'rnidan siljiy boshlaydi va ish bajariladi.

Boshlang'ich tushunchalarda moddiy nuqta, trayektoriya, yo'l va ko'chish, vaqt, tezlik kabi kattaliklarni tushuntirishda o'quvchilarni o'zlari uchun qiziqarli bo'lib qolgan "Bo'g'irsoq" ertagi orqali qiziqtirish mumkin. O'rmon tomon yo'l olgan bo'g'irsoq trayektoriya orqali o'rmon yo'lagidan yurib, yo'lida har xil hayvonlarga duch keladi. Qo'shiq aytib berib, vaqtdan yutadi. Bu vaqt har xil hayvonlarda har xil bo'ladi. Bu mavzularda bo'g'irsoqning shakli aylana bo'lganligi sababli harakatining osonligi yo'lning notekisligi harakatga salbiy ta'sir qilmaydi. Ertak orqali ko'chish, yo'l, trayektoriya, tezlik, vaqt kabi fizik kattaliklar o'quvchilarga qiziqarli qilib tushuntirish mumkin.

O'quvchilarni fizik hodisalarni o'rganishda mustaqil ravishda kuzatish, tajribalar o'tkazish, tajriba natijalarini umumlashtirish hamda darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olishga o'rgatish juda muhimdir.

Endi 6-, 7-, 8- sinflar uchun fizikani qanday tushuntirishimiz va qiziqtirishimiz mumkin. Ma'lumki, organizm muhitning ravshanlik (yorug'lik), harorat (temperatura), namlik (absolyut va nisbiy), havo bosimi, shovqin, elektr va magnit maydoni, radiatsiya oqimi, radiaktivlik va shu kabi fizik xarakteristikalarining o'zgarishidan darhol sezadi.

Fizikani o'rganishda o'quvchilarga biofizikaga oid materiallardan ham foydalanish ayni muddao bo'ladi. Biofizika elementlarini o'quvchilarga o'rgatishda o'qitishning turli formalaridan foydalanish mumkin:dars, ekskursiya, amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish faoliyati, referatlar tayyorlashi va h.k. Biroq biofizikaga oid materialni o'rganishda ko'pincha darsdan foydalanish yaxshi natijaga erishiladi.

Issiqlik hodisalari mavzularida issiqlikning inson hayotida eng muhim o'rin tutishi ko'rsatib beriladi. Bunda o'quvchilarning yosh darajasini hisobga olib, televizorda ko'rgan multfilmlari, qadimgi dunyo tarixi darslarida eshitgan olov haqidagi afsonalari eslatilib, insonning yashash uchun tabiatda olib borgan kurashlari qiziqarli holda tushuntiriladi. Darslikda ulardan ayrimlari keltirilgan. "Olovni bo'ysundirish" nafaqat eng qadimgi davrda, balki hozirgi zamonning eng kuchli texnikasida ham asosiy harakatlantiruvchi kuch ekanligi ko'rsatib beriladi. Masalan: Kosmik raketa, qit'alararo raketa, barcha kemalar, avtomobillar, traktorlar, poyezdlar va hokazo. Shunga ko'ra issiqlik hodisalarni o'rgaish, u bilan bog'liq mashinalarni ishlatish, sozlash va takomillashtirishda kerak bo'lishi tushuntiriladi. Undan keying mavzu "issiqlikni hosil qiluvchi va qabul qiluvchilar"ga o'tish bir maromda boradi. Yerdagi issiqlikning asosiy eng kata manbai - Quyoshdir. Avtomobil dvigatelida yonib turgan benzinning ham asosi Quyosh ekanligi aytib

o'tiladi. Bu bilan birga issiqlikni faqatgina nimanidir yondirish orqali emas, balki ish bajarib ham hosil qilish mumkinligi isbotlab ko'rsatish mumkin. Bundan tangani jun materialga ishqalaganda isiganligi namoyish tajriba orqali tushuntirib ko'rsatish mumkin.

Bu bilan ishning energiyaga, energiyaning ishga aylanishi tushunchasi hosil qilinishiga imkon yaratiladi. Hozirgi zamonaviy fan-texnikaning rivojlanishi bilim, amaliyot va tajriba o'zaro aloqani uzviy bog'lab borilishini taqozo qiladi. Fizika fani ishlab chiqarishdan ajratilgan alohida holda o'qitilsa, o'quvchilar bu fanning nima uchun kerakligini, uni o'rganishning nima uchun zarurligini tushunishga qiynaladilar. O'quvchilarning faqatgina fizika faniga qiziqishini oshirishga qaratilmay, balki ularning texnik faolligini takomillashtirish, fan va texnika yutuqlarining zamonaviy ishlab chiqarishdagi o'rnini va ahamiyatini ko'rsatish bilan ularning politexnik tayyorgarligini kuchaytirishni ham nazarda tutadi.

Jumladan, "Elektr sig'imi", "Kondensatorlar", "Yarim o'tkazgichli asboblarda", "Elektromagnit tebranishlar va to'lqinlar" va boshqa mavzular o'tilayotgan vaqtda uning amaliy ahamiyatiga e'tibor berilishi, o'quvchilarning texnik ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar "Tokning magnit maydoni" masalasini o'rganishda organizm to'qimalarining magnit xossalari, to'qimalar ma'lum darajada suvga o'xshab diamagnit ekani, shuning uchun u tashqi magnit maydon ta'sirida umuman magnitlanmasligi haqida bilimga ega bo'ladilar.

Fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni bu fanga qiziqtirishni yana bir usullaridan biri dars mobaynida fizik tajribalar tabiatdagi fizik jarayonlarni o'quvchilarning o'zlari fizikani o'rganishga qadar kuzatgan. lekin bu kuzatishlar natijasida barcha o'quvchilar ularning nimaligi haqida to'g'ri xulosa chiqara olmaydilar, albatta. Bundan tashqari hamma o'quvchilar ham mavjud jarayonlarning barchasini e'tibor bermaydilar. Shu sababli maktab sharoiti doirasida sinfda maxsus tashkil etiladigan fizik tajribalarni ko'rsatish zarur bo'ladi.

Fizikadan to'g'ri tashkil etilib, namoyish qilingan va talqin etilgan tajribalar o'quvchida nafaqat asbob uskunalari tuzilishi, ishlashini o'rganib qolmay, balki ulardagi qonuniyatlarni o'rganishiga ham imkoniyat tug'diradi. Tajriba namoyishlari asosan 9-, 10-, 11- sinf o'quvchilari o'zlari qilib ko'rishga imkon berish kerak. Fizik namoyishlar o'quvchilarga mazkur fanga bo'lgan qiziqishlarini ham oshiradi.

Namoyishlar yordamida fizik tushunchalar, fizik kattaliklar va ularni o'lchash imkoniyatlari beradi. So'ngra ularga laboratoriya ishlarini bajarishda, masalalarni yechishda ko'nikma shakllanadi, rivojlanadi va bilimlari chuqurlashib boradi. Fizika darslarining boshida shunday tajribalarni namoyish etish kerakki, ular oddiy bo'lsa ham, boshlang'ich nuqta va soda tajriba bo'lsin. Ularda ko'rgan hodisalar, keyinchalik boshqalarini tushuntirish uchun sabab bo'ladi. Fizik kattaliklarning o'lchamlari (uzunlik, vaqt, massa, bosim, temperatura va boshqalar) aniqlanadi va ular orasidagi miqdoriy va sifat bog'lanishlari ko'rsatiladi (suyulik bosimining idish tubiga bosimi).

Namoyish tajribalarini o'rgatish vaqtida fizika qonunlaridan amalda foydalanishni ko'rsatishdan iborat (issiqlik mashinasi, termometr). Keyingi namoyishlari bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan. Ko'rsatiladigan namoyishlar soni ko'p bo'lmazligi zarur. Tajriba o'qituvchi tushuntirishiga ko'makchi sifatida berilishi kerak. Ishlatiladigan asboblarda sodda va turli xil bo'lishi, o'quvchi diqqatini chalg'itmasligi kerak. Eng muhimi namoyish qisqa vaqt talab qilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki 45 daqiqa juda kam vaqt hisoblanadi. Shuningdek, u

bajarish uchun qiziqarli tajribalar ham berish orqali o'quvchini fizikaga mehrini oshirish mumkin. Masalan:

1. Yupqa devorli stakan olib, issiq suvga to'liq botirib qo'ying. Keyin ochiq tomoni bilan sovuq suvga to'nkarib qo'ying. Biroz vaqtdan so'ng stakan ichida sovuq suv ko'tariladi. Shunda savol tug'iladi. Nimaga?

2. Ikkita stakan olamiz. Ularning og'zi bilan bir xil diametrdagi rezina halqa kesib olamiz. Birinchi stakan og'ziga rezina halqani qo'yamiz. Kichik qog'oz bo'lagini stakan ichiga tashlab yoqib yuboramiz. Darhol ikkinchi stakan og'zini rezina halqa ustiga qo'yib yopamiz. 1, 2 s dan keyin yuqoridagi stakanni ko'tarsangiz pastkisi ham qo'shib ko'tariladi.

3. Qalinroq karton qog'ozdan quticha yasaymiz. Uning ichiga suv quyib qizigan elektr plitkasiga qo'ying. Suv isiydi va keyin qaynaydi. Qutiga hech narsa qilmay butun qoladi. Sababini tushuntiring.

Istalgan namoyishli tajribaning pedagogik samadorligiga ya'ni uni o'quvchilar to'liq idrok qilishlari va anglashlariga faqat ma'lum namoyishli tajribalar ko'rsatish metodi bilan erishish mumkin. O'quv materialini darsda bayon qilish bilan namoyish tajribasi o'rtasidagi bog'lanish dastlabki uslubiy talablardan biri hisoblanadi. Bunday bog'lanishni amalga oshirish uchun namoyish tajribalar qisqa muddatli bo'lishi kerak.

Shuning uchun ham namoyish tajribalarning ko'pchiligi sifat jihatidan ko'riladi. Ularni mashg'ulotlarda o'tkazish uchun miqdor jihatdan ko'riladigan tajribalarni qo'yilishiga nisbatan ancha kam vaqt talab qilinadi. Namoyish tajribalar qisqa muddatli bo'lishiga qaramay ular nihoyatda ishonchli va tushunarli bo'lishi kerak. Namoyish tajribalarning bu muhim sifatleri asosan ularni qo'yish texnikasiga bog'liq. Namoyish tajribalarini o'tkazish uslubi bilan chambarchas bog'liqdir. Namoyish texnikasi deganda xavfsizlik texnikasiga rioya qilinganda namoyish tajribaning eng katta samarasini va uning o'quvchilar tomonidan bevosita idrok qilinishini ta'minlovchi shart-sharoitlar tushuniladi.

Istalgan tajribaning samadorligi birinchi navbatda maktab fizika asboblarning sifatiga bog'liq namoyish asboblarga alohida talablar qo'yiladi. Bularga birinchi navbatda yuqori texnikaviy sifat, qurilmalarning soddaligi, etarlicha katta o'lcham, chiroyli tashqi ko'rinish kiradi. O'qitishning ko'rgazmali bo'lishi uchun tajriba asboblarning sxemalarini yig'ishda eng muhim detallari o'quvchilarga yaxshi ko'rinib turishi lozim. Yuqoridagi kabi barcha mavzularda namoyish eksperimentlarini tayyorlab, mashg'ulotlarni o'tilishi o'quvchilar tomonidan mavzularni o'zlashtirish samadorligi va ularning faolligi hamda fanga bo'lgan qiziqishlarining yanada ortishiga sababchi bo'ladi.

## REFERENCES

1. Perelman Ya.I. "Qiziqarli fizika" Toshkent, 2009 - y. 6 - bet.
2. Tursunmetov K. "Ma'lumotnoma" Toshkent, 2007 – y. 13-15- betlar .
3. Yo'ldashev M. "8-sinf fizika darslik" Toshkent, 2010 – y. 105-122- betlar.
4. Landsberg L.S. "Optika". Moskva. 1976 - y. 5-bet



ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКИ В ТРУДАХ  
МАХМУДХАДЖИ БЕХБУДИ И АБУРАУФА ФИТРАТА

Илхамов Зиёвутдин Адхамович

кандидат исторической науки, профессор.  
ТГПУ имени Низами, г.Ташкент, Узбекистан

[tarix.kafedra@mail.ru](mailto:tarix.kafedra@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10030336>

*Аннотация.* В данной статье освещаются некоторые вопросы методологии и теоретических основ исторической науки. В статье анализируются вопросы становления и развития исторической науки в Узбекистане, которое имеет свои многовековые исторические корни. Тот факт, что теоретические и научные взгляды, выдвинутые мировыми учеными в области исторической науки в начале XX века, также высказываются среднеазиатскими историками, свидетельствует о том, что развитие историографии и исторической науки происходило в гармонии с мировой историей. Надо отметить, что взгляды джадидов, особенно Махмудходжа Бехбуди и Абдурауфа Фитрата были широко распространены в основном в Центральной Азии и в некоторой степени повлияли на прогресс образовательной сферы, также они уделяли особое внимание исторической науке и высказывали свое мнение о необходимости глубокого изучения истории.

*Ключевые слова:* Историческая наука, методология исторической науки, теоретические основы исторической науки, джадид, историография, анализ, научные взгляды, Центральная Азия, мировая история, изучения истории.

THEORETICAL QUESTIONS OF HISTORICAL SCIENCE IN THE WORKS OF  
MAHMUDHAJI BEHBUDI AND ABURAUFI FITRAT

*Abstract.* This article highlights some issues of methodology and theoretical foundations of historical science. The article analyzes the formation and development of historical science in Uzbekistan, which has its centuries-old historical roots. The fact that the theoretical and scientific views put forward by world scientists in the field of historical science at the beginning of the 20th century are also expressed by Central Asian historians indicates that the development of historiography and historical science occurred in harmony with world history.

*It should be noted that the views of the Jadids, especially Mahmudhoj Behbudi and Abdurauf Fitrat, were widespread mainly in Central Asia and to some extent influenced the progress of the educational sphere; they also paid special attention to historical science and expressed their opinion on the need for a deep study of history.*

*Key words:* Historical science, methodology of historical science, theoretical foundations of historical science, Jadid, historiography, analysis, scientific views, Central Asia, world history, history studies.

С обретением государственной независимости Республика Узбекистан поставила перед собой задачи возвращения к духовно-нравственным ценностям, культуре, древним традициям нации путем создания подлинной истории узбекского народа, определения его роли в мировом сообществе на различных этапах развития. Становление и развитие исторической науки в Узбекистане имеет свои многовековые исторические корни. Тот

факт, что теоретические и научные взгляды, выдвинутые мировыми учеными в области исторической науки в начале XX века, также высказываются среднеазиатскими историками, свидетельствует о том, что развитие историографии и исторической науки происходило в гармонии с мировой историей.

Во второй половине XIX – начале XX веков, взгляды джадидов были широко распространены в основном в Центральной Азии и в некоторой степени повлияли на прогресс образовательной сферы, также они уделяли особое внимание исторической науке и высказывали свое мнение о необходимости глубокого изучения истории.

Связанные с этой проблемой в последние годы издан ряд научной и учебной литературы таких авторов, как Н.Жураев, Д.Алимова, З.Ильхомов, Г.Раджабов [1], в которых рассматриваются вопросы становления и развития исторической науки в Узбекистане. Особое внимание уделено истории развития науки, историческим трудам авторов средневековья и особенно джадидов.

В частности, с особым акцентом на развитие общества в исторической науке, ее престижное место в восприятии идентичности нации, изучению истории уделяли Махмудходжа Бехбуди (1875 – 1919 гг.), Абдурауф Фитрат (1884, Бухара – 4 октября 1938 г.) и другие. По этому поводу М.Бехбуди говорит: "Чтобы жить в современном мире, быть интеллектуальным, совершенным и праведным, необходимо выступить с призывом изучать свою родину и собственную историю" [2.18]. Из этого можно понять, что М.Бехбуди придерживался мнения, что нация может вмешиваться в социально-политические вопросы наравне с другими только тогда, когда она осознает себя, уделяя особое внимание вопросам изучения истории и исторической памяти, исторического сознания. Туркестанское просвещение видело основу прогресса в сочетании западной и восточной культур. Джадиды были особенно сведущи в области истории своей родины. Исходя из этого, он по праву считал свой народ причастным к достижениям мировой цивилизации и, опираясь на традиционный национальный опыт, разработал теорию государственного развития. Он основывал свои взгляды идеологически и методологически. В статье "История и география", лидер туркестанского джадидизма Махмудходжа Бехбуди сказал: "...что такое прогресс? Чтобы знать это, вам нужно прочитать историю. необходимо прочитать историю любому, кто хочет быть осведомлен о мире. Ибо каждая вещь ее происхождение и родословная известны в истории"[3.502-505]. Согласно точке зрения прогрессистов, изучение истории было необходимо, прежде всего, для того, чтобы понять причины прогресса и упадка в развитии нации.

Абдурауф Фитрат, в свою очередь, указывает на следующие моменты: "Какая бы нация ни хотела существовать и процветать, она должна будет знать свою историю. В конце концов, история подобна зеркалу, каждый народ увидит в ней свое положение и правила общественной жизни и заметит, что хорошее бывает хуже" [4.36-61]. Абдурауф Фитрат, один из выдающихся узбекских ученых, смог показать, что развитие узбекской исторической науки в тесной связи с развитием мировой истории, даже в некоторых отношениях с его вдумчивыми взглядами (особенно в случае исторической памяти), в какой-то степени опережало свое время. В начале XX века, когда происходило формирование различных исторических течений, Абдурауф Фитрат являлся плодовитым творцом в различных областях науки, а также работал над рядом актуальных тем, которые

касались существующих процессов социальной жизни. Особенно важны для нас работы Фитрата по истории [5.]. В этих работах взгляды и выводы Фитрата по истории и его воззрениям, научно-теоретическому содержанию, помимо соответствия научно-теоретическим вопросам современной исторической науки Туркестана в конце XIX - начале XX веков, отражали отношение восточно-мусульманских историков к исторической науке и в то же время ярко показывали его собственные взгляды на научные и теоретические вопросы.

Взгляды и суждения Абдурауфа Фитрата такого содержания можно проследить в его различных работах, его "Мухтасар ислом тарихи" ("История исламской науки" ("Краткая история ислама [религии]")) [4.100], а также "Рахбари нажот" [4.62-208] характеризуются четким изложением его научных взглядов на историческую науку. Мнения, высказанные экспертами, указывают на то, что в работе автора "Краткая история ислама" подходы к объяснению истории и освещению исторических процессов смогли достичь определенной степени успеха с точки зрения точности и совершенства, в некоторой степени отличаясь от других работ подобного содержания. Х.Болтабоев утверждает, что творчество Фитрата характеризуется ясным, ярким выражением событий, националистическим духом, и написано беспристрастно [6.3].

Второй важной работой Фитрата, отражающей его ценные познания в истории и в то же время его научные взгляды на мировую историю и восточно-мусульманскую историографию, является труд "Рахбари нажот". Книга, созданная летом 1914 года, была напечатана на персидском языке в Петрограде в 1915 году. Фитрат в своей работе "История древнего ислама" описывает историческую науку и выражает это следующим образом: - "история — это наука, которая учит прошлому, прогрессу народов и причинам их упадка" [4.36]. Хотя при этом Фитрат отражает научно-исторические взгляды шотландского историка XVIII века Д. Юма [6], в то же время можно видеть, что узбекская историография и историческая наука на территории Узбекистана в то время были полны взглядов, существовавших в Европе и других странах мира.

Говоря об исторической науке, Абдурауф Фитрат пишет: "История - очень древняя наука. Греки - первые из народов, кто написал историю. После распространения ислама и прогресса под его влиянием, наши историки написали книги, в которых приложили большие усилия в этой науке. Также мусульманские ученые, были среди тех, кто реформировал историческую науку и даже сделал её полезной наукой." [4.100].

Однако в начале XX века, когда жил и работал Фитрат, развитие науки в Туркестане относительно отставало от достижений развития мировой науки. Фитрат смог увидеть недостатки новых ученых, новых работ и открытий в области науки, увидеть наличие упадка в этих областях, а также высказал свои мысли по этому поводу: - "проходят годы и времена меняются, стремление к исторической науке утихает и превращается в интерпретацию, а понятие "творить" (концепция) остаётся в стороне" [8].

В то же время следует отметить, что из исторических трудов Абдурауфа Фитрата, в процессе изучения его взглядов на историю, можно понять, что он был прекрасно знаком и с историографией Востока, и также с научно-теоретическими взглядами европейских историков. Тот факт, что у Фитрата также были свои взгляды на историческую науку и ее предмет, компоненты и отрасли исторической науки, также можно наблюдать в его

исторических трудах, в описательных аспектах исторических процессов. В этой связи заслуживают внимания его следующие слова: - "История состоит из двух частей: всеобщей истории и частной истории. Всеобщая история — это такая история, которая фиксирует положение всех наций и обществ. Только частная история пишет историю отдельной нации и общества. Исламская история – это также частная история"[4.36].

Фитрат еще больше усовершенствовал свои взгляды на этот предмет, дав свой собственный комментарий к науке истории и ее ответвлениям в своей работе “Рахбари нажот”. Эти идеи дополняют научные гипотезы, высказанные многими историками мира в области предмета и объекта исторической науки в начале XX века. Комментарии Абдурауфа Фитрата о важности, сущности, социальных функциях истории, и ее роли в исторической памяти также чрезвычайно примечательны. Хотя до сих пор было высказано много мнений относительно образовательного значения исторической науки, мнения Фитрата дополняют взгляды на этот предмет и делают его суть более очевидной. - "Если мы объясним более четко, изучим мнения нации о возвышении, это относится к истории прошлых народов, изучим причины, которые вызвали их разрушение, оставим их, возможно, сможем понять, которые из них вызвали развитие и прогресс любой нации"[9.32-47]. Этим было показано, что любая нация непременно должна брать пример с прошлого, чтобы создать свое собственное будущее. В этой связи также уместно отметить, что в древнеримской историографии с помощью афоризмов кратко и четко было сформулировано представление о социальной функции исторического познания: «*Historia magistra vitae*» (история — наставница жизни, сокровищница примеров, иллюстрирующих добродетели и пороки) [10.33].

В заключение следует отметить, что во второй половине XIX - начале XX века в Туркестане наука история и историография не только развивались, но и смогли сформировать свои специальные школы историографии, которые смогли повлиять на развитие мировой исторической науки, а также вырастить историков, выдвинувших ряд научных взглядов в теоретических вопросах исторической науки.

В этой связи следует признать, что Махмудхужа Бехбуди и Абдурауф Фитрат, считавшиеся учеными-историками своего времени, своими научно-теоретическими взглядами и выдвинутыми мнениями по исторической науке, а также созданными историческими произведениями внесли важный вклад в развитие исторической науки в Узбекистане.

## REFERENCES

1. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Т.: Маънавият, 2009; Alimova D, Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi (o‘quv qo‘llanma). - Т.: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati, 2018; Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т.И. Историческое сознание. - Т.: Ўзбекистон, 2008; Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т.ИИ. Феномен джадидизма. - Т.: Ўзбекистон, 2009; Илхомов З.А. Жадидларнинг тарихий-илмий қарашлари / Ўзбек давлати тараққиёт босқичлари, тарихи ва тарихшунослиги масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2021. 167-172 бет; Илхомов З., Муҳаммадиев Л. Ўзбекистонда тарих фанининг

- шаклланиши: Абу Райхон Бериунийнинг тарихий-илмий қарашлари Academic Research in Educational Sciences (ARES) Volume 3 | Issue 5 | 2022. 583-589 bb; Ражабов Р ва бошқ. Тарих фани методологияси (дарслик). Тошкент, “Янги аср авлоди”. 2018; Ражабов Р. Тарих фанининг методологик асослари. - Тошкент, Истиклол, 2013; Илхомов З.А. Тарих фани назарий асослари. Toshkent, “Navro‘z”, 2021 у.
2. Бехбудий М. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган. Тошкент, “Маънавият”, 1999.
  3. Маҳмудхўжа Бехбудий. Тарих ва жуғрофия. «Оина», 1914.
  4. Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар: 6 жилдлик. 5-жилд. Илмий рисоалар / А. Фитрат; нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. — Тошкент, “Маънавият”, 2010.
  5. Наим Каримов. Абдурауф Фитрат (1886-1938) // <https://ziyouz.uz>
  6. Болтабоев Ҳ. Фитрат рисоласи ҳақида. Қаранг: Абдурауф Фитрат. Мухтасар ислом тарихи. Тошкент, «Янги аср авлоди». 2004.
  7. Дэвид Юм (англ. David Hume; родившийся как Дэвид Хоум, англ. David Home; 26 апреля (7 мая) 1711 — 25 августа 1776) — философ эпохи шотландского просвещения, историк, экономист, библиотекарь и эссеист, который сегодня наиболее известен своей очень влиятельной системой философского эмпиризма, скептицизма и натурализма.
  8. Абдурауф Фитрат. Нажот йўли (Раҳбари нажот). // <http://kh-davron.uz>
  9. Илхомов З. Тарих фани методологияси. Тошкент, 2013. 32-47-бетлар.; Илхомов З.А. Тарих фани назарий асослари. Toshkent, “Navro‘z”, 2021 у.
  10. Смоленский Н.И. Теория и методология истории: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. 2-е изд., - М. : Издательский центр “Академия”, 2008.



## QUDUQLARDA GEOLOGIK VA TEXNIK TADBIRLARNING TEXNOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARINI TANQIDIY TAHLILI

**Muhammadiyev Hamidullo Murodillayech**

t.f.f.d., “Neft va gaz ishi” kafedrası dotsenti,

**Oripova Lobar Norboyevna**

“Neft va gaz ishi” kafedrası katta o’qituvchisi.

(Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10030350>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada quduqlarda geologik va texnik tadbirlarning texnologik samaradorligini baholash usullarini tanqidiy tahlil qilish orqali mavjud usullarni kamchiliklari ko’rsatib o’tilgan. Siqib chiqarish xarakterini aniqlashda differensial tenglamalarini qo’llash tajribasi shuni ko’rsatadiki, ular uncha barqaror emas, ma’lumotlarga ehtiyotkorlik bilan ishlov berishni talab qiladi, ishlov berishda tasodifiy omillarni hisobga olish zarurligi ta’kidlab o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** geologik-texnik, uyum, siqib chiqarish, ekstrapolyatsiya, texnologik samaradorlik, neft beraolishlik, baholash.

## CRITICAL ANALYSIS OF TECHNOLOGICAL EFFICIENCY ASSESSMENT METHODS OF GEOLOGICAL AND TECHNICAL MEASURES IN WELLS

**Abstract.** This article shows the shortcomings of the existing methods through a critical analysis of the methods of assessing the technological efficiency of geological and technical measures in wells. The experience of using differential equations to determine the nature of compression shows that they are not very stable, they require careful data processing, and the need to take into account random factors in the processing is emphasized.

**Key words:** geological-technical, accumulation, compression, extrapolation, technological efficiency, oil yield, evaluation.

## КРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ОЦЕНКИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОВЕДЕНИЯ ГЕОЛОГО-ТЕХНИЧЕСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ В СКВАЖИНАХ

**Аннотация.** В данной статье показаны недостатки существующих методов посредством критического анализа методов оценки технологичности геолого-технических мероприятий в скважинах. Опыт использования дифференциальных уравнений для определения характера вытеснения показывает, что они не очень устойчивы, требуют тщательной обработки данных, подчеркивается, что при обработке необходимо учитывать случайные факторы.

**Ключевые слова:** геологик-техник, залежи, вытеснения, экстраполяция, технологическая эффективность, нефтеотдача, оценка.

Hozirgi vaqtda quduqlarda o’tkaziladigan geologik-texnik tadbirlarni (GTT) texnologik samaradorligini aniqlashni turlicha yondashuvlar mavjud. Geologik-texnik tadbirlarni qo’llash natijasida texnologik ta’sirni baholash qaysi yondashuv bo’lishidan qat’iy nazar haqiqiy ko’rsatkichlarni lohiyadagi ko’rsatkichlar bilan taqqoslash yo’li bilan amalga oshiriladi. Geologik va texnik chora-tadbirlarning ma’lum vaqt oralig’idagi ta’siri haqiqiy neft qazib olish va loyihadagi neft qazib olish o’rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.



O'tkazilgan GTT larning samarasi maqsadga qarab alohida quduqlar, uyum maydonlari, qatlam yoki kon uchun aniqlanishi mumkin.

Asosan texnologik ko'rsatkichlarni hisoblash usullari ikkita asosiy guruhga bo'linadi: integral va differentsial. Birinchi guruhga ekstrapolyatsiya usullari – qazib chiqarish xarakteristikalarini kiradi. Bugungi kunga qadar neft, suv va suyuqlik qazib chiqarish o'rtasidagi 20 dan ortiq empirik bog'liqliklar taklif qilingan bo'lib, ular uzoq muddatli ishlaydigan ob'ektlarning haqiqiy ma'lumotlari, laboratoriya tadqiqotlari yoki ba'zi nazariy taxminlar asosida o'rnatiladi.

Geologik va texnologik sharoitlarining xilma-xilligi qazib olish quvvatlarini oshirish uchun siqib chiqarish xususiyatlarining xilma-xilligi bilan mos keladi. Ammo ularning aksariyati bir xil o'xshash usullarning o'zgartirilgan shakllari hisoblanadi. Eng samarali siqib chiqarish usullarida ham vaqt o'tishi bilan neft qazib olishning kamayishi ma'lum qonunlarga asoslanadi.

Tabiiyki, amalda geologik va texnik chora-tadbirlar samaradorligini baholash uchun har xil turdagi siqib chiqarish usullari qo'llaniladi. Masalan, V.V. Sergeev va boshqalar tomonidan [1] aniqlangan quyidagi bog'liqlik orqali amalga oshiriladi:

$$Q_n = a + b \cdot \lg Q_{suy}, \quad (1)$$

bu yerda,  $Q_n$  va  $Q_{suy}$  - qazib olingan neft va suyuqlik miqdori;  $a$  va  $b$  - doimiy koeffitsientlar.

G.A.Gamirov va M.V.Babayevlar [2] geologik-texnik tadbirlar samaradorligini baholashda quyidagi bog'liqlikdan foydalanganlar:

$$\eta = \frac{Q_n}{Q_{b.z}} \quad (2)$$

bu yerda,  $\eta$  –joriy neft beraolishlik koeffitsienti;  $Q_n$  –qazib chiqarilgan neft miqdori;  $Q_{b.z}$  –boshlang'ich balans zahira.

R.X.Muslimov va boshqalar [3] tomonidan suvlanganlik xarakteristikasi koordinatalardan foydalanganlar:

$$x = \frac{V_{suy} - V_{suy.s}}{V_{suy.s} - V_{suy.o}}; \quad (3)$$

$$y = \frac{V_n - V_{n.s}}{V_{suy} - V_{suy.s}}, \quad (4)$$

bu yerda,  $V_{suy}, V_n$  – mos ravishda o'zlashtirish boshlanganidan beri barcha quduqlaridan qazib olingan suyuqlik va neft miqdori;  $V_{suy.s}, V_{n.s}$  – mos ravishda suvsiz ishlash davr oxiridagi suyuqlik va neftning jami qazib olinishi;  $V_{suy.o}$  – grafik chizilgan vaqtga kelib qazib olingan (yakuniy) suyuqlik miqdori.

R.G.Xamzin va R.T.Fazlievlar [4] ishlatish ob'yektlarini qazib olishning so'nggi bosqichlarida geologik-texnik tadbirlarning samaradorligini baholash uchun siqib chiqarish xarakteristikasidan foydalanib, quyidagi ikkita tenglamani taklif qildilar:

$$q_n = q_0 - \frac{q_0}{Q_{op}} \cdot Q_n \quad (5)$$

$$\frac{q_s}{Q_n} = \frac{\alpha q_0}{Q_{op}} - \frac{\alpha q_0}{Q_{osuy.p}} \cdot \frac{Q_{suy}}{Q_n} \quad (6)$$

bu yerda,  $q_n$  va  $q_s$  – neft va suvning joriy debiti;  $q_0$  – barcha burg'ulangan va ishga tushirilgan quduqlarning boshlang'ich amplitudali oqim tezligi;  $Q_n$  va  $Q_{suy}$  – jami qazib olingan

neft va suyuqlik miqdori;  $Q_{op}$  va  $Q_{osuy.p}$  – qazib olish muddatida qayta tiklanadigan cheklanmagan neft va suyuqlik potentsial zahiralari;  $\alpha$  – qayta tiklanish koeffitsenti.

A.A.Kazakov turli geologik-texnik tadbirlarning texnologik samaradorligini baholashda  $Q_{suy} = f(t)$  bog'liqligini ekstrapolyatsiya qilish yo'li bilan qazib chiqarishni aniqlash taklifini ilgari surgan.

Ko'rinib turibdiki, geologik-texnik tadbirlarning samaradorligini baholash uchun siqib chiqarish xarakteristikalaridan foydalanishga oid yana bir qancha misollarni keltirish mumkin, ammo yuqoridagi bog'liqliklar orqali baholash usullar keng miqiyosda amaliy qo'llanilib kelinmoqda. Siqib chiqarish xarakteristikalari amaliy foydalanish uchun yetarlicha sodda va mavjud geologik-kon ma'lumotlar asosida tuziladi.

Biroq, siqib chiqarish xususiyatlaridan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular ko'pincha noaniq va ba'zan hatto qarama-qarshi natijalarga olib keladi.

Quduqlarda geologik va texnik tadbirlarning texnologik samaradorligini baholash usullarini tanqidiy tahlil qilish orqali quyidagi kamchiliklar aniqlandi [5, 6]:

1. qo'llaniladigan matematik bog'liqliklar ishlatish ob'ektlarini qazib chiqarishdaqi haqiqiy sharoitlariga mos kelmasligi. Amalda qazib chiqarish samaradorligini oshirish uchun siqib chiqarish ko'rsatkichlarini ko'pligi sababi geologik va texnologik sharoitlarning xilma-xilligidir;

2. qatlamni o'zlashtirish yoki quduqni ishlatish uchun mavjud shart-sharoitlarni saqlab qolgan holda, asosiy loyiha ko'rsatkichlarini hisoblash. Ammo bu usulda dastlab butun bashorat qilish davri uchun joriy suyuqlik doimiyligini o'z ichiga olganligi sababli, bu variant endi asosiy emas, balki belgilangan suyuqlik tanlashni ta'minlaydigan chora-tadbirlar bilan ishlaydigan variantlardan biri bo'ladi.

3. ob'yektni ishlashining o'zgaruvchan shartlarini yoki quduqni ishlatish rejimini va texnologiyasini hisobga olishning ma'lum usullarining ma'lum emasligi.

4. qo'llaniladigan empirik bog'liqliklarni ob'yektlarni ishlashi va quduqlarni ishlatishning o'ziga xos shartlariga moslashtirishning rasmiy xarakterga ega ekanligi. Bu empirik bog'liqlik tenglamalaridan faqat ishlatishning nisbatan so'nggi bosqichidagi haqiqiy bog'liqliklarning oxirgi va boshlang'ich davri uchun chegaraviy shartlarni hisobga olmagan holda taxmin qilinadi.

Yuqoridagi kamchiliklarni to'ldirish uchun geologik-texnik tadbirlar samaradorligini baholashda siqib chiqarishning differensial ko'rsatkichlari, shu jumladan joriy ishlab chiqarish va o'rtacha sutkalik neft oqimi, qazib olishda quduqni suvlanishi, neft-suv omili va boshqalar bir qator ko'rsatkichlar qiymatlaridan foydalanilinish tavsiya etiladi.

Masalan, qazib chiqarishda geologik-texnik tadbirlardan foydalanishning texnologik samarasi  $Q_n = f(t)$  bog'liqligi bilan aniqlanadi, bu erda  $Q_n$  – yillik neft qazib olish,  $t$  – qatlamni o'zlashtirish va quduqni ishlatish vaqti. Siqib chiqarish xarakterini aniqlashda differensial tenglamalarini qo'llash tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular uncha barqaror emas, ma'lumotlarga ehtiyotkorlik bilan ishlov berishni talab qiladi, ularni qurishda tasodifiy omillarni hisobga olish zarur.

## REFERENCES

1. Интенсификация разработки Арланского месторождения/ В.Б.Сергеев, Г.Г.Насыров, А.И.Чепайкин, З.М.Лукьянова//Сб. наук, трудов «БашНИПИнефть», вып. 64.- Уфа,

1983. - С. 3-14.
2. Гамидов Г.А., Бабаев М.В. Новый подход к оценке эффективности заводнения месторождений высоковязкой нефти // Нефтепромысловое дело. - Москва, 2004. - №1.- С. 21-26.
  3. Муслимов Р.Х., Меркулова Л.И., Гинзбург А.А. Оценка эффективности методов воздействия на обводняющиеся нефтяные пласты // Нефтяное хозяйство. - Москва, 1984. - № 12.- С. 25-31.
  4. Хамзин Р.Г., Фазлыев Р.Т. Оценка эффективности разработки эксплуатационных объектов на поздней стадии методами характеристик вытеснения // Интервал.- Москва, 2002. - № 9 (44), -С. 7-11.
  5. Turdiyev S.S., Muhammadiyev N.M., Boymurodova N.M., Abdunazarov S.C. Gaz rejimida ishlaydigan gaz osti neft uyumlarini ishlash tizimlari //Евразийский журнал академических исследований 3 (1 Part 5), - Toshkent -2023. - 64-68 b.
  6. Орипова Л.Н., Абдиразаков А.И., Жураев Э.И., Курбанов М.Т. Геолого-промысловая условия и особенности водонапорного режима разработки нефтяных залежей // Мировая наука. Проблемы и перспективы, Москва -2020. –С. 92-97.

ТАРКИБИДА МЕТАЛЛ БЎЛГАН БИРИКМАЛАРНИНГ  
ПОЛИВИНИЛХЛОРИДНИНГ ОЛОВДАН ҲИМОЯЛАШ ХОССАЛАРИ ВА  
ТЕРМОЛИЗ ЖАРАЁНИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ

Ф.Н.Нурқулов

т.ф.д.,проф

Кимё технологиялари илмий-тадқиқот институти лаборатория мудири

Ў.Д.Ҳакимов

Қашқадарё вилояти ФВБ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10030375>

**Аннотация.** Ушбу тадқиқот ишида таркибида металл ва фосфор-металл бўлган оловни секинлаштирувчи тизимлардан фойдаланган ҳолда ёнувчанлиги пасайтирилган поливинилхлорид асосида полимер композицияларни олиши усулларини ишлаб чиқилди. Қўйилган мақсадга эришиши учун таркибида металл, фосфор-азот ва фосфор-азот-металл бўлган ОСТ мавжудлигида поливинилхлориднинг термооксидланувчи парчаланиши қонуниятлари, таркибида металл бўлган ОСТ компонентларининг ўлчамлари ва ПВХ-композицияларнинг оловни секинлатиши хоссалари ва термолизи кинетикаси орасидаги ўзаро боғлиқлиги ўрганилди ҳамда ПВХ-композицияларнинг оловдан ҳимояловчи кўрсаткичларини таъминловчи ОСТ таркиби аниқланган.

**Калит сўзлар:** антипирен нанокўшимчалари, ёнувчанлик, оловбардошлик, полимер композициялар.

ОГНЕЗАЩИТНЫЕ СВОЙСТВА МЕТАЛЛСОДЕРЖАЩИХ  
ПОЛИВИНИЛХЛОРИДНЫХ СОЕДИНЕНИЙ И ВЛИЯНИЕ НА ПРОЦЕСС  
ТЕРМОЛИЗА.

**Аннотация.** В данной научно-исследовательской работе разработаны способы получения полимерных композиций на основе поливинилхлорида пониженной горючести с использованием металлических и фосфорно-металлических антипиреновых систем. Для достижения цели изучены закономерности термоокислительного разложения поливинилхлорида в присутствии ОСТ, содержащих металл, фосфор-азот и фосфор-азот-металл, размеры компонентов ОСТ, содержащих металл, и взаимосвязь огнезащитных свойств. Изучена кинетика термоллиза ПВХ-композиций, изучены огнезащитные свойства ПВХ-композиций, определено содержание ОСТ, обеспечивающего указанные показатели.

**Ключевые слова:** огнезащитные нанодобавки, горючесть, огнестойкость, полимерные композиции.

FLAMMABLE PROTECTION PROPERTIES OF METAL-CONTAINED  
POLYVINYL CHLORIDE COMPOUNDS AND EFFECTS ON THERMOLYSIS  
PROCESS.

**Abstract.** In this research work, methods of obtaining polymer compositions based on polyvinyl chloride with reduced flammability using metal and phospho-metal flame retardant systems were developed. In order to achieve the goal, the laws of thermooxidative decomposition of polyvinyl chloride in the presence of OST containing metal, phosphorus-nitrogen, and phosphorus-nitrogen-metal, the dimensions of OST components containing metal, and the interrelationship between the flame retardancy properties and thermolysis kinetics of PVC-

*compositions were studied, and the flame-retardant properties of PVC-compositions were studied. The content of the OST that provides the indicators is determined.*

**Key words:** *flame retardant nanoadditives, flammability, fire resistance, polymer compositions.*

Поливинилхлорид (ПВХ), шунингдек, у асосидаги композицион материаллар саноатда ва маиший хўжаликда энг кенг қўлланиладиган полимерлардан биридир. ПВХ дан қилинган буюмлар қурилишда, безаклаш ва қоплама материалларни, поябзал, болалар ўйинчоқларини тайёрлашда, шунингдек, озиқ-овқат маҳсулотларини қадоқловчи материал сифатида қўлланилади. Бундай турдаги буюмларни тайёрлашда, қоида бўйича, пластификациялаштирилган ПВХ қўлланилади ва бу материалнинг деформацион ва мустақамлик хоссаларини оширади. Ишлаб чиқариладиган ассортиментга қараб киритиладиган пластификатор миқдори масса бўйича 100 қисмга 40 қисмдан 90 қисмгача бўлган миқдорни ташкил қилади ва бу материалнинг ёнғинга ҳавфлиликни кескин оширади (кислород индекси пластификаторсиз ПВХ лар учун 47% бўлган миқдордан 20% гача тушади). Бундай композицион материаллар (КМ) ёнганида катта миқдорда тутун ажралиб чиқиши, аланганинг тарқалиш тезлиги юқорилиги, шунингдек, эритма томчиларини ҳосил қилиш қобилияти билан тавсифланади ва бу бундай синетик материалларнинг кенг қўлланилишини белгиланган даражада чеклайди.

Ўтказилган тадқиқотларнинг катта миқдордаги сонига қарамасдан ПВХ асосидаги КМ ларнинг ёнувчанлиги, тутун ажратиб чиқариши, ёниш ва термолиз материалларининг захарлиликни пасайтириш муаммоси тўлиқ ечилмаган. Шу сабабли, ёнишни секинлатгич (ЁС) ва оловни секинлатувчи тизимларнинг (ОСТ) янги турларини қўллаш орқали ПВХ ва у асосидаги материалларнинг ёнувчанлигини камайитириш имконини ўрганиш долзарб масала ҳисобланади.

ПВХ-композициялардаги металл бирикмаларнинг термостабиллаштирувчи ва оловдан ҳимояловчи таъсирларини самарасини баҳолаш мақсадида термогравиметрки таҳлил шароитларида кечадиган термохимёвий жараёнларнинг кинетикаси ўрганилган. Алюминий оксид тригидрати, алюминий ва магний гидроксидлари руҳ ва қалай оксидлари ҳамда руҳ гексагидроксиданати каби металл бирикмалари ПВХ массаси бўйича 25% миқдорни ташкил этишда полимер эритмасига киритилган.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида аниқландики, ПВХ-композициясига металл бирикмаларни киритиш, қоидага асосан, кокс қолдиғининг (КҚ) оксидланиш ва композициясини максимал парчаланиш тезликлари ҳароратининг даражаси ва миқдори таркибида металл бўлган компонентнинг кимёвий табиатига боғлиқ бўлган пластификациялаштирилган ПВХ нинг ушбу хоссалариникига нисбатан силжишига (1-жадвал) ҳамда металл гидроксидларидан фойдаланилганда парчаланиш тезлигини ҳарорат боғлиқлигини биомодал характери ҳосил бўлишига (1-жадвал, 1, 2 - расмлар) олиб келади. Юқори ҳарорат билан таъсир этилгандаги ҳосил бўлувчи КҚ учун оксидланишга турлича бўлган чидамлик хосдир. Таркибида қалай оксиди бўлган композиция энг юқори чидамликка эгаллиги кўрсатилган ва КҚ оксидланиш ҳароратининг сезиларли кўтарилиши ҳамда ушбу кўрсаткичнинг энг юқори қиймати (46%) бу тўғрисида далолат беради. Шу билан бирга термолизнинг иккала босқичида максимал тезликларнинг ҳарорат соҳалари

хамда ушбу тавсифнинг даражасидаги фарқлар 700 °C даги КҚ катталигига (у 16 дан 20% гача бўлган миқдорни ташкил этади) ўз таъсирини кўрсатмайди.

1-жадвал.

**Таркибида модификациялаштирилган бирикмалар бўлган  
пластификациялаштирилган ПВХ композицияларнинг ТГА маълумотлари**

Таркибида металл бўлган бирикмалар	T <sub>max</sub> , °C	V <sub>max</sub> , %/дақиқа	КҚ, % (350 °C да)	КҚ оксидланиши		КҚ, % (500°C да)	КҚ, % (700 °C да)
				T <sub>max</sub> , °C	V <sub>max</sub> , %/дақиқа		
-	250	14.86	11.85	495	1.3	9.7	5.3
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub> ·3H <sub>2</sub> O	270	15.63	31.7	514	1.8	22.5	15.8
ZnO	251	40.51	41.6	461	20.5	20	17
SnO <sub>2</sub>	290	15.3	35.6	454 535	6.4 8	46	20
Al(OH) <sub>3</sub>	268 295	5.43 10.59	32.5	532	1.9	27	20
Mg(OH) <sub>2</sub>	247 281	7.33 9.68	39.3	481	1.93	21.5	19
ZnSn(OH) <sub>2</sub>	268	31.4	32.7	548	2.3	28.5	16

Таркибида металл бўлган ЗГ лар билан модификациялаштирилган ПВХ нинг оловдан химоялаш хоссаларини таққослаш шуни кўрсатдики (2-жадвал), ушбу бирикмаларни ПВХ га киритиш КИ нинг абсолют қийматини пластификациялаштирилмаган ПВХ учун 0.8 дан 9.4% гача, пластификациялаштирилган ПВХ учун 3.3 дан 7.0 % гача оширади.

2-жадвал.

**Металл бирикмаларни ПВХ нинг оловдан химояловчи хоссаларига таъсири.**

Металл бирикмалар*	КИ, %		ΔКИ, % абс.**		КИ, % нисб.***	
	ПВХ пласт-маган	ПВХ пласт	ПВХ пласт-маган	ПВХ пласт	ПВХ пласт-маган	ПВХ пласт
-	26.0	20.0	-	-	-	-
Al(OH) <sub>3</sub>	26.8	23.3	0.8	3.3	3.0	14.2
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub> ·3H <sub>2</sub> O	26.8	24	0.8	4.0	3.0	16.7
SnO <sub>2</sub>	28.4	25.0	2.4	5.0	8.4	20.0
ZnO	31.2	26.8	5.2	6.8	16.7	24.4
ZnSn(OH) <sub>2</sub>	31.6	27.0	5.6	7.0	17.7	25.9
Mg(OH) <sub>2</sub>	35.4	27.0	9.4	7.0	26.5	25.9

\* Заррачаларнинг ўлчами 1-10 мкм



\*\* ΔКИ, % абс. – таркибида металл бирикмалари бўлган пластификациялаштирилган ва пластификациялаштирилмаган ПВХ-композициялардаги КИ нинг бошланғич наъмуналарниқига нисбатан ўзгариши:  $\Delta\text{КИ, \% абс.} = (\text{КИ}_{\text{ПВХ}} - \text{КИ}_{\text{ПВХ-3Г}})$

\*\*\* КИ, % нисб. – кислород индексининг нисбий ўзгариши:

$\text{КИ, \% нисб.} = (\Delta\text{КИ, \% абс.} / \text{КИ}_{\text{ПВХ}}) \cdot 100\%$

КИ нинг энг кичик абсолют ва нисбий ўзгариши таркибида алюминий бирикмалари бўлган композицияларда содир бўлади. Композиция таркибига рух оксиди, магний гидроксиди ва рух гексагидроксистаннати киритилганда КИ нисбий ўзгариши сезиларли даражада катта бўлади (25.4-253.9%).

### Турбуленлардан фойдаланган ҳолда пластификациялаштирилган ПВХ нинг ёнувчанлигини пасайтириш имкониятларини ўрганиш

Юқорида кўриб чиқилган металл таркибли ОСТ ларнинг пластификациялаштирилган ПВХ лари учун оловдан ҳимоялаш самарадорлигини ошириш имкониятларини баҳолаш мақсадида таркибига ўлчамлари 40-50 нм бўлган углерод нанонайчалар (УНН) ва мис таркибли углерод нанонайчалар (Cu-турбуленлар) қўшилган ОСТ билан модификациялаштирилган ПВХ термолизи жараёнлари ўрганилган. Турбулен қўшимчалар полимер эритмасига массаси бўйича 1% миқдоридаги композиция шакллантиришда қўшилган.

ТГА га (3-жадвал) мувофиқ, пластификациялаштирилган ПВХ га таркибида рух оксиди ва гексагидроксистаннат билан бирга УНН ва турбуленлар бўлган оловни секинлаштирувчи тизимлар қўшилиши композиция термолизи жараёнига турлича таъсир қилади.

3-жадвал.

### Таркибида металл бўлган ОСТ лар билан модификациялаштирилган ПВХ-композицияларнинг ТГА си.

Композиция таркиби	Парчаланиш босқичи		КҚ оксидланиш босқичи		700°C даги КҚ, %
	T <sub>max</sub> , °C	V <sub>max</sub> , %/дақиқа	T <sub>max</sub> , °C	V <sub>max</sub> , %/дақиқа	
пласт. ПВХ +ZnO	251	40.9	461	20.5	17
пласт. ПВХ +ZnO + Cu-турбулен	236	25.49	464	7.9	21
пласт. ПВХ +ZnO +УНН	242	40.07	443	8.92	19.5
пласт. ПВХ +ZnSn(OH)6	268	31.4	548	2.3	16
пласт. ПВХ + ZnSn(OH)6+УНН	265	28.96	531	23.03	15
пласт. ПВХ +ZnSn(OH)6+Cu-турбулен+	264	28.94	514 594	2.26 1.48	16

Таркибида нанодисперс қўшимчалар бўлган барча композицияларнинг термолиз жараёни биринчи босқичда тор ҳарорат интервалида (200-270°C) кечади, аммо унинг интенсивлиги турлича бўлади: таркибида руҳ гексагидроксиданнат бўлган композицияларнинг парчаланиш даражаси 60% дан юқори бўлган миқдорни ташкил этса, таркибида руҳ оксиди бўлган композициялар учун бу миқдор 40-45% ни ташкил қилади.

Композицияга таркибида руҳ оксиди бўлган углерод нанонайчаларини қўшиш максимал парчаланиш тезлигини ўзгартирмайди, аммо ушбу максимумни пастроқ бўлган ҳароратлар чегарасига қўчиради. Шу билан бирга, таркибида руҳ гиксогидроксиданнат бўлган композициялар учун углерод нанонайчаларини қўшишда максимал парчаланиш тезлиги ва ушбу максимумнинг ҳарорати ўзгармайди. Турбуленлар қўшилганда таркибида руҳ оксиди бўлган композицияда таркибида руҳ оксидидан ташқари углерод нанонайчалар бўлган композицияларниқига нисбатан максимал парчаланиш тезлиги пасаяди. Аммо бундай ўзгаришлар таркибида руҳ гексагидроксиданнат бўлган композицияларда содир бўлмайди.

ОСТ таркибига нанонайчалар ва турбуленларни қўшиш (4-жадвал) барча композицияларда кислород индексининг пасайишига олиб келади. Пластификациялаштирилган ПВХлар асосидаги таркибида деярли барча ўрганилаётган ОСТ лар бўлган композициялар учун термолиз жараёни характеристикалари ва хусусан оловдан ҳимоялаш характеристикалари (кислород индекси катталиги) орасидаги симбат боғлиқлик йўқ. Алангаланиш шароитлари КИ билан белгиланадиган учувчвн газ шаклидаги термолиз маҳсулотлари таркибидаги фарқлар бунга сабаб бўлиши мумкин.

**4-жадвал.**

**Пластификациялаштирилган ПВХ учун турли ОСТларнинг оловдан ҳимояловчи таъсирини баҳолаш.**


ОСТ таркиби		КИ, %	ΔКИ, % абс.	ΔКИ, % нисб.
Таркибида металл бўлган компонент	Углеродли нанодисперс компонент			
-	-	20	0	0
ZnSn(OH)6	-	27	7.0	25.9
ZnSn(OH)6	УНН	24.8	-2.2	-8.9
ZnSn(OH)6	Сu-турбулен	24.8	-2.2	-8.9
ZnO	-	26.8	6.8	25.4
ZnO	УНН	25.0	-1.8	-7.2
ZnO	Сu-турбулен	25.5	-1.3	-5.1
SnO2	-	25	5.0	20
SnO2	Сu-турбулен	23	-2.0	-8.7

\* пластификациялаштирилган ПВХ

Композицияларни атом-кучланишли микроскопия (АКМ) усулида ўрганишда (3-жадвал) маълум бўлдики, мис таркибли турбулен мавжудлигида полимер матрица танаси ва

юзасидаги заррачалар нисбатан йирик бўлган 2-5 мкм ўлчамли агломератлар ва 200-300 нм ўлчамли алоҳида жойлашган заррачалар кўринишида бўлиши мумкин.

Бунда таркибида турбулен бўлмаган композицияда алоҳида жойлашган заррачаларнинг миқдори йирик ўлчамли агломератларнинг миқдоридан бир неча мартаба кўп бўлади. Агломератлар руҳ гексагидроксистаннат заррачалари ва турбуленнинг асосий структуравий компоненти бўлган углерод наноайчаларнинг фаол юзалари орасидаги ўзаро таъсири натижасида ҳосил бўлади. Оловни секинлаштирувчи тизимларнинг ўлчамлари ва уларнинг тақсимланишидаги бундай фарқлар ПВХ-композицияларнинг термолизида ҳам маълум даражада роль ўйнаши ва натижада оловдан ҳимоялаш характеристикаларига таъсир қилиши мумкин.




3-расм. Шаклланган наъмуналар юзаларининг микрофотосуратлари: пласт. ПВХ + ZnO+Cu-турбулен (а), пласт. ПВХ + ZnSn(OH)6 + Cu-турбулен (б), пласт. ПВХ + ZnSn(OH)6 (в).

### **Таркибида метататалл бўлган наноўлчамли бирикмаларнинг пластификациялаштирилган ПВХ нинг оловдан ҳимоялаш хоссалари ва термолиз жараёнига таъсири**

Таркибида АСАМФ ва ўлчамлари 50 нм бўлган никель ацетат, магний гидроксид, темир ва руҳоксидлари бўлган оловни секинлаштирувчи тизимларнинг пластификациялаштирилган ПВХ нинг оловдан ҳимоялаш хоссалари ва термолиз жараёнига таъсири ўрганилди (4-расм).

Олинган маълумотлар таркибида металл бирикмаларининг нанозаррачалари бўлган оловдан ҳимояланган ПВХ-композициялари термолизида кечадиган жараёнларнинг мураккаблиги ҳақида далолат беради. Хусусан, парчаланиш ва оксидланиш максимал тезликлари ҳарорати ўзгариши йўналишлари ва ушбу жараёнларнинг тезликлари катталиклари орасидаги корреляция мавжуд эмас.



4-расм. наноўлчамли заррачаларнинг микрофототасвирлари: а – магний гидроксид, б – руҳ оксиди, в – темир оксиди.

ОСТ таркибига руҳ оксиди нанозаррачаларини киритиш термолиз жараёнини сезиларли даражадаги ўзгаришларига олиб келади. Бундай тизим мавжудлигида максимал парчаланиш тезлиги бошланғич пластификациялаштирилган ПВХ никидаги ҳарорат чегарасида бўлади, аммо бу жараён энг кичик тезлик билан кечади ва энг термочидамли кокс қолдиғи ҳосил бўлишига олиб келади (КҚ нинг максимал оксидланиш тезлиги ҳарорати 588 °С), 700 °С даги (28%) кокс қолдиғи миқдори эса таркибида фақат АСАМФ бўлган ПВХ нинг ушбу характеристикасига нисбатан икки баробар катта бўлади.

Руҳ оксиди заррачалари ўлчамларининг термолиз жараёнига таъсири баҳоланди. Таркибида микроўлчамли заррачалар ва 10 нм ўлчамли заррачалар бўлган композициялар термолизининг биринчи босқичи 240-320 °С ҳарорат чегарасида кечиб ўтади. Ушбу композицияларнинг парчаланиш тезлигини ҳароратига боғлиқлиги бимодал характерга эга. Шу билан бирга таркибида 50 нм ўлчамли заррачалар бўлган композиция учун бу боғлиқлик пастроқ ҳароратда (254 °С) максимуми унимодал эгри чизик кўринишига эга. Бунда микроўлчамли руҳ оксиди заррачалари ва ўлчамлари 10 нм бўлган заррачалар бўлганда бу жараён икки босқичда кечади. Шунингдек, кокс қолдиғининг максимал оксидланиш тезлиши ҳарорати ва ушбу характеристика катталиги орасида фарқлар мавжуд.

Полимер композицияга фосформеталл таркибли ОСТларни қўшиш тизимнинг иссиқлик физика хоссаларига ва молекуляр ҳаракатчанлигига таъсир қилади. ДСК маълумотларига мувофиқ, таркибида руҳ оксидининг наноўлчамли заррачалари бўлган композиция максимал эриш ҳароратиинтервалининг (233 °С гача) энг кескин ошиши ва эриш энтальпиясини жуда катта даражада пасайиши билан тавсифланади. Эриш энтальпиясининг пасайиши, хатто у жуда катта бўлмаса ҳам, таркибида никель ацетат заррачалари бўлган композицияларда ҳам содир бўлади. Аниқки, деструкция реакциялари билан бирга кечадиган оксидланиш реакцияларининг конденсатлашган фазадаги ингибациялаш ва структуралаш жаранлари бунга сабабдир. Бу натижалар ушбу композициянинг КҚ миқдори тўғрисидаги ТГА маълумотлари билан корреляциялашади. Бунга қарама-қарши равишда, ПВХ-композицияга темир оксиди қўшилганда эриш энтальпияси содир бўлади ва у ушбу ҳарорат чегараларида деструкция реакциялари кўплиги ва уларнинг натижасида ТГА маълумотларига мувофиқ пастмолекуляр маҳсулотларнинг ажралиб чиқмаслиги тўғрисида далолат беради.

Таркибида АСАМФ ва металл бирикмалари бўлган барча ОСТ мавжудлигида КҚ миқдори таркибида 3Г сифатида фақат АСАМФ бўлган ПВХ учун бу кўрсаткичнинг миқдоридан ошсада, таркибида магний бирикмалари бўлган тизимлардаги ҳолатларда уларнинг заррачалари ўлчамларидан қатъий назар металл таркибли компонент мавжудлигида олинадиган миқдорларга етиб бормади. Таркибида фақат АСАМФ ва руҳ бирикмалари бўлган ОСТ лар миқдори бўйича индивидуал компонентлар мавжудлигидаги олинадиганлардан анча ошиб кетадиган кокс қолдиғи ҳосил бўлишини таъминлайди. Таркибида АСАМФ билан бир қаторда руҳ оксидининг нанозаррачалари бўлган композицияларнинг самарадорлиги энг юқорилигини таъкидлаб ўтиш лозим (5-расм). Ушбу ОСТ мавжудлигида кокс қолдиғининг абсолют кўпайишмиқдор 17.1% ни ташкил этади. ПВХ-композицияга руҳ оксиди нанозаррачалари билан бирга АСАМФ қўшиш термостабил



кокс қолдиғини шаклланишига олиб келади. Унинг чиқиши 700 °C да 28 % ни ташкил қилади ва бу таркибида ўрганилаётган бошқа металл бирикмаларининг наноўлчамли заррачалари бўлган композицияларникига нисбатан деярли 2 баробар кўп. Ушбу маълумотлар кислород индекси катталиги тўғрисидаги маълумотлар билан корреляциялашади. Бу маълумотларга мувофиқ таркибида темир, никель ва магний бўлган тизимлардаги кислород индекси мос равишда 26, 25 ва 24.5% ни ташкил қилади, таркибида рух оксиди бўлган тизимда бу қиймат 27.5% га тенг.

Хулоса қилиб таъкидлаш керакки, ёнишдаполимер материалларнинг ўзини тутишини тавсифлаш учун термолиз жараёнларининг кинетикасини баҳолаш, тутун ажралиб чиқиш интенсивлиги ва кислород индекси қийматини аниқлашни ўз ичига олган комплекс ёндашув қўлланилиши лозим.

#### **Хулоса.**

1. Оловдан ҳимоялаш хоссалари юқори бўлган поливинилхлорид композицияларни олиш мақсадида термолиз қонуниятлари ва таркибида турли оловдан ҳимоялаш тизимлари бўлган композицияларнинг структураси ва таркибининг ушбу жараёнга таъсири ўрганилди.

2. Металл (алюминий, магний, рух, қалақй, темир) оксидлари ва гидроксидлари, таркибида фосфор бўлган кислота тузлари, таркибида ушбу бирикмалар бўлган поливинилхлорид композициялар ҳамда улар асосидаги оловни секинлатувчи тизимлар термолизини ўрганиш натижалари асосида жараённинг кинетик ва термодинамик хусусиятлари ҳамда композициялар таркибини поливинилхлориднинг оловдан ҳимоялаш хоссаларига таъсири тўғрисида тушунчлар шакллантирилди.

3. Таркибида рух ва қалай бўлган бирикмаларни киритиш ПВХ-композициянинг тор ҳарорат интервалида катта тезликда парчаланиши ва юқориқат интенсивликда кокс ҳосил бўлишини таъминлаши кўрсатиб берилди.

#### **REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2009 йил 30 сентябрдаги “Ёнғин хавфсизлиги тўғрисида”ги Қонуни ЎРҚ-223-сон. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 й., 40-сон, 430-модда).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 20 февралдаги ПҚ-4198-сонли “Қурилиш материаллари саноатини тубдан такомиллаштириш ва комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори.
3. Асеева Р.М., Заиков Г.Е. Снижение горючести полимерных материалов. М.: Знание, 1981. 61 с.
4. Вейл Э., Левчик С. Антипирены для пластмасс и текстиля. Практическое применение. Мюнхен: Издво Хансер, 2009.
5. Гликштерн М. В. Антипирены // Полимерные материалы. 2003. № 3. С. 22–23; № 4. С. 15–18.
6. Халтуринский Н.А., Берлин А.А., Попова Т.В. Горение полимеров и механизмы действия антипиренов // Успехи химии. 1984. Т. 53, № 2. С. 21.
7. Копылов В.В. Полимерные материалы с пониженной горючестью. М.: Химия, 1986. 224 с.

8. Гуль В.Е., Кулезнев В.Н. Структура и механические свойства полимеров. М.: Изд. Лабиринт, 1994. 367 с.
9. Асеева Р.М., Заиков Г.Е. Горение полимерных материалов. М.: Наука, 1981. 280 с.



“TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARIDAGI KO’CHIMLAR  
(metafora va metonimiya misolida)

Murodova Sevinch Abdimo’min qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10031089>

**Annotatsiya.** Asarlarda ko’chimlar qo’llash yozuvchining quroli hisoblanadi. Shunday ekan asardagi barcha badiiy vositalar asarning qiymatidir uing o’qilish darajasini oshiradi. Biz tasvirlayotgan va uni badiiy lingvistik tahlil qilayotgan asar bu “Tushda kechgan umrlar” asaridir. Uning qiymatini oshirgan badiiy vositalarni birma bir ko’rib o’tamiz.

**Kalit so’zlar:** Metafora, metanomiya, istiora, ironiya.

MOVEMENTS IN THE WORK "LIVES LAST IN A DREAM".  
(in the case of metaphor and metonymy)

**Abstract.** The use of metaphors in works is a writer's tool. Therefore, all artistic tools in the work are the value of the work and increase the level of readability. The work we are describing and analyzing it artistically and linguistically is the work "Dreams of Past Lives". Let's take a look at the artistic tools that increase its value one by one.

**Key words:** Metaphor, metanomy, metaphor, irony.

ДВИЖЕНИЯ В РАБОТЕ «ЖИВУТ ПОСЛЕДНИЕ ВО СНЕ».  
(в случае метафоры и метонимии)

**Аннотация.** Использование метафор в произведениях – инструмент писателя. Поэтому все художественные средства в произведении представляют ценность произведения и повышают уровень читабельности. Произведение, которое мы описываем и анализируем в художественном и языковом отношении, – это произведение «Сны прошлых жизней». Давайте посмотрим на художественные инструменты, которые один за другим увеличивают его ценность.

**Ключевые слова:** Метафора, метаномия, метафора, ирония.

Ko’chim deyilganda “adabiy asarning badiiy qimmarini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko’cherish yoki so’zlarning umumiy ko’chma ma’noda ishlatilishini” nazarda tutiladi. So’z ma’nosining ko’chish jarayonlari turli ko’rinishlarda voqe bo’ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o’ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o’zbek tilshunosligida ancha batafsil o’rganilgan.

Badiiy matnning lingvistik tahlili” qo’llanmasida ko’chimlar quyidagicha tasnif qilingan:

1. So’z ma’nosining sifatliy ko’chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis,
2. So’z ma’nosining sifatliy ko’chishiga asoslangan tropla: a) metafora; b) metonimiya; c) ironiya. qolgan tasviriy vositalar mazkur ko’chimlarning ko’rinishi sifatida beriladi: simvol, jonlantirish, epitet – apostrofa – metaforaning; perifraza, snekdoxa, allegoriy, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota meyozisning ko’rinishlaridir.

Metafora. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o’rtasidagi o’zaro o’xshashlikka asoslangan ma’no ko’chishiga metafora deyiladi. Metafora ko’chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo’lib, mumtoz adabiyaot shunosligimizda “istiora”deb yuritilgan. Metafora orqali ma’no ko’chishida konnotativ ma’no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak,

qo'y, it, tulki, bo'ri, musicha, lochin, burgut, lola va hayvon nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. Misol uchun asarlarda qo'llangan: Buqalamun bilan uchrashuv. Buqalamun metafora bo'lib kelgan.

Metonimiya. Grekchada "qayta nomlash". voqea – hodisa, narsa – buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. <etonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat "metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyaqda bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir- biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi". Masalan: Fuzuliyning oldim qo'limga, Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi.

Metafora.

Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi.

oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi.

Yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi.

Oq zulmat orasidan qarg'alqarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi.

Erta – indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi.

Yer-u osmon oqish, xira pardaga o'rab tashlaganday.

Qurbonay xola bu sovuq gap kimdan chiqqanini anglagan edi.

Shahnoza melisaxonaning fayzsiz yo'laklaridan o'tib borarkan, hech kimni ko'rmas, hech narsani eshitmas edi.

Bostirmaning qorayib ketgan pastak shiftida olmadekkina lampochka osilib turardi.

Millatchilikqilma!-dedi chol toshbaqaga o'xshash ingichka bo'ynini cho'zib.

Havo sovuq, osmunda zahardek qor uchqunlari erinchoq kezadi.

Qonqus olisdan jigarrang ilondek to'lg'anayotgani ko'zga tashlanardi.

Yunusboy ham, qozondek sallali Eshon ham ikki bukilib ta'zim qilishardi.

Bir mahal qarasa anhor sohilida bilalar qaldirg'ochdek tizilib o'tiribdi.

Qo'ying endi taqdir!-chollardan biri Ro'zmat otaga yumshoq dashnom berdi.

O'zim ayibdorman, bolam -dedi xuddi o'g'ir gunohiga iqror bo'lgan odamdek ishonch bilan.

Yuragi muzlab ketgandek bo'ldi.

Voyenkomat degani qassobxonadek gap.

O'sha kecha Nazira tushiga kirdi. Boshiga oppoq ro'mol o'rab olganmish. Xuddi otinoyilarga o'xsharmish.

Paltosini kiya turib dona-dona qilib ta'kidladi: -Ey, pichanni qo'riqlab yotgan qari it!

U xira pashshadek bema'ni g'o'ngilagan savollarni quvib solidi.

Qaysi tomonda iliqroq shamol essa, o'sha yoqqa qarab egiladigan, bir qarasang feodal o'tmishni ulug'laydigan, bir qarasang g'arbgga topinadigan betayin ziyoli ham emas!

Tun-yolg'izlarni sinash uchun yuborilgan jazo elchisi. Avval ko'zingniko'r qiladi. Keyin qulog'ingni shang'illatadi. Undan keyin yuragingni g'ijimlay boshlaydi.

-Yigitlar chegaradan o'tdik!- dedi jilmayib. samalyot ichi bir zumda shodon shovqinga to'lib ketdi.

-So'zlari bemavrid ekanligini bilib, darrov xatosini tuzatdi. -Sen ko'nglingni cho'ktirma,- dedi mendan ko'ra ko'proq o'zini yupatib.

Hovlida hamon musicha kukulaydi. Yozning toliqtirguvchi sukunatni yanayam chuqurlashtirishga ahd qilgandek, osoyishta va horg'in honish qiladi. O'zbekning o'zidek sodda, beozor...

Metonimiya.

-To'yni shunaqangi qars-badababg qilib o'tkazamizki, "falonchi qamalibdi" deb suyunib yurgan og'zi kattalar uyalib qolsin.

O'n oltinchi bannisaga o'n olti kishilik palataga joylashtirdi.

Guvoh sifatida "povuska" olgandan beri ayasi nuqul qulog'iga quyadi.

Zo'rsiz-ku!-dedi qaytib kelib-Ellik ikki kilo chiqdi.

Komissarning yonidan quyon telpakli kishi shitob bilano'tib ketdi.

Mauzer- ismini nega qo'ygansiz .Insonlarni men bilan yo'q qilish uchun-mi?

-Afg'onga yuborsam bo'larkan. Qirq yil qirg'in bo'lsa ajali yetgan o'ladi.

-Uzoq jim qoldi-da ikkilanibroq davom etdi. -O'zbekka o'zbek sifatida bu gapni aytishim noqulay.

Yon qo'shnilar birovbiroviga bir kosa ovqat uzatadi. Erkaklar kechurunlari choyxonaga chiqib gurunglashadi.

Bazm ayni qiziganda to'rtinchi qavat derazasi ochilib maykachan bo'lib olgan barzangi "o'chir darang-durungingni" deb hokimona buyruq berganda vujudimga titroq kirdi.

Bilagiga qizil latta o'ragan ikkitasi yo'limni to'sdi. Qiyin shulargayan, vositachi bo'lish osonmi?

"Boshlanishi o'n bir" "Volga" oldida uzoq turib qoldim. Sharcha hamon g'ujg'on o'ynar, oynavand eshik tarafdin shovqun-suron eshitalardi.

Asarda metafora va metonimiya ham ko'p o'rinlarda foydalaniladi. Asardagi badiiylikni ifodalash, undagi emotsiya va insonlarni asarga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish va bir qancha vazifalarni bajarish uchun. "Tushda kechgan umrlar" asaridagi ko'chimlar badiiylikni ifodalash va so'zlarni tasvirsizlikdan saqlagan va uning emotsional-ekspresivligini oshirish vazifalarini bajargan.

## REFERENCES

- 1.R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent. 2010.
- 2.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent.: Talqin, 2005.
- 3.Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -Toshkent.: Universitet, 2006.

## ORGANIK O'G'ITLARNING TUPROQDAGI OZIQ MODDALAR MIQDORI VA O'SIMLIKLARGA TA'SIRI

**Xayrullayev Sardor Shamsiddin o'g'li**

Toshkent davlat agrar universiteti doktoranti

**Hayitov Sirojiddin Akbar o'g'li**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

[hayitovsirojiddin123@gmail.com](mailto:hayitovsirojiddin123@gmail.com)

**Asilbek Umarov Alisher o'g'li**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

[asilbekumarov153@gmail.com](mailto:asilbekumarov153@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10031769>

*Annotatsiya.* Bugungi kunda Organik o'g'itlar tuproqqa kompleks ta'sir ko'rsatib ekinlar, jumladan g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin ularni samaradoligini oshirish uchun organik o'g'itlar jumladan yarim chirigan qoramol go'ngi har bir tuproq –iqlim sharoitida va qishoq xo'jalik ekinida alohida har tomonlama o'rganilishi kerak. Bunda asosiy rolni tuproq unumdorligining holati o'ynaydi. Tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy modda gumus hisoblanadi. Gumus miqdori va sifati qancha yuqori bo'lsa unumdorlik ham baland bo'ladi. Lekin, ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, oxirgi 30-50 yil ichida tuproqda gumus miqdori sezilarli kamayib bomoqda. Bu jarayonning asosiy sabablaridan biri qishloq xo'jaligida organik o'g'itlarning yetishmasligi hisoblanadi.

*Kalit so'zlar:* Organik o'g'itlarning gung, chala chirigan, tula chirigan tuproqdagi oziq miqdori miqdori va o'simliklar o'sishiga samarasi.

## THE AMOUNT OF NUTRIENTS IN THE SOIL AND THE INFLUENCE OF ORGANIC FERTILIZERS ON PLANTS

*Abstract.* Today, organic fertilizers have a complex effect on the soil and have a positive effect on the growth, development and productivity of crops, including cotton. However, in order to increase their efficiency, organic fertilizers, including half-rotted cattle manure, should be studied individually in each soil-climate condition and agricultural crop. The main role in this is played by the state of soil fertility. The main substance determining soil fertility is humus. The higher the quantity and quality of humus, the higher the productivity. However, according to most scientists, the amount of humus in the soil has been significantly decreasing over the last 30-50 years. One of the main reasons for this process is the lack of organic fertilizers in agriculture.

*Key words:* Effect of organic fertilizers on nutrient content and plant growth in humus, pre-rotted and well-rotted soil.

## КОЛИЧЕСТВО ПИТАТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ В ПОЧВЕ И ВЛИЯНИЕ ОРГАНИЧЕСКИХ УДОБРЕНИЙ НА РАСТЕНИЯ

*Аннотация.* Сегодня органические удобрения комплексно воздействуют на почву и положительно влияют на рост, развитие и продуктивность сельскохозяйственных культур, в том числе хлопка. Но для повышения их эффективности органические удобрения, в том числе полуперепревший навоз крупного рогатого скота, следует изучать индивидуально для каждого почвенно-климатического условия и сельскохозяйственной культуры. Главную роль в этом играет состояние плодородия почвы. Основным

веществом, определяющим плодородие почвы, является гумус. Чем выше количество и качество гумуса, тем выше урожайность. Однако, по мнению большинства ученых, количество гумуса в почве за последние 30-50 лет значительно уменьшилось. Одной из основных причин этого процесса является недостаток органических удобрений в сельском хозяйстве.

**Ключевые слова:** Влияние органических удобрений на содержание питательных веществ и рост растений в перегнойной, предварительно перепревшей и хорошо перепревшей почве.

**Kirish.** Organik o'g'itlar tuproq unumdorligiga keskin ta'sir ko'rsatadi va bunda tuproqning asosiy moddasi bo'lgan gumus miqdori sezilarli ortadi. Uzoq vaqt davomida (125 yil) har yil mineral o'g'itlarni qo'llash (N 48 P 48 K 48) gumus miqdorini boshlang'ich darajasida ushlab turadi. Birinchi 20 yilda organik o'g'itlarni qo'llash gumus miqdorini 1,2 % dan 2 % gacha oshirdi, lekin keyingi 100 yilda organik o'g'itlarni qo'llamaslik gumus miqdorini 2,0 % dan 1,6 % ga kamaytirib yubordi. Organik o'g'itlarni muntazam 125 yil davomida qo'llash tuproqdagi gumus miqdorini 3 barobar oshirdi. (A. Johnston, 1982). Organik o'g'it sifatida go'ng, parranda qiyi xazon, uglegumin o'g'iti, bentonet, daladan chiqarib tashlangan va chiritilgan begona o'tlarni qo'shish mumkin. Organik o'g'itlar tuproq unumdorligiga va ekinlar hosildorligiga beqiyos katta ahamiyatga ega. Organik o'g'itlarning tuproqning biologik aktivligini oshiradi.

Go'ngni kompostlaganda nafaqat begona o't urug'lari yo'qoladi. Turli xil kasalliklarni kamayishiga va hosildorlikni oshishiga xizmat qiladi. Yaxshi chirigan go'ng va kompostlarni ko'zgi shudgor ostiga qo'llashdan tashqari bahorda chizillash oldidan berish ham muhim ahamiyatga ega. Bu tuproq mikrobiologik faolligini yaxshilaydi, tuproq naligi va yumshoqligini ham oshiradi, qaqaloqni salbiy ta'sirini pasaytiradi hamda chigitni tez unib chiqishini va nihollar yaxshi jadal rivojlanishiga yordam beradi. Organik o'g'itlar me'yori 20 t/ga dan 40 t/ga miqdorgacha oshirilganda ularning azot miqdoriga ijobiy ta'siri yanada ortdi. Yarim chirigan qoramol go'ngiga nisbatan turli xil chiqindilardan tayyorlangan tayyorlangan kompostlar ammoniy va nitrat shaklidagi azotga kuchliroq ta'sir ko'rsatdi.

Bu kompost tarkibida nisbatan azot miqdorining yuqoriligi famda fosfogips mavjudligi bilan tushuntiriladi. Chunki fosfogips magniy karbonatli shurlangan o'tloq tuproqlarning tuproq singdirish kompleksini kalsiy kationi bilan boyitib ularning meliorativ holatini yaxshilaydi bu esa o'z navbatida tuproqning tabiiy agrokimyoviy xossalarini sezilarli yaxshilaydi. O'zbekiston Respublikasi har xil tuproq tiplarida o'tkazilgan tadqiqodlarni mineral va organik o'g'itlarni muntazam qo'llash gumus miqdorini oshiradi. Defisetsiz gumus balansiga erishish uchun har bir gektar yerga 18 t go'ng qo'llash kerak (D.S.Sattorov, A.E.Ergashov, 1989).

O'tloq-bo'z tuproqlarda almashlab ekishda 32 yil moboynida go'ngsh va mineral o'g'itlarni qo'llash natijasida gumus va yalpi azot miqdori ortishi kuzatildi (D.A.Akimaliyev, V.M.Zoloyev, 1995). Har yili organik o'g'itlar qo'llanilgan tuproqlarda harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdorining kamayishi ularni adsorbsiyalanishi va singdirilgan holatda ushlanib turilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari organik o'g'itlarni qo'llash tuproqdagi gumus miqdorini oshiradi. Organik o'g'itlar mustaqil ravishda ham og'ir metallarni singdirilgan holatda ushlab turishi va ularning harakatchanligini kamaytirishi mumkin. Organik o'g'itlarni gektariga 30 t/ga



dozada solish va xuddi shu dozada go'ngni NPK bilan birga qo'llash og'ir metallar miqdorini keskin kamaytiradi. (I.N.Bobobekov, 2017).

Aniqlanishicha organik o'g'itlarni torf asosida qo'llash somonli go'nga nisbatan gumus miqdorini 15-20 % ga oshiradi (A.I.Jukov, P.D.Popov, 1988). Chim podzol tuproqlarda go'ngni 100, 200 t-ga dozada qo'llash gumus miqdorini oshiradi. 50 t/ga dozadagi go'ng stabil holdagi defisitsiz gumus balansini ta'minlay olmadir (S.S.Sdobnikov, O.V.Yabangen, 1990).

**ORGANIK O'G'ITLAR G'O'ZA O'SIMLIGIGA ASOSIY POYASI  
BALANDLIGI VA BARG SONIGA TA'SIRI**

t/r	Variantlar	G'o'zao'simligida asosiy poyasining balandligi, sm					Barg soni, dona		
		15.05	1.06	1.07	1.08	1.09	15.05	1.06	1.07
	O'g'itsiz (nazorat)	3,3	11,8	37,7	50,04	68,6	1,4	3,8	9,8
	30 t/ga tovuq gungi	8,3	19,7	44,8	78,6	91,5	2,0	7,1	16,5
	30 t/ga go'ng	7,0	13,1	41,3	70,5	81,5	2,0	4,3	12,5

G'o'za o'simligining o'sishi bilan birga bitta o'simlikdagi barglar soni ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki fotosintez jarayoni, ya'ni organik va quruq modda hosil bo'lishi barglar soni va yuzasiga bog'liq bo'ladi. Organik o'g'itlar qo'llanilmaganda g'o'za tabiiy oziq moddalar bilan oziqlanib o'sganda barglar soni ancha kam bo'lishi aniqlandi. Shunday bulsada iyul oyida barglar soni sekin shakllandi. O'g'it berilmagan nazorat variantida bitta o'simlikdagi barg soni dinamikasi sekin o'zgardi. Tovuq gungi g'o'za o'simligida barglar soni dastlabki rivojlanish fazalarida jadal ko'paygan bo'lsada, lekin yarim chirigan qoramol go'ngi qo'llanilgan variantlarda keyingi rivojlanish fazalarida mineral o'g'itlarga nisbatan barg soni biroz kuchliroq ortdi. Organik o'g'itlar jumladan 30 t/ga me'yorda yarim chirigan go'ng qo'llanilganda bitta g'o'za o'simligidagi barg soni sezilarli ortdi. Demak, organik o'g'itlar qo'llanilganda tuproqda oziq moddalar miqdorini ortishi g'o'za o'simligida barg hosil bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Tadqiqot uslubiyati.** Organik o'g'itlarning sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar agrokimyoviy xossalariga hamda g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va mahsulot sifatiga ta'sirini o'rganishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak bo'ladi.

- Organik o'g'itlarning sug'oriladigan tipik-bo'z tuproqlar agrofizik xossa siga ta'sirini aniqlash.
- Organik o'g'itlarning tuproq kimyoviy va agrokimyoviy xossalariga ta'sirini o'rganish.
- Organik o'g'itlarning g'o'zaning oziqlanishi, o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga ta'sirini o'rganish.



- O'g'itlardagi oziq moddalarning o'zlashtirish darajasi va ularni tuproqdan olib chiqib ketilishini tadqiqot qilish.

- Organik o'g'itlarni qo'llashning paxta yetishtirishdagi iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqot natijalar va ularning tahlili.** Tuproqda harakatchan oziq moddalarning bo'lishi o'simliklarning yaxshi o'sib rivojlanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, tuproqqa organik o'g'itlarni qo'llash tuproqdagi nitratli va ammoniyli azot (miqdorini butun g'o'za o'suv davrida ishonarli oshiradi. Umuman olganda, tajriba dalasi tuprog'ida ammoniy shakldagi azot miqdoriga nisbatan nitrat shakldagi azot miqdori sezilarli yuqori bo'lishi aniqlandi. Bu esa tuproqda ammonifikasiyaga nisbatan nitrifikasiya jarayoni kuchli borishini ko'rsatadi. Chunki tuproqda ammoniyning miqdori juda katta konsentrasiyaga yetsa, u tirik organizmlar, jumladan mikroorganizmlar uchun xavfli hisoblanadi.

Organik o'g'itlarni qo'llash natijasida tuproqda mineral azot miqdori ham ammoniy, ham nitrat hisobiga sezilarli ravishda ortdi. Erta bahorda va o'suv davri boshlarida tuproqdagi mineral azot miqdoriga organik o'g'itlar, azotli o'g'itlar qo'llanilishi bilan o'suv davri oxirida yana organik o'g'itlar kuchli ta'sir ko'rsatdi. Mineral o'g'itlarning ta'siri qisqa vaqt davom etgan bo'lsa, organik o'g'itlar mineral azot miqdoriga uzoq muddatli ta'sirga ega bo'ldi. Bu holat ham ammoniyli azot, ham nitratli azot hisobiga birday amalga oshdi.

Demak, organik o'g'itlarni jumladan yarim chirigan qoramol go'ngi hamda tovuq go'ngini qo'llash tuproqdagi mineral azot miqdorini sezilarli oshiradi. Umuman olganda, tovuq go'ngi va yarim chirigan qoramol go'ngi tuproqning azot rejimiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni uni kuchaytiradi. Bunda qoramol go'ngiga nisbatan tovuq go'ngi kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Tuproqdagi yana muhim oziq moddalardan biri harakatchan fosfor hisoblanadi. Tuproqning fosfor rejimi tuproqning unumdorligini belgilashda ham muhim rol u'naydi. Tuproqda fosfatlarning harakatchan holga o'tishi juda sekin kechadi. Fosfatlar tuproqda azotga nisbatan kam harakatchan bo'ladi. Organik o'g'itlar qo'llanilgandan keyin tuproq oziq rejimining muqobillashishi, g'o'za oziqlanishini kuchayishi natijasida g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi jadallashdi. Demak go'ng qo'llash natijasida tuproq unumdorligi, jumladan harakatchan oziq moddalar miqdori ortishi g'o'za o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'g'it berilmagan nazorat variantida ko'saklar soni dinamikasi sekin o'zgardi.

Ushbu variantda g'o'zaning o'sish jadalligi, ko'saklarni hosil bo'lishi ham kuchsiz namoyon bo'ldi. Organik o'g'itlarni qo'llash natijasida g'o'zaning o'sishi sezilarli darajada kuchaydi. Bu ayniqsa tovuq go'ngi tarkibida azotning ko'pligi bilan tushuntiriladi. Tovuuq go'ngini yarim chirigan qoramol go'ngiga nisbatan g'o'zada ko'sak hosil bo'lishiga ta'siri kuchli bo'ldi. Masalan, o'g'itsiz nazoratda bitta o'simlikdagi ko'saklar soni 1-avgust sanasida 6,5 ta, 1-sentyabr sanada 11,4 ta bo'lgan bo'lsa, 30 t/ga tovuq go'ngi qo'llanilgan variantda yuqoridagiga mos ravishda 10,1; 17,2 ta, 30 t/ga yarim chirigan qoramol go'ngi qo'llanilgan variantda tegishli 7,8; 14,0 ta bulishi kuzatildi

#### **Xulosalar.**

Organik o'g'it sifatida qo'llanilgan tovuq go'ngi va yarim chirigan qoramol go'ngi tuproqdagi harakatchan oziq moddalar miqdorini-ammoniy shaklidagi azot, nitrat shaklidagi azot, mineral azot, harakatchan fosfor va almashuvchan kallyi miqdorini butun o'suv davri davomida nazoratga nisbatan barqaror oshirib boradi. Bu holat har ikala organik o'g'it qo'llanilganida ham kuzatiladi.

Organik o'g'itlarni 30 t/ga me'yorida qo'llash g'o'zaning o'sishi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda nazoratga nisbatan g'o'za o'simligining bo'yi, barg soni, simpodial shoxlar soni, shona soni, gul soni va ko'saklar sonini sezilarli oshiradi.

#### **REFERENCES**

1. Satarov D.S. Paxta tolasi hosilining nav-tuproq-o'g'it sistemasiga bog'liqligi // J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 1980, №
2. Sattarov D.S., Xoliqulov Sh., Toshmatov N.E. – Ftor v otxodax, ispolzuyemyx v selskom xozyaystve v kachestve udobreniy. // Tezisy dokl. soveщ. «Zagryazneniye pochv i puti yego predotvrashcheniya». Tashkent. 1992. s.51.
3. Tashko'ziyev M.M., Sherbekov A.N. Rezultaty issledovaniy, napravlenyye na razrabotku agrotexnologiy obogashcheniya pochvy organicheskim veshestvom. // Yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. 2007 y., 11-12 sentyabr. Toshkent, 2007. 66-70 b.

UDK: 631.635.

## BUG'DOYNI RIVOJLANISH DAVRLARIGA BOG'LIQ HOLDA UMUMIY NPK MIQDORLARINING O'ZGARISHI

**G'ofurjonova Mufassalxon Shuhratjon qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

**Rahmonova Aziza G'ayratjon qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

**Tastemirova Jasmin Rustam qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10031833>

*Аннотация.* Bugungi kunda kuzgi bug'doy don hosilini va uning sifatini oshirishda o'simlikning bargidan qo'shimcha oziqlantirish yo'li orqali erishish mumkin. Shu sababli ham Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari yaxshilash kuzgi bug'doyni ildizdan tashqari oziqlantirishda mineral o'g'itlardan oqilonqa foydalanish mineral o'g'itlar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda hozirgi vaqtda sug'oriladigan yerlarda bug'doy yetishtirish evaziga don mustaqilligiga erishilib, bir qismini xorij davlatlariga sotish imkoniyatlariga erishildi.

**Калит со'злар:** Mineral o'g'it, kuzgi bug'doy, o'sishi va rivojlanishiga, tasiri o'simlikni o'sish davrlari o'g'itlar samaradorligi.

## CHANGE OF TOTAL NPK AMOUNTS DEPENDING ON WHEAT DEVELOPMENT PERIODS

*Abstract.* Today, it is possible to increase the grain yield and quality of winter wheat by supplementing the leaves of the plant. For this reason, improving the agrochemical properties of the irrigated typical gray soils of the Tashkent region, rational use of mineral fertilizers in feeding winter wheat without roots, development of measures aimed at increasing the effectiveness of mineral fertilizers on a scientific basis are important tasks.

Is considered In our republic, due to the cultivation of wheat on irrigated lands, grain independence has been achieved, and the possibility of selling a part of it to foreign countries has been achieved.

**Key words:** Mineral fertilizer, winter wheat, the growth and development, growth periods of the plant, the effectiveness of fertilizers.

## ИЗМЕНЕНИЕ ОБЩЕГО СОДЕРЖАНИЯ NPK В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПЕРИОДОВ РАЗВИТИЯ ПШЕНИЦЫ

*Аннотация.* Сегодня повысить урожайность зерна и качество озимой пшеницы можно за счет подкормки листьев растения. По этой причине важными задачами являются улучшение агрохимических свойств орошаемых типичных сероземов Ташкентской области, рациональное использование минеральных удобрений при подкормке озимой пшеницы без корней, разработка мероприятий, направленных на повышение эффективности минеральных удобрений на научной основе.

Считается В нашей республике за счет выращивания пшеницы на орошаемых землях достигнута зерновая независимость, а также возможность продажи ее части в зарубежные страны.

*Ключевые слова: Минеральные удобрения озимой пшеницы, ее рост и развитие, эффективность удобрений в период роста растения.*

**Kirish.** Respublikamizda hozirgi vaqtda sug'oriladigan yerlarda bug'doy yetishtirish evaziga don mustaqilligiga erishilib, bir qismini xorij davlatlariga sotish imkoniyatlariga erishildi. Endigi vazifa sug'oriladigan yerlarda dehqonchilikni intensiv rivojlantirish, resurstejamkor texnologiyalar orqali mineral o'g'itlar samaradorligini oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida "...aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish, qishloq xo'jaligida intensiv innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish, ekologik sof mahsulot yetishtirish" kabi vazifalar belgilangan.

Bu borada mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun karbamid asosidagi suspenziyaning kuzgi bug'doy uchun maqbul me'yor va muddatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

Tipik bo'z tuproqlarining mexanik tarkibi hamda qo'llanilgan o'g'itning me'yor va muddatlariga bog'liq holda o'simlik o'zlashtiradigan mineral o'g'itlarni yog'in-sochin va sug'orish suvi ta'sirida pastki qatlamlarga yuvilish darajasi va o'simliklarni o'zlashtirishi hamda don hosili va sifati aniqlanadi.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'oz qator oralariga ekiladigan kuzgi bug'doyda fosforli azotli kaliyli o'g'itni qo'llash me'yor va muddatlariga bog'liq holda tuproqdagi nitratli azot, harakatchan fosfor, almashinuvchi kaliyning dinamikasi va o'simlik NPK o'zlashtirishi, bir tonna don uchun sarflashi hamda fosforni foydalanish koeffitsiyenti, don hosili va sifatiga ta'sirini aniqlashdan iboratdir.

**Tadqiqot uslubiyati.** Kuzgi bug'doy o'tkaziladigan agrotexnik tadbirlarga bog'liq holda ma'dan o'g'itlar jumladan mineral o'g'itlarni maqbul me'yorlarining samaradorligi ko'pgina izlanishlarda jumladan, T.P.Piraxunov, N.M.Ibragimov, L.A.Mirzayev, B.X.Tillabekov, I.Abduraxmonov, D.U.G'ofurov., B.K.Atoyev, S.K.Maxammadiyev, M.A.Usmonova va boshqa olimlar – tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Ammo, respublikamiz tuproqlarida fosfor, kaliy va organik o'g'itlarning yetishmaganligi, almashlab ekish tizimi o'zgarganligi, ma'dan o'g'itlarni bir tomonlama qo'llanilishi tufayli tuproq unumdorligi pasayib bormoqda.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproq, azot, fosfor va mahalliy kaliy o'g'iti, kuzgi bug'doyning "Grom" navi, qo'llash me'yor va muddatlari tadqiqotning obyektini;

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyni o'sishi, rivojlanishi, o'simlikning oziqa moddalarni o'zlashtirilishi, don hosili va sifatini ta'minlovchi fosforli o'g'itni maqbul me'yor va muddatlarda qo'llash agrotexnologiyasini ishlab chiqish esa predmetini belgilaydi.

Kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itlarning me'yor va muddatlarining samaradorligi dala tajribasi sharoitida tadqiq qilinadi.

Tajriba o'tkazish, fenologik kuzatuv, tuproq va o'simlik namunalari olish "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (Toshkent 2007) qo'llanmasiga asosan o'tkaziladi.

Tuproq va o'simlik namunalariining agrokimyoviy tahlili "Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" usulnomasiga binoan amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlar B.A.Dospexov usulida statistik tahlil qilinadi. Kuzgi bug'doyda mineral o'g'itlarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi N.A.Baranov usulida aniqlanadi.

**Tadqiqot natijalar** Ta'kidlab o'tamizki, kuzgi bug'doy o'simligi azotli o'g'itlarga sut-mum pishish davrigacha, fosforlilarga boshoqlash davrigacha, kaliyga esa gullash davrigacha talabchan bo'ladi. Kuzgi bug'doyni oziqlantirishda NPK nisbatlarini to'g'ri belgilash asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi.

Tipik bo'z tuproqlari sharoitida qo'llanilgan mineral o'g'itlarning me'yorlariga bog'liq holda karbamid asosidagi suspenziyalar me'yorlari va muddatlarini maqbullashtirilishi hisobiga nazorat variantida tuproqning haydov (0-30 sm) qatlamida nitratli azot miqdori (N-180, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>-125, K<sub>2</sub>O-90 kg/ga) dastlabki holatidan 2,7-1,9 mg/kg ga, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> – 0,7-2,4 mg/kg, K<sub>2</sub>O – 20-28 mg/kg farqlangan, N-NO<sub>3</sub> miqdori 16,6 mg/kg, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>-23,7 va K<sub>2</sub>O-300 mg/kg ni tashkil etganligi va dastlabki holatidan 2,1; 2,9 va 30,0 mg/kg ga farqlanganligi aniqlangan.

Kuzgi bug'doy 1 s. don hosili uchun 3,25 kg azot, 1,15 kg fosfor o'zlashtirsa, o'simlik orqali o'zlashtirish koeffitsiyenti 0,67 va 0,30 bo'lsa, har bir sentner don uchun 4,85 kg azot, 3,83 kg fosfor solinishi kerak bo'ladi (Pryanishnikov, Zuyev, Golubyans). Demak, kuzgi bug'doy o'simligi uchun azot, fosfor va kaliy elementlari zarurligi aniqlangan.

Lekin bular orasida fosfor alohida ahamiyatga egadir. Maqbul fosforli oziqlantirish o'simlik rivojini tezlashtiradi, natijada erta muddatlarda hosil pishib yetiladi. Fosforli oziqlanish xujayralardagi nukleoproteinlar, oqsil miqdorini keskin oshiradi.

Fosforli o'g'itlar kuzgi bug'doyni ildiz tizimini shakllanishiga va o'simlikda kechadigan barcha fiziologik jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Fosfor bilan maqbul oziqlantirilganda ko'chatlar yaxshi qishlab chiqadi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi keskin ortadi. Fosfor o'simlik ildizlari tomonidan adsorbsiyalanadi, so'ng hamma to'qima hujayralarga taqsimlanadi.

O'simliklarning hosil beruvchi organlarida ko'proq fosfor to'planadi. Urug'lar shu darajada fosfor saqlashlari kerakki, ekilgan urug' ildiz otib, bu ildizlar tuproqdan oziqa olish darajasiga yetgunga qadar fosforgia talab bo'lmasin. Hujayralarda fosfor, uglerod, vodorod, kislorod, azot va boshqa unsurlar bilan qo'shilib, murakkab organik birikmalar hosil qiladi.

Agar hujayralarda fosfor va boshqa unsurlar yetishmasa, hujayra yadrosi bo'linmaydi. Shuning uchun fosforning yetishmasligi ziroat o'sishini sekinlashtiradi, meva yetilishini kechiktiradi.

O'g'it sifatida ishlatishda fosfor azotdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Shu o'g'itlarning bittasi yoki ikkalasi ham tuproqqa solinadigan o'g'itlar tarkibiga kiradi. Ba'zi bir tabiiy sharoitda o'simliklarni oziqa bilan ta'minlashda fosfor o'g'iti azotdan ham ustun turishi mumkin. Fosfor, azot va oltingugurt kislorod bilan murakkab anionlar hosil qiladi. Lekin azotga nisbatan suvda kam eriydi yoki umuman erimaydi desa ham bo'ladi. Shu tufayli o'simliklar fosforni qiyin o'zlashtiradilar.

Bir gektar yerning haydov qatlami odatda eritmada 1 kg dan kam fosfor saqlaydi (umumiy fosfor miqdori 1000 kg bo'lganda ham). Shunday bo'lsa ham fosforni suvda erimasligining ijobiy tomoni bor. U ham bo'lsa, fosfor tuproqdan kam yuviladi, (azotga nisbatan) solingan tuproq

qatlamida turaveradi. Fosfor tuproqda mineral va organik shaklda uchraydi. Organik fosfor har xil

Variant tartibi	Qo'llash me'yor va muddatlari, kg/ga			Tuplanishda						Naychalashda			Amal davri oxirida (donda)		
	Tupla - nishda	Naychalashda	Boshqalashda	N	P	K	N	P	K	N	P	K			
<b>N - 150, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> – 105, K<sub>2</sub>O – 75 kg/ga</b>															
1	Nazorat (suv bilan)			2,050	0,450	1,240	2,850	0,620	1,210	2,100	0,750	1,400			
2	4,0	8,0	-	2,100	0,500	1,270	2,900	0,630	1,220	2,105	0,750	1,410			
3	4,0	-	12,0	2,105	0,520	1,280	2,910	0,640	1,230	2,110	0,810	1,420			
4	-	8,0	12,0	2,040	0,448	1,230	2,900	0,700	1,240	2,125	0,820	1,430			
5	4,0	8,0	12,0	2,100	0,446	1,280	2,900	0,710	1,220	2,120	0,810	1,420			
<b>N - 180, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> – 125, K<sub>2</sub>O – 90 kg/ga</b>															
6	Nazorat (suv bilan)			2,280	0,500	1,290	3,190	0,680	1,280	2,280	0,800	1,490			
7	4,0	8,0	-	2,320	0,550	1,300	3,110	0,700	1,300	2,300	0,810	1,500			
8	4,0	-	12,0	2,300	0,540	1,310	3,120	0,720	1,310	2,310	0,820	1,520			
9	-	8,0	12,0	2,270	0,502	1,280	3,100	0,740	1,320	2,320	0,860	1,520			
10	4,0	8,0	12,0	2,310	0,510	1,320	3,125	0,730	1,310	2,315	0,850	1,520			
<b>N - 210, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> – 145, K<sub>2</sub>O – 105 kg/ga</b>															
11	Nazorat (suv bilan)			2,320	0,580	1,320	3,150	0,750	1,300	2,300	0,830	1,520			
12	4,0	8,0	-	2,330	0,570	1,330	3,200	0,750	1,310	2,305	0,860	1,550			
13	4,0	-	12,0	2,340	0,580	1,340	3,210	0,800	1,320	2,338	0,870	1,560			
14	-	8,0	12,0	2,318	0,55	1,310	3,240	0,810	1,325	2,340	0,880	1,580			
15	4,0	8,0	12,0	2,335	0,575	1,345	3,250	0,810	1,320	2,335	0,880	1,500			

birikmalarning tarkibida bog'langandir. U kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etishi mumkin, lekin shunday bo'lsa ham bir joyda muqim qoladi va faqat organik modda chirib ma'danlashgandan keyingina uni o'simliklar o'zlashtirishi mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, O'zbekistonning tuproqlarida umumiy fosfor miqdorlari 0,15-0,20 % bo'lishiga qaramay o'simlik o'zlashtirish mumkin bo'lgan fosfor miqdori umumiy fosforni (birlamchi fosfatlar) 3,5 % va (ikkilamchi fosfatlar) 4,0 % ni tashkil qiladi. Bu esa ekinlardan xatto o'rtacha hosil olish uchun ham yetarli emas. Qolaversa, keyingi yillarda obyektiv sabablarga ko'ra dehqonchilikda fosforli o'g'itlar talab darajasidan kam qo'llanilmoqda, bu esa tuproqlarda o'simlik o'zlashtirish mumkin bo'lgan fosforni keskin kamayishiga olib kelmoqda.

Fosfor o'simliklar oziqlanishida va umuman yer yuzidagi hamma o'simliklar hayotida juda katta ahamiyatga ega, chunki u RNK, DNK va fitin tarkibiga kiradi. Tabiiy sharoitda fosforning turli xil mineral va organik birikmalari mavjud. Biroq, o'simliklar uchun asosan ortofosfat kislotasidan hosil bo'lgan tuzlari foydalidir.

#### Xulosalar.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itni maqbul qo'llash me'yor va muddatlarini samaradorligi ilk bor ilmiy jihatdan asoslanadi; qo'llanilgan fosforli o'g'itni azot va kaliy fonida kuzgi bug'doyda fosforni o'zlashtirish koeffitsentiga Kuzgi



bug‘doyni rivojlanish davrlariga bog‘liq holda nisbatan yuqori umumiy azot, fosfor va kaliy miqdorlari suspenziyalar 8,0 kg/ga naychalashda va 12,0 kg/ga boshqalashda N-180, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>–125, K<sub>2</sub>O–90 kg/ga fonida qo‘llanilganda kuzatilib, naychalash davrida mutanosib ravishda 3,100; 0,740; 1,320 % ni, don tarkibida 2,320; 0,860 va 0,520 % ni tashkil etgan

kuzgi bug‘doyda mineral o‘g‘itning maqbul (g‘o‘za va kuzgi bug‘doy qisqa rotatsiyali navbatlab ekish tizimida) qo‘llash me‘yor va muddatlarini aniqlashdan iborat. Kirish, adabiyotlar sharhi, tajriba olib borish uslubiyoti, tuproq-iqlim sharoitlari, asosiy qismda esa- olib borilgan tajriba natijalarining ilmiy taxlili, mavzuda o‘rganilgan ekin hosil ko‘rsatkichlari tahlili, xulosa va takliflardan iborat.

#### REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 - son Farmon “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevral.
2. Ishmuxamedova R.Ch., Xasanova R.Z. Влияние подкормки озимой пшеницы через корня и листья на морфо-физиологические показатели. Актуальные проблемы современной науки. –Москва, 2017. №6 (97). -С.180-183.
3. Ataxanov N., Mo‘minov A., Xaydarov O., “Kuzgi bug‘doyni ma‘danli o‘g‘itlar bilan oziqlantirish muddatlari va me‘yori”// Boshqali, dukkakli don va moyli ekinlar seleksiyasi, urug‘chiligi hamda ularni yetishtirish agrotexnikasini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi halqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami, Andijon-2011-y.– B.73

UDK: 631.4+635.

**SUG'ORILADIGAN TIPIK BO'Z TUPROQLAR SHAROITIDA FOSFOR O'G'ITLAR  
TURLI MUDDAT VA USULLARDA QO'LLANILGANDA KUZGI BUG'DOYNI  
O'SISHIGA TA'SIRI**

**Djabborov Shavkat Razzoqovich**

Toshkent davlat agrar universiteti katta o'qituvchisi q.x.f.f.d. (PhD)

**Mihriddinova Odinoxon Rashidxo'ja qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10031869>

*Annotatsiya.* Bugungi kunda Respublikaning barcha fermer xo'jaliklarida fosforli o'g'itlar kuzgi bug'doyda ilmiy - asoslanmagan me'yor, muddatlarda qo'llanilmoqda. Chunki, bu borada ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Qolaversa g'o'za qator oralariga ekilayotgan kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itlar fermerni imkoniyatidan kelib chiqqan holda ekishdan keyin, bug'doyni tuplanish va boshqa davrlarida ham qo'llanilayotganligi kuzatilmoqda. ma'lumki, o'simliklarning o'sishi va rivojlanish davrlarida qo'llaniladigan mineral oziqa elementlarning har birini o'z o'rni mavjud. Shuningdek, kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itlarni maqbul me'yor va muddatlarda qo'llash ham muhim ahamiyatga egadir.

*Kalit so'zlar:* Fosforli o'g'itlarni kuzgi bug'doy, o'sishi va rivojlanishiga, mineral o'g'itlar samaradorligi.

**EFFECT OF PHOSPHORUS FERTILIZERS APPLIED AT DIFFERENT TIMES  
AND METHODS ON GROWTH OF WINTER WHEAT UNDER IRRIGATED  
TYPICAL GRAY SOIL CONDITIONS**

*Abstract.* Currently, phosphorus fertilizers are used in winter wheat in all farms of the Republic in unscientifically unfounded norms and terms. Because no scientific research has been conducted in this regard. In addition, it is observed that phosphorus fertilizers are applied to winter wheat planted between rows of cotton, after planting, and in other periods, depending on the farmer's ability. It is known that each of the mineral nutrients used during the growth and development of plants has its own role. It is also important to apply phosphorus fertilizers in the appropriate rates and periods in winter wheat.

*Key words:* Effect of phosphorus fertilizers on growth and development of winter wheat, mineral fertilizers.

**ВЛИЯНИЕ ФОСФОРНЫХ УДОБРЕНИЙ, ВНЕСЕННЫХ В РАЗНЫЕ ВРЕМЯ  
И МЕТОДЫ, НА РОСТ ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ В УСЛОВИЯХ ТИПИЧНОЙ  
ОРОШАЕМОЙ СЕРОЙ ПОЧВЫ**

*Аннотация.* В настоящее время фосфорные удобрения применяются под озимой пшеницей во всех хозяйствах республики в ненаучно обоснованных нормах и условиях. Потому что никаких научных исследований на этот счет не проводилось. Кроме того, отмечено, что фосфорные удобрения вносят под озимую пшеницу, посеянную между рядами хлопчатника, после посева и в другие периоды, в зависимости от возможностей агрария. Известно, что каждое из минеральных веществ, используемых в процессе роста и развития растений, имеет свою роль. Также важно в соответствующие нормы и сроки вносить фосфорные удобрения под озимую пшеницу.

*Ключевые слова: Влияние фосфорных удобрений на рост и развитие озимой пшеницы, минеральные удобрения.*

**Kirish.** Hozirgi kunlarda Respublikaning barcha fermer xo'jaliklarida fosforli o'g'itlar kuzgi bug'doyda ilmiy - asoslanmagan me'yor, muddatlarda qo'llanilmoqda. Chunki, bu borada ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Qolaversa g'o'za qator oralariga ekilayotgan kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itlar fermerni imkoniyatidan kelib chiqqan holda ekishdan keyin, bug'doyni tuplanish va boshqa davrlarida ham qo'llanilayotganligi kuzatilmoqda.

Bu esa qo'llanilayotgan o'g'itlarni samaradorligi pasayishiga va kuzgi bug'doyni fosfordan deyarli foydalanmayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, fosforli o'g'itlarni qo'llashning maqbul me'yor va muddatlarini ilmiy asoslash dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotda g'o'za qator oralariga ekilayotgan kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itlarni (uch xil mineral o'g'itlar fonida) ekish oldidan kultivator o'g'itlagichda, yer ustidan sepish va tuplanish davrida qo'llash kabi muddatlarining samaradorligi ilmiy asoslanadi.

Tipik bo'z tuproqlarining mexanik tarkibi hamda qo'llanilgan o'g'itning me'yor va muddatlariga bog'liq holda o'simlik o'zlashtiradigan fosforni yog'in-sochin va sug'orish suvi ta'sirida pastki qatlamlarga yuvilish darajasi va o'simliklarni o'zlashtirishi hamda don hosili va sifati aniqlanadi.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'o'za qator oralariga ekiladigan kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itni qo'llash me'yor va muddatlariga bog'liq holda tuproqdagi nitratli azot, harakatchan fosfor, almashinuvchi kaliyning dinamikasi va o'simlik NPK o'zlashtirishi, bir tonna don uchun sarflashi hamda fosforni foydalanish koeffitsiyenti, don hosili va sifatiga ta'sirini aniqlashdan iboratdir.

**Tadqiqot uslubiyati.** Kuzgi bug'doy o'tkaziladigan agrotexnik tadbirlarga bog'liq holda ma'dan o'g'itlar jumladan fosforli o'g'itlarni maqbul me'yorlarining samaradorligi ko'pgina izlanishlarda jumladan, T.P.Piraxunov, N.M.Ibragimov, L.A.Mirzayev, B.X.Tillabekov, I.Abduraxmonov, D.U.G'ofurov., B.K.Atoyev, S.K.Maxammadiyev, M.A.Usmonova va boshqa olimlar – tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ammo, respublikamiz tuproqlarida fosfor, kaliy va organik o'g'itlarning yetishmaganligi, almashlab ekish tizimi o'zgarganligi, ma'dan o'g'itlarni bir tomonlama qo'llanilishi tufayli tuproq unumdorligi pasayib bormoqda.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproq, azot, fosfor va mahalliy kaliy o'g'iti, kuzgi bug'doyning "Grom" navi, qo'llash me'yor va muddatlari tadqiqotning obyektini; Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyni o'sishi, rivojlanishi, o'simlikning oziqa moddalarni o'zlashtirilishi, don hosili va sifatini ta'minlovchi fosforli o'g'itni maqbul me'yor va muddatlarda qo'llash agrotexnologiyasini ishlab chiqish esa predmetini belgilaydi.

Kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itlarning me'yor va muddatlarining samaradorligi dala tajribasi sharoitida tadqiq qilinadi. Tajriba o'tkazish, fenologik kuzatuv, tuproq va o'simlik namunalari olish "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (Toshkent 2007) qo'llanmasiga asosan o'tkaziladi.

Tuproq va o'simlik namunalarining agrokimyoviy tahlili "Методы агрохимических, агрофизических I микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" usulnomasiga binoan amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlar B.A.Dospexov usulida statistik

tahlil qilinadi. Kuzgi bug‘doyda fosforli o‘g‘itlarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi N.A.Baranov usulida aniqlanadi.

**Tadqiqot natijalar** Ta’kidlab o‘tamizki, kuzgi bug‘doy o‘simligi azotli o‘g‘itlarga sut-mum pishish davrigacha, fosforilarga boshoqlash davrigacha, kaliyga esa gullash davrigacha talabchan bo‘ladi. Kuzgi bug‘doyni oziqlantirishda NPK nisbatlarini to‘g‘ri belgilash asosiy omillardan bo‘lib hisoblanadi.

Kuzgi bug‘doy 1 s. don hosili uchun 3,25 kg azot, 1,15 kg fosfor o‘zlashtirsa, o‘simlik orqali o‘zlashtirish koeffitsiyenti 0,67 va 0,30 bo‘lsa, har bir sentner don uchun 4,85 kg azot, 3,83 kg fosfor solinishi kerak bo‘ladi (Pryanishnikov, Zuyev, Golubyans). Demak, kuzgi bug‘doy o‘simligi uchun azot, fosfor va kaliy elementlari zarurligi aniqlangan. Lekin bular orasida fosfor alohida ahamiyatga egadir. Maqbul fosforli oziqlantirish o‘simlik rivojini tezlashtiradi, natijada erta muddatlarda hosil pishib yetiladi. Fosforli oziqlanish xujayralardagi nukleoproteinlar, oqsil miqdorini keskin oshiradi.

Fosforli o‘g‘itlar kuzgi bug‘doyni ildiz tizimini shakllanishiga va o‘simlikda kechadigan barcha fiziologik jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Fosfor bilan maqbul oziqlantirilganda ko‘chatlar yaxshi qishlab chiqadi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi keskin ortadi.

Fosfor o‘simlik ildizlari tomonidan adsorbsiyalanadi, so‘ng hamma to‘qima hujayralarga taqsimlanadi. O‘simliklarning hosil beruvchi organlarida ko‘proq fosfor to‘planadi. Urug‘lar shu darajada fosfor saqlashlari kerakki, ekilgan urug‘ ildiz otib, bu ildizlar tuproqdan oziqa olish darajasiga yetgunga qadar fosforga talab bo‘lmasin.

Hujayralarda fosfor, uglerod, vodorod, kislorod, azot va boshqa unsurlar bilan qo‘shilib, murakkab organik birikmalar hosil qiladi. Agar hujayralarda fosfor va boshqa unsurlar yetishmasa, hujayra yadrosi bo‘linmaydi. Shuning uchun fosforning yetishmasligi ziroat o‘shini sekinlashtiradi, meva yetilishini kechiktiradi. Fosfor boshqa bir necha energetik darajalarni birlashtirishda va hosil qilishda alohida ahamiyatga ega. Bu esa energiyani saqlash, bir joydan ikkinchi joyga o‘tkazish, o‘simlikdagi energiyani ozod qilish xususiyatiga ega.

### 1-jadval

Вариант тартиби	Фосфорни қўллаш усуллари ва муддатлари, кг/га			Баландлиги, см				
	Экишда н олдин ғўза қатор оралари га 13-15 см чуқурликда	Униб чиқиш даври да (сочма)	Туплан ишда (сочма)	Тупла нишда	Найч алаш да	Бошоқ лашда	Сут- мум пишиш да	Амал даври охирида
1	-	-	-	17,3	41,2	81,7	84,6	98,1
2	90	-	-	18,6	44,6	84,3	88,4	101,2

3	-	90	-	18,4	42,5	82,8	85,6	99,7
4	60	-	30	18,5	43,8	84,1	86,9	100,5
5	-	-	-	17,8	44,1	82,9	85,2	101,3
6	125	-	-	18,7	46,0	86,5	89,7	105,5
7	-	125	-	18,6	43,9	83,9	86,9	103,6
8	88	-	37	18,7	45,5	85,4	88,3	104,1
9	-	-	-	18,1	45,5	83,3	85,8	102,1
10	160	-	-	18,9	46,4	87,1	89,9	106,2
11	-	160	-	18,7	44,5	84,5	87,1	104,2
12	115	-	45	18,8	46,1	86,0	87,8	104,7

Shuning uchun fosfor yetishmaganda metabolik jarayonlar qiyinlashadi, masalan, shakarning kraxmalga va sellyulozaga aylanishi jarayonida qandning to'planib qolishi natijasida shoxlarda va barglarda antotsion dog'lar paydo bo'ladi. Fosfor xlorofill tarkibiga kirmaydi.

Xlorofillning ko'pligi odatda fosforning kamligidan va azotning ko'pligidan darak beradi. O'simliklar bu holda to'q yashil rangda bo'ladi. Tadqiqotlarning natijalariga ko'ra o'simlikda fosfor yetishmovchiligi sababli o'sishi sekinlashishi, meva to'la pishmasligi, to'q yashil barglar va shoxlar paydo bo'lishi yaqqol namoyon bo'ladi.

O'g'it sifatida ishlatishda fosfor azotdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Shu o'g'itlarning bittasi yoki ikkalasi ham tuproqqa solinadigan o'g'itlar tarkibiga kiradi. Ba'zi bir tabiiy sharoitda o'simliklarni oziqa bilan ta'minlashda fosfor o'g'iti azotdan ham ustun turishi mumkin. Fosfor, azot va oltingugurt kislorod bilan murakkab anionlar hosil qiladi. Lekin azotga nisbatan suvda kam eriydi yoki umuman erimaydi desa ham bo'ladi. Shu tufayli o'simliklar fosforni qiyin o'zlashtiradilar.

Bir gektar yerning haydov qatlami odatda eritmada 1 kg dan kam fosfor saqlaydi (umumiy fosfor miqdori 1000 kg bo'lganda ham). Shunday bo'lsa ham fosforni suvda erimasligining ijobiy tomoni bor. U ham bo'lsa, fosfor tuproqdan kam yuviladi, (azotga nisbatan) solingan tuproq qatlamida turaveradi. Fosfor tuproqda mineral va organik shaklda uchraydi. Organik fosfor har xil birikmalarning tarkibida bog'langandir.

U kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etishi mumkin, lekin shunday bo'lsa ham bir joyda muqim qoladi va faqat organik modda chirib ma'danlashgandan keyingina uni o'simliklar o'zlashtirishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki, O'zbekistonning tuproqlarida umumiy fosfor miqdorlari 0,15-0,20 % bo'lishiga qaramay o'simlik o'zlashtirish mumkin bo'lgan fosfor miqdori umumiy fosforni (birlamchi fosfatlar) 3,5 % va (ikkilamchi fosfatlar) 4,0 % ni tashkil qiladi.

Bu esa ekinlardan xatto o'rtacha hosil olish uchun ham yetarli emas. Qolaversa, keyingi yillarida obyektiv sabablarga ko'ra dehqonchilikda fosforli o'g'itlar talab darajasidan kam qo'llanilmoqda, bu esa tuproqlarda o'simlik o'zlashtirish mumkin bo'lgan fosforni keskin kamayishiga olib kelmoqda.

Fosfor o'simliklar oziqlanishida va umuman yer yuzidagi hamma o'simliklar hayotida juda katta ahamiyatga ega, chunki u RNK, DNK va fitin tarkibiga kiradi. Tabiiy sharoitda fosforning

turli xil mineral va organik birikmalari mavjud. Biroq, o‘simliklar uchun asosan ortofosfat kislotasidan hosil bo‘lgan tuzlari foydalidir.

Dehqonchilikda tuproqdagi fosfor miqdorini sun‘iy ravishda, ya‘ni mineral va organik o‘g‘itlar hisobiga to‘ldirib borish lozim.

#### **Xulosalar.**

Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doyda fosforli o‘g‘itni maqbul qo‘llash me‘yor va muddatlarini samaradorligi ilk bor ilmiy jihatdan asoslanadi; qo‘llanilgan fosforli o‘g‘itni azot va kaliy fonida kuzgi bug‘doyda fosforli o‘zlashtirish koeffitsientiga ta‘sirini; kuzgi bug‘doyda fosforli o‘g‘itning maqbul (g‘o‘za va kuzgi bug‘doy qisqa rotatsiyali navbatlab ekish tizimida) qo‘llash me‘yor va muddatlarini aniqlashdan iborat.

Magistrlik ilmiy tadqiqot ishining tayyorlashda, uslubiy qo‘llanmalarda talab etilgan quyidagi qismlardan: Kirish, adabiyotlar sharhi, tajriba olib borish uslubiyoti, tuproq-iqlim sharoitlari, asosiy qismda esa - olib borilgan tajriba natijalarining ilmiy taxlili, mavzuda o‘rganilgan ekin hosil ko‘rsatkichlari tahlili, xulosa va takliflardan iborat.

#### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 - son Farmon “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevral.
2. Abduraxmonov I. “Irrigatsiya eroziyasiga chalingan yerlarda kuzgi bug‘doydan keyin ekilgan takroriy ekinlar hosildorligi”, // Boshqoqli, dukkakli don va moyli ekinlar seleksiyasi, urug‘chiligi hamda ularni yetishtirish agrotexnikasini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi halqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami, Andijon-2011-yil, 146-b.
3. Ataxanov N., Mo‘minov A., Xaydarov O., “Kuzgi bug‘doyni ma‘danli o‘g‘itlar bilan oziqlantirish muddatlari va me‘yori”,// Boshqoqli, dukkakli don va moyli ekinlar seleksiyasi, urug‘chiligi hamda ularni yetishtirish agrotexnikasini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi halqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami, Andijon-2011-y.– B.73
4. Atoev B. K., Maxammadiyev S.K. “Kuzgi bug‘doy navlari va o‘g‘itning tuproq oziq tartiblariga ta‘siri”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent, 2014-y.–B.20-23. 22
5. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. Toshkent. 2007. 147 b.



UDK: 631.4+635.

**PAXTA MAYDONLARIDAGI BEGONA O‘TLARGA AGROTEKNIKAVIY VA  
KIMYOVIY KURASHISH CHORA TADBIRLARINI G‘O‘ZA XOSILDORLIGIGA  
SAMARADORLIGI**

**Musurmonova Mukambar Pazitdinovna**

Toshkent davlat agrar universiteti assistenti

**Bovaqulova Odina Bahrom qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

**Ma'ripova Mehriniso Murodjon qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10031895>

***Annotatsiya.** Bugungi kunda g‘o‘za maydonlarida tarqalgan begona o‘tlarni samarali yo‘qotishda agrotexnikaviy va kimyoviy kurashish tadbirlari birgalikda qo‘llanilganda natija samarasi yuqori bo‘lib, bir, ikki va ko‘p yillik begona o‘tlarni 80,5-90,7% ni yo‘qotib, g‘o‘zani samarali o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, gektaridan o‘rtacha 34,8-37,2 sentner paxta hosili yetishtirish imkoniyatlari mavjudligi to‘g‘risidagi malumotlar ushbu maqolada keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Agrotexnikaviy shudgorlash, usullari, gerbitsidlarni turlari, miqdori, begona o‘tlar, g‘o‘za, o‘sishi, rivojlanishi, paxta hosili.*

**EFFECTIVENESS OF AGROTECHNICAL AND CHEMICAL WEED  
CONTROL MEASURES IN COTTON FIELDS ON COTTON PRODUCTIVITY**

***Abstract.** According to the results of the study, the combined effect of agro-technical and chemical control measures on the effective control of weeds in cotton fields is high. This article provides information on the possibility of growing cotton with an average yield of 34.8-37.2 quintals per hectare, losing 90.7% and creating favorable conditions for the effective growth and development of cotton. listed.*

***Key words:** Agrotechnical plowing, methods, types and amounts of herbicides, weeds, cotton, growth, development, cotton yield.*

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ АГРОТЕХНИЧЕСКИХ И ХИМИЧЕСКИХ  
МЕРОПРИЯТИЙ БОРЬБЫ С СОРНЯМИ НА ХЛОПКОВЫХ ПОЛЯХ НА  
ПРОДУКТИВНОСТЬ ХЛОПКА**

***Аннотация.** По результатам исследования комплексное влияние агротехнических и химических мер борьбы на эффективную борьбу с сорняками на хлопковых полях высокое. В данной статье приведены сведения о возможности выращивания хлопчатника со средней урожайностью 34,8-37,2 ц. с гектара, потеряв 90,7% и создав благоприятные условия для эффективного роста и развития хлопчатника.*

***Ключевые слова:** Агротехническая вспашка, приемы, виды и количества гербицидов, сорняки, хлопчатник, рост, развитие, урожайность хлопчатника.*

**Kirish**

Hozirgi paytda dunyo paxtachiligiga zararli ta'sir ko'rsatadigan begona o'tlarning 2000 dan ortiq turi, O'zbekistonda esa 74 oilaga mansub 841 ta turi aniqlangan va ularning 519 turi bir yillik, 322 turi esa ko'p yillik bo'lib, ularning 70-110 turi yoki bu hududlarda kuchli zarar

keltiradi. Har bir dalaning o'zida ham o'ta xafli begona o'tlarning 10-15 ta turini uchrgatish mumkin va ularga qarshi agrotexnologik, kimyoviy kurashish tadbirlarni uyg'unlashgan holda qo'shib olib borish natijasida ular muvaffiqiyatli bartaraf etilmoqda.

Respublikamizning paxta yetishtiriladigan maydonlarni fitosanitar holatini birgina agrotexnik tadbirlar amalga oshirish bilan yaxshilashga hamma vaqt erishib bo'lmaydi. Buning uchun ham, gerbitsidlarni qo'llash bu borada asosiy o'rinni egalaydi va uni zaminida boshqa tadbirlar bilan birgalikda qo'shib olib borish tufayli agrofitorozlarda qulay sharoit yaratish va paxta hosilini oshirishda samarali imkoniyati yaratiladi.

Shu nuqtai nazarda, Samarqand viloyati sharoitida tuproqqa asosiy ishlov berish usullari va gerbitsidlarni qo'llash masalasi agroekotizimda juda dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu muammolarning axamiyati keyingi paytda ekologik, energetik va iqtisodiy masalalar qiyinlashgan sharoitda yanada ortadi.

Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini kamayishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri, bu paxtazorlarni begona o'tlar bilan ifloslanishi bo'lib, bunday maydonlar hajmi tashkiliy-xo'jalik ishlarini to'g'ri tashkil etilmaganligi, har yili bir xil chuqurlikda sifatsiz shudgorlash, mahalliy o'g'itlarni noto'g'ri saqlash va qo'llash, ekin maydonlari chetlaridagi hamda ariq-zovurlar atrofidagi begona o'tlarga qarshi kurashish tadbirlarning o'tkazilmasligi natijasida yildan-yilga ortib bormoqda.

Ular suv, yorug'lik, oziq moddalardan va boshqa tashqi muxit omillaridan samarali foydalanib, qo'llanilgan mineral va mahalliy o'g'itlar tarkibidan oziq elementlarni o'zlashtirish koeffitsientini 35-45 foizga, paxta hosilini 25-35 foizgacha kamaytirib, tolaning sifatini yomonlashishga olib keladi, paxta dalalarida turli xil kasallik, va zararkunandalarni tarqalishiga sababchi bo'ladi va ko'p yillik begona o'tlar qator oralariga ishlov berish texnikalarni ishlash darajasini pasaytirib, hosilni pishishi va yetilishini kechiktirib yuboradi.

Shu bois, Samarqand viloyati paxtazorlarida tarqalgan begona o'tlarga qarshi kurashishda shudgorlash usullari va gerbitsidlarni turi va normalarini samaradorligini aniqlash dolzarb masala va paxta yetishtirishni ko'paytirishdagi zarurat hisoblanadi.

**Tadqiqot uslubiyati.** Yuqoridagi ma'lumotlarga qaraganda muammolarni hal etish maqsadida bizlar 2018-2019 yillar mobaynida Samarqand viloyatida joylashgan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot institutining (PSUEAITI) tajriba stansiyalarining o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida dala tajribalari o'tkazildi. Tadqiqotlarimizda shudgorlash usullari (oddiy va ikki yarusli) hamda xar xil gerbitsidlarni paxta hosiliga ta'siri o'rganildi.

Dala tajribalari 4 takrorlashda o'tkazilib, variantlar sistematik ravishda ketma-ket bir yarusda joylashtirildi. Har bir paykalchanning umumiy maydoni (uzunligi-100 m, eni 8 qator 4,8 m) 480 m<sup>2</sup>, shundan hisobga olingani 240 m<sup>2</sup>. Tajriba dalasi tuproqlarning haydalma (0-30 sm) qatlamidagi gumus miqdori viloyat tuproqlariga muvofiq holda 0,96-1,08 %, yalpi azot 0,10-0,12 %; fosfor 0,15-0,18 % va kaliy 2,27-2,54 %, ularning harakatchan shakllari tegishlicha 15,2-16,4; 19,4- 21,7 va 280-300 mg/kg tuproqda mavjudligi aniqlandi.

Tajriba dalasidagi begona o'tlar ikki usulda:

1. Ko'z bilan chamalash
2. Aniq hisobga olish usullarida hisobga olindi.

Tajriba dalasida olib borilgan tuproqlarning agrokimyoviy tahlillari (Metodы agroximichskix analizov pochv Sredney Azii. T.,1973), G'ozadagi barcha fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchashlar (Dala tajribalari o'tkazish uslublari. T., 2008) uslublari bo'yicha, hosildorlik ko'rsatkichlari B.A. Dospexovning (Metodika polevoga opyta.-M.,1985) usulda dispersion tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqotlarimiz natijalarimizning ko'rsatishicha, yer oddiy plugda 0-30 sm chuqurlikda shudgorlanganda, chigit ekishdan oldin ikki qatlamda 0-20 va 20-40 sm da tuproqning zichligi 1,34-1,41 g/sm<sup>3</sup>, solishtirma massasi 2,64-2,68 g/sm<sup>3</sup> va g'ovakligi 48,2-46,4% ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba dalasi ikki yarusli plugda 30 sm chuqurlikda shudgorlangan yerlarda, tuproqning zichligi 1,31-1,35 g/sm<sup>3</sup>, solishtirma massasi 2.49-2,58 g/sm<sup>3</sup> va g'ovakligi 52,4-49,6% ni tashkil etdi.

Tajriba dalasida bir yillik begona o'tlardan olabo'ta, ituzum, kurmak, yovvoyi gultojixo'roz, g'ozatikan, semizo't, ko'p yilliklardan esa asosan, ajriq, g'umay, qo'ypechak kabilar ko'plab uchrashi hisobga olindi. Tadqiqotlarimizning natijalariga ko'ra, oddiy plugda shudgorlangan yerlarda birinchi sug'orishdan keyin, nazorat (gerbitsidsiz) variantida bir yillik begona o'tlar soni o'rtacha uch yillik ma'lumotlar bo'yicha 30,2 dona/m<sup>2</sup> ni tashkil etgan bo'lsa, gerbitsidlar qo'llanilgan variantlarda ularning soni nazorat (gerbitsidsiz) variantga nisbatan 4,08-19,39 dona/m<sup>2</sup> ga yoki 31,3-91,5% ga kamayganligi kuzatildi. Tajriba dalasida Samuray-33% e.k. gerbitsidi 1,0;1,5 va 2,0 l/ga me'yorlarida qo'llanilganda begona o'tlarni mos ravishda 81,6 va 86,2 foizga kamaytirdi.

Tadqiqotlarimizda yerni ikki yarusli plugda shudgorlangan, gerbitsidsiz (nazorat ) variantida bir yillik begona o'tlar, oddiy plugda shudgorlangan nazorat (gerbitsidsiz) variantga nisbatan 28,9 % ga, ko'p yillik begona o'tlarni esa 19,5 % kamaygan bo'lsa, gerbitsid qo'llanilgan variantlarda nazorat (gerbitsidsiz) variantga nisbatan bir yillik begona o'tlar 43,6-91,4 % ga, ko'p yillik begona o'tlar esa 30,6-92,4 % ga kam bo'lganligi anqlandi. Begona o'tlarning kamayishida eng yaxshi biologik samaradorlik Samuray 33 % e.k. (1,5 l/ga) gerbitsidi alohida qo'llanilganda, bir yillik begona o'tlar 84,6 % ga, ko'p yillik begona o'tlar 18,3 % ga kamayganligi hisobga olindi.

Demak, oddiy plugda shudgorlangan yerlarga nisbatan ikki yarusli pluglarda shudgorlangan yerlarda hamda gerbitsidlarni begona o'tlarga qarshi ketma-ket qo'llash natijasida begona o'tlar soni keskin kamayib, g'ozaning o'sishi va rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi va paxta hosiliga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Dehqonchilikda barcha agrotexnologik tadbirlar ekinlarni o'sish va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Ana shu tadbirlar ichida begona o'tlarni o'z vaqtida yo'qotish muhim o'rin tutadi. Bunday sharoitda, g'oz dalalarini vegetatsiya boshidan begona o'tlardan tozalashda sifatli agrotexnika va gerbitsidlar yordamida erishish mumkin.

2016-2018 yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarimizda oddiy plugda shudgorlangan yerlarda g'oz hosildorligi nazorat (gerbitsidsiz) variantida uch yillik o'rtacha 25,8 s/ga paxta hosili olingan bo'lsa, Stomp 33% e.k.(1,0; 1,5 va 2,0 l/ga) gerbitsidi qo'llanilganda paxta hosili tegishli 27,8; 28,6 va 28,7 s/ga ni tashkil etdi.

Tajriba dalasining ikki yarusli plugda shudgorlangan paykalchalarida g'oz hosildorligi gerbitsid ishlatilmagan nazorat variantida paxtadan 27,9 s/ga hosil olingan bo'lsa, Stomp 33% e.k. gerbitsidi (2,0l/ga) qo'llanilgan variantda paxta hosili 28,6 s/ga, Samuray 33% e.k.gerbitsidi (1,5 l/ga) qo'llanilganda paxta hosili o'rtacha 29,7 s/ga teng bo'lganligi hisobga olindi. Ushbu sharoitda

ikki yarusli plugda shudgorlangan yerlarda gerbitsidlarni qo'llashning samardorligi, oddiy plugda shudgorlangan yerlarda gerbitsidlarni qo'llashga nisbatan paxta hosili sezilarli yuqori bo'lganligini kuzatish mumkin.

Tadqiqotlarimizda yerni oddiy va ikki yarusli pluglarda shudgorlaganda va begona o'tlarga qarshi gerbitsidlarni navbatlab va ketma-ket qo'llashda g'o'zaning S-6524 navi tola sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi kuzatildi.

Masalan, oddiy plugda shudgorlangan yerlarda yetishtirilgan paxtadan tola chiqimi gerbitsidsiz (nazorat) variantida 32,5%, Stomp 33% e.k. gerbitsidi 2,0 l/ga qo'llanilganda bu ko'rsatkich 33,2 %, Samuray 33% e.k. gerbitsidi (1,0;1,5 va 2,0 l/ga) qo'llanilgan variantlarda tola chiqishi tegishli 33,5; 34,2 va 33,6% ni tashkil etgan bo'lsa, ikki yarusli plugda shudgorlangan yerlarda tola chiqishi nazorat (gerbitsidsiz) variantga nisbatan 0,4-2,3% ga bo'lgan bo'lsa, 1000 dona chigit massasi esa nazoratga nisbatan 1,8-10,8 gramm ko'proq bo'lganligi qayd etildi.

### **Xulosalar**

Tadqiqot natijalari asosida Samarqand viloyati g'o'za maydonlaridagi begona o'tlarni samarali yo'qotishda agrotexnologik va kimyoviy kurashish tadbirlari birgalikda qo'llanilganda samaradorligi yuqori bo'lib, bir va ko'p yillik begona o'tlarni 89,5-93,7% ni yo'qotib, g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, gektaridan o'rtacha 32,7-35,1 sentner sifatli paxta hosili yetishtirishni ta'minlaydi.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini 2017- 2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF – 4947 son farmoni.
2. Isaev A.P. Sposoby obrabotki pochvy i zasorennost posevov // Zemledelie. – M., 2006 .- N 6.-S.9-11.
3. Dala tajribalarini o'kazish usulari. T., 2007.-145 b
4. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta .- M., 1985. -345b.
5. Metody agrokhimicheskix analizov pochvy Sredney Azii.-T.,1973.-47b.

## TALANTNI ANIQLASHNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Xusainova Dilrabo Ibragimjanovna

Fargona viloyati yuridik tehnikumi

yuristlar uchun ingliz tili fani o'qituvchisi 3-darajali yurist

[dilu2280@mail.ru](mailto:dilu2280@mail.ru). +99890-277-99-24

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10033123>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada talantni aniqlashning inson hayotidagi ahamiyati va zaruriyati haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan. Maqola so'ngida xulosa va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** talant, talantni aniqlash, iqtidorli bolalar, o'qish va tarbiya.

## ВАЖНОСТЬ ВЫЯВЛЕНИЯ ТАЛАНТОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА

*Аннотация.* В данной статье говорится о важности и необходимости выявления талантов в жизни человека. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и комментарии. В конце статьи даны выводы и предложения.

**Ключевые слова:** талант, выявление талантов, одаренные дети, образование и воспитание.

## THE IMPORTANCE OF IDENTIFYING TALENT IN HUMAN LIFE

*Abstract.* This article talks about the importance and necessity of identifying talent in human life. Reasonable opinions and comments are used throughout the article. At the end of the article, conclusions and suggestions are given.

**Key words:** talent, identifying talent, gifted children, education and education.

Iqtidorli bolalar boshqalarga o'xshamaydigan xususiyatga ega bo'lib, ularning qobiliyati atrof-muhit, o'yin, turli topshiriqlar, o'qish va tarbiya asosida shakllanib boradi.

Ko'p yillar davomida iqtidorlilik muammosi psixologlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Olimlar olib borgan tadqiqotlar natijasi iqtidorlilikning psixologik qonuniyati va mexanizmlari hamda iqtidor darajasini o'rganadigan yangi metodlarni psixologiya va psixodiagnostikaga olib kirdi.

Umuman olganda, talant ikkiga bo'linadi: tug'ma va yashirin. Tug'ma talantli bolalarni tushunish uchun, avvalo, bolalar ruhiyatining yosh xususiyatlarini bilishimiz kerak. Agarda qobiliyat tug'ma xislat bo'lsa, iqtidorlilik qobiliyatning yuqori ko'rsatkichi hisoblanadi. Qobiliyat va iqtidorlilik inson hayoti davomida shakllanib boradi. Ba'zi bolalarda ilk yoshdan rivojlanishning ayrim samarali ko'rinishlari, aqliy rivojlanishning yuksalishi kuzatiladi.

Iqtidorlilik psixologiyasida uchraydigan muammolardan biri – bu, yashirin iqtidorlilikdir. Ko'p hollarda yashirin iqtidor oilamizning kichik a'zosida biz payqamagan holda shakllanayotganini sezmay qolamiz. Bu vaqtda farzandimiz boshqa iqtidorli bolalarga o'xshab faol, muloqotchan, qiziquvchan emas, balki uyatchan, boshqalar bilan qiziqmaydigan fe'l-atvorga ega bo'ladi, ammo o'zicha kitoblar o'qiydi, ertaklar, she'rlar yozishga harakat qiladi. Shunday vaqtda kichikintoyning ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kelajakda o'z ishining malakali egasi bo'lib yetishishi uchun yordam beradi. Shuni yodda tutishimiz kerakki, iqtidorni aniqlashda dastavval, bolaning yoshi va uning psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratish kerak.

Iqtidorli bolada quyidagi sifatlar ko'zga tashlanadi:



- qiziquvchanlik;
- qo‘yilgan muammoga noodatiy yondashuv va yechim;
- faol, o‘z fikrlarini mustaqil tarzda bayon etish layoqati;
- boy tasavvurga ega;
- xotira mustahkamligi;
- o‘rganishga, o‘qishga qiziqishning yuqoriligi.

Ayrim hollarda iqtidorli bolalar o‘z tengdoshlari bilan kam muloqotga kirishadi yoki aksincha, umuman, gaplashishni xohlashmaydi. Yodda tutishimiz kerakki, bunday bolalarning shakllanishida bog‘cha tarbiyachisi va pedagog-psixologlarning vazifasi katta. Tarbiyachi birinchi o‘rinda, iqtidorli bolalar haqida bilimga ega bo‘lishi lozim. Kichkintoyni turli ijodiy faoliyat turi bilan shug‘ullantirish, kasblar haqida tanishtirish, pedagog-psixolog esa ular bilan individual, guruhiy psixologik konsultatsiya, trening, art-terapiya hamda ota-onalar bilan suhbat ishlarini olib borishi maqsadga muvofiq.

Ota-ona esa o‘z navbatida quyidagilarni amalda qo‘llashi zarur:

- farzandingizning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay oling, uning oldiga qiyin vazifalar qo‘ymang, topshiriqlaringiz osondan – qiyinga tarzida bo‘lsin;
- farzandingizga rasm chizishi uchun turli qalamlar, bo‘yoqlar olib bering, bolangizning ijodiy faoliyatini cheklamang;
- ular bilan doim haqiqatgo‘y bo‘ling, iqtidorli bolalar aldovni yomon ko‘rishadi;
- kezi kelganda bolangizdan faxrlanishingizni ayting, bu kichkintoyingizda yangi qirralarning ochilishiga sabab bo‘ladi;
- uzoq davom etadigan suhbatdan yiroq bo‘ling, chunki bola aniqlikni yoqtiradi;
- bolaning individualligini hurmat qiling, o‘zingizning intilishlaringizga kichkintoy orqali erishishga harakat qilmang.

Shunday qilsangiz farzandingizda quyidagi hislatlar shakllanishi mumkin:

- o‘ziga bo‘lgan ishonch hissi;
- o‘zining va o‘zgalarning qadr-qimmatini hurmat qilish;
- yaxshilik, haqgo‘ylik, sabrlilik, javobgarlik, hamdo‘stlik va boshqalarni tushunish hissi.

Psixologlar qobiliyatni aniqlashda quyidagi metodlardan foydalanishlari maqsadga muvofiq:

1. Intellektual iqtidor: bu bolaning, o‘quvchining intellektual shakllanish qiyofasini va uning qobiliyatini, imkoniyatini aniqlab beradi.

2. Lingvistik iqtidor: bolaning chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qobiliyatini baholab beradi. Lingvistik qobiliyatga ega bo‘lgan bola, til yordamida matnni qiziqarli, ma’noli va mazmunga ega tarzda bayon eta oladi.

3. Ijodiy iqtidor: bu yo‘nalishga oid metodikalar kichkintoyning hech kimga o‘xshamagan tarzda fikrlashi (originallik), tirishqoqligi, qiziquvchanligi, tasavvur jarayonini o‘rganadi.

## REFERENCES

1. Методические рекомендации по организации работы специалистов сферы общего образования по выявлению и сопровождению детей, проявивших выдающиеся способности. Авторы-составители: Яковлева Н.И., Иванова Т.С. и др. МОН РФ ГОУ ВПО Московский государственный областной университет. 2017 г.



2. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – С.-Пб.: Питер, 2003.-713 с.
3. Раҳматова Ф.Ф. Иқтидорли ўқувчилар билан ишлашнинг назарийтехнологик жиҳатлари. Услубий қўлланма. Самарқанд-2019. – .46 б.
4. Психология: Словарь/ Под общ. ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. – М., 1990. – С. 247.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. -264-б.

## KUTUBXONA KATALOGLARI: AHAMIYATI VA O'ZIGA XOSLIKLARI

Ongarbaeva Qutlibiyke Jenisbay qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali 3-kurs student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10034767>

*Annotatsiya.* Kutubxonalarning ahamiyati tizimli va o'rganilgan ma'lumotlar tizimi orqali belgilanadi. Bu tizimning markazi esa kutubxona kataloglari bo'lib, ular o'qitish, o'rganish va tadqiqot jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Maqolamizda, kutubxonalar va ularning kataloglari haqida gapirishni boshlaymiz.

**Kalit so'zlar:** Kutubxona katalogi, Tuzilish, Maqsadlar, Kataloglar yaratish, Foydalanish usullari, O'quvchilar, O'qituvchilar, Elektron kutubxona, O'rganish, Manba.

### LIBRARY CATALOGS: IMPORTANCE AND SPECIFICS

**Abstract.** The importance of libraries is determined through a systematic and studied data system. The center of this system is the library catalogs, which have a prominent place in teaching, learning, and research processes. In our article, we will start talking about libraries and their directories.

**Key words:** library catalog, structure, goals, creation of catalogs, methods of Use, students, teachers, Electronic Library, Learning, Resource.

### БИБЛИОТЕЧНЫЕ КАТАЛОГИ: ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ

*Аннотация.* Важность библиотек определяется системно и через систему изучаемой информации. Однако центральным элементом этой системы являются библиотечные каталоги, которые играют важную роль в процессах преподавания, обучения и исследований. В нашей статье мы начнем говорить о библиотеках и их каталогах.

**Ключевые слова:** каталог библиотеки, структура, цели, создание каталогов, способы использования, читатели, преподаватели, электронная библиотека, обучение, ресурс.

Kataloglar, kutubxonada o'rin olishgan nashrlar, kitoblar, ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari va boshqa matnlar to'plamlari haqida ma'lumotlarni jamlaydigan ma'lumotlar bazasini ifodalaydi. Kutubxonalar kataloglari, bu muhim o'zbek adabiyoti qismi bilan yaqindan bog'liqdir, chunki ular o'qituvchilar, o'quvchilar va tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'ladi.

Kutubxona katalogi - bir yoki bir necha kutubxona fondida mavjud kitoblar, hujjatlarning tarkibi va mazmunini ochib beruvchi bibliografik yozuvlar ro'yxati. Kutubxona katalogi kartochkali yoki kompyuter yozuvlari shaklida bo'lishi va elektron disklar yoki kitob holida ko'paytirilib sakdanishi mumkin. Kutubxona katalogi kutubxona fondini to'la yoritish, kitobxonlarning osonlik bilan kitob tanlashlariga yordam berish, kitobxonlarga turli bilimlarni singdirish hamda ularni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bosma asarlarning turlari, mavzuning rang-barangligi hamda kitobxonlar talablaridagi xilma-xilliklar Kutubxona katalogining murakkab tizimini yaratishni taqozo etadi. Kutubxona katalogi tuzilishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqarish kutubxonashunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Kutubxona katalogi vazifasiga ko'ra, kitobxonlar (ma'lumot-tavsiya beruvchi) va kutubxonachilarga mo'ljallangan yor-damchi kataloglarga bo'linadi (yordamchi

kataloglar eskirgan, juda kam talab etiladigan asarlarni ham o'z ichiga oladi). Materiallarni guruhlashda Kutubxona katalogi alfavitam, sistemali, predmetli va boshqalarga bo'linadi.

Kutubxonalar kataloglarining asosiy vazifalari boshqa yonalishlarga ma'lumotni topshirish, o'rganish va ilmiy tadqiqotning yanada yaxshi olib borishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Kataloglar o'quvchilar va tadqiqotchilar uchun ma'lumotlar to'plami sifatida ishlab chiqariladi, ularni ma'lum bir tartibda joylashtirish va izlashga yordam beradi. [1.14]

Kataloglar yordamida o'qituvchilar o'quvchilarga qo'shimcha adabiyotlar, ilmiy maqolalar, tahlil qilinishi kerak bo'lgan nashrlar va boshqa manbalarni topshirishadi. Bu esa o'qitish jarayonida ilmiy yondashuvda juda muhimdir.

Kataloglar shuningdek, kutubxonani aniq tashkil etish va biror nashrni topishda o'quvchilarga va o'qituvchilarga yordam beradi. Kutubxonaning tarkibi va tuzilishi kutubxonalar katalogi orqali ifodalangan bo'lib, undan foydalanuvchilar kerakli nashrni topib olishadi. Kutubxonalar kataloglari o'quv, ilmiy tadqiqot, va ma'lumotlar olishning boshqa usullari bilan taqqoslanib, ularning ahamiyati hali ham ko'p o'rin tutadi. Bu, kutubxonalar va ularning kataloglarining kutubxonalar tizimini tizimli va tashkil etishlarini o'rganishning juda muhim qismi bo'lib turadi.

Alfavitli Kutubxona katalogi barcha kutubxonalarning majburiy kataloglaridan biri, unda asarlar muallifining nomi, nasabi, asarlarning sarlavhalari alfavit tartibida beriladi. Sistemali Kutubxona katalogi asarlar mazmuniga asoslanib fan tarmoqlari bo'yicha guruhlanadi: unda kitoblar mantiqiy bo'linish tartibida (umumiydan xususiyligiga qarab) — ilmiy fanlar, bo'limlar, bo'linmalar va h.k. bo'yicha joylashtiriladi. Sistemali Kutubxona katalogi kitob mazmunini ochib berish bilan birga, uning tarmoq bo'linishlarini ham hisobga oladi va ko'pgina fanlarni bir tarmoq nuqtai nazaridan bir joyga to'plash imkoniyatini yaratadi.

**Annotatsiya.** Ekologiya sohasidagi jinoyatlar davlatimizning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotiga, fuqarolarning sog'lig'iga xavf soladigan jinoyatlardan biri bo'lib, jinoyat ishini kechiktirmasdan qo'zg'atish, ularni o'z vaqtida ochish davlat va jamiyatga, atrof - tabiiy muhitga keltiriladigan zararlarning oldini olish hamda bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ekologiya sohasida sodir etiladigan jinoyatlar yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ekologiya sohasidagi jinoyat tushunchasi, jinoyat ishi qo'zg'atish, ifloslangan hududlar, ifloslanish manbalari, ifloslangan hududlarni, obyektlarni ko'zdan kechirish, tuproq, suv va havodan namunalarni olish, ekologik pasport.

### FEATURES OF THE INITIATION OF A CRIMINAL CASE ON CRIMES IN THE FIELD OF ECOLOGY

**Abstract.** Crimes in the field of ecology are among the crimes that pose a threat to the socio-economic development of our state and the health of citizens. The immediate initiation of criminal cases and their timely disclosure are important for the prevention and elimination of damage caused to the State and society, as well as to the natural environment. This article will focus on the specifics of the initiation of criminal cases for crimes committed in the field of ecology.

**Key words:** The concept of a crime in the field of ecology, initiation of a criminal case, polluted territories, a source of pollution, inspection of polluted territories, objects, sampling of soil, water and air, environmental passport.

### ОСОБЕННОСТИ ВОЗБУЖДЕНИЯ УГОЛОВНЫХ ДЕЛ ПО ПРЕСТУПЛЕНИЯМ В СФЕРЕ ЭКОЛОГИИ

**Аннотация.** Преступления в области экологии являются одними из преступлений, представляющих угрозу социально - экономическому развитию нашего государства и здоровью граждан. Незамедлительное возбуждение уголовных дел, их своевременное раскрытие имеют важное значение для предупреждения и ликвидации ущерба, наносимого государству и обществу, а также окружающей природной среде. В данной статье речь пойдет об особенностях возбуждения уголовных дел по преступлениям, совершаемым в сфере экологии.

**Ключевые слова:** Понятие преступления в сфере экологии, возбуждение уголовного дела, загрязненные территории, источник загрязнения, осмотр загрязненных территорий, объектов, отбор проб почвы, воды и воздуха, экологический паспорт.

Ma'lumki, 2022 yilning 20 dekabr kuni Muhtaram Yurtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga murojaat qildi. Ushbu murojaatnoma butun O'zbekiston xalqi tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Ushbu murojaatnomada kelgusi

2023 yilda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar va islohotlarning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident boshqa sohalar singari bugungi kunning nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida global muammolardan biri bo'lgan ekologiya sohasidagi yechimini kutayotgan muammolarga ham alohida urg'u berib, "Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo'lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho'llanish, suv yetishmasligi, qurg'oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan tahminlash shular jumlasidandir"<sup>186</sup>, - deya ta'kidladi.

Bunday ustivor vazifalardan kelib chiqib, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, milliy boyliklarimiz hisoblangan barcha tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, ularni ehtiyot qilish, saqlash, mazkur sohada sodir etiladigan huquqbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olish hamda qarshi kurashda fuqarolar o'zlarining konstitutsiyaviy burchlariga so'zsiz rioya qilishlari, huquqni muhofaza qilish organlari ham o'z vazifalariga vijdonan yondoshmoqlari lozim.

Sodir etilgan ekologiya sohasidagi jinoyatlar yuzasidan tergovchi oldida turgan vazifalardan kelib chiqib, ish bo'yicha tergov yo'nalishi, bu harakatlarning birinchi galdagi tadbirlarni belgilab oladi. Bunda, avvalo, jinoiy xatti - harakatning kelib chiqish sabablari va ekologik obyektlar ifloslanishining intensivligi aniqlanadi. Buning uchun esa:

- hodisa sodir bo'lgan joy va tozalash inshootlarini ko'zdan kechirish;
- atrof muhitning ifloslanishiga olib kelgan ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishish;
- ifloslayotgan manbalarni bartaraf etish chorasini ko'rish;
- jinoyat sodir etishida gumon qilinayotgan, ayblanayotgan, jabrlangan shaxslar hamda guvohlarni so'roq qilish;
- ifloslanishning texnologik jarayonini ko'rsatadigan hujjatlarni olib qo'yish, ichki boshqaruv nazoratining holati, ekologik nazoratni amalga oshiradigan inspeksiya va organlarning ma'lumotlari:
  - ifloslanganlik darajasini tahdil etish uchun tuproq, suv va havodan namunalar olish;
  - ish holatlariga qarab turli sud ekspstizalarini tayinlash kabi harakatlarni amalga oshirish lozim.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar davlatimizning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotiga, fuqarolarning sog'lig'iga xavf soladigan jinoyatlardan biri bo'lib, jinoyat ishini kechiktirmasdan qo'zg'atish, ularni o'z vaqtida ochish davlat va jamiyatga, atrof - tabiiy muhitga keltiriladigan zararlarning oldini olish hamda bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sodir etilgan ekologiya sohasidagi jinoyatlar yuzasidan ham jinoiy ish jinoyat protsessual konunida ko'rsatilgan vaj va asoslar mavjud bo'lganda qo'zg'atiladi.

Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni davlat nomidan jinoiy ta'qib qilish jinoyat ishi qo'zg'atish akti asosida boshlanadi va bu surishtiruv, dastlabki tergov va sudning keyingi protsessual harakatlarni amalga oshirishi uchun huquqiy asos yaratadi. Shundan kelib chiqib,

<sup>186</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr. <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi>.

ishni sudga yuborish hamda odil sudlovni amalga oshirish uchun jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan ushbu bosqichi qonun bilan ko'rsatilgan maxsus organlar va mansabdor shaxslar zimmasiga jinoyatni o'z vaqtida, to'liq ochish, aybdorni fosh etish majburiyatini yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsesual kodeksining 322- moddasiga muvofiq, shaxslarning arizalari; korxonalar, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarning bergan xabarlar; ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar, jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning bevosita o'zi aniqlashi; aybini bo'yniga olish haqidagi arz jinoyat ishi qo'zg'atish uchun sabab bo'ladi.

Biroq so'z yuritilayotgan jinoyatlar bo'yicha aybdorlarning o'z aybini bo'yniga olib, ixtiyoriy ravishda huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilish hollari amalda uchramaydi.

Jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va shaxslarning bergan xabarlar og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin. Agar berilgan xabar og'zaki shaklda bo'lsa, surishtiruv organi yoki tergovchi tomonidan qayd etilishi shart.

Jinoyat protsessual qonunida ko'rsatilishicha, jinoyat belgilarini ko'rsatuvchi ma'lumotlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladi. Shundan kelib chiqib, ushbu holatda ham jinoyat ishi ekologik jinoyatlarning belgilarini ko'rsatuvchi ma'lumotlar yetarli bo'lsagina qo'zg'atilishi mumkin.

Ma'lumki, yuqorida aytib o'tilgan sabab va asoslar mavjud bo'lgan taqdirda jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror chiqaradi. Chiqariladigan qarorda: ishni qo'zg'atish uchun sabab va asoslar; Jinoyat kodeksining jinoyat ishi qo'zg'atilgan jinoyatni nazarda tutuvchi moddasi; ishni o'z yurituviga olgan mansabdor shaxs ko'rsatiladi.

Sodir etilgan ekologiya sohasidagi jinoyatlarning belgilari aniqlanganda prokuraturaga yetkazilgan zararning hajmini ko'rsatgan holda tabiatni muhofaza qilish qonunchiligining buzilganligi to'g'risida ma'lumotnoma; qaysi mehyoriy hujjatlar buzilganligi ko'rsatilgan holda ijtimoiy xavfli qilmish haqidagi, ifloslangan hududlar, ifloslanish manbalari, ekologik qoidalarni buzgan mansabdor shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, huquqbuzarlikning sodir etilish usuli va sharoiti to'g'risidagi bayonnoma; mutaxassislarining ekologiya sohasidagi huquqbuzarlikning tavsifi, keltirilgan zararning miqdori to'g'risidagi xulosasi; laboratoriya tekshiruvlari dalolatnomasi, avval o'tkazilgan tekshiruvlarning dalolatnomalari, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ko'rilgan choralar, ayblanuvchiga nisbatan tayinladigan ehtiyot choralari to'g'risidagi hujjatlar, ifloslanish manbai hisoblangan obyektidagi ishlarni to'xtatib, xavfsizlikni tahminlash borasidagi harakatlarni tartibga soluvchi idoraviy mehyoriy hujjatlardan nushalar takdim etilishi lozim.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning sodir etilish faktini aniqlashda ekologik nazoratni amalga oshiruvchi organlarning xizmati kattadir. Afsus bilan aytish mumkinki, yuz bsrayotgan bu turdagi huquqbuzarliklarga yetarlicha ehtibor berilavermaydi. Ular asosan ekologik nazorat organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar natijasida fosh etiladi. Kolaversa, "mazkur organlar ekologik huquqbuzarliklar uchun qay vaqtda mahmuriy va qay vaqtda jinoiy javobgarlikka torish mumkinligini yaxshi farqlay olishlari masalani ijobiy hal qilish imkonini



beradi. Bu esa tergovchilar mahmuriy javobgarlikka loyiq deb topgan ishlarga nisbatan asossiz ravishda jinoyat ishi qo'zg'atish hollarining oldini olish imkonini beradi".<sup>187</sup>

Tergovchi jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilgunga qadar zarur ma'lumotlarni to'plashi va ularni chuqur o'rganib chiqishi kerak. Buning uchun esa u: faktlarning realligi va obyektivligini tekshirishi; jinoyat alomatlarini tekshirishi; to'plangan ma'lumotlarning yetarililigi baholash kabi harakatlarni amalga oshirishi kerak.

Faktlarning realligi hamda obyektivligini zudlik bilan hodisa joyini - ifloslangan obyektlarni, ifloslanish manbalarini ko'zdan kechirish, kerakli idoraviy hujjatlarni talab qilib olish, korxonalar, tashkilotlarning mashul shaxslari yoki xodimlarini so'roq qilish singari tergov harakatlarini amalga oshirish orqali tekshirish mumkin.

Ushbu sohadagi jinoyatlar bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atish jarayonida tergovchi yuzaga kelgan ifloslanishlar tabiat hodisasi bo'lishi mumkinmi yoki insonning harakati (harakatsizligi) natijasida sodir etilganmi kabi masalalarga ham ehtibor qaratishi zarur. Masalan, suv havzasida neft mahsulotlaridan ifloslanish holati mavjud, bunda ifloslangan hudud va suv havzasining suv oqimi bo'yicha yuqori hamda quyi qismlari ham ko'zdan kechiriladi, lekin shu o'rinda yer ostida neft kanalining teshilgan joyi bo'lib, sizib chiqishi mumkinligi va shu kabi holatlarni ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Ma'lumki, bugungi kunda barcha sohada maxsus dasturlar yaratish orqali kompyuter vositasidan foydalanib turli masalalarni hal etishda katta imkoniyatlarga erishilmokda. Shu jumladan, ekologiya sohasidagi jinoyatlarning alomatlarini aniqlashda ekologik hodisalar va ular bilan bog'liq qilmishlarga kompyuter kvalifikatsiyasini qo'llash ham katta amaliy yordam berishi mumkin.

Buning uchun esa masalani hal etishda maxsus dasturga ega bo'lish kerak. Portativ kompyuter (noutbuk) dan foydalanib, hodisa joyida ham jinoyat alomatlarini muvaffaqiyatli tahlil qilish mumkin bo'ladi. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning alomatlarini aniqlashni osonlashtirish maqsadida (ayniqsa, jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etish bosqichida) RF Bosh prokuraturasi qoshidagi Sankt - Peterburg yuridik institutining kriminalistika kafedrasida maxsus qurilma - jinoyatlarni aniqlash kvalifikatori ishlab chiqilgan.

Dastur platasini qilmish belgilari (havo, suv, tuproq va hokozolarni ifloslantirish - Jinoyat kodeksi moddalarini dispozitsiyasi bo'yicha) menyusiga va zarar yetkazilgan (xavfi tug'ilgan) elementar obyekt belgilari menyusiga olib borib, vaziyatga mos variant tanlanadi hamda jinoiy qilmish uchun belgilangan Jinoyat kodeksi moddasi raqami indikator oynasida hisoblanadi. So'ng, Jinoyat kodeksi moddasiga asosan dispozitsiya tahlil qilinadi va hal qiluvchi moddani hamda uning qismini tanlash amalga oshiriladi. Kvalifikator jinoyat ishini qo'zg'atish asoslarini tahlil qilish bo'yicha boshqa masalalarni ham hal qilishda yordam beradi. Masalan, platani ikkita menyudan biriga o'tkazib, obyektga (inson, hayvonlar, o'simliklar va boshqa) yetkazilgan zararni ko'rsatuvchi moddani yoki ushbu harakatlar ko'rsatilgan hamma moddalarni aniqlash mumkin.<sup>188</sup>

Yuqorida bayon etilgan zamonaviy texnik vositalardan foydalanish tergov va sud organlarining jinoiy ishlarni yuritishlarida ancha qulaylik, yengillik yaratadi. Chunki Jinoyat

<sup>187</sup> Mirzaev T. "Ekologiyaga doir jinoyat ishlarini tergov qilish". T,-"Yangi asr avlodi" 2001- y. 17-bet.

<sup>188</sup> Internet: <http://nadzor.pk.ru/analit/show a./php?id=553>

kodeksining moddolari maxsus dastur orqali kompg'yuter xotirasiga kiritiladi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atish hamda keyingi tergov harakatlarini olib borish jarayonida amaliyot xodimlari uchun jinoyat tarkibidagi tabiat komponentlarini ifloslanishi bilan bog'liq sababiy bog'lanish faktini belgilash bir muncha qiyinchilik tug'diradi. Bunday qilmishni tasniflashda jinoyat sifatida insonlar o'limi ro'y berishi yoki ularning sog'ligiga yetkazilgan zarar yuzaga ksladi. Bunda sababiy bog'lanish muayyan holatdagina, yahni, tabiat obyekti sifatining o'zgarishiga va bunday o'zgarish inson uchun yoki unga bevosita tahsir ko'rsatuvchi tabiiy muhitga zararli oqibat yetkazilishiga alohida ehtibor qaratish lozim.

Jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng bir qator tipik tergov harakatlari amalga oshiriladi: voqea joyi ko'zdan kechiriladi; so'roq; ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotni tartibga soluvchi hujjatlarini, yahni ekologik pasporti va tozalash qurilmalari, shtat jadvali va xizmat yo'riqnomasiga oid boshqa hujjatlarni olib quyish. Sodir etilgan jinoyat va kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash, ifloslanayotgan moddani identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan ekspertiza turlari tayinlanadi.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr. <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi>.
4. Mirzaev T. "Ekologiyaga doir jinoyat ishlarini tergov qilish". T,-"Yangi asr avlodi" 2001-y. 17-bet.
5. 5.Internet: [http://nadzor.pk.ru/analit/show a./php?id=553](http://nadzor.pk.ru/analit/show_a./php?id=553)

## DAVLAT BOSHQARUVIDA XOTIN-QIZLARINING ROLI

Mirjavharova Feruzaxon Usmonjonovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi maxsus fan o'qituvchisi  
3-darajali yurist.

E-pochta: [Mirzavharovaferuzaxon@gmail.com](mailto:Mirzavharovaferuzaxon@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10048563>

*Annotatsiya.* Ma'lumki, millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Mamlakatimizda yurtimiz xotin-qizlarining jamiyatdagi o'rni, ularning oilaga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g'oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqei har jihatdan yuqori baholanmoqda. Maqolada davlat boshqaruvida xotin-qizlarga berilgan imkoniyatlar va uning huquqiy asoslari e'tirof etiladi.

*Kalit so'zlar:* ayollar huquqlari, gender tenglik, ayollar boshqaruvi, huquqiy tenglik, huquqiy tenglik, imtiyoz, Ayollar daftari, ayollar tashabbusi, ijtimoiy yordam, ayollar faolligi.

### THE ROLE OF WOMEN IN PUBLIC ADMINISTRATION

*Abstract.* It is known that the role and influence of the family, and the woman in the family, is incomparable in the formation and promotion of the unique spirituality of the nation. Because the purest and purest feelings of a person, the first life concepts and imaginations are formed first of all in the bosom of the family and with mother's upbringing. In our country, the place of women in society, their relationship with the family, and their role in social life are extremely important, so their position is highly valued in all aspects. The article recognizes the opportunities given to women in public administration and its legal basis.

*Key words:* women's rights, gender equality, women's governance, legal equality, legal equality, privilege, women's notebook, women's initiative, social assistance, women's activism.

### РОЛЬ ЖЕНЩИН В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

*Аннотация.* Известно, что роль и влияние семьи, женщины в семье несопоставимы в формировании и пропаганде самобытной духовности нации. Потому что самые чистые и чистые чувства человека, первые жизненные понятия и представления формируются прежде всего в лоне семьи и при материнском воспитании. В нашей стране место женщины в обществе, ее взаимоотношения с семьей, ее роль в общественной жизни чрезвычайно важны, поэтому их положение высоко ценится во всех аспектах. В статье признаются возможности, предоставляемые женщинам в сфере государственного управления, и их правовая основа.

*Ключевые слова:* права женщин, гендерное равенство, женское управление, юридическое равенство, юридическое равенство, привилегия, женский блокнот, женская инициатива, социальная помощь, женский активизм.

Huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo'lidan dadil odimlab borayotgan mamlakatimizda xotin-qizlarning erkaklar bilan barcha sohada tengligini ta'minlashga, ularni ulug'lash va qadrlashga, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquq tizimi yaratildi. Istiqlol yillarida Konstitutsiyamiz hamda O'zbekiston Respublikasida yaratilgan boshqa normativ hujjatlarda asosiy maqsad yurtimiz ayollarining huquq va manfaatlarini himoya

qilishga, opa-singillarimizning faolligini oshirishga, ularga ma'naviy-ruhiy madad berishga, qolaversa, ularni turli tahdid va qotib qolgan eskicha qarashlardan himoya qilishga qaratildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xotin-qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan barcha qonun hujjatlari xalqaro huquqiy me'yorlarga asoslanadi.

Ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos olijanob xususiyatlardan biridir. Shu ma'noda O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rne va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq.

Mamlakatimiz Prezidenti ayollarning jamiyatdagi o'rne va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shartsharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e'tiboridagi eng ustuvor vazifa ekanligiga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib ayollar huquqini xalqaro me'yor va huquqiy standartlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida Ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi (CEDAW), ayollarning siyosiy huquqlari haqidagi, onalikni muhofaza qilish haqidagi xalqaro konvensiyalarga qo'shildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-martdagi "Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga binoan jamiyatda sog'lom muhitning shakllanishida xotin-qizlarning faol ishtiroki kuchaytirildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlarda xotin-qizlar qo'mitalarining raislari mahalliy hokimiyat organlari tarkibiga kiritildi.

Ular joylarda hokim o'rinbosarlari etib tayinlandi. Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi raisi esa Bosh vazir o'rinbosari maqomiga ega bo'ldi. Jamiyatda ayollarning salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning barkamol avlodni tarbiyalashdagi rolini kuchaytirish va amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarimizda yanada faol ishtirokini ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni xotin-qizlarimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi bir davr, yangi bir bosqichni boshlab berdi, xotin-qizlar faolligini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi va ayollar salohiyatini namoyon etish yo'llarini belgilab berdi.

Jumladan, 2004-yildan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunga asosan deputatlikka siyosiy partiyalardan ayollar nomzodini ko'rsatish bo'yicha 30 foizlik kvota joriy etilgani yurtimiz xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yo'lida yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Jamiyatimizda xotin-qizlarning davlat qurilishidagi ishtirokini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar faoliyatida ayollar rolini kuchaytirish, partiya a'zolarining muayyan qismini ayollar tashkil etishiga erishildi va respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha siyosiy partiyalar qoshida "Ayollar qanotlari" tashkil etildi.

Bu o‘rinda mamlakatimizda har bir yilning “Inson manfaatlar yili”, “Oila yili”, “Ayollar yili”, “Sog‘lom avlod”, “Ona va bola”, “Mehr va muruvvat”, “Sihat va salomatlik”, “Homiylar va shifokorlar” yili deb atalishi, davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, avvalambor, xotin-qizlarni har tomonlama himoyalashga qaratilganligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish dasturining asosiy maqsadlaridan biri gender tenglikka erishish hisoblanadi. 2022-2026-yillarda mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha sohalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan.

Milliy dastur erkaklar va ayollar tengligiga erishish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda ularni qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish, ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish, salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlarning ta’limi va tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning ilmiy salohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatdagi rolini kuchaytirish va davlat boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirish uchun kuchli turtki bo‘ldi.

Bugungi kunda BMTga a‘zo bo‘lgan davlatlardan 120 tadan ortig‘ida gender kvotasi mavjud. Xususan, Markaziy Osiyoda Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekistonda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlarning umumiy sonidan ayollar uchun 30%li kvotalar qonuniylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga muvofiq, ayollarning soni siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o‘ttiz foizini tashkil etishi belgilangan. Haqiqatda biror davlatda bizning yurtimizda bo‘lgani singari xotin-qizlarga e‘tibor ko‘rsatilmagan, e‘zozlanmagan, mamlakat tayanchi sifatida e‘tirof etilmagan.

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shmoqdalar, ular jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalarida faoliyat ko‘rsatib, davlat hokimiyati va jamoat tashkilotlari faoliyatida keng ishtirok etishmoqda, yosh avlod tarbiyasiga, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy soha, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarni rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda.

## REFERENCES

1. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi“ 1948-yil
2. “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik to‘g‘risida”gi Deklaratsiyasi 1993-yil
3. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi” 2023-yil
4. “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 07.03.2022 PF-87
5. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” 15.12.2022 O‘RQ - 809



## QORAQALPOG‘ISTONDA DAMLI CHOLG‘ULAR ORKESTRINING RIVOJLANISHI

Segizbaeva Guldana

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali “Umumiy kasbiy va ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası” “Musiqashunoslik” mutaxassisligi 2-kurs talabasi

G.M.Kamalova

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10052364>

**Annotatsiya.** Bu maqolada Qoraqalpog‘istonda damli cholg‘ular orkestrining shakllanishi va rivojlanishi, bu sohadagi taniqli ustozlarning samarali faoliyati haqida keng to‘xtalib o‘tiladi. Bundan tashqari Qoraqalpoq musiqa san‘ati rivojlanishida samarli mehnat qilayotgan pedagog Polat Tnibaevning faoliyati haqida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** musiqa, san‘at, damli cholg‘ular, nota, dirijyor, simfonik orkestr, konservatoriya, teatr.

## DEVELOPMENT OF THE ORCHESTRA OF MUSICAL INSTRUMENTS IN KARAKALPAKSTAN

**Abstract.** In this article, the formation and development of the orchestra of wind instruments in Karakalpakstan, and the effective activities of famous teachers in this field will be discussed in detail. In addition, the work of pedagogue Polat Tnibaev, who is working effectively in the development of Karakalpak music art, will be covered.

**Key words:** music, art, musical instruments, sheet music, conductor, symphony orchestra, conservatory, theater.

## РАЗВИТИЕ ОРКЕСТРА МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

**Аннотация.** В данной статье будет подробно рассмотрено становление и развитие оркестра духовых инструментов в Каракалпакстане, а также эффективная деятельность известных педагогов в этой области. Кроме того, будет освещена деятельность педагога Полата Тнибаева, который эффективно работает в сфере развития каракалпакского музыкального искусства.

**Ключевые слова:** музыка, искусство, музыкальные инструменты, ноты, дирижер, симфонический оркестр, консерватория, театр.

Musiqa bu insoniyat uchun berilgan katta boylikdir. Inson bu dunyoga kelishidan boshlab musiqaga bo‘lgan tuyg‘ulari shakllana boshlaydi. Musiqa o‘z ichiga juda ko‘p davrlarni qamrab oladi. Qadim zamonlarda hali gaplashish tushunchasi bo‘lmastan oldin, odamzot harxil tovushlar chiqarishni va shuning natijasida bir-biriga xabar berishni boshlaydi, keyinchalik tovush kuchini orttirish maqsadida har davrning o‘z musiqa cholg‘ulari paydo bo‘la boshlaydi. Musiqa cholg‘ularining eng qadimiysi damli cholg‘ular hisoblanadi.

Damli cholg‘ular eramizdan avvalgi III asrlarda nay tarzida paydo bo‘lgan. U dastlab Qadimgi Misr va sharq davlatlariga, keyinchalik Yevropaga kirib keldi. Hozirgi davrda damli cholg‘ular barcha xalqlarda keng tarqalgan va rivojlangan.

Qoraqalpog‘istonda torli va damli cholg‘ular mutaxassisligi uchilish ochilgannan boshlab faoliyat yuritgan. Uning dastlabki o‘qituvchilari N.Muxammeddinov, A.N.Kogay,



K.Nametullaev, V.S.Shelomencov, N.I.Yagodin, T.Ótemuratov, N.L.Brokman, soʻngra Sh.Paxratdinov, T.Esirkepov, M.Tarixov, M.Rustambekov, T.Berdibekova, M.Zuxurov, D.Reymov, L.Paxratdinova, N.M.Murmancev, A.M.Anoshin, V.M.Klyuchnikov, Ya.N.Coy, R.Xalliev keyingi yillari A.Qoshimbetov, A.Losevskiy, A.V.Maryuxin, V.Maksimov, P.Qurbanazarov, E.Orinbaev, S.Seytqasimov, P.Tnibaev, J.Sharipovlar yoshlarga ustozlik etib, shu kunga qadar rivojlanib kelmoqda.

Damli cholgʻular qoraqalpoq musiqa sanʼatiga oʻtgan asrning 40-yillaridan soʻng kirib kelgan xorijiy cholgʻu hisoblanadi. Ulardan milliy kadrlar yoʻq edi.

1960-yili musiqa uchilishi ochilgannan soʻng damli cholgʻular mutaxassisligiga oliy oʻquv yurtiga oʻqishga kirib, bitirib chiqqan kadrlardan Qoraqalpogʻiston Respublikasiga xizmat korsatgan madaniyat xodimi, Oʻzbekiston manaviyat va marifat ishlari aʼlosi A.Abdikamalov (truba), Qoraqalpogʻiston Respublikasiga xizmat koʻrsatgan sanʼatkor P.Qurbanazarov (klarnet), S.Muxameddinov (fleyta), Q.Qarlibaev (fagot), A.Orazbaev (truba), T.Musaev(fagot), J.Qoshimbetov (valtorna), S.Seytqasimov (truba), J.Sharipov (tuba) boʻlgan.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida damli cholgʻular ijrochiligining rivoji, bu yoʻnalishda kadrlar ilmiy darajasini oshirishlik, ilmiy ijodiy faoliyatini yanada rivojlantirish, talantli yoshlarni qidirib bu sohaga tortishda koʻplab ishlar olib borilmoqda. Bu oʻlkada tugʻilib yuksalgan birqancha avlod Oʻzbekiston Davlat Konservatoriyasida taʼlim olib, katta natija va tajribaga ega boʻlgan dirijyorlar, damli cholgʻular ijrochilari va tajriyabali pedagog kadrlar yetilib chiqqan. Bular orasida Tnibaev Polat (fagot), Musaev Timur (fagot), Orinbaev Erkin (gaboy), Qudaybergenov Tólepbergen (truba), Erniyazov Aydos (valtorna), Xabipov Miyras (dirijyor, fleyta), Sharipov Jaqsiliq (tuba), Zoitov Timur (klarnet), Aliev Nursultan (trombon), Jumabaev Abdirasul (trombon) va boshqalar bor.<sup>189</sup>

Filialimizda damli cholgʻular sohasining rivojlanishiga katta hissa qoʻshayotgan pedagoglarning biri bu P.Tnibaevdir. U 1981-yili Nukus shahrida taniqli Tnibay baxshining oilasida dunyoga kelgan. Uning ota-bobolari qoraqalpoq musiqa madaniyatining rivojida juda katta mehnat qilgan baxshilardan edilar. Uning otasi Karimbay baxshi, otasi Tnibay baxshi, narigi otasi Qurbanbay baxshi elimiz sevgan sanʼat shaydolaridan edi. Shu sababli P.Tnibaev bolaligidan musiqiy muhitda ulgʻaygan.

1988-1996-yillari umumiy oʻrta taʼlim maktabida taʼlim olib, shu bilan bir vaqtda Eshjan baxshi nomidagi musiqa bilim yurtida akkordyon sinfida tahsil oldi. 1996-2000-yillar oraligʻida hozirgi Nukus ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabida gʻijjak cholgʻusida A.X.Abdullaev sinfida tahsil oldi. 2000-yili M.Ashrafiy nomidagi Oʻzbekiston Davlat Konservatoriyasida fagot cholgʻusida X.Kadirov sinfiga oʻqishga kiradi. Bu yerda juda koʻp qiyinchiliklarni boshidan kechirib, ularni mushkul mehnat va mashaqqat bilan yengib oʻtadi. Albatta, yosh ijrochining oʻzi uchun begona boʻlgan musiqiy asbobni tezlik bilan organishi va katta yutuqlarga erishishi etirofga loyiq.

---

<sup>189</sup> Radjabov J.X. Damli cholgʻular ijrochiligining muhim va dolzarb masalalari//Musiqqa sanʼatida ijrochilik mahoratini takomillashtirishning dolzarb masalalari: Anʼanaviylik va zamonaviylik Respublika ilmiy-anjuman materiallari toʻplami. Nukus, 2022.b.24-29.

P.Tnibaev konservatoriyani muvaffaqiyatli tugallab, 2006-2008-yillari “Opera va simfonik orkestr dirijyorligi” mutaxassisligida Z.V.Xaqnazarov sinfida magistratura yo‘nalishida bilim oladi. Bu yo‘lda “P.I.Chaykovskiyning №6 simfoniyasi” haqida dissertaciya ishini yoqlaydi.

Yaxshi bilimga ega bo‘lgandan so‘ng, Qoraqalpog‘istonga qaytib o‘z faoliyatini boshlaydi. P.Tnibaev Nukus ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabida, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik teatrida faoliyat yuritadi.

2013-yildan e‘tiboran, damli cholg‘ular orkestrini tuzish uchun jadal kirishadi. Bu orkestrning ochilishi juda qiziqarli bo‘lgan. U bir kuni ishga damli cholg‘ular uchun yozilgan A.Volkovning “Eger marshi” asarini olib keladi. Bu asarni o‘quvchilariga eshittirib, chaldirib ko‘rsa hammasi yaxshi ijro qilib beradi. Keyingi darsda “Fanfariy marsh” asarini olib keladi. O‘quvchilar bu asarni ham juda qiziqish bilan kutib olib, sevib ijro etadi. Shundan so‘ng damli cholg‘ular orkestrining konsert dasturi tayyor bo‘ladi. 2015-yili 20-noyabr kuni P.Tnibaev boshchiligidagi birinchi konsert dasturi keng jamoatchilik tomonidan yuqori kayfiyatta kutib olinadi. Qoraqalpog‘istonda damli cholg‘ular orkestri juda yaxshi rivojlanib, 2015-2017-yillari damli orkestrning konsertlari juda katta muvaffaqiyatga erishadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli qarorida olis hududlarda yashovchi fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirishlik, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha choralari tizimli turda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san‘at sohasida iste‘dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘qish-metodik adabiyotlar bilan ta‘minlashning yaxlit tizimini yaratish<sup>190</sup> maqsadida davlatimizda keng xajmli ishlar olib borilmoqda. Shu qatorda filialimizning damli cholg‘ular orkestri ham Respublikamizdagi birqancha bog‘larda, dam olish maskanlarida konsertlar berib kelmoqda.

P.Tnibaev bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniyat sohasida samarali mehnat qilayotgan ustozlarining biri bo‘lib, uning pedagogik faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda 50 ka yaqin shogirdlari xalqimizning eng yaxshi ijrochilari safidan o‘rin olib, madaniyat sohasidagi muassasalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelishmoqda.

O‘z shogirdlaridan hardoyim ma‘suliyatni, intizom va matonatlikni talab qiluvchi mohir ijrochi Paganinining “Bir kun chalmasam o‘zimni yomon sezaman, ikkita kun chalmasam atrofimdagilar, uch kun chalmasam xalqim sezadi”,- degan so‘zlarga rioya qiladi.

P.Tnibaev pedagogik faoliyati davomida ilmiy ishlar bilan ham shug‘ullanib kelmoqda. Hozirgi kunda “Qoraqalpog‘istonda orkestrning rivoji va uning yoshlar manaviy tarbiyasidagi pedagogik tomillari” mavzusidagi doktorlik dissertaciyasini yoqlamoqda.

P.Tnibaev qoraqalpoq madaniyatining rivojida fidoyi xizmat qilib, filialimiz talabalarini yetuk mutaxassis bo‘lib chiqishi uchun o‘z ustida ishlashi, tarbiya, insonlarni hurmat qilish kabi ulug‘ hislarni o‘rgatib, atroflicha to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib kelmoqda. Dirijyorning shu kabi mehnatlari inobatga olinib, 2022-yili 15-aprel “Madaniyat va san‘at xodimlari” kuni munosabati bilan “Madaniyat va san‘at fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

---

<sup>190</sup> Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli qarori

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filialida pedagog kadrlar ilmiy darajasini takomillashtirish hamda damli cholg‘ular ijrochiligi san‘atida tahsil olib, rivojlanayotgan yoshlarimiz ta‘limining birgalikda sifatini oshirish bo‘yicha keng hajmli ishlar olib borilmoqda. O‘z ishiga fidoyi barcha ustozlar yordamida bu o‘lkaning iqtidorli farzandlarini yaqin kelajakda Respublika va jahon sahnalarida olib chiqib, ularning yutuqlarini qo‘lga kiritganligining guvohi bo‘lamiz.

## REFERENCES

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli qarori.
2. Левин С. Духовые инструменты в истории музыкальной культуры. 4.2.Л., 1983.
3. Левин С. Духовые инструменты в истории музыкальной культуры. 4.1.Л., 1973.
4. Салихов Б., Матякубов Б. Ўзбекистонда дамли ва зарбли чолгуларда ижрочилик тарихи. Т., 2007.
5. Segizbaeva G. “Qoraqalpog‘istonda fortepiano janrining rivojlanishida Dilbar Erniyazovanning tutgan o‘rni”. *Journal of Culture and Art* 1.3. (2023): 110-114-b.
6. Segizbaeva G. “Qaraqalpaqstanda dáslepki muzıkalı drama janrınıń payda bolıwı”. *Muzıka hám kórkem óner xabarshısı* 1.1. (2023): 188-192-b.
7. Radjabov J.X. Damli cholg‘ular ijrochiligining muhim va dolzarb masalalari//Musıqa san‘atida ijrochilik mahoratini takomillashtirishning dolzarb masalalari: An‘anaviylik va zamonaviylik Respublika ilmiy-anjuman materiallari to‘plami. Nukus, 2022.b.24-29.
8. Niyazbaeva A., Kamalova G. ÓZBEKISTON XALQ BAXSHISI QALLIEV TENELBAY GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 22-24.
9. Niyazbaeva A. J., Kamalova G. M. CHANQOVUZ MUSIQA ASBOBI VA UNING TURLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 1.– С. 26-30.
10. Jam‘irbaevna N. A. QISSAXONLAR //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 113-116.
11. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 270-273.
12. [https://www.researchgate.net/publication/365024275\\_THE\\_DRAMATURGY\\_OF\\_A\\_KOZ\\_LOVSKY'S\\_BALLET\\_TANOVAR](https://www.researchgate.net/publication/365024275_THE_DRAMATURGY_OF_A_KOZ_LOVSKY'S_BALLET_TANOVAR)
13. Charshemov, Jamil. "Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers." *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences* 2.3 (2023): 270-273.
14. SEGIZBAEVA G. QORAQOLPOG‘ISTONDA FORTEPIANO JANRINING RIVOJLANISHIDA DILBAR ERNIYAZOVANING TUTGAN O‘RNI //Journal of Culture and Art. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 110-114.
15. Тажетдинова С. М., Худайбергенова Г. Ж. Формирование музыкальной культуры студентов //Молодой ученый. – 2018. – №. 47. – С. 380-382.
16. Тажетдинова С. М. Народные песни как фактор развития личности учащихся //Вестник Курганского государственного университета. – 2018. – №. 3 (50). – С. 62-62.

17. Dauletbaev T. CHOLG ‘U ASBOBLARINI O ‘RGATISHDA NOTA SAVODINI OSHIRISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 3. – С. 31-33.
18. Тажимуратова Ш. С. САЊЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
19. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
20. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 509-511.
21. Tajimuratova Shakhnoza Saginbaevna. (2022). MANAGEMENT AND STUDY OF CULTURE AND ART. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 758–762.
22. Sag'inbaevna, T. S. (2023). Cultural Life in Uzbekistan during the Years of Independence. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 18, 39-41.

“A SHINING STAR”

**Dauletbaeva Gulxumar**

Uzbekistan State Conservatory Nukus branch  
Department of “Higher Vocational and Social Humanitarian Sciences”  
second year student of “Music theory”.

**Kamalova Gulmaryam**

Scientific director.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10052760>

**Abstract.** In this article, there is a private conversation with the little star Miyasar Dauletbaeva, who is known to our people for her unique performance, and her family members, way, achievements in the genre of pop music, difficulties in this field are discussed.

**Key words:** Music, contest, song musical instruments, teacher, student, plan.

“СИЯЮЩАЯ ЗВЕЗДА”

**Аннотация.** В этой статье идет приватная беседа с маленькой звездой Миясар Даулетбаевой, которая известна нашему народу своим уникальным исполнением, и членами ее семьи, обсуждаются путь, достижения в жанре поп-музыки, трудности на этом поприще.

**Ключевые слова:** музыка, конкурс, песенные музыкальные инструменты, учитель, ученик, план.



Music is type of musical art great importance in the development of a person in our cultural life, creating a high level of emotion in a person and shaping the vision of the cultural world. Also, has the opportunity to have a strong influence on the human soul.

Abu Nasr Farabi a scholar of our national cultural said that “A work of simple words fiction written incoherently was beneficial to the health of the body” And Saadiy Sheraziy said “Music is a satellite of the human soul”

Music is considered to be an emotional powerful active developer that has quick effect on a person the first music we hear from our mothers along with human music is “Lullaby” through which we enjoy music a lifetime and gain strength.

Music is an integral part of the human soul, and in order to enjoy it, a person must be able to feel a pure beauty with a high civilized heart, and in his soul he must have a love for the motherland.

We did not give up our thoughts and reflections on music. Next to you the human being who wants to introduce the musical art direction to our people, who have achieved several achievements is known for his singing and the little light coming bright as the star Miyasar Dauletbaeva.

On October 3, 2006, in the city of Nukus, the Dauletbaev’s family gave birth to a future starlet named Miyasar. Her passion for the world of music began as early as childhood. The main reason why Miyasar has entered this direction is his family members.



Her father Allamuratov Qilishbay, a role model of starlet, received his training in the vocal direction of the department of “National performance” at the current Nukus specialized school of culture between 1992 and 1996, he composed the “National performance skills” section at Children’s music school N 2. He was then one of the students of Karakalpak State University in 2004-2007. After completing his studies well he has been teaching a number of students in the current school of culture, the first reading lesson in the direction of music in the same year.

This is due to the respect of a person for our national values not only at work, but at the same time also to his children in the family circle who played the National Music of our people live on their own and also told the legends associated with the history of the origin of these music. It was by showing that their dignity was great that children’s love and affection for the direction of music helped them awaken. At the same time he was also making duwtar and making musical instruments. His work also had a good effect on his children. The reason is that when they are little, they see musical instruments in their home, and by studying their structure and playing them, they also get to know others from the folk singer.

Her mother Sapargul Basherova is very kind person who gave birth to Miyasar, had a strong interest in playing the also moynaq duwtar, considered the national musical instrument of Karakalpak from a young age. It was during this time that his choice of this direction was opposed by his parents. But despite this, her brother Turganbay Qurbanov, began to teach her the secrets of baqsishiliq as her mentor.

Miyasar’s mother, like her father, studied at the current “Nukus specialized school of culture in the baqsishiliq direction of the “National Performanse” department. She has been a teacher at the N12 children’s music school named after Amet baqsi since 1996.

Her lovely voice got Miyasar into her heart with “Lullaby”. For this reason, it can also be said that it is the owner of the innate talent.

While her mother has trained hundreds of disciples so far, Miyasar Dauletbaeva is among them. Mother and child work on themselves not only at school, but also at home, and soon learned to correct mistakes and shortcomings. So it can be said that your mother played a big role in the achievement of the strong talent.

One of Miyasar’s supporters is her caring and kind brother Talgat Dauletbaev. We know this person. The reason is that you can see. Miyasar as a guitarist and pianist next to her in the songs she performs on every stage. He even knew how to play and tune the duwtar at the age of 4. He devoted most of his life to this music. Since childhood, Talgat went to music school with his mother and learned to play the girjek musical instrument along with the dutar. He won many competitions. He won many competition.

He graduated from the music school majoring in duwtar and girjek, but he also knew how to play stringed instruments such as the violin, guitar, and rubob. In 2011-2014, Miyasar’s brother studied “Music theory” at the current Nukus specialized culture school. After that, he became interested in composing songs, and in 2014-2018 he successfully graduated from the faculty of Composition of the State Conservatory of Uzbekistan. In 2020-2022, he graduated from the graduate department of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz and since this year he has been working at the Nukus branch of the Uzbekistan State Conservatory.

Gulkhumor Dauletbaeva, Miyasar's closest and confident friend, is also a representative of this musical direction. She graduated from the music school N12 named after Amet Jaqsi along



with Miyasar, majoring in piano. Later, she also studied "Music Theory" at the current Nukus Specialized Culture school in 2020-2022. Currently, Gulkhumor is a 2nd year student of the Faculty of Musical arts of the Nukus branch of the State Conservatory of Uzbekistan. Her sister also played an important role in Miyasar's success, because she grew up playing with Miyasar and was a strong motivator for him in good and bad days.

As for Miyasar herself, as we mentioned above, she was interested in music from a young age. She went to music school together with her mother and was in the lively life there and soon began to study in the music department. The young talent was interested in playing the girjek in addition to the duwtar, actively participated in solfeggio and choir lessons. After attending choir lessons, she began to love singing, and then her parents asked her to enroll in the vocal academy. Looking positively at her daughter's choice, her parents sent Miyasar to Rinat Dawirkanov's class in 2015. New doors are starting to open for the future star in the world of music, she participated in many competition's and won high places.

By the way, in 2017 she became a laureate at the "Kamalak Yulduzlari" Children's creative festival, and in 2019, she won the 1st place at the Karakalpak stage of the "Akademik ham Estrada ijrochilari tanlovi" The year 2020 was a difficult time for the whole world, because the virus "Covid19" appeared on earth, for which a cure has not yet been found and medicine is still unknown. In the same year, this virus entered our country, and our president introduced a quarantine period in our republic in order to prevent the situations from getting worse. In order not to waste time in quarantine, Miyasar participated in several about this, the best performer in the 2020 "Jas gitarashi" competition held by the council of the Republic of Karakalpakstan of the Youth union of uzbeks on the occasion of the "Jaslar kuni "On June 30" the Russian Federation, the city of Moscow education and was awarded with 2nd level diplomas in the nomination "Vokalno- xorovoe tvorchestvo" ("Вокольно- хоровое творчество ") within the international Festival of Russian language held by the department of science.

A student, Miyasar showed interested in Russian literature as well as and participated in several international competitions 2020 with the 1st degree diploma at the international Russian language online festival for young children, teenagers and young adults named " Puteshestvie v stranu russkogo yazika"(Путешествие в страну русского языка", " Живое классика ") was with diplomas for winning the school and district stages of the international young readers competition. At the end of that year, the future star took part in the selection stage of the "The cover up kids" project held by the "zo'r TV" television and radio company of Tashkent with her brother and joined Yorqinxoja Umarov's group. If this project had 10 stages, it can be said that Miyasar sang in 10 different non-repeating genres.

Despite her young age, she listened to the words of Yo'rqinxo'ja who was her teacher, and got along very well with the musicians. Because of her demandingness, the talented Miyasar won the diploma and trophy as the 1<sup>st</sup> place holder in this project. After this project, in order to adequately reward the work done in 2020 the Youth Affairs Agency of Uzbekstan received a diploma and a statuette in the nomination "Jildin en talantli jasi" in the "Xoshamet 2020" award program held by the youth association of the department of the Republic of Karakalpaqstan entered. 2021 was one of the most successful years for Miyassar in this creative career. In the same year, she participated well in the variety section of the final stage of the festival "Respublika jaslar hawazi" organized by the Uzbek Youth Affairs Agency, the Uzbek Youth Association and received

a 2<sup>nd</sup> degree diploma with the situatetta “Taxsin 2021” in order to reward her sacrifices “Umid uchquni” according to the 450<sup>th</sup> meeting of Board of Directions of the Supreme Council of the Republic of Karakalpakstan, a participant of the “Chegarasiz” project of the Uzbek Youth Affairs Agency, on August 30, 2021 was awarded with bronze badge.

Well, 2022 was a year full of great achievements for Miyasar. This year, she won the “Ekinshi ana tilim – qaraqalpaq tili” essay contest organized by the Ministry of public Education of Karakalpakstan, the 1<sup>st</sup> level diplomas in the “G’azelxanliq” contest organized by the Ministry of Republic Education of Karakalpakstan. The Republic of Uzbek organized by the Ministry of culture “san’atim senga, abod yurtim” with a 2<sup>nd</sup> level diploma in the competition, with a 1<sup>st</sup> level diploma in the international “Shukufaxoi-Paytaxt” organized in Dushanbe republic of Tajikistan and “Festival talantov” organized by the “Intali balalar” International Society (Фестивал талантов”) was awarded the Grand Prix at the VII International selection.

In October 2022, Miyasar’s participation in the “Xon Saray Music” contest was a big turning point in the young girl’s life. The reason is that at the beginning of 2023, after “Xon Saroy music” and especially “Top Music” Miyasar was approved for the main competition stages. Out of the first 30 people, 20 people were selected, including the top ten out of 20 was very hard for Miyasar. The reason is that on that day the wedding of her brother, Talgat Dauletbaev was scheduled. Now she had to choose either the wedding or staying at the competition. Not only Miyasar, but all her family members worried because of the situation. Since Miyasar’s brother was an expert in the field of culture, they agreed to participate in the project after consulting each other. However, Miyasar had one choice. She also told her brother: “If I miss the wedding, or I am not selected to the top ten, I won’t sing never again”.

Her brother supported her and expressed his confidence in hers. That difficult day that we have been waiting for has arrived. Wedding in Nukus, Competition in Tashkent. It was reported that Alisher Uzatov was celebrating her wedding and that Miyasar was in the top twelve. During the project, she sang the songs of Kumush Razzakova, Sevgi Takhmineva, “Setora” group and “Alo” group of Uzbek pop music. She was able to perfectly perform the songs of Christina Aguilera, Ruslana, Miriam Fares and Selena Gomes from the world pop. With this, we have reached the final stage of this project, which lasted for less than a year. In the final participant had feelings of panic and fear, including Miyasar. Family members were there to support her. After the performance of the participants, we have reached the, most difficult time. The votes of each participant during the project were counted on the monitor.

The thing that scared us the most was that Miyasar’s collected voice rose slowly compared to other participants until the last second. But the number of votes collected in those last seconds quickly increased and Miyasar became the 1<sup>st</sup> place, which made all the viewers happy. Now, she is gifting the car and the house to her family. Today, the young talent miyasar dauletbaeva chose to study 11<sup>th</sup> grade in Tashkent in order to further develop her creativity. She has many goals. I would have to write a book to tell them all. Therefore, we will keep them confidential.

By the way, this little star is going on a trip to Georgia in the next few days. We wish her a good trip and success in her creativity.

## REFERENCES

1. <https://instagram.com/xonsaroymusic?igshid=MzRIODBiNWFIZA==>
2. [https://instagram.com/thecover\\_up\\_kids?igshid=MzRIODBiNWFIZA==](https://instagram.com/thecover_up_kids?igshid=MzRIODBiNWFIZA==)
3. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 270-273.
4. [https://www.researchgate.net/publication/365024275\\_THE\\_DRAMATURGY\\_OF\\_A\\_KO\\_ZLOVSKY'S\\_BALLET\\_TANOVAR](https://www.researchgate.net/publication/365024275_THE_DRAMATURGY_OF_A_KO_ZLOVSKY'S_BALLET_TANOVAR)
5. Charshemov, Jamil. "Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers." *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences* 2.3 (2023): 270-273.
6. Niyazbaeva A., Kamalova G. ÓZBEKISTON XALQ BAXSHISI QALLIEV TEÑELBAY GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 22-24.
7. Niyazbaeva A. J., Kamalova G. M. CHANQOVUZ MUSIQA ASBOBI VA UNING TURLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. –№. 1.–С. 26-30.
8. Jamg'irbaevna N. A. QISSAXONLAR //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 113-116.
9. Тажетдинова С. М., Худайбергенова Г. Ж. Формирование музыкальной культуры студентов //Молодой ученый. – 2018. – №. 47. – С. 380-382.
10. Тажетдинова С. М. Народные песни как фактор развития личности учащихся //Вестник Курганского государственного университета. – 2018. – №. 3 (50). – С. 62-62.
11. Dauletbaev T. CHOLG 'U ASBOBLARINI O 'RGATISHDA NOTA SAVODINI OSHIRISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 31-33.
12. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
13. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
14. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 509-511.
15. Tajimuratova Shakhnoza Saginbaevna. (2022). MANAGEMENT AND STUDY OF CULTURE AND ART. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 758–762.
16. Sag'inbaevna, T. S. (2023). Cultural Life in Uzbekistan during the Years of Independence. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 18, 39-41.

## O`ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI VA JADIDCHILIK HARAKATLARI

Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi

O`zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti o`qituvchisi

Jumayeva Muxlisa Nuriddin qizi

O`zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10051677>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada asrlar mobaynida sayqallanib kelingan o`zbek mumtoz adabiyoti va uning bir qancha yorqin namoyandalari, hamda xalqning ongini yuksaltirishda o`z hissalarini qo`shgan ajdodlarimizning jadidchilik masalalariga yo`g`rilgan fikrlari aks ettiriladi.

**Kalit so`zlar:** badiiy adabiyot, o`zbek mumtoz adabiyoti hamda uning namoyandalari, taraqqiyot yo`li, dastlabki jadidchilik harakatlari va ularning yakunlanishi.

### UZBEK CLASSICAL LITERATURE AND JADIDISM MOVEMENTS

**Abstract.** This article will reflect the views of Uzbek classical literature, which has been polished for centuries, and several of its bright figures, as well as our ancestors, who have contributed to raising the minds of the people, on the issues of jadidism.

**Keywords:** fiction, Uzbek classical literature and its exponents, the path of development, the actions of the early jadidism and their completion.

### УЗБЕКСКАЯ КЛАССИЧЕСКАЯ ЛИТЕРАТУРА И ДЖАДИДИСТСКИЕ ДВИЖЕНИЯ

**Аннотация.** В этой статье отражены взгляды на джадидизм узбекской классической литературы и ее ярких представителей, а также наших предков, внесших свой вклад в повышение сознания народа.

**Ключевые слова:** художественная литература, узбекская классическая литература и ее представители, путь развития, ранние джадидистские движения и их завершение.

Badiiy adabiyotning asosiy quroli so`z bo`lganligi bois o`zbek mumtoz adabiyoti bevosita til tarixi bilan uzviy aloqadorlikda ish ko`radi. Muayyan davrda yaratilgan badiiy asar o`sha davr til xususiyatlarini o`zida mujassamlashtirish bilan bir qatorda xalqning falsafiy mushohadasi, dunoqarashi, urf-odatlarini ham o`zida badiiy so`zlar bilan ifoda etadi.

Bu jihatdan o`zbek mumtoz adabiyoti ilohiyot, tasavvuf, tarix, falsafa singari fanlar bilan yaqin aloqada ish ko`rib rivojlana boradi. O`zbekiston mustaqilligi e`lon qilingach XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari adabiyotini „Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti“ tarzida atash tamoyilga kirdi. Shunday qilib, o`zbek mumtoz adabiyotini quyidagi asosiy taraqqiyot bosqichlariga bo`lib o`rganishimiz mumkin:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar
2. X-XII asrlar adabiyoti
3. XIII asr va XIV asr boshlaridagi adabiyot
4. XIV asr o`rtalaridan XVII asrgacha bo`lgan adabiyot
5. XVII asrdan XIX asr o`rtalarigacha bo`lgan adabiyot

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar qadim zamonlardan Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning mushtarak adabiy yodgorligi sanaladi. Shuningdek, X-XII asrlarda vujudga kelgan turkiy tildagi adabiyot ham faqat o`zbek xalqigagina taalluqli bo`lmay, balki Markaziy Osiyo va

Sharqiy Turkistonda yashovchi turkiy xalqlarning ham mushtarak ma`naviy boyligidir. O`zbek xalqi boy badiiy va mumtoz yodgorliklarga ega.

O`tmishda yaratilgan mo`tabar mumtoz adabiyotimiz namunalarini chuqur o`rganish va bilish har bir o`quvchining, shu yurtda yashayotgan kishilarning ulug` burchidir. O`zbek adabiyoti turli xil janrlarni o`z ichiga oladi. Lirik va epos o`tmish mumtoz adabiyotimizning asosiy paydevoridir. G`azal, muxammas, musaddas, noma, ruboiy, doston va boshqa keng tarqalgan adabiy janrlardir. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi xilma-xil adabiy tur va janrlarning shakllanish va rivojlanish ildizlari hamdir.

Mumtoz adabiyot- milliy va jahon badiiy madaniyati xazinasini tashkil etgan, ko`pchilik tomonidan tan olingan mashhur asarlar silsilasi hisoblanadi. Mumtoz adabiyot haqida so`z borar ekan bizning zaminimizdan yetishib chiqqan allomalarimizni ta`kidlab o`tmaslikning imkoni yo`q. Bu ajdodlarimizning orasidan eng birinchi navbatda Alisher Navoiy bobomizni eslamasak bo`lmaydi. Mutafakkir bobomiz Sharofiddin Ali Yazdiy nazarlariga tushgan, mavlono Lutfiy yosh shoirning iste`dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e`tiborini qozongan, Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta`lim olgan. Shuning o`zi ham Alisher Navoiy bobomiz adabiyotga qanchalik qiziqishlarini yorqin darajada isbotlab turibdi. Alisher Navoiy o`zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutaffakiri va davlat arbobi.

G`arbda chig`atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi. „Nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug`lanadi. Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singigan bo`lsada, maxsus „Lison ut-tayr“ dostoni(1499)da, „Nasoyim ul-muhabbat“(1495-96)da, „Tarixi anbiyo va hukamo“(1485-88), „Arbain“, „Munojot“ singari asarlarida aks etgan. Albatta Navoiy haqida yozishga kelganda soatlab gapirishimiz mumkin, lekin adabiyotimizda yorqin iz qoldirganlardan yana biri deb Ahmad Yassaviyni ta`kidlashimiz kerak. Ahmad Yassaviy ham mumtoz va tasavvufiy adabiyotimizning mashhur namoyandalaridan biri. Islom dini aqidalari va o`z asoslagan g`oyalari she`riy tarzda bayon etish asosida keng omma orasiga kirib boradi. Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy asoslari to`g`ridan-to`g`ri „Qur`on“ g`oyalari va payg`ambar Muhammad Alayhissalom hadislari negizida shakllanadi. Bu ismlarni uzoq davom ettirib yozishimiz mumkin lekin ularning barini ta`riflashga tilimiz o`zlik qiladi xolos. O`zbek mumtoz adabiyotimiz haqida hozirgacha bir necha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Biz yoshlar esa ularni o`qib o`rganishdan hech qachon hafsalamiz pir bo`lmaydi. Bundan keyingi e`tiborni jadidchilik masalalariga bag`ishlashni o`z oldimga maqsad qilib qo`ydim. Jadidchilik haqida so`z borganda beixtiyor hammaning hayoliga Sovet davri manzaralari gavdalanishi tabiiy hol. Jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma`rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab Qrimda vujudga kelib, XIX asrning 90-yillaridan O`rta Osiyoga tarqaldi. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish va xalqni ongini shu orqali yuksaltirish, dunyoviy ilmlarni o`rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko`pincha o`zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O`sha davrning ilg`or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolyatganligini his etib, jamiyatni isloh



qilish zaruriyatini tushunib yetgan edilar. Millat istiqbolini o'yllovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari - hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy, bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qilganlar va shu yo'lda kurashganlar. Jadidchilik haqida so'z borar ekan bu yo'lda fido bo'lgan yurtdoshlarimizni eslab o'tishimiz darkor.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Fayzulla Xo'jayev, Hamza, Cho'lpon turardi. Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati tarqalish joyi va yo'nalishiga ko'ra uchga bo'linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchiligi. Jadidchilik harakatining so'nggi yillari faol siyosiy kurashlar bilan ajralib turmaydi. Bu davrda Sovet rejimi turli siyosiy ishlar („O'n sakkizlar guruhi"), („Inog'omovchilik"), („Qosimovchilik") tuzib, milliy ziyolilarni ommaviy ravishda qatag'on qilishga kirishadi. 1929-yil noyabrda Munavvarqori boshchiligidagi 38 kishining qamoqqa olinishi (keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetgan) bilan jadidchilik harakatiga kuchli zarba beriladi.

Bu harakat hamda firqa a'zolari o'z faoliyati va dasturiga ko'ra, sho'ro adabiyotlarida aytilganidek, „bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari" emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o'ylab ish ko'rgan demokratik jarayonning namoyandalari edi. Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgach, jadidlarning bir qismi faol siyosiy hayotdan chetlashib, faqat badiiy ijod bilan shug'ullangan. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablar tarmog'ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish edi.

Keyinchalik jadidchilik harakatlarining barcha taniqli namoyandalari (Sadriiddin Ayniydan tashqari) 30-yillarda sovet mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg'in natijasida halok bo'ladi. Jadidchilik harakatiga sovet davrida „millatchilik", „panturkizm", „panislanizm" tamg'alari bosib qoralanadi va jadid adabiyotini o'qish ta'qiqlanadi. Sovet davri milliy mustaqillikka erishmoqchi bo'lgan yurt posbonlarini shu tariqa yo'q qildi, zero, ular ya'ni bizning jadidlarimiz yashashlari kerak bo'lgan, yurtni ma'rifatga chaqiradigan kuch va qudrat edilar. Mana shu kuch juda yosh bo'lishlariga qaramay qo'rquvni qarshi olganliklarida va oxirgi nafasda ham o'limga tik qaraganliklarida namoyon bo'ladi.

#### REFERENCES

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent,2000-yil
2. Ayniy. „Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" Moskva,1926
3. Risqulov Toshkent, Revolyusiya i korennoye naseleniye, Toshkent,1926



AMIR OLIMXON DAVRIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY VA  
SIYOSIY AHVOL TARIXI VA TARIXNAVISLIGI

Rahmonov Oybek Ravshan o'g'li

Buxoro davlat universiteti

Tarix va yuridik fakulteti.

70220303 Tarixshunoslik manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari  
(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10051657>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Amir Olimxon davrida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol tarixi va tarixnavisligi haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol, Amir Olimxon, Buxoro amirligi.

HISTORY AND HISTORIOGRAPHY OF THE SOCIO-ECONOMIC AND  
POLITICAL SITUATION IN THE BUKHARA EMIRATE DURING THE TIME OF  
AMIR OLIM KHAN

**Abstract.** This article talks about the history and historiography of the socio-economic and political situation in the Emirate of Bukhara during the time of Amir Olim Khan. Reasonable opinions and comments are used throughout the article.

**Key words:** socio-economic and political situation, Amir Olimkhan, Bukhara Emirate.

ИСТОРИЯ И ИСТОРИОГРАФИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И  
ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ВО ВРЕМЕНА  
АМИРА ОЛИМ-ХАНА

**Аннотация.** В данной статье говорится об истории и историографии социально-экономической и политической ситуации в Бухарском эмирате во времена Амира Олим-хана. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и комментарии.

**Ключевые слова:** социально-экономическая и политическая ситуация, Амир Олимхан, Бухарский эмират.

Said Mir Muhammad Olimxon — Buxoro amirligini 1910 — 1920-yillarda boshqargan so'ngi o'zbek mangit hukmdor. U 1880-yilning 3-yanvar kuni Buxoroda tug'ilgan.

Said Muhammad Olim Turkiylarning Mang'it ulusi O'zbeklari oilasida tug'ilgan. Said Olim o'n uch yoshdaligida otasi Abdulahad tomonidan uch yilga davlatni boshqarish va harbiy ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun Sankt-Peterburgga yuboriladi. 1896-yilda u Rossiyadan Buxoro Shahzodasi sifatida Buxoroga qaytib keladi.

Ikki yildan so'ng u Nasaf xokimi etib tayinlanadi va ushbu lavozimida o'n ikki yil faoliyat yuritadi. Keyingi ikki yilda u Karminning shimoliy provinsiyasini boshqaradi. 1910-yilda otasi Abdulahad Xon vafot etadi. O'sha yili Rossiya Imperiyasi Imperatori Nikolay II tomonidan Oliy martabaga ko'tariladi. 1911-yilda Said Olimxonga Hazrati Oliylari Imperator Svistasida general-mayor unvoni beriladi.

Taxtga 1910-yilda o'tirdi. Boshqaruvining boshida u sovg'alar olmasligini, boshqa vazir va boshliqlarga pora olishni man etishini va soliqchilar va boshliqlarni xalqdan olgan soliqni o'z manfaatlarida qo'llamaslikni amr etdi. Biroq vaqt o'tib vaziyat o'zgarib ketdi, ushbu intrigalar

oqibatida yangi qonunlar chiqarmoqchi bo'lganlar Moskva va Qozonga yuborildi. Said Olimxon esa boshqaruvini an'anaviy tarzda davom ettirdi.

Buxoro amirligi Rossiya Imperiyasiga qaram hisoblansada Said Olimxon o'z davlatida Amir maqomiga ega edi. Said Olimxinning pullariga Sankt-Peterburgda Masjid va Buxoro Amiri Uyi qurildi. 1915-yilning 30-dekabr kuni general-leytenant maqomiga ega bo'ldi va Ter Kazaklari qo'shinida general-adyutant maqomigacha ko'tarildi.

Amir Said Olim To'ra 13 yoshida otasi amir Abdulahadxon buyrug'i bilan harbiy ta'lim olish uchun Peterburgga borib, harbiy muhandislik mutaxassisligi bo'yicha bilim oladi. Said Olim To'ra Nikolaev kadet korpusida imperator oliy hazratlarining faxriy qorovullari vazifasini bajaradigan „pajlar“ bo'limida o'qishni boshlaydi.

Uch yil o'qigach, 1897-yilda diplom olib otasi yoniga Karmanaga qaytadi va o'z otasidan iqtisodiy, siyosiy, savdo, davlat boshqaruvi, ichki ta'lim masalalarini o'rganadi. SHu o'rinda Yosh buxoroliklar partiyasining asoschilaridan biri Fitratning yozishicha Abdulahad o'g'lining tahsilni tugatishi munosabati bilan Peterburgga borib, katta ziyofat va in'omlar berib, Amir Said Olimxonni o'zining valiahdi deb e'lon qilgan ekan.

Amir Said Olimxon Qarshida 12 yil hukmronlik qilgach, Amir Abdulahadxonning sog'ligi yomonlashgach, Karmanaga hokim etib tayinlanadi. 1910-yil 22-dekabr kuni Amir Abdulahadxon vafot etdi. Bu vaqtda maxsus topshiriq bilan Toshkentga yuborilgan Amir Olimxon esa zudlik bilan Buxoroga qaytdi va 30-dekabr kuni amirlik taxtiga o'tiradi. Amir Said Olimxon Buxoro taxtini egallagach ham qator islohotlarga qo'l urdi.

Xususan, bu haqida Amir Said Olimxonning o'zi shunday deydi: „Taxtga o'tirganimdan so'ng bu banda dargohi oliyda mamlakatimning bir yillik xiroj to'lashdan ozod qilish farmoyishini berdim. Buxoro minorasining past tomonida bozorning ichki tomonida o'z nomimdan Dorul-ulum — Bilim uyi bo'lgan bir madrasa qurdirdim; har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim-kechagi xam o'z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin etdim; ularning yemak-ichmak, maosh va kiyim-kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkaztirardim. Bozor va yul obodligiga ko'p harakat kildim, uch yil ichida Buxoro mamlakati ancha obod bo'ldi, unga zeb-ziynat va tartib-intizom o'rnatdim“.

Amir Olimxon Yevropa va Osiyoning rivojlangan davlatlaridan mamlakat hududiga kirib kelayotgan ta'lim tizimiga oid o'zgarishlarga ijobiy munosabatda bo'lib, dunyoviy fanlarni o'qitilishiga qarshilik qilmagan. SHu o'rinda turkiyalik tarixchi olim Nurettin Hatinog'lu Olimxonning dunyoqarashi va shaxsi haqida sotqin, mustabid, yangilikka qarshi, sivilizatsiya dushmani, layoqatsiz va xudbin shaxs degan fikr jamiyatda hukm suradi. Biroq Olimxon haqidagi bu fikrlar siyosiy maqsadlarni ko'zlab yuritilgan siyosat natijasidir deydi.

Tarixiy faktlarga ko'ra:

Uning bakovuli Safar bakovul bo'lgan.

Amir Olimxonga tegishli bo'lgan va sobiq amirlik hududida bo'lgan ayrim qarorgoh va tarixiy obektlar saqlanib qolgan.

Uning uchun qarddon joylardan biri Karmana (hozirgi Navoiy viloyati, Karmana tumani) bo'lgan.

Said Olimxon ham otasi kabi qator davlatlar, jumladan, Rossiya imperiyasi, Britaniya imperiyasi, Afg'oniston amirligi, Eron davlati, Usmonlilar imperiyasi bilan yaxshi aloqada

bo'lgan. Qo'shni Xorazm davlati (Xiva xonligi), shuningdek, Buxoro amirligining janubi-g'arbidagi turkman qabilalari bilan munosabatlar sovuq edi.

Otasi Abdulahad hukmronligi davridan boshlab amirlikda jadidlar harakati vujudga kelib, ular erkin ta'lim, demokratik islohotlar, maorif, adabiyot, xususan, she'riyat va publitsistikani rivojlantirish tarafdorlari edi. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo mulklari hududiga qrim-tatar pedagogi Ismoil Gasprinskiy tashrif buyurgan [1]. U 1893- va 1907-yillarda Buxoro amiri Said Abdulahadxon va mahalliy ziyolilar vakillari bilan uchrashdi.

Amirlikda jadidchilar tomonidan bir qancha yangi usuldagi dunyoviy maktablar ochilib, ularda aholining turli qatlamlari farzandlariga dunyoviy ilmlar va fanlardan bepul o'qitilgan. Ijtimoiy-siyosiy gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi, jadidlar o'zlarining alohida risola va kitoblarini nashr eta boshladilar. Bu davriy nashrlarda ular amir va uning safdoshlarini masxara qiluvchi maqolalar, satirik she'rlar ham chop etganlar.

1917-yildan keyin bularning barchasi Said Olimxon atrofida tomonidan amirlik siyosatiga qarshi harakat sifatida qabul qilindi; jadidchilarning bir qismi hibsga olinib, Buxoro zindoniga qamalgan, ba'zilar shariat bo'yicha turli jazolarga, jumladan, qamchilashga hukm qilingan[2]. Sadridin Ayniy ham shunday jazoga mahkum qilingan. Jadidlar ommaviy quvg'inga uchrashgan, ularning ko'pchiligi amirlikni tark etishga qaror qilib, asosan Samarqand va Toshkentda qo'nim topgan. Bu ikki shahar Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasi tarkibiga kirgan va ularda amirlik qonunlari amal qilmasdi.

U yerda jadidlar o'zlarining gazeta-jurnallari va boshqa adabiyotlarini nashr eta boshladilar, ular yashirincha Buxoroga olib ketildi. Shunga qaramay, amirga yaqin bo'lganlarning bir qismi hamon jadidlarni qo'llab-quvvatlardi. Biroq Said Olimxonga uning dunyoviy ishonchli kishilari emas, balki o'ta radikal islomga amal qilgan islomiy (ma'naviy) ishonchli va maslahatchilar katta ta'sir ko'rsatgan. Amirlikda shariat qonunlari amalda bo'lgan va Buxoro musulmon dunyosini „islomning mustahkam qal'asi“ sifatida butun dunyoga tanilgan edi.

1917-yil bahorigacha amir qurshovida bo'lgan taniqli shaxslar orasida Rossiya podshosi armiyasining birinchi o'zbek generallaridan biri Mir Haydar Mirbadalev ham bor edi.

1913-yil 22-fevralda Said Olimxon Xiva xoni Asfandiyorxon bilan birgalikda Sankt-Peterburgdagi birinchi sobor masjidining ochilishida qatnashgan [3].

1917-yil Rossiya imperiyasida inqilob boshlanganidan va Buxorodagi ko'rinishlardan so'ng amir demokratik islohotlar tarafdorlariga (qarang: Yosh buxoroliklar) qatag'onlar bilan hujum qildi. Qizil askar Buxoroga bostirib kirganida u qushbegi, mamlakat bosh vaziri Nizomiddin Urganjiy kabi bir guruh amaldorlarni U.Frunze huzuriga elchi qilib jo'natadi. Amir Said Olimxon iloji boricha tarixiy obidalarni va muqaddas joylarni saqlab qolish, katta vayronagarchiliklarni kamaytirish maqsadida Buxoroni tashlab chiqishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng Buxoro amirligining sharqiy tomoniga, so'ngra Afg'onistonga qochib, o'sha yerda boshpana topdi.

Surgunda qorako'l savdosi bilan tirikchilik qilgan; ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u bosmachilarni qo'llab-quvvatlagan. Keksaligida deyarli ko'zlari ko'r bo'lib qolgan.

## REFERENCES

1. I.Qodirov, F.Shirinova. So'nggi sulola tarixi. Toshkent Muharrir 2009 — 69 bet. ISBN 978-9943-354-44-9.

2. Rustambek Shamsutdinov. Vatan tarixi. 3-kitob. Toshkent: Sharq nashriyoti 2016 — 179 bet. ISBN 978-9943-26-566-0.
3. "Sankt-Peterburgskie vedomosti", 23 fevralya (8 marta) 1913, № 44, 3-bet

## THE EFFECT OF THE HEAT SOURCE ON THE AMBIENT DENSITY IN THE PROCESSES OF NON-LINEAR HEAT PROPAGATION IN MULTIDIMENSIONAL FIELDS

J.M.Toshtemirov

University of Science and Technologies (Tashkent, Uzbekistan)

[jaloliddintoshtemirov0@gmail.com](mailto:jaloliddintoshtemirov0@gmail.com)

M.A.Asadullayeva

University of Science and Technologies (Tashkent, Uzbekistan)

[lyudaasadullayeva01@gmail.com](mailto:lyudaasadullayeva01@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10052972>

**Abstract.** *In nonlinear heat propagation processes in the article in multidimensional fields devoted to the study of the effect of the heat source on the density of the environment.*

*In the course of work, a self-similar solution was built to solve the linear heat diffusion equation according to the characteristics of the environment density and heat source, reaction-diffusion processes were observed, and theorems were proved. The following results were obtained from this work: a preliminary estimate for the double linear heat diffusion equation, the localization process was observed, the finite velocity was approximated, new effects were observed, and an algorithm based on the obtained self-similarity was constructed. solution, the program code was created in the programming language and the process was modeled. All results were compared.*

**Keywords:** *Reaction-diffusion, parabolic equation, asymptotic, finite speed, approximation, conductivity of convective migration, self-similar, Multidimensional areas, system, numerical solution.*

### ВЛИЯНИЕ ИСТОЧНИКА ТЕПЛА НА ПЛОТНОСТЬ СРЕДЫ В ПРОЦЕССАХ НЕЛИНЕЙНОГО РАСПРОСТРАНЕНИЯ ТЕПЛА В МНОГОМЕРНЫХ ПОЛЯХ

**Аннотация.** *В нелинейных процессах распространения тепла статья в многомерных областях посвящена изучению влияния источника тепла на плотность среды.*

*В ходе работы было построено автомодельное решение для решения линейного уравнения диффузии тепла по характеристикам плотности среды и источника тепла, наблюдались реакционно-диффузионные процессы и доказаны теоремы. В результате работы были получены следующие результаты: проведена предварительная оценка для двойного линейного уравнения теплодиффузии, обнаружен процесс локализации, аппроксимирована конечная скорость, обнаружены новые эффекты и построен алгоритм на основе полученного самоподобия. Для решения задачи был создан программный код на языке программирования и смоделирован процесс. Все результаты сравнивались.*

**Ключевые слова:** *Реакция-диффузия, параболическое уравнение, асимптотика, конечная скорость, аппроксимация, проводимость конвективной миграции, автомодельность, Многомерные области, система, численное решение.*

### Introduction

At present, one of the most frequent processes of quenching is the process of heat dissipation, when the main phenomenon in this process depends on what area the heat is distributed. The philosophy of Life shows that the spread of heat in nature can be either in a multidimensional area or in a one-dimensional area. Of course, in this process, we must draw up the evolutionary equation of the process, taking into account the density of the environment, the positive or negative of the heat source, the heat capacity, the dependence of the environment on the coefficient of heat transfer. As we know, the processes of heat dissipation in multidimensional areas are in a non-linear state. In such a process, the main attention is paid to heat capacity. For

the process of heat dissipation without any scratches, the initial temperature (Cauchy condition) must be given. For non-linear heat dissipation, quasi-linear diffusion models, the spatial localization property and the thermal dissipation effect with limited speed have been studied by many scientists over the years. It was also used in nonlinear processes encountered in multidimensional areas of the studied mathematical models and found new effects not characteristic of linear equations. The scientific research devoted to nonlinear systems for cases of varying density, conductivity capacity of the environment, conductivity of convective migration, which leads to parabolic equations with distortion, has begun to be viewed as the main problems of the present day. In order to impress the process of heat dissipation without lines in multidimensional areas, we see the following equation in  $Q = \{(t, x): t \in R_+, x \in R\}$  area:

$$Au \equiv -\rho_1(|x|)u_t + \nabla \left( \rho_2(|x|)u^{m-1} |\nabla u^k|^{p-2} \nabla u^l \right) + v \nabla u + \varepsilon \gamma u^\beta \quad (1)$$

initial (Cauchy condition)

$$u(0, x) = u_0(x) \geq 0, \quad (2)$$

let condition given.

Here  $u(x, t)$ -the temperature of the heat,  $v(t) \in C(Q)$ -the speed of the environment,  $\rho_1(|x|) = |x|^{-n}$ ,  $\rho_2(|x|) = |x|^q$ -the density of the environment, which is a continuous function  $\beta$ -parameter,  $\gamma u^\beta$ -represents the positive ( $\varepsilon = +1$ ) or negative ( $\varepsilon = -1$ ) power of the source of heat.

(1) the equation represents a number of physical processes: the reaction diffusion process in a non-linear environment, the heat dissipation process in a non-linear environment, the filtration of liquid and gas in a non-linear environment, they represent the existence of the law of polytropy and other non-linear displacements.

(1) the Cauchy issue and boundary value issues for the equation were observed by many authors in one-dimensional and multi-dimensional cases [1-5].

(1) in the processes represented by the equation, the phenomenon of finite distribution of temperature occurs [4]. In the presence of an absorption coefficient, the phenomenon of the "rear" front can occur, that is, the Left front can stop after a certain time and move along the medium.

### Solution method

There are many ways to find a solution to the above (1) equation: in functional analysis, it is possible to solve with the help of spaces, in mathematical physics and differential equations, to build differential operators, and in practical mathematics, mainly by methods of constructing an self-similar solution.

(1) we write the equation for N=2 case as follows:

$$\begin{cases} |x|^{-n} \frac{\partial u_1}{\partial t} = \nabla \left( |x|^q u_1^{m_1-1} |\nabla u_1^k|^{p-2} \nabla u_1^l \right) + v(t) \nabla u_1 + \gamma_1 u_1^{\beta_1} \\ |x|^{-n} \frac{\partial u_2}{\partial t} = \nabla \left( |x|^q u_2^{m_2-1} |\nabla u_2^k|^{p-2} \nabla u_2^l \right) + v(t) \nabla u_2 + \gamma_2 u_2^{\beta_2} \end{cases} \quad (3)$$

here,  $\beta_i \neq -1$ ;  $\beta_i \cdot \beta_{3-i} \neq 1$ ,  $\gamma_i u_i^\beta$  - the source of heat,

$u_i(t, |x|)|_{t=0} = u_{i0}(|x|) \geq 0$ ,  $x \in R^N$ ,  $i = 1, 2$  - the balance of conditions.

(3) system of equations to be present in solution in  $m = k, n = 0, l = 1, 0 < \beta_i < 1$

$$\text{position[3]} \beta_i = \frac{p - [m_i \cdot (p-1) - 1]}{p-1}, 1 < m_i < 2, p > m_i \cdot (p-1) - 1$$

(3) in the system of equations, we perform the following substitution



$$|x| = r = \left( \sum_{i=1}^N x_i^2 \right)^{1/2};$$

here is the size of the space. This replacement is called a radial-symmetrical replacement. From the above substitution (3) the system of equations changes as follows:

$$\begin{cases} r^{-n} \frac{\partial u}{\partial t} = r^{1-N} \frac{\partial}{\partial r} \left( r^{q+N-1} u_1^{m_1-1} \left| \frac{\partial u_1^k}{\partial r} \right|^{p-2} \frac{\partial u_1^l}{\partial r} \right) + r^{1-N} v(t) \frac{\partial}{\partial r} \left( r^{N-1} \frac{\partial u_1}{\partial r} \right) + \gamma_1 u_2^{\beta_1} \\ r^{-n} \frac{\partial u}{\partial t} = r^{1-N} \frac{\partial}{\partial r} \left( r^{q+N-1} u_2^{m_2-1} \left| \frac{\partial u_2^k}{\partial r} \right|^{p-2} \frac{\partial u_2^l}{\partial r} \right) + r^{1-N} v(t) \frac{\partial}{\partial r} \left( r^{N-1} \frac{\partial u_2}{\partial r} \right) + \gamma_2 u_1^{\beta_2} \end{cases} \quad (4)$$

(4) in order to solve the system of equations, we initially look for the solution as follows:

$$u_i(t, r) = v^{\alpha_i} \cdot w_i(\xi); \quad \xi = r \cdot v^{-\mu}; \quad i = 1, 2 \quad (5)$$

here  $\alpha_i$  - the number being searched,  $w_i$  - an unknown function,  $\xi$  - parameter,  $\mu = const$ .

(5) provisions (1) we apply to the system of equations:

$$r^{-n} \frac{\partial u_i}{\partial t} = \xi^{-n} v^{-n\mu} \left[ \alpha_i v^{\alpha_i-1} v' w_i - \mu v^{\alpha_i-1} v' \xi w_{i\xi} \right] = \xi^{-n} v^{\alpha_i-1-n\mu} v' \left[ \alpha_i w_i - \eta \xi w_{i\xi} \right]; \quad i = 1, 2$$

$$r^{-n} \frac{\partial}{\partial r} \left( r^{q+N-1} u_i^{m_i-1} \left| \frac{\partial u_i^k}{\partial r} \right|^{p-2} \frac{\partial u_i^l}{\partial r} \right) = \xi^{1-N} v^{\mu(p-q)+\alpha_i(k(p-2)+l+m_i-1)} \frac{d}{d\xi} \left( \xi^{q+N-1} w_i^{m_i-1} \left| \frac{dw_i^k}{d\xi} \right|^{p-2} \frac{dw_i^l}{d\xi} \right)$$

$$r^{-n} v \frac{\partial}{\partial r} \left( r^{N-1} \frac{\partial u_i}{\partial r} \right) = \xi^{1-N} v^{1+\alpha_i-2\mu} \frac{d}{d\xi} \left( \xi^{N-1} \frac{dw_i}{d\xi} \right)$$

$$\gamma_i u_{3-i}^{\beta_i} = \gamma_i v^{\alpha_{3-i}\beta_i} w_{3-i}^{\beta_i}$$

$v$  - we set the following conditions for the function:

$$v' v^{\alpha_i-1-n\mu} = v^{\alpha_{3-i}\beta_i}$$

$$v^{-n\mu+\alpha_i-\alpha_{3-i}\beta_i-1} dv = dt$$

$$v(t) = A_0 (T_0 + t)^{\frac{1}{\lambda_0}}$$

it is here  $\lambda_0 = \alpha_i - \alpha_{3-i}\beta_i - n\mu \neq 0$ ;  $A_0 = (\lambda_0)^{\frac{1}{\lambda_0}}$ . If:  $\lambda_0 = 0$ ,  $v(t) = c_1 t$ ;  $c_1 = const$

As a result, we will have a new equality

$$\mu(q-p) + \alpha_i(m_i + k(p-2) + l - 1) = 1 + \alpha_i - 2\mu = \alpha_{3-i}\beta_i \quad (6)$$

(6) from the equation, the following system of linear equations is formed:

$$\begin{cases} \alpha_1(m_1 + k(p-2) + l - 2) + \mu(q-p+2) = 1 \\ -\alpha_1 + \alpha_2\beta_1 + 2\mu = 1 \\ \alpha_1\beta_2 - \alpha_2 + 2\mu = 1 \end{cases} \quad (7)$$

(7) we use the Kramer method to solve a system of equations:

$$\Delta = \begin{vmatrix} m_1 + k(p-2) + l - 2 & 0 & q - p + 1 \\ -1 & \beta_1 & 1 \\ \beta_2 & -1 & 1 \end{vmatrix} = 2\beta_1(m_1 + k(p-2) + l - 2) + (q - p + 2) - \beta_1 \cdot \beta_2 \cdot (q - p + 1) + 2(m_1 + k(p-2) + l - 2) = 2(\beta_1 - 1) \cdot (m_1 + k(p-2) + l - 2) - (q - p + 2) \cdot (1 - \beta_1 \cdot \beta_2)$$

$$\frac{d}{d\varphi} \left( f_i^{m_i-1} \left| \frac{df_i^k}{d\varphi} \right|^{p-2} \frac{df_i^l}{d\varphi} \right) + \left( \frac{N}{s} \varphi \right)^{-\frac{2s}{N}-2} \frac{d^2 f_i}{d\varphi^2} - 2 \left( \frac{N}{s} + 1 \right) \left( \frac{N}{s} \varphi \right)^{-\frac{2s}{N}-3} \frac{df_i}{d\varphi} + \frac{s-1}{\varphi} f_i^{m_i-1} \left| \frac{df_i^k}{d\varphi} \right|^{p-2} \frac{df_i^l}{d\varphi} +$$

$$+ \left[ \mu \left( \frac{N}{s} \varphi \right)^{-\frac{ns}{N}-1} + \left( \frac{N(s-1)}{s} - 2 \right) \left( \frac{N}{s} \varphi \right)^{-\frac{2s}{N}-1} + 2 \left( \frac{N}{s} + 1 \right) \left( \frac{N}{s} \varphi \right)^{-\frac{2s}{N}-3} \right] \frac{df_i}{d\varphi} - \alpha_i \left( \frac{N}{s} \varphi \right)^{-\frac{ns}{N}} f_i + \gamma_i f_i^{\beta_i} = 0.$$

$$a = \text{const} \geq 0$$

$$b_i = \frac{1}{\gamma} \cdot \left( \frac{1}{s} \right)^\gamma \cdot \left( \frac{\mu}{l \cdot k^{p-2}} \right)^{\frac{1}{p-1}} \cdot \left( \frac{m_i + k \cdot (p-2) + l - 2}{p-1} \right)$$

(1) - the following theorem and lemma were obtained from the solution of the problem using the linear separation algorithm.

Lemma 1. Let  $u_0 \in C_0(R^1)$ . Then there are constant  $a_2 > 0$ ,  $T > \exp(1 + S(\mu - 1))$

$$s > \frac{S(\mu - 1)}{2(1 - (1 + S(\mu - 1))/\ln T)} > 0$$

such that the function

$$u_+(t, \varphi) = \left[ (T + t) \ln(T + t) \right]^{-\frac{s}{s(\mu-1)+2}} f(\psi(\tau)\xi; a_1),$$

$$\text{where } \psi(\tau) = \left( 1 + \frac{s}{T} \right)^{\frac{1}{2}},$$

is the upper solution of problem (1)-(2).

Proof. It is sufficient to show that, under these constraints, function  $Q_+ = f(\xi\psi(\tau); a_2)$  is the upper solution of problem (13)-(14) (i.e.,  $D(Q_+) \leq 0$ ) everywhere in

$$(\ln T, +\infty) \times \left\{ \left| \xi \right| < \frac{a_2}{\psi(\tau)} \right\}.$$

Substituting function 1 in (13) we get.

$$DQ_+ \equiv -\frac{A_0}{\tau} d^{\frac{1}{\mu-1}} \left\{ \frac{2}{\mu-1} \left( \frac{a_2^2}{d} - 1 \right) F_1(\tau) - F_2(\tau) + d^{\frac{s(\mu-1)+2}{s(\mu-1)}} A_0^{\frac{s(\mu-1)+2}{s}} \right\}, \quad (15)$$

where

$$d = \left( \frac{a_2^2}{1 + \frac{s}{\tau}} - \frac{\xi^2}{\tau} \right) \in (0, a_2^2), \quad \tau > \ln T,$$

$$F_1(\tau) = \frac{s}{1 + \frac{s}{\tau}} \frac{1}{4\mu s(s(\mu-1) - 2)} - \frac{1}{2} \frac{\frac{s}{\tau}}{1 + \frac{s}{\tau}} - \frac{s(\mu-1)}{2s(\mu-1) + 4},$$

$$F_2(\tau) = \frac{s}{1 + \frac{s}{\tau}} \frac{s}{s(\mu-1) + 2} + \frac{s}{s(\mu-1) + 2}.$$

To fulfill inequality  $DQ_+ \leq 0$  in (10), it is necessary to fulfill condition  $F_1(\tau) > 0$  for all  $\tau > \ln T$ , which takes place under the imposed conditions on  $T$  and  $s$ , specified in the conditions of the lemma. Then, due to the uniform boundedness of  $\tau$  functions  $F_1(\tau)$  and  $F_2(\tau)$ , for all sufficiently large  $a_2^2$ , the inequality will be satisfied

$$\left[ F_2(\tau) A_0^{-\frac{s(\mu-1)+2}{s}} \right]^{\frac{s(\mu-1)}{s(\mu-1)+2}} \leq a_2^2 \left[ 1 + \frac{d F_2(\tau)}{2 F_1(\tau)} \right]^{-1},$$

which provides the implementation of inequality  $DQ_+ \leq 0$ . In turn, for large  $a_2$ , the estimate is also valid

$$Q_0(\xi) < Q_+(\ln T; \xi) = f(\psi(\ln T)\xi; a_2),$$

and hence  $f(\psi(\ln T)\xi; a_2)$  is the upper solution of problem (13)-(14) (Lemma 1). Respectively  $w_+(t, \varphi)$  is the upper solution of problem (4)-(5), and  $u_+(t, x)$  is the problem (1)-(2). The lemma is proved.

Theorem. For any function  $u_0 \in C_0(R^1)$ , there are constants  $a_- > 0$ ,  $a_+ > 0$ , and  $T > 1$  such that the solution of problem (1)-(2) in  $(T, +\infty) \times R^1$  satisfies the inequality

$$\left[ (T+t) \ln(T+t) \right]^{-\frac{s}{s(\mu-1)+2}} f(\xi; a_-) \leq u(t, x) \leq \left[ (T+t) \ln(T+t) \right]^{-\frac{s}{s(\mu-1)+2}} f(\xi; a_+)$$

Proof. The validity of the theorem follows directly from Lemmas 1, where the existence of lower and upper solutions is proved and the corresponding estimates are obtained. In this case, the constant  $T$  is chosen taking into account the condition of Lemma 1 and requirement  $u(T, 0) > 0$ , the constants  $a_-$  and  $a_+$ , for example, as follows:

$$a_- = a_1, \quad a_+ = a_2 \sqrt{1 + \frac{s}{\ln T}}.$$

Then, under the conditions of the theorem, we obtain

$$f(\xi; a_-) \leq Q(\tau, \xi) \leq f(\xi; a_+)$$

everywhere in  $(\ln T; \infty) \times R_+^1$ . Then the statement of the theorem follows taking into account (13)-(14) and (4)-(5). The theorem is proved.

#### Results of numerical experiments and visualization

When solving the problem numerically, the equation is approximated on a grid using an implicit scheme of variable directions (for the multidimensional case) in combination with the balance method. Iterative processes were built on the basis of the Picard, Newton method as well as special method.

A computational algorithm has been developed. When developing software that illustrates the simulation process of solution behavior over time (visualization), the Visual Studio 2019 C# environment was used with the inclusion of the Open GL graphics library.

The results of computational experiments show that all iterative methods are suitable for the constructed scheme. To achieve the same accuracy, the Newton method requires fewer iterations than the Picard method. In some cases, the number of iterations is almost twice, and the maximum number of iterations is 3-4 times less than in other methods. Since power-law nonlinearity is present in the right-hand side of equation (1), naturally the special method gives better results than the Picard method.

As a test example, we used solutions of equation (1) obtained by the methods of reference equations and nonlinear splitting [2]. Figures 1-4 show the calculation results for various values of parameters  $p, n, m, k, l, \mu, \beta$  and time.




Fig.3.  $p=2.1, n=1.2, m=1, k=1, l=1$




Fig.4.  $p=2.3, n=1, m=1.2, k=1.3, l=1$

#### Conclusion

The results of computational experiments show that all of the listed iterative methods are effective for solving nonlinear problems and lead to nonlinear effects if we use self-similar solutions constructed by the nonlinear splitting method and the standard equation method as the initial approximation of the solution [4, 6].

As expected, in order to achieve an identical accuracy, the Newton method requires fewer iterations than the methods of Picard and a special method because of the successful choice of the initial approximation. Note that in each of the cases considered, the Newton method has the best convergence due to the choice of a good initial approximation.

In some cases, the total iteration amount is almost two times and the maximum iteration is almost 4 times less than other methods.

The results of numerical calculations show the effect of the finite velocity of disturbance propagation and the localization of the solution depends on the values of the numerical parameters.

All results of numerical experiments are presented in the form of visualized animation.

#### **Acknowledgements**

We are very grateful to experts for their appropriate and constructive suggestions to improve this template.

#### **REFERENCES**

1. Angar Jungel. Cross-Diffusion systems with entropy structure. arXiv: 1710.01623v1 [math.AP] 4 Oct 2017. Proceedings of EQUADIFF, (2017).
2. Aripov M., Sadullaeva Sh. Properties of solutions to reaction-diffusion equation with double nonlinearity with distributed parameters. Log SFU. Ser. Mat and Phys., 6: 2, 157–167 (2013).
3. Ж. М. Таштемиров, А. Т. Хайдаров Влияние источника тепла на плотность окружающей среды в нелинейных процессах тепловыделения в двухмерных областях (pp. 295-299) SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 4 I ISSUE 2 I 2023 \_ISSN: 2181-1601.
4. Aripov M., Abdullaeva Z. On the bottom of the exact solution of a nonlinear problem with absorption or a source. Bulletin of the TATU, No.4, 107–113 (2016).
5. Khaidarov A. T., Toshtemirov J. M. HEAT SOURCE DENSITY IN NON-LINEAR HEAT DISSIPATION PROCESSES //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 10.–С. 72-80.
6. Khaidarov A. T., Toshtemirov J. M. MODELING OF THE DEPENDENCE OF THE CONDUCTIVITY OF THE NON-ELECTRIC MEDIUM OF IRON METAL //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 88-89.
7. Mamatov A. U., Boboqandov M. M. To investigate the effect of nonlinear environmental speed on nonlinear heat dissipation process in multidimensional areas by the method of variable directions. Journal of HIGHER SCHOOL, ISSN 2409-1677, No.12,34-38(2019).
8. Rakhmonov Z. R., Urunbayev J. E. On a problem of cross-diffusion with nonlocal boundary conditions. J. Sib.Fed. Univ. - Math. Phys., 2019.
9. Mamatov A. U. Rikhsiboev D. R. Investigation of the ambient density and the state of thermal heating by the method of variable directions in the process of uneven heat distribution. Journal of HIGHER SCHOOL, ISSN 2409-1677, No. 12,39-41 (2019).
10. Mamatov A. U. Numerical simulation of the heat conduction process with double nonlinearity in the two-dimensional case in the presence of transfer and source (absorption). Scientific Journal of Samarkand University, ISSN: 2091-544, No. 1, 41-44 (2020).
11. M. Aripov and S. Sadullaeva 2015. An asymptotic analysis of a self-similar solution for the double nonlinear reaction-diffusion system. Nanosyst. Physics, Chem. Math.
12. Martinson L.K. Evolution of a heat pulse in a nonlinear medium with volumetric heat absorption. TVT, Vol. 21, No.4, 801–803 (1983).
13. Samarsky A.A., Elenin G.G., Zmitrenko N.V., Kurdyumov S.P. and Mikhailov A.P. Gorenje nonlinear environment in the form of complex structures. DAN USSR, 1977 Vol. 237, No.6, 1330–1333 (1977).

14. Martinson L.K., Pavlov K.B. On the spatial localization of thermal disturbances in the theory of nonlinear thermal conductivity. ZhVM and MF, Vol. 12, No.4, 1048–1053 (1972).
15. Khasanov, A. A. (2017). Methods and methods of forming economic education through interdisciplinary communication through information technology. Journal, (3), 38.
16. Sharipov, D., Abdukadirov, A., Khasanov, A., & Khafizov, O. (2020, November). Mathematical model for optimal siting of the industrial plants. In 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-3). IEEE.
17. Safarov I.II , Almuratov Sh.N2 , Teshayev M.Kh3. On the dynamic stress-strain state of isotropic rectangular plates on an elastic base under vibration loads. Indian Journal of Engineering, 127-133.
18. NK Esanov, SN Almuratov, US Jurayev. Sayoz o 'rnatilgan uch qatlamli sferik qobiqlarning erkin tebranishi. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali 2 (2), 51-56.
19. II Safarov, NR Kulmuratov, MR Ishmamatov, NB Axmedov, S Almuratov. ON THE DYNAMIC STRESSED-DEFORMED STATE OF ISOTROPIC RECTANGULAR PLATES ON AN ELASTIC BASE WITH VIBRATION LOADS. Theoretical & Applied Science, 362-367.
20. Mamatov A.U. Modeling the effect of the two-fold non-linear heat dissipation equation on biological population with ambient density, Scientific Journal of Samarkand University.



## TARASH MASHINALARIDAN OLINGAN TOLA XOSSA KO'RSATKICHLARINI QIYOSIY TAHLILI

Mirzaboyev Jamoliddin Bahriiddinovich

Namangan to'qimachilik sanoati instituti "To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi"  
kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10055519>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ip yigirish korxonalaridagi tarash mashinalaridagi tolalarning xossa ko'rsatkichlari o'rganildi, paxta tolasi aralashmasi tarkibidagi nuqsonlar, nepslar va kalta tola miqdorini ipning sifatiga ta'siri tadqiq etilgan. Kalta tolalar miqdorini ip ishlab chiqarishda toladan maxsulot chiqish miqdoriga ta'siri tadqiq etildi va paxta tola xomashyosini ishlab chiqarishga qabul qilishda kalta tola miqdorini eng kichik qiymatdagisini qabul qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

**Kalit so'zlar:** tarash, kalta tola, ip, chiqindi, chiziqli zichlik, tezlik, notekislik, pishiqlik, nepslar.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF FIBER PROPERTIES FROM COMBING MACHINES

**Abstract.** In this article is given the research results of properties of fibers carding machines of yarn spinning enterprises and the influence of defects, neps and short fibers in raw cotton-fiber mixture on the quality of yarn. The influence of the number of short fibers on the amount of fiber yield in yarn production has been studied and it has been found advisable to take the least amount of short fibers when accepting cotton fiber raw materials for production.

**Key words:** combing, short fiber, thread, waste, linear density, speed, unevenness, ripeness, neps.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СВОЙСТВ ВОЛОКОН ИЗ ЧЕСЕЧЕСНЫХ МАШИН

**Аннотация.** В данной статье изучены свойства волокон из чесальных машин хлопкопрядильных предприятий, изучено влияние пороков, неспов и коротких волокон в хлопково-волокнистой смеси на качество пряжи. Изучено влияние количества коротких волокон на количество выхода волокна при производстве пряжи и пришли к выводу, что при приеме хлопкового сырья на производство целесообразно принимать с наименьшим количеством коротких волокон.

**Ключевые слова:** чесание, короткое волокно, пряжа, отходы, линейная плотность, скорость, неравноота, прочность, несп.

**Kirish.** Yengil sanoat sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining real sektoridagi eng jozibador va istiqbolli sohalardan biri hisoblanadi. Bu haqida unga jalb etilgan investitsiyalar hajmi ham dalolat bermoqda. Shu jumladan ishlab turgan korxonalarni modernizatsiya qilish va yangi quvvatlarni barpo etish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirildi. Respublikada ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarining ko'p qismi jahonning yetakchi kompaniyalarida ishlab chiqarilgan to'qimachilik mashinasozligi uskunalari bilan jihozlangan qo'shma va xorijiy korxonalariga to'g'ri kelmoqda.

So'ngi 5 yillikda sohaga oid jami 24 ta qonun, qaror va farmonlar ishlab chiqildi. Ushbu raqamlarga e'tibor qaratsangiz, Respublikamiz iqtisodiyotida to'qimachilik sanoatini qay darajada dolzarb va muhim o'rinni egallab turganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Zero, shunday dolzarb vaziyatda sanoat sohasi rivojiga munosib hissa qo'sha olish har birimizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biri bo'lishi lozim.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 23 fevraldagi 93-sonli "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va undan foydalanish tartibi" to'g'risidagi

va 10 dekabrda 747-sonli “Paxta to’qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish chora tadbirlari” to’g’risidagi qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi “Toqimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo’shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag’batlantirish chora-tadbirlari” to’g’risidagi PF-53 sonli farmoni sohadagi jadal rivojlanishga poydevor bo’lib xizmat qiladi [1, 2, 3].

- ЙЎНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
31. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” ga bag‘ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
32. Казоқов Р. Т., Расулов А. Ф., Бўронов А. Б. СПОРТ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ГУРУҲЛАРИДА ЁШ ФУТБОЛЧИЛАРНИ ТАНЛОВ УСЛУБИЯТЛАРИНИ АСОСЛАШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 38-46.
33. Kazoqov R. T., Bo‘ronov A. B. SPORTDAGI DOLZARB YANGILIKLAR //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 47-56.
34. Kazoqov R. T., Pirnazarov S. A., Shamsiddinov S. X. STUDENTS LEARN TO ORGANIZE PROFESSIONAL PHYSICAL TRAINING AND CONTROL PHYSICAL DEVELOPMENT //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1195-1202.
35. Eshpo'latov S. S. METHODS AND PRINCIPLES OF IMPROVING TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS AND PHYSICAL TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1296-1302.
36. 36 Kazoqov R. T., Eshpo'latov S. S. YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS ARE THE PROCESSES OF ORGANIZING TRAINING SESSIONS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1303-1310.
37. Pirmatov O. Z., Kazakov R. T. ROLE AND PLACE OF SPORTS AND ACTIVE GAMES IN THE GENERAL STRUCTURE OF EDUCATIONAL AND PRODUCTION PRACTICE //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 125-131.
38. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 180-186.
39. 39.Gulomov N. S. O. 15-16 YOSHLI VOLEYBOLCHILARDA MUSOBAQA NATIJAVIYLIGINI TA’MINLASHDA TAFAKKURNI AHAMIYATI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 475-482
40. Gulomov N. S. O., Raximboyeva M. M. Q. VOLEYBOLCHILARNI GURUHLI TAKTIK HARAKATLARGA O‘RGATISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 703-712.
41. Kazoqov R., Akmuradov M. THE IMPORTANCE OF WORKING MEMORY IN MASTERING JUDO SPORTS TECHNIQUES IN ADOLESCENT ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 489-494.
42. Kazoqov, R., & Akmuradov, M. (2023). PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF JUDO. *Modern Science and Research*, 2(10), 481–488.
43. G‘aniyeva M. Y., Yo‘ldashaliyeva M. I. DEVELOPMENT OF THE TECHNIQUE INTRODUCTION OF THE BALL INTO THE GAME AT DIFFERENT POINTS WITH

- THE HELP OF SPECIAL EXERCISES //World Bulletin of Social Sciences. – 2023. – Т. 23. – С. 1-3.
44. Yo'ldoshaliyeva M. I., G'aniyeva M. Y. PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE PRIORITY QUALITIES OF TABLE TENNIS PLAYERS //British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2023. – Т. 16. – С. 81-84.
45. G'aniyeva M. YOSH STOL TENNISCHILARNING MUVOZANAT SAQLASH QOBILIYATLARINI O'RGANISH VA UNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI //Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 11.
46. Ёўлдошалиева М. И., Ганиева М. Ю. Важность использования подвижных игр при обучении технико-тактическим движениям юных игроков в настольный теннис //INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION. SCIENTIFIC JOURNAL.–ISSN.
47. Арзикулов Д. Н. СПОРТЧИЛАРНИ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТДАН ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАРИ //Fan-Sportga. – 2020. – №. 4. – С. 73-75.
48. Умаралиева Ф. Т., Рахматова Д. Н. Теннисга дастлабки ўргатиш босқичида тана мувозанатини сақлаш функциясини ўрни. – 2019.

## ҚИСҚА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИ ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК ТАЙЁРГАРЛИК ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Казоқов Р.Т.**

ЎзДЖТСУ., Ўқитувчи.

**Ибрагимов Ф.З.**

ЎзДЖТСУ., Ўқитувчи.

**Ғуломов Н.С.**

ЎзДЖТСУ., Ўқитувчи.

**Тошпўлатов Х.М.**

ЎзДЖТСУ., Ўқитувчи.

**Султонова Н.Ф.**

ЎзДЖТСУ., Ўқитувчи.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10063622>

**Аннотация.** Мазкур мақолада енгил атлетиканинг қисқа масофага югуриш турларида техник тайёргарлик такомиллаштириш чора-тадбирлари ва уни ривожлантириш масаласи кўриб чиқилади.

**Калим сўзлар:** спорт, енгил атлетика, югуриш, педагогика, таълим.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ НА КРАТКИЕ ДИСТАНЦИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются меры по совершенствованию технической подготовки в беге на короткие дистанции в легкой атлетике и вопросы ее развития.

**Ключевые слова:** спорт, легкая атлетика, бег, педагогика, образование.

## IMPROVEMENT OF TECHNICAL TRAINING OF SHORT-DISTANCE ATHLETES

**Abstract.** This article examines measures to improve technical training in short-distance running in athletics and the issue of its development.

**Key words:** sports, athletics, running, pedagogy, education.

**КИРИШ.** Жаҳон спорт амалиётида иқтидорли ҳамда истикболли спортчиларни тайёрлаш айниқса, уларни йиллик тайёргарлик машғулотларни такомиллаштиришни, спорт натижаларини ўсишга имкон берувчи методикани излаб топиш масалалари янги илмий назарий ёндошувнинг муҳим муаммоларидан саналмоқда. Қисқа масофага югурувчи спортчиларимизнинг спорт натижасини жаҳондаги қисқа масофага югурувчилар натижаси билан тенглаштираш жуда мураккабдир. Чунки, чет эллик спортчиларнинг натижасига эътибор қаратадиган бўлсак улар анча илгарилаб кетганлигини айтиб ўтиш мумкин.

Спортчиларнинг қисқа масофага югуриш бўйича тайёрлашда йиллик тайёргарликнинг тайёрлов даври, мусобақалашув даври, ҳамда ўтиш даври юкламаларнинг тақсимлашда уларнинг жисмоний ривожланганлиги, жисмоний тайёргарлиги, техник-тактик ҳолати, руҳий ва функционал тайёргарлик даражасини инобатга олган ҳолда тақсимланиши бўйича етакчи олимлар ўрганган ва илмий изланишлар олиб боришган. Лекин йилдан-йилга спорт натижаларини ўсиб бориши йиллик тайёргарлик машғулотларини талаб этиши ҳеч кимга сир эмас. Аммо, йиллик тайёргарлик

машғулотларида қўлланиладиган восита ва усулларининг умумий ҳажми бажарилиши интенсивлиги бўйича кўпчилик олимлар кам эътибор қаратганлар.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ.** К.Т.Шакиржанова, М.Олимов, И.Солиев ва бир қатор тадқиқотчиларимиз илмий ишларида кўпроқ ўқув машғулот гуруҳи, спорт такомиллашув босқичи тарбияланувчиларининг машғулот жараёнига эътибор қаратишган. Катта ёшдаги спортчиларни тайёрлаш бўйича тадқиқот ишлари олиб борилган бўлсада, айнан йиллик тайёргарлик юктамаларининг тақсимланишида техник тайёргарлик бўйича иш олиб борилмаган. Бу борада қисқа масофага югурувчиларни тайёрловчи мураббийлар билан олиб борилган суҳбатда кўпчилик мураббийларда йиллик машғулотларни тахминий режалаштириш ҳамда юктамалари ҳажмини билишади, лекин воситаларни қўлланилиши ва бажарилиши шиддати, оралиқ давомийлига, техник тайёргарлигига қанча ваът ажратилиши ҳали ҳам айрим мураббийлар эътибор қаранмаётганлигини келтириб ўтиш мумкин.

Бу эса йиллик машғулот юктамаларини тақсимлаш давомида умумий ва махсус жисмоний тайёргарлик билан бир қаторда техник ҳаракатлар ҳам умумий юктамаларни бажаришда спорт натижаларини ўсишига таъсир этмасдан қолмайди. Кўпчилик олимлар фикрига кўра асосий (енгил атлетика турларида) муаммолар машғулот усулларининг кетма-кетлиги ва машғулот юктамаларини бажаришдаги техник-тактик ҳаракатларга боғлиқлиги айтиб ўтилган.

Тақиқотнинг мақсади. Юқори малакали қисқа масофага югурувчиларнинг югуриш йўлагининг бурилиш қисмида югуриш техникасини такомиллаштириш. Тадқиқот вазифалари. Тайёргарлик давридаги юктамалардан техник тайёргарлик юктамасини кўриб чиқиш; ҳафталик машғулот юктамаларида техник тайёргарлик машқларини қўллаб бориш;

Йиллик тайёргарлик машғулотларида техник ҳаракат элементларини кенг қўллаб бориш мусобақа фаолияти бўйича, илмий жиҳатдан асосланган ишлар кам учрайди. Лекин, машғулотларда спортчилар бажарадиган юктамалар ҳажмини ёки мазмунини ўрганиб чиқадиган бўлсак, техник элементларини бажариш учун кўп вақт сарфланмаётганлигини кўраемиз. Бунда асосан мураббийлар томонидан махсус тайёргарлик даврида эътибор қаратилаётганлигини ўйлаб кўрадиган бўлсак, бир мунча эътиборсизлик деб билишимиз мумкин. Тўғри спорт амалиётида мураббий томонидан олиб борилаётган вазифалар аслида тўғридир. Аммо спорт натижасининг ўсмаслиги ёки бир жойда қотиб қолишида айрим жиҳатларни инобатга олиш зарурдир. Шу муносабат билан тадқиқотда уларнинг йиллик юктамалар ҳажми ва унинг мазмунига эътибор қаратдик.

Қисқа масофага югурувчиларни йиллик машғулотлари йил давомида 52 ҳафтани ташкил этади, бунда 6 ой давомида тайёрлов машғулотлари махсус ҳисоби бўйича олиб борилади. Мусобақа даврига 3-4 ой киритилади, ўтиш даври эса 1,5-2 ойни ўз ичига олади. Умумий жисмоний тайёргарлик даражасини яхшилаш, ҳар томанлама жисмоний камол топишигина эмас, балки ички организмнинг функционал имкониятларини ҳам ривожлантириш заруратига эътибор қаратилади. Албатта техник тайёргарликни шакллантирмасдан спортда яхши натижага эришиб бўлмайди (қисқа масофаларга югуришда яъни стартдан чиқиш, бурулишда югуриш). Шунинг учун тактик тайёргарликни оширишга эътибор бериш керак. Бунинг учун ҳар хил танланган тур бўйича техника

элиментларига асосланган ўйинсимон машқлардан, айланма машғулот услубидан фойдаланиш орқали техник тайёргарликни тарбиялашга қаратилган машқларнинг таркибини ошириш ёки машғулотни синчковлик билан олиб бориш лозим. Шунингдек умумий жисмоний тайёргарлик ва махсус жисмоний тайёргарлик машқларини бажариш вақтида ҳам техника элиментларига алоҳида эътибор қаратиш зарур.

**МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР.** Тадқиқот натижаларини умумлаштирган ҳолда йиллик тайёргарликнинг исталган даврида техник тайёргарликка эътибор қаратишни амалий тавсия сифатида беришни амалга ошириш кўзда тутилмоқда. Айнан техник ҳаракат элиментлари ва машғулот воситаларидан оқилона фойдаланиш спорт малакаси ҳамда спорт натижасининг самарадорлигини оширишга олиб келади. МЖТ ва УЖТ га ажратилган умумий юкламалар ҳажмида тежаладиган вақт бу спортчида кейинги машғулот учун тикланиш имонини беради.

Тайёргарликнинг мусобақаолди даврида техник машқларини бажариш учун ажратилган вақт кўпайтирилади, бу билан машқ бажариш, шунингдек машғулот ҳажми камайтирилиб шиддатни ошириш ҳисобига вақтни кўпайиб боришини ҳисобига олиб техник ҳаракатларни бажаришга кўпроқ вақт сарфаланади. Лекин бажариладиган машқларнинг мазмуни ва муҳумлик даражаси бўйича спортчиларнинг тайёргарлик давларини инobatга олган ҳолда бериб бориш тавсия этилади ҳамда қуйидагича бериб борилади.

Тадқиқот давомида биз машқларни икки гуруҳга бўлдик. Биринчи техник машқлар гуруҳи, умумий жисмоний тайёргарлик даврида бериб борилса, иккинчи техник машқлар гуруҳи махсус жисмоний тайёргарлик давларида ва техник тайёргарлик даврида бериб борилади.

Бу машқлар гуруҳига қуйидагилар киритилди:

1. Кичик барьерчалардан сакраб югуриш машқлари;

- 10 та барьер (баландлиги 40 см) 50 см.дан қўйилади ва тиззаларни баланд кўтариб сакраб ўтиш ва 20 м. тезланиб югуриш;

- 10 та 60 см.ли барьерни ҳар 1,5 м.га қўйиб бир оёққа урғу бериб югуриш техникасини ўргатиш;

- 80 м.ли масофага 6 та баландлиги 40 см.ли 10 м. масофага барьерларни қўйиб югуриш техникасини ошириш. -15 дақиқали кучга айланма машғулот;

- 40 см томбага ёндан ўнг томонга ва чап томонга сакраб чиқиш, сакраб тушиш давомида ярим ўришгача пружинасимон ҳаракатланиш,

- қўлларга ётиб таянган ҳолда ўнг оёқни орқага узатиб чап томонга қўйиб яна қайтариб ёнга букиб керамиз ва тиззани ерга қўйиб иккинчи оёқни шу тарзда бажарамиз,

- жуфт оёқда ярим ўтирган ҳолда ўнг оёқ билан ён томонга сакраб чап оёқ билан 45о диогонал бўйлаб сакраб яна ўнг оёқда ёнга сакраш кейин чап оёқ билан 45о диогонал бўйлаб орқага сакраш,

2. Бурилишда тезлик билан югуриш машқлар мажмуаси;

- тўғри йўлакдан югуриб келиб 20-30 метр бурилишга ўтиб югуриш,

- бурилишдан тўғри йўлкага чиқиб югуриш,

- тўғри йўлканинг бурилиш қисмида 40-60 м масофага югуриш, - тўғри йўлқадан югуриб бурилишнинг барчасини босиб ўтиш.



- югуришда оёқ кучига бериладиган машқлар мажмуаси.
- тўғри йўлкада гавдани букмасдан оёқ учини олдинга тортиб юриш,
- тўғри йўлкада гавдани букмасдан оёқ учини олдинга тортиб секин югуриш,
- бурилишда оёқ учини олдинга тортиб тиззаларни олдинга букиб товонни ерга қўйиб югуриш.

Биз ушбу йиллик тайёргарлик циклларида техник машғулот юкламаларини юқорида келтирилган жадваллар асосида тақсимлашга эътибор қаратдик. Шунингдек машғулотларнинг умумий юкламалар ҳажмига таъсир этмаган ҳолда қисқа масофаларга югуриш техникасини ўргатадиган воситаларни ҳам бажаришда алоҳида эътибор қаратдик.

- югуриш йўлагининг бурилиш қисмида енгил атлетика махсус югуриш машқлари 2x60м (ҳар бирини) бажариш, югуриш йўлагининг бурилиш қисмида пастки ва юқори стартдан чиқиб югуриш,

- интервалли югуришлар (масофа бўйлаб катта қадамлар билан)

- такрорий усулларда югуришлар умумий жисмоний тайёргарлик даврида кўпроқ ҳажмли ва техникага эътибор қаратиб югуриш, махсус жисмоний тайёргарлик даврида техзлик ва техникага эътибор қаратиб югуриш,

- такрорли алмашлаш усулларидаги югуришлар бу фақат махсус жисмоний тайёргарлик даврида техникага ва тезликка қаратилган бўлиши керак.

Ушбу машқларни бажариш давомида спортчиларнинг ўзлари мураббий назоратисиз бажариш ярамайди. Чунки, техник ҳаракат элементлари спортчининг ўзи томонидан сезилмасли мумкин. Бунда мураббий томонидан ҳар бир машқни бажариш давомида тушунтириш ёки турли кўрсатмалар бериб бориш керак.

ХУЛОСА. Олиб борилган тадқиқотлардан қуйидаги хулосаларга келинди:

- машғулотнинг турли даврларида спортчиларнинг умумий юкламаларини бажаришга қаратилган имкониятларидан фойдаланган ҳолда техник ҳаракат элементларини бериб боришни;

- машқларнинг ҳажми ва шиддатини инобатга олган ҳолда техник ҳаракатлар элементларига эътибор қаратиш;

- техник ҳаракат элементларини мураббийлар машқ якунида ёки машғулотлар орасида тўғри тушунтириб, камчиликлар ва хатоларни доимий равишда айтиб бориш;

- техник ҳаракат элементлари қанчалик мохирона бажарилса спортчиларнинг энергия сарфи шунчалик тежалиши олиб борилган тадқиқотлар давомида кузатилди.

## REFERENCES

1. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 99-105.
2. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 180-186.
3. Yusupova N. R. SOCIO-GENDER ASPECTS OF MODERN WOMEN'S SPORTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 118-124.

4. Kazakov R. T. THE MAIN PHYSICAL QUALITIES OF ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 719-725.
5. Kazakov R. THE METHOD OF IMPROVING PHYSICAL AND SPECIAL PHYSICAL FITNESS INDICATORS OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2023. – Т. 6. – №. 2.
6. Казоқов Р.Т., Абдиев Б.С., Джўрабаев А.М., Бўриев Б.Ў. Спортчилар тайёрлаш тизимини бошқарув асослари турлари. // "OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISH: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR" ЎзДЖТСУ, 1, 530-538
7. Kazoqov R., Jo'raqo'ziev O., Eshpo'latov S. ҚИСҚА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИ СПОРТЧИЛАРНИНГ МАШҒУЛОТ ДАВРЛАРИНИ ТУЗИЛИШИ //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-11.
8. Qutlimurodov I. X., Kazoqov R. T., Bo'ronov A. B. FUTBOLDA INNOVATSION TECHNOLOGIYALARNI QO'LLASH //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 111-117.
9. Buriyev B. U., Qodirov R. R., Kazoqov R. T. Jismoniy tarbiya va sportda axborot kommunikatsiya texnologiyasining tuzilishi va tamoyillari //Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullari. – 2021. – Т. 5. – №. 5. – С. 555-559.
10. Р.Т Казоқов., Талабаларга ахборот хавфсизлигини таъминлаш компонентлигини ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари., Ўзбекистон давлат саънат ва маданият институти хабарлари 4 (12), 61-68
11. Казоқов Р.Т., Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш., Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари 11 (1 ...
12. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. Интернет тармоқларида талаба ёшларнинг мустақил таълим олишдаги билим ва кўникмаларининг такомиллаштириш //SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR. – 2019. – Т. 1. – №. 5
13. Казоқов Р. Т. Талабаларга ахборот хавфсизлигини таъминлаш компонентлигини ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари //Ўзбекистон давлат саънат ва маданият институти хабарлари. – 2019. – Т. 4. – №. 12. – С. 61-68.
14. Р.Т Казоқов, Ш.Қ Бекназаров, Ибодов, А. И. Футболчиларнинг антропометрик ўлчамлари ва тезлик сифатлари орасидаги корреляциясини ўрганишда акт дан фойдаланиш., Тиббиёт ва спорт 1 (10), 27-30.
15. Казоқов, Р. Т., & Джўрабаев, А. М. Юлдашева К.А ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR, 1-237.
16. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo'lab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" ga bag'ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
17. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.

18. Казоқов Р. Т., Джўрабаев А. М. Юлдашева КА ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ //SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR. – С. 1,237-240.
19. Казоқов Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
20. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
21. Казоқов Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
22. Казоқов, Р. Т., Джўрабаев, А. М., Бўриев, Б. Ў., & Ахматов, Ж. О. (2023). ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ. Академические исследования в современной науке, 2(6), 111-
23. Казоқов Р. Т., Мирзابدиллаева А. И., Мирзابدиллаева Х. И. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 29-34.
24. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
25. Kazonov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
26. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КўНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
27. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КўНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
28. Давурбаева М.Ж.,Казоқов Р.Т., Мадаминов М.П.Ёшларнинг мустақил таълим олишдаги билим ва кўникмаларининг такомиллаштиришда интернет ресурсларидан фойдаланишнинг ахамияти//ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE. - 2023/2/14. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.

29. Казоқов Р. Т., Жўрақўзиев О. О., Эшпўлатов С. С. СПОРТ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 238-248.
30. Казоқов Р.Т., Бўриев Б.Ў., Абдиев Б.Ш., Джўрабаев А.М., Туропов А.Р.КУРАШ МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
31. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” ga bag‘ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
32. Казоқов Р. Т., Расулов А. Ғ., Бўронов А. Б. СПОРТ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ГУРУҲЛАРИДА ЁШ ФУТБОЛЧИЛАРНИ ТАНЛОВ УСЛУБИЯТЛАРИНИ АСОСЛАШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 38-46.
33. Казоқов Р. Т., Во'ронов А. В. SPORTDAGI DOLZARB YANGILIKLAR //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 47-56.
34. Kazonov R. T., Pirnazarov S. A., Shamsiddinov S. X. STUDENTS LEARN TO ORGANIZE PROFESSIONAL PHYSICAL TRAINING AND CONTROL PHYSICAL DEVELOPMENT //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1195-1202.
35. Eshpo'latov S. S. METHODS AND PRINCIPLES OF IMPROVING TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS AND PHYSICAL TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1296-1302.
36. Kazonov R. T., Eshpo'latov S. S. YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS ARE THE PROCESSES OF ORGANIZING TRAINING SESSIONS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1303-1310.
37. Pirmatov O. Z., Kazakov R. T. ROLE AND PLACE OF SPORTS AND ACTIVE GAMES IN THE GENERAL STRUCTURE OF EDUCATIONAL AND PRODUCTION PRACTICE //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 125-131.
38. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 180-186.
39. Gulomov N. S. O. 15-16 YOSHLI VOLEYBOLCHILARDA MUSOBAQA NATIJAVIYLIGINI TA'MINLASHDA TAFAKKURNI AHAMIYATI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 475-482
40. Gulomov N. S. O., Raximboyeva M. M. Q. VOLEYBOLCHILARNI GURUHLI TAKTIK HARAkatLARGA O'RGATISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 703-712.
41. Kazonov R., Akmuradov M. THE IMPORTANCE OF WORKING MEMORY IN MASTERING JUDO SPORTS TECHNIQUES IN ADOLESCENT ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 489-494.

42. Kazoqov, R., & Akmuradov, M. (2023). PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF JUDO. *Modern Science and Research*, 2(10), 481–488.
43. G'aniyeva M. Y., Yo'ldashaliyeva M. I. DEVELOPMENT OF THE TECHNIQUE INTRODUCTION OF THE BALL INTO THE GAME AT DIFFERENT POINTS WITH THE HELP OF SPECIAL EXERCISES //World Bulletin of Social Sciences. – 2023. – Т. 23. – С. 1-3.
44. Yo'ldoshaliyeva M. I., G'aniyeva M. Y. PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE PRIORITY QUALITIES OF TABLE TENNIS PLAYERS //British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2023. – Т. 16. – С. 81-84.
45. G'aniyeva M. YOSH STOL TENNISCHILARNING MUVOZANAT SAQLASH QOBILİYATLARINI O'RGANISH VA UNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI //Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 11.
46. Ёўлдошалиева М. И., Ганиева М. Ю. Важность использования подвижных игр при обучении технико-тактическим движениям юных игроков в настольный теннис //INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION. SCIENTIFIC JOURNAL.–ISSN.
47. Арзикулов Д. Н. СПОРТЧИЛАРНИ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТДАН ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАРИ //Fan-Sportga. – 2020. – №. 4. – С. 73-75.
48. Умаралиева Ф. Т., Рахматова Д. Н. Теннисга дастлабки ўргатиш босқичида тана мувозанатини сақлаш функциясини ўрни. – 2019.

### “TARJIMADA MA’DANIY MUAMMOLAR” TAHLILI

Sulaymonova Sevara Parda qizi

[sevarasulaymonova61@gmail.com](mailto:sevarasulaymonova61@gmail.com)

Qarshiyeva Nafisa Mamarahim qizi

[qarshiyevanafisa1@gmail.com](mailto:qarshiyevanafisa1@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10063800>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada kitoblarni ingliz tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda duch kelinadigan ma'daniy muammolar va ularga qanday yechim topish kerakligi haqida misollar bilan yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* ma'daniy muammolar, ma'daniy ma'no, belgili harakat, ma'daniy moslashish.

### АНАЛИЗ «КУЛЬТУРНЫХ ПРОБЛЕМ В ПЕРЕВОДЕ»

*Аннотация.* В данной статье на примерах рассматриваются культурные проблемы, возникающие при переводе книг с английского на узбекский или с узбекского на английский, и способы их решения.

*Ключевые слова:* проблемы культуры, культурный смысл, символическое движение, культурная адаптация.

### ANALYSIS OF "CULTURAL PROBLEMS IN TRANSLATION"

*Abstract.* This article covers the cultural problems encountered in translating books from English to Uzbek or from Uzbek to English and how to solve them with examples.

*Key words:* cultural problems, cultural meaning, specific action, cultural adaptation.

### KIRISH

Mazkur maqolada til ijtimoiy hodisa ekanligi, usiz faoliyat yo'qligi alohida e'tirof etilgan. Biz tarjima jarayonida bevosita xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shuni ta'kidlash kerakki, dunyo madaniyatida tarjima muhim rol o'ynagan va o'ynab kelmoqda. Tarjimadagi muvaffaqiyatimiz esa xorijiy madaniyatni qanchalik tushunishimizga bog'liq, zero tarjima madaniyatlari hodisa hisoblanadi.

### MUHOKAMA

“Ma'daniyat” so'zi birinchi marta ingliz olimi Edvard B.Taylorning 1871-yilda nashr etilgan “Primitive Culture” kitobida foydalanilgan. Taylorning fikriga ko'ra, ma'daniyat bilim, ishonch, qonun, an'analar va jamiyatning turli a'zolari tomonidan qabul qilingan turli odatlarni o'z ichiga oladi<sup>193</sup>.

Shuni ta'kidlash lozimki, tarjimada so'z tanlashga ta'sir qiladigan jins, yosh va bilim faktorining mavjudligi sabab muloqot vaqtida ham ko'p faktorlar mavjud. Turli xil so'zlar yoki iboralar turli joylarda kimningdir oilasida, yaqinlari bilan yoki do'stlari bilan odatiy suhbatida. Misol uchun, “mastlik” so'zi badiiy nutqda qo'llansa, “kayf” og'zakida, “qotib qolgan”-oddiy nutqda ishlatiladi. Norasmiy nutq har doim jonli til jarayonlarida qo'llaniladi.

Tarjima qilishda eng katta muammo ma'daniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni farqlashdir. Muayyan ma'daniyatga mansub aholi har bir narsaga o'zining dunyoqarashidan kelib chiqib qaraydi.

<sup>193</sup> I.G'afurov: Tarjima nazariyasi. Toshkent-2012.



Misol uchun, “cho’chqa” so’zi o’zbek tilida ma’lum darajada salbiy bo’yoqqa ega. Lekin “pig” Buyuk Britaniyada bu so’z neytral ma’noda qo’llaniladi. Turli millatlarda ma’daniyatlar turlicha bo’lgani sababli, ko’p hollarda ekvivalent topish mushkul. Amerikada “qo’y” so’zini o’ylamasdan ish qiladigan, bosiq insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ammo O’zbekistonda “paxta” so’zi ko’p ishlatiladi, lekin bu so’z Buyuk Britaniyada paxta o’stirilmagani uchun qo’llanilmaydi.

Har bir ma’daniyatda belgili hisoblanadigan aniq harakat mavjud bo’ladi. Agar harakat shunchaki so’zma-so’z tarjima qilinsa, uning ma’nosi yo’qqa chiqadi. Misol: He nodded his hand.

Agar asliyat tilida qo’lini qimirlatish “xayr”ni bildirsa va tarjima tili madaniyatida bunday belgi ma’noga ega bo’lmasligi mumkin. Ba’zi madaniyatlarda qo’l qimirlatish ijobiy emas salbiy ma’noga ega bo’lishi ham mumkin.

Mabodo, harakat shakli qabul qiluvchi tildagi boshqa shakl bilan bog’langan bo’lsa, ba’zida belgili harakatlarni tarjima qilish qiyin bo’ladi. Misol uchun, agar asliyat tilida “musht ko’rsatish” berilsa, tarjimon imo-ishora ma’nosini aniqlashtirish uchun “g’azab”ni ko’rsatishi mumkin. Agar “musht ko’rsatish” tarjima tilida boshqa ma’noni bildirsa, bu tarjima o’quvchilarni matnni tushunishga halal beradi. Quyidagi jadvalda ingliz tilda belgi harakatni ifodalovchi ba’zi harakatlar berilgan:

Boshini qimirlatish	Nod of head
Yelkasini qisish	Shrug of shoulders
Yelkasini orqaga qisish	Hands on ships,fect apart
Tishini g’ichirlatish	Clench teeth
Burnini qimirlatish	Wrinkling up nose
Qoshini ko’tarish	Raise eyebrow

O’zbek tilidagi ba’zi ibora yoki frazalar ingliz tilida bo’lmaganligi sababali mazkur jadvaldagi ibora va so’zlar to’g’ridan to’g’ri tarjima qilingan.

Tilning lug’atini o’rganayotganda, so’zlarning ma’nolari nimalarni anglatishi, eski yoki yangi, hozirgi lug’atda neytral o’rinda turishiga e’tibor qaratish kerak. So’zlar turli ma’adaniyatlar rivojida ijobiy va salbiy ma’nolar tashiydi.

Sinonimdek ko’ringan sifatlarni aslida o’zaro almashtirib bo’lmasligi mumkin. Misol uchun: “handsome”-kelishgan, erkakalga nisbatan qo’llaniladi, “beautiful” go’zal-ayollarga nisbatan. ”Lovely”-ko’rkam, “pretty”- suluv so’zlari bir ma’noda kelsa ham konyekstdan kelib chiqib qo’llaniladi. Faqatgina ingliz tilidagi so’zlar emas, o’zbek tilidan boshqa tilga tarjima qilinayotgan milliy odatlar, ingliz tilida yoki boshqa tilda ekvivalenti yo’q so’zlar, masalan sari, mahsi, kovush kabi so’zlarni tarjima qilmaymiz.

Qisqa qilib aytganda, ma’daniyat haqida gap borganda tarjimaning ma’no bildiruvchi va ajralmas ma’no muammolarini hisobga olish zarur hisoblanadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, tarjomonning nafaqat tarjima tilini bilishi balki madaniyatni bilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu o’rinda lingvist Gari Vizerspunning “Agar biz madaniyatga lingvistika nuqtai nazaridan qaraydigan bo’lsak, madaniyatning bir tomonlama tushunchasiga ega bo’lamiz. Agar tilga madaniyat nuqtai nazaridan qaraydigan bo’lsak, tilning bir tomonlama tushunchasiga ega bo’lamiz” degan fikrini keltirib o’tish maqsadga muvofiqdir.

#### REFERENCES

1. I.G'ofurov,O.Mo'minov,N.Qambarov, Tarjima nazariyasi:Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma, Toshkent:Taffakur-Bo'stoni,2012.-216b.
2. G'.Salomov,Tarjima nazariyasi asoslari,Toshkent.1983.
3. J.Solijonov,Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek,ASEAN Journal on Science&Technology for Development,-P 221-229
4. J.Solijonov,Roulingning fantastic asarlardagi antroponimlarining lingvo-perspektiv muammolari, Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies,-P 334-343

## QATTIQ JISMLARNING ELEKTR O'TKAZUVCHANLIGI

Mavlonova Sevinch Olimjon qizi

JDPU talabasi

[mavlonovasevinch44@gmail.com](mailto:mavlonovasevinch44@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10063874>

**Annotatsiya.** Qattiq jismlarning elektr o'tkazuvchanligi materialning tarkibiy tuzulishi ya'ni sofliqiga bog'liqligi tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** Yarim o'tkazgichlar, sof yarim o'tkazgichlar, energetik sath, spin, elektron qobiq, kovak, elektron.

## ELECTRICAL CONDUCTIVITY OF SOLID BODIES

**Abstract.** It is explained that the electrical conductivity of solid bodies depends on the composition of the material, that is, its purity.

**Key words:** Semiconductors, pure semiconductors, energy level, spin, electron shell, cavity, electron.

## ЭЛЕКТРОПРОВОДНОСТЬ ТВЕРДЫХ ТЕЛ

**Аннотация.** Пояснено, что электропроводность твердых тел зависит от состава материала, то есть его чистоты.

**Ключевые слова:** Полупроводники, чистые полупроводники, энергетический уровень, спин, электронная оболочка, полость, электрон.


Qattiq jismlar kvant fizikasi yaratilgunicha tajribada (amaliyotda) yarim o'tkazgich moddalarning ayrim ajoyib xossalari oshkor qilingan bo'lsa-da, ammo ularni puxta ilmiy asosda tushunib bo'lmadi. Faqat qattiq jism kvant fizikasi nima uchun qattiq jismlar elektr tokni yaxshi o'tkazadigan metallar, juda oz o'tkazadigan yarim o'tkazgichlar, deyarli o'tkamaydigan dielektriklar turlariga ajralishini, ularning bir-biridan keskin farq qiladigan fizik xossalarini tushuntirib bera oldi

Yarim o'tkazgich moddalar xossalarining oshkor bo'lishi uchun ular yetarlicha darajada toza bo'lishlari kerak edi. Bu zarurat juda toza moddalar olish sanoatining barpo qilinishiga olib keldi. Demak, qattiq jism kvant fizikasining yaratilishi va toza moddalar sanoatining barpo qilinishi yarim o'tkazgichlar elektronikasining taraqqiyotiga zamin bo'ldi.

Endi asosiy masalamizga-qattiq jismlarning elektrik o'tkazuvchanlik bo'yicha uch turga (metallar, yarim o'tkazgichlar, dielektriklarga) ajralishini kvant mehanikasi qanday tushuntirilishi masalasiga to'xtalamiz.

Atom fizikasidan ma'lumki, yakka atomdagi elektronlar muayyan energiyali holatlarda bo'la oladi, ya'ni ularning ruxsatlangan energiyalari qiymatlari diskret (uzuk) spektrni tashkil etadi. Pauli qonuniga asosan, atomdagi muayyan energiyali holatda (energetik sathda) eng ko'pi bilan spinlari qarama-qarshi yo'nalgan ikki elektron bo'lishi mumkin. Bu holatda yo bir elektron bo'lishi, umuman holat bo'sh bo'lishi ham mumkin.

Juda ko'p atomlardan qattiq jism hosil bo'ganida atomlar bir-biriga juda yaqin keladi, ularning elektronlari qobiqlari orasida kuchli o'zaro ta'sir oqibatida atomdagi elektronlar energiyalari sathlari parchalanib (N atomidan tashkil topgan qattiq jismda atomdagi sath N ta sathga ajraladi), elektronlar energiyalari zonalari hosil bo'ladi. Biz bundan buyon elektronlar so'zini qisqaroq qilib energiya zonalari haqida gaplashamiz.



Rasmda kristal qattiq jismda energiya zonalarining energiya sathlaridan hosil bo'lishi:

Undan ko'rinishicha, atomlararo d masofa kichraya borgach (atomlar bir-biriga yaqinlasha borgach), ular orasida o'zaro ta'sir kuchayishi oqibatida atomdagi sathlar ko'p sathlarga parchalanib energiya zonalarini hosil qiladi, nihoyat kristaldagi atomlararo muvozanatli masofa d0 gacha erishilganda energiya zonalarini tizimi shakllanadi.

Kristalda elektronning inertlik o'lchovi bo'lmish massasi bir necha omillarga bog'liq, chunki u kristalning ichidagi kuchli davriy maydonda harakatlanadi va shuning uchun kristaldagi elektronning massasi erkin elektron massasidan ancha farq qiladi. Zonaning tubi yaqinida elektron massasi musbat kattalik bo'lib chiqadi. Bu joyda musbat zaryadli va musbat massali kvazizarra – kovak mavjud bo'ladi deb olinsa' bu zarralarga nisbatan ham odatdagi tushunchalarni (masalan, harakat tenglamalari, elektrik o'tkazuvchanlik) qo'llash mumkin. Shunday qilib kristallarda ikki xil zarralar elektronlar va kovaklar to'g'risida g'piriladi.

Elektron va kovaklar massalari, umuman aytganda, tenzor xarakterga egadir (yo'nalishlarga bog'liqdir), ammo, izotrop (kristallarda) bu massalar skalyar xarakterida bo'ladi. Bu holda effektiv (skalyar) massa tushunchasi ishlatiladi.

Umuman, energiya zonasi elektronlar bilan to'la to'ldirilgan, chala to'ldirilgan, yoki butunlay to'ldirilmagan bo'lishi mumkin.

Agar energiya zonasi elektronlar bilan chala to'ldirilgan bo'lsa, uni o'tkazuvchanlik zonasi deyiladi. Bu holda undagi elektronlar tokda qatnasha oladi, ularni erkin elektronlar deyiladi. Bunday zonaning yuqorigi qismida bo'sh energiya sathlari bor, past sathlarda elektrik maydon yo'qligida juft-juft joylashgan elektronlar elektrik maydonga mos buruladi. Natijada zonadagi elektronlarning yo'nalgan harakati, ya'ni elektrik tok vujudga keladi.

To'ldirilgan zona yuqorisida undan taqiqlangan zona bilan ajralgan bo'sh zona bo'ladi. Agar qandaydir tashqi ta'sir (temperatura, yoritilish, kuchli elektrik maydon va hakazo) oqibatida bu zona ham chala to'ldirilgan bo'lib qoladi va elektrik maydon hosil qilinganda (yopiq zanjir holida) tokka o'z hissasini qo'shadi.

## REFERENCES

1. A.Toshboyev va boshqalar. Yarim o'tkazgichli asboblarning fizikasi. "Hayot" nashriyoti. Andijon-2002y
2. В.В.Пасынков,Л.К.Чиркин. Полупроводниковые приборы. М.. "Высшая школа", 1987
3. М.Азизов. Yarim o'tkazgichlar fizikasi, Toshkent, O'qituvchi 1974

## MUSIQA SAN`ATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Axrorova Munajat Mashraf qizi**

Jizzax Davlat Pedagogika universiteti

Musiqa ta`limi kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10064143>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada musiqa san`atini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanish, hamda ularni o`quv amaliyotida qo`llash haqida so`z yuritilgan.

*Kalit so`zlar:* Ta`lim, musiqa, musiqiy-nazariy fanlar, san`at, innovatsiya, axborot, texnologiya.

## THE USE OF INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF MUSICAL ART

*Abstract.* This article talks about the use of innovative information technologies in improving the effectiveness of education in the art of music and their application in educational practice.

*Key words:* Education, music, musical-theoretical sciences, art, innovation, information, technology.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА

*Аннотация.* В данной статье говорится об использовании инновационных информационных технологий в повышении эффективности обучения музыкальному искусству и их применении в образовательной практике.

*Ключевые слова:* Образование, музыка, музыкально-теоретические науки, искусство, инновации, информация, технологии.

XXI asrda yangi texnologiyalar paydo bo`lishi munosabati bilan o`qitish uslubiyotiga yondashuv o`zgardi, o`qishni rivojlantirish masalalari eng muhim mavzulardan biri bo`ldi. Talabalarni ommaviy estetik tarbiyalash o`quv dasturlariga, o`qitish usullariga boshqacha, yangicha yondashuvni talab qiladi. Musiqiy nazariy fanlar o`qituvchilarning vazifasi bu jarayonni talabalar uchun ijodiy va qiziqarli qilishdir.

Ilmiy texnika revolyutsiya davrida talaba o`zlashtirishi lozim bo`lgan ilmiy axborot hajmining keskin oshib ketishi bilan an`anaviy ta`lim kam samarali bo`lib qoldi. Ana shuning uchun kelish davri interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga kiritishga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar o`quvchilarni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishga, mustaqil o`rganish, tahlil qilish va olingan bilimlardan o`zlari yakuniy natija chiqara olishga o`rgatadi.

Musiqa madaniyati darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish musiqani faol qabul qilish ko`nikmalarini shakllantirishga, talabalarning musiqiy tajribasini boyitishga, bilimlarni singdirishga yordam beradi. Bu umuman talabalarning musiqiy madaniyatini boyitishning muhim shartidir. Shuning uchun ham musiqiy ta`limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishda quyidagi vazifalar muhim hisoblanadi:

- musiqa darslarida ko`proq talabalarni loyiha faoliyatiga qiziqtirish.
- musiqiy kabinet kutubxonasini kengaytirish.

- yangi kompyuter dasturlarini o'zlashtirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini talabalar muvaffaqiyatli o'rganish uchun zarur bo'lgan ko'plab tarkibiy qismlar mavjud: Bu televizion tasvir, multimedia, animatsiya, grafika va ovoz. Kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'rgazmali qurollar yetishmovchiligini hal qilishga, an'anaviy o'quv predmetlarini o'zgartirishga, o'quv materiallarini tushunish va o'zlashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, multimedia vositalaridan foydalanish ham darslarning zamonaviy tipda tashkillashtirishga asos bo'ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan musiqa darslarida foydalanish har qanday yoshdagi o'rganuvchi uchun o'qitish jarayonini yorqin, unutilmas, qiziqarli bo'lishiga yordam berdi va mavzuga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Ma'lumki, har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo'ljallash kerak. Bunda o'qituvchi fanning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayonini va sharoitini, talabalarning ehtiyoji va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlata oladigan texnologiyalarni tanlash lozim. An'anaviy ta'lim talabalarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatadi, unda o'qituvchi shaxsi asosiy o'rinni egallagan bo'lib, talaba esa bu jarayonning passiv ishtirokchisi bo'lib kelgan.

Innovatsion ta'lim uslublari, multimedia va texnologiya vositalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, takomillashishi rivojlanayotgan jamiyat, yangi avlodning talab va ehtiyojlari bilan bog'liq. Ta'limning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda, talabalarga qisqa vaqt ichida minimal harakat bilan moslashishga imkon beradigan innovatsion usullar mavjud.

Ta'lim tashkil etishning noan'anaviy shakllarning hilma-xilligi turli xil faoliyat turlari uchun keng sharoitlarni yaratadi, bu nafaqat o'quvchining aqliy jarayonlarining butun majmuasini o'z ichiga olishga imkon beradi, asosiy ta'lim doirasini kengaytirishni, balki maxsus kasbiy bilim va ko'nikmalarni olishga imkon beradi. Musiqiy ta'limga yangicha yondashuvlar, shuningdek, o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mutlaqo boshqacha, eng samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, musiqa inson tafakkurining o'ziga xos turi bo'lib, asosiy vazifani - inson bilan aloqa qilish funksiyasini bajaradi. Bunday darslarda ma'naviy, amaliy, ijodiy, individual dunyoqarash ustunlik qiladi, ya'ni avtoritar yondashuv va tegishli o'qitish usullaridan voz kechadi. Musiqiy-nazariy fanlar ya'ni musiqa nazariyasi, solfedjio va garmoniya musiqa asarlari tahlili fanlarida innovatsion axborot texnologiyalarni qo'llash muhim va zarurdir.

Yangi texnologiyalardan foydalanish musiqiy nazariy darslarini boyitadi va yangilaydi.

## REFERENCES

1. Axrorova M.M. Ta'lim tarbiya jarayonida musiqa san'atining ma'naviy-madaniy komolotimizdagi o'rni va ahamiyati. Xalqaro Fransiya ilmiy onlayn konferensiyasi. 3-qism. 121-124-betlar. 5.04.2022.
2. Axrorova M.M. Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'siri. "Osiyo san'at" jurnali. Tom 3 № 1, 2022
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.



4. Khasanova Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15. :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

## DISLALIYA VA UNING YUZAGA KELISHI

Nasiba Jumayevna Yarashova

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10064176>

**Annotatsiya.** Bugungi kunning e'tibor markazida bo'lgan sohalaridan biri bu bolalar nutqi hisoblanib, bola nutqini o'rganuvchi soha ontolingvistika yangi tarixiy asosga ega fanlardan biridir. Ushbu tilshunoslik tarmog'i o'zining rivojlanishi bilan birga o'z doirasida ma'lum muammolarga ham egadir. Ya'ni bunda bolalar nutqidagi fonetik, leksik, psixologik va ijtimoiy muammolarni ko'rsatish mumkin.

**Kalit so'zlar:** ontolingvistika, nutqiy ontogenez, nutq muammolari, individual nutq, tashqi omil.

## DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE

**Abstract.** One of the areas of attention today is considered to be children's speech, and the field of study of Child speech ontolinguistics is one of the disciplines with a new historical basis. This branch of linguistics, along with its development, also has certain problems within its framework. That is, in this it is possible to indicate phonetic, lexical, psychological and social problems in children's speech.

**Key words:** ontolinguistics, speech ontogenesis, speech problems, individual speech, external factor.

## ДИСЛАЛИЯ И ЕЕ ВОЗНИКНОВЕНИЕ

**Аннотация.** Одной из сфер, на которой сегодня сосредоточено внимание, является детская речь, область изучения детской речи, которая считается онтолингвистика является одной из дисциплин, имеющих новую историческую основу. Эта отрасль лингвистики, наряду со своим развитием, имеет в своих рамках и определенные проблемы. То есть в этом можно указать на фонетические, лексические, психологические и социальные проблемы в речи детей.

**Ключевые слова:** онтолингвистика, речевой онтогенез, проблемы речи, индивидуальная речь, внешний фактор.

Bolaning barkamol o'sib ulg'ayishida nutqiy ko'nikmaning rivojlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqi zamonaviy tilshunoslikning yangi tarmog'i sifatida bugungi kunda o'rganilayotgan yangi soha hisoblanadi.

Nutqiy ontogenez shaxsning tug'ilganidan to umrining oxirigacha nutqiy shakllanishi va rivojlanishi majmuyidir. Nutqiy ontogenez atamasi (grekcha "ontos" (mazmun, mohiyat) + "genez" (rivojlanish) qat'iy ma'noda insoniyat nutqining butun hayoti davomida rivojlanishiga tegishli bo'lib, ammo amalda bu atama bola nutqining rivojlanishiga nisbatan qo'llaniladi. Bola nutqining shakllanishi jarayonida turli omillar ta'sirida nutqiy buzilishlar yuzaga kelishi kuzatiladi.

Bola nutqi buzilishiga olib keluvchi sabablar bolaning aniq, ravon muloqotga kirishib fikrini ifodalashda hamda tashqi olamga nisbatan o'z munosabatini bildirishda nutqiy muammolarga olib keladi. Nutqiy muammolar esa bolaning psixologik, ijtimoiy rivojlanishida o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Kichik yoshdagi bolalar orasida nutq buzilishi bilan bog'liq muammolar juda ko'p uchraydi. Bunga esa asosan tashqi omillar yoki ota-onalarning e'tiborsizligi sabab bo'ladi. Dislaliya nutq buzilishining keng tarqalgan turi bo'lib, bu holatda kichik yoshli o'g'il-qizlar ayrim tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaydi yoki bir tovushni ikkinchisiga almashtirib, ba'zi paytda uni o'tkazib yuboradi. Asosan 3-4 yoshli kichkintoylarda uchraydigan bu nutq buzilishida bola o'z istaklarini to'liq va aniq bayon eta olsa-da, ba'zi so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi. Masalan "mashina" so'zini "matina", "shirinlik" so'zini esa "tirinlik" deb aytishi mumkin.

Dislaliyaning 2 xil – funksional va mexanik turlari bor. Mexanik turiga asosan bola og'zidagi nutq apparatidagi (tishlar joylashuvi, jag'lar shakli) kamchiliklar, tanglayning tartibsiz tuzilishi, qalin lablar sabab bo'ladi. Funksional displaliyani esa bolaning o'tkir kasalliklarni boshdan kechirganligi, oilada ikki tilda so'zlashish, farzand nutqini noto'g'ri tarbiyalash, u bilan kam suhbatlashish, kichkintoy bilan gaplashganda so'zlarni "bolalarcha" talaffuz qilish va unda fonemik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi kabi omillar keltirib chiqaradi.

Mexanik displaliya tashxisi qo'yilgan Bolani ortodont va logoped mutaxassislar birgalikda davolashi lozim. Buning uchun kichkintoyga og'iz orqali bajariladigan maxsus mashg'ulotlar tavsiya etiladi. Ayrim vaqtlarda esa shifokor ko'rsatmasi bilan jarrohlik amaliyoti qo'llaniladi.

Funksional displaliya 5 yoshgacha davolanmaydi. Agar bola shu davrga qadar ba'zi so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilayotgan bo'lsa, u bilan to'g'ri va ravon so'zlashish orqali muammoni bartaraf etish mumkin. Bunda kichkintoyga she'r yodlatish, qo'shiq eshittirish yaxshi samara beradi. Biroq bola 5 yoshga to'lgach ham "quyosh" so'zini "quyos" deyayotgan bo'lsa, uni shifokorga ko'rsatish zarur bo'ladi. Mazkur holatda logoped jajji bemorga og'iz mashg'ulotlarini o'rgatish va talaffuz qila olmayotgan tovushlarni to'g'ri aytishga yordamlashadi. Ya'ni maxsus logopedik yo'llar bilan bu tovushlarni kichkintoy nutqida mustahkamlaydi.

Nutq rivojlanishida quyidagi bosqichlar o'ziga xos ega:

1. G'ing'illash (1-5 oylikdan boshlab ) xarakteristikaga ko'ra unli tovushlarga o'xshash ayrim tovushlarni aytish davri bo'lib, dastlabki bosqich hisoblanadi, va albatta, bu davrda bola tovushlarni talaffuz qilish orqali nutqning dastlabki bosqichini boshdan kechiradi.

2. Bidillash (6-7 oylikdan 10 oylikkacha) tovushlarni o'zaro qo'shib, bo'g'inlar ketma-ketligi ko'rinishida talaffuz qilinadi va o'ziga yaqin odamlarga nisbatan mazmunga ega so'zlarni aytishdan iborat bo'ladi (da-da, bu-vi). 5 oylikdan bola tovushlarni eshitadi, lablar harakatini ko'radi va ularga taqlid qilishga urinadi. Kattalar aytgan so'zlarni takrorlashga urinadi.

3. "Modullashgan bidillash" (6-7 oylikda) buyumlar, odamlar, harakatlar bilan bog'liq bo'lgan turli tovushlar birikmasi (nan-na, ash-sha, ma) yasab nutqda foydalanadi, 10-11-oylikdan boshlab esa, dastlabki so'zlarga munosabat paydo bo'ladi, 1 yoshda esa bola dastlabki so'zlarni ayta boshlaydi. Bola hayotining birinchi yilidagi faoliyatining asosiy shakli kattalar bilan emotsional-ijobiy muloqot hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaga kattalar bola tilida emas, balki ularning kattalar tilida muloqot qilib gaplashsa, bola tilidagi nuqsonlar nisbatan bartaraf etiladi.

Ilk so'zlar umumiy ma'noli xarakterga ega, ularning mazmuni asosan holatga bog'liq, nutq esa imo-ishoralar orqali boshqariladi.

Shuningdek, ontolingvistikaning o'ziga xos muammolari bola nutqidagi fonetik, leksik, psixologik kamchiliklarda kuzatiladi. Ya'ni bola nutqi shakllanishida uning harflarni g'ug'ulab aytishidan tortib, nutqda ishlatiladigan so'zlarni to'liq ayta olishi, atrof-muhitga o'z munosabatini bildirishda nutq asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari bola nutqidagi kelib chiqishi mumkin

bo‘lgan muammolar ontolingvistika bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan psixologiya va tilshunoslik kabi sohalar juda keng tarmoqlarga aloqador bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida ontolingvistikani turli jihatlardan kelib chiqib tadqiq etish shuningdek, bola nutqini yanada nuqsonlardan holi, sog‘lom qilib shakllantirishni aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi.

#### REFERENCES

1. Bola nutqi buzilishi sabablari nimada? // Xalq so‘zi 2022-yil 20-noyabr.
2. Грибова О.Е. К проблем анализа речевой коммуникатсии у детей с речевой патологией. // Дефектология . – Москва, 1995.
3. Лалаева Р.И. Логопедическая работа. Кн для логопеда. – Москва: Педагогика, 1998.
4. Леонтьев А.А. Слово в речевой деятельности. – Москва, 2003.
5. Пиаже Ж. Реч И мишление ребёнка. – Москва, 1994.
6. Пинкер С. Язык как инстинкт. – Москва, 2004.
7. “Problems of ontolinguistics – 2022: the speech world of a child (universal processes and individual manifestations)
8. Qo‘chqarov B. “Ontolingvistika” uslubiy qo‘llanma. – Namangan, 2020.
In general, the complexity of import substitution is usually characterized by its own social orientation, which provides for the achievement of economic growth of a new quality, which, in turn, assumes that economic growth is inextricably linked in the living well-being of the population and that these two processes are coordinated among themselves.

The development of the countries of the world community shows that despite its abstraction, these models gave significant results and showed their effectiveness, taking into account the peculiarities of the socio-economic situation. The development of a market economy in the countries of the world community clearly demonstrates real models of economic development, which are characterized by various methods of stimulating socio-economic development.

The study of advanced foreign experience in financing investment activities is important in the further development of national practice in this regard. The American model of development is characterized by a low share of state property and a negligence in the level of state regulation, the support of entrepreneurship by all methods and means (about 80% of new jobs are created by small businesses), the presence of a sharp differentiation between the rich and poor segments of the population, the fact that the

The Japanese model of development is socially oriented, providing a high level of state intervention in the main sectors of the national economy, the creation of economic development plans and a slight difference in the level of wages.

Germany's model of economic development is also characterized by its social orientation and is characterized by a high impact of the state on the economy, forecasting basic macroeconomic indicators, small differences in the level of wages, etc.

The Swedish model is a somewhat successful socially oriented model of economic development, characterized by the reduction of property inequality through the distribution of national income, concern about the layers of the low-income population, ensuring active state intervention in the process of price formation (establishment of Strictly fixed prices) and a high share of the public sector in the national economy.

In addition, the French model of economic development is of particular interest, it is characterized by a highly regulatory role of the state (five-year development plans are drawn up), large-scale state entrepreneurship and active state intervention in the process of capital accumulation.

From the point of view of the successful model, the South Korean model of economic development is of the greatest interest. South Korea's development model makes extensive use of socio-economic development planning, has universal control over the credit-finance sector, and the state regulates the foreign economic sector by encouraging exports and restricting imports.

Nevertheless, the history of the development of world economy shows that the implementation of the policy of promoting import substitution can also give its positive and negative results. For example, in the middle of the 20th century, we can cite as a clear example the processes of using state policies to replace imports in Latin America.

The considered models of the development of different countries indicate that they may have different priorities, which, in our opinion, implies the achievement of certain goals, depending on the level of socio-economic development.

Of particular interest among the models of socio-economic development for the current stage of economic development in our country are models that, together with reducing the level of dependence on imports, provide for the development of domestic production. In other words, under the current conditions, a model of import substitution development is necessary in our country.

The main goal of the programs for organizing and localization of import substitutes carried out in our country is to establish the production of competitive modern products intended for export and replacing imports in the Republic of Uzbekistan, to stimulate the production of domestic products that meet the requirements of the domestic and foreign markets on the basis of local raw materials and mineral Resources.

At the same time, within the framework of the program, it is envisaged to widely establish and further strengthen the industrial cooperation between the domestic sector and inter-sectoral, including small businesses and large enterprises of the Republic [6].

**Conclusions and recommendations.** Taking into account the socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan and the analysis of its specifics, we will try to present a model of economic growth as a replacement for imports. The system and complexity of our proposed model of Import substitution economic growth is that we can achieve a positive result only under the circumstances of the simultaneous application of each recorded measure:

First of all, when the independence of the state was gained and began to implement market reforms, a policy of restructuring monetary policy began to be implemented in our country, and this process continues to this day. Therefore, we propose to soften the mechanisms of monetary policy in order to encourage industrial policies based on the organization of import replacement Productions. Bank loans provided for manufacturing enterprises, by their nature, serve as an indirect factor in promoting import substitution Productions.

Secondly, measures of selective protectionism within acceptable limits provide an opportunity to support and encourage the production of certain goods at the local level, where there is a possibility of production in our country. In our opinion, the food industry, the pharmaceutical industry, needs state support more than ever. Therefore, the implementation of selective protectionist measures serves to turn the current situation in a positive way.

Thirdly, the use of selective protectionism measures in practice and the resulting results are considered more effective when import quotas are applied to products for which these measures are being applied. To do this, it is necessary to determine the volume of domestic demand for these goods, the share of domestic production in meeting this demand, and compensate for the missing part at the expense of the reasonable volume of imports.

The establishment of import quotas for products that are planned to replace imports, together with the measures proposed by US, allows us to support domestic producers, strengthen their position in domestic markets and bring them to foreign markets in the future.

Fourth, it is necessary to take the necessary measures to restore property as a result of market changes associated with nationalization and privatization in order to revive the productive activities of existing enterprises that have ceased their activities or are not functioning in the prescribed manner. These measures include the process of modernization of production.

Fifth, the fiscal incentive of import substitution enterprises (industries) in the form of exemption from Value-Added Tax (VAT) serves to strengthen the competitive positions of enterprises engaged in the production of import substitution products in relation to foreign enterprises. By gaining competitive advantages in price competition, these enterprises will have a number of incentives to expand the scale of production. It should be noted that these financial mechanisms of promoting import substitution production are characterized by having a short-and medium-term description, rather than a long-term one.

Sixth, the use of an adequate customs tariff set based on the level of the raw material processing stage promotes deep processing of raw materials and the creation of high value-added products. We consider it necessary to use tariff rates for both exports and imports in this direction. The essence of this measure is that when exporting raw materials, it is necessary to reduce customs tariffs as the application and processing of high customs tariffs deepens.

## REFERENCES

1. [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига йўллаган Мурожаатномаси. / Халқ сўзи, 2020 йил 24 январь.
3. Ўзбекистон саноати қанчалик рақобатбардош?  
<https://daryo.uz/k/2022/06/29/uzbekiston-sanoati-qanchalik-raqobatbardosh>
4. <https://yuz.uz/news/uzbekiston-respublikasi-birinchi-bor-unido-tashkilotining-raqobatbardosh-sanoat-unumdorligi-sip-indeksi-reytingiga-kiritildi>
5. Виктор Супян. Американская модель экономики. Характерные черты и современные особенности «Экономические стратегии - Центральная Азия», №4-2007, стр. 20-29. <http://www.inesnet.ru/article/amerikanskaya-model-ekonomiki-xarakternyye-cherty-i-sovremennye-osobennosti/>
6. <https://chamber.uz/uzk/page/4771>

7. Абдувохидов А. и др. Инновацион иқтисодиётда импорт ўрнини босувчи саноат ишлаб чиқаришларни ташкил этиш масалалари // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 23-33.
8. Абдувохидов А. А., Тошбоев Б. Б. Худудда импорт ўрнини босиш сиёсатини амалга ошириш механизми // *Журнал Инновации в Экономике*. – 2021. – Т. 4. – №. 10.



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI

S. A. Abdullayev

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim nazariya kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10070836>

*Annotatsiya.* Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati, mazmun mohiyati, faoliyatlarda qo'llaniladigan usullar haqida bayon etilgan.

*Kalit so'zlar:* tabiat, muhit, pedagogik-psixologik, mexanizmlar, bilimlar, malakalar, tajriba, kognitiv.

### THE IMPORTANCE OF INTRODUCING PRESCHOOL CHILDREN TO NATURE

*Abstract.* The article describes the importance of introducing preschool children to nature, the essence of the content, the methods used in activities.

*Keywords:* Nature, Environment, pedagogical-psychological, mechanisms, knowledge, qualifications, experience, cognitive.

### ВАЖНОСТЬ ПРИВЕДЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ К ПРИРОДЕ

*Аннотация.* В статье описывается важность знакомства дошкольников с природой, сущность содержания, используемые в деятельности методы.

*Ключевые слова:* природа, среда, педагогико-психологические, механизмы, знания, умения, опыт, познавательные.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson qalbini kichiklikdan boshlab yaxshilik, olijanob, insonparvarlik, odamgarchilik, poklik, so'zamollik, xushso'zlik, ilmi bo'lish kabi oliy janob hislatlar bilan boyitish inson kamolotining me'yori bo'lib kelgan, chunki komil insonning ma'naviyati yuksak bo'ladi, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kishi esa, o'z xalqining o'tmish tarixi, urf-odati, qadriyati va an'analari, madaniyatini chuqroq biladi, unga rioya qiladi

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehri bo'lish, ekologik ta'lim tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bolalarning yosh xususiyatlari, fiziologik tuzilishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga turli yosh guruhlarida ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, xarakter hislatlari, iste'dodlari hisobga olinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go'dakligidanoq tabiat qoynida o'sadi, ulg'ayadi kamol topadi. Bolani go'dakligidan boshlab tabiatdan zavq olishga, tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatib borishimiz zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni va uni tanlash tamoyillariga alohida e'tibor beriladi. Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar qo'yilgan.

Bunda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U Bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi.

Tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabatini, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlikni tarbiyalash va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparavarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko'paytiruvchi, kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda tabiat burchagining ahamiyati kattadir.

Tabiat burchagining muhim tomoni yana shundaki, uni bolalar har kuni ko'radilar. Tarbiyachi rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni sistemali ravishda kuzatib va parvarish qilib boradilar, natijada o'simlik va hayvonot dunyosining rang-barangligi, ularning o'sishi va rivojlanishi, ular uchun qanday shart-sharoitlar kerakligi to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab boradilar.

Tarbiyachi bolalar diqqatini o'simliklarning chiroyli gullashiga, barglarining shakli va tusiga, akvariumdagi baliqlarning chiroyli ko'rinishiga va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go'zallikdan quvonishga o'rganadilar hamda ularning estetik didi o'sadi.

Bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida sistemali ravishda kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida ma'lum malaka va ko'nikmalarni ham egallab boradilar, ularga nisbatan barqaror qiziqish va g'amxo'rlik hissi uyg'onadi. Bolalarning tabiatga mehr-muhabbatini o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilish, ularni asrab-avaylash bo'yicha mehnat faoliyatlarini tashkil etish bilan birga qo'shib olib borish kerak. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishini ularning yosh xususiyatlari, pedagogik, fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda tashkil etadi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish faoliyatlari bolalarning imkoniyatlari xamda ularni o'rab turgan tabiatning xussiyatlarini nazarda tutgan xolda izchil shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi raxbarligida olib boriladigan faoliyatlarda guruhning barcha bolalarida dastur talablariga muvofik elementar bilimlar shakllanadi. Asosiy bilim jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma'lum sistema xamda izchillikda o'stiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yigilib boriladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish faoliyatlarining ta'limiy maqsadi bu bolalarga faoliyatlarda berilish yoki aniqlanishi xamda konkretlashtirilishi lozim bo'lgan bilim xajmidir. Bunga yana bolalarning tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishni kiritish mumkin. Faoliyatga tayyorlanish hamda uni o'tkazishda faoliyatning tuzilishi metodini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limiy vazifalar xarakteri, tabiiy ob'ektning xususiyatlari, xamda bolalarning yoshiga bog'liqdir. Faoliyat davomida topshiriqni bajarishga barcha bolalarni jalb qilish muhimdir.

Maktabgacha talim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlar: ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), ogzaki (tarbiyachining xikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat) metodlaridan va xilma-xil formalardan: mashgulotlardan ekskursiyalardan

kundalik hayotga mehnatdan kuzatishlardan uchastka va tabiat burchagidan o‘yinlardan foydalaniladi. Natijada bolalarda bilimlarni egallash malaka va ko‘nikmalarni xosil qilish qobiliyatlarini o‘stirish ilmiy dunyoqarashlarni axloqiy sifatlarini xulq atvorlarini shakllantirishga erishiladi.

#### REFERENCES

1. X Nuritdinova “MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI” Евразийский журнал академических исследований 2022/3/17 <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1492>
2. X Nuritdinova “SHAXSNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY VAZIFALARI” Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 2022/12/15 <https://zenodo.org/record/7445514>
3. Nuritdinova X. N. KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING MUTAXASSISNI KASBIY SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 158-160.
4. S.A. Abdullayev TABIAT OB’EKTLARINI ADEKVAT MODELLASHTIRISH ASOSIDA O‘QUVCHILARNING EKODIDAKTIK BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Educational Research in Universal Sciences.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

**Ikromova Ominaxon Elmurod qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

[ominaxonikromova03@gmail.com](mailto:ominaxonikromova03@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10070841>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida integrativ yondashuv asosida darslarni tashkil etishning ahvoli, o'rganilganlik darajasi, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan, ilmiy jihatdan asoslanib, xulosa va tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, integratsiya, fanlararo aloqadorlik, integrativ yondashuv, tasavvur, bilim, ko'nikma, malaka, dunyoqarash, texnologiya, ijod, tafakkur, I. Kololojvari, L. Sechenikova.

## ORGANIZATION OF LESSONS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH IN PRIMARY EDUCATION

**Abstract.** In this article, the state of organizing classes based on an integrative approach for elementary school students, the level of learning, opinions about the research work conducted by scientists are presented, scientifically based, conclusions and recommendations are presented.

**Key words:** Education, education, integration, interdisciplinarity, integrative approach, imagination, knowledge, skill, competence, outlook, technology, creativity, thinking, I. Kololojvary, L. Sechenikova.

## ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** В данной статье представлено состояние организации уроков на основе интегративного подхода для учащихся младших классов, уровень обучения, мнения о научно-исследовательской работе, проводимой учеными, научно обоснованы, представлены выводы и рекомендации.

**Ключевые слова:** Образование, образование, интеграция, междисциплинарность, интегративный подход, воображение, знание, умение, компетентность, мировоззрение, технология, креативность, мышление, И. Кололойвары, Л. Сеченникова.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonlarida "Hayotga kirib kelayotgan yo'sh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ularning ta'lim-tarbiyasini barpo etayotgan yangi O'zbekiston talablariga mos holda sifat jihatdan yuqori pag'onaga ko'tarish", ayniqsa yosh avlodimizning integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash ularning bandligini ta'minlash, hayotga o'z o'rnini topishi, jamiyatning munosib a'zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi dolzarb ekanligi ta'kidlangan. Mazkur muammoni hal

etishda uzluksiz ta'lim turlari ayniqsa, o'rta ta'lim maktablari (boshlang'ich sinflari) da darslarni fanlararo tashkil etish salmoqlidir.

Integrativ yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish muammolari yuzasidan R.Safarova, A.Musurmonov, P.Musayev, A.Ch.Choriyev, A.A.Salomov, B.Abdullayeva kabi o'zbek olimlari ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu va boshqa tadqiqot ishlarida fanlararo aloqadorlikning turli yo'nalishlari va tamoyillari, ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanilishi, o'quv fanlararo aloqadorlik asosida tanlangan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan hal etilgan. Jumladan, V.N.Fedorova o'z tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatib, o'quv fanlararo aloqadorlik tabiiy fanlar bilan atrof-muhit hodisalarini o'zaro aloqadorlikda va izchillikda ifodalashning didaktik sharti sifatida namoyon bo'lishi asoslarini tarkib toptirishning pedagogik, psixologik, metodik jihatlari tadqiq qilingan. Hozirgi kunda integratsiyaning bir necha usullari qo'llaniladi. Ulardan biri bir necha fanlarni bir fanga birlashtirish g'oyasidir. Bugungi kunda mazkur masalada ko'plab xorijiy mamlakatlar olimlari boshlang'ich maktablarining o'ziga xos xususiyatini integratsiyalash muammolarini tadqiq etmayotganliklarida ko'rish mumkin.

Bugungi kunda biror bir lug'atda integratsiyaning metodik jihatdan mazmuni haqida bironta so'zni uchratish mumkin emas. Lekin integratsiya so'zining ma'nosi hammamiz uchun yaxshi tanish. I. Kololojvari, L. Sechenikova lar integratsiyani metodik xarakterini «Integrativ darslarni qanday tashkil etish mumkin?» nomli maqolalarida quyidagicha tasniflaydilar: «...integratsiyalashgan darslarning imkoniyatlarini to'rt yil o'rganish natijasida bu metodikaning kelajagi katta ekanligiga ishonch hosil qildik. Unga ko'ra o'quvchilar ongida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va atroflicha keng tasavvur hosil qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar o'z bilimlarini amaliyotda yanada faol qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar, chunki bunda bilimlarning tub mohiyati yanada keng ochib berish imkoniyati, olamni bir butunlikda tasavvur qilish imkoniyati mavjud. O'qituvchi fanga oid bilimni berishda uni boshqa fanlar ma'lumotlari bilan solishtirish asosida uni yanada boyitadi, to'ldiradi».

Maktabda o'qitiladigan barcha fanlarda integratsiyalashning ma'lum bir imkoniyatlari mavjud bo'lib, uni integratsiyalashgan holda tashkil etish bir qator shartlarga bog'liqdir. Shuning uchun pedagoglar va metodistlar yangi dasturni yaratishdan avval, ana shu holatlarni barchasini e'tiborga olishlari lozim. Buning uchun eng avvalo o'qituvchi sinfning tayyorgarlik darajasini, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olishi lozim. O'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri integratsiya metodidan foydalanish ham bo'lishi mumkin. O'quvchilarning bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarining sababi, boshqa bir fandan yaxshi bilimga ega bo'lishlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Misol uchun katta hajmdagi matnni savodli ko'chirib olish uchun uni tez va to'g'ri o'qiy olish malakasi talab qilinadi. Agar bunday imkoniyat haqida gapirmasdan turib, o'qituvchi o'rgatiladigan har bir fanni boshqasi bilan solishtirmasdan, taqqoslamasdan, uning ma'lumotlaridan foydalanmasdan o'rgatishi anchayin qiyin va zararli bo'lishi mumkinligini his qilishi zarur.

Axir biz dunyo yagona bir butun ekanligini his qilib borayapmiz, sababi bir mavzuni yoritish uchun boshqa bir sohalarga murojaat qilmasdan iloji yo'qligi kunday ravshan bo'lib bormoqda. Bunday hollarda taqqoslash, qarama-qarshi qo'yishdan foydalaniladiki, bu esa integratsiya hisoblanadi.



Dasturdagi ko‘plab fanlarda «to‘qnashish» mavjud: bunda ma‘lum bir ob‘ektni o‘rganishda mavzular, muammolar, savollar bir xilligiga ro‘para bo‘linadi. Bularning barchasi esa hech bo‘lmaganda bitta mavzuga doir integratsiyaga bo‘lgan «talab»ni ifodalaydi. Boshlang‘ich ta‘limdagi o‘qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog‘lab o‘qitish uchun modulli dars texnologiyalariga amal qilmoq joiz. Chunki bunday darslar o‘quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda matematik tassavurlarni shakllantirishda quyidagi ahamiyatga molik vazifalar turibdi:

1. Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish metodikasi mavzining dolzarbligini aniqlash o‘rganish zaruriyatini asoslash;
2. Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish metodikasi mavzida chop etilgan darsliklar, qo‘llanmalar, monografiyalar, turli ilmiy darajalarni olish uchun yo‘zilgan dissertasiyalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish;
3. Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish borasida faoliyat olib borgan olimlar, fan doktorlari va nomzodlari faoliyatini o‘rganish va o‘rganilmagan jihatlarini aniqlash;

Boshlang‘ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarga matematika, o‘qish, tabiat haqidagi boshlang‘ich tushunchalarni va yana ko‘pgina narsalarni o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘zining kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o‘qituvchi (ta‘lim berish) va o‘quvchi (ta‘lim olish) harakatlarining mos kelishini ko‘zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta‘minlash asosida o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog‘liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo‘lishi, masalan, o‘qish darslarida qish fasliga doir she‘r yoki matnni o‘qishdan oldin o‘qituvchi mavzuni tabiatshunoslik bilan bog‘liqligi haqida “tabiatshunoslik darsida biz qish faslida bo‘ladigan tabiat hodisalarini, undagi o‘zgarishlarni o‘rganadilar. Ushbu she‘r (matn)da ham xuddi shu holat tasvirlangan” degan fikr bilangina cheklansa, unda o‘quv fanlari o‘rtasidagi bunday aloqadorlik faqat tashqi xususiyatga ega bo‘ladi, tasavvurlar va reproduktiv harakatlar darajasida qoladi. Boshlang‘ich ta‘limdagi o‘qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog‘lab o‘quvchilarning tassavurlarini boyitish joiz. Chunki bunday darslar o‘quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Xulosa qilib aytganda, o‘quv fanlariaro aloqadorlik hodisasi murakkab va serqirra didaktik jarayondir. Fanlararo aloqadorlikning falsafiy asosi, fanlar va ilmiy tushunchalarning o‘zaro bog‘langan holda rivojlanishi har zamonda ta‘limning asosini tashkil etadi va ta‘limning taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. R.A. Mavlonova va boshq. Boshlang‘ich ta‘limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., TDPU, 2007.
2. Murodova M. M. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini tabiatshunoslik fani bilan integrativ yondashuv asosida tashkil etish. //Pedagogs jurnali.
3. Murodova M. M. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatida pedagogik deontologiya kompetentlik.



4. Ortiqov O. R. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (Oliy ta'lim muassasalari misolida)
5. Ortiqov O. R. O'qituvchi faoliyatida pedagogik deontologiya va kompetentlikning roli va ahamiyati.

УДК 621.43.052

**КОРХОНАДА ФОЙДАЛАНИЛАЁТГАН ЭЛЕКТР МОТОРЛАРИНИНГ  
ИСРОФЛАРИНИ КАМАЙТИРИШ НАТИЖАСИДА ЭНЕРГИЯ  
САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ**

**Ҳошимов Урал Ҳошимович**

Ислом Каримов номидаги Тошкент Давлат Техника Университети Електор машиналари  
кафедраси Доценти

**Рахимов Музаффар Холматович**

Ислом Каримов номидаги Тошкент Давлат Техника Университети Електор машиналари  
йўналиши Магистри

**Абдалимов Сарвар Мирзахмат ўғли**

Ислом Каримов номидаги Тошкент Давлат Техника Университети Електор машиналари  
йўналиши Магистри

+998908090646 [Hoshimovu83@gmail.com](mailto:Hoshimovu83@gmail.com)

И.Каримов номли Тошкент давлат техника университети Иссиқлик энергетикаси  
факультети “Электр машиналари” кафедраси Университет кучаси. 2, Тошкент.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10070850>

**Аннотация.** Саноат ишлаб чиқариши корхоналарида фойдаланилаётган моторларнинг энергия истеъмолининг меъёрий қийматдан ортиши ва самарадорлигини ошириши масалаларига эътибор қаратишда энергия таъминотини режаслаштириши энергия истеъмолини меъёрлаштиришидан бошланиши лозимлигига долзарб масала бўлиб бормоқда. Корхоналардаги илмий асосланган меъёрий кўрсаткичлар жорий этилган ускуналарни эксплуатация қилиниши даражасини баҳолашга, фойдаланилмаган резервларни аниқлаш ва амалга оширишига ҳам имкон беради. Корхонанинг энергия истеъмолини меъёрий даражасини аниқлаш ва олинган натижавий кўрсаткичларда электр энергия истеъмолини назорат қилиши чора тадбирлари, мониторингларни давомий утказиши ортиқча исрофларни камайитириши вазифасини бажаради.

**Калим сўзлар:** Компрессор, вентилятор, трансформатор, мотор, алгоритм, дастурий таъминот, энергоаудит.

**INCREASING ENERGY EFFICIENCY AS A RESULT OF REDUCING THE WASTE OF  
ELECTRIC MOTORS USED IN THE ENTERPRISE**

**Abstract.** When energy consumption of motors used in industrial production enterprises increases from the standard value and increasing efficiency, energy supply planning should start with energy consumption standardization, becoming an urgent issue. Scientifically based normative indicators in enterprises allow to evaluate the level of exploitation of the introduced equipment, to identify and implement unused reserves. Determining the standard level of energy consumption of the enterprise and taking measures to control the consumption of electricity in the resulting indicators, continuous monitoring serves to reduce excess waste.

**Key words:** Compressor, fan, transformer, motor, algorithm, software, energy audit.

**ПОВЫШЕНИЕ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ЗА СЧЕТ СНИЖЕНИЯ ОТХОДОВ  
ЭЛЕКТРОДВИГАТЕЛЕЙ, ИСПОЛЗУЕМЫХ НА ПРЕДПРИЯТИИ**

**Аннотация.** При акцентировании внимания на повышении энергопотребления двигателей, используемых на промышленных производственных предприятиях, и повышении

их эффективности становится актуальным вопрос о том, что планирование энергообеспечения должно начинаться с нормирования энергопотребления. Научно обоснованные нормативные показатели на предприятиях позволяют оценить уровень эксплуатации внедряемого оборудования, выявить и реализовать неиспользованные резервы. Определяя нормативный уровень энергопотребления предприятия и принимая меры по контролю потребления электроэнергии по результирующим показателям, непрерывный мониторинг служит снижению лишних отходов.

**Ключевые слова:** Компрессор, вентилятор, трансформатор, двигатель, алгоритм, программное обеспечение, энергоаудит.

Жаҳонда энергиядан самарали фойдаланиш бўйича кенг қамровли ишлар олиб борилмоқда. Шу жумладан, Ўзбекистонда ҳам энергия тежаш бўйича кенг қамровли сиёсат доирасида энергия самарадорлиги ошириш дастурини жойлаштиришни назарда тутадиган энергия стратегиясини жорий этган. Ушбу дастур энергетика саноатини жадал технологик янгилаш, замонавий қайта ишлаш заводлари ва транспорт қувватларини ривожлантириш, шунингдек, янги, истиқболли бозорларни ривожлантириш учун асосий шарт-шароитларни яратишга қаратилган. Корхонадаги энергия тежамкорлик масалаларига эътибор қаратишда энергия таъминотини режалаштириш энергия истеъмолини меъёрлаштиришдан бошланиши лозимлигига кенг эътибор қаратилмоқда. Рағбатлантирувчи илмий асосланган меъёрлар ишлаб турган ускуналарни эксплуатация қилиниши ва фойдаланилаётган қурилманинг янги ишлаб чиқилган турлари билан солиштириш. Шу билан бирга замонавий технологиялардан фойдаланиш эришиладиган натижалар таҳлилини олиб бориш ва жорий қилиш энергия танқислиги даврида долзарблиги ошиб бормоқда[1].

Корхонадаги технологик қурилмалар моторларининг энергетик характеристикаларига асосланиши ва мақбул эксплуатация режимларини ҳисобга олиши керак. Ҳар бир корхона бўйича маҳсулот ишлаб чиқаришнинг конкрет технологияларига мос равишда электр ва иссиқлик энергияси, ёқилғи сарфининг индивидуал меъёрлари ишлаб чиқилади ва шу меъёрлар асосида мониторинг олиб боради.

Ишлаб чиқариш корхонасида ишлатилаётган компрессорлар, вентиляторлар ва бир қатор электр моторлар билан таъминланган қурилмаларнинг энергия самарадорлигини ошириш натижасида маҳсулотга сарфланадиган электр энергия исрофларини олдини олган ҳолда энергия истеъмолида самарадорликга эришилади.

Электр моторларининг механик исрофларини назорат қилиш ва чора тадбирларни ўз вақтида олиб бориш натижасида энергия тежамкорлигига эришишда бир қатор усуллардан фойдаланилади. Буларга электр моторларнинг иссиқлик ишлаб чиқариш даражасининг мониторинг қилиб бориш усули, маълум юкламадаги электр энергия истеъмолининг ортинини назорат қилиш усули ва бошқа усуллари мавжуд.

Тадқиқот олиб борилган корхонанинг технологик ускуналарининг электр энергиясидан фойдаланиш йўналиши бўйича электр истеъмоли:

- технологик эҳтиёжга;
- двигатель юкланиши;
- меҳнат шароитларини таъминлашга хизмат қилади.

Корхонада фойдаланилаётган электр истеъмолига - технологик қурилмаларининг ишлашида, электр эрозияга, электр статистик жараёнларга кетган электр истеъмоли киради. Мотор юкланиши учун электр истеъмоли таркибига асосий ишлаб чиқариш агрегатларининг юритмалари истеъмол қилаётган электр энергияси киради. Меҳнат шароитларини таъминлашга электр истеъмоли таркибига вентиляция, кондиционер, ишлаб чиқаришга ва ишлаб чиқаришга тегишли бўлмаган, алоқа воситалари ва бошқаришга кетган электр энергияси истеъмолларини ўз ичига олади.

Корхонада фойдаланилаётган қурилмалардаги электр моторларини таҳлил қилиш натижасида ортиқ шовқин чиқараётган моторларнинг текшириш натижасида электр энергия истеъмолининг ортганига гувоҳ бўлиб сабаблари таҳлил қилинганда моторларнинг подшибник қисмларидаги камчиликлар аниқланди. Подшибниклар янгисига алмаштирилиши натижасида истеъмол қилинаётган 1,5 кВт қувватга эга мотор 4,1 А истеъмол токининг 3,4 А га туширишга эришилди. Мотордаги хосил бўлаётган шовқин пасайиши қузатилди. Хулоса қилганимизда мотордаги механик исрофларнинг ортиши натижасида электр энергия исрофи 20% гача ортишини юзага келтирган. Бу ҳолатда моторнинг юкланиши паст бўлишига қарамай катта электр энергия истеъмолини юзага келтирган[6].

Юқоридаги мисолларни эътиборга олган ҳолда қорхонада ишлатилаётган қурилмаларнинг жорий таъмирлардан кейинги маълум муддатда олинган электр энергия истеъмоли ва ишлаб чиқарилган маҳсулотининг миқдори аниқланиб назорат қилинадиган параметрлари аниқланади. Олинган натижалар асосида электр энегия истеъмоли ва ишлаб чиқариш самарадорлиги мониторинг қилиб борилганда ва белгиланган чегаравий оғишларнинг ортиши қузатилса электр юритмаларнинг жорий таъмирга тавсия этилади. Буларни амалга оширишда қуйидаги вазифаларни амалга ошириш талаб этилади[4]:

- “Инженер-энергоаудиторнинг автоматлаштирилган иш жойи” дастурий-аппарат мажмуасини ишлаб чиқиш.
- Мавжуд машинасозлик корхоналар гуруҳининг энергоаудити технологик жараёнлар тузилишини таҳлил этиш, электр энергия истеъмолчиларинг таркибини аниқлаш ва электр истеъмоли тадқиқотлари билан бирга амалга ошириш.
- Машинасозлик корхоналарида мавжуд электр энергияси сарфларини меъёрлаш усулларини таҳлил этиш ва уларни, электр истеъмолчиларнинг ҳақиқий иш режимларини ҳисобга олган ҳолда такомиллаштириш[2].

Электр энергиясини тежаш концепциясини ва энерготежамкор технолгиялар ва ускуналарни танлаш методикасини ишлаб чиқиш.

Корхонанинг асосий электр энергия истеъмолчилари бўлган қурилмаларининг эксплуатациядан кейинги маълум муддатдаги электр энергия истеъмоли келтирилган жадвал қуйида тасвирланган[6].

1-жадвал. ТПА дастгоҳлари бўйича электр энергия сарфининг 5 суткалик натижалари


Уланманинг номи, ҳисоблагичнинг завод номери, ҳисобга олиш тури (актив, реактив)	Ҳисоб-китоб коэффициенти		Ҳисоблагич кўрсаткичлари		Ҳисоблагич курсаткич- ларининг фарқи	Сарф кВт*с оат
	ток трансфор- маторининг (ТТ)	умумий	бошланғич (10.04.2023й. соат 14:00)	охирги (15.04.2023й. соат 21:00)		
1	2	4	5	6	7	8
ТПА-1050 LS №1	400/5	80	5352	5420,75	68,75	5500
ТПА-1050 LS №2	400/5	80	4820	4882,705	62,705	5016,4
ТПА-650 КМ	400/5	80	3276	3300,92	24,92	1993,6
ТПА-650 LS №1	400/5	80	4196	4249,695	53,695	4295,6
ТПА-650 LS №2	400/5	80	4635	4691,296	56,296	4503,6 8
ТПА-850 LS	400/5	80	6468	6536,74	68,74	5499,2
ТПА-1300 LS	400/5	80	5946	6015,683	69,683	5574,6 4
Жами электр энергия						32391, 12

2-жадвал. 5-кунлик ишлаб чиқариш самарадорлиги

№	Дастгоҳ номи	Томон	Соати:	10.04.2023 йил куни Соат 14:00 дан 15.04.2023 куни соат 21:00 гача чиқрилган маҳсулотлар сони.										Жами:	
			Сана:	10.04.23	11.04.23	12.04.23	13.04.23	14.04.23	15.04.23						
1	ТПА-650 КМ	Сменаси	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	
		Маҳсулот номи	К-3	К-3	К-3	К-3	К-3	К-3	К-3	К-3	К-3	К-3	К-3	К-3	
		ЛН	167	480	235	347	425	375	10	360	528	540	335	410	4212
		РН	167	480	235	347	425	375	10	360	528	540	335	410	4212
2	ТПА-650 LS №1	Сменаси	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	
		Маҳсулот номи	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	
		ЛН	425	498	432	0	576	320	440	410	0	315	232	315	3963
		РН	425	498	432	0	0	320	440	410	0	315	232	315	3387
3	ТПА-650 LS №2	Сменаси	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	
		Маҳсулот номи	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	
		ЛН	560	555	555	576	275	540	540	540	375	300	258	450	5524
		РН	560	555	555	576	275	540	540	540	375	300	258	450	5524
4	ТПА-850 LS	Сменаси	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	
		Маҳсулот номи	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	
		ЛН	432	415	540	353	91	472	190	460	70	65	320	380	3788
		РН	432	415	540	353	91	472	190	460	70	65	320	380	3788
5	ТПА-1050 LS №1	Сменаси	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	
		Маҳсулот номи	P-3	P-3	P-3	P-3	P-3	P-3	P-3	P-3	P-3	P-3	P-3	P-3	
		ЛН	0	0	402	530	504	504	504	376	405	552	567	564	4908
		РН	0	0	402	530	504	504	504	376	405	552	567	564	4908
6	ТПА-1050 LS №2	Сменаси	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	
		Маҳсулот номи	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	К-2	
		ЛН	90	72	564	522	400	576	476	510	384	411	388	516	4909
		РН	90	72	564	522	400	576	476	510	384	411	388	516	4909
7	ТПА-1300LS	Сменаси	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	1-С	2-С	
		Маҳсулот номи	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	P-2	
		ЛН	40	360	432	355	417	435	396	355	432	162	0	0	3384
		РН	40	360	432	355	417	435	396	355	432	162	0	0	3384

суткалик ўзгариши.





2-расм. Қурилманинг текшириш алгоритми ишлаш структураси.

Қурилманинг энергия истеъмолини текшириш алгоритми орқали жорий текширишдан олинган паспорт параметрларнинг ўзгаришларини мониторинг қилиб борилади. Энергия истеъмоли мумкин бўлган оғиш оралиғидан чиқиши билан операторга хатолик ҳақида сигнал берилади. Бу усулдан он-лайн равишда фойдаланиш натижасида энергия тежамкорлиги олиб борилади[5].

Текшириш алгоритмидан фойдаланиш натижасида механик исрофларнинг ортиши олди олиниши натижасида хатоликлар учун сарфланадиган электр энергия сарфи 1-3% гача тежалишига сабаб бўлади. Алгоритмдан фойдаланиш натижасида моддий ресурс тежамкорлиги 15% га ортиши аниқланди. Шу билан бирга ишлаб чиқариш жараёнининг ўзлуксизлигини таъминлаш катта аҳамият касб этади[6].

Шунингдек, баъзи корхоналарда электр энергиянинг ойлик ва йиллик сарфларини аниқлаш учун соддалашган ифодалар қўлланилади:

$$W_{o.э.с} = \sum_{i=1}^n P_{ўр.қ} \cdot k_{i.ф} \cdot T_{i.o}, \quad (1)$$

Бу ерда  $W_{o.э.с}$  – цехда актив электр энергиянинг ойлик сарфи, кВт · с;  $n$  – цехдаги бир турдаги электр истеъмолчиларнинг сони, дона;  $P_{ўр.қ}$  -  $i$ -турдаги электр истеъмолчиларнинг ўрнатилган қуввати, кВт;  $k_{i.ф}$  -  $i$ -турдаги электр истеъмолчиларнинг фойдаланиш коэффициенти;  $T_{i.o}$  - турдаги электр истеъмолчиларнинг бир ойда ишлаш соатлари, соат.

Механик юкламанинг ортиши натижасида сарфланадиган ток миқдорининг ортиши кўзатилади. Энергия исрофининг ҳисоблаш ифодаси қуйидагича аниқланади[4].

$$P_{EI} = m_1 \cdot I_1^2 \cdot r_1$$

бу ерда:  $m_1$ -фазалар сони,  $I_1$ -обмоткада ҳосил бўлган ток ва  $r_1$ -чулғамнинг актив қаршилиги.

$$I_1 = \frac{U_1}{\sqrt{\left(r_1 + \frac{r_2'}{s}\right)^2 + (x_1 + x_2')^2}} \quad (2)$$



Юқоридаги ифодадан кўринадики, моторнинг сирпаниши ортиши натижасида истеъмол қилинаётган ток ортиши кўзатилади. Хулоса ўрнида механик исрофлар иссиқлик ва ишқаланишлар ҳисобидан юзага келади.

Юклама натижасида сарфланаётган токнинг цех бўйича умумий ишлаб чиқариш меъёри қуйидагиларни ўз ичига олади:

- 1) цехнинг технологик эҳтиёжлари учун электр энергияси сарфлари;
- 2) цехнинг ёрдамчи эҳтиёжлари учун электр энергияси сарфлари (иситиш, вентиляция, ёритиш, цех ичидаги транспорт ишлари, цехни таъмирлаш участкаси ишлари, цехнинг маиший ва санитария эҳтиёжлари);
- 3) ички электр тармоқларида, трансформаторларда ва ўзгартиргичларда электр энергиясининг йўқотишлари.

Бевосита ишлов жараёнида сарфланган фойдали энергия, кВт · с:

$$W_{\Pi} = k_3 \cdot \frac{P_H}{\eta_H} \cdot T_M \cdot \eta_{\text{ст}}(k_{3p}) \cdot \eta(k_{3p}) \quad (3)$$

бу ерда  $k_3$  – юкланиш режимида бош ҳаракатланувчи станок двигателининг истеъмол қилиётган қуввати бўйича ўртача юклаш меъёрий коэффициенти;  $T_M$  – битта деталга ишлов бериш учун ўртача машина вақти, соат[5].

Двигатель валида қувват бўйича юклама коэффициентидан станокнинг ФИК функцияси:

$$\eta_{\text{ст}}(k_{3p}) = \frac{5 \cdot \eta_{\text{ст.н}}}{5 \cdot \eta_{\text{ст.н}} + \left(\frac{3}{k_{3p}} + 2\right)(1 - \eta_{\text{ст.н}})} \quad (4)$$

бу ерда  $\eta_{\text{ст.н}}$  – станокнинг номинал ФИК, у усқунанинг паспорт маълумотларидан аниқланади.

Тахминий ҳисоб-китобларда бош ҳаракати айланувчи станокларда  $\eta_{\text{ст.н}} = 0,7 \div 0,85$ , прогрессив ҳаракатдаги станоклар учун эса  $0,6 \div 0,7$  деб қабул қилиш мумкин.

Тўғридан-тўғри қайта ишлашга сарфланган фойдали энергия, кВт·с:

$$W_{\Pi} = k_3 \cdot \frac{P_H}{\eta_H} \cdot T_M \cdot \eta_{\text{ст}}(k_{3p}) \cdot \eta(k_{3p}) \quad (5)$$

$k_3$  – юкланиш режимидаги қувват сарфи коэффициенти даражасининг;  $T_M$  – машинанинг ишлаш вақти, соат сифатида қабул қилинади.

Двигател валидаги қувватнинг ФИК қуйидаги ифода билан аниқланади.

$$\eta_{\text{ст}}(k_{3p}) = \frac{5 \cdot \eta_{\text{ст.н}}}{5 \cdot \eta_{\text{ст.н}} + \left(\frac{3}{k_{3p}} + 2\right)(1 - \eta_{\text{ст.н}})} \quad (6)$$

Бу ерда  $\eta_{\text{ст.н}}$  – станокнинг номинал юкламага нисбатан ФИК юқори бўлган катталиги ҳисобланади. Бу қиймат моторлар учун аксарият ҳолларда  $\eta_{\text{ст.н}} = 0,7 \div 0,85$ , электр машинасининг юкламаси юқори тебранишли ишлашга яқин бўлган ҳолларда  $0,6 \div 0,7$  оралиғида ҳам бўлиши мумкин. Шу билан бирга моторларнинг энергия самарадор оралиқда ишлашини таъминлаш натижасида энергия ва ресурс тежамкорлигига эришиш имкониятини оширади. Энг асосийси ўзлуксиз ишловчи корхоналарнинг қутилмаган бўзилишларининг олди олинади[6].

Хулоса ўрнида, корхоналарда ишлатилаётган қурилмаларнинг электр моторларнинг ва бошқа энергия истеъмолчиларининг жорий истеъмол параметрларини назорат қилиш натижасида йиллик электр энергия истеъмоли 1-3% гача иқтисод қилиниши аниқланди. Шу

билан бирга, корхонанинг моддий ресурсларга бўлган ресурс тежамкорлиги 15% га ортишига сабаб бўлди. Ўзлуксиз ишловчи корхоналарда қурилмаларнинг тўхтовсиз ишлашини таъминлашга хизмат қилади. Ўзлуксиз ишлайдиган ишлаб чиқариш корхоналарида бу параметр бозор иқтисодиёти шароитида жуда катта аҳамият касб этади.

#### REFERENCES

1. The Automobile Industry Pocket Guide. European Automobile Manufacturers Association's report. Belgium, Brussels, 2015. – 78 p.
2. Качканьян Р.А Пути снижения потерь на трение в кривошипно-шатунном механизме поршневых ДВС /Р.А. Качкарьян, К.С. Кульмагамбетов. –Текст: непосредственный //Молодой ученый.-2016.-№10(114). –С.231-234
3. Дзенис С. Е. Пути снижения механических потерь в подшипниках при проектировании энергоэффективных двигателей / Е. С. Дзенис // Вестник Нац. техн. ун-та "ХПИ": сб. науч. тр. Темат. вып.: Электрические машины и электромеханическое преобразование энергии. – Харьков: НТУ "ХПИ". – 2014. – № 38 (1081). – С. 79-89.
4. U.H. Hoshimov, O.Kh. Ishnazarov. Group control of air-cooled gas apparatuses/ Journal of Physics: Conference Series/ doi:10.1088/1742-6596/2094/5/052051 .-1-6 pp.
5. Ishnazarov O.Kh., Hoshimov U.H. Mathematical modeling of electric consumption of the gas cooling process // *E3S Web of Conferences* 264 04088. M.-2021. P-72.
6. Khoshimov U.H., Rahimov M.X., Abdalimov S.M. Reducing the mechanical waste of electric motors used at the enterprise // *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology* Vol. 10, Issue 4, April 2023. pp- 20591-20597.

**INNAVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA ISSIQXONALARDA  
ENERGIYA TEJAMKORLIGI**

**Raimbayeva Gulzira Sharipovna**

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti

**Raximov Akbar Kuvvatbek o'g'li**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

**Tastemirova Jasmin Rustam kizi**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

**Mirzog'ofurova Ozodaxon Odilbek qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10070893>

*Annotatsiya.* Respublika xalq xo'jaligining aniq sohaslarida energetika boyliklaridan samarali foydalanish muammosining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri - energiya tejamkorligi sohasidagi bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdir. Shuning uchun taqdim qilinayotgan qo'llanma aning maqsadi - bu bo'lg'usi energetiklarda energiya tejamkorligi sohasida jahon tajribasi va O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati asosida energetik resurslardan samarali foydalanish muammolarini qo'yish va yechimini topishga umumiy metodologik yondashishni sbakllantirishdir. Asosiy diqqatni material resurslarni qidirib topishga qaratish kerak. Energiya tejash tadbirlarini o'tkazishda ta'rif hosil qilish va moliyalashtirish masalalari o'ta muhim hisoblanadi. Iste'molchilarda energiya tejashni rag'batlantirish uchun energiya tejamlovchi ta'riflash siyosatini bosqichma-bosqich tatbiq etish zarur.

*Kalit so'zlar:* Innavatsion texnologiyalar, issiqxonalarda etishtiriladigan o'simliklar, energiya tejamkorligi ta'siri.

**ENERGY SAVING IN GREENHOUSES USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES**

*Abstract.* One of the most important components of the problem of effective use of energy resources in specific sectors of the national economy of the republic is the training of specialists with knowledge in the field of energy saving. Therefore, the purpose of the presented project is to develop a general methodological approach to solving the problems of effective use of energy resources based on the world experience in the field of energy saving in the future and the state policy of the Republic of Uzbekistan. The main focus should be on finding material resources. Definition and financing issues are very important in conducting energy saving activities. A phased implementation of energy-saving labeling policies is necessary to encourage energy conservation among consumers.

*Keywords:* Innovative technologies, plants grown in greenhouses, energy efficiency.

**ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЕ В ТЕПЛИЦАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ  
ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

*Аннотация.* Одной из важнейших составляющих проблемы эффективного использования энергетических ресурсов в конкретных отраслях народного хозяйства республики является подготовка специалистов, обладающих знаниями в области энергосбережения. Поэтому целью представленного проекта является разработка общего методического подхода к решению проблем эффективного использования энергоресурсов на основе мирового опыта в области энергосбережения в будущем и

*государственной политики Республики Узбекистан. Основное внимание должно быть уделено поиску материальных ресурсов. Вопросы определения и финансирования очень важны при проведении мероприятий по энергосбережению. Поэтапное внедрение политики энергосберегающей маркировки необходимо для поощрения энергосбережения среди потребителей.*

**Ключевые слова:** *Инновационные технологии, растения, выращенные в теплицах, энергоэффективность.*

**Kirish.** Dehqonchiligida sabzavot ekiniaridan yiliga 2-3 manta hosil olish va himoyalangan yer inshootlaridan unumli foydalanish imkoniyati mavjud. Respublikamiz aholisini sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va dunyoda yuz berayotgan oziq-ovqat muammosini oldini olishda bu imkoniyat muximdir. Doimiy o'sish joyiga ko'chirib o'tkazishga mo'mjallangan lekin, hosil beruvchi organlari xali shakllanmagan yosh niholga ko'chal deb ataiadi. O'simliklarni ko'chat orqali o'stirishning mohiyati. ular hayotining birinchi boshlanish davrida oziqa va rramlik yetarli bo'lgan kichik oziqlanish maydonda, sun'iy iqlimli sharoitda o'sadi. so'ng ochiq yoki himoyalangan yer inshootlariga ko'chirib o'tqazib o'stirishdan iboratdir. Uni issiqlik tartiboti bo'yicha ochiq dalada yetishtirish imkoniyati bo'lmaganligi sababli himoyalangan yerda o'stiriladi. Ochiq yerdagi sabzavot ekinlarining yarmidan ko'pi va himoyalangan yerda taxminan 90 foizi ko'chat bilan ekiladi. Ko'chat usiubini o'suv davrining oxirida katta oziqlanish nmydonini talab qiladigan va zaruriyat bo'Mganda erta mahsulot olish uchun m oljailangan ekinlarda qo'Mlash maqsadga muvofiqdir

Azotli o'g'it miqdorini oshib borishi tuplash fazasini kechikishiga olib keldi. Masalan, 2021 yil ma'lumotlari bo'yicha kechpishar «Mustaqillik» navida nazorat variantiga nisbatan 60 kg N berilgan 3 variantda 3 kunga, N 90 kg/ga berilganda (var. № 4) 5 kunga, N 120-150 kg/ga berilganda 6-8 kunga kechikdi. Ushbu qonuniyat tajriba o'tkazilgan barcha yillarda qaytarilib yil ob-havosini kelishiga qarab bir yilda nazoratga nisbatan o'rtacha 6-8 kunni 2018 yilda esa 7-9 kunni tashkil etdi. Kechpishar «Mustaqillik» navida oziqlantirish me'yorini oshirilishi tuplash fazasini sezilarli darajada ortishiga olib keldi. 60 kg/ga azot berilganda o'rtacha uch yillikda 1-7, 90 kg/ga. da 2-9, 120 kg/ga. da 3-10 kunga, 150 kg/ga qo'llanilganda 3-10 kunga uzayishi kuzatildi. Ushbu holat ro'vamlash fazasini boshlanishi va tugallanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

1-jadval

**Sholining o'suv fazalariga azotli oziqlantirish miqdorini ta'siri («Mustaqillik» navi)**

	Variantlar	Tuplash	Ro'vamlash		Pishish		Amal davri
			boshlanishi	yakuni	boshlanishi	To'liq	
<b>2021yil</b>							
1.	Nazorat	17 VII	13 VIII	21 VIII	20 IX	13 X	116
2.	R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	17 VII	12 VIII	19 VIII	21 IX	13 X	116
3.	N <sub>60</sub> R <sub>20</sub> K <sub>150</sub>	18 VII	12 VIII	20 VIII	23 IX	18 X	120
4.	N <sub>90</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	19 VII	14 VIII	24 VIII	25 IX	20 X	121
5.	N <sub>120</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	20 VII	15 VIII	25 VIII	27 IX	23 X	123
6.	N <sub>150</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	20 VII	16 VIII	27 VIII	3 X	25 X	126
<b>2022 yil</b>							
1.	Nazorat	16 VII	11 VIII	19 VIII	20 IX	13 X	117
2.	R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	16 VII	12 VIII	20 VIII	21 IX	13 X	117
3.	N <sub>60</sub> R <sub>20</sub> K <sub>150</sub>	18 VII	12 VIII	20 VIII	23 IX	18 X	120
4.	N <sub>90</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	19 VII	14 VIII	24 VIII	25 IX	20 X	121
5.	N <sub>120</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	20 VII	15 VIII	25 VIII	27 IX	23 X	123



6.	N <sub>150</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	20 VII	16 VIII	27 VIII	3 X	25 X	126
----	--	--------	---------	---------	-----	------	-----

Mazkur holat sholining pishishini boshlanishi hamda to'liq pishish davrida ham kuzatildi. Pishishni boshlanishi nazorat variantiga nisbatan N 60 kg/ga azot o'g'iti berilganda «Mustaqillik» navida o'rtacha 3 kunga, N 90 kg/ga berilganda 5-7 kunga, N 120 kg/ga da 7-8 kunga, N 150 kg/ga da 11-13 kunga kech boshlandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, azotli o'g'it me'yorini ortib borishi sholini to'liq pishib yetilishini kechikishiga olib keldi. Nazorat variantiga nisbatan N 120-150 kg/ga qo'llanilganda pishib yetilish «Mustaqillik» navida o'rtacha 10-15 kunga cho'zildi. Demak, yuqori me'yorda azotli o'g'it qo'llanishi navning biologik xususiyatidan tashqari navning kech yetilib pishishiga sabab bo'ldi.

O'suv davrining uzayishi asosan o'g'itlar miqdorini oshishi tufayli nazorat variantiga nisbatan tuplanish koeffitsientini ortishi yon hosil shoxlarini ko'p hosil bo'lishi, hosil elementlarini keskin ortishi va ularni asosiy poyadan keyin pishib yetilishi hisobiga vujudga keldi.

Ko'chat usuli bilan sholi yetishtirishda «Mustaqillik» navida mineral o'g'itlarning variantlar bo'yicha oshib borishi o'suv davrining nazorat variantiga nisbatan 15 kungacha uzayishiga olib keldi.

O'rganilayotgan variantlarga bir xil miqdorda o'g'it berilishiga qaramasdan navlarning o'suv davridagi farq «Mustaqillik» navida o'rtacha uch yilda nazorat variantida 117 kuni N 120-150 kg/ga qo'llanilganda 124-127 kuni tashkil etdi.

Tajribalarda o'rganilayotgan navning azot o'g'iti miqdorini oshib borishini sholi o'simliklarining yotib qolishiga ta'siri ham bevosita o'rganildi. «Mustaqillik» navi ko'chat usulida takroriy ekin sifatida ekilganda azot o'g'iti 150 kilogramm miqdorda berilganda yotib qolish darajasi 15-20%ni tashkil etdi. Lekin, optimal me'yor hisoblangan «Mustaqillik» navida N 120 kg/ga qo'llanilganda o'simliklarni yotib qolish holati kuzatilmadi.

O'suv davrlarida o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga tasir qiladigan asosiy omillardan biri mineral o'g'itlarning miqdori hisoblanib, bu ko'rsatkich sholini o'sishi va rivojlanishiga, sifat va miqdor ko'rsatkichlari va yer ustki qismining quruq massa to'plashiga turlicha ta'sir qildi. O'simliklarning o'suv davri davomida to'planib borayotgan asosiy ko'rsatkichlarga sholining tuplanish koeffitsienti, o'suv fazalaridagi o'simlik bo'yi, bo'g'im oralig'ini o'sish tezligidagi farq, o'suv davridagi yer ustki qismi massasini oshib borishi kiradi.

Yuqori hosil yetishtirishga ta'sir qiladigan asosiy omillardan biri ko'chat qalinligi bo'lib, bu asosan ekilgan urug'ning miqdori, uni sifatiga va dala unuvchanligiga bog'liq bo'ladi. Ko'chat usuli bilan sholi yetishtirish agrotexnikasida ham ushbu qonuniyat saqlanib qoldi, ammo bu usulda sholi yetishtirishda hosildorlikni belgilovchi asosiy ko'rsatkich, ko'chatning tuplanish darajasi hisoblanib, uni koeffitsienti qancha yuqori bo'lsa, hosildorlik shunga mos ravishda yuqori bo'lishi namoyon bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari orasida sholi urug'ining dala unuvchanligi boshqa g'alla ekinlarining dala unuvchanligiga nisbatan pastligi ma'lum. Ammo, sholining boshqa g'alla donli ekinlaridan alohida ajralib turadigan hislati bu ko'chat soni kam bo'lishiga qaramasdan tuplanish darajasini yuqoriligidir. Lekin, bu xususiyat to'g'ridan - to'g'ri tuproqning unumdorligiga, navning biologik tavsifiga va mineral o'g'itlar me'yorlariga bog'liqligi kuzatildi.

Ma'lumki, maydon birligidagi poyalar soni sholi o'simligi bo'yining o'sishiga va hosildorlikka ma'lum darajada ta'sir qiladi.

Bizning tajribamizda sholi ko'chatlari dalaga o'tkazilgandan 20 kundan so'ng va o'rimdan oldin ko'chatlar va poyalar soni hisoblab chiqilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, ekilgan ko'chatning o'ringacha saqlanishi, hosildor poyalar soni, bevosita o'rganilayotgan navlarning biologik xususiyatiga va berilayotgan mineral o'g'itlarning miqdoriga bevosita bog'liqligi kuzatildi.

2-jadval

**Ko'chatlar sonini saqlanishi va hosildor poyalar soniga oziqlantirishning ta'siri (o'rtacha 3 yillik).**

№	Variant	O'simliklar Soni, Dona/1m <sup>2</sup> .		Ko'chatni O'ringacha Saqlanishi, %	Tuplash Koeff- Fitsienti	Mahsuldor Poyalar Soni Dona, M <sup>2</sup>
		Ko'chat O'tqazish Davrida	O'rimdan Oldin			
«Mustaqillik» Navi						
1	Nazorat (O'g'itsiz)	44	40	90	4.0	160
2	N <sub>0</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	44	40	90	4.4	176
3	N <sub>60</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	44	41	93	4.4	183
4	N <sub>90</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	44	42	95	5.0	210
5	N <sub>120</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	44	44	100	5.5	243
6	N <sub>150</sub> R <sub>120</sub> K <sub>150</sub>	44	43	97	5.3	236

Olib borilgan izlanishlardan malum bo'ldiki, mineral o'g'itlar miqdorini oshib borishi 1 m<sup>2</sup> kvadratdagi ko'chat soniga, hamda ko'chatning o'ringacha 10 % gacha kamayishiga olib keldi. Ammo, tuplanish darajasi hamda hosildor poyalar sonini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Sholining hosildorligi maydondagi ko'chatning soni bilan emas, balki shu maydondagi ko'chatda hosil bo'lgan mahsuldor poyalar soni bilan belgilanadi. Shuning uchun xam g'alla don o'simliklar orasida sholining tuplash darajasining yuqoriligi sababli maydondagi hosildor poyalar hisobidan kerakli, rejalashtirilgan hosil yetishtirishni boshqarish imkoniyati mavjud. Ma'lumki, sholini urug'idan hamda ko'chat usulida ekilganda ham, hosildor poyalar soni o'simlikning o'sishi va rivojlanishi, hosildorligiga ta'sir qiladigan asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Navlarning tuplash darajasiga va hosildor poyalar soniga mineral o'g'itlar miqdorining ta'siri turlicha bo'lishi qayd etilib, «Mustaqillik» navining nazorat variantida 1 m<sup>2</sup> maydonda hosildor poyalar soni o'rtacha 160, faqat fosfor, kaliy 100% berilgan variantda 176, azot, fosfor, kaliy berilgan variantda 183, N<sub>120</sub>, R<sub>120</sub>, K<sub>150</sub> berilgan variantda 243 donani tashkil qildi. Bu nazorat variantiga nisbatan 1 m<sup>2</sup> da 83 dona, yoki bir gektar maydon hisobiga 830 ming dona hosildor poya ko'p demakdir.

Tajriba maydonida ko'chat usulida sholi yetishtirishda ikki navga ham bir xil agrotexnika qo'llanishiga qaramasdan, «Mustaqillik» navida bir kvadrat metr maydonda variantlar bo'yicha 32-49 dona hosildor poyalar ko'p shakllandi. Taxlillarimizni ko'rsatishicha, bu faqat navning

biologik xususiyatiga xos bo'lgan ko'rsatkichdir. «Mustaqillik» navi seleksiya nuqtai nazaridan va mahsulotning texnologik bahosidan kelib chiqqan holda, bir necha ko'rsatkichlari bo'yicha afzalliklarga ega.

Demak, mineral o'g'itlarni qo'llash hisobiga tuplash koeffitsienti «Mustaqillik» navida 1,5 gacha hosildor poyalar sonini ta'lluqli ravishda 83-62 taga oshirilishiga erishildi. Sholi navlarining tuplash darajasi asosan navning biologik xususiyatiga bog'liq bo'lsada, lekin bu ko'rsatkichni oziqlantirish hamda ekish usuli bilan ham boshqarish mumkinligi isbotlandi.

#### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki, Sholio'simligini o'sish va rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganish, tushunib yetish orqali bo'yini o'sishi, rivojlanishi, quruq massa to'plashi va hosil yig'ishni boshqarish, har bir nav uchun alohida belgilangan ilg'or agrotexnik tadbirlar qo'llab yetishtiriladigan hosilning salmog'ini oshirish mumkin. Sholi navlarini mineral va organik o'g'itlarga bo'lgan talabi, navlarning biologik xususiyati, atrof muhit ta'siri, tuproq va iqlim sharoiti kabi omillarni o'z ichiga oladi.

#### **REFERENCES**

1. Djumanov. Z. N va boshqalar. O'zbekistonda sholi yetishtirish bo'yicha ko'rsatma. Toshkent. M-1998 y.
2. Ibragimov A. Sholichilik resurslari samaradorligi. // J.O'zbekiston q/x.-Toshkent, 2006.- №10.-12-13 b.
3. Agrokimyo Musaev.B Toshkent, nashriyoti 2001 257-259-b
4. Saimnazarov.Yu.B, Djumanov Z.N va boshqalar "O'zbekistonda sholi yetishtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatma" // Toshkent. 2009. 3-31-b.
5. O'razmetov Q.K "Kechpishar sholi navlari hosildorligiga ekish muddati va me'yorlarining ta'siri" Toshkent. 2017. 15-17-b. 45-b.

## INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI HIMOYA QILUVCHI XALQARO TASHKILOTLAR

Xatamova Aziza Maxammatqulovna

Jizzax viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10071880>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada intellektual mulk huquqi insonning ijod mahsulini himoya qilish va rag'batlantirishni jarayonini nazarda tutuvchi inson huquqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada intellektual mulk huquqi tushunchasi, uni tartibga soluvchi xalqaro va milliy tizimi, O'zbekistonda intellektual mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual mulk, patent, ixtiro, mualliflik huquqi, sanoat namunalari, integral mikrosxema, brend, geografik ko'rsatkich, tijorat sirlari.

## INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS PROTECTOR INTERNATIONAL ORGANIZATIONS

**Abstract.** In this article, the right of intellectual property is one of the human rights, which refers to the process of protecting and promoting the product of human creativity. This article analyzes the concept of intellectual property rights, the international and national system that regulates it, and the constitutional and legal foundations of intellectual property rights in Uzbekistan.

**Key words:** intellectual property, patent, invention, copyright, industrial designs, integrated circuit, brand, geographical indication, trade secrets.

## ЗАЩИТНИК ПРАВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ

**Аннотация.** В данной статье право интеллектуальной собственности является одним из прав человека, которое относится к процессу защиты и продвижения продукта человеческого творчества. В данной статье анализируется понятие права интеллектуальной собственности, международная и национальная система, которая его регулирует, а также конституционно-правовые основы права интеллектуальной собственности в Узбекистане.

**Ключевые слова:** интеллектуальная собственность, патент, изобретение, авторское право, промышленные образцы, интегральная схема, торговая марка, географическое указание, коммерческая тайна.

Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsiyalarni rag'batlantirish va muallif ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish borasida keng ko'lamlı konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 53-moddasida "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi"<sup>210</sup>, deb mustahkamlab qo'yilishi intellektual mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlanganligidan dalolat beradi. Yurtimizda intellektual mulk

<sup>210</sup> Qarang, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

sohasini yanada takomillashtirish, shu jumladan, tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan zarur shart-sharoitlarning yaratilishi va intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlanishi Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Intellektual mulk huquqi inson huquqlari sohasidagi zamonaviy yo'nalishlardan biri hisoblanib, xalqaro va milliy darajada tashkil etiladi va tartibga solinadi. Hozirgi kunda, jahon hamjamiyatida intellektual mulk huquqini himoya qilish va qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydigan bir nechta xalqaro tashkilot va shartnomalar mavjud bo'lib, ulardan bir nechtasini ko'rib chiqsak maqsadga muvofiq bo'lar edi:

**1. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO)** (1970-yil 26-aprelda konvensiya kuchga kirgan paytdan boshlab o'z faoliyatini boshladi) BMTning xalqaro darajadagi intellektual mulk masalalari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan muassasasi hisoblanadi. Tashkilot intellektual mulk sohasidagi xalqaro standartlar va qoidalarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish, shuningdek, ishtirokchi-davlatlarga huquqiy va texnik yordam ko'rsatishga yaqindan yordam beradi;

**2. Yevropa patent idorasi (EPO) (1977)** Yevropa davlatlarida patentlarni ro'yxatga olish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilotdir. U innovatorlarga Yevropaning bir qator davlatlarida patent olish va patent muhofazasi bilan shug'ullanadi. Mazkur idora Yevropa patent konvensiyasi asosida patentlarni haqqoniyligini tekshirib, davlatlarga patent berish masalalarini ko'rib chiqish bilan shug'ullanadi;

**3. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)** (London 1946-yil) turli sohalarda, jumladan, intellektual mulk sohasida xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi maxsus tashkilotdir. ISO standartlarni boshqarish uchun kelishilgan talablar va tartiblarni belgilash orqali biznes yuritish va texnologiya almashinuvini osonlashtirib, intellektual mulk huquqi va uning muallifining huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi;

**4. Jahon savdo tashkiloti (JST)** (1995-yil) jahondagi savdo sotiqni tartibga soluvchi xalqaro tashkilotdir. U, TRIPS kelishuviga muvofiq, JST intellektual mulkni umumiy himoya qilish va ushbu sohadagi nizolarni o'z a'zolari o'rtasida hal etish bo'yicha qoida va normativlarni ishlab chiqadi;

**5. YuNESKO (BMTning Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha tashkiloti, 1946)** madaniy va an'anaviy intellektual mulk obyektlarini saqlash va himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. YuNESKO an'anaviy meros mahsullarini himoya qilishga, madaniy boyiklardan oqilona foydalanish va tarqatilishiga ko'maklashishga qaratilgan standartlar va siyosatni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi;

**6. Institut va tadqiqot markazlari.** Dunyo bo'ylab ko'plab universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari intellektual mulkni o'rganish va rivojlantirish bilan shug'ullanishadi. Masalan, Hindistondagi Anna Universiteti, Chulalongkorn universiteti intellektual mulk instituti va Avstraliya Intellektual MulK Tadqiqot Instituti (IPRIA). Ular intellektual mulk huquqlarining ahamiyati haqida jamoatchilik orasida intellektual mulk muhofazasi haqidagi savodxonlikni oshirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, yangi amaliyotlarni ishlab chiqishi va ta'lim dasturlarini taqdim etish bilan shug'ullanadi.

**7. Intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha milliy organlar.** Har bir mamlakatda milliy qonunchilikka muvofiq intellektual mulk huquqlarini ro'yxatga olish, himoya qilish va



nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan o'z milliy organlari va muassasalari mavjud. Patent, tovar belgilari va mualliflik huquqi idoralari kabi ushbu idoralar intellektual mulkni mamlakat ichida targ'ib qilish va himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, O'zbekistonda Adliya vazirligining Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari portali buning yoqin misolidir.

Bular butun dunyo bo'ylab intellektual mulk huquqini himoya qilish bo'yicha faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning bir nechtasi xolos. Ushbu tashkilotlar va davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli jahonda intellektual mulk sohasida yagona standartlarni o'rnatish, intellektual mulk huquqi mualliflarining huquqlarini himoya qilish, innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni rag'batlantirish imkonini beradi.

O'zbekistonda intellektual mulk huquqlari milliy qonunchilik, shuningdek, mamlakat ratifikatsiya qilgan xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi Jumladan, dunyo bo'ylab intellektual mulk huquqini tartibga soluvchi ko'plab xalqaro shartnomalar mavjud bo'lib, ularda xalqaro standartlar belgilab qo'yilgan:

**1. Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi.** Ushbu konvensiya 1883 yilda qabul qilingan bo'lib, u intellektual mulk huquqlari sohasidagi asosiy xalqaro konvensiyalardan biri hisoblanadi. Konvensiyada sanoat mulkini, shu jumladan patentlarni, tovar belgilarini va sanoat namunalarini himoya qilishning minimal standartlari belgilangan.

**2. Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitim (TRIPS).** Ushbu shartnoma Jahon Savdo Tashkiloti doirasida qabul qilingan bo'lib, intellektual mulk huquqlariga oid asosiy xalqaro hujjatlardan biridir. TRIPS shartnomasida intellektual mulk huquqini himoya qilishning minimal standartlarini belgilab, unda ishtirokchi davlatlar milliy qonunchiligida intellektual mulk huquqini himoya qilishning tegishli va samarali tizimini qabul qilish majburiyatini yuklaydi.

Yuqorida keltirilgan hujjatlar bugungi kunda ratifikatsiya qilingan davlatlar iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish, tadbirkorlik va ilm-fan uchun raqobatbardosh shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda intellektual mulk huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish va tegishli sertifikatlar olish orqali himoya qilish tizimi joriy etilgan bo'lib, ularning tartibga solinishi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Mamlakatimizda, intellektual mulk huquqining asosiy turlari va ularning huquqiy muhofazasi sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

**1. Mualliflik huquqi:** O'zbekistonda mualliflik huquqi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Mualliflik huquqi adabiy, musiqa va badiiy asarlar kabi original ijodiy ishlarni himoya qiladi. Bu ularning asarlari mualliflariga foydalanish, ko'paytirish, tarqatish va ommaviy ijro etish yuzassidan mualliflik huquqini beradi<sup>211</sup>.

**2. Patentlar:** O'zbekistonda patent huquqi 2006 yil 15 martdagi "O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 1-iyunda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan Patent huquqi to'g'risidagi Shartnomaga qo'shilishi haqida"gi qonun bilan tartibga solinadi<sup>212</sup>.

<sup>211</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'RQ-42-son Qonuni. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son.

<sup>212</sup> O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 15-martdagi "O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 1-iyunda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan Patent huquqi to'g'risidagi Shartnomaga qo'shilishi haqida"gi O'RQ-25-son Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 11-son, 81-modda.



Patentlar sanoatda qo'llaniladigan ixtirolarni huquqiy himoya qilishni nazrda tutadi. Unga muvofiq, patent egalari o'z ixtirolaridan foydalanish bo'yicha mutlaq huquqlarga ega va boshqalarning ruxsatisiz ulardan foydalanishiga to'sqinlik qilish huquqiga egadirlar.

**3. Tovar belgisi:** O'zbekistonda tovar belgisini himoya qilish 2001 yil 30 avgustdagi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq amalga oshiriladi<sup>213</sup>. Tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish egalari o'z tovarlari yoki xizmatlarini aniqlash va ularni noqonuniy foydalanish yoki qalbakilashtirishdan himoya qilish imkonini beradi.

**4. Sanoat namunalari:** O'zbekistonda sanoat namunalari 2002 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi<sup>214</sup>. Sanoat namunalari himoya qilish uning mualliflariga o'z mahsulotlarining o'ziga xosligini saqlab qolish va ularni nusxalashning oldini olish imkonini beradi.

**5. Integral mikrosxemalar topologiyalari:** Integral mikrosxemalar topologiyalariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish 2001 yil 12 maydagi O'zbekiston Respublikasining "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida" 218-II-sonli Qonuni bilan tartibga solinadi<sup>215</sup>. Qonun mualliflik huquqi mualliflariga ro'yxatdan o'tgan integral mikrosxemalar konstruktsiyalaridan tijorat maqsadlarida foydalanish uchun mutlaq huquqni beradi.

**6. Brendlar va geografik ko'rsatkichlar:** O'zbekiston, shuningdek, ma'lum bir mintaqada ishlab chiqarilgan tovarlarni identifikatsiya qiluvchi geografik ko'rsatkichlarni ham himoya qiladi. Geografik ko'rsatkichlarni muhofaza qilish "Geografik ko'rsatkichlar va tovarlarning asl nomlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Bu O'zbekistonning muayyan hududi bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlarga o'zining noyob kelib chiqishi va sifatini iste'molchilarni jalb qilish uchun ishlatish imkonini beradi.

**7. Tijorat sirlarini himoya qilish:** O'zbekistonda ham tijorat sirlarini, jumladan, texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonlari, patentlar va boshqalar haqidagi maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish choralari ishlab chiqilgan. Tijorat sirini himoya qilish 2014 yil 11 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Tijorat siri to'g'risida"gi O'RQ-374-sonli qonuni bilan tartibga solinadi<sup>216</sup>.

**8. Brend nomlari va domen nomlari.** O'zbekiston brend nomlari va domen nomlarini ham himoya qilinib, brend nomlarini himoya qilish umumiy tovar belgisi tamoyillariga asoslanadi, domen nomlarini himoya qilish esa milliy domen maydoni va elektron tijorat qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

---

<sup>213</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi 267-II-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.03.2022-y., 03/22/757/0181-son.

<sup>214</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi 397-II-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son.

<sup>215</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 12-maydagi "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi 218-II-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

<sup>216</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 11-sentyabrdagi "Tijorat siri to'g'risida"gi O'RQ-374-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

Bundan tashqari mamlakatimizda mualliflik huquqi, patent va savdo belgilarini ro'yxatdan o'tkazish mualliflik huquqini ta'minlash va ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 20 iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" O'RQ-42-sonli Qonuni qabul qilingan<sup>217</sup>. Mazkur qonunda muallif (hammualliflar)ning o'zi yaratgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi boshqa shaxslarning ayni shu asarga mualliflik huquqi e'tirof qilinishini istisno etishi; muallif asardan o'z ism-sharifi, taxallusini ko'rsatgan holda yoki imzosiz foydalanish yoki shu tarzda foydalanishga ruxsat berish borasida alohida huquqqa (mualliflik nomiga bo'lgan huquqqa) ega ekanligi ta'kidlangan.

Shuningdek, qonunda mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi, hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi esa, hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko'rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasida tafakkur mulki obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tkazilgunga yoki e'lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilish - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi ko'rsatilgan<sup>218</sup>.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, intellektual mulk huquqi O'zbekistonning innovatsion rivojlanishi va iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish ijodkorlikni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi. Intellektual mulk huquqini tushunish va unga rioya qilish barcha bozor ishtirokchilari, jumladan mualliflar, ixtirochilar, tadbirkorlar va iste'molchilar uchun muhim ahamiyatga egadir.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'RQ-42-son Qonuni. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son;
3. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 15-martdagi "O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 1-iyunda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan Patent huquqi to'g'risidagi Shartnomaga qo'shilishi haqida"gi O'RQ-25-son Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 11-son, 81-modda;

<sup>217</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'RQ-42-son Qonuni. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son.

<sup>218</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 01.11.2023-y., 03/23/874/0818-son.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi 267-II-son Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.03.2022-y., 03/22/757/0181-son;
5. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi 397-II-son Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son;
6. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 12-maydagi “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 218-II-son Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
7. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 11-sentabrdagi “Tijorat siri to‘g‘risida”gi O‘RQ-374-son Qonuni. *Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;*
8. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-42-son Qonuni. *Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.08.2021-y., 03/21/709/0808-son;*
9. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. *Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.11.2023-y., 03/23/874/0818-son.*

**Internet saytlari**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
3. [www.huquqiportal.uz](http://www.huquqiportal.uz)

## СУТ ВА СУТ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ КИМЁВИЙ ТАРКИБИНИ АНИҚЛАШДА ЗОМАНАВИЙ УСУЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШ

Саматов Азизжон Абдулахатович

ТКТИ доц.

Ҳамдамова Лобар Рустам қизи

ТКТИ 1- курс магистранти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10071903>

**Аннотация.** Мазкур мақолада сут ва сут маҳсулотларининг кимёвий таркибини аниқлашда зоманавий усулларни қўллаш масалалари ҳақида сўз боради. Мақола давомида асосли фикр ва хулосалар келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** сут ва сут маҳсулотларининг кимёвий таркиби, лактоза, минерал моддалар, витаминлар, ферментлар.

### USE OF TRADITIONAL METHODS IN DETERMINING THE CHEMICAL COMPOSITION OF MILK AND MILK PRODUCTS

**Abstract.** This article deals with the issues of using traditional methods in determining the chemical composition of milk and milk products. Reasonable opinions and conclusions are presented throughout the article.

**Key words:** chemical composition of milk and milk products, lactose, mineral substances, vitamins, enzymes.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРАДИЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА МОЛОКА И МОЛОЧНЫХ ПРОДУКТОВ

**Аннотация.** В статье рассмотрены вопросы использования традиционных методов определения химического состава молока и молочных продуктов. Обоснованные мнения и выводы представлены на протяжении всей статьи.

**Ключевые слова:** химический состав молока и молочных продуктов, лактоза, минеральные вещества, витамины, ферменты.

Сутнинг озикавий киммати ундаги оксил, ёғ, лактоза, минерал моддалар, витаминлар, ферментлар, гормонлар, пигментлар ва газлар йиғиндисига ва уларнинг энгил хазм бўлишига тушунилади. Одам бир кунда 500 дан-1,5 мл гача бир йилда ўртача 180-250 кг сут истеъмол қилиши керак. Агар одам 1 кунда 15 г сариёғ истеъмол қилса, у 375 грамм сут ичган бўлади, 175 грамм сут истеъмол қилса, 18 грамм пишлок истеъмол қилган бўлади.

Сут ёш организм учун зарур булган барча озикавий моддаларни сақлайди. Бир литр сут таркибида 32 грамм оксил (4- та товук тухумига тенг).

Сут минерал моддалардан кальций ва фосфорга жуда бой манба ҳисобланади. Сутнинг умумий каллорияси 2720 х 10 даражаси 3 ж/кг ёки 650 ккал/кг га тенг. Савдога асосан сигир сути пастерланган холда чиқарилади. Унинг куйидаги ассортиментлари мавжуд:

а) Пастерланган сут-касал тугдирувчи микроорганизмларни йўқотиш ва сақлаганда турғунлигини ошириш мақсадида 65-85С хароратда иссиқлик ишлов берилган сут, ёғи олинган, олинмаган ва сарёғ сутлар пастерланади.

б) Ёғи кўпайтирилган сут табиий ёки тикланган сутдан, ёғлигини

қаймоқ қушиш йўли билан 6 % га етказиб гомогенлаб тайёрланади.

в)Кайнатилган сут ёглилиги қаймоқ қўшиб 6%га етказилган, гомогенланган ва узок вақт давомида юкори хароратда иссиқлик ишлов берилган сутдир.

Сероқсил сут деб, таркибида куруқ ёгсизлантирилган моддалари кўп сутга айтилади. Уни меъёрлаштирилган сутга куруқ ёки қуюлтирилган соф сут қўшиб ишлаб чиқарилади. Унинг ёглилиги 25 % булади.

Витаминланган сут - бу пастерланган,"С" витамини қушилган соф ёки ёгсиз сут. Ёгсиз сут сутнинг ёғи сепараторда тула олинган сутдир.

Стерилланган сут - таркибига кўра пастерланган сутдан фарқ қилмайди. Стериллаш жараёни автоклавларда 103-104дан 118-123С гача бўлган хароратдаги босм остида ўтказилади; бунда хамма микроорганизмлар ва уларнинг споралари улади. Бундай сутни уй шароитида 10-15 кун сақлаш мумкин. Меъёрлаштирилган сут - табиий сутни ёгсизлантириш ёки қаймоқ қўшиш йўли билан таркибидаги ёғ микдорини 3,2 % га етказилган сут.

Қайта тикланган сут ёғи олинмаган ёки ёгсизлантирилган куруқ сут, шунингдек, канд қўшилмай қуюлтирилган сутдан тайёрланади. Куруқ сут сувда эритилади ва оқсиллар буқиши учун қўйиб турилади. Сўнгра филтрланади, гомогенизацияланади ва совутилади. Қайта тикланган сут таркибида 3,2 % ёғ бўлади.

Ионитли сут - бу сутдаги кальцийни қисман йўқотиш учун ионитлар билан ишлов берилган, қаймоғи олинмаган сутдир. Бундай ишлов беришда сигир сутидан камида 20 % кальций йўқотилади. Какаоли ёки кофели сут - камида 2% кофе ёки 2,5% какао қўшилган, қаймоғи олинмаган сутдан тайёрланади. У бир оз ёпишкок консистенцияга, какао ёки кофенинг сезиларли таъми ва хидига, бир хил рангли массага эга булади. Бундай сутнинг ёглилиги 3,2 %, таркибидаги сахароза 7-12 %, бўлади.

Янги соғилган сутнинг таъми озгина ширинроқ булиб, рангги оқсарғишроқ бўлади. Сут ўзига хос суюқ, бир жинсли иссиқлик ишлов берилгач янада суюқ булади, совутилганда эса жипслашади. Сут 100,20С хароратда қайнайди, 0,54-0,580С хароратда эса музлайди.

Сигир сутининг кимёвий таркиби турли элементлардан ташкил топган булиб, унда (фоиз хисобида):

сув-87,5; куруқ моддалар-12,5; шу билан бирга сут ёғи -3,8; оқсил-3,3

(булардан: казеин-2,7; албумин-0,5 ва глобулин 0.1), сут канди -4,7; минерал моддалар-0,7.

Сут ёғи сутнинг энг қимматли таркибий қисми булиб, у асосан еғ кислоталаридан ташкил топган. Сут ёғида 60дан ортик асосий ва иккинчи даражали ёғ кислоталари бор. Сут ёғи триглицеридларида учрайдиган асосий кислоталарга пальмитин, миристин, олеин ва стеарин кислоталари киради. Сут ёғи технологик хусусиятига кўра 27-35<sup>0</sup> С хароратда эрийди,17-21<sup>0</sup>С да котади. Сут ёғи алохида таркиби ва таъми билан фарқ қилади. Сут таркибида ёғ диаметри 3-5 мкм- га яқин шар шаклида учрайди. Бир миллилитр сут таркибида 4 миллиардга яқин ёғ шарчалари булади. Ёғ шарчаларининг оқсилли қобиғи уларни стабиллаштиради, шунинг учун улар бир-бирига ёпишмайди. Янги соғилган сут таркибида сут ёғи эмульсия, совутилган сутда эса суспензия қуринишида булади. Сут таркибидаги ёғнинг ёғ шарчалари кўринишида бўлишини микроскоп остида кузатиш

мумкин. Бу ёғ шарчаларининг ҳар бири мураккаб оксилли компонентдан иборат катлам билан уралган. Бир томчи сут таркибида 10 млрд.дан куп ёғ шарчаларни санаш мумкин. Қуйдаги жадвалда хайвонлар сутининг уртача кимёвий таркиби ўрганиб чиқилган.

Турли хайвонлар сутининг уртача кимёвий таркиби.

Сут турлари	Сут таркибида % ҳисобида					
	сув	қуруқ моддалар	ёғлар	оксил	Сут канди	Энергетик киммати к.кал
Сигир сути	87.0	13.0	3.0	3.2	4.7	69
Қутос сути	82.1	17.9	7.7	4.5	4.8	110
Бия сути	89.3	10.7	1.8	2.1	6.4	52
Туя сути	86.4	13.6	4.5	3.5	4.9	76
Эчки сути	86.6	13.4	4.3	3.6	4.5	73

Турли хайвонлар сутининг ўртача кимёвий таркиби қуйдаги жадвалда келтирилган. 1 литр сут катта ёшдаги кишиларнинг хайвон ёғи, кальций, фосфор ва витаминларга бўлган эҳтиёжини қондиради ҳамда 2720.103 ж/кг энергия қийматига эга. Сутдаги пластик моддаларга: оксиллар, минерал моддалар киради. Сут ҳар қандай маҳсулотга қараганда шифоли ва тез хазм бўладиган маҳсулот ҳисобланади. Ибн Сино ҳар бир касални давоси бу албатта сут деб ҳисоблаган.



## АЛТЫН ОРДА МӘДЕНИЙ МИЙРАСЫНЫҢ ОРТА АЗИЯ ТҮРКІЙ ХАЛЫҚЛАРЫ МАТЕРИАЛЛЫҚ ХӘМ МӘДЕНИЙ ТУРМЫСЫНДАҒЫ ИЗЛЕРИ

Нуриев Тимур Конгратбаевич

Таженов Азат Аскар улы

Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик Университети

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10071923>

**Аннотация.** Бул мақалада Орта Азия – жерлерин монголлар дәуириндеги тарийхын изертлеген белгилу илимпазлардың, Алтын Орда мәдени мийрасының Орта Азия түркий халықлары материаллық хәм мәдени турмысы haqqında sóz etilgen.

**Гилт сөз:** мәдени мийрас, тарийх, илимий жумыслар, монголлар, сиясат.

### TRACES OF THE CULTURAL HERITAGE OF ALTYN ORDA IN THE MATERIAL AND CULTURAL LIFE OF THE TURKIC PEOPLES OF CENTRAL ASIA

**Abstract.** In this article, it is written about the material and cultural life of the Central Asian Turkic peoples of Altyn Orda cultural heritage, who studied the history of Central Asia - gerians around the Mongols.

**Key words:** cultural heritage, history, scientific works, Mongols, politics.

### СЛЕДЫ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ АЛТЫН ОРДЫ В МАТЕРИАЛЬНОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ

**Аннотация.** В данной статье написано о материальной и культурной жизни среднеазиатских тюркских народов культурного наследия Алтын Орды, изучавших историю Средней Азии – герян вокруг монголов.

**Ключевые слова:** культурное наследие, история, научные труды, монголы, политика.

Монголлар дәуириндеги тарийхты изертлеу академик В.В.Бартольдтың тийкарғы мәселелериниң бири есапланған. Академик В.В.Бартольд XIX әсирдиң ақыры XX әсирдиң басында жасаған көрнекли рус шығыс таныўшысы хәм тарийхшысы. В.В.Бартольддың «Орта Азия монгол шабуылыўлары дәуиринде» (1963), Орта Азияның мәдени турмысы, тарийхы, «Чингисхан», «Шағатай» хәм тағыда басқа илимий жумысларында хәм Орта Азия жерлериниң көп әсирлик тарийхын уйренип монголлар дәуиринде кеңнен баха береди10. Бул мийнетин жазыўда В.В.Бартольд Европа, араб, парсы тиллериндеги жазба дереклерден кеңнен пайдаланған. Бунда автор монголлар дәуирине дейинги хәм монголлар ўақтындағы Орта Азия жерлерин тарийхий жақтан ўйренип, тарийхий ўақыяларды хәм фактлерди салыстырады.

В.В.Бартольдтың «Орта Азия монголлар шабылыў дәуириндеги» мийнетинде «монголлар хәм түрклер, монголлар хәм кара қытайлылар, хорезмшахлар хәм шынғысханлылар» деген белиминде монголлар менен Орта Азия жерлери арасындағы байланыслар, қатнаслар хәм де мәдени турмыстың раўажланыўына тоқталады.

Академик В.В.Бартольд Орта Азия жерлериниң атап айтқанда хорезмшах мәмлекетиниң монголлар тәрәпинен басып алыныўын илмий негизде бириншилер қатарында баха береди. В.В.Бартольд «Орта Азияға монголлардың жүриси, хорезмшах султаны Мухаммедтиң орынсыз хәрәкетлери себепшиси болады» деген пикирди айтады11. Бунда автор 1218-жыллардағы «Отрар катастрофасын» көзде тутады. Бул жылы

Хорезмшахтың шығармасындағы шегара қорғанларының бири Отрар да Чингисханның 500 түйеден турған кәрұан тоналған еди. Бул ўақыя Чингисханның батысқа жүрисин тезлеткени анық мәселе. В.В.Бартольдтың мийнетиндеги есапқа алынбаған мәселелердин бири монголлар жүриси ўақтындағы бұлгиншилиги экономикалық хәм мәдений кризисте жақсы бахалай билген.

В.В. Бартольд эсиресе араб Персия авторы Ибн ал Асир, Ата Мелк Ат Джубейни (XIII эсир) Рашидаддин (XIV э.) хәм басқа монголлардың бұлгиншиликлери хаққындағы мағлыўматлардан жоқары бахалай билгенлиги. Соның ушын да В.В.Бартольдтың айырым пикирлери совет – тарийх илиминде критикаланып келинди<sup>12</sup>. Соңғы ўақытлары совет тарийхшылары И.М.Майский 1884-1975 ж.ж., М.П.Петрушевский 1898-1977 ж.ж., С.А.Тихвинскийлер монголлардың бизиң елимиз территориясына басып кириўи оның дүньяны ийелеў ушын болған сиясатының бир бөлеги ретинде қарайды. Академик М.П.Петрушевский Чингисхан планлары тек ғана Орта Азияны толық бағындырып алыў ғана емес: бул жүрис Батыс хәм Шығыс Европаны басып алыўдың алды ғана еди усы мақсетте Чингисхан еле қолға киргизилмеген Әмиўдәрья хәм Арал теңизи бойлары, Иртегистин шығысындағы жерлерди өзиниң баласы Жочи хәм оның әўладларына үлес етип береді деген пикирде болған.

Орта Азия жерлериниң монголлар дәўириндеги тарийхын изертлеў айрым советлик дүзим дәўириниң шығармаларында орын алған. Академик И.М.Майский, профессор И.Я.Мерфет, В.Т.Пашуто, Л.В.Черепнин хәм тағы басқалар өз шығармаларында Чингисхан дәўириниң зулымлықларын ашып көрсетти.

Илимпаз М.Кутлуков «Шығыс Түркистандағы монголлар үстемлиги» деген илимий мақалаларында Орта Азия жерлериндеги бұлгиншиликти жазба дереклер негизинде үйренеди. М.Кутлуков өз мийнетин жазарда Қытай хәм уйғыр жазба дереклеринен көбирек пайдаланған. Биз бул мақаладан басқа Орта Азия жерлериндегидей уйғыр феодаллардың монголларға еткен хызмети есабынан үлкен пайда түсиргенлигин көремиз<sup>13</sup>.

XX эсирдеги Евразия тарийхын изертлеўшилердин қатарында монголлар дәўириндеги Орта Азия жерлериниң тарийхын үйрениўге өз үлесин қосқан көрнекли илимпазларының И.П.Петрушовский болғаны есапланады. Автор «1219-1224 жыллардағы монгол әскерлериниң Орта Азияға жүриси хәм оның ақыбетлери» деген мақаласында, «XIII-XIV эсирдеги Ирандағы егиншилик хәм аграр қатнастары» атлы (1960-1961 ж.ж.) китабында Орта Азия жерлериндеги монголлар дәўириндеги тарийхий жағдайы үйренилген. Бизиң магистирлик диссертациямыз ушын И.П.Петрушевскийдин «1219-1224 ж.ж. монгол әскерлериниң Орта Азияға жүриси хәм оның ақыбетлери» атлы мийнети жүдә бахалы, бул көлемли мақала биринши рет 1970-жылы «Татаро-монголы в Азии, в Европе» деген атлы арнаўлы китаб жыйнақта басылып шықты<sup>14</sup>.

Мақала «жазба дереклер хәм изертлеўлер, «XIII эсирдин басындағы Хорезмшахлар мәмлекети», «Хорезмшах хәм Чингизхан», Урыстың себепшиси ким болды?» урыстың себеплери хәм монголлардың әскерий жеңислери Орта Азия жерлерин монголлардан басып алыў барысы х.т.б. да бөлимлерден турады.

М.П.Петрушевский бул мақаласында Орта Азия жерлериндеги тарийхий жағдайларға тоқтап Хорезмшах хәм Чингизхан ортасындағы даў жәнжаллардың урысты келтирип шығарыў себеплерин үйренеди хәм терең анализ жасайды.

Орта Азия – жерлерин монголлар дәуириндеги тарийхын изертлеген белгили илимпазлардың бири А.Ю.Якубовский болып есапланады. А.Ю.Якубовский монголлар мәмлекетиниң бири, Алтын Орда тарийхын изертлеўши илимпаз, бирақ А.Ю.Якубовский Орта Азия халықлары тарийхын изертлеўши ретинде кеңнен мәлим. Орта Азия ҳаққында белгили жери Өзбекстан тарихы менен монголлар дәуири бойынша да өз пикирин айтқан илимпаз есапланады. А.Ю.Якубовский «Өзбекстан халықлары тарийхы» I томында, «Өзбекстан СССР тарийхы» I том китабынан жазғанда монголлар дәуирине де анализ жасайды.

А.Ю.Якубовский бул китабындағы өз мақалаларында монголлар дәуириндеги Хорезм, Бухара жерлериндеги сиясий экономикалық жағдай материаллық мәдениеттағы өзгерислерге, руўхый мәдениеттағы жетискенлерге тоқтаған.

А.Ю.Якубовскийдиң монголлар дәуириндеги Хорезм, Орта Азия жерлерине арналған ири мийнетиниң бири Махмуд Тарабий басшылығы 1238-жылғы Бухарадағы көтерилиске арналған изертлеў жумысы Орта Азиядағы монголларға қарсы болған азатлық ҳәрекетиниң жағдайлары барысы себеплерине кеңнен тоқтайды. Бул 1338-жылғы көтерилис монгол езгени менен қарсы болған ири халық наразылықларының бири Махмуд басшылығындағы көтерилислер Бухараны ийелеп оның дөгерегиндеги аўылларға да тараған.

Жуўмақлап айтқанда А.Ю.Якубовскийдиң «1238-жылғы Тарабий көтерилиси» мийнети Орта Азия тарийхын үйрениўге монголлар дәуири бойынша мағлыўмат береді.

А.Ю.Якубовский Хорезм жерлериндеги монголлар дәуириндеги қала мәдениаты ҳаққындағы ири мийнетлериниң қатарына «Ургенш қара бақанасы» (1930), «Миздахкан қалашасы» (1930), мийнетлери үлкен орын ийелейди. Бул мийнетлерди жазыўда А.Ю.Якубовский 1928-1929 жыллардағы өзиниң усы жерлериндеги археологиялық изертлеўлери ҳәм де жазба дереклердеги мағлыўматларға негизленип Ургениш ҳәм Миздахкан арасындағы байланысты, қоңсылық қатнастарды экономикалық мәдени, сиясий жарысларды үйренеди. Миздахкан ҳәм Ургенш XIII-XIV әсирлерде өмир сүриў менен қатарда, өз-ара мәдени ҳәм экономикалық жарыслардың болғанлығын айтады.

Монголлар дәуириндеги Орта Азия, Хорезм жерлери ҳаққында өз пикирин айтқан изертлеўшилердиң қатарына илимпаз, илимлер академиясының хабаршы ағзасы С.П.Толстовты атап өтиў орынлы.

С.П.Толстов тарийхшы археологлар арасында Хорезм мәдениаты ислерин изертлеўши ретинде кеңнен белгили. С.П.Толстов монголлардың Хорезм жерлериндеги устемлиги дәуириндеги мәдениет қалдықларын изертлеў жолы менен Ана жер Орта Азияның монголлар дәуириндеги тарийхын үйрениўде өз үлесин қосты.

Илимпаз бул китапларында монголлар дәуирине дейинги Арал бойы, Хорезм оазисиндеги сиясий-экономикалық көтерилиўге жоқары баха берип, татар-монгол басқышларының урысларынан кейин, апатшылық ҳәм мәдени төменлеўшиликтиң болғанын көрсетеди. С.П.Толстов Алтын Орда дәуиринде шеп жағадағы Әмиўдәрья бойларында жаңа қала мәдениаты ҳәм егиншиликтиң қайтадан көтерилиўи себеплерин көрсеткен. Автор бул мәдени көтерилиўди былай характерлейди: «бул мәмлекеттиң басшылары Хорезм мәдени традицияларын өз мәплери ушын пайдаланыўға қызықты. Волга бойындағы Орда қалаларының пайтахты жаңа қалаларды қурыў керек болды,

тонаўшылық урысларында байыған орда феодалларына күнделікли товарларды бай безеу затларын өндириўди шөлкемлестириў керек болды. Әсиресе оларға дән хәм мийўе хәм басқада егиншилик өнімлери керек болды<sup>15</sup>. С.П.Толстовтың тиккелей көрсетпеси менен Арал бойларының орта әсирдеги дурдана естеликлери Шемаха қала (1948), Гөне Ургенш (6-сүрет), Шах-Санем (1962), Шехрлик (1963-1966) изертленди. Орта Азия жерлериниң монголлар дәуириндеги тарийхый жағдайы «Қазақстан тарийхы» II-том, китабынан да билемиз.

Орта Азия үлкесиниң шет жерлериниң бири есапланған Хорезм жерлери ҳаққындағы XIII-XIV әсирлерге тийисли мағлыўматты биз илимпаз М-Ш.Қдыраниязовтың мийнетлери менен танысыў арқалыда билемиз. Илимпаздың «Материальная культура городов Хорезма XIII-XIV веков» (Н.-1989), «Алтын Орда дәуирдеги Түслик Арал бойы мәденияты» (Н. 1995) х.т.б. мийнетлери арқалы уйрениўге болады.

10 Бартольд В.В. Соч. Т. I. 43-611 бетлер.

11 Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Т. I. стр. 472-473

12 Татаро-монголы в Азии и в Европе. М. 1977, стр. 3-8.

13 М.Кутлуков «Монгольского господство в Восточном Туркестане» Бул мақала «Татаро-монголы в Азии и Европе» китабының 85 бетинде жайласқан.

14 М.Кутлуков «Монгольского господство в Восточном Туркестане» Бул мақала «Татаро-монголы в Азии и Европе» китабының 85 бетинде жайласқан.

15 Толстовтың бул пикирин биз М-Ш.Қдыраниязовтың «Алтын Орда дәуириндеги түслик Арал бойы мәденияты» деп аталған китабынан алдық. 9-б.

Жуўмақлап айтқанда Хорезм, Бухара хәм Орта Азияның монголлар дәуириндеги тарийхын уйрениў бойынша XIX-XX әсирде көплеген илмий мийнетлер пайда болды. Негизинен, китаптарда монголлар дәуириндеги Орта Азия жерлери ҳаққында мағлыўматлар жыйналып хәр тәреплеме илмий анализ жасаған. Изертлеўшилердиң арасында академик В.В.Бартольд хәм И.П.Петрушевскийлердиң мийнетлерин айрықша хәм жетекши орында турады. А.Ю.Якубовский хәм С.П.Толстовлар монголлар дәуири тарийхын археологиялық мағлыўматлар негизинде жақсы үйренген.

Бирақ, Хорезм хәм Орта Азияның басқа да областларының монголлар дәуириндеги жағдайын еледе теренирек үйрениў ғәрезсизлик жағдайында мүмкин болып отыр. Бурын тоталитар дүзим дәуиринде Орта Азия тарийхына Европаша көз қараста қараў, үстемлик етип келген еди. Бүгинги күни Ана жер Орта Азия өтмишин үйрениўге мүмкиншилик туўылды. Орта Азия тарийхын жаңа ғәрезсизлик көз-қараста үйрениў руўхый мәденияттағы жетискенликлеримизди дурыс баҳалай билиўге мүмкиншилик береді.

## REFERENCES

21. Jiyenbaevich M. I. Competence-based approach in higher musical and professional education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 4. – С. 42-47.
22. Moyanov I. TRAINING AND DEVELOPMENT OF ART PERSONNEL //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 65-69.

23. Jiyeubaevich M. I. COMPETENCE-BASED APPROACH IN HIGHER MUSICAL AND PROFESSIONAL EDUCATION //PROMINENCE OF INFORMATION BASES& MEDIA ASSESSMENTS IN THE POST CONFLICT MARKETING ENVIRONMENT.
24. Моянов Ы. Д. ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИ МУСИҚИЙ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ: Моянов Ыкласбай Жийенбаевич Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали, «Халқ ижодиёти» кафедраси в. в. б доценти. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 5.
25. Моянов Ы. Д. ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИ МУСИҚИЙ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 5.
26. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
27. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
28. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 509-511.
29. Tajimuratova Shakhnoza Saginbaevna. (2022). MANAGEMENT AND STUDY OF CULTURE AND ART. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 758–762.
30. Sag'inbaevna, T. S. (2023). Cultural Life in Uzbekistan during the Years of Independence. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 18, 39-41.
31. Ануаровна О. Р. ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚ КУЙЛАРИ ВОСИТАСИДА БОЛАЛАР ИЖОДҚОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. – 2023.
32. Anuarovna U. E. IMPROVING THE MECHANISMS OF EDUCATING STUDENTS IN THE SPIRIT OF INTER-ETHNIC HARMONY BASED ON NATIONAL MUSIC IN THE CONDITIONS OF ETHNO-CULTURAL RELATIONS //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 09. – С. 329-333.
33. БОЛАЛАР Қ. Х. К. В., РИВОЖЛАНТИРИШ И. MODERN SCIENCE AND RESEARCH //MODERN SCIENCE. – 2023. – Т. 2181. – С. 3906.
34. Ospanova R. DEVELOPMENT OF CHILDREN'S CREATIVITY THROUGH BLACK FOLK SONGS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 70-73.
